

# PEDAGOGIK MAHORAT

**11**  

---

**2023**



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**11-son (2023-yil, dekabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2023**

<https://buxdu.uz>

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2023, № 11

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti*

*Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti*

*Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 11, 2023

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель: Бухарский государственный университет**

**Адрес редакции:** 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор*

*Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)*

*Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)*

*Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)*

*Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор*

*Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор*

*Курбонова Гулноз Нематовна, доктор педагогических наук (DSc)00*

*Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор*

*Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор*

*Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент*

*Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)*

*Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD)*

## PEDAGOGICAL SKILLS

### The scientific-theoretical and methodical journal

№ 11, 2023

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### EDITORIAL BOARD:

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Editor:** Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

*Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov*

*Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)*

*Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova*

*Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov*

*Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov*

*PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev*

*PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev*

*PhD in Economics Sciences, Layli B. Navruz-zade*

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
<b>DOLZARB MAVZU</b>			
1.	<i>QARSHIBOYEVA Gulnoza Abduqodirovna, NAHALBOYEVA Nigora Turdi qizi,</i>	O‘smirlarda depressiv xulqning psixologik muammolari	8
2.	<i>RAHMATOV Faxriddin Umarovich</i>	Voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvor muammosini nazariy va empirik tahlil etish	14
3.	<i>КУЛИЕВ Ёркин Каримович</i>	Некоторые особенности коррупции в сфере образования	20
<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA</b>			
4.	<i>АЛЛАЁРОВ Музаффар Мингалиевич</i>	Бўлажак спорт мураббийларининг коммуникатив қобилиятини ўрганишнинг педагогик асослари	24
5.	<i>ABDIEVA Gulara Babaniyazovna</i>	Umumta’lim maktablarida loyihaga asoslangan ta’limdan foydalanish	28
6.	<i>DILOVA Nargiza Gaybullayevna</i>	Oliy ta’limda o‘qitiladigan ijtimoiy gumanitar fanlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash mazmuni	32
7.	<i>ASRAYEV Zafar Rizakulovich</i>	O‘quv jarayonida virtual laboratoriya imkoniyatlaridan foydalanish	39
8.	<i>ESHONQULOV Hakim Ilhomovich</i>	Oliy ta’limda innovatsion o‘qitish usullari	45
9.	<i>FAYZIYEVA Dildora Hayotovna, RAJABOVA Gulchehra Salomovna</i>	Talaba-yoshlar mediakompetentligini rivojlantirishda amaliy topshiriqlarning o‘rni	51
10.	<i>FAYZIYEVA Malikajon Choshovna</i>	The importance of diversity, equity, and inclusion in higher education	56
11.	<i>FAYZIYEVA Umida Asadovna</i>	O‘qituvchi shaxsi va kasbiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar	60
12.	<i>FAYZULLAYEVA Madina Abdumo‘min qizi</i>	Ta’lim jarayonini 3D asosida tashkil qilish va rivojlantirish	64
13.	<i>HAYDAROV Latifjon Rustamovich</i>	Talabalarning shaxsiy sifatlarini hamkorlik jarayonida rivojlantirish metodi	68
14.	<i>JAMOLOV Shaxboz Jamil o‘g‘li</i>	Bo‘lajak texnologlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish tizimi	73
15.	<i>JO‘RAYEV Qo‘ldoshjon Ismatullo o‘g‘li</i>	Talabalarda psixologik kompetentlikni shakllantirish mexanizmlarining amaliy xususiyatlari	78
16.	<i>JUMAYEV Axrom Asror o‘g‘li</i>	Bo‘lajak energetik muhandislarda kreativlikni shakllantirish mazmuni va usullari	82
17.	<i>MAXAMMATOVA Ma‘muraxon Jalillovna</i>	Tanqidiy fikrlash va uning ta’limdagi ahamiyati	86

18.	<b>MAXMUDOVA Zulfiya Mexmonovna</b>	Qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik diagnostikasi	90
19.	<b>NURMATOV G‘ayrat Mustofoqulovich</b>	Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy prognostik kompetensiyalarini rivojlantirish shart-sharoitlari	100
20.	<b>NURUMBEOVA Yarkinay Anarmatovna</b>	Bo‘lajak mutaxassislarni kouching kompetensiyasini shakllantirishdagi asosiy komponentlar	106
21.	<b>OLIMOV Laziz Yarashovich</b>	Sud-psixolog eksperti kompetentligining o‘ziga xosligi	111
22.	<b>OTAYEVA Salamat Sabirovna</b>	STEAM ta‘limi texnologiyasi asosida ilmiy qarashlarni tarkib toptirish	118
23.	<b>QODIROV Ikrom Davronovich</b>	Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari asosida tarix darslarini samarali tashkil qilish usullari	123
24.	<b>QURBONOV Shuhrat Zarifovich</b>	STEAM fanlarni modellashtirishda dasturlar majmuasining afzalliklari	127
25.	<b>SAYLIYEVA Gulrux Rustam qizi</b>	Talabalarning o‘qitilayotgan fanlarga qiziqishini oshirishda foydalaniladigan samarali pedagogik metodlar	131
26.	<b>TURDIMURODOV Baxtiyor Qurbonovich</b>	Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘rganishda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari	135
27.	<b>UMAROV Lutfillo Murodilloyevich</b>	Uzluksiz ta‘lim yaxlit makonini modellashtirishda integrativ yondashuvni amalga oshirishning nazariy tahlili	141
28.	<b>USMONOV Abdurashid Norbo‘tayeich</b>	Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilar bilan olib boriladigan faoliyat mazmuniga doir tadqiqotlar	145
29.	<b>UTAMURADOV Umarjon Muxammadkulovich</b>	O‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning yo‘naltiruvchi modeli	150
30.	<b>YO‘LDOSHEV Sardorbek Asliddin o‘gli</b>	Xorij olimlari tomonidan sibling munosabatlarini o‘rganishda ijtimoiy-psixologik jihatlarining ahamiyati	156
31.	<b>ZARMASOV Sherzod Raximberdiyevich</b>	Kasbiy refleksiya asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligini rivojlantirish	161
32.	<b>АТАЕВА Гульсина Исроиловна</b>	Парадигмы программирования и способы обучения программированию	166
33.	<b>АХМЕДОВА Дилноза Эшназар кизи</b>	Масофали ўқитиш воситасида талабаларнинг аудиториядан ташқари мустақил таълимини ташкил этишнинг методикаси	173
34.	<b>КАМОЛОВА Ширин Ўсаровна</b>	Талабалар илмий дунёқарашини юксалтиришининг ахборотли таъминотининг педагогик самарадорлиги	176
35.	<b>НУРАЛИЕВА Парвина Эркиновна</b>	Цифровые компетенции как основа трансформации профессионального	182

		образования	
36.	<b>САМАРОВА Шохиста Рабиджановна</b>	Педагог фаолияти самарадорлигининг шахслилик детерминантлари	186
37.	<b>ТОЖИБОЕВ Марат Нормадович</b>	Индивидуал ёндашув асосида талабалар педагогик тафаккурини ривожлантириш масалалари	191
38.	<b>NAZAROVA Manzura Mustafu qizi</b>	O‘zbekistonda o‘qish va yashashda chet ellik talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuv shartlari	196
39.	<b>КАХАРОВА Дилдора Сидиққовна</b>	Педагогические и психологические факторы социальной защиты молодой семьи	201
40.	<b>МАМАЖОНОВ О‘tkirbek Tajiddinovich</b>	Bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirishda o‘quv tarbiya jarayoniga aksiologik va deontologik yondashuvlarning imkoniyatlari	205
<b>МАКТАБГАЧА ВА БОШLANG‘ICH TA’LIM</b>			
41.	<b>BEKCHANOVA Feruza Marimboy qizi</b>	Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish	209
42.	<b>KORAYEVA Latifa Zarifovna</b>	Boshlang‘ich sinf bolalarida o‘quv faoliyatining xususiyatlari	215
43.	<b>QODIROVA Malikaxon Qaxramonovna</b>	Maktabgacha yoshdagi bola idrokini mashg‘ulotlar va o‘yinlar orqali shakllantirish	219
44.	<b>RAVSHANOV Jamshid Fayzullayevich</b>	Maktab o‘quvchilarida tahliliy kompetensiyani shakllantirish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlarini takomillashtirish	223
45.	<b>TURDIQULOVA Luiza Zayniddinovna</b>	Maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	228
46.	<b>КАМИЛОВА Гулмира Алимовна</b>	Maktabgacha ёшдаги болаларда паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантириш тамойиллари	232
47.	<b>МУСТАФОЕВ Немат Сафоевич</b>	Обучение решению задач по математике в первом классе начальной школы с использованием задач сказочного содержания	237
48.	<b>ОМОНОВА Dildora Nekturod qizi</b>	Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishni loyihalashtirish metodikasi	241
49.	<b>MIRZAYEVA Dilfuza Shavkatovna</b>	Art texnologiyalari vositasida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini estetik tarbiyalash	245
50.	<b>ATAJONOVA Anorgul Jumaniyazovna</b>	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida media ta’lim ijtimoiy zaruriyat sifatida	249
51.	<b>SANOYEV G‘aybullo Abduraxmonovich</b>	Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ajdodlar merosini o‘rganish orqali o‘quvchilar savodxonligini oshirishning dolzarbligi va mazmuni	253



## DOLZARB MAVZU

### O‘SMIRLARDA DEPRESSIV XULQNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

*Qarshiboyeva Gulnoza Abduqodirovna,*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, psixologiya f.f.d.*

*Nahalboyeva Nigora Turdi qizi,*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti*

*Maqolada o‘smirlarda depressiv xulqning psixologik muammolari haqida so‘z yuritilib, bunda o‘smirlik davrini inqirozli davrga aylantirib qo‘yadigan sabablar juda ko‘p bo‘lib, bolalarning jinsiy yetilishi, ularda kattalik hissining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, mustaqillikka bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi va h.k. sabablarning tahliliga bag‘ishlab qator maqolalar yozish mumkin. O‘smir shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o‘ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba‘zan shaxsning sog‘lom munosabatlari va sog‘lom turmush tarzini belgilasa, ba‘zan esa nosog‘lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi.*

**Kalit so‘zlar:** *o‘smir, shaxs, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, sog‘lom munosabatlar, turmush tarz, nosog‘lom, xulq-atvor, imkoniyat.*

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ДЕПРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

*В статье рассматриваются психологические проблемы депрессивного поведения у подростков, причины, которые превращают подростковый возраст в кризисный период, а именно: половое созревание детей, появление и развитие у них чувства взрослости, повышенная потребность в самостоятельности и т.д. Можно написать ряд статей, посвящённых анализу причин. Социально-психологические особенности личности подростка обладают такими специфическими возможностями, что иногда определяют здоровые взаимоотношения и здоровый образ жизни личности, а иногда создают возможность возникновения нездорового поведения.*

**Ключевые слова:** *подросток, личность, социально-психологические особенности, здоровые отношения, образ жизни, нездоровый, поведение, возможности.*

### PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF DEPRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

*The article discusses the psychological problems of depressive behavior in adolescents, the causes that turn adolescence into a crisis period, namely: puberty of children, the emergence and development of a sense of adulthood, an increased need for independence, etc. a number of articles can be written on the analysis of the causes. The socio-psychological characteristics of a teenager's personality have such specific capabilities that sometimes determine healthy relationships and a healthy lifestyle of the individual, and sometimes create the possibility of unhealthy behavior.*

**Keywords:** *teenager, personality, socio-psychological characteristics, healthy relationships, lifestyle, unhealthy, behavior, opportunities.*

**Kirish.** Jahon yoshlari orasida ishsizlik muammosi ham bugunga kelib eng dolzarb mavzuga aylandi. Hozir, hatto, eng rivojlangan mamlakatlarda yoshlar bandligini ta‘minlash katta muammoga aylandi. Ularning ko‘pchiligi xorijda ish topaman deb odam savdosi atalmish jirkanch jinoyatning qurboniga aylanmoqda. Dunyo yoshlari orasida giyohvandlik, jinoyatchilik soni ortib bormoqda. Ayniqsa, giyohvand moddalarni iste‘mol qilayotganlar orasida 13-14 yoshli o‘smirlarning borligi katta fojia. Bu illat oilalarda nogiron farzandlarning dunyoga kelishi, naslning buzilishi, oilaviy ajralishlarning ortishi, jinoyatchilik va boshqa illatlarning asosi hisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida mustahkam tashkiliy va huquqiy baza yaratilgan. Xususan, o‘tgan yillar davomida Asosiy qonunimiz va kodekslardan tashqari yoshlar siyosatiga oid 20 dan ortiq qonun, yuzga yaqin farmon va qaror qabul qilindi. O‘zbekiston yoshlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatni ratifikatsiya qilgan.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishga mamlakatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri sifatida jiddiy e‘tibor berilmoqda. Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ularning yoshiga qarab bevosita cheklab qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday xatti-harakatlar amaldagi qonunlarga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Konstitutsiyamizning 45-moddasida voyaga yetmaganlar huquqlari davlat himoyasida ekani belgilab qo‘yilgan. Asosiy qonunimizning 64-moddasida esa ota-onalar o‘z farzandlari voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekani, davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalari vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlashi bolalarga yo‘naltirilgan xayriya faoliyatini rag‘batlantirishi qayd etilgan.

**Asosiy qism.** Bu sohada erishilgan yutuqlarni e‘tirof etgan holda yoshlar huquqlarini himoya qilish sohasida quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazib, ularning o‘zaro muvofiqlashgan yagona bazasini shakllantirish, zamon talabidan kelib chiqib, ko‘pgina yangi qonunlarni, xususan — Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risidagi Qonunning yangi tahririni qabul qilish;

- O‘zbekiston Prezidenti asarlarida voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha bildirilgan fikr-mulohazalar qonun hujjatlarida o‘z ifodasini topishini monitoring qilish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli va ta‘sirini kuchaytirish;

- voyaga yetmaganlar huquqini buzgan shaxslar javobgarligini kuchaytirish;

- bu sohada ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilishni qonun bilan tartibga solish borasida boshqa davlatlar tajribasini o‘rganish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha doimiy ravishda jamoatchilik fikrini o‘rganishni tashkil etish.

Umuman, yoshlarga ko‘rsatilgan g‘amxo‘rlik ularning barkamolligini ta‘minlash bilan bir qatorda, Vatanimizning iqtisodiy, siyosiy, intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.<sup>1</sup> Voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi jarayoni shaxs xususiyatlari bilan tashqi muhit voqea-hodisalari o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishli jarayon bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonda o‘smir shaxsi sub‘ekt sifatida tashqi muhit axborotlarini qabul qiladi va qayta ishlaydi. Ob‘ekt sifatida esa tashqi muhit elementlari shaxsga ta‘sir etuvchi element sifatida ifodalanadi. Sub‘ekt va ob‘ekt o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir mutanosibligini ta‘minlash esa voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi kelib chiqishining oldini olishga xizmat qiladi.[3]

**Materiallar va tadqiqot metodlari.** O‘smir shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o‘ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba‘zan shaxsning sog‘lom munosabatlari va sog‘lom turmush tarzini belgilasa, ba‘zan esa nosog‘lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu xususiyatlar o‘smirlarda g‘ayriqonuniy xulq-atvor kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jihatdan ta‘sirchan tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko‘rsatadi.[5]

Bu esa profilaktik tadbirlarni o‘smirning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borishini taqazo qiladi. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish tadbirlari samaradorligi va ularning ta‘sirchanligi, eng avvalo, o‘smir shaxsidagi ijobiy fazilatlar, ijtimoiy foydali ehtiyoj va qiziqishlarning shakllanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu ma‘noda o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar va mashg‘ulotlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning dastlabki profilaktikasi sifatida xizmat qilishi kerak. [3]

Tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, psixologlar va pedagoglar tomonidan moslashmagan xulqning oldini olishga qaratilgan bir qator tavsiyalar, maslahatlar ishlab chiqilgan. Tadqiqotchi E.A.Gorshkova tarbiyasi qiyin o‘smirlarning sinf jamoasi bilan bo‘ladigan munosabatlarini sog‘lomlashtirish voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik xulqining oldini olishda muhim omil sifatida o‘rin tutadi, deb ta‘kidlaydi va quyidagi psixologik-pedagogik tavsiyalarni o‘rtaga tashlaydi:

1. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning sinf jamoasidagi o‘rni va uning sinfdoshlar, atrofdagilar bilan bo‘lgan munosabatlarini sog‘lomlashtirish.

2. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning shaxs xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda ijobiy shaxs sifatlarini shakllantirishga erishish.

3. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning sinf va maktab jamoasidan izolyatsiyalanishi (ajralib qolishlik) ning oldini olish tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirish.

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019-y., 07/19/4477/3867-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 07/22/436/1061-son.

4. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarni qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib sinfda va sinfdan tashqarida o‘tkaziladigan tadbirlarga jalb qilish.

5. Maktab jamoasi a‘zolarida sog‘lom psixologik munosabat hissini shakllantirish.

6. Maktab jamoasida tarbiyasi qiyin o‘smirlarga nisbatan ijobiy munosabat ruhini yuzaga keltirish.

7. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning ustun shaxs xislatlari, jismoniy barkamolligidan kelib chiqib, ulardan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish, sinfdan tashqari ishlarda ularga sardorlik, boshqaruvchilik ishlarini topshirish mumkin.

Bu orqali yo‘shlarda o‘ziga-o‘z nisbatan bo‘lgan ishonchini orttirish, ijtimoiy voqea-hodisalarga nisbatan bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga erishish mumkin. Bulardan ko‘rinadiki, shaxs xulqidagi og‘ishni tuzatishga harakat qilishda, eng avvalo, o‘smir shaxsiga, uning ijtimoiy muhitga nisbatan moslashishiga hamda o‘smirning motivatsion ehtiyojlar sohasini o‘zgartirishga, nosog‘lom turmush tarzi va tarbiya muhitini sog‘lomashtirishga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘smirlardagi mavjud bo‘lgan ijobiy sifat va xususiyatlariga tayangan holda ularda har tomonlama qiziqishni, birinchi navbatda, o‘qishga, mehnatga, ijtimoiy foydali faoliyatga nisbatan bo‘lgan qiziqishlarni rivojlantirish zarur bo‘ladi. [5]

O‘smirlik davrini inqirozli davrga aylantirib qo‘yadigan sabablar juda ko‘p (bolalarning jinsiy etilishi, ularda kattalik hissining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, mustaqillikka bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi va h.k.). bunday sabablarning tahliliga bag‘ishlab qator maqolalar, risolalar yozish mumkin. Biroq farzandining —tilini topa olmayotgan, u bilan psixologik aloqa o‘rnatishga qiynalayotgan har biro ta-onani farzandidagi o‘zgarishlarning sabablaridan ko‘ra shunday vaziyatlarda qanday yo‘l tutishi kerakligi, nima qilish mumkinligi ko‘proq qiziqtiradi. Shu tufayli ushbu bo‘limda asosiy urg‘u o‘smir yoshdagi bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi psixologik aloqani, muloqotni yaxshilash uchun nimalar qilish maqsadga muvofiqligiga qaratildi. Ushbu bandeda farzand tarbiyasida qo‘l keladigan tayyor —retseptlar yo‘q, unda barcha vaziyatlarga birdek mos keluvchi tavsiyalar ham uchramaydi. Ota-onalarga farzandi bilan qanday muloqot qilishni o‘rgatish niyati ham ko‘zlanmaydi. Zero, har bir oilada bu borada o‘ziga xos tajriba, an‘ana va qoidalar borligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Demak, bundan ko‘zlangan bosh maqsad – mutaxassislarning amaliy tavsiyalarini (ko‘rsatmalarini emas, aynan tavsiyalarini) o‘quvchiga etkazish, uni jonli mushohada va mulohazaga undashdir. [2]

Avvalo, shunga e‘tibor qaratish kerakki, o‘smirlik yoshida ota-onaning bola ko‘z o‘ngidagi mavqei bir muncha pasayadi. Maktabgacha yosh davrida, kichik maktab yoshida ota-onasini eng kuchli, aqlli va chiroyli, deb hisoblaydigan bolalar o‘smirlik yoshiga etib, aslida ularning ota-onalarida ham talay kamchiliklar borligini payqay boshlashadi. Umuman, bu davrda tengdoshlar mavqei oshib, kattalarga nisbatan tanqidchan munosabat kuchayadi.

Ota-ona va o‘smir bola o‘rtasida vujudga keluvchi nizolarga ko‘pincha quyidagilr sabab bo‘ladi: bolaning do‘st va o‘rtoq tanlashda adashishi, turli joylarga va tadbirlarga ko‘p borishi hamda bu erlarda uzoq qolib ketishi, kiyinishi va tashqi ko‘rinishida antiqa o‘zgarishlar qilishi, uy yumushlari bo‘yicha turli topshiriqlarni bajarmasligi, aka-ukalar va opa-singillar bilan tortishishlari, ota-ona va katta avlod vakillariga nisbatan hurmatsizlikni ochiq namoyon etishi.[7]

O‘smir bola hamda ota-ona o‘rtasidagi nizo va tushunmovchilikdan butunlay holi bo‘lgan biror oilani topib bo‘lmaydi. Ammo tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, juda jiddiy nizolar 15-20% oilalardagina ro‘y beradi. O‘rtadagi nizolarga qaramay ko‘pchilik o‘smirlarda ota-onaga ishonch, hurmat yuqori darajada saqlaniv qoladi, o‘smir ota-onaning maqtovarlarini hamda e‘tiroflarini juda yuqori darajada qadrlaydi. Mana shunday qadrni, hurmatni, munosabatlardagi iliqlikni saqlab qolish, mustahkamlash va rivojlantirish uchun psixolog mutaxassislarning ota-ona hamda farzand o‘rtasidagi psixologik aloqani yaxshilash maqsadiga xizmat qiluvchi ushbu tavsiyalarga quloq tutish ayni muddao bo‘lardi:

1. Ota-ona farzandining xulq-atvori yuzasidan o‘zining munosabatini bildirmoqchi bo‘lganda, —Sen xabar uslubidan emas, — Men xabar uslubidan foydalangani ma‘qul. Bu degani —Sen kecha aytganimni qilib qo‘ymabsan, —Sen nega doim odamni javratasan, —Sen qayerdan topding bu qiliqnil kabi mulohazalar o‘rniga —Men kecha aytganimni qilib qo‘ymaganingdan biroz ranjidim, — Men hech tushunmayman nega odamni javrataverasan, — Men bilmadim, bu qiliqni qayerdan topding kabi mulohazalarni ishlatish kerak. Zero, bu bolaga bo‘lgan hurmat va ishonchni namoyon etadi, o‘rtadagi qarama-qarshilikni anchagina susaytiradi.

2. Ota-ona bolaning biror fikrini ma‘qullamoqchi bo‘lganda, shunchaki “ha” yoki “mayli” deb aytishdan ko‘ra quyidagi turdagi mulohazalardan foydalangani ma‘qul: “Agar sen shunday qilishni xohlayotgan bo‘lsang, “Mayli sen aytganday bo‘lsin”, “Senday bunday qilishingga men qarshi emasman”, “Buni men emas, sen hal etasan-ku”. Zotan, bu ota-ona bolaga mustaqil shaxs sifatida ishonayotganini, uning shaxsiy mustaqilligini tan olayotganini ko‘rsatadi.

3. Ota-ona farzandiga nimanidir taqiqlamoqchi bo‘lganda, quyidagi mulohazalarni berilgan ketma-ketlikda bildiradigan bo‘lsa, bola taqiqni unchalik og‘ir qabul qilmaydi:

a) ota-ona bolada muayyan istak paydo bo‘lgani o‘rinli ekanini tan oladi – “Biz bugun kinoga borib kelayotganini yaxshi tushunayapmiz”.

b) ota-ona bolaning biror bo‘yicha taqiqni aniq belgilaydi – “lekin biz senga ruxsat bera olmaymiz, chunki ertaga maktabga tayyorlab borish kerak bo‘lgan darslaring ko‘p”;

v) ota-ona bolaga o‘z istagini boshqa holatda amalga oshirish imkoniyati bo‘lishi to‘g‘risida aytadi – “Shanba kuni esa bo‘sh vaqting ko‘proq bo‘ladi, ehtimol shu kuni borish to‘g‘ri bo‘lar”;

g) ota-ona bolaga oilada hukm-suruvchi tartib-qoidalardan norozilik bildirishi uchun yordam berib yuboradi “Shubhasiz, sen bunday taqiqlar bo‘lmasligini xohlarding”, “Albatta, hozir ruxsat bermayotganimiz senga yoqmayapti”, “Balki, biz umuman noto‘g‘ri qilayapmiz, deb hisoblayotgan bo‘lsang ajab emas”. Eng muhimi, aytilayotgan taqiqlar bola sha‘nini kamsitmaydiganshakda bildirilishi kerak: Ish kunlari kinoga borilmaydil degandan ko‘ra, “O‘zing yaxshi bilasan, ish kunlari kinoha borib, boshqa muhim ishlar qolib ketishi mumkin”, deb aytgan ma‘qul.

4. Ota-ona bola ulg‘ayib borgan sayin oilaviy muhokamada uning ovozi ham asta-sekin ko‘p narsalarni hal etadigan darajaga etishi uchun sharoit yaratishi kerak. Turli muammolarni muhokama qilishda, bahslarda ota-ona o‘zining nohaqligini tan olishdan qo‘rqmasligi lozim. Bordi-yu o‘rtada nizo vujudga kelsa, ota-ona birinchi bo‘lib, yarahish tomon qadam tashlashi maqsadga muvofiq. Bunda ota-ona o‘z fikrlarini “Kechirasan, men seni yaxshi ushunmadim, shekilli. Biroz qizishib, ayrim keraksiz narsalarni ham aytib yuborganga o‘xshayman. Hozir men biroz shoshganimni bilayapman. Seni tushunishni judajuda xohlayman. Qani kel, bir boshidan kata odamlardek gaplashib olamiz” degan so‘lzar bilan boshlagani ma‘qul.[5]

Bir so‘z bilan aytganda, bola bilan muloqotda ota-onadan haqiqiy ijodkorlik, egiluvchan munosabat, tog‘dek bardosh talab qilinadi. Mana shu hislatlar tugab borayotganda, chidashga boshqa majol qolmayotganday bo‘lib tuyila boshlaganda, ota-ona o‘smir bolalar o‘z kundaliklari va insholarida ko‘pincha “baxt-bu seni kimdir tushunishi” deb yozishlarini eslasinlar. Farzand bilan aloqani, erkin va samimiy muloqotni yo‘qotish farzandning o‘zini yo‘qotish bilan barobarligini eslasinlar. Shak-shubhasiz, mana shular eslaganda, bu haqda o‘y surilganda bir zumda ancha emirilib qolgan bardosh tog‘i yonida yana o‘nta hunda tog‘ qad rostlaydi.[4]

Mamlakatimizda bolalarga har tomonlama g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, onalik va bolalikni himoya qilish, sog‘lom avlodni kamol toptirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. 1998-yili qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida bolaning asosiy huquqlari mustahkamlab qo‘yilgan: jumladan, Kodeksning 67-moddasida “Bola o‘z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega” ligi alohida ta‘kidlanadi. Shuningdek, har bir bola yoshi, sog‘lig‘i, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq qonunda o‘rnatilgan tartibda mehnat qilish huquqiga egadir. Ishga 16 yoshdan qabul qilishga ruxsat beriladi.

15 yoshga to‘lganlar ishga ota-onalaridan birining yoki ota-onalari vazifalarini o‘tayotganlarning yozma tarzidagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, voyaga yetmagan shaxs 15 yoshdan boshlab mehnat munosabatlarining sub‘ekti sanaladi. Soliq qonunchiligini buzganlik sub‘ekti 16 yosh hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarning mehnat munosabatlaridagi ishtirokini o‘rganib, bu borada muayyan qarama-qarshiliklar mavjudligiga guvoh bo‘lamiz.

Bugunga kelib, o‘smir shaxsning dinamik rivojlanishiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy strukturalar tizimi jumladan, oila, maktab, norasmiy uyushmalarda ham o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Shuningdek, ba‘zan ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan ma‘lumotlar ham o‘smirlarning emotsional - irodaviy jabhalari hamda qiziqishlar tizimiga ta‘sir etib, o‘larning xulq-atvorlari va psixikasida ba‘zi buzilishlarga ham sabab bo‘lmoqda. Shunday buzilishdan biri – depressiya holati bo‘lib, tan olish kerakki, to hozirga qadar mazkur tushunchaning mohiyati munozaralidir. Uni kayfiyat tasnifi yoki sindrom sifatida yoinki alohida bir kasallik tarzida tushuniladi. Vaholanki, uning asosiy sababi birinchidan, depressiv simptomatika bo‘lib, u yoshga oid psixologik xususiyatlarni namoyon qiladi, ikkinchidan, tashqi ifodalanishida —niqoblanganlikl xarakteriga ega bo‘ladi.[6]

O‘smirlarning depressiv holati murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u:

a) maktab dasturini o‘zlashtira olmaslik;

b) tengqurlari jamoasiga moslasha olmaslik;

v) o‘ziga hos psixologik muhofaza reaksiyasi kabilarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Ayrim olimlar uning kelib chiqishida stressogei omillarga urg‘u berib, o‘ziga xos —”svilizatsiya kasalligi” deb ataydilar. Xususan, B.S.Polohiy (1996) fikricha, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy chuqur o‘zgarishlar shaxsda jiddiy buzilishlarga sabab bo‘ladi yoki madaniy hamda ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuv muammolari shular jumlasidandir. Depressiya bo‘yicha, fundamental tadqiqot olib borgan D.M.Prixojan (1996) emotsiyalar rivojlanish asosini tashvishlanish tashkil etishini isbotlayd. Shuningdek,

B.F. Lomov (1994) o‘smirda ijtimoiy-psixologik jarohat, o‘smirning shaxsiyatlilik xususiyatlari shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy krizislar, bu vaziyatning o‘smir o‘z hayotiy rejalarini shakllantirishiga ta’siri sababli undagi hayotiy vaziyatlar masalasi hamda favqulodda qolgan o‘smirning sub’ektiv muammolari va kechinmalari oqibati ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, depressiya-xulq-atvorning umumiy sustligi, kognitiv tasavvurlar va motivatsion jabhada o‘zgarishlar kechishi hamda salbiy emotsional fonga ega bo‘lgan affektiv holatdir.[5]

Depressiyaning funksional holati - bu sog‘lom insonlarda psixik funksiyalardagi me’yoriy o‘zgarishlardir, lekin uning patologik darajasi ham bor, u psixatrik sindromlar bilan iborat bo‘ladi.

Depressiv holat termini psixik holat guruhini tashkil etib, muayyan tasnifga ega. Masalan: kayfiyat bu individ psixik hayotining ijobiy yoki salbiy emotsional fon sifatida ifodalanuvchi holatidir. O‘smirlik davrida depressiv holatning ikki:

1) salbiy affektini subyektiv his etish;

2) organizmning ichki qismida muayyan siljishlar bilan kechuvchi mimika va xulq-atvorda ifodalanuvchi simptomlarni o‘zida mujassamlashuvi tashkil etadi.

Shunga ko‘ra, depressiyaning differensial diagnostik diagnozini assoslashda psixiatrik yoki psixologik darajalari tafovutlanadi. Hozirda depressiv o‘zgarishlarning diagnostik kontseptsiyasi atroflicha o‘rganilgan, biroq o‘smirlik davriga xos jihatlari, jumladan, mazkur yoshdagi affektiv fenomenning o‘rganish masalalari hali-hanuz to‘liq ochilmagan.

Ota-onalarda esa o‘z farzandlarining yosh va jins, xususiyatlarining o‘ziga xos jihatlari borasidagi bilimlarning etishmasligi hamda o‘z farzandlaridagi salbiy xislatlarni bo‘rttirish, ya’ni “Salbiy shu’la effekti” ro‘y beradi (Treiber va Mabe, 1987). Shunga ko‘ra olingan ma’lumotlarni qanday qilib uyg‘unlashtirish mumkin, degan savol tug‘iladi. Angold (1987) bunday vaziyatlarda faqat o‘smirning ma’lumotlariga tayanish kerak desa, Puig - Antich va Gittelmann (1982)lar faqat kattalarning ma’lumotlarini inobatga olish lozimligini ta’kidlaydilar. Yana bir muammo bu vaqt o‘tishi bilan kuzatiladigan ijtimoiy o‘zgarishlardan —sohort-effekt" paydo bo‘lishi hisoblanib, bu aynan, bir depressiv vaziyatdagi ishtirok etgan tengdoshlar guruhida o‘xshash fenomenlarni keltirib chiqarishidir.[3]

O‘smirlik davrida psixogenreaktiv va somatogen depressiv sindromlar katta o‘rin tutadi. Muammoga oid adabiyotlar tahlilida taxminan 75% o‘smir patsientlarda psixogen depressiya, 10-45% ida samotogen, faqat 5-10% ida konstitutsional depressiv holat uchrashi xususidagi fikrlar ko‘plab uchraydi. Bizning fikrimizcha, o‘smirlik davriga xos depressiya simptomatikasida yana o‘tish xarakteriga ega etiopatogenetik sharoit ham bor. Chunki odatda, o‘smirlarda depressiya paydo bo‘lishida birgina sabablar yoki ekvivalent depressiv simptomlar, ba’zan esa, bir necha patogen omillarning o‘zaro ta’siri kuzatiladi. Ushbu ko‘p omilli sindromogenezga o‘smirlik davrida alohida e’tibor qaratilishi kerak.[2]

O‘smirlik davri depressiyaning klinik ko‘rinishiga ta’sir etuvchi omillardan yana biri satsiodemografik vaziyat: maktab hayoti, salomatlik bilan bog‘liq muammolar; psixotrop va narkotik moddalarning qabul qilinishi; g‘ayritabiiy xulq, oilaviy va do‘stlari guruhidagi o‘zaro munosabatlar, oilaviy anamnez, uyqusizlik o‘z-o‘zidan qoniqmaslik, o‘lim vasvasasi qizlarga nisbatan o‘g‘il bolalarda ko‘proq uchraydi. Spiel (1961) ning aniqlashicha, depressiya fenomenologiyasi yoshga bog‘liq bo‘lib, o‘g‘il bolalardan ko‘ra, ko‘proq qiz bolalar kasallanadilar. Uning fikricha, ushbu depressiv kasallik aynan pubertat davrdan boshlanadi. Masalan, o‘smir qanchalik mustaqil va maqsadga yo‘nalgan bo‘lsa, u shunchalik yolg‘izlikka intiladi va bunga qodir ham bo‘ladi.

Yolg‘izlik hissi, shaxsning shakllanishidagi yosh xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘smirlarda o‘z tengqurlari bilan muomalaga kirishish, guruhlariga birlashish, kattalardan ololmagan emotsional ilqlikni tengdoshlaridan izlash ehtiyoji yuzaga keladi. O‘smirga o‘z ichki dunyosini ochish quvonchli va hayajonli voqedir. Lekin, u juda ko‘p xavotirli va dramatik kechinmalarni keltirib chiqaradi. Ichki “men” o‘zini-o‘zi nazorat qilish muammosini faollashtirgan holda, tashqi xulq-atvor bilan kelisha olmaydi. Shu tariqa, ontogenetik rivojlanishning turli ijtimoiy jabhalari va o‘smirdagi depressiya, otagna o‘zaro munosabatlarining xususiyatlari, ba’zan tengqurlari bilan o‘zaro munosabatlarning qiyinlashuvi, salomatlik holati, akademik o‘zlashtirishning pasayishi, shaxslilik va xarakterologik jihatlar mazkur kasallik rivojlanishiga turtkidir.

**Tadqiqot natijalari va tahlili.** Qayd etish lozimki, o‘smirlik davriga xos depressiv holat diagnostikasi multimodal xarakterga ega bo‘lib, uni amalga oshirish imkoniyatlari sifatida:

- o‘smirlarda somatik o‘zgarishlarning psixosomatik kasalliklariga o‘tishi;

- endogen o‘zgarishlarning ortishi;

- o‘smir shaxsida patologik xarakter o‘zgarishlarining sodir bo‘lishi mumkinligi bois, o‘smirlardagi depressiv, holatlarni o‘rganishga klinik yondashuv;

- o‘smirlardagi mavjud —hayotiy tajribalarning uning depressiv holati bilan uzviy aloqadorligi;

- depressiv holatlardagi jinsiy tafovutlariig mavjudligi;
- ilk o‘smirlik davridayoq depressiv holatlar uchrashining ortishi, o‘smirlardagi depressiv holatlarni tushuntirishda unga kognitiv yondashuv;
- o‘smirning nomaqbul oilada tarbiya topishi;
- oiladagi o‘zaro munosabatlarning nomutanosibliigi;
- o‘smirning ota-onadan uzoqlashishi va uning mustaqillikka da‘vogarlighi;
- ba‘zan ota-onadagi psixik o‘zgarishlarning o‘smirlarda — oynadagi aksi sifatida takrorlanishi bois oiladagi shaxslararo munosabatlarni aniqlash;
- o‘smirning akademik o‘zlashtira olmaslik muammolari;
- o‘smirning maktabdan bezishi;
- o‘qituvchilari va tengqurlari bilan kelisha olmasligi va hokazolar sabab, o‘smirning maktab ta‘limi tizimi faoliyatini o‘rganish;
- hayotiy hodisalarning stressogen xususiyatga egalighi;
- o‘smirlikning psixologik xususiyatlari;
- yoshga oid xususiyatlarning depressiv holatlar rivojlanishiga o‘zaro alokadorlik muammolari o‘smir shaxsining individualpsixologik va formal-dinamik xususiyatlarini aniqlashni shart qilib qo‘yadi.

Shu bois ham, o‘smirlardagi depressiv holat tadqiqoti, nafaqat, patopsixologik va klinik o‘rganish yo‘nalishlarida olib borilishi, balki, uning pedagogik, psixologik va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilsa, shubhasiz, bunday jihat diagnostik va psixokorreksion ishlarning samarasi uchun xizmat qiladi.

**Xulosa.** O‘smir hayotiy faollighi motivatsiyasining asosini shaxslararo va ijtimoiy yo‘nalishdagi qadriyatlar tashkil etib, ular shuningdek, shaxs tomonidan qondirilmagan bosh ehtiyojlar bo‘lib hisoblanadi. O‘zini o‘zi tartibga solish (mustaqillik, o‘zini o‘zi nazorat qilish, iroda) bilan bog‘liq qadriyat sifatida afzal ko‘riluvchi shaxs xususiyatlari ham qisman yoki to‘liq qondirilmagan hisoblanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy ehtiyojlarni, xavfsizlik va tan olinishga nisbatan ehtiyojlarni qondirish suitsidal xulq-atvor xavfi bo‘lgan o‘smirlarda birinchi o‘rinda turadi. Ijtimoiy (shaxslararo) xususiyatli ehtiyojlar frustratsiyasi yoki ularning qondirilmaganligi o‘smirlarda suitsidal xatti-harakatlar, niyat va fikrlarning sababi bo‘lishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Гамезо М.В, Герасимова В.С, Горелова Г.Г., Л.И Орлова.Возрастная психология: от молодости до старости: Учебное пособие для студентов и преподавателей учеб.завед. / М.,1999.
2. Громова О. Н. Конфликтология. М.: —Изд-во| 1993.
3. Ғозиев Е.Ф. —Психология. Тошкент 1994.
4. Степанов Е.И. Современная конфликтология. Москва 2008
5. Каршибаева Г. А., Юлдашева Г. Б. Конфликт как одно из значимых явлений психической жизни человека // Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 459-464.
6. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р.Оила психологияси.Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.
7. Каршибаева Г. А., Абдуасулов Р.А.Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.

## VOYAGA YETMAGANLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSINI NAZARIY VA EMPIRIK TAHLIL ETISH

*Raxmatov Faxriddin Umarovich,*

*Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti erkin tadqiqotchisi*

*Maqolada voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvor muammosini nazariy va empirik tahlil etish holatlari o'rganilgan. Voyaga yetmagan deviant xulq-atvorli shaxsni tuzatish va tarbiyalashda, ularni murakkab atrof-muhitga moslashishini ta'minlashdek muhim tarbiyaviy-psixologik choralarni ko'rishni taqozo etadi.*

***Kalit so'zlar:** deviant xulq, ong, ongsizlik nazariyalari, shaxsiy xususiyatlar, Men konsepsiyasi, moslashish, tarbiyaviy-psixologik choralalar.*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ У НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

*В статье рассматриваются аспекты теоретического и эмпирического анализа проблемы девиантного поведения несовершеннолетних. Необходимо принять важные воспитательные и психологические меры по коррекции и воспитанию несовершеннолетних с девиантным поведением, а также обеспечению их адаптации к сложной среде обитания.*

***Ключевые слова:** девиантное поведение, сознание, теории бессознательного, особенности личности, Я-концепция, адаптация, учебно-психологические мероприятия.*

## THE PROBLEM OF DEVIANT BEHAVIOR IN MINORS THEORETICAL AND EMPIRICAL ANALYSIS

*The article examines cases of theoretical and empirical analysis of the problem of deviant behavior in minors. It is necessary to take important educational and psychological measures in the correction and upbringing of a minor with deviant behavior, as well as ensuring their adaptation to a complex environment.*

***Key words:** deviant behavior, consciousness, theories of unconsciousness, personal characteristics, self-concept, adaptation, educational and psychological measures.*

**Kirish.** Deviant xulq muammosi nazariy tahlilining ko'rsatishicha, xulq buzilishlarining asosini ijtimoiy va psixologik dezadaptasiyaga olib keluvchi «og'ish»lar tashkil etadi. Hozirda ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turli yosh davrlariga xos xulq og'ishlarining psixoprofilaktikasi va korreksiyasiga doir qator tadqiqotlar olib borilayotganligini kuzatamiz.

Deviant xulq-atvorli voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligi, alohida psixologik xususiyatlari, shaxsiy xususiyatlari, atrofidagi odamlar bilan munosabatlari to'laqonli rivojlanayotgan insonlarning (voyaga yetmaganlarning) ijtimoiy-psixologik moslashuvdan keskin farq qiladi. Uning sababiy asoslari, paydo bo'lishi va deviant harakatlarning rivojlanishi yoki voyaga yetmaganlarda turli xil xatti-harakatlarning (agressiya, kashandalik, suisid, fanatizm, o'g'irlik va shunga o'xshash) paydo bo'lishi, aynan shunday shaxsni tuzatish va tarbiyalashga, ularni murakkab atrof-muhitga moslashishini ta'minlashdek muhim tarbiyaviy-psixologik choralarni ko'rishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Deviant xulq-atvor muammosi bir qancha chet el va mumtoz psixolog va sotsiologlar tadqiqotlariga asoslanadi. Kalassik yo'nalishda muammoning nazariy va ilmiy konsepsiyalari yaratilgan bo'lib, dastabki nazariya, bu ijtimoiy anomiya (E. Dyurkgeym, R. Merton, T. Parsons), og'ma xulq - atvoning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri, radikal ijtimoiy o'zgarish. Bu nazariyaning o'ziga xosligi shundaki, deviant xulq-atvor muammosini sotsiologik tadqiqot yadrosi qilib o'rganadi. Addiktiv xulq-atvor sababini tushintirishga qaratilgan yana bir asosiy yo'nalish stigmatizatsiya (G. Bekker, I.Gofman, I.Lemmert i dr.).Submadaniyat deviatitsiyasi nazariyasi (A.Koen, R. Klouard va L.Oulin), Real hayotda va o'z intilishlarni amaga oshirishda deviant huql-atvor ta'siri to'g'risida fikr bildiriladi.

**Natijalar va tahlil.** 1-jadvalda voyaga yetmaganlarning o'z-o'ziga munosabatlarini V.V.Stolin va V.V.Panteleyevlar ishlab chiqqan test-so'rovnomaga bo'yicha o'rganish natijalari o'z ifodasini topgan. Ushbu metodning muhimligi shundaki, keyingi yillarda O'zbekistondagi voyaga yetmaganlar va o'spirin yoshlarni o'rganishda amaliyotda keng qo'llanilib, yaxshi natijalarga erishilganligidadir. Test-savolnomaning bunday

keng tarqalishi bejiz emas. Mana shu test-savolnoma yordamida olingan axborotlar voyaga yetmaganlarning “Men konsepsiyasi”ni boholash bilan birga, uning shaxsi to‘g‘risida yanada mukammalroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Binobarin, voyaga yetmaganlar ana shu konsepsiyaga muvofiq o‘z-o‘ziga, boshqa kishilarga va tabiiyki o‘z hayot yo‘nalishi hamda faoliyatiga ham tegishli munosabatda bo‘ladi, kengroq ma’noda esa ishtirokchi o‘z shaxsining yadrosini chuqurroq o‘rganib, o‘zini mukammalroq anglashga erisha olishi to‘g‘risidadir.

**1-jadval.**

**Voyaga yetmaganlarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini tadqiq qilish natijalari (V.V.Stolin va V.V.Panteleyevlarning “Voyaga yetmaganlarni o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini aniqlash” testi) (n=256)**

№	O‘z-o‘ziga munosabat	Hamma voyaga yetmaganlarga nisbatan	5-sinf	7-sinf	9-sinf
1	Integral “Men”	21,1	21,6**	21,1**	20,6
2	O‘zini hurmatlash	9,6	9,2	9,5**	10,1
3	O‘zini yoqtirish	9,8	10,4**	9,8**	9,3
4	Boshqalarning ijobiy munosabatini kutish	8,4	7,7**	8,4***	9,2
5	O‘ziga qiziqish	5,8	5,4	5,6**	6,3
6	O‘ziga ishonish	5,7	5,2*	5,7*	6,1
7	O‘zgalardan kutilayotgan yordam	6,2	6,6*	6,3**	5,8
8	O‘zini qabul qilish	5,3	4,8*	5,3**	5,9
9	O‘z-o‘ziga rahbarlik qilish	3,7	3,3*	3,6**	4,1
10	O‘zini ayblash	5,4	5,0*	5,4**	5,9
11	O‘ziga qiziqishni ifodalash	5,3	5,9**	5,3**	4,8
12	O‘zini tushunish	3,3	3,0	3,2*	3,6

\*)  $p < 0.05$ , \*\*)  $p < 0.01$ , \*\*\*)  $p < 0.001$

1-jadvalda ham, boshqa shunga o‘xshash jadvallar ham tadqiqotda ishonchsizlik yoki noto‘g‘ri ma’lumot va xulosalar kirib qolmasligi maqsadida foydalanilgan turli metodikalarning natijalari EHMda matematik-statistik usulda qayta ishlandi. O‘rtacha kvadratik chetga og‘ishni hisoblashda ishonchlilik farqini topish uchun Styudent mezoni (t-kriteriyasi) bo‘yicha ish olib borildi.

Ishonchlilik farqini topish natijalari va korrelyatsiyali hamda faktorli tahlillar tadqiqotdagi shubha uyg‘otadigan, joyi almashtirilgan yoki kelishtirilgan ma’lumotlarga chek qo‘yadi.

1-jadvaldagi ko‘rsatkichlar tahlillaridan ko‘rinadiki, voyaga yetmaganlarning integral “Men”i (o‘z “meni”dagi “yaxshi va yomon” jihatlarni integral his etish ko‘rsatkichi) o‘rtachadan biroz yuqoriroq ahamiyatga ega (30 tadan 21,4 ball). Ushbu ko‘rsatkichning o‘rtachadan yuqoriligi O‘zbekistondagi voyaga yetmaganlar yoshlarning o‘qishi, yashashi, dam olishi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini ruyobga chiqarish uchun hamma qulaylik hamda tegishli shart-sharoitlar yaratilayotganligi bo‘lsa, boshqa bir tomoni ularning o‘z imkoniyatlariga qisman yuqoriroq baho berayotganligi natijasidir.

Biz ular bilan olib borgan tadqiqot natijalari hozirgi voyaga yetmaganlar yoshlarning o‘zlari haqida biroz yuqori baho berayotganligini tasdiqlaydi. Bizningcha, mamlakatimizda ular uchun hamma imkoniyatlarning yaratilayotganligi, ular qaysiki ishga qo‘l urmasin yoki o‘qish yoki kasb egallash uchun qaysi bir sohani tanlamasin (ishonch motivi), ularda hammasini uddalay olish imkoniyati bordek tuyulayotganligini ifodalaydilar. Biz mazkur ko‘rsatkichga asoslanib voyaga yetmaganlarda o‘zini- o‘zi anglashning shakllanishida individual imkoniyatlariga ortiqcha baho berish bilan milliy-tipik va tarbiyaviy psixologik omillar ta’sirining ba’zi o‘rinlarda pasayganligi natijasi deb baholashga ko‘proq moyilmiz. O‘zbek xalqining ma’naviyati, qadriyatlarini, an’analarini, jamiyatda amal qiladigan me’yorlar, qonun va qoidalarga qat’iy rioya qilishga qarama-qarshi o‘laroq ota-onalarning farzandlar tarbiyasiga biroz e’tiborsizligi, yoshlarda kechayotgan jismoniy va psixologik rivojlanish qonuniyatlarini bilmaslik, axborotning globallashuvi sharoitida psixologik tahdid manbalarining yoshlar hayoti va faoliyatiga “indamasdan” kirib kelayotganligiga (aralashayotganligi) qarshi ota-onalar, ta’lim muassasalari xodimlari va mahalla jamoatchiligining birgalikda uyushgan tarbiyaviy ta’sir choralarining zamonaviy talablar darajasida tashkil etilmayotganligi sabab bo‘lmoqda. Mana shularning hammasi belgilangan me’yorlar asosida kechmayotganligi natijasida ba’zi yoshlarning o‘z meniga noto‘g‘ri yondashuvi yoki ortiqcha baho berishidan hayotda ularning noto‘g‘ri yo‘nalish olishi, adashishi va xato qilishiga sabab bo‘lmoqda (yoshlar ko‘proq noto‘g‘ri axborot manbalari, noqonuniy xatti-harakatlar yordamida biror bir manfaatga erishish



ishonchining kuchayishi, internetdagi aldamchi ma'lumotlarga amal qilishi bilan birga, ota-ona, o'qituvchi - ustoz va yoshi kattalar fikrlariga quloq solish, itoatkorlik, ularni ko'rsatmalariga amal qilish, o'ylab-fikrlab ish qilish, voqyealarni o'rganib, taqqoslab tahlil qilish, unga xolisona baho berish, uzoqni ko'ra bilish kabi sifat va fazilatlarining egallanishi zarurat ekanligiga e'tiborni pasayib ketayotganligi sabab bo'lmoqda.)

Bizningcha, voyaga yetmaganlarning “integral meni” dinamikasi ularning yoshi va bilim tajribasiga bog'liqligi qiziqarlidir (1-jadval). Masalan, voyaga yetmaganlarning (5-sinflar 21,6; 7-sinflar 21,1; 9-sinflar 20,6 ball) yosh bosqichlari o'sishi va hayot tajribalari oshishi bilan, ularning o'z “Meni”ga tarafdorlik (ortiqcha baho berish) ko'rsatkichlari pasayib borishini yaqqol ko'ramiz. Bizningcha, voyaga yetmaganlik yoshi bosqichlarida uning o'zi haqida eng ko'p fikr yuritadigan, xayoliy va haqiqiy “Meni”ni keskin taqqoslaydigan, uning o'z mavqeyini belgilash uchun kurashadigan davridir (ayniqsa, yuqori sinf voyaga yetmaganlar). Xususan, ana shu davrda o'z “Meni”ni nazorat qilish, boshqalarga taqqoslash va uni qayta baholash ro'y beradi, umuman qatnashchining o'qish, yashash va hayotga ongli munosabati ortishi bilan (bizning o'ylashimizcha) o'z-o'zini tanqid, o'ziga nazorat va o'zini boshqalar bilan taqqoslash kuchayib boradi. O'z “Meni”ni to'g'ri va real baholashga yaqinlashib borishi kuzatiladi.

Bu esa, Voyaga yetmaganlarning “o'z menini” to'g'ri va chuqurroq anglab borayotganligini ta'minlab, o'qish, kasb egallash va hayotda to'g'ri yo'nalish olishiga imkoniyat yaratadi.

1-jadvalda “integral men”ni kuzatganimizda, voyaga yetmaganlarning o'zligiga umumlashgan munosabatlari ifodalanganligini ham ko'ramiz. Bular o'zini o'zi hurmatlash, o'zini yoqtirish, boshqalarning ijobiy munosabatini kutish va o'ziga qiziqishdir (1-jadvaldagi 2-5 ko'rsatkichlar).

O'zini hurmatlash – o'z kuchlariga, qobiliyatlariga ishonish, o'zini tushunish, ichki izchillik, mustaqillik, o'zini nazorat qila olish va hokazolarning ko'rsatkichlaridir.

Ushbu ko'rsatkichda ular o'zini yetarli darajada hurmat qilsalar va boshqalarni ham hurmat qilishini xohlasalar-da, ba'zida o'zlariga ishonmaslik, bir xulosaga kelishda beqarorlik, o'z-o'zini tushuna olmaslik va o'z imkoniyatlari hamda boshqalarning munosabatlariga shubha bilan qarash kabi holatlar ham tez-tez kuzatiladi.

Voyaga yetmaganlarni yoshi bilan bog'liq bilim va tajribalari oshib borishi bilan bu holatlar pasayib, o'zini hurmat qilishi, o'ziga ishonishi, atrofda qilargalarga ongli munosabati va mustaqilligi oshib borgan (9.2; 9.5; 10.1).

O'zini yoqtirish-o'ziga nisbatan do'stlik yoki dushmanlik yuqori ko'rsatkichlari o'zini umumiy ijobiy baholashni, umuman o'zini ma'qullashni bildiradi. Tadqiqotlarimizda voyaga yetmaganlarning o'zini yoqtirishi umumlashgan ko'rsatkichi bo'yicha o'rtacha baholangani ko'zatildi.(9,8 ball)

Umuman olganda, voyaga yetmaganlar o'zlarini katta kishilar yordamida qo'llab-quvvatlashga o'zlariga ishonishga moyildirlar, o'zlarini ijobiy baholashga ko'proq urinadilar, shu bilan birga, ular o'zlarini ayblashga, xatolarini tan olishga ham tayyorlar, ular xarakteri va irodaviy sifatlarida ko'proq beqarorlik ham kuzatiladi. Bu holat ularning yosh bosqichiga qarab pasayib borishi, natijada, o'z meniga nazoratni kuchayib borishi, o'z munosabatlari va faoliyati natijalariga ongli munosabat va real baho berishning oshib borishida kuzatilgan (10,4; 9,8; 9,3).

Boshqalardan ijobiy munosabatni kutish 13 imkoniyatdan o'rtacha 8,4 ballda ifodalandi (1-jadval). Bu esa ular o'zlarining jamiyatda va atrofda qilargalarga uchun ahamiyatliliklarini tushunib borishlarini va o'zlariga boshqalarning kerakli yordami hamda shu urinda ijobiy munosabatda bo'lishini kutayotganliklarini ifodalaydi. Bu holat voyaga yetmaganlarda atrofda qilargalarga odamlarning munosabatlariga munosib bo'lishga, ijtimoiy axloq normalariga rioya qilishga, tashqi qiyofasiga e'tiborli bo'lishga, o'zini nazorat qilishga intilishni vujudga keltiradi. Shuni aytish kerakki, bu o'rinda o'zbek xalqining milliy-madaniy muhiti, an'analari, qadriyatlarini, ayniqsa, bolajonligi zarur shart-sharoit sifatida xizmat qiladi. Bizningcha, tarbiyaviy jarayonlarda jamoatchilik fikri, xalq pedagogikasi va mahalla institutlari faoliyatini milliy qadriyatlar va zamonaviy talablar asosida tashkil qilish mazkur ko'rsatkichning o'sishini ta'minlaydi. Mazkur ko'rsatkich voyaga yetmaganlarning yoshi ulg'ayishi, bilim va tajribalarining ko'payishi bilan hamohang ortib borganligini (7.7; 8.4; 9.2) kuzatish mumkin.

O'ziga qiziqish – o'zining boshqalar uchun qiziqarli va e'tiborli ekaniga ishonishni bildiradigan va o'spirinning o'z fikri va hissiyotlariga qiziqishini aks ettiradigan ko'rsatkich bo'lib, tadqiqotimizda biroz yuqoriroq darajada namoyon bo'ldi (8ta imkoniyatdan 5,8 ball, 1-jadval). Yuqori voyaga yetmaganlar yoshidagilarda o'ziga qiziqish nisbatan yuqori darajada (6,3) dir. Bizningcha, uning xuddi manashu yosh bosqichi yakunida (16 yoshdan boshlab) ular o'z fazilatlarini chuqurroq anglaydilar hamda o'zlarining faqat o'zlari uchun emas, balki boshqalar uchun ham qiziqarli ekanliklariga ishonch hosil qiladilar. Ularning ko'rsatkichlari 11 yoshli voyaga yetmaganlardan ( $p < 0.05$ ) va 13 yoshlilardan ( $p < 0.01$ ) ishonarli farqlanadi.

Voyaga yetmaganlarni o'ziga qiziqishi ko'rsatkichining biroz yuqoriligi ularga atrofda qilargalarning ularni ayab, hali voyaga yetmaganligini e'tiborga olgan holda ishonch bilan qarashlariga bog'liq bo'lishi mumkin,

shuningdek, bu holat maktablarda qunt bilan o‘qiyotgan voyaga yetmaganlar yoshlarga ijobiy munosabat ko‘rinishida milliy-psixologik hamda ijtimoiy-madaniy omillardan kelib chiqadi. O‘ylaymizki, bu omillar ularni rag‘batlantiradi va ularning faolligini oshiradi.

Endi voyaga yetmaganlarning o‘zlariga qaratilgan ichki harakatlarining (yo‘nalganlikning) ifodalanishini belgilovchi (1-jadvaldagi 6-12 tartibdagi) ko‘rsatkichlarning tahliliga e‘tibor qaratamiz.

O‘ziga ishonish, boshqalarning munosabatlari, o‘zini qabul qilish, o‘zini ayblash, o‘ziga qiziqish va o‘zini tushunish ko‘rsatkichlari voyaga yetmaganlarning o‘ziga munosabatlarining yuqorida sharhlangan (1-jadval 2-5 ko‘rsatkichlar bilan) va voyaga yetmaganlarning “integral men”ida bevosita aks etgan umumlashgan darajalariga muhim tarkibiy qism bo‘lib kiradi va uning xulq-atvorini belgilashda muayyan ahamiyat kasb etadi.

Biz, yuqorida aytilgan o‘ziga munosabatning har biriga qisqacha to‘xtalsak, voyaga yetmaganlarning o‘ziga ishonish ko‘rsatkichi (5.2; 5.7; 6.1), o‘zini qabul qilish ko‘rsatkichi (4,8; 5,3; 5,9), o‘z-o‘ziga rahbarlik qilish ko‘rsatkichi (3,3; 3,6; 4,1), o‘zini ayblash ko‘rsatkichi (5,0; 5,4; 5,9), o‘zini tushunish ko‘rsatkichi (3,0; 3,2; 3,6) voyaga yetmaganlar yoshining o‘ziga borishi va o‘quv-tarbiya jarayonlarini takomillashib borishi hamda ularning ijtimoiylashuv doirasining kengayishiga qarab rivojlanib ko‘tarilib borish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Ularning o‘zgalardan kutilayotgan yordam ko‘rsatkichi (6,6; 6,3; 5,8) bilan ishtirokchilarning o‘ziga qiziqishini ifodalash ko‘rsatkichi (5,9; 5,3; 4,8) ilk voyaga yetmaganlarda boshqa voyaga yetmaganlarga nisbatan yuqori bo‘lib, uning yoshi, bilimi va hayot tajribasi ortib borishi bilan bu ko‘rsatkichlar pasayib muvozanatlashish tomon yaqinlashib borayotganligini kuzatish mumkin. Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar o‘zlarini har xil vaziyatlarda muammolarni kattalarni yordami bilan bo‘lsa-da, hal qila olishga qobiliyatli, deb hisoblaydilar; o‘zlariga boshqalarning ijobiy munosabatda bo‘lishi va yordamini kutadilar; o‘zlarining xususiyat va fazilatlarini hali barqarorlashmagan bo‘lsa ham ularni ancha yuqori baholaydilar; o‘z-o‘zini tanqid ruhida gapirishga kam jur‘at etadilar; faoliyatlari va munosabatlarida izchillikning kuchayib borayotganligi kuzatiladi; o‘zlariga ijobiy-darajadagi munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashga tirishadilar. Tadqiqotimizdan voyaga yetmaganlarda tasavvurlar, hissiyotlar, g‘oyalar, fikrlar, yechimlar va hokazolarning ichki muvofiqligi xamda mukammallashib borishi kuzatiladi. Bu natijalar tarbiya uchun mas‘ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchilar, mahalla faollari va boshqalarning voyaga yetmaganlarga xos xususiyat va imkoniyatlarni chuqur shrganib, ularni to‘g‘ri anglab, to‘g‘ri baho berish va tarbiyaviy ta‘silarni hamkorlik asosida oqilona tashkil etishga imkoniyat yaratadi.

**2-jadval.**

**Voyaga yetmaganlarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini tajriba va nazorat guruhlarida tadqiq qilishning farqlari (V.V.Stolin va V.V.Panteleyevlarning “Voyaga yetmaganlarni o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini aniqlash” testi)**

№	O‘z-o‘ziga munosabat	Jami n=357	Tajriba guruhi n=101	Nazorat guruhi n=256
1	Integral “Men”	21,1	21,3*	20,9
2	O‘zini hurmatlash	9,6	9,7	9,5
3	O‘zini yoqtirish	9,8	9,9	9,7
4	Boshqalarning ijobiy munosabatini kutish	8,4	8,6*	8,2
5	O‘ziga qiziqish	5,8	5,4**	6,2
6	O‘ziga ishonish	5,7	5,6	5,8
7	O‘zgalardan kutilayotgan yordam	6,2	6,1	6,3
8	O‘zini qabul qilish	5,3	5,0**	5,6
9	O‘ziga-o‘zi rahbarlik qilish	3,7	4,0**	3,4
10	O‘zini ayblash	5,4	5,2*	5,6
11	O‘ziga qiziqishni ifodalash	5,3	5,4	5,2
12	O‘zini tushunish	3,3	3,2	3,4

\*) p<0.05, \*\*)p<0.01, \*\*\*)p<0.001

2-jadvaldan ko‘rinadiki, voyaga yetmaganlar yoshlarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini tadqiq qilishning tajriba guruhidagilar bilan nazorat guruhidagilarning farqlari o‘rganilganda tajriba guruhidagi respondentlar o‘zlariga bo‘lgan munosabatlarida voyaga yetmaganlarga xos belgilangan me‘yorlardan og‘ib ketayotganliklari kuzatildi. Ularning “integral men”i (21,3) nazorat guruhidagilarga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir (p<0.05).

Tajriba guruhidagi voyaga yetmaganlarda oʻziga munosabatning sezilarli darajada yuqoriligining sababi oʻzbek milliy madaniy muhitida voyaga yetmaganlar yoshlarga boʻlgan eʼtibor, ularning shaʼni va qadr-qimmatini ardoqlash, ularga nisbatan yordam va qoʻllab-quvvatlashga doimiy shaylik, shuningdek, ularning bilim olishga, biror-bir kasbni egallash uchun zarur imkoniyatlar mavjudligiga qaramasdan, boshqa tomondan baʼzi voyaga yetmaganlar yoshlar uchun ularga xos tabiiy-biologik ehtiyojlarning vaqtida va meʼyorli qondirilmaligi, oilada voyaga yetmaganlarga xos ijtimoiy-iqtisodiy (sharoitlarning) motivlarning meʼyorli taʼminlanmaganligi, voyaga yetmaganlar uchun tarbiyaviy muhitning yetarlicha va barqaror tashkil etilmaganligi, voyaga yetmaganlar tarbiyasi uchun masʼullarning voyaga yetmaganlar rivojlanishini taʼminlaydigan jismoniy, ijtimoiy-madaniy va individual- psixologik omillar taʼsiridan bexabarligi bilan izohlash mumkin.

Voyaga yetmaganlar yoshlarda oʻziga munosabatning ijobiy oʻzgarishiga taʼsir etadigan ijtimoiy-psixologik va milliy-madaniy xarakterdagi omillar haqida toʻxtalsak, bunga-oʻziga nazorat va tanqidiy munosabatda boʻlishni, oʻzining shaxsiy fazilatlarini chuqur anglashni, yoshi ulugʻlar, oʻqimishli- ziyoli kishilarni hurmatlashni, kamtarlik, bagʻrikenglik, odoblilik, kamgaplik, kattalarga itoatkorlik va boshqa fazilatlarini aytish mumkin.

Biroq, voyaga yetmaganlarning yashash tarzi va kundalik faoliyati belgilangan meʼyorlar asosida toʻgʻri tashkil etilmas ekan ularda jinoyat motivlari shakllanishiga xos imkoniyatlar yuzaga kelaveradi. Chunki, yuqorida aytilgan milliy-psixologik va ijtimoiy-madaniy omillar oʻspirinlar psixikasini shakllantirib, uning oʻziga munosabatida bevosita aks etadi.

Tajriba guruhidagi voyaga yetmaganlarda boshqalarning ijobiy munosabatini kutish ( $p < 0.05$ ), oʻziga qiziqish ( $p < 0.01$ ), oʻzini qabul qilish ( $p < 0.01$ ), oʻz-oʻziga rahbarlik qilish koʻrsatkichlari ( $p < 0.01$ ) nazorat guruhidagi voyaga yetmaganlar koʻrsatkichlariga qaraganda, ancha yuqori farqlar orqali ifodalanishi kuzatildi.

Voyaga yetmaganlarning oʻz-oʻziga boʻlgan munosabatlaridagi oʻzini hurmatlash (tajriba guruhida- 9,7, nazorat guruhida- 9,5), oʻzini yoqtirish (tajriba guruhida- 9,9, nazorat guruhida- 9,7), oʻziga ishonish (tajriba guruhida- 5,6, nazorat guruhida-5,8), oʻzgalardan kutilayotgan yordam (tajriba guruhida -6,1, nazorat guruhida- 6,3), oʻzini ayblash (tajriba guruhida -5,2, nazorat guruhida- 5,6), oʻziga qiziqishni ifodalash (tajriba guruhida- 5,4, nazorat guruhida- 5,2), oʻzini tushunish (tajriba guruhida -3,2, nazorat guruhida-3,4) koʻrsatkichlarida sezilarli farqlar boʻlsa-da, jiddiy farqlar kuzatilmadi.

Tajriba guruhidagilarida baʼzi koʻrsatkichlar biroz ustunroq namoyon boʻlgan boʻlsa-da, oʻziga ishonish, oʻzini ayblash, oʻzini tushunish va oʻzgalardan kutilayotgan yordam koʻrsatkichlarida nazorat guruhidagilarni koʻrsatkichlariga nisbatan pastroq koʻrsatkichlar namoyon boʻlganligi aniqlandi. Bu holatni jinoyat motivlari shakllanayotgan Voyaga yetmaganlar yoshlar oilasida sogʻlom tarbiyaviy-psixologik muhitning yoʻqligi, yoshlar tarbiyasi uchun muhim hisoblangan oʻqituvchi, ota-ona va mahalla-guzar hamkorligining yoʻlga qoʻyilmaganligi, ota-onaning bola tarbiyasidagi befarqligi, natijada milliy-madaniy muhitda amal qiladigan meʼyorlar- itoatkorlik, andishalilik, bir qarorga kelishda doimo yoshi kattalar va oʻqimishlilar maslahatiga amal qilish, koʻngilchanglik, oʻzini aybdor his qilish, oʻziga tanqidiy baho berish, oʻzini tushunishda eʼtiborlilik kabi xususiyatlarning aynan shunday voyaga yetmaganlarda shakllanmaganligi bilan izohlash mumkin. Bu xususiyatlar zarur koʻrsatkichlarni jinoyat motivlari shakllanayotgan voyaga yetmaganlarda boshqa tengdoshlariga nisbatan pastroq namoyon boʻlishiga sababdir.

Shunday qilib, biz erishgan natijalarda voyaga yetmaganlar “integral men”ining tuzilmasi va yunalganligi oila, maktab va mahalla-guzar tarbiyaviy hamkorligi tizimida alohida eʼtiborga olinsa, ularning oʻziga munosabati faol himoyalaniishi va uning hiech qanday tarkibiy qismi (elementi) inkor etilmasligini yana bir karra isbotlaydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda qaror topgan oʻzaro munosabatlar tizimi, barqaror milliy-madaniy muhit, milliy-psixologik xususiyatlar va uning zamonaviy oʻquv- tarbiya tizimi hamda axborot manbalari, shu kabi boshqa muhim omillar voyaga yetmaganlar yoshlarning “integral men”ida aks etib, uning “Men” konsepsiyasini barqaror shakllanishini taʼminlaydi.

#### **Xulosa.**

1. Voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishini oldini olish uchun ular tarbiyasiga masʼullikni (kimlar koʻproq masʼul va ogoh boʻlishi kerak) baholanishi oʻrganilganda, respondentlarning 100 % voyaga yetmaganlarning hayoti va tarbiyasida ota-onalar hamda ularning oila aʼzolari doimiy masʼul va ogoh boʻlishlari kerakligi, Voyaga yetmaganlarning oʻzi masʼul va ogoh boʻlishi muhimligi (92,0%), undan soʻng maktab rahbariyati, oʻqish jamoalari hamda voyaga yetmaganlar tengqurlari uning tarbiyasida masʼul ekanliklari va doimiy ogoh boʻlishlari (86,1%), ular tarbiyasida yanada masʼuliyatliroq yondoshishda huquq tartibot organlari (84,5%), mahalla faollari va jamoatchilik (78,6%), qarindosh-urugʻ va qoʻni-qoʻshnilar (73,8%) ham muhim tarbiyaviy taʼsir manbalari sifatida yaqindan yordam berishlari tasdiqlandi.

2. Respondentlar javoblarini psixologik tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta'sir etadigan turli omillar ichida eng xavfli hamda shaxs va jamiyat hayotida ayanchli oqibatlarni keltirib chiqaruvchi omillar bu - voyaga yetmaganlardagi tabiiy-biologik ehtiyojlarning vaqtida va me'yorli qondirilmalik holatlari (91,6%), tarbiya uchun mas'ullarning voyaga yetmaganlar rivojlanishini ta'minlaydigan jismoniy, ijtimoiy-madaniy va individual psixologik omillar ta'siridan yetarlicha xabardor emasligi (82 %), voyaga yetmaganlarga xos tarbiyaviy muhit doirasining yetarlicha va barqaror ta'minlanmaganligi (72,6 %) dir.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabr O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 37-son, 426-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2007 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 07 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. - Toshkent: Adolat, 2017. - 112 b.
5. Jabborov A.M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi "Nasaf" nashriyoti, 2015, -180 b.
6. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994. - B.309.
7. G'oziev E.G'., Jabborov A.M. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. T.: 2003, -124 b.
8. Qodirov O.S.. Umumiy psixologiya // O'quv qo'llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
9. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N.. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
10. Safarovich Q. O. et al. O'quvchilar xulq-atvori profilaktikasida maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir modeli //Pedagog. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 382-386.
11. Safarovich Q. O. et al. Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning xulq-atvori bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish masalalari //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – S. 367-371.
12. Safarovich Q. O. et al. Teenager child psychology // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – S. 454-462.

## НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОРРУПЦИИ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

*Кулиев Ёркин Каримович,*

*преподаватель кафедры «Социология и психология»*

*Бухарского государственного университета*

*Статья посвящена анализу противодействию коррупции в сфере образования, выделению её характерных черт, признаков, форм и видов, а также привлечению внимания научной общественности к обсуждению категориального аппарата коррупции в образовании и её предупреждения. Также проанализированы проводимые меры и задачи для предупреждения коррупционных правонарушений в сфере высшего образования, изучения и устранения их причин и условий.*

**Ключевые слова:** антикоррупционное образование, антикоррупционное поведение, правовое сознание, «комплаенс-контроль», коррупционные правонарушения, международные стандарты.

## TA'LIM SOHASIDAGI KORRUPSIYANING BA'ZI XUSUSIYATLARI

*Maqola ta'lim sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurashni tahlil qilish, uning o'ziga xos xususiyatlari va turlarini ajratib ko'rsatish, shuningdek, ta'limdagi korrupsiyaning kategorik apparati muhokamasiga ilmiy jamoatchilik e'tiborini jalb qilish va uning oldini olishga bag'ishlangan. Shuningdek, oliy ta'lim sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sabablari va shartlarini o'rganish va bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va vazifalar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** korrupsiyaga qarshi ta'lim, korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlar, huquqiy ong, "muvofiqlik nazorati", korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, xalqaro standartlar.

## SOME FEATURES OF CORRUPTION IN EDUCATION

*The article is devoted to the analysis of combating corruption in education, highlighting its characteristic features, signs, forms and types, as well as attracting the attention of the scientific community to the discussion of the categorical apparatus of corruption in education and its prevention. The measures and tasks carried out to prevent corruption offenses in the field of higher education, study and eliminate their causes and conditions are also analyzed.*

**Keywords:** anti-corruption education, anti-corruption behavior, legal consciousness, "compliance control", corruption offenses, international standards.

**Введение.** Коррупция существует в различных сферах жизнедеятельности нашего общества. Научным сообществом исследуются особенности коррупции в системе государственного управления, правоохранительных органах, здравоохранении, спорте, частном секторе, избирательном процессе и других сферах, вырабатываются меры предупреждения. Коррупция в образовании не является исключением.

**Последствия коррупции в сфере образования.** Значимым негативным последствием коррупции в образовании является приобретение обучающимися навыков вступления в коррупционные отношения, урегулирования возникающих проблем коррупционным путем. В таких условиях у молодого поколения еще со школьной или студенческой скамьи формируется привыкание к коррупции, восприятие коррупции как допустимого явления, закладывается готовность к вступлению в коррупционные отношения в ходе реализации полученных знаний уже в процессе трудовой деятельности. Нельзя не отметить, что привитию коррупционных навыков у обучающихся способствуют сложившиеся в нашем обществе традиции дарения. Стремление граждан задарить, «кумсалить», отблагодарить врача, учителя, чиновника далеко не всегда является добровольным актом человеческой благодарности, а скорее выступает как сложившийся в обществе обычай, традиция, своеобразная норма поведения. Вместе с тем традиция дарения (получения) подарков при определенных обстоятельствах может оказаться ничем иным, как бытовым взяточничеством. Коррупция в образовании представляет собой сложное, пока еще недостаточно хорошо изученное социально-правовое явление.

Согласно анализу имеющихся материалов следует отметить, что случаи коррупции в высшем образовании существуют практически на всех этапах. Тестирование в процессе обучения, от

зачисления до перевода студентов, является обычным явлением на всех этапах обучения. Вместе с тем, сохраняется до настоящего времени взыскание взяток, хищение бюджетных средств в высших учебных заведениях и фиксируется практически на каждом звене учебно-воспитательного процесса. Коррупционный риск наблюдается в основном в отраслях: зачисление на факультеты с творческим экзаменом; перенос обучения из одного высшего учебного заведения в другое, смена факультета или направления; при публикации книги или научной статьи руководитель ставит себя в число авторов; размещение студента в общежитиях; курсовая работа, при приёме на выпускную квалификационную работу в бакалавров; распределение учебных часов, приём на работу, смена должности, начисление заработной платы лицам, не работающим в образовательном учреждении, то есть “мёртвым душам; наличие поддельных дипломов, наличие взяток и других форм коррупции при нострификации дипломов; освоение средств, выделенных на строительство, приобретение средств, выделенных на канцелярские товары, путём перевода денег (с завышенными ценами) знакомым предприятиям и получения разницы между ними в качестве вознаграждения; освоение оставшейся суммы в денежном выражении с занижением арендной платы по договорам по деятельности издательства, торгового магазина, столовой на территории высших учебных заведений. Следует отметить, что эти обстоятельства не только негативно сказываются, но и снижают место вузов нашей страны в международных рейтингах”.

### **Пресечение и предупреждения коррупционных правонарушений в сфере высшего образования.**

В целях предупреждения коррупционных правонарушений в сфере высшего образования, изучения и устранения их причин и условий особое внимание уделяется выполнению задач, определённых в “Дорожной карте” на 2022-2023 годы, утверждённой Национальным Советом Республики Узбекистан по противодействию коррупции. Агентство по борьбе с коррупцией, созданное 29 июня 2020 года в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по совершенствованию системы противодействия коррупции в Республике Узбекистан”, наряду с формированием и реализацией государственной политики активно начал организовать работы против коррупции во всех сферах страны, в том числе и в сфере образования.

Так, в 2022 году в 96 государственных высших учебных заведениях на базе 162 штатных единиц созданы подразделения по противодействию коррупции и управлению системой “Комплаенс-контроль”. На них возложены такие задачи, как формирование нетерпимого отношения к коррупции, раннее выявление, предупреждение коррупционных ситуаций, устранение обстоятельств и условий, способствующих их совершению, предотвращение конфликта интересов, осуществление государственных закупок и обеспечение прозрачности и открытости процессов приёма граждан на работу. С целью повышения профессиональной квалификации сотрудников этих подразделений были организованы 14-часовые курсы дистанционного обучения, а 50 сотрудников получили сертификаты Академии Генеральной прокуратуры.

Также в соответствии с международными стандартами были разработаны и изданы 18 внутренних ведомственных документов, которые представляют собой открытые и прозрачные механизмы противодействия коррупции и комплаенс-контроля соответствия требованиям, приема на работу кандидатов на вакансии, соблюдения этикета, управления конфликтом интересов, порядка сообщения о коррупционных преступлениях, осуществления государственных закупок и т.д. применяется к деятельности.

В целях повышения правовой культуры студентов и педагогического персонала в сфере противодействия коррупции, а также предотвращения коррупционных правонарушений активизировалась электронная почта @Eduanticorruption bot и anticor@edu.uz. В учебных корпусах высших учебных заведений установлены “ящики правосудия”.

Кроме того, были внесены дополнительные изменения в некоторые отраслевые нормативные документы. Систематическая коррупция на местах, уровень существования коррупционных рисков был сведён к минимуму. Внедрены информационная система управления процессом высшего образования (HEMIS), процедура перевода на учебу из-за рубежа в государственные вузы через государственный центр тестирования, приём в аспирантуру без экзамена, системы заполнения деклараций, которые не допускают конфликта интересов у всех сотрудников. Абитуриентам были продлены сроки отбора в 5 высших учебных заведений по направлению, выделения дополнительных квот, выплаты дополнительной оплаты по контракту. В целях обеспечения прозрачности при наборе персонала национальная база вакансий ежемесячно содержит <http://ish.mehnat.uz> / через сайт было создано объявление о количестве постоянных вакансий.

В то же время, в целях повышения правосознания и культуры всех категорий сотрудников, были подготовлены и размещены на официальных сайтах видеоролики и пропагандистские материалы, отражающие негативные последствия коррупции. Между 140 000 студентами и 100 000 преподавательским составом было проведено 338 анонимных опросов, организовано 4843 информационно-пропагандистских мероприятия.

Изучая труды по данной проблеме, следует упомянуть надпись, написанную у входа Стелленбосского университета Южно-Африканской Республики: "Для уничтожения любой нации не требуется атомная бомба или ракета большой дальности. Для этого достаточно обмануть экзамены, снизив качество образования. В руках врачей, получивших образование таким образом, пациенты находят смерть, дома и здания, построенные строителями, разрушаются, финансовые ресурсы высасываются из рук экономистов и бухгалтеров, а правосудие находит завалы в руках юристов и судей. Кризис образования - это кризис нации”.

В прошлом году подразделениями по борьбе с коррупцией в высших учебных заведениях было выявлено около 70 случаев коррупции, которые были переданы в правоохранительные органы для правовой оценки принадлежности. В отношении 80 сотрудников были приняты соответствующие меры за совершение неправомерных действий. В 76 случаях были обнаружены конфликты интересов, связанные с функционированием системы взаимного подчинения близких родственников, 40 сотрудников были переведены на другую должность, около 10 сотрудников были освобождены от занимаемой должности, к 28 сотрудникам были приняты соответствующие меры.

#### **Коррупционные факторы в сфере образования.**

Несмотря на усиление аналогичных мер, направленных на предотвращение коррупции в системе высшего образования, коррупционные факторы в отрасли все еще сохраняются. В частности, по-прежнему сохраняются кронизм, конфликт интересов, местничество, nepotizm(кумовство) и коррупционные угрозы, такие как мошенничество.

В частности, процессы, связанные с низким уровнем защиты платформы NEMIS, сдача курсовых работ и итоговой квалификации, принятие творческих (профессиональных) экзаменов, отбор и рекомендация кандидатов на различные не титульные стипендии и премии, прием на работу граждан, назначение сотрудников на высокие должности должностей, установление ежемесячной заработной платы магистров, внедрение

В то же время несовместимость специальностей большинства педагогических работников, включая заведующих кафедрами, которые подлежат ротации в высших учебных заведениях, со специальностью предполагаемых эквивалентных должностей, в свою очередь, негативно сказывается на устранении ситуаций, противоречащих управлению существующими конфликтами представляющий интерес.

Изучая труды многих авторов по борьбе против коррупции следует отметить организационную структуру коррупционной преступности, где основными причинами в свойстве и условия, которые их допускают являются:

- 1) объем правовых норм направленная практика на борьбу с коррупцией относительная новизна;
- 2) отсутствие полной и объективной административной и уголовной статистики коррупционных правонарушений;
- 3) отсутствие республиканских, областных регистров, т. е. организаций, которые ведут реестр лиц, которым запрещено работать на государственной службе или в органах местного самоуправления;
- 4) низкий уровень учебно-методического обеспечения в подготовке специалистов по борьбе с коррупционной преступностью;

#### **Организация работ по пресечению коррупции в сфере образования.**

В соответствии с вышеуказанными обстоятельствами в будущем в системе высшего образования должна быть проведена следующая работа:

-сокращение участия человеческого фактора за счет постепенной оцифровки направлений в данной области;

-в целях совершенствования деятельности антикоррупционных департаментов, усиления сферы влияния проводимой ими работы исключить эти департаменты из рядов ректоров учебных заведений и организовать их как структурное подразделение министерства;

-усиление контроля широкой общественности за реализацией мер, направленных на предупреждение коррупции, дальнейшее повышение правосознания и правовой культуры студентов и педагогических работников, формирование нетерпимого отношения к коррупции;

-повышение уровня влияния правоохранительных органов, проведение встреч с участием представителей широкой общественности, круглых столов и других профилактических мероприятий на тему противодействия коррупции в деятельности министерства и высших учебных заведений;

-вести проведение не реже одного раза в учебный год мероприятий "Дня открытых дверей", посвященных работе, проводимой в области противодействия коррупции в разрезе факультетов, с участием родителей, средств массовой информации и представителей общественности студентов с целью обеспечения открытости образовательного процесса;

-меры, принятые по случаям, выявленным в ходе работы, проводимой в области противодействия коррупции в системе, предназначены для широкого освещения на официальных сайтах высших учебных заведений, а также в средствах массовой информации и социальных сетях.

Классификации и типологии коррупции в образовании разнообразны и могут осуществляться по различным основаниям. Например, в зависимости от типа образовательных организаций можно выделить коррупцию, существующую в дошкольных, общеобразовательных, профессиональных организациях и организациях высшего образования. Проведённое исследование позволяет сделать вывод, что коррупция в образовании – негативное социально-правовое явление, существующее в общественных отношениях в сфере образования и заключающееся в противоправном использовании должностного положения, статуса участниками отношений в сфере образования в целях извлечения выгод материального и (или) нематериального характера для себя или третьих лиц, а равно в предоставлении таких выгод.

**Заключение.** Коррупция - разрушительная сила, в результате которой разрушается народное хозяйство, углубляется социальное неравенство, теряется доверие к власти, подрывается моральный дух общества. Вопрос коррупции и национального развития-судьбы страны, приобретает как никогда важное и актуальное значение для будущего страны. Причина в том, что, не теряя этого зла, мы не можем достичь согласия нашего народа, процветания нашей страны, роста нашей экономики и, самое главное, чувства справедливости в нашем обществе.

Борьба с коррупцией, вытеснение этого зла из всех сфер и фронтов, превращение нашей страны в территорию, свободную от коррупции, - это задача не только государственного органа или общественной организации, но и гражданина этого государства, гражданина общества в равной степени. Таким образом, мы все должны не допустить эскалации этого зла, нарушения наших прав и интересов.

### Литература:

1. Доклад Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева на расширенном заседании Кабинета Министров, посвященном итогам социально-экономического развития страны в 2016 году и важнейшим приоритетным направлениям экономической программы на 2017 год. <http://www.mfa.uz/ru/press/news/2017/01/9952/>

2. Выступление Президента Узбекистана Ш. Мирзиёева на совещании, посвящённом деятельности Министерства иностранных дел и посольств нашей страны за рубежом. 12 января 2018. <https://mfa.uz/ru/press/news/2018/01/13631/>

3.Бафоев Ф.М., Турдиев Б.С. «Коррупциядан холи жамият сари». Научное пособие, Бухара-2023.

3. Акунченко Е. А. Игровые технологии в формировании нетерпимого отношения к коррупции в избирательном процессе среди несовершеннолетних // Красноярск: Типография «Город», 2014. С. 80–86.

4. Ванюхина Н. В., Скоробогатова А. И. Устранение конфликта интересов педагога как фактор профилактики коррупциогенного поведения в сфере образования // Диалектика противодействия коррупции: мат-лы III Всерос. науч.-практ. конф. Казань, 2013. С. 31–34.

5. Дергачев С. В. О некоторых правовых аспектах урегулирования конфликта интересов в образовательной сфере // Марийский юридический вестник. 2015. Т. 1, № 4 (15). С. 116–118.

6. Монахов О. Н., Захаров Н. В. Конфликт интересов преподавателя вуза в системе противодействия коррупции // Актуальные вопросы современной науки. 2015. № 39. С. 253–264.



## PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

### БЎЛАЖАК СПОРТ МУРАББИЙЛАРИНИНГ КОММУНИКАТИВ ҚОБИЛИЯТИНИ ЎРГАНИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

*Аллаёров Музаффар Мингалиевич,  
Қарши давлат университети  
allayorovmuzaffar@gmail.com*

*Касбий мулоқот бўлажак мураббийнинг коммуникатив қобилиятининг асосий қисмидир, у ҳар доим ҳамжамиятни, ўхшашликни, ўзгаларни англаш ва қабул қилишга бўлган ўзаро интилишни, нафақат оқилонга ўлчаш ва жавоб бериш, балки ҳиссиёт билан ҳамдард бўлишни назарда тутди.*

**Калит сўзлар:** коммуникатив, коммуникатив қобилият, замонавий педагогика, хабардорлик, ваколат, компетенция, ҳодисалар доираси, ҳиссий, барқарорлик, экстраверсия, муомала маданияти, васийлик, мураббийлик, шериклик.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ СПОРТИВНЫХ ТРЕНЕРОВ

*Профессиональное общение – основная часть коммуникативных способностей будущего наставника, оно всегда предполагает общность, схожесть, обоюдное стремление понять и принять других, не только рациональное измерение и реагирование, но и эмоциональное сопереживание.*

**Ключевые слова:** коммуникативность, коммуникативные способности, современная педагогика, информированность, авторитет, компетентность, масштаб событий, эмоциональность, устойчивость, экстраверсия, культура поведения, опека, коучинг, партнёрство.

### PEDAGOGICAL BASES OF STUDYING THE COMMUNICATIVE ABILITY OF FUTURE SPORT COACHES

*Professional communication is the main part of the future mentor's communicative ability, it always implies community, similarity, mutual desire to understand and accept others, not only rational measurement and response, but also emotional empathy.*

**Key words:** communicative, communicative ability, modern pedagogy, awareness, authority, competence, scope of events, emotional, stability, extraversion, culture of behavior, guardianship, coaching, partnership.

**Кириш.** Лойихавий таълим асосида бўлажак спорт мураббийларининг коммуникатив қобилиятини ривожлантириш, биринчи навбатда, шахснинг ривожланиши ва ўз-ўзини ривожлантириш жараёнида шаклландиган спорт мураббийининг шахсий сифати; иккинчидан, педагогик мулоқот мақсадлари, моҳияти, тузилиши, воситалари, қобилияти тўғрисида спорт мураббийининг хабардорлиги кўрсаткичи; тегишли коммуникатив қобилиятини билиш даражаси; мутахассиснинг индивидуал психологик фазилатлари; алоқа фаолиятини доимий равишда такомиллаштиришга интилиш; инсон шахсиятига йўналтириш, асосий кадрият сифатида, шунингдек, педагогик мулоқот жараёнида юзага келадиган муаммоларни, ижодий ҳал қилиш қобилияти.

Касбий мулоқот бўлажак мураббийнинг коммуникатив қобилиятнинг асосий қисмидир, у ҳар доим ҳамжамиятни, ўхшашликни, ўзгаларни англаш ва қабул қилишга бўлган ўзаро интилишни, нафақат оқилонга ўлчаш ва жавоб бериш, балки ҳиссиёт билан ҳамдард бўлишни назарда тутди.

**Асосий қисм.** Педагогик адабиётларда “коммуникатив қобилият” тушунчаси нисбатан яқинда кенг тарқалди. 1960 йилларнинг охири 1970 йилларнинг бошларида ғарбда ва 1980 йилларнинг охирида маҳаллий адабиётларда махсус йўналиш – таълимда лойихавий таълимга асосланган ёндашув пайдо бўлди. Коммуникатив ёндашувда таълим натижасига эътибор берилди ва натижада, олинган маълумот миқдори эмас, балки инсоннинг қобилияти турли хил муаммоли вазиятларда ҳаракат қилиш, шу билан бирга, таълим натижалари таълим тизимидан ташқарида муҳим деб тан олинади.

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.** Замонавий педагогика фани амалиётида “коммуникатив” ва “коммуникатив қобилият” тушунчалари фақат XX асрнинг 90 йиллари охирида

ишлай бошлади. В.И. Дал компетенцияни тўла ҳуқуқ сифатида тушунади ва уни, асосан, ҳуқуқий соҳада қўллайди: “Бирор кишини, нимани ёки кимнидир ҳакамлик қилишга қодир бўлган ва ҳуқуқига эга бўлган ваколатли судя” [1].

Д.И.Ушаков турли муаллифларнинг фикри ва улар орасидаги фарқларни исботлашга ҳаракат қилади коммуникатив қобилият хабардорлик, ваколат; компетенция маълум бир шахс ваколати, билимлари, тажрибаси, техник топшириқларига эга бўлган муаммолар, ходисалар доираси”, компетенция бу ўзига хос шахсий хусусият, ваколат эса ўзига хос профессионал ёки функционал тўпламдир[2].

Д.Иванов бу тушунчаларни бироз бошқача тарзда баён этади. Коммуникатив қобилият деганда, инсон яхши биладиган, билим ва тажрибага эга бўлган қатор масалалар тушунилади. Муайян соҳада мутахассис бўлган одам тегишли билим ва қобилиятларга эга бўлиб, унга ушбу соҳани оқилона баҳолаш ва бу ерда самарали ҳаракат қилиш имкониятини беради.[3]

А.С.Белкин таъкидлаганидек, компетенцияни инсон онги таркибидаги билим таркибий қисмларнинг тўплами деб тушуниш керак, кейин ҳаёт ва инсон фаолиятининг энг муҳим жиҳатлари, унинг тўлақонли мавжудлигини таъминлаш, ваколатларни амалга ошириш усуллари тўғрисида маълумотлар тизими мавжуд. Ўзининг ваколатига кўра, муаллиф инсон жамият аъзосининг ижтимоий аҳамиятга эга бўлган ҳуқуқ ва мажбуриятларни амалга оширишда эга бўлган ижтимоий функцияларнинг умумийлигини тушунади [4].

Агар биз келажакдаги ўқитувчининг малакасини шакллантиришни олий таълим тизими доирасида кўриб чиқсак, унда билим, қобилият ва кўникмалар, қобилиятлар, яъни мутахассиснинг тайёрлиги ҳақида гапириш мумкин.

Педагогика фанида компетенция тушунчаси қуйидагича кўриб чиқилади: меҳнат самарадорлигини белгилайдиган билим ва кўникмалар тўплами; вазифаларни бажариш қобилиятлари миқдори; шахсий хусусиятлар ва хусусиятларининг комбинацияси; билим ва профессионал аҳамиятга эга шахсий фазилатлар тўплами; профессионализация вектори ишлашга назарий ва амалий тайёрликнинг бирлиги мураккаб маданиятга ўхшаш ҳаракат турларини амалга ошириш қобилияти ва бошқалар.

Шундай қилиб, биз ўқитувчининг икки томонлама эътиборга эга бўлган коммуникатив, ахборот ва тартибга солувчи асосий компетенциялари ҳақида фикр юритишимиз мумкин, бу ўқувчиларга ва ўзига қаратилган. Ўқитувчининг коммуникатив компетенцияси бу касбий аҳамиятга эга, интеграл сифат бўлиб, унинг асосий таркибий қисмлари қуйидагилардир: ҳиссий барқарорлик (мослашувчанлик билан боғлиқ); экстраверсия (мақом ва самарали етакчилик билан боғлиқ); тўғридан-тўғри ва тескари алоқани лойихалаш қобилияти; нутқ қобилиятлари; тинглаш қобилияти; мукофотлаш қобилияти; нозиклик; мулоқотни “силлиқ” қилиш қобилияти [5].

Замонавий тадқиқотларда коммуникатив компетенция ўқитувчидан (коммуни-катордан) ўқувчига (қабул қилувчига) ва, аксинча, маълумотни семантик идрок этишни таъминлайдиган педагогик функциялар тўпламини ўзлаштириш деб тушунилади.

Коммуникатив компетенциянинг тузилиши анча мураккаб, кўп даражали ва кўп факторли хусусиятга эга. Биз фақат унинг педагогик жараён билан бевосита боғлиқ бўлган, амалий жиҳатдан энг кўп талаб қилинадиган ва илмий-педагогик адабиётларда чуқур ўрганилган таркибий қисмларига тўхталамиз. Коммуникатив компетенциянинг асосий таркибий қисмларини очиб берамиз:

Биринчи компонент бу келажакдаги ўқитувчининг кадр-қимматга бўлган ўз-ўзини тутиши.

Коммуникатив қобилият иккинчи компоненти бу матн ва нутқни таҳлил қилиш, саволлар бериш, уларга жавоб бериш, диалог ва монолог ўтказиш, ўз нуқтаи назарингизни ҳимоя қилиш, нуқтаи назардан мулоҳаза юритиш имконини берадиган билим, кўникма ва малакаларнинг интеграл комплекси.

Коммуникатив компетенциянинг учинчи компоненти бу муомала маданияти, бу турли хил алоқа вазиятларида етарли хулқ-атворга оид билим, кўникма ва малакалар тизимидир [7].

Коммуникатив компетенциянинг бир қисми сифатида педагогик алоқада нутқнинг ҳар хил турлари мавжуд, аммо мураббийни ишонтирадимиз, хабар берадимиз, мураббий ўқувчиларни чақирадимиз, қатъи назар, унинг нутқига алоҳида талаблар қўйилади: тўғрилиги, аниқлиги, соддалиги, изчиллиги, мавжудлиги, бойлиги (лингвистик воситаларнинг хилма-хиллиги), образлиги, эмоционаллиги. “Мулоқотда нафақат сўзлар, балки сўзларни бошқа одамларга таъсир ўтказиш воситасига айлантирадиган нарса қандай айтилгани ҳам муҳимдир” [8].

Мулоқотни коммуникатив қобилиятнинг таркибий қисми сифатида алоҳида ажратиб, А.С.Белкин ўзаро алоқани унинг энг муҳим жиҳати деб таъкидлайди:

–васийлик (мактабгача ёшдаги давр) катталарнинг мақсадларни белгилашда ва болага ёрдам беришдаги максимал ролини, мақсадларни англашнинг энг паст даражаси ва болаларнинг катталарга ёрдам беришда минимал ролини бажариши билан тавсифланади;

–мураббийлик (бошланғич мактаб даври) бўлажак спорт мураббийларига ёрдам беришда болалар ролининг ошиши катталарнинг ҳал қилувчи роли билан ажралиб туради;

–шериклик (бошланғич мактаб, ўсмирлик ёши), бу ерда катталарнинг роли устун туради, аммо мақсадларни англашда тенглик сақланиб қолади, педагог фаолиятнинг муваффақияти биргаликдаги ҳаракатларнинг нисбатан тенглиги билан таъминланади;

–коммуникатив қобилият (ёш ва каттароқ ўспиринлик),бу ерда катталарнинг роли етакчи сифатида белгиланади, ўзаро таъсир иштирокчилари томонидан мақсадлар бирлигини етарлича англаш;

–муваффақият биргаликдаги саъй-ҳаракатларнинг тенглиги

Ушбу босқичларни билиш коммуникатив қобилиятнинг асосини ташкил этади, чунки мураббий турли ёшдаги болалар билан мулоқотни ҳаддан ташқари ҳолатларни истисно қиладиган тарзда ташкил этиш имкониятини беради.

**Тадқиқот методологияси.** Коммуникатив қобилият нуқтаи назаридан педагогик тактика мураббийнинг маънавий етуклиги натижасини акс эттиради. Аввало, бу болаларнинг ёши ва индивидуал хусусиятлари психологиясини билиш; ахлоқ асосларини билиш; ҳаракатларнинг ахлоқий маъносини кўриш қобилияти; талабаларга таъсир ўтказиш усулларини билиш; педагогик маҳорат; болаларни севиш; болалар хулқ-атворини кузатиш; атроф муҳитни бошқариш; тегишли таъсир усулини танлаш; болалар билан суҳбатлашиш; ўз-ўзини бошқариш ва ўзини тутиш, адолатлилик, бошқаларнинг тажрибасида ижодкорлик; педагогик техникани ривожлантириш, ҳазил туйғуси. Буларнинг барчаси талабадаги шахсга бўлган ҳурмат ва унинг кадр-қиммати билан ажралиб туради.

Шундай қилиб, педагогик тактикада касбий компетенция, коммуникатив қобилият, психологик хушёрлик ва педагогик техника бирлаштирилади. Мураббийнинг фаолияти ҳеч қачон фақат профессионал доирада чекланмайди. Унинг ишбилармонлик фазилатлари инсон шахсияти билан узвий боғлиқдир. Шунинг учун педагогик тактикада спорт мураббийининг умумий маданияти, унинг ижтимоий етуклиги, такомиллаштириш бўйича доимий иши ўз ифодасини топади.

**Таҳлил ва натижалар.** Педагогик мулоқотнинг навбатдаги таркибий элементи бу тактикадир, бу педагогик такт билан боғлиқ. Мураббий болалар олдида турли хил ролларни ижро этади: дарсда синф дарсга тайёр бўлмаганда аниқлик, тўғрилиқ, жиддийлик ва оҳанглари; синфдан ташқари ишларда самимийлик, эркинлик, бу айниқса индивидуал суҳбатда зарур; ўйин пайтида дўстлик, бўш вақтини мазмунли ўтказишга ишониш.

Шунинг учун турли хил алоқа шакллари спорт мураббийинг оҳангни ўзгартиришни талаб қилади.

Юқоридагилар коммуникатив қобилиятнинг таркибига хос функцияларни аниқлашга имкон беради. Унинг ядроси педагогик алоқа эканлигини ва педагогик алоқа таълим жараёнига хос деярли барча асосий функцияларни бажаришини ҳисобга олсак, функционал характеристикани, бизнинг фикримизча, шу нуқтаи назардан ёзиш мумкин. Аммо коммуникатив қобилият учун ушбу функциялар ўзига хос хусусиятларга эга бўлади. Эслатиб ўтамиз, педагогик қобилият, авваламбор, алоқа ахборотни узатиш, педагогик жараён иштирокчилари ўртасида маълумот алмашиш тушунилади. Ахборот бериш мураббийнинг барча ҳаракатларига ҳамроҳ бўлади. Ахборот алмашиш бу педагогик фаолиятнинг энг қийин йўналиши

Шу нуқтаи назардан, биз коммуникатив ахборот функциясини алоҳида таъкидлаيمиз, бу кундалиқ, ўқув, услубий, изланиш ва бошқа характердаги баъзи маълумотларни алоқа орқали етказишдан иборат. Ушбу функцияни амалга ошириш тўпланган ҳаётий тажрибани, илмий билимларни ўзгартиришга ёрдам беради, шахсни моддий ва маънавий кадриятлар билан таништириш жараёнини таъминлайди.

Коммуникатив билим бу мураббийнинг, умуман, алоқа нима эканлигини, унинг турлари, босқичлари, шакллари, ривожланиши қандай эканлиги ҳақидаги билимдир. Бу қандай таълим усуллари ва техникаси мавжудлиги, қандай таъсир кўрсатиши, уларнинг имкониятлари ва чекловлари қандай эканлиги ҳақидаги билимдир. Шунингдек, қайси усуллар ҳар хил болалар ва турли хил ўқитиш вазиятлари учун самарали эканлигини билишдир. Бу алоқа қобилиятининг ривожланиш даражаси ва қайси усуллар айнан “менинг фаолиятимда” самарали эканлиги ва қайси бири самарали эмаслиги ҳақидаги билимдир.

**Хулоса ва таклифлар.** Ўрганиш жараёнида коммуникатив қобилиятни шакллантириш, эҳтимол, қуйидаги йўналишлар ҳисобга олинган ҳолда самарали давом этади, деган тахминни илгари суришга ундайди:

1) бўлажак спорт мураббийининг коммуникатив қобилиятини шакллантиришни касбий фаолият ва педагогикадан ажратилган эмас, балки яхлит, умумий тамойиллар ва табиат ҳодисалари асосида қурилган деб ҳисоблаш керак;

2) ҳар бир талабанинг касбий ривожланишини иллюстратив-монографик кузатиш усули ва унинг одатдаги вазиятларда ривожланишини тавсифлаш ва башорат қилиш усули билан амалга ошириш лозим;

3) келажакдаги спорт мураббийининг коммуникатив қобилиятини шакллантириш технологияси иллюстратив-монографик кузатиш ва тавсифлаш усулини амалга ошириш натижасида олинган педагогик ташхисдан келиб чиқади ва уни шакллантиришнинг коммуникатив қобилиятлари, кўникмалари ва тажрибаларини ривожлантиришнинг индивидуал траекториясини амалга оширади.

#### Адабиётлар:

1. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка [текст]: в 4-х т. Т. 2, / В.И. Даль; под ред. М.И. Бодуэна де Куртене. – М.: Цитадель, 1998. – С. 1024.

2. Толковый словарь русского языка: в 4-х т. Т.1/ под ред. Д.И. Ушакова. – М., 1985.

3. Иванов Д.А. Компетентный подход в образовании. Проблемы. Понятия. Инструментарий / Д.А. Иванов, К.Г. Митрофанов, О.В. Соколова. – М., Белкин А.С. Педагогическая компетентность/ А.С. Белкин, В. Нестеров. – Екатеринбург, 2003. – С.

4. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejarida amaliy kasbiy ta’limni tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirish / Ped.fan.fal.dok. ... dis. – Т., О‘МКНТТКМОҚТИ, 2018. – В. 176.

5. Умиров И. (2021). Таълим жараёнида электрон таълим воситаларини қўллашнинг педагогик омиллари. *Academic research in educational sciences*, 2(2).

6. Нуруллаев У.А. (2021). Ўқитишнинг муаммоли шакли ва унинг ўқув жорий этишнинг назарий-методик жиҳатлари. *Academic research in educational sciences*, 2(2).

7. Бегматов Б. (2021). Техника олий таълим муассасалари талабаларининг касбий мослашиш жараёнини амалиётнинг аҳамияти. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 932–938.

8. Daniyarovna H.S. (2021). The Contents of Students’ Independent Education and Methods of Implementation. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1445–1456.

## UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA LOYIHAGA ASOSLANGAN TA’LIMDAN FOYDALANISH

*Abdieva Gulara Babaniyazovna,*

*Toshkent viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi,  
“Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim metodikasi” kafedrası mudiri, PhD*

*Gulim.120969@gmail.com*

*Ushbu maqolada amaliy fanlar yo’nalishlarida loyihaga asoslanib darslarni qiziqarli tarzda amalga oshirish va ulardan dars jarayonlarida foydalanish usullarining o’quv jarayoniga tatbig’i haqida ma’lumotlar berilgandır. Bugungi kunda ta’lim sohasida fan va texnikaning keyingi yutuqlari asosida ishlab chiqilayotgan yangi metodlar information texnika va innovatsion texnologiyaning qo’llanilishi ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgandır.*

*Zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida o’qitish tizimining vazifasi o’quvchilarning fikr va g’oyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o’rinda loyihaga asoslanib darslarni qiziqarli tarzda amalga oshirish hamda o’quvchilarni kasbga yo’naltirish uchun ham o’quv jarayonida amaliy ishlarni bajarishda interfaol metodlar bilan birgalikda yuqorida keltirishi mumkin bo’lgan usullardan foydalanish maqsadlidir.*

**Kalit so’zlar:** *loyiha, texnologiya, innovatsiya, kuzatish; tajriba, o’lchash, taqqoslash, intervyu, tahlil qilish zamonaviy yondashuvlar, innovatsiyalar asosida o’qitish, g’oyalarini rivojlantirish, loyihaga asoslanish, kasbga yo’naltirish, interfaol metodlar.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОЕКТНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*В данной статье представлена информация о применении в учебном процессе методики увлекательной реализации проектных занятий по направлениям прикладных наук и их использования в курсовых процессах. Новые методы, разрабатываемые сегодня на основе последних достижений науки и техники в области образования, отражают важность применения информационных технологий и инновационных технологий.*

*Миссия системы обучения, основанной на современных подходах и инновациях, заключается в том, чтобы побудить учащихся развивать свои мысли и идеи. На этом этапе целесообразно использовать методы, которые могут быть приведены выше, в сочетании с интерактивными методами при выполнении практической работы в учебном процессе, как для увлекательной реализации уроков на основе проекта, так и для профессиональной ориентации учащихся.*

**Ключевые слова:** *проект, технология, инновации, наблюдение, опыт, измерение, сравнение, интервью, анализ, современные подходы, обучение, основанное на инновациях, развитие идей, проектная направленность, профессиональная ориентация, интерактивные методы.*

## USE OF PROJECT-BASED EDUCATION IN COMPREHENSIVE SCHOOLS

*This article provides information on the implementation of lessons in the areas of Applied Sciences in an interesting way based on the project and their use in lesson processes. Today, information about the importance of the application of technology and innovative technology information new methods, which are being developed on the basis of the later achievements of science and technology in the field of education, is presented.*

*The task of the system of training on the basis of modern approaches and innovations is important in the development of ideas of streamers. At the same time, it is intended to carry out classes in an interesting way based on the project, as well as to guide students to the profession, as well as to use the methods that can be brought above in combination with interactive methods when performing practical work in the educational process.*

**Keywords:** *project, technology, innovation, observation; experience, measurement, comparison, interviews, analysis, modern approaches, innovation-based learning, development of ideas, project orientation, career guidance, interactive methods.*

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoniga [2] asosan, maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: 2022 — 2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur tasdiqlandi [3].

**Ilmiy yangiligi.** Loyihaga asoslangan ta’lim asosan – o‘quv fanlari bo‘yicha bilim darajasini oshiradi, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o‘quv materiallarini o‘zaro tabiiy ravishda uzviylikda bo‘lishini ta’minlaydi. Darslarda o‘quvchilarda ongli ravishda qiziqish faoliyati, mustaqil fikrlash qobiliyati rivoj topadi; ularda o‘quv faniga nisbatan shaxsiy munosabatda mustaqil fikrlash rivojlanadi va ijodkorlik hissi shakllanadi. Integratsiyalashtirilgan darsda ta’lim-tarbiya uzviyligi ham butun holda amalga oshadi. Ta’limda o‘quv fanlarini uzviylikda o‘rganish o‘quvchilar bilimini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida muhim o‘rin tutadi. Qolaversa o‘quvchilarni yangiliklar sari yetaklaydi, ya’ni innovatsiyalar ustida bosh qotirishga zamin yaratiladi.

Innovatsiya-innovation-lotincha (“kiritish”), (“yangilik kiritish) biror bir sohada yangilik kiritilishini anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi fanga XIX asrda antropologiya va etnografiya orqali kirib keldi. Innovatsiya madaniyatdagi o‘zgarish jarayonini ifodolovchi, traditsiya-an‘anachilikning antinomi sifatida rivojlandi. Innovatsiya yangi tashkil topayotgan diffuziya-hodisasi, ijtimoiy taraqqiyot natijasida boshqa madaniyat yutuqlarining yoyilishi va qabul qilinishi bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida madaniy evolyutsion taraqqiyot tushunchasi o‘rniga kirib keldi. Innovatsiya eng avvalo odamlar faoliyati bilan bog‘liq jarayondir.

**O‘rganilganlik darajasi.** Bugungi kunda pedagogikaga oid ilmiy izlanishlarda o‘quv fanlarini o‘qitishdagi tarqoqlikni bartaraf qilishga qaratilgan shakl, metod hamda vositalar tizimini, ularning asosi bolgan o‘qitish va tarbiyalash jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Demak, o‘quvchilarni barkamol inson qilib yetkazishga, ularning xalq insonparvarligi chashmalarida, umumbashariy qadriyatlardan bahramand bo‘lishlariga e’tibor berish lozim. Bunda ma’naviyat - madaniyatdan oqilona foydalanish, o‘quvchilarni vatanparvarlik, rostgoylik, xalqsevarlikka o‘rgatish kerak bo‘ladi. Bu ko‘rsatmalar tabiiyki, ta’lim jarayonida fanlarni integratsiyalash yo‘llarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida o‘qitish tizimining vazifasi oquvchilarni fikr va g‘oyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda loyihaga asoslanib darslarni qiziqarli tarzda amalga oshirish hamda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish uchun ham o‘quv jarayonida amaliy ishlarni bajarishda interfaol metodlar bilan birgalikda yuqorida keltirishi mumkin bo‘lgan usullardan foydalanish maqsadlidir.

#### **Loyihaga asoslangan ta’limda**

- O‘quvchi o‘z faoliyatini o‘zi belgilaydi– o‘qituvchi ko‘mak beradi;
- O‘quvchi yangi bilimlarni kashf etadi– o‘qituvchi yangi manbalarni tavsiya etadi;
- O‘quvchi tadqiqot qiladi – o‘qituvchi faoliyatni tashkillashtirishga yordam beradi;
- O‘quvchi xulosa chiqaradi – o‘qituvchi kutilayotgan natijani prognoz qiladi;
- O‘quvchi faol – o‘qituvchi faollik uchun sharoit yaratadi;
- O‘quvchi ta’lim subyekti– o‘qituvchi partnyor;
- O‘quvchi o‘z faoliyati uchun mas’ul – o‘qituvchi olingan natijalarni baholashga va o‘z faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi.

**Tahlil va natijalar.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amaliy fanlarni o‘qitishda pedagoglar o‘zini-o‘zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun doimiy ravishda izlanishda bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘qituvchilar axborot kommunikatsion texnologiyalarni mukammal o‘rganib o‘quv jarayoniga tadbir qiladigan va o‘quvchilar uchun qiziqarli dasturlarda vazifa, topshiriq, topishmoq tuzib darslarda qo‘llashi kerak. Hozirgi kunning dolzarb vazifalarida bo‘lgan *Ixtiro shunday ijodki*, mavjud bilimlar, nazariyalar asosida tabiiy narsa va hodisalardagi modda, energiya va shaklni maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartirish yo‘li bilan u yoki bu funksiyani bajaradigan buyumlar, asbob uskunalar, moslamalar va texnologiyalar yaratiladi. Ixtiro bevosita bunyodkorlikka olib keladigan ijoddir. Insoniyat yaratgan sun’iy (madaniy) muhitdagi barcha narsalar o‘z vaqtida qilingan ixtirolarning natijasidir.

Fundamental va amaliy tadqiqotlar ilmiy-texnika dasturlari (keyingi o‘rinlarda «Dasturlar» deb ataladi) — davlat buyurtmasi asosida bajariladigan, mablag‘lar bilan ta’minlangan, ilmiy-texnikaviy yo‘nalishlari, ijrochi tashkilotlari, rahbarlari belgilangan ilmiy loyihalar to‘plamidir. Ilmiy loyiha —

fundamental va amaliy tadqiqotlar mavzusi, maqsadi, vazifalari hamda tadqiqotdan kutiladigan natijalari belgilangan ilmiy ishdur.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda Qo‘mita deb yuritiladi) moliyaviy taqsimot bo‘yicha taklifi keyingi 3 yilda budjet mablag‘larining Dasturlar va vazirliklar bo‘yicha taqsimotidan, shuningdek vazirliklarda mujassamlashgan ilmiy salohiyat va mavjud moddiy-texnik bazani inobatga olib, ular bilan kelishilgan holda shakllantiriladi.

#### **Loyiha ishini bajarish bosqichlari**

1. Har qanday loyiha muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan bo‘ladi. O‘quvchi o‘zining qiziqishiga asoslanib, hal qilinishi zarur bo‘lgan muammoni topishi kerak.

2. O‘quvchi loyiha maqsadiga erishish uchun vazifalarni va ularni amalga oshirish muddatini belgilaydi.

3. Loyiha mahsulotini yaratish va natijaga erishishga alohida e‘tibor qaratiladi. Unda rejalashtirish bosqichida belgilangan ishlarni bajarish juda muhimdir.

4. O‘quvchi maqsadga erishdimi yoki yo‘qmi, uning o‘zi va bajargan ishi haqida xulosa chiqarishi muhimdir, bu esa kelgusida samaraliroq ishlashga imkon yaratadi.

#### **Loyiha ishini bajarishda qo‘llaniladigan uslub va usullar ma‘lumot olish uslublari**

- kuzatish;
- tajriba;
- o‘lchash;
- taqqoslash;
- intervyu;
- tahlil qilish.

#### **ma‘lumotlarni qayd etish usullari**

- diagramma, grafik, sxema;
- jadval;
- xarita;
- fotosurat, audio va video materiallar;
- model va prototiplar.

#### **O‘z-o‘zini rivojlantirish texnikasi**

O‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni o‘ziga xos tarzda qiyin va ilgari bu haqda o‘ylamaganlar uchun tushunarsizdir. Ba‘zida bu mexanik ravishda sodir bo‘ladi, hatto odamning o‘zi ham sezmaydi. Ammo samarali natijaga osonroq va tezroq erishishga yordam beradigan o‘z-o‘zini rivojlantirishning ishlab chiqilgan usullari mavjud.

O‘z-o‘zini anglashning to‘g‘ri usullarini tanlab, maqsadlaringizga erishish va o‘zingizni maksimal darajada oshirish juda oson. Shuning uchun ba‘zida o‘z sohasidagi mutaxassislardan yoki malakali o‘qituvchi murabbiydan yordam so‘rash juda muhimdir.

Ilmiy tadqiqot sohasida ixtiro yangi eksperimental uskunalari, izlanish vositalari va usullari, modellar va laboratoriyalarni yaratishda namoyon bo‘ladi. Sohalariga qarab yangilikni yaratish ijtimoiy, ilmiy, badiiy, amaliy va boshqa turlarga bo‘linadi. Yangilik ochilsa, u birinchi marta kuzatish ob‘ektiga aylansa-kashfiyot hosil bo‘ladi, agarda oldin mavjud bo‘lmagan tuzilma yaratilsa, unda ixtiro vujudga keladi. O‘quvchilarni o‘rgatish orqali qiziqarli topshiriqlarni dars jarayonlarida o‘quvchilar bilan birgalikda bajarilsa maqsadga erisha olamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son qarori

• Ushbu qarorga asosan Respublikamizning har bir hududida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochildi.

• Ular STEAM fanlarini o‘qitishga ixtisoslashgan.

• STEAM — maktab o‘quvchilarini yangi o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi.

• U bolalarni bir vaqtning o‘zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san‘at) va Mathematics (matematika) bo‘yicha o‘qitish tizimiga asoslangan, bunda o‘quvchilar amaliy va ko‘ngilochar loyihalari mashg‘ulotlari yordamida saboq oladilar.

STEAM ta‘limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, so‘ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya‘ni o‘yinlarda konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo‘llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi. STEAM ta‘limi o‘quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam

bilan bevosita bog‘laydi. Ma’lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog‘liq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo‘llaniladi, muhandislik esa uylar, yo‘llar, ko‘priklar va mashina mexanizmlarda o‘z aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mag‘ulotlarimiz ozmi-ko‘pmi matematika fani bilan ham bog‘langandir.

STEAM ta’limi asosida yondashuv o‘quvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda o‘rganishga, atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o‘quvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o‘zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, yechimini topishning algoritimini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi.

1) Ta’lim berishni o‘quv fanlari bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalab olinadi. STEAM ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muxandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog‘liq kasblarga bo‘lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

2) Ilmiy –texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash. STEAM ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi, va modelini rivojlantiradi. Ular aniq loyihani o‘rganadi, natijada real mahsulotning prototipini yaratadilar.

3) Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarni rivojlantirish va muammolarni yechish. STEAM dasturi, bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig‘ishda, so‘ngra uni sinovdan o‘tkazishadi.

4) O‘quvchi yoshlarni texnologik innovatsion hayotga tayyorlash. STEAM ta’lim o‘quvchi yoshlarni texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlaydi. Keyingi 60 yil davomida texnologiyalar jadal darajada rivojlanadi: Internetning ochilishi (1960), GPS texnologiyalar (1978) dan DNKni skanerlashgacha va albatta Ipod (2001). Texnologiyalar bundan keyin ham rivojlanishda davom etadi va STEAM ko‘nikmalar bu rivojlanishning asosi bo‘ladi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu maqola bo‘yicha xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’limni rivojlantirish uchun o‘z ustimizda ko‘proq ishlashimiz zarur. Chunki zamonamizda o‘zgarishlar juda tez rivojlanmoqda. STEAM o‘quvchilarda muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Muammolarni keng qamrovli tushunish

- Ijodiy fikrlash
- Muhandislik yondashuv
- Tanqidiy fikrlash

Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash, ayniqsa, yoshlarda qiziqish ko‘p va yoshlarimiz axborot kommunikatsiyalarni tez o‘zlashtirib hayotga aktivlashgan holda kirib kelishmoqda. Ularning hayotiy qiziqishlarini e’tiborga olib, o‘quvchilarga bilim orqali yordam berishimiz kerak.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi PF-79-sonli Farmoni.
3. 2022 — 2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4199-son Qarori.
5. Abdiyeva G.B. “Amaliy fanlarda texnika xavfsizligi qoidalari o‘quv qo‘llanma. 2023.T.Lesson Press. MChJ. 105 b.
6. Abdiyeva G.B. “Tizimli xavfsizlik masalalari” monografiya. 2023.T.Lesson Press. MChJ. 154 b.
7. www.Uzedu.uz – xalq ta’limi vazirligining rasmiy veb sayti.



**OLIV TA'LIMDA O'QITILADIGAN IJTIMOIV GUMANITAR FANLAR ASOSIDA  
BO'LJAK O'QITUVCHILARNI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TAYYORLASH  
MAZMUNI**

*Dilova Nargiza Gaybullayevna,*

*Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori*

*Maqolada oliy ta'limda o'qitiladigan ijtimoiy gumanitar fanlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash mazmuni, fanga qo'yilgan davlat talablari, egallanishi lozim bo'lgan malaka talablari va kompetensiyalar, bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabatlarga kirishish ko'nikmasini tarkib toptirish, ularning o'ziga xos xususiyatlari, qo'llash metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda ulardagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarni rivojlanishiga erishish, ularni baholash mezonlari haqida tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bilim, ko'nikma, malaka, davlat talablari, kompetensiyalar, sharq mutafakkirlari, shaxslararo munosabat, o'qitish shakllari, innovatsion usullar, baholash mezonlari, muloqot qilish ko'nikmalari, o'zaro hamkorlik, ta'lim sifati, hayotiy ko'nikmalar.*

**СОДЕРЖАНИЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К МЕЖЛИЧНОСТНЫМ  
ОТНОШЕНИЯМ НА ОСНОВЕ ОБЩЕСТВЕННО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК,  
ПРЕПОДАВАЕМЫХ В ВУЗах**

*В статье даётся информация о содержании подготовки будущих учителей к межличностным отношениям на основе социально-гуманитарных дисциплин, преподаваемых в вузах, государственных требованиях к предмету, квалификационных требованиях и компетенциях, которые необходимо приобрести, о содержании навыков межличностных отношений у будущих учителей, их особенностях, методике применения. развитию навыков и компетенций, даны рекомендации по критериям их оценки.*

**Ключевые слова:** *знания, умения, навыки, государственные требования, компетенции, восточные мыслители, межличностные отношения, формы обучения, инновационные методы, критерии оценки, коммуникативные навыки, взаимодействие, качество образования, жизненные навыки.*

**THE CONTENT OF THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR  
INTERPERSONAL RELATIONS ON THE BASIS OF SOCIAL HUMANITIES TAUGHT IN  
HIGHER EDUCATION**

*The article provides information on the content of preparing future teachers for interpersonal relationships on the basis of social humanities taught in higher education, state requirements for science, requirements and competencies to be acquired, content of the skills to enter into interpersonal relationships in future teachers, their peculiarities, methodology of application, achieving the development of knowledge, skills, qualifications and competencies in, recommendations have been made about the criteria for their assessment.*

**Keywords:** *knowledge, skills, qualifications, state requirements, competencies, Eastern thinkers, interpersonal skills, forms of training, innovative methods, evaluation criteria, communication skills, interaction, quality of education, life skills.*

**Kirish.** Rivojlanib borayotgan jamiyat, ijtimoiy madaniyat va sifatli ta'lim taraqqiyoti sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy-gumanitar fanlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lim yondashuvlarini qo'llash, bo'lajak pedagogning innovatsion faoliyati bo'lmish axborot, pedagogik yangiliklardan xabardor bo'lish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'lgan tizimga e'tibor qaratish, ta'lim mazmuni insonparvarlashtirish, o'qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini qidirish bugungi dolzarb vazifalardan biridir. Barcha ta'lim texnologiyalari falsafiy, pedagogik, psixologik, didaktik va ta'limiy maqsadlarning aniq ilmiy g'oyalariga asoslanadi hamda sifatli ta'lim maqsadlariga erishishda kuch va vaqt sarf qilishda inson imkoniyatlari va texnik zaxiralardan foydalanish bo'yicha maqbul yo'l va

vositalarni ta’minlash orqali ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili bo’lib hisoblanadi.

Dastlabki pedagogik faoliyat jarayonini tashkil etish va unga rahbarlik qilish, talabalarning umumiy qiziqishlari asosida amalga oshiriladi. Bu yerda shaxslararo munosabatlar katta rol o’ynaydi. Shaxslararo munosabatlarning muayyan natijalarni berishi bu faoliyatning muhim samarasi hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Maqsadimiz talaba va o’quvchilarning o’z o’stida mustaqil ijodiy- produktiv ishlashlari, bolalik orzularini ro’yobga chiqarish, tasavvurlarini kengaytirish, ochiqlik, yorqinlik va betakrorlikdir. O’quvchilarda shakllantirilishi lozim bo’lgan 5 ta muhim: kommunikativ; axborot bilan ishlash; shaxs sifatida o’z- o’zini rivojlantirish; ijtimoiy faol fuqarolik; umummadaniy; yangiliklaridan xabardor bo’lish hamda foydalanish kompetensiyalarini dars jarayonida shakllantirish uchun, uni rivojlantirish shaklida berish uslubi tanlandi. Mazkur kompetensiyalar talaba va o’quvchining yosh, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir o’quv predmetini o’qitish jarayonida shakllantirilib borilishini inobatga olib, ta’limning amaliyotga yo’naltirilganlik jarayonini kuzatish, tushunish va tushuntirish; tajribalar o’tkazish, xulosalar chiqarish; psixologik-pedagogik bilimlardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyalarini shakllantirish ko’zda tutildi. Shu nuqtayi nazardan talabalarning dars paytidagi fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu o’rinda talabalarda ta’limiy-tarbiyaviy kompetensiyalarni rivojlantirish dinamikasini o’rganish bilan birga, usul, metod va ta’lim texnologiyalarning samaradorligini aniqlash xususida olib boradigan ijro mexanizmini ko’rib chiqamiz.

Bugungi kunda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida uzluksiz ta’limning muhim qadriyati bo’lgan mustaqil ta’limning va ijtimoiy omilning o’rni beqiyosdir. Ayni o’rinda ta’limiy qadriyatlardan ayrimlari namoyon bo’ladi. Ular quyidagilardir:

1. O’qitish jarayonida ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish.
2. Pedagogik amaliyot davrida ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish.
3. Bo’lajak o’qituvchi shaxsining ijtimoiy faolligi.

Ma’lumki, ta’lim- o’qituvchi va o’quvchi orasida o’rnatiladigan pedagogik munosabatlar majmuidir. Ana shu munosabatlarda o’zaro ishonch, talab va tartib muhimdir, ya’ni bilimlar ortib boradi intellekt mukamallashadi. Ijtimoiylashuv - bu ma’lum ijtimoiy sharoitlarda atrofdagilar, Bo’lajak hamkasblarining faoliyatini obyektiv baholash, ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirishda faol ishtirok etishdir. Bu tizim bo’lajak o’qituvchi shaxsning maqsadlari, faoliyati hamda pedagogik muhitni qabul qilish xususiyatlarini aniqlaydi, tashqi omillarga ta’sir ko’rsatadi.

Bo’lajak o’qituvchilarning pedagogik amaliyot davridagi faoliyatlarining ko’rsatkichlari quyidagilardir: mahsuldorlik, qoniqarlilik, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, mehnatga halol munosabatda bo’lishi, ijtimoiy faollik, qadriyatli yo’nalishi va boshqalar.

“Umumiy pedagogika, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Pedagogik mahorat” kabi fanlar oliy ta’lim muassasalarining bakalvriat bosqichi uchun mo’ljallangan bo’lib, ularning fan dasturlari Davlat ta’lim standarti va namunaviy o’quv reja asosida tuzilgan. Ushbu kurs o’z ichiga pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta’lim nazariyasi), ta’lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta’lim mazmuni, ta’lim metodlari va vositalari, ta’limni tashkil etish shakllari, o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini tashxis etish, ta’lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishda Bo’lajak o’qituvchini tayyorlash strategiyalari, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, ta’lim muassasalarini boshqarish, korreksion pedagogika asoslarini o’z ichiga qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

“Umumiy pedagogika” fanning mazmuni quyidagilarni o’zida aks ettiradi.

Fanni o’qitishdan maqsad – Bo’lajak o’qituvchilarga ta’lim va tarbiya jarayonlarining nazariy va amaliy asoslarini o’rgatish, ularni pedagogik faoliyat mazmuni, umumpedagogik bilimlar, pedagogik madaniyat, kasbiy-pedagogik kompetentlik tushunchalari bilan tanishtirish, innovatsion ta’lim jarayoniga tayyorlash orqali pedagogik jarayonda muvaffaqiyatga erishishlarini ta’minlovchi shaxsiy kompetentlikka ega bo’lish, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlarga kirisha olish, zamonaviy ta’lim sifatini oshirishda o’zaro hamkorlikni ta’minlash, kasbiy xulq-atvor hamda muloqotga e’tiborli bo’lishni o’rgatishdan iborat.

Fanning asosiy vazifasi – fanning ilmiy, amaliy va metodologik asoslarini o’rgatish, ta’lim jarayonini innovatsion boshqarish, inkluziv ta’lim sharoitida samarali faoliyat yuritish, pedagogik mahoratni egallash yo’llari, ta’lim muassasasining ish hujjatlarini to’g’ri yuritish, pedagogik manbalar, xorij tajribasi, ilg’or tajribalarni o’rganish va o’z pedagogik faoliyatida natijaviylikni ta’minlagan holda qo’llay olish kabi ko’nikma va malakalarini shakllantirishni o’z ichiga oladi.

“Umumiy pedagogika” fanini o‘qitish jarayonida Bo‘lajak o‘qituvchilarni Sharq mutafakkirlari merosi vositasida shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda: “Pedagogik jarayonda tarbiyaning mazmuni”, Tarbiya jarayonining shakllari va metodlari”, “Ta’lim jarayonining mohiyati”, “Ta’limning tashkiliy shakllari va metodlari”, “Ta’limda innovatsion jarayonlar”, “Maktab – pedagogik tizim sifatida”, “Pedagogik kompetentlik va kreativlik” kabi amaliy soatlar uchun ajratilgan mavzularni o‘tishda innovatsion yondashuvlar asoslanib o‘rganish juda yaxshi samarali natija beradi.

Jumladan, fanni o‘rganishda pedagogik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari, ibtidoiy jamiyatda tashkil etilgan tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, “Avesto”, hamda qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida tarbiya va maktab, Sharq uyg‘onish davrida ta’lim-tarbiya taraqqiyoti, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino ilmiy merosi va didaktik qarashlari, ularning pedagogik ta’limotida shaxslararo munosabatlar, ilm-fan, ta’lim-tarbiyaning ravnaq topish imkoniyatlari, XVII asr va XX asr boshlarida maktab va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti, XXI asrda rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’limi hamda milliy ta’lim tizimi integratsiyasi, uning o‘ziga xos jihatlari, xorij tajribasidan maqsadli foydalanish usullari haqida bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish bilan birga o‘z ustida ishlash, izlanish, mustaqil ta’lim olish, kasbiy mahoratni oshirib borishga erishish ham ta’minlanadi.

“**Pedagogik mahorat**” fanining maqsadi quyidagilardan iborat. Jumladan,

- Bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagog va uning pedagogik faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish;

- O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va talablari asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish;

- Bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatini innovatsion yondashish to‘g‘risidagi bilimlar bilan qurollantirish;

- Bo‘lajak o‘qituvchilarning sifatli ta’lim-tarbiya jarayonlariga erishishlarini ta’minlovchi shaxslararo munosabatlarga tayyorlash ko‘nikmalarini ajdodlar merosi hamda jahon talablari asosida rivojlantirish;

- Bo‘lajak o‘qituvchilarni yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik hamda pedagogik mahoratga ega bo‘lish ko‘nikmalarini Sharq allomalari merosi va xorij tajribalaridan foydalanib qurollantirish;

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qituvchilarning faoliyati, bilim, ko‘nikma, malakasi va egallagan kompetensiyalarini halqaro dasturlar asosida baholashga o‘rgatish kabilar.

“**Pedagogik mahorat**” fanining vazifalari quyidagilardan iborat. Jumladan,

– pedagogik faoliyatga tayyorlanish jarayonini samarali tashkil etish va pedagogik faoliyatga tayyorlanish bilan tanishtirish;

– o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish yo‘nalishlari hamda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitish va rivojlantirish mazmunini o‘zlashtirish;

– milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyotida pedagogik faoliyat va unga tayyorlanishning ilmiy-nazariy htirish hamda pedagogik asoslari to‘g‘risida talabalarda ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Fan bo‘yicha Bo‘lajak o‘qituvchilarning **bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar** quyidagilardan iborat:

“Pedagogika” o‘quv kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- pedagogik faoliyatning asosiy tamoyillari;

- pedagogik faoliyatning ilmiy-nazariy asoslari;

- pedagogika faoliyatning asosiy xususiyatlari;

- pedagogik faoliyat va uning qonuniyatlari;

- pedagogik faoliyat kelib chiqishining boshlanishi va taraqqiyot bosqichlari

- pedagogik faoliyatning mohiyati, maqsadi va o‘ziga xos xususiyatlari

- pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarning o‘rni va ahamiyati;

- pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarga kirisha olish qonuniyatlari to‘g‘risida **bilimlarga** ega bo‘lishi.

- kasbiy-pedagogik faoliyatni takomillashtirish;

- pedagogik kompetensiyani rivojlantirish;

- kasbiy mahoratni oshirishda ilg‘or tajribalardan foydalanish;

- ta’lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlarga kirisha olish strategiyalarini qo‘llash;

- kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish yo‘llarini bilish

**ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi.

- pedagogik faoliyatda ta’lim innovatsiyalari;

- pedagogik mahorat fanini rivojlantirish va takomillashtirishda ilg‘or tajribalarni qo‘llash;

- amaliy mashg‘ulotlar jarayonida ta’lim maqsadlarini ta’minlashga yordam beradigan shaxslararo munosabatlarga ijobiy tarzda kirishishni ta’minlovchi pedagogik texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash;

- ta’lim oluvchini maqsadga to’g’ri yo’naltirish va ularda hayotiy ko’nikmalarni shakllantirish hamda innovatsion muhit orqali rivojlantirishni ta’minlash;

- zamonaviy pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish va unga qo’yilgan innovatsion talablarini bilish **malakalariga** ega bo’lishi kerak.

Ma’lumki “Pedagogik mahorat” fani pedagogik ta’lim yo’nalishining bakalavriat bosqichida 3-kursning 1 -semestrda o’qitiladi. Dasturni amalga oshirish o’quv rejasida rejalashtirilgan O’zbekiston tarixi, yosh fiziologiyasi, anotomiyasi va gigiyenasi, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, umumiy psixologiya va pedagogika fanlari bilan o’zaro aloqadorlikda va uslubiy jihatidan uzviylikda olib boriladi.

“Pedagogik mahorat” fanini oliy ta’limda o’ziga xos o’rin va ahamiyatga ega bo’lib, ular pedagogikaning nazariy-tarixiy asoslari, pedagogik mahorat kurslari umumkasbiy kompetentlikning asosini tashkil etib, Bo’lajak o’qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda, ta’lim jarayoni sifatini oshirish va natijadorligini kafolatlarda katta ahamiyatga ega.

Ushbu fanni o’rganish davomida, ya’ni ma’ruza, amaliy mashg’ulot, seminar soatlarini o’tish jarayonida kompyuter, axborot va ta’limning boshqa zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish talab etiladi. Bundan tashqari darsliklar, o’quv qo’llanmalar, ma’lumotnomalar, pedagogik ensiklopediyalar, lug’atlar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, internet ma’lumotlari, ajdodlar merosi, xorij tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik mahorat fanidan bo’lajak o’qituvchilarni sharq mutafakkirlari merosi vositasida shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda “Pedagogik fikr taraqqiyotida o’qituvchining kasbiy mahorati hamda burch va mas’uliyatlari”, “O’qituvchi pedagogik qobiliyatining asosiy sifatleri va yetakchi xususiyatlari”, “O’qituvchining kommunikativ qobiliyatida pedagogik ta’sir ko’rsatish”, “Pedagogik muloqot - o’qituvchining ijodiy faoliyatini va tashabbuskorligini namoyon etuvchi xususiyat”, “O’qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi”, “Pedagogik muloqotda umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi”, “O’qituvchi va o’quvchi o’rtasida jonli muloqotni tashkil etish. Pedagogik nizolar va ziddiyatlarni bartaraf etish”, “Pedagogik nazokat va xushmuomalalik, kasbiy pedagogik dilkashlikning o’qituvchi xulq atvoridagi shakllanishi”, “Pedagogik texnika va aktyorlikka xos xususiyatlar. Pedagogik texnika va murabbiylik shartlari”, “Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati. O’qituvchi nutqining to’g’riligi, ravonligi, aniqligi va ta’sirchanligini oshirish”, “O’qituvchining ta’lim jarayoniga qo’yiladigan asosiy talablar va o’z ijodiy kayfiyatini boshqarishi”, “O’qituvchi-tarbiyachilik mahoratining asosiy mohiyati”, “O’qituvchining tarbiya texnologiyalarini qo’llashda pedagogik mahoratning ahamiyati”, “Yosh o’qituvchilar kasbiy mahoratini takomillashtirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati” kabi mavzularni o’qitish jarayonida turli zamonaviy yondashuvlarni qo’llagan holda erishish samarali natija beradi.

“**Tarbiyaviy ishlar metodikasi**” fanining maqsad va vazifasi globollashuv sharoitida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy, madaniy rivojlanishda jahon hamjamiyati darajasiga tenglashishga intilayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti yo’lida olib borilayotgan islohotlarda belgilangan ustivor vazifalar ijrosini ta’minlashda yoshlarga chuqur, mustahkam bilim berish, bo’lajak mutaxassislarni jahon andozlariga javob beradigan raqobatbardosh, har tomonlama kompetentli kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shu bilan birga bo’lajak o’qituvchida O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida belgilab berilgan qonunlarimizdan kelib chiqqan holda barkamol inson uchun zarur bo’lgan yuksak ma’naviy-axloqiy jihatlarga xos bo’lgan insoniy xususiyatlar: poklik, saxiylik, mehribonlik, samimiylilik, sabr-qanoatlilik, muomala madaniyatiga egalik, hamkorlik, birodarlik, gamxo’rlik, fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Har bir sinf rahbar murabbiy sifatida o’z sinf jamoasiga rahbarlik qilar ekan, ushbu jamoani tashkil qiladi, uyushtiradi va tarbiyalaydi, o’qituvchilar bolalar tashkilotlari, ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan yaqindan aloqa bog’lab, sinfda milliy tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qiladi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fan dasturi tarkibiga kirgan quyidagi mavzularni o’rganish jarayonida Bo’lajak o’qituvchilarning shaxslararo munosabatlarga kirish kompetensiyalarini shakllantirish innovatsion ta’lim jarayonlarida ushbu ko’nikmalarni doimiy tarzda rivojlantirib borish imkoniyati yuqori bo’ladi.

Jumladan, “Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati”, “Tarbiya usullari va shakllari”, “Sinf rahbarining maktab jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlari”, “Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati”, “Sinf rahbarining o’quv faoliyati samaradorligini oshirish yo’llari”, “O’quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash”, “Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari”, “Jamoat haqida umumiy tushuncha. Jamoani tashkil etish metodikasi”, “Ota-onalar bilan ishlash metodikasi”, “Maktabning o’quv ishlari bo’yicha direktor o’rinbosarining vazifalari” kabi mavzularning ma’ruza soatlarida hamda amaliy mashg’ulotlarni zamonaviy usullar asosida tashkil etish orqali bo’lajak o’qituvchilarda shaxslararo munosabatlarga kirisha olish ko’nikmalarini rivojlantirish juda yaxshi samara berishini tajribada ko’rib chiqdik.

Ya'ni bunda milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi, umuminsoniy tarbiyaning mezonlari, ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash haqida ma'lumot berish, tarbiya usullarni tanlashga qo'yiladigan talablar, tarbiya usullari va ularni tashkil etish shakllari hamda jarayonini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, sinf rahbar yoki o'qituvchining jamoat tashkilotlarini bilan olib boradigan ishlarini o'rganish, sinf rahbarining asosiy vazifasi, tarbiyaviy ish-faoliyat samardorligini oshirish shart-sharoitlari, o'quvchilarni o'rganish, ularga tarbiyaviy ta'sir etish hamda ta'lim olish samardorligini oshirish, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash, faol o'quvchilarni ragbatlantirish, sinfda intizomni mustahkamlash usullari bilimlarga ega bo'lish bilan birga o'zaro hamkorlikda muammolarni yechishga, jamoa bo'lib taqdimotlar tayyorlashga erishiladi.

Mazkur fan bo'yicha rejalashtirilgan seminar mashg'ulotlar davomida bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlari quyidagi didaktik tamoyillarga asoslangan holda mustahkamlanadi. Jumladan,

-seminar mashg'ulotning maqsadini aniq belgilab olish;

-o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;

-talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatni ta'minlash;

-talabani nazariy-metodik jihatdayi tayyorlash kabilar talabalarni tarbiyalash manbai bo'lib sanaladi.

Fan dasturi tarkibiga singdirilgan quyidagi:

1. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda tashkilotchi shaxsiga bo'lgan talablar

2. Sinf faollarini aniqlash

3. Ota-onalar sinf majlisini tashkil qilish metodikasi

4. Tarbiyada muomala mahorati

5. O'quvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati

6. Sharq mutafakkirlarining merosida oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash

7. Sinf dan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish

8. O'quvchilar jamoasi bilan ishlash

9. Ota-onalarga tarbiyaga oid bilimlar berish

10. Iqtisodiy tarbiya berish usullari

11. Ajdodlarimiz madaniy merosi

12. Iste'dodli bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash

13. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahorat

14. O'quvchilar jamoasini shakllantirish

15. Sinf rahbarining ma'naviy va tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari bilan olib borilgan ishlari.

16. Oiladagi bola tarbiyasida milliy an'analardan foydalanish

17. Tarbiyaviy ishlar orqali insonparvarlikni tarbiyalash

18. O'quvchi va o'qituvchi munosabati

19. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarni amalga oshirishda direktor o'rinbosarining ish metodikasi

20. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimi kabi Amaliy mashg'ulotlarni turli ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanini o'qib o'rganish, o'zlashtirish natijasida Bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar tarkib topadi. Bular:

- fanning asosiy maqsadi va tushunchalari;

- ta'lim tizimidagi islohotlar va barkamol insonni ma'naviy tarbiyalash masalalari;

- milliy tarbiyaning tarixiy ildizlari;

- ma'naviy qadriyatlar, ta'lim-tarbiyaning omili;

- shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati;

- intellektual salohiyatli barkamol avlodni shakllantirish;

- ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish;

- shaxs, shaxslararo munosabatlar haqidagi tushunchalar, shaxslararo munosabatlarga kirisha olish va

o'zaro hamkorlik qilish haqidagi nazariy **bilimlarga**;

- jamoa, jamoani tashkil etish va shakllantirish metodikasi;

- jamoada shaxsni hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishi tarbiyalash;

- jamoaning rivojlanishidagi tarbiya usullari;

- jamoa ijodiy faoliyatni rivojlantirishda turli innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalarni bilish va qo'llash;

- tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning maqsad vaziflari va yo'nalishlari;

- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va rejalashtirish;

- maktabda to'garak ishlarni tashkil etish;

- shaxslararo munosabatlarni shakllantirish texnologiyalarini bilish;
- muloqot qilishning turli usullaridan foydalanish;
- tarbiyaviy ishlar tizimida ta’lim texnologiyalarini to’g’ri tanlash va maqsadli qo’llay olish

**ko’nikmalariga;**

- sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi;
- tarbiya texnologiyalari hamda tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish;
- tarbiya tizimiga pedagogik yondashuvlar hamda innovatsiyalar;
- iste’dodli bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash;
- maktabda o’quvchilarning o’z-o’zini boshqarishni tashkil qilish metodikasi;
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbarining o’rni;
- ma’naviy-axloqiy tarbiyada sinf rahbarning kreativ yondashuvi va ijodiy faoliyati;
- sinf rahbarining o’quv faoliyati samaradorligini oshirishga qo’yilgan talablar;
- sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari;
- o’quvchilarni individual pedagogik kuzatish metodikasidan foydalana olish;
- sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalashda tarbiya texnologiyalarini samarali qo’llash;
- o’quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfdan intizomni mustahkamlash, do’stona munosabatlarni tarkib toptirishga oid metodikalarni ishlab chiqish;
- maktab, oila mahalla hamkorligining uzviylikini ta’minlashga oid tasiyalar tayyorlash;
- tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda pedagogik mahorat va uning asosiy tamoyillariga e’tiborli bo’lish;
- jamiyatda oilaviy qadriyatlarning bola tarbiyasidagi va shaxslararo munosabatlarni shakllantirishdagi o’rning muhimligini ota-onalar va hamkasblarga yetkaza olish;
- o’quvchi, o’quvchilar jamoasi, kasbdoshlari, rahbariyat, mahalla, jamiyatdagi insonlar bilan samimiy muloqotga kirisha olish va ko’zlangan natijaga erishishni kafolotlovchi yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik **malakalariga** ega bo’lishi kerak.

O’quvchilar shaxslararo munosabatga kirishganlarida va birgalikda ish olib borganlarida guruhlardagi barcha o’quvchilar:

- ishtirok etishlari va o’zlarini jarayonning bir qismi sifatida his etishlarini;
- ko’zlangan natijalariga erishish yo’lida o’z maqsadlari va rejalarini kelishib olishlari;
- o’z natijalariga erishish uchun ularga ajratilgan bo’limlar ustida ishlashlari;
- birgalikda bajargan ishlarini qanday yaxshilash mumkinligi xususida birga bosh qotirishlari;
- o’zlari bajargan ish xususida gapirishlari va fikr bildirishda bir-birlariga yordam berishlarini ta’minlashlari lozim.

Har qanday texnik va texnologik jihatdan to’g’ri tashkil etilgan, shaxslararo munosabatlar asosida olib borilgan dars jarayoni natijasida:

- o’quvchida o’ziga va ishiga mas’uliyatli bo’lish;
- har qanday jarayonga moslasha olish ko’nikmasini tarbiyalash bilan birga o’ziga va boshqalarga nisbatan yuqori marra va standartlarni belgilash va ularga erishishga intilish;
- turli xil shakl va mazmundagi samarali og’zaki, yozma va multimediyaga asoslangan muloqotni anglash, boshqarish va ijod qilish;
- yangi g’oyalar o’ylab chiqish, ularni amalga oshirish va boshqalarga ham ma’lum qilish;
- kutilmagan yangi va turli imkoniyatlarga tayyor turish;
- masalani anglashda va murakkab qarorlar qabul qilishda puxta dalillar keltirish;
- turli xil shakllarda va vositalar orqali axborotlarni tahlil etish, baholash, boshqarish va yangi ma’lumotlar yaratish;
- jamoada ishlay olish va yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish;
- turli xil rollar va mas’uliyatlarni qabul qila olish va boshqalar bilan birgalikda samarali mehnat qila olish;
- shaxsiy tushunish va o’rganish ehtiyojlarini kuzatib borish;
- topshiriqlarni hal qilishga yordam beruvchi va mos keluvchi manbalarni aniqlash;
- jamiyat foydasini nazarda tutgan holda mas’uliyat bilan harakat qilish;
- shaxsiy hayotda, ish o’rnida va jamiyat orasida odob va axloq bilan ish tutish kabi ko’nikmalar shakllanadi.

**Xulosa.** Zero XXI asrga xos shaxslararo munosabatlar asosida o’qitish va ta’lim olishning zamonaviy usuli o’quvchilarni yuqori darajadagi fikrlash ko’nikmalariga ega bo’lishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. Ularni fikrlash chegarasidan tashqariga chiqishga, ijodiy, samarali va odobli fikrlashga undaydi. Bunday

fikrlash esa yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etadiki, bunga tahlil, sintez, o‘z fikrlash jarayonini tushuna olish muammolarni yechish va baholash kabi qobiliyatlar kiradi.

O‘quvchining shaxsiy sifatleri – bu har bir kishida o‘ziga xos tarzda hosil bo‘ladigan, uning umumiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini namoyon qiladigan, shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlaridir. Ular madaniyatlilik, ijodkorlik, erkinlik, mustaqillik, tanlov imkoniyatiga egalik, fidoiylilik, baynalminallik, shaxsiy yaratuvchilik, bunyodkorlik, o‘ziga xoslik, fuqarolik jamiyatiga mansublik, haqqo‘ylik, intizomlilik, hamjihatlik, hamdardlik kabilar. Yuqorida ko‘rsatilga talablarni bajarish kabi muhim vazifa har bir mahoratli va kompetentli o‘qituvchi zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Психологические основы подготовки будущих учителей к межличностным отношениям // “Pedagogik mahorat» ilmiy-nazariy va metodik jurnal // 2022, № 3-4. 75 бет, 2022.

2. Беруний Абу Райхон. Ўйлар, ҳикматлар, нақллар, шеърлар. Тўп. ва нашрга тайёрловчи Абдусодиқ Ирисов. Т., «Ёш гвардия», 1973. – 104 б.

3. Закуев А.К. Психология Ибн-Сины. Баку:Изд-во Акад. наук АзССР, 1958.–89 с.

4. Ма’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) // To‘plovchi va mas’ul muharrir: M.M.Xayrullayev/.- To‘ldirilgan qayta nashr. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001. – 408 б.

5. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida ta’lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishning pedagogik xususiyatlari./ N.G. Dilova, “Таълим ва инновацион тадқиқотлар” - Халқаро журнал 2022.№2.

## O’QUV JARAYONIDA VIRTUAL LABORATORIYA IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

*Asrayev Zafar Rizakulovich ,*

*Buxoro muhandislik- texnologiya instituti dotsenti,  
zasrayev@gmail.com*

*Maqolada laboratoriya mashg’ulotining didaktik maqsadlari, “Amaliy mexanika” fani laboratoriya mashg’ulotlarini o’qitishda qo’llanilgan virtual stendlar, ularning asosiy ilmiy-metodik natijalari bayon etilgan. Virtual stend yordamida “Materiallarni mustahkamlikka sinash” mavzusini o’qitish metodikasi ishlab chiqilgan.*

**Kalit so’zlar:** *elektron ta’lim resurslari, virtual stend, virtual laboratoriya, bulutli texnologiyalar, frontal laboratoriya, virtual muhit, animatsiya, vizuallashtirish.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ВИРТУАЛЬНОЙ ЛАБОРАТОРИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*В статье описаны дидактические цели лабораторных занятий, виртуальные стенды, используемые при преподавании лабораторных занятий по специальности «Прикладная механика», и их основные научные и методические результаты. С использованием виртуального стенда разработана методика преподавания темы «Испытание материалов на прочность».*

**Ключевые слова:** *электронные образовательные ресурсы, виртуальный стенд, виртуальная лаборатория, облачные технологии, фронтальная лаборатория, виртуальная среда, анимация, визуализация.*

## USE OF VIRTUAL LABORATORY OPPORTUNITIES DURING THE EDUCATIONAL PROCESS

*The article describes the didactic goals of the laboratory training, the virtual stands used in the teaching of laboratory training in "Applied Mechanics", and their main scientific and methodical results. Using a virtual stand, a methodology for teaching the topic "Testing materials for strength" has been developed.*

**Keywords:** *E-learning resources, virtual booth, virtual lab, cloud technologies, front-end lab, virtual environment, animation, visualization.*

**Kirish (Introduction).** Jahonda oliy ta’limni rivojlantirishda ta’limni individuallashtirish, kompyuterlashtirish va standartlashtirish kabi umumiy tendensiyalarga e’tibor berilmoqda. Shu bilan birga, hozirda yangi avlod ta’lim resurslariga, birinchi navbatda, axborot resurslariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim haqidagi zamonaviy tushunchada “Ta’lim resurslari” tushunchasi ommalashib bormoqda [1].

Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi [2]. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish, milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish kabi aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Shu nuqtayi nazardan, “Amaliy mexanika” umumkasbiy fani laboratoriya mashg’ulotlarini o’qitishda turli elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish zaruriyati mavjudligi maqolaning dolzarbligini belgilab beradi.

**Materiallar va usullar (Materials and methods).** Ushbu maqolada biz Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Mexanika kafedrasida ishlab chiqilgan laboratoriya ishlarini olib borishning bir necha uslubiy yondashuvlarini taklif qilamiz.

Laboratoriya mashg’uloti maxsus jihozlangan o‘quv laboratoriyalarida o‘tkaziladigan, o‘rganilayotgan nazariy asoslarni o‘zlashtirish va chuqurlashtirishga, turli vositalar (kuzatish, o‘lchash, nazorat qilish,



kompyuter texnologiyalari va boshqalar) yordamida amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotining turidir.

Laboratoriya ishining didaktik maqsadlari - o‘rganilgan nazariy bilimlarni eksperimental tasdiqlash; formulalarni, hisob-kitoblarni eksperimental tekshirish; eksperimentlar o‘tkazish metodikasi bilan tanishish, tadqiqot, shuningdek, tajriba o‘tkazish texnikasini o‘zlashtirish, eksperiment o‘rnatish orqali amaliy muammolarni hal qilish.

Ish jarayonida talabalarda kuzatish, taqqoslash, taqqoslash, tahlil qilish, xulosa va umumlashtirish, mustaqil tadqiqot olib borish, turli o‘lchash usullaridan foydalanish, natijalarni jadval, diagramma, grafik shaklida tartibga solish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, ular tajriba o‘tkazish uchun turli xil asbob-uskunalar, qurilmalar va boshqa texnik vositalar bilan ishlash bo‘yicha professional ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

Hozirda ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirish muammosining yechimi ta‘lim jarayonida yangi o‘qitish usul va vositalarni qo‘llash bilan bog‘liq. Yangi axborot texnologiyalaridan darslarda, jumladan, “Amaliy mexanika” fanidan ko‘rgazmali laboratoriya mashg‘ulotlarida samarali foydalanish mumkin.

Kompyuterdan samarali o‘quv quroli sifatida foydalanish pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi: kompyuter ensiklopediyalari, interfaol kurslar, turli dasturlar, virtual laboratoriya ishlari talabalarining amaliy mexanikani o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. “Amaliy mexanika” fanini o‘qitish fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash uchun qulay hisoblanadi.

Ta‘lim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ko‘p jihatdan axborot mazmuni bilan bog‘liq uslubiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga va o‘quv jarayonida avtomatlashtirilgan ta‘lim tizimlaridan foydalanish uslubiga bog‘liq.

Amaliy mexanika bo‘yicha ko‘plab zamonaviy elektron ta‘lim resurslarining mazmuni animatsiyalar, interfaol modellar, simulyatorlar, tajriba videolari, virtual laboratoriya ishlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu o‘quv ob‘ektlari talabalarining sinfda ham, uyda ham mustaqil ishlarini tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, ular o‘rganish imkoniyatlari bilan farqlanadi.

Virtual muhitda modellar taqdim etiladi, ular yetarlicha yuqori didaktik sifatga ega. Ulardan ba‘zilari talabalarda individual eksperimental ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, boshqalari laboratoriya xonasida takrorlanmaydigan mexanik hodisalarni o‘rganishga yordam beradi, uchinchisi talabalar tomonidan turli mexanik vaziyatlarni mustaqil modellashtirish uchun sharoit yaratadi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun elektron ta‘lim resurslarini namunaviy ob‘ektlarini diqqat bilan tanlash kerak. Fikrimizcha, ushbu tashkiliy shaklni amaliyotda qo‘llash uchun eng samarali usuli virtual modellardan (virtual stend, trenajorlar) foydalanish hisoblanadi. Virtual axborot muhitida bunday obektlar hali ham yetarli emas, ular izchil ishlab chiqilishi kerak.

Amaliy mexanika laboratoriya darslarini ko‘rgazmali eksperimentsiz amalga oshirib bo‘lmaydi, lekin sinfning moddiy bazasi har doim ham o‘rnatilgan talablarga to‘liq javob bermaydi. Shuning uchun bu yerda kompyuter tajribasi yordamga keladi. Kompyuter nafaqat talabaga, balki o‘qituvchiga ham yordamchi bo‘ladi. Talabaning dasturiy ta‘minot bilan ishlashining afzalligi shundaki, bunday faoliyat turi tadqiqot va ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi, o‘quvchilarning bilim va qiziqishlarini rivojlantiradi. Darsda namoyish qilish uchun interfaol laboratoriyalardan foydalanish jihozlarning yetishmasligi bilan bog‘liq muammolarni hal qilish, ish vaqtini optimal tashkil etish va talabalarining mustaqil ishlarini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Amaliy mexanika darslarida talabalarining amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda ko‘rgazmali eksperiment va frontal laboratoriya ishlari muhim o‘rin tutadi. Ko‘rgazmali eksperiment o‘quvchilarda mexanik hodisa va jarayonlar haqidagi avval to‘plangan tasavvurlarini shakllantiradi, dunyoqarashini to‘ldiradi va kengaytiradi. Laboratoriya ishini bajarish davomida talabalar mustaqil ravishda mexanik hodisalarning qonuniyatlarini, ularni qo‘llash usullarini va laboratoriya jihozlari bilan ishlashni o‘rganadilar.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, eksperiment o‘tkazishning faqat an‘anaviy usulidan foydalanish talabalarining mexanika bo‘yicha ko‘nikmalarini to‘liq rivojlantira olmaydi, chunki hamma talabalar ham tajriba davomida olingan grafik va jadvallarni tahlil qilish, tushunish va izohlash, hodisalarning mohiyatini va jarayonlarning qonuniyatlarini tushunish, turli manbalardan, shu jumladan elektron manbalardan mustaqil ravishda kerakli ma‘lumotlarni olish qobiliyatiga ega emaslar.

Yuqoridagi bo‘shliqlar talabalarining axborot kompetensiyasining shakllanishiga va o‘quvchilarning “Amaliy mexanika” fanini o‘zlashtirish darajasiga ta‘sir qiladi. Bu fikrlardan kelib chiqib, agar kompyuter va virtual modellar yordamida eksperiment va frontal laboratoriya ishi o‘tkazilsa, u holda mexanika laboratoriyasidagi jihozlarning yetishmasligini qoplash va o‘quvchilarni bilimlarni mustaqil ravishda

egallashga o‘rgatish mumkin. Shunday qilib, talabalarning zarur axborot kompetentsiyasini shakllantirish va “Amaliy mexanika” fanini o‘rganish darajasini oshirish uchun imkoniyat mavjud.

Shuni ta’kidlash kerakki, kompyuterli laboratoriya mexanika kursining eksperimental qismini to‘ldirishi va darslarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Uni qo‘llashda siz hodisadagi asosiy narsani ajratib olishingiz, ikkilamchi omillarni kesib tashlashingiz, o‘zgaruvchan parametrlar bilan qayta-qayta sinovdan o‘tkazishingiz, natijalarni saqlashingiz mumkin. Bundan tashqari, kompyuter versiyasida juda ko‘p miqdordagi tajribalar o‘tkazilishi mumkin. Ushbu turdagi eksperiment muayyan qonun, hodisa, jarayon va boshqalarning kompyuter modeli yordamida amalga oshiriladi. Bu modellar bilan ishlash talabalar uchun ko‘plab imkoniyatlarni ochib, ularni nafaqat kuzatuvchi, balki davom etayotgan tajribalarning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

## 2-Laboratoriya ishi. Materiallarning xossalarini tajribada o'rganish

Ishning maqsadi: yimshoq pulatni mexanik va plastiklik xossalarini aniqlash, cho‘zilish diagrammasini qurish va Guk qonunini tekshirish.

Nazariy ma'lumotlar

Jihozlar

Ishning borishi

O'zingizni tekshiring

Hisobot

- Universal sinov qurilmasida materiallarni cho‘zilishga sinash natijasida mustahkamlik chegarasi, elastik va plastik deformatsiya (uzayish, siqilish) emirilish, oquvchanlik, kuch va deformatsiya bog‘lanishining grafiki, qattqlik tushunchalari o‘rganiladi.

Cho‘zilish yuzasidan sinovda materiallarni sinovdan o‘tkazishda eng yaxshi ma’lum bo‘lgan ilmiy tajriba hisoblanadi. Undan cho‘zilish yuzasidan mustahkamlikni aniqlash uchun foydalaniladi. Mustahkamlik materialning eng muhim tavsiflaridan biri hisoblanadi. Qo‘shimcha ravishda deformatsiya ham material mustahkamligining asosiy tavsiflaridan biri hisoblanadi.

- Yumshoq po‘latning mexanik xossalari

Proportsionallik chegaradagi kuchlanish  $\sigma_p = \frac{F_p}{A_0}$

Elastiklik chegaradagi kuchlanish  $\sigma_e = \frac{F_e}{A_0}$

Oquvchanlik chegarasidagi kuchlanish  $\sigma_{oq} = \frac{F_{oq}}{A_0}$

Mustahkamlik chegara  $\sigma_m = \frac{F_{max}}{A_0}$

Tajribani o'tkazish uchun

Mavjud namunalarga va ularning o'lchamlariga bog'liq holda tajribani katta yuklanishda va kichik yuklanishda ishlaydigan tajriba qurilmalarida o'tkazish mumkin. Masalan, namuna ishchi qismining uzunligi 100 mm va kesim yuzasining diametri 10 mm bo'lsa, bunday namunani cho'zilishga uchun RV-10 mashinasida sinash mumkin. Namuna ishchi qismining uzunligi 30 mm va kesim yuzasining diametri 6 mm bo'lsa, bunday namunani cho'zilishga WR 300 qurilmasida sinash mumkin.

Nisbiy uzayish-  $\delta = \frac{\ell_1 - \ell_0}{\ell_0} \cdot 100\%$

Boshlangich va uzilish buynining ko'ndalang kesim yuzasi

$A_0 = \frac{\pi d^2}{4}$  va  $A_1 = \frac{\pi \cdot d_1^2}{4}$

Ko'ndalang kesimning nisbiy qisqarishi  $\psi = \frac{A_0 - A_1}{A_0} \cdot 100\%$

## 1-rasm. Laboratoriya ishining nazariy ma'lumotlar nomli oynasi

**Natijalar va mulohazalar (Results and discussions).** Yuqorida keltirilgan fikrlarni natijasi sifatida, biz tomonimizdan “Amaliy mexanika” fani laboratoriya mashg‘ulotlari uchun virtual laboratoriya ishlari tayyorlandi. Quyida ulardan birini bajarilish ketma-ketligini keltirib o‘tamiz. Dastlab talabalar laboratoriya ishining mavzusi va maqsadi bilan tanishishadi, nazariy ma’lumotlar qoida va formulalarni o‘qib o‘rganishadi.

Dasturning jihozlar oynasida laboratoriya ishida qo‘llaniladigan jhoz va uning qismlari bilan tanishadilar.

## 2-Laboratoriya ishi. Materiallarning xossalarini tajribada o'rganish

Ishning maqsadi: yimshoq pulatni mexanik va plastiklik xossalarini aniqlash, cho‘zilish diagrammasini qurish va Guk qonunini tekshirish.

Nazariy ma'lumotlar


Jihozlar

Ishning borishi

O'zingizni tekshiring

Hisobot

- Jihozlar



1-dinamometr; 2-qamrab ushlovchi; 3-yuqori plita; 4-doiraviy shkalalik o'lchov asbobi; 5-namuna (transportlovchi fiksator); 6-yo'naltiruvchi rama; 7-bosh tsilindr bilan maxovik; 8-pastki plita; 9- bosh tsilindr; 10-tayanch pyatasi; 11-transportlash rukoyatkasi


## 2-rasm. Laboratoriya ishining jhozlar oynasi

Shundan so‘ng laboratoriya ishining bajarilishi ketma-ketligini kuzatib borib, o‘zlari ham bevosita bajarib ko‘rishadi. Jarayon uch bosqichda bajariladi, birinchi bosqichda cho‘zilishga sinalayotgan material namunasining dastlabki o‘lchamlari olinadi (virtual stendda uning harakatini ko‘rish mumkin).

Ikkinchi bosqichda talabaning o‘zi bevosita namunani qurilmaga joylashtirib, materialning mustahkamligini aniqlash uchun namunaga tashqi yuklamani namuna uzulgunga qadar asta-sekin va uzluksiz oshirib boradi. Mazkur jarayon vaqtida yuz beradigan maksimum yuklama kuchi material mustahkamligining o‘lchovi hisoblanadi.

Mexanika nuqtay nazaridan qaralganda, bunday animatsiyalarni vizual ko‘rish natijasida talabada ob’ektlarning harakati xususidagi tasavvurlari shakllanadi va nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasi oshadi.


3-rasmda materiallar namunalarini cho‘zilishga sinash bo‘yicha animatsion virtual stendning oyna ko‘rinishi keltirilgan bo‘lib, u sinov qurilmasi maxsus namunani ushlovchi (ushlagich), cho‘zuvchi kuchni beradigan moslama, kuchni o‘lchovchi dinamometr va cho‘zilish diagrammasini chizadigan koordinatalar tizimidan tashkil topgan [3].



**3-rasm. Materiallar namunalarini cho‘zilishga sinash bo‘yicha virtual stend**

Cho‘zuvchi kuchni ortirish natijasida namunaning yuzi xiralashib boradi. Natijada uning uzayishi uchun ta’sir kuchini oshirish talab etilmaydi. Materiallarning cho‘zilishini o‘rgatuvchi virtual stendda mahalliy uzayishning sodir bo‘lishini, materiallarga ta’sir etuvchi kuchlarning xarakteristikalarini va uzayishga ta’sir etuvchi parametrlarni tadqiqot qilish, shuningdek olib borilgan tadqiqot natijalarining qog‘oz variantini chiqarib olish va materialni mexanik hamda plastiklik xossalarini aniqlash imkoniyatlari mavjud [4,5]. Bunday animatsion dasturlar yordamida o‘quv mashg‘ulotlarining tashkil etilishi, talabalarga mexanik qonunlarning asl mohiyatini anglab yetishga yordam beradi.

Chiqish




4-rasm. Namunaning uzilish jarayonining virtual stendi

Uchinchi bosqichda uzilgan namunaning o'lchamlari ikkinchi marotaba o'lchanadi va dastlabki o'lchov natijalaridan farqi aniqlanadi.

Keyingi “O'zingizni tekshirib ko'ring” nomli oynada dastlabki va tajribadan keyin olingan namuna o'lchamlarini kiritib boshlang'ich kesim yuza va absolyut uzayishlarni hisoblashadi. Kuchlanishlar va mustahkamlik chegarasini mustaqil o'zi hisoblab, topilgan qiymatlarni kiritib ko'rish orqali natijalar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirib ko'rishadi (5-rasm).

2-Laboratoriya ishi. Materiallarning xossalarini tajribada o'rganish

Ishning maqsadi: yimshoq pulatni mexanik va plastiklik xossalarini aniqlash, cho'zilish diagrammasini qurish va Guk qonunini tekshirish.



O'lchov natijalarini kiriting

$l_0 = 45$  mm  $l_1 = 50$  mm  
 $d_0 = 5$  mm  $d_1 = 4$  mm

$A_0 = \frac{\pi d_0^2}{4} = 19.62$   
 $A_1 = \frac{\pi d_1^2}{4} = 12.56$   
 $\psi = \frac{A_0 - A_1}{A_0} \cdot 100\% = 36\%$

$\Delta l = l_1 - l_0 = 5$   $\epsilon = \frac{\Delta l}{l_0} = 0.111$

Hisoblash  $\delta = \frac{\Delta l}{l_0} \cdot 100\% = 11\%$

O'zingizni tekshiring

Quyidagilarni hisoblab qiymatlarni kiriting va uni to'g'ri yoki xatoligini tekshiring

Proportsionallik chegaradagi kuchlanish  $\sigma_p = 745$  To'g'ri

Elastiklik chegaradagi kuchlanish  $\sigma_e = 2500$  Noto'g'ri

Mustahkamlik chegara  $\sigma_m = 621$  To'g'ri

Tekshirish

5-rasm. O'lchangan qiymatlarni kiritish va hisoblash oynasi

Bunday virtual ishlar, real laboratoriya uskunalarini kompyuter ekranida immitatsiya qilishi natijasida real ob'ektni vizual akslantirishga va interfaol muloqot rejimida ishlashga imkon berdi.

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda laboratoriya mashg'ulotlarini olib borish metodikasi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. Mexanik jarayonlar va qonuniyatlarni chuqurroq tushunish, shuningdek, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash usullarini o'rganish.
2. Ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish.
3. Talabalarning bilimlarini birlashtirish.
4. O'quvchilarni shaxsiy kompyuterni o'zlashtirishga undash.
5. Tajribalarni bosqichma-bosqich bajarish, darsda muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratish, differensiyal o'qitish metodlarini qo'llash.
6. Talabalarni mustaqil ravishda multimedia modellarini yaratish uchun ularni qiziqtirgan har qanday mavzu bo'yicha tadqiqot qilishga undash, natijani vizual ko'rish.

**Xulosa (Conclusion).** Bir nechta afzalliklarga qaramay, “Amaliy mexanika” fani o'qituvchilariga real amaliy ishdan butunlay voz kechmaslikni tavsiya qilaman, chunki fanni o'qitishning boshlang'ich bosqichida talabalarning vizual-obrazli fikrlash qobiliyati to'liq rivojlanmagan bo'ladi, keyingi bosqichlarda o'quvchilarning bilim olishi nazariy umumlashtirish darajasiga asoslanganda, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi kompyuter modellaridan foydalanish mumkin.

Shunday qilib, kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim asosiy fikrlash shakllarining samarali namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi, kognitiv jarayonni optimallashtiradi. Buni amalga oshirishga imkon beruvchi asosiy omil mexanika tushunchalarini, jarayon va hodisalarni kompyuter yordamida vizuallashtirishdir.

#### Adabiyotlar (References):

1. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the implementation of Sustainable Development Goal 4: Ensure inclusive and equitable quality education and promote lifelong learning opportunities for all - UNESCO. -p.13. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245656>
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 of October 8, 2019 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030". <https://lex.uz/>
3. Asraev Z.R., Bibutov N.S. Applications of computer technologies in teaching applied mechanics // Eurasian Journal of Engineering and Technology // May, 2022; Vol. 6., ISSN: 2795-7640., p. 26-31. <https://geniusjournals.org/index.php/ejet/article/view/1346>
4. Majura S.A., Sorokin S.A., Theoretic mechanics. Vol. I. Statics. Methodical instructions and tasks for the implementation of control work for students of part-time education and self-study of students of full-time education ITAI and IPO. FGOU VPO AGAU, 2009, p. 36-38.
5. Bibutov N.S. Methodical manual on carrying out experimental work on “Resistance of materials” discipline. Bukhara 2020, p.5-9.

## OLIV TA'LIMDA INNOVATSION O'QITISH USULLARI

*Eshonqulov Hakim Ilhomovich,*

*Buxoro davlat universiteti*

*Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar  
kafedrasida tayanch doktoranti*

*Maqolada dunyo mamlakatlari oliy ta'limlarida qo'llaniladigan innovatsion o'qitish usullari, ularning afzalliklari va bosqichlari o'rganilgan. Maqolada innovatsion o'qitishda ontologiya yondashuvidan foydalanish, axborot texnologiyalarini qo'llashning an'anaviy o'qitishdan farqi va afzalliklari o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** innovatsion o'qitish, ontologiya, taksonomiya, an'anaviy o'qitish, teskari guruh, bulutli hisoblash.*

### ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

*В статье рассматриваются инновационные методы обучения, их преимущества и этапы, используемые в высшем образовании стран мира. В статье рассматриваются отличия и преимущества использования онтологического подхода в инновационном образовании, использовании информационных технологий по сравнению с классическим образованием.*

***Ключевые слова:** инновационное образование, онтология, таксономия, классическое образование, перевёрнутый класс, облачные вычисления.*

### INNOVATIVE METHODS OF TEACHING IN HIGHER EDUCATION

*The article discusses innovative teaching methods, their advantages and stages used in higher education in countries around the world. The article discusses the differences and advantages of using the ontological approach in innovative education and the use of information technology in comparison with classical education.*

***Keywords:** innovative education, ontology, taxonomy, classical education, flipped classroom, cloud computing.*

**Kirish.** Tasavvur qiling, zerikarli guruhda o'qituvchilarning ovozi quloqlaringizda aks-sado berayotganda, ular aytayotgan gaplarga e'tibor berish uchun qovoqlaringizni ko'tarishga harakat qilmoqdasiz. Har qanday ta'lim oluvchi uchun bu yaxshi holat emas, to'g'rimi? Demak talaba o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilimni mukammal egallashi uchun zamonaviy va innovatsion o'qitish usuli zarur bo'ladi. Shunday qilib, innovatsion o'qitish usullarini ko'rib chiqamiz.

**Innovatsion o'qitish turlari.** Bugunga kelib ko'plab o'qituvchilar o'z darslarini imkon qadar an'anaviy o'qitish usullaridan farqli tashkil qilishga harakat qilmoqdalar va o'z talabalarini uchun turli yondashuvlarni topib, ularning o'qitishda ko'proq ishtirok etishlari imkonini berishmoqda. Hozirgi kunda ta'lim sohasi shu qadar tez o'zgarib bormoqda, o'qituvchi o'z darslarini doimo zamonaviy strategiyalarga moslashtirishi kerak bo'lmoqda.

Quyidagi ro'yxatda dunyo mamlakatlari oliy ta'limlarida qo'llaniladigan ba'zi innovatsion o'qitish turlari berilgan:

- *interfaol darslar*
- *virtual haqiqat texnologiyasidan foydalanish*
- *o'qitishda Aldan foydalanish*
- *aralashtirilgan o'rganish*
- *3d bosma*
- *dizayn fikrlash jarayonidan foydalanish*
- *loyihaga asoslangan ta'lim*
- *so'rovga asoslangan ta'lim*
- *boshqotirma*
- *bulutli hisoblash bo'yicha o'qitish*
- *teskari guruh*
- *tengdoshlar o'qitishi*
- *hamkasblar teskari aloqa*

- *o'zaro mashg'ulotlar*
- *individual o'qitish*

### **Innovatsion o'qitish usullari deganda nima tushuniladi?**

O'qitishning innovatsion usullari – bu darsda eng so'nggi texnologiyalardan foydalanish yoki o'qitishning eng so'nggi tendensiyalaridan doimo xabardor bo'lish emas, balki ta'lim berish va o'qitish usullaridir.

O'qitishning innovatsion usullari talabalarga ko'proq yo'naltirilgan yangi o'qitish strategiyalaridan foydalanishga qaratilgan. Ushbu innovatsion g'oyalari talabalarni dars davomida o'z guruhdoshlari va o'qituvchi bilan faol ishtirok etishga va muloqot qilishga undaydi. Talabalar ko'proq harakat qiladilar, lekin bu ularning ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi va bilim darajalarini o'sishiga olib keladi.

An'anaviy o'qitishda asosan o'qituvchi talabalarga qancha bilim berishiga e'tibor beriladi, innovatsion o'qitishda esa talaba o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilimning qanday miqdorini o'zlashtirishi mumkinligi asosiy mezon qilib olinadi.

### **Nega aynan innovatsion o'qitish usullari?**

Dunyoda an'anaviy guruhlardan onlayn va gibrid o'qitishga o'tish kuzatilmoqda. Biroq, noutbuk yoki telefon ekranlari orqali ta'lim olish talabalar uchun o'qituvchi nazoratidan osongina chiqish va boshqa bir faoliyat bilan shug'ullanish imkonini berishi va shu bilan birga darsga diqqatini jamlayotgandek ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Biz bunday talabalarni ta'lim olmayotganlikda ayblay olmaymiz, chunki bu holatda o'qituvchining ham hissasi bor, chunki darslar zerikarli va sayoz tayyorlangan bo'ladi.

Dunyoning ko'pgina oliy ta'lim muassasalari va o'qituvchilar talabalarni qiziqtirish va jalb qilish uchun yangi sharoitlarda innovatsion o'qitish strategiyalarini sinab ko'rmoqda. Raqamli dasturlar esa ularga talabalar ongiga kirib borishga yordam beradi va talabalarining darslarga kirishini ta'minlaydi.

Quyidagi ro'yxatda 2022 yil oxiriga kelib dunyo oliy ta'lim muassasalari statistikasiga murojaat qilamiz[10]:

- Barcha AQSH talabalarining 61 foizi o'zlarining raqamli vositalariga ega edilar.
- Yevropa OTMLari 75 foizi butunlay virtual o'tishni rejalashtirgan.
- Ta'lim platformalari talabalar qurilmasidan foydalanishning 44% ni tashkil etdi.
- O'quv maqsadlarida masofadan boshqarish vositalaridan foydalanish 87 foizga oshdi.
- O'zaro ta'lim olish ilovalaridan foydalanish 141% ga oshdi.
- Yevropa universitetlarning 80 foizi talabalar uchun qo'shimcha texnologiya vositalarini sotib olgan yoki sotib olishni rejalashtirmoqda.

### **Innovatsion o'qitish usullarining 7 ta afzalliklari**

1. **Izlanishni rag'batlantirish** – o'qitishning innovatsion yondashuvlari talabalarni o'z dunyoqarashlarini kengaytirish uchun yangi narsalar va vositalarni o'rganish va kashf etishga undaydi.

2. **Muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish** - Ijodiy o'qitish usullari talabalarga individual sur'atda o'rganish imkonini beradi va ularni darsliklarda yozilgan javoblarni izlash o'rniga muammoni hal qilishning yangi usullarini izlashga undaydi.

3. **Bir vaqtning o'zida ko'p ma'lumotlarni qabul qilishdan saqlanish** – innovatsion yondashuvlardan foydalanadigan o'qituvchilar hali ham talabalarga ma'lumot berishadi, lekin ularni kichikroq qismlarga ajratishga urinadilar. Endilikda ma'lumotlar osonroq o'zlashtirilishi mumkin va qisqalik talabalarga asosiy mezonlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

4. **Ko'proq yengil ko'nikmalardan foydalanish** - talabalar o'z ishlarini bajarish uchun guruhda murakkabroq vositalardan foydalanishlari kerak, bu ularga yangi narsalarni o'rganishga yordam beradi va ularning ijodkorligini oshiradi. Bundan tashqari, individual yoki guruh loyihalarini bajarishda talabalar o'z vaqtlarini qanday boshqarishni, vazifalarni birinchi o'ringa qo'yishni, yaxshiroq muloqot qilishni, boshqalar bilan ishlashni va boshqalarni o'zlashtiradilar.

5. **Talabalarining tushunchasini tekshirish** – baholash va imtihonlar talabaning o'rganish qobiliyati va bilimi haqida ba'zi narsalarni aytib berishi mumkin. Innovatsion o'qitish g'oyalari o'qituvchilarga darslarni kuzatish va talabalar nimalarni boshdan kechirayotganini yaxshiroq tushunishi va eng to'g'ri yechimlarni topishlari mumkin.

6. **O'ziga baho berishni yaxshilang** - innovatsion o'qitish usullari yordamida talabalar nimani o'rganganlarini va nimani o'tkazib yuborganlarini tushunishlari mumkin. Hali ham bilishlari kerak bo'lgan narsalarni kashf qilish orqali ular nima uchun ba'zi narsalarni o'rganishlari kerakligini tushunishlari va buni qilishga tayyor bo'lishlari mumkin.

7. **Guruhni faollashtirish** – guruhlaringiz sizning ovozingiz yoki noqulay sukunatingiz bilan to'lib ketishiga yo'l qo'ymang. Innovatsion o'qitish usullari talabalarga qiziqarli ma'lumotlarni beradi, ularni gapirishga va ko'proq muloqot qilishga undaydi.

## Innovatsion o'qitish usullari

### 1. Interfaol darslar

Talabalar sizning innovatsion ta'lim oluvchilaringizdir! Bir tomonlama darslar siz va talabalar uchun an'anaviy va zerikarli, shuning uchun talabalarni gapirish va o'z g'oyalari ifoda etishga undaydigan muhit yaratish. Talabalar dars mashg'ulotlarida faqat qo'llarini ko'tarish yoki javob berishga chaqirish orqali emas, balki turli usullarda ishtirok etishlari mumkin. Shu kunlarda siz katta hajmli vaqtni tejash va ikkita yoki uchta emas, balki barcha talabalarni jalb qilish uchun guruhingizda interfaol tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan onlayn platformalarni topishingiz mumkin. Jonli viktorinalar va aylanma g'ildirak o'yinlari, hatto so'z bulutlari, so'rovlar yoki birgalikdagi aqliy hujum seanslari bilan butun guruhning kayfiyatini ko'taring. Siz ba'zi onlayn platformalar yordamida barcha talabalar uchun ushbu qiziqarli tadbirlarga jalb qilishingiz mumkin. Nafaqat bu, balki talabalar qo'llarini ko'tarish o'rniga javoblarni anonim tarzda yozishlari yoki tanlashlari mumkin. Bu ular ishtirok etishlari, o'z fikrlarini bildirishlari va endi "noto'g'ri" yoki hukm qilinishdan tashvishlanmasliklariga ishonch hosil qiladi.

### 2. Virtual haqiqat texnologiyalaridan foydalanish

Virtual haqiqat texnologiyasi yordamida guruh bilan butunlay yangi dunyoga kiring. Misol uchun, 3D-teatrda o'tirish yoki virtual o'yinlarni o'ynash talabalar uchun narsalarni tekis ekranda ko'rish o'rniga turli xil joylarga sho'ng'ish va "haqiqiy" ob'ektlar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Endi sizning guruhingiz bir necha soniya ichida boshqa mamlakatga sayohat qilishi, Somon yo'lini o'rganish uchun koinotga sayohat qilishi yoki bir necha metr narida turgan dinosavrlar bilan Yura davri haqida bilishi mumkin. VR texnologiyasi qimmat bo'lishi mumkin, ammo u sizning har qanday darsingizni ajoyib qilish va barcha talabalar uchun hayratda qoldirishi narxiga arziydi.

### 3. Ta'limda AI dan foydalanish

AI bizga ishimizning ko'p qismini bajarishga yordam beradi, shuning uchun kim ta'limda foydalana olmaymiz deb aytadi? Bugungi kunda bu usul hayratlanarli darajada keng tarqalgan. AI dan foydalanish, u hamma narsani qiladi va sizni almashtiradi degani emas. Bu fan - fantastik filmlarga o'xshamaydi, unda kompyuterlar va robotlar aylanib yurib, talabalarimizni o'zi o'rgatadi. Bu sizga o'xshagan o'qituvchilarga ish yukini kamaytirish, kurslarni shaxsiylashtirish va talabalarni samaraliroq o'qitishga yordam beradi. Ehtimol, siz AI mahsulotlaridan LMS, plagiatni aniqlash, avtomatlashtirilgan ball va skoring kabi ko'plab tanish narsalardan foydalanayotgandirsiz. Hozirgacha AI o'qituvchilarga foyda keltirishini isbotladi.

### 4. Aralash o'qitish

Aralashtirilgan o'qitish an'anaviy guruhda o'qitish va yuqori texnologiyali onlayn ta'limni birlashtirgan usuldir. Bu o'qituvchiga va talabalar uchun samarali o'quv muhitini yaratish va o'rganish tajribangizni sozlash uchun ko'proq moslashuvchanlikni beradi. Biz yashayotgan texnologik dunyoda internet yoki elektron ta'lim dasturlari kabi samarali vositalarni e'tiborsiz qoldirish qiyin. O'qituvchilar va talabalar uchun video uchrashuvlar, kurslarni boshqarish uchun LMS, o'zaro muloqot va o'yinlar uchun onlayn saytlar va o'qitish uchun mo'ljallangan ko'plab ilovalar kabi narsalar dunyoni o'rgimchak to'ri bilan qamrab oldi.

### 5. 3D bosma

3D bosma usuli sizning darslaringizni yanada qiziqarli qiladi va talabalarga yangi narsalarni yaxshiroq o'rganish uchun amaliy tajriba beradi. Bu usul darsda talaba ishtirokini darsliklarga mos kelmaydigan yangi darajaga olib chiqadi. 3D bosma talabalar uchun haqiqiy dunyo haqida tushuncha beradi va ularning tasavvurini uyg'otadi. Talabalar inson tanasi haqida ma'lumot olish yoki mashhur binolar maketlarini ko'rish va ularning tuzilmalarini o'rganish uchun qo'llarida namunalı obyektlarni ushlab tursa, o'rganish ancha osonlashadi.

### 6. Dizayn fikrlash jarayonidan foydalanish

Bu muammolarni hal qilish, hamkorlik qilish va talabalar uchun ijodini rag'batlantirishga asoslangan strategiya. Beshta qadam bor, lekin u boshqa usullardan farq qiladi, chunki siz bosqichma-bosqich ko'rsatma yoki biron bir tartibni bajarishingiz shart emas. Bu chiziqli bo'lmagan jarayon, shuning uchun uni ma'ruzalaringiz va darslaringiz asosida sozlashingiz mumkin.

#### **Besh qadam:**

- *empatiya* - empatiyani rivojlantiring va yechimlarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlang.
- *aniqlash* - muammolarni va ularni hal qilish imkoniyatlarini aniqlash.
- *ideya* - o'ylab ko'ring va yangi, ijodiy g'oyalarni yaratish.
- *prototip* - g'oyalarni o'rganish uchun eskiz yoki namunalı yechimlar.
- *ishga tushirish* - yechimlarni sinab ko'ring, baholang va fikr-mulohazalarni to'plang.

### 7. Loyiha asosida o'qitish

Barcha talabalar modul oxiridagi loyihalar ustida ishlaydilar. Loyihaga asoslangan o'qitish ham loyihalar asosida quriladi, lekin u talabalarga real hayotdagi muammolarni hal qilish va uzoq vaqt davomida



yangi yechimlar topish imkonini beradi. Loyiha asosida o'qitish darslarni qiziqarli qiladi, shu bilan birga talabalar yangi mazmundagi ma'lumotlarni o'rganadilar va tadqiqot, mustaqil yoki boshqalar bilan ishlash, tanqidiy fikrlash va shu kabi boshqa ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ushbu faol o'rganish usulida o'qituvchi qo'llanma bo'lib xizmat qiladi va talabalar mustaqil o'rganishlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar. Shu tarzda o'rganish yaxshi o'zaro ta'sir va tushunishga olib keladi, ularning ijodkorligini uyg'otadi va umrbod ta'lim olishga yordam beradi.

#### **8. So'rovga asoslangan o'qitish**

So'rovga asos ham faol ta'lim turidir. Ma'ruza o'qish o'rniga siz darsni savollar, muammolar yoki stseneriyalar bilan boshlaysiz. Bu, shuningdek, muammoli o'rganishni o'z ichiga oladi va sizning qo'lingizda past; bu holda siz ma'ruzachi emas, balki fasilitator bo'lishingiz ehtimoli ko'proq. Talabalar javob topish uchun mavzuni mustaqil ravishda yoki guruhda o'rganishlari kerak (bu sizga bog'liq). Bu usul ularga muammolarni hal qilish va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

#### **9. Jigsaw**

Puzzle - bu har birimiz hayotimizda kamida bir marta o'ynagan umumiy o'yin. Agar siz jigsaw texnikasini sinab ko'rsangiz, shunga o'xshash narsalar guruhda sodir bo'ladi.

Mana shunday:

- Talabalarni kichik guruhlarga bo'ling.
- Har bir guruhga asosiy mavzuning pastki yoki pastki kategoriyasini bering.
- Ularni ma'lumotlarni o'rganishga va o'z g'oyalarini rivojlantirishga chaqiring.
- Har bir guruh mavzu bo'yicha bilishi kerak bo'lgan barcha bilimlarni ifodalovchi katta rasmni shakllantirish uchun o'z xulosalarini baham ko'radi.
- (Ixtiyoriy) Talabalaringiz boshqa guruhlar ishini baholashi va sharhlashi uchun fikr-mulohaza sessiyasini o'tkazing.
- Agar sizning guruhingiz jamoaviy ishda etarlicha tajribaga ega bo'lsa, mavzuni kichikroq ma'lumotlarga ajrating. Shunday qilib, siz har bir asarni talabaga topshirishingiz va guruhdoshlariga topilgan narsalarni o'rgatishdan oldin ularga alohida ishlashga ruxsat berishingiz mumkin.

#### **10. Bulutli hisoblash bo'yicha o'qitish**

Bu atama g'alati tuyulishi mumkin, ammo usulning o'zi ko'pchilik o'qituvchilarga tanish. Bu o'qituvchilar va talabalarni bog'lash va ularga minglab mil uzoqlikdagi faoliyat va materiallardan foydalanish imkoniyatini berishning bir usuli. Bu barcha muassasalar va pedagoglar uchun katta imkoniyatlarga ega. Ushbu usuldan foydalanish oson va tejamkor, ma'lumotlaringizni himoya qiladi, talabalarga masofadan turib o'rganish imkonini beradi va hokazo. Bu onlayn ta'limdan bir oz farq qiladi, chunki u o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqani talab qilmaydi, ya'ni talabalaringiz kurslarini tugatish uchun istalgan vaqtda va istalgan joyda o'qishlari mumkin.

#### **11. Teskari guruh**

O'rganishni yanada chuqurroq va samaraliroq qilish uchun jarayonni biroz aylantiring. Dars oldidan talabalar asosiy tushuncha va bilimga ega bo'lishlari uchun videolarni tomosha qilishlari, materiallarni o'qishlari yoki tadqiqot qilishlari kerak. Dars vaqti odatda darsdan keyin bajariladigan "uy vazifasi" deb ataladigan ishlarni bajarishga, shuningdek, guruh muhokamalari, bahs-munozaralar yoki talabalar tomonidan boshqariladigan boshqa tadbirlarga bag'ishlangan. Ushbu strategiya talabalarga qaratilgan bo'lib, o'qituvchilarga individual o'qitishni yaxshiroq rejalashtirish va talabalar faoliyatini baholashga yordam beradi.

#### **12. Tengdoshlarni o'qitish**

Bu biz jigsaw texnikasi haqida muhokama qilgan usulga o'xshaydi. Talabalar bilimlarni aniq tushuntira olsalar, yaxshiroq tushunadilar va xotiralarida saqlab qoladilar. Taqdimot paytida ular oldindan eslab qolgan narsalarni yodlab olishlari va baland ovozda gapirishlari mumkin, ammo tengdoshlariga o'rgatish uchun ular muammoni to'liq tushunishlari kerak. Talabalar ushbu mavzu bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan sohani tanlash orqali ushbu mashqda etakchilik qilishlari mumkin. Talabalarga bunday avtonomiya berish ularda mavzuga egalik hissini va yaxshi o'qitish uchun mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, talabalarga guruhdoshlariga dars berish imkoniyatini berish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishini, mustaqil bilim olishga undashini va taqdimot ko'nikmalarini yaxshilashini bilib olasiz.

#### **13. Teskari aloqa**

Ta'limga innovatsion yondashuvlar guruhda o'qitish yoki o'rganishdan ko'ra ko'proq narsani anglatadi. Siz ularni boshqa ko'plab sohalarda, masalan, darsdan keyingi fikr-mulohazalarda qo'llashingiz mumkin. Ochiq fikr va to'g'ri odob bilan konstruktiv fikr bildirish va qabul qilish talabalar uchun o'zlashtirishi uchun muhim ko'nikmalardir. Guruhdoshlaringizga qanday qilib mazmunliroq izoh berishni (masalan, fikr-

mulohaza rubrikasidan foydalanish) va buni odatiy holga aylantirish orqali guruhingizga yordam bering. Interaktiv so'rov vositalari, ayniqsa jonli so'z buluti xususiyatiga ega bo'lganlar, hamkasblar bilan tezkor fikr-mulohazalarni o'tkazishni osonlashtiradi. Shundan so'ng siz talabalardan o'z sharhlarini tushuntirishlarini yoki olingan fikr-mulohazalarga javob berishlarini so'rashingiz mumkin.

#### 14. O'zaro mashg'ulotlar

Guruhingiz bilan muzeyga, ko'rgazmaga yoki sayohatga borganingizda qanchalik hayajonlanganingizni eslaysizmi? Tashqariga chiqib, guruhda doskaga tikilishdan boshqa biror narsa qilish har doim ajoyib. O'zaro o'qitishlar guruh ichida ham, tashqarisida ham o'rganish tajribasini birlashtiradi. Maktabda tushunchalarni birgalikda o'rganing va keyin kontseptsianing haqiqiy dunyoda qanday ishlashini ko'rsatishingiz mumkin bo'lgan ma'lum joyga tashrif buyuring. Safardan so'ng darsni muhokamalarga ko'maklashish yoki guruhda ishlashni belgilash orqali davom ettirish yanada samaraliroq bo'ladi.

#### 15. Individual o'qitish

Strategiya ba'zi talabalar uchun ishlayotgan bo'lsa-da, boshqa guruh uchun unchalik samarali bo'lmasligi mumkin. Misol uchun, guruh faoliyati ekstrovertlar uchun juda yaxshi, lekin super introvertlar uchun dahshatli tush bo'lishi mumkin. Bu usul har bir talabaning o'quv jarayonini moslashtiradi. Rejalashtirish va tayyorgarlik ko'rish uchun ko'proq vaqt kerak bo'lsada, bu talabalarga yaxshi natijalarga erishish uchun ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, kuchli va zaif tomonlari asosida o'rganishga yordam beradi. Har bir talabaning ta'lim yo'li har xil bo'lishi mumkin, ammo yakuniy maqsad bir xil bo'lib qoladi; o'sha talabani kelajakdagi hayoti uchun zarur bo'ladigan bilimlarni egallash.


Yuqorida ko'rib chiqilgan o'qitish usullaridan tashqari darslarni tashkil qilishda falsafa va informatika fanlarida mavjud bo'lgan ontologik yondashuvdan ham foydalanish mumkin. Bunday yondashuvning boshqa usullardan farqi shundaki, ontologik yondashuvda talaba o'z bilim darajasiga mos keladigan topshiriqlar va vazifalarni bajarishga harakat qiladi, bu esa talabani ma'lum bir natijaga tezroq erishishga, rag'batlantirilishga, dars mashg'ulotlariga qatnashish faolligini oshirishga va pedagogik usullarning umumiy masalalaridan biri bo'lgan talabaning fanga qiziqishini ortishiga olib keladi. Ontologik yondashuvdan ta'limda foydalanish asosan axborot tizimlari va uskunalari yordamida amalga oshiriladi.

#### Ontologik va taksonomik yondashuv yordamida fanlarni o'qitishni tashkil qilish

Yuqorida keltirilgan o'qitish usullaridan tashqari fanlarni o'qitishda ontologik va taksonomik yondashuvlardan foydalanish mumkin.

- *Taksonomiya* – obyektlar o'rtasida bir turdagi munosabatlarni tashkil etish va izohlash.
- *Ontologiya* – taksonomiyaning murakkab ko'rinishi deyish ham mumkin, obyektlar o'rtasida 2 yoki undan ortiq turdagi munosabatlarni tashkil etish, izohlash, kategoriyalarga ajratish va konseptsiyalash.

Ontologik yondashuv yordamida o'qitishni tashkil etishda o'qituvchi dars davomida talabalar uchun o'rganilayotgan mavzu qo'llanmasi, mavzudagi tushunchalarni bog'lovchi, vazifa va topshiriqlarni beruvchi, erishilgan natijalarni baholovchi vazifasida keladi. Yangi bilimlarni egallash uchun qo'yiladigan talablar, vazifalar va topshiriqlar talabaning bilim olish darajasiga qarab axborot tizimi tomonidan individual belgilanadi. Buning uchun talabaning topshiriqlarni bajarish tezligi, talaba tomonidan tanlanadigan topshiriqlar va ularning bajarilish ketma ketligi hisobga olinadi.



Har bir topshiriq alohida obyekt sifatida qaraladi va kichik topshiriqlar va 1 ta umumiy topshiriqqa bo'linadi, topshiriq talaba tomonidan bajarilishi uchun har bir topshiriq izohida video, audio, matn va chizma (3d) ko'rinishida ma'lumot berib o'tiladi. Topshiriqlar jigsaw (boshqotirma), individual loyiha, test, video, audio va matn sifatida berilishi mumkin.

**Xulosa.** Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan 15 ta innovatsion o'qitish usullari sizning darslaringizni hamma uchun yanada qiziqarli bo'lishini va natijadorligini oshirish imkonini beradi. Ularni qo'llab ko'ring va guruhdagi tajribangizni yanada yaxshilash uchun ular asosida interaktiv darslar tashkil qiling. Maqolada innovatsion o'qitish usullarining dunyo mamlakatlari oliy ta'lim tizimlarida eng keng tarqalgan turlari ko'rib chiqildi. Ontologik va taksonomik yondashuv yordamida tashkil etilgan darslarni qiziqarli va talaba bilim olish imkoniyatlarini hisobga olish kabi tushunchalarni qamrab oluvchi o'qitish, deb hisoblash mumkin bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. Муталиева А.Ш. Ахтанова С.К. Педагогика XXI века: инновационные методы обучения. *Universum: психология и образование* : электрон. научн. журн. 2020. № 3 (69).
2. Гузеев В.В. Планирование результатов образования и образовательная технология. - М.: Народное образование, 2010.
3. Жуков Г.Н. Основы общей профессиональной педагогики: Учебное пособие. - М.: Гардарики, 2015.
4. Глоссарий современного образования (терминологический словарь) // Народное образование, 2007, № 3.
5. Маликова Н.Р. О некоторых инновационных методах преподавания социологии // Социс, 2012, № 2.
6. Сорокин Н.Д. Об инновационных методах в преподавании социологических курсов // Социс, 2015, № 8.
7. Педагогика и психология высшей школы: Учеб. пособие для вузов / М.В. Буланова-Топоркова. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2012.
8. Dr. Damodharan V. S. ACCA, AICWA and Mr. Rengarajan.V AICWA, Innovative Methods of Teaching.
9. Базилевич С.В., Брылова Т.Б., Глухих В.Р., Левкин Г.Г. Использование инновационных и интерактивных методов обучения при проведении лекционных и семинарских занятий // Наука Красноярья. — 2012. — № 4. — С. 103—113.
10. <https://ahaslides.com/ru/blog/innovative-teaching-methods/>

## TALABA-YOSHLAR MEDIAKOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY TOPSHIRIQLARNING O’RNI

*Fayziyeva Dildora Hayotovna,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*“Aniq fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*dildora13.fayziyeva@gmail.com*

*Rajabova Gulchehra Salomovna,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*“Aniq fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi*

*tude47154@gmail.com*

*Hozirgi kunda xodimlarning professional darajada kundalik ishlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali kasbiy faoliyatini tashkil etishi dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, talaba-yoshlarning ijtimoiy-tarmoqlarda faolligini inobatga olgan holda ular uchun turli dasturiy mahsulotlardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma kontentlar tayyorlash ham muhimdir. Xususan, oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan xodimlar professional darajada kundalik ishlarida zamonaviy AKT (axborot kommunikatsion texnologiyalar)dan foydalanishi ular ishlayotgan sohada ish unumdorligini oshishiga xizmat qiladi. Maqolada axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash fani doirasida amaliy darslarda o‘rganuvchilarga turli amaliy topshiriqlar orqali mediasavodlikni rivojlantirish misollar orqali yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** texnologiya, kommunikatsiya, media, tarmoq, sistema, dastur, funktsiya, metod, jarayon.*

## РОЛЬ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В РАЗВИТИИ МЕДИАКОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

*В настоящее время актуальным является вопрос организации профессиональной деятельности сотрудников с использованием информационно-коммуникационных технологий в их повседневной работе на профессиональном уровне. Учитывая активность студентов и молодежи в социальных сетях, важно подготовить для них обучающий контент по использованию различных программных продуктов. В частности, использование современных ИКТ (информационно-коммуникационных технологий) в своей повседневной работе на профессиональном уровне сотрудниками с высшим образованием служит повышению производительности труда в той сфере, в которой они работают. В статье на примерах освещается развитие медиаграмотности посредством различных практических заданий студентов в области применения информационных технологий в профессиональной деятельности.*

***Ключевые слова:** технология, коммуникация, средства массовой информации, сеть, система, программа, функция, метод, процесс.*

## ROLE OF PRACTICAL TASKS IN THE DEVELOPMENT OF MEDIA COMPETENCE OF STUDENTS

*Currently, the issue of organizing the professional activities of employees using information and communication technologies in their daily work at a professional level is relevant. Considering the activity of students and young people on social networks, it is important to prepare educational content for them on the use of various software products. In particular, the use of modern ICT (information and communication technologies) in their daily work at a professional level by employees with higher education serves to increase productivity in the field in which they work. The article uses examples to highlight the development of media literacy through various practical tasks for students in the field of application of information technology in professional activities.*

***Keywords:** technology, communication, media, network, system, program, function, method, process.*


**Kirish.** Talabalarning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasini bir qator metodlar orqali rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etib, amaliy mashqlar asosida, turli topshiriqlarni bajarib ko‘rishlari hisobiga mediakompitentlik, ya‘ni zamonaviy dasturiy mahsulotlar hamda texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmasi rivojlantiriladi. Ayniqsa, talaba-yoshlarning ijtimoiy-tarmoqlarda faolligini inobatga olgan holda ular uchun turli dasturiy mahsulotlardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma

kontentlar tayyorlash ham muhimdir. Xususan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar professional darajada kundalik ishlarida zamonaviy AKT (axborot kommunikatsion texnologiyalar)dan foydalanishi ular ishlayotgan sohada ish unumdorligini oshiradi. Bu ko'plab boshqa mamlakatlarda ham shunday.[2]

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Hozirgi kunda O'zbekistonda davlat pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tanlov fan sifatida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash” fani o'tilyapti, bu fan doirasida turli topshiriqlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash talabalarning mediasavodxonlik darajasini hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan misol tariqasida: Windows operatsion tizimi imkoniyatlari mavzusini o'tish doirasida quyidagi amaliy topshiriqlarni tashkil etish mumkin:


1. Windowsda kompyuterning asosiy xarakteristikasini bilishning bir necha usullarini bajarish ketma-ketligini amalda bajaring
2. Windowsda “RUN” oynasi ya'ni, bajarish oynasidan dastur va papka va funksiyalarni chaqiring.
3. Windowsda monitorga ulangan proektorni sozlang
4. Windowsda oynalarni boshqarish amallarini bajaring

Birinchi topshiriqni bajarish davomida kompyuterning asosiy qurilmalarining xususiyatlari: tezligi, hajmi, turi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.




1-rasm. Kompyuterning asosiy qurilmalari haqida ma'lumot beruvchi oyna

Ikkinchi topshiriqni bajarish jarayoni talabalarda dastur va funksiyalarga oson kirish imkonini beradi.



2-rasm. Run oynasida Word dasturini chaqirish




**3-rasm. Run oynasi orqali Power point oynasini chaqirish**

Yuqoridagi dasturlar kabi boshqa dastur va funksiyalarni chaqirish mumkin:


1.	chrome	Chrome brauzeriga kirish
2.	mspaint	Paint standart grafik dasturga kirish
3.	notepad	Bloknot standart dasturiga kirish
4.	calc	Kalkulyatorni ochish
5.	magnify	Ekran lupasi
6.	snippingtool	Qaychi funksiyasi
7.	osk	Ekran klaviaturasini chaqirish
8.	explorer	Pravodnik(Boshlovchi) oynasini chaqirish
9.	downloads	Yuklab olingan dastur va fayllar papkasini ochish
10.	control	Windows sozlamalari oynasini ochish
11.	Appwiz.cpl	Windowsda kompyuterda o'rnatilgan dasturlar ro'yxatini chaqirish
12.	charmap	Windowsda belgilar ro'yxatini chaqirish

Uchinchi topshiriqni bajarish jarayonida talabalar kompyuterga ulangan qo'shimcha monitorni sozlashni o'rganadilar:



**4-rasm. Kompyuterga ulangan qo'shimcha ekranni sozlash oynasi**

To'rtinchi topshiriq talabalarda windowsda bir vaqtda ekranda 4 ta oynada ishlash imkoniyatini beradi, bu amallar kelajakda kasbiy sohalarida ish unumdorligini oshirishda ko'maklashadi.



5-rasm. Windowda bir vaqtda 4 ta oynada ishlashning ko‘rinishi

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Yuqoridagi kabi amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘nikmasi bu mediani samarali boshqarish va undan foydalanish qobiliyatidir. Axborot izlash, manbalarni tekshirish va turli media vositalaridan foydalanishni o‘z ichiga olgan amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarga media platformalardan malakali foydalanuvchi bo‘lishga yordam beradi. Masalan, talabalarga onlayn manbalar, kitoblar va intervyulardan foydalangan holda ma'lum bir mavzuni tadqiq qilish topshirilishi mumkin. Ushbu faoliyat talabalarga ishonchli ma'lumotni qanday topish va ishonchli manbalar va soxta yangiliklar o'rtasidagi farqni tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, amaliy muammolar ijodkorlik va media ishlab chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Talabalar podkastlar, videolar yoki ijtimoiy media kampaniyalari kabi o'zlarining media kontentini yaratishga undashlari mumkin.[5] Ommaviy axborot vositalarini ishlab chiqarishning barcha jarayonida faol ishtirok etib, talabalar nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantiradilar, balki xabarlarini samarali muloqot qilish qobiliyatini ham oshiradilar. Bu ularga ommaviy axborot vositalarining passiv iste'molchisi emas, balki faol ijodkor va ishtirokchi bo'lish imkoniyatini beradi. Amaliy topshiriqlarni bajarishda ishtirok etish jamoada ishlash, hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ko'pincha media-loyihalar talabalardan guruhlarda ishlashni, fikr almashishni, topshiriqlarni topshirishni va ularning natijalarini taqdim etishni talab qiladi. Bu hamkorlik orqali o'quvchilar o'z fikr va mulohazalarini samarali ifoda etish, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish va umumiy maqsad sari harakat qilishni o'rganadilar. Ushbu ko'nikmalar nafaqat ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq sohalarda, balki turli xil professional va shaxsiy kontekstlarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Maqolada yoritilgan Windows operatsion tizimi imkoniyatlari mavzusida yoritilgan topshiriqlarni amalda bajarish ko'nikmasini egallagan o'rganuvchilar kelajakda kasbiy sohalarida qo'llab, vaqt unumdorligiga erishadilar.

**Xulosa.** Amaliy topshiriqlar talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Amaliy topshiriqlar talabalarga olgan bilimlarini amalda qo'llash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va media muhitining faol ishtirokchisiga aylanish imkoniyatini beradi. Amaliy tajriba orttirish orqali talabalar mediasavodxonlik haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladilar va ommaviy axborot vositalarining murakkab olamida faol bo'lishga yaxshiroq tayyorlanishadi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida media kompetentsiyasini rivojlantirishga ko'maklashish va ularni ommaviy axborot vositalariga asoslangan jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash uchun ta'lim dasturlariga amaliy mashg'ulotlarni kiritishlari juda muhim deb o'ylayman.

**Adabiyotlar:**

1. Файзиева Д.Х. Установление разговорного тракта в ИП-телефонии // Молодой учёный. 2017. №4. С. 113-114 бетлар
2. Fayzieva D.Kh. Using software for teaching foreign languag using software for teaching foreign languages. Academy 2020. № 9 (60). 13-17 betlar
3. Fayzieva D.Kh. About the theory of multiple intelligence. Vestnik nauki i obrazovaniya 2020. № 19 (97), Part 2. 85-88- betlar
4. Файзиева Д.Х. Якхяева СҲ.Т.. Влияние цифрового образования на успехи учащихся //Универсум: технические науки 2022.// № 5 (98) — 48-51 бетлар.
5. Файзиева Д.Х. Тахиров Б.Н.. Адизова З.М.. Обучение программированию с помощью геймификации//Вестник науки и образования 2022 //№ 6 (126).Part 2. 33-37- betlar.
6. Fayziyeva D.KH, Turayeva G.KH.. Artificial intelligence in modern projects //Universum: tekhnicheskiye nauki 2023.// № 4 (109) — 52-54 betlar.



## THE IMPORTANCE OF DIVERSITY, EQUITY, AND INCLUSION IN HIGHER EDUCATION

*Fayziyeva Malikajon Choshovna,*  
*Teacher of English Linguistics Department,*  
*Foreign Languages Faculty,*  
*Bukhara State University, Bukhara*  
*m.ch.fayziyeva@buxdu.uz*

*This article is about the vitality of diversity, equity, and inclusion in higher education. Diversity in student, faculties, and staff is of significance for universities and institutes to accomplish their primary goal of providing an outstanding education. It also concerns how universities educate, what programs they provide, as well as other aspects. There are also given data about insights and practical methods for promoting diversity and inclusion in higher education classrooms and curricula. It highlights the growing importance of international education programs in Uzbekistan and the value of understanding student diversity in a changing, evermore interconnected world. The article explores diversity across physical, and psychological traits, socio-economic backgrounds, value systems, traditions, and emerging identities, as well as diverse expectations around teaching, grading, and assessment.*

**Keywords:** *diversity, higher education, educational experience, equity, inclusion, experience, process.*

## ВАЖНОСТЬ РАЗНООБРАЗИЯ, СПРАВЕДЛИВОСТИ И ИНКЛЮЗИВНОСТИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

*Эта статья о важности разнообразия, справедливости и инклюзивности в высшем образовании. Разнообразие студентов, преподавателей и сотрудников имеет важное значение для университетов и институтов для достижения их основной цели — предоставления качественного образования. Это касается и того, как университеты обучают, какие программы они предоставляют, а также других аспектов. Также приводятся данные об идеях и практических методах продвижения разнообразия и инклюзивности в классах и учебных программах высшего образования. Автор подчёркивает растущую важность международных образовательных программ в Узбекистане и ценность понимания многообразия студентов в меняющемся, всё более взаимосвязанном мире. В статье исследуется разнообразие физических и психологических характеристик, социально-экономического происхождения, систем ценностей, традиций и формирующейся идентичности, а также различные ожидания в отношении преподавания, выставления оценок.*

**Ключевые слова:** *разнообразие, высшее образование, образовательный опыт, справедливость, инклюзивность, опыт, процесс.*

## OLIV TA'LIMDA XILMA-XILLIK, TENGLIK VA KENG QAMROVLILIKNING AHAMIYATI

*Ushbu maqola xilma-xillik, tenglik va keng qamrovlilik oliy ta'limda juda muhimligi haqida. Talabalar, fakultetlar va xodimlarning xilma-xilligi universitet va institutlar uchun ajoyib ta'lim berishdek asosiy maqsadlariga erishish uchun muhimdir. Bu, shuningdek, universitetlar qanday ta'lim berishlari, qanday dasturlarni taqdim etishlari va boshqa jihatlariga tegishli. Shuningdek, oliy ta'lim sinflari va o'quv dasturlarida xilma-xillik va inklyuziv ta'limni targ'ib qilish bo'yicha tushunchalar va amaliy usullar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu O'zbekistonda xalqaro ta'lim dasturlarining ortib borayotgan ahamiyatini va o'zgaruvchan, doimiy ravishda o'zaro bog'liq bo'lgan dunyoda talabalar xilma-xilligini tushunish qiymatini ta'kidlaydi. Maqolada jismoniy va psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar, qadriyatlar tizimi, an'analar va paydo bo'lgan o'ziga xosliklar, shuningdek, o'qitish, baholash va baholash bo'yicha turli xil kutishlar o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *xilma-xillik, oliy ma'lumot, ta'lim tajribasi, tenglik, inklyuziya, tajriba, jarayon.*

**Introduction.** The desire to fully explore the world and its wonders is a fundamental human impulse. Everyone should be able to attend a school that is supportive and inclusive. Diversity, equity, and inclusion

are three closely linked values held by many organizations that are working to be supportive of different groups of individuals, including people of transformed races, ethnicities, religions, abilities, genders, and sexual orientations. Most colleges and universities differ in their ways. Some of them are great urban universities, while others are small campuses; some are public, while others are independent. Some suggest graduate and professional programs, while others focus on undergraduate education.



**Figure 1. Description of the diversity, equity and inclusion**

**Methods.** More and more colleges and universities have particular and unique methods and purposes. One of the most significant features of the higher education system's collective diversity throughout universities is that it has contributed to the world's greatest. We must maintain diversity if we want to fulfill the demands of our democratic society and the expanding worldwide extent of the economy. The public has a right to know why these institutions are so convinced that racial and ethnic diversity should be one of many factors taken into account when making admissions decisions. There are some reasons: Diversity improves the quality of tuition. We gain knowledge from others whose experiences, viewpoints, and opinions differ from our own, and it is ideal for imparting these teachings in an intellectually and socially diverse and rich environment. It encourages individual processes and a healthy society. Teaching for diversity entails

recognizing a number of variations in the classroom. Teaching for inclusion involves respecting difference. Teaching for equity encourages differences to influence the way we think, teach, learn, and act so that all experiences and methods of being are valued with equality and fairness. When teachers and schools provide students with resources that are specific to their circumstances, the general atmosphere in the classroom increases.

**Results.** Diversity promotes critical thinking and challenges conventional notions. It teaches students how to interact with individuals from various backgrounds in a successful manner. It improves workplaces and communities. A diverse education prepares students to be good citizens in an increasingly complex and multicultural society; it develops collaboration and mutual respect; and it supports the development of communities in which people are appreciated for their character and contributions. Equality offers disadvantaged students the chance to overcome challenges and accomplish achievements. It provides an equitable chance to learn in a manner that supports each student's specific learning style. It establishes an effective family-teacher relationship in order to establish a stronger learning atmosphere at home for each student. Creating an inclusive education system requires not only encouraging inclusion (through curriculum, architecture, accessibility, and so on), but also actively resisting the reproduction of inequality. It's a means of working for a more inclusive and accessible education system as well as social justice for traditionally deprived students.

**Analysis.** Even so, the ability to choose who will teach and be taught has been curtailed in some regions and attacked in others. It is not through quotas that diversity on college campuses has gained any ground. Diversity also doesn't support or call for the admission of candidates who aren't qualified. However, colleges and universities must continue to be able to reach out and make an effort to create healthy and varied learning environments that are suitable for their missions if we are to achieve the diversity we desire and ensure the future of the country. It is essential to the development of higher education, besides the health of our democracy. Academic institutions need to help students from all backgrounds more. However, equitable treatment for higher tuition differs from equal treatment. Many countries have national examinations, either to graduate high school or to enter graduate school. Equality issues may develop as a result of students from advantaged backgrounds attending better schools or being able to afford private tutoring. Equity differs from equality in that it refers to providing opportunities that acknowledge and alleviate the difficulties that some students may experience. Equity means giving people what they need based on their starting point. Equity acknowledges people's challenges and advantages in the workplace.

**Discussions.** The OECD (The Organization for Economic Cooperation and Development) mentioned two aspects of equity in its 2008 report: fairness and inclusion. To achieve fairness, governments should develop policies aimed at achieving a condition in which the percentage of participation of students from various family circumstances complements the social content of society. To encourage inclusion, governments should develop programs that increase the absolute number of students from disadvantaged backgrounds who join and complete higher education. As a result, two methods of evaluating equity development have been used: comparison changes in involvement (equity or fairness) as well as absolute changes (inclusion). Inclusion demands that the student go beyond statistics of representation and develop a feeling of shared value, experience, and belonging. Inclusion preserves variety by allowing all students to participate in their studies while maintaining a professional, collaborative, and productive environment. Diverse environments provide existing students with numerous opportunities to think critically about their beliefs, understand what others believe, resolve conflicts through compromise and mutual understanding, and understand workplace and community norms. In the classroom, professors may challenge the ideals that students take for granted. Peers may encourage them to weigh the effects of their words and biases. Outside of the classroom, relationships with friends and classmates can help students learn to value a wide range of ideas and perspectives—not just their own. Thus, they can develop their intrapersonal skills as well as interpersonal skills through collaboration and communication with one another.

### References:

1. Abduraxmonova N. Z. "Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aftoref." (2018).
2. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. *Izvestiya Kirgizskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta*. 2016
3. Ataboev N. B. (2020). Functional features of the English corpus (in the example of COCA). *PhD thes. in phil.*(189 p.). Tashkent.

4. Атабоев Н. Б. (2020). Инглиз тили корпусининг функционал хусусиятлари (СОСА мисолида) дис... ф. ф. док. Choshovna, F. M. (2022, January). The notion of family loyalty in literary works. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 107-109).
5. Azimova N. G., & Fayzieva, M. C. (2023). The importance of corpus linguistics. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 155-157.
6. Fayzieva M. (2023). Amerika va o'zbek badiiy diskursida sadoqat va xiyonat g'oyalari talqini. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 27(27).
7. Jon McHardy Sinclair, Tillarni o'qitishda korporatsiyani qanday ishlatish kerak, Jon Benjaminlar, 2004-y.
8. Turobova G., & Fayzieva M. C. (2023). The evolution of corpora. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 506-508.
9. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2023). Cross-Cultural Variation and Distribution of Politeness Strategies . *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(8), 31–34. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/864>
10. Файзиева М. Ч., & Туробова Г. Ю. (2022). Важность инклюзивного образования в Узбекистане. *Innovation in the modern education system*, 3(25), 49-52.
11. [https://www.google.com/search?q=inclusion+in+higher+education&sca\\_esv=577069831&tbm=isch&sxsrf=AM9HkKksBYEFjeugDdM1BkZ\\_CcCDcotrnQ:1698382277385&source=lnms&sa=X&ved=2ahUKEwjSjtiCt5WCAxX7FBAIHedeA6kQ\\_AUoAXoECAIQAw&biw=1366&bih=611&dpr=1#imgrc=w1tygfgnjuDGHM](https://www.google.com/search?q=inclusion+in+higher+education&sca_esv=577069831&tbm=isch&sxsrf=AM9HkKksBYEFjeugDdM1BkZ_CcCDcotrnQ:1698382277385&source=lnms&sa=X&ved=2ahUKEwjSjtiCt5WCAxX7FBAIHedeA6kQ_AUoAXoECAIQAw&biw=1366&bih=611&dpr=1#imgrc=w1tygfgnjuDGHM)
12. <https://link.springer.com>
13. <https://blog.insidegovernment.co.uk>
14. <https://www.acenet.edu/Documents/BoardDiversityStatement-June2012.pdf>
15. <https://online.maryville.edu/blog/equity-in-higher-education>
16. <https://www.academicdiversitysearch.com/>

## O‘QITUVCHI SHAXSI VA KASBIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

*Fayziyeva Umida Asadovna,  
Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d (PhD)*

*Maqolada o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlar, pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari, shaxsiy va kasbiy sifatlarini egallash bosqichlari, pedagogik maqsadning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** o‘qituvchi, kasbiy sifatlar, shaxsiy sifatlar, pedagogik faoliyat, ta’lim, tarbiya.

### СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЛИЧНОСТИ И ПРОФЕССИИ ПЕДАГОГА

*В статье рассматриваются личностные и профессиональные качества педагога, составляющие педагогической деятельности, этапы приобретения личностных и профессиональных качеств, конкретные характеристики педагогической цели.*

**Ключевые слова:** учитель, профессиональные качества, личностные качества, педагогическая деятельность, образование, воспитание.

### MODERN REQUIREMENTS FOR THE PERSON AND PROFESSION OF THE TEACHER

*The article examines the personal and professional qualities of the teacher, the components of pedagogical activity, the stages of acquiring personal and professional qualities, the specific characteristics of the pedagogical goal.*

**Key words:** teacher, professional qualities, personal qualities, pedagogical activity, education, upbringing.

**Kirish.** Pedagogik faoliyat o‘ziga xos tarixiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat bo‘lib, u insonni hayot, mehnat, ijtimoiy turmushga tayyorlash va eng avvalo, yosh avlodni mustaqil faoliyat ko‘rsatib, mamlakatda, jamiyatda muvaffaqiyatli mehnat qilib, ijtimoiy-foydali faoliyat bilan shug‘ullana oladigan inson shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi. Jahonning pedagogik faoliyatga tayyorlanadigan o‘quv muassasalarida, avvalo, bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion, kreativ, akseologik, akmeologik salohiyatini ta’minlash, kasbiy kompetentligini yuksaltirish, pedagogik-psixologik bilimlar asosida pedagogik faoliyatning ilmiy-nazariy va amaliy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish yetakchi o‘rinni egallaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy va amaliy masalalari, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari respublikamiz olimlaridan X.Abdukarimov, M.Abdullajonov, B.Adizov, Sh.Axrorov, U.Begimqulov, R.Djuraev, B.Djuraeva, X.Ibragimov, Sh.Majitova, Sh.Mardonov, N.Muslimov, D.Nasriddinova, M.Mirsolieva, Sh.Olimov, B.Raximov, O‘.Tolipov, M.Urazova, N.Egamberdieva, F.Yuzlikaev kabilar tomonidan tadqiq etilgan. Ta’lim jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, o‘qituvchining pedagogik kompetentligi, shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish borasida keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy-metodik tavsiyalar yaratilmoqda.

**Natijalar.** O‘qituvchi faoliyati jarayonida o‘qitadi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi, tarbiyalaydi, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil qiladi, Prezident, hukumat farmoyishlarini targ‘ibot qiladi, o‘z malakasini oshirish uchun mustaqil bilim olishni rejalashtiradi, oqibat natijada o‘zi ham kamol topadi, o‘quvchilarni ham kamol toptiradi. Pedagogik faoliyat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yo‘nalishiga yega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va idealarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalab etishtirishga yo‘naltirilganligi;

- mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga yega bo‘lish;

- pedagogik qobiliyatga yega bo‘lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o‘qib olish);

- pedagogik texnikani yegallash, ya’ni o‘z-o‘zini boshqara olish, o‘zaro ta’sir etish va xamkorlikda ishlashni uddalash.

O‘qituvchilik faoliyatining shaxsiy sifatlarining yana bir xususiyati o‘ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, maktab haqidagi, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni,

metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil yetadi, o‘qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o‘tmaydi.

Biroq, zamonaviy o‘qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o‘zi kifoya qilmaydi-maxsus bilimlar va malakalar-bolalarni kuzatish, ularning o‘shisdagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo‘llari va usullarini aniqlash, turli o‘zaro ta‘sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo‘ladi.

Shunday qilib, pedagog-muallim o‘z shaxsiy va kasbiy sifatlariga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

1. Pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o‘rganish.
2. Maxsus fanlar, ularni o‘qitilish metodikasini chuqur bilish.
3. Pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o‘tkazish.
4. O‘z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish.
5. O‘z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o‘qib borish.

Pedagogik maqsadning o‘ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. O‘qituvchining shaxsiga qo‘yiladigan talablar jamiyat tomonidan belgilanadi, ya‘ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlarini bilan bog‘liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta‘minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o‘tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi.

2. O‘qituvchi shaxsi muntazam ravishda o‘quvchi-tarbiyalanuvchilarning shaxsiy faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o‘quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta‘kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so‘z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o‘z-o‘zidan kelaveradi».

3. Pedagogik (ta‘lim-tarbiya) jarayonida o‘quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o‘quvchi kelajagi tomon yo‘naltirilgan bo‘ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o‘z faoliyatining mantiqini o‘quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagog shaxsining maqsadi o‘ziga xosligi o‘qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to‘la anglab, o‘z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining “o‘sib”, uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondashishi;
- o‘quvchilar qiziqishlarini e‘tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

O‘qituvchi shaxsining o‘ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi yemas, balki o‘zining aloxida xususiyatlari, ro‘y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o‘zicha baxo beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta‘kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o‘z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo‘lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog doimo o‘sib-o‘zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O‘quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof muhit, ota-ona, boshqa fan o‘qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham ta‘sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o‘zida jamiki ta‘silarga va o‘quvchilarning o‘zida paydo bo‘lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O‘quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta‘sir ko‘rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o‘zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O‘quvchilarni mehnat, muloqot, o‘yin, o‘qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o‘zining individual pedagogik tizimiga ega bo‘lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini yegallash uchun, avvalo, ta‘lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy xol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o‘z o‘quvchilarini turli o‘quv ishlariga jalb qiladi. Shu bilan birga o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o‘qituvchi tomonidan tanlangan tarbiyaviy metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta‘sir etadi. O‘qituvchi shaxsining faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o‘quvchilar bilan muomalasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Odatda bularning ta‘lim-tarbiya jarayoniga ta‘siri

ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o‘qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o‘qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishini unutmash lozim.

O‘qituvchilik kasbining pedagogik, psixologik qirralarini tadqiq qilgan F.N.Gonobolin o‘zining “O‘qituvchi haqida qissa” risolasida o‘qituvchi Vera Aleksandrovna Raush nomidan fikr yuritib mahoratli o‘qituvchini quyidagicha ta’riflaydi. “Menimcha yaxshi o‘qituvchi bo‘lib etishish uchun eng avval haqiqiy hayot kechirish, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan, to‘la qonli hayotga intilish kerak. Tabiatni o‘rganib, uning qonuniyatlarini kuzatib borish, kitob mutoala qilish, musiqa tinglash, teatrlarga borish, sayohatga chiqish singari ishlar bilan shug‘ullanish kerak. Keyinchalik boshqalarga ulashish uchun pedagogning qalbi juda ko‘p narsani o‘zida singdirishi zarur. Shuning uchun men uzluksiz ravishda kitobga murojaat qilaman, tabiatdan o‘rganaman, doimo o‘qiyman, astoydil o‘qiyman” [1,66].

Demak, o‘z kasbining mohir egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi muntazam o‘z ustida ishlashi, tabiatdan, san’atdan, hayotdan, fandan bahra olib, rivojlanib, mukammallashib borgandagina maqsadga erishadi. Inson psixologiyasining mohir ustasi F.N. Gonobolin ta’kidlaganidek, o‘qituvchi o‘zining butun kuch – quvvatini, irodasini, bilimini, o‘zida bor hamma yaxshi narsalarini o‘z shogirdlariga, xalqqa beradi. Ammo, u o‘zida bor narsalarning hammasini bugun, ertaga, indinga bersa-yu, o‘z bilimini, kuchini, quvvatini yana va yana to‘ldirib bormasa, u holda o‘zida hech narsa qolmaydi. O‘qituvchi bir tomondan o‘zida borini berishi, ikkinchi tomondan bulut singari, hayotdan, fandan, nimaiki yaxshi narsalar bo‘lsa olishga odatlanmog‘i, xalqning eng ilg‘or kishilari bilan hamkorlikda ishlamog‘i lozim. Ana shunday bo‘lganda, u o‘z talabalariga qancha ko‘p narsa bermasin, agar xalqdan, hayotdan, fandan oziqlanib, eng yaxshi xislatlarni o‘qiy olsa, u holda, unda o‘z talabalar uchun bunday rizqli shiralar hamisha ortig‘i bilan mavjud bo‘ladi [1,67].

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun talablaridan kelib chiqib, bugungi kunda ijtimoiy hodisa sifatida o‘qituvchilik faoliyatning maqsadini quyidagilardan iborat deb atash mumkin:

- o‘quvchi - yoshlarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, uzluksiz bilim olishga tayyorlash;
- ijtimoiy - iqtisodiy hayot qonuniyatlaridan kelib chiqib fanlarning ilmiy-nazariy asoslarini yegallashga yo‘naltirish;
- har bir o‘quvchi - yoshning o‘ziga xosligi, individualligini inobatga olib ularni faol ijtimoiy -siyosiy faoliyatga tayyorlash;
- o‘qitish va tarbiyalash jarayonida o‘quvchi-yoshlarning mustaqilligi, tashabbuskorligi, erkin fikr yuritishni to‘la yo‘lga qo‘yish;
- o‘qitishda ta’lim va tarbiyaning birligini ta’minlagan holda o‘quvchi-yoshlarda ilmiy dunyoqarash, milliy mafkura, ma’naviy-siyosiy bilimdonlik asoslarini tarbiyalash; har bir mashg‘ulot, dars mazmunida vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash ruhini singdirish;
- o‘quvchi - yoshlarning ilmiy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollanganligini nazorat qilish, baholash va tahlil qilish;
- har bir mashg‘ulotda fanlaaro integratsiyani yo‘lga qo‘yish va o‘quvchi- yoshlarning barcha fanlarga bo‘lgan qiziqishi, intilishi hamda ehtiyojini tarbiyalash;
- har bir darsda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali, mavzularning mantiqiy bog‘liqligi, amaliy-ilmiy yo‘nalishini kuchaytirishga erishish va h.k.

Yuqorida bayon etilganlarni inobatga olib aytish mumkinki, bugungi kunda pedagogik faoliyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy-ma’rifiy hayotda muhim ahamiyat kasb etib, davlat miqyosidagi ustuvor vazifani bajaradi. Shuni inobatga olib mamlakatimizda o‘qituvchi-murabbiylar tayyorlash muammosi to‘g‘risida tadqiqotchi G.Isaevaning quyidagi fikr mulohazalarini misol tariqasida keltiramiz: “1) har qanday davlatning asosini, jumladan, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining rivojlanishi taraqqiyotini ham yoshlarning ta’lim-tarbiyasi belgilaydi. Yoshlarning barkamol fazilatlariga ega insonlar bo‘lib etishishida tizimining barpo etilishi hal qiluvchi omildir; 2) o‘qituvchilarga zamonaviy bilim berish uchun avvalo, o‘qituvchining o‘zi shunday bilimga ega bo‘lishi lozim; 3) uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimida asosiy ijrochilik, yetakchilik vazifasini o‘qituvchi-murabbiylar o‘taydi. Yoshlar kamol topishi darajasi ko‘pincha o‘qituvchi-murabbiy shaxsining shakllanganligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir; 4) pedagogik faoliyatda o‘qituvchi-murabbiy shaxsining barkamolligi jarayon samaradorligini belgilaydigan asosiy omillaridan hisoblanadi”[2,61].

Mamlakatda huquqiy, ijtimoiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini qurish sharoitida pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab yetilar yekan. Uning bilimdonligi darajasi masalasi xam o‘ta muxim.

Bular quyidagilar:

- **Ijtimoiy bilimdonlik**- dars mobaynida sinf bilan samarali o‘zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til toptirish va sog‘lom ma’naviy muxitni hosil qila olish qobiliyati;

- **Uslubiy bilimdonlik**- barcha bilimlarini, ko‘rgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta’lim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik qobiliyati;

- **Kasbiy-siyosiy bilimdonlik** -o‘z o‘quv fanini, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot sohasi bo‘yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlariga ega bo‘la olishi, o‘z ustida ishlash qobiliyatini o‘zida shakllantirgan bo‘lishi kerak.

Amaliyotda eng obro‘li, bilimdon pedagoglar birinchi navbatda insoniy bilimdonlik sohiblari bo‘lishadi va shundaylarni o‘quvchilar yaxshi qabul qilishadi. Chunki zamonaviy o‘quvchi ko‘plab ma’lumotlarga ega, uning psixologiyasi, talab-takliflarini aniq bilib til topisha olgan shaxsgina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi.

O‘qituvchi pedagogik faoliyati modeli ramziy tarzda to‘rt yo‘nalishda bo‘lib, tavsiflash mumkin.

**Birinchi yo‘nalishga o‘qituvchining ta’lim berish faoliyati** (fanni chuqur bilishi, kasbiy omilkorlik va eruditsiya, me‘yoriy hujjatlarni bilish, yangi pedagogik va informatsion texnologiyalardan xabardorlik, o‘qitishning texnik va axborot bazasi sohasidagi xabardorligi, faoliyatni ilmiy tadqiqot asosida tashkil eta olish, o‘z faniga doir ma’lumotlarni chet tillarda bilishi, o‘quv jarayonini ilmiy qura olish, ustoz-shogirdlik jihatlarni qo‘llay olish texnologiyasi; **ikkinchi yo‘nalishga o‘qituvchining tarbiyaviy faoliyati** (tarbiya va tarbiyaviy jarayonlardan xabardorlik, tarbiyaviy ishlarni yuksak darajada tashkil eta olish, shaxsiy-ma’naviy axloqiylik, milliy istiqloq g‘oyasini anglaganlik darajasi, tarbiyachilik burchiga sadoqat, fuqarolik va vatanparvarlik tuyg‘usiga egalik, tarbiyaviy ishlarnitashkil etish mahoratiga egalik); **uchinchi yo‘nalishga o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari** (ma’naviy-axloqiy salohiyat, siyosiy onglilik, huquqiy bilimdonlik, adolatparvarlik va halollik, o‘z kasbiy madaniyati ustida doimiy ishlay olish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, keyinish va yurish-turish madaniyatiga egalik, o‘z shaxsiga talabchanlik); **to‘rtinchi yo‘nalishga o‘quvchi-tarbiyalanuvchilar bilimni xolisona baholash** (fanning mazmunini aniq va to‘la bilish, savol va topshiriqlar tuza olish, bilimlarni va tarbiyalanganlikni mezonlarini ishlab chiqish, o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilarning xatti harakatlarini xayrixohlik nuqtayi nazardan baholash, o‘quvchilar bilimi va tarbiyalanganligini baholashni takomillashtira olish) kiradi.

**Xulosa.** O‘qituvshilarda rivojlantiriladigan ijtimoiy ahamiyatli qadriyatlar tizimi atrof-muhit va o‘z-o‘ziga nisbatan munosabat tavsifini aks ettiruvshi va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida namoyon bo‘ladigan, pedagogik tayyorgarlikning o‘zaro aloqador aksiologik komponentlarida sifat o‘zgarishlarini hosil qilishga yo‘naltirilgan obyektiv jarayondir. Tahlillar asosida aytish mumkinki, kasbiy sifatlar muayyan faoliyat sohasida belgilangan yo‘riqnomaga asosan vazifalarni bajarish imkonini beruvshi maxsus bilimlar, malakalar va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish jarayoni va natijasidir. Demak, o‘qituvchi zamonaviy pedagogika talablariga javob bera olishi, jamiyat talablariga mos kelajak avlodni tarbiyalashda ma’suliyatli, ruhan, ma’nan sog‘lom, keng tafakkurli bo‘lishi lozim.

#### Adabiyotlar:

1. Гоноволин Ф.Н. Ўқитувчи ҳақида қисса. – Т.: 1967, 66- бет.
2. Исаева Г. Ўқитувчи-мураббийнинг жамиятдаги ўрни. –Тошкент, “Халқ таълими” журнали, 2003 йил, 5-сон, 58-61 бетлар.
3. Ходжаев Б.Қ. Жураев Б.Т. Педагогик фаолиятга кириш [Матн]: монография / - Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2020. -148б.
4. Ўроқова Н.Н. Таълимни модернизациялаш шароитида ўқитувчилик касби ва педагогик кадрлар тайёрлашга қўйиладиган умумий талаблар //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 37. – №. 2. – С. 155-159.
5. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
6. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". – 2018. – С. 120-122.
7. Олимов Ш. Ш. Педагогическое мастерство преподавателя и его профессионализм в системе образования //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
8. Файзилова У. А., Хикимова М. Т. Условия эффективности педагогического общения //Наука. Мысль: электронный периодический журнал. – 2015. – №. 1. – С. 19-22.



## TA'LIM JARAYONINI 3D ASOSIDA TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH

*Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi,*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti magistranti*

*FayzullayevaMadina007@gmail.com*

*Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishda raqamli ta'lim resurslarini, xususan, 3D VR qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqotimiz natijasi bilan tanishishingiz mumkin. Ushbu tadqiqotimiz davomida duch kelgan 3D VR larni tarix, geografiya, menejment, astranomiya va xorijiy til o'rganish kabi fanlar misolida ta'lim jarayonida qo'llashning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rishingiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** 3D VR, darsliklar, tarixiy inshootlar, geografik hududlar, menejment, astranomiya, xorijiy tillar, Sketchfab, MyMiniFactory, Thingiverse.

## ОРГАНИЗАЦИЯ И РАЗВИТИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ 3D

*В этой статье вы можете ознакомиться с результатами наших исследований по использованию цифровых образовательных ресурсов, в частности, 3D VR, в организации и развитии образовательного процесса на основе цифровых технологий. Увидеть положительные и отрицательные стороны использования 3D VR в образовательном процессе можно на примере таких предметов, как история, география, менеджмент, астрономия и изучение иностранных языков.*

**Ключевые слова:** 3D VR, учебные пособия, исторические структуры, географические регионы, менеджмент, астрономия, иностранные языки, Sketchfab, MyMiniFactory, Thingiverse.

## ORGANIZING AND DEVELOPING THE EDUCATIONAL PROCESS ON A 3D BASIS

*In this article, you can get more information about the results of our research on the use of digital educational resources, in particular, 3D VR, in the organization and development of the educational process based on digital technologies today. You can find out the positive and negative aspects of the use of 3D VR in the course of our research in subjects such as history, geography, management, astronomy and foreign language learning.*

**Keywords:** 3D VR, tutorials, historical structures, geographical areas, management, astronomy, foreign languages, Sketchfab, MyMiniFactory, Thingiverse.

**Kirish.** 3D - 3D yoki uch o'lchovli shakl (ingliz tilida Three-dimensional) ning qisqa yozilgan shakli. Ushbu shakl o'zida uzunligi, balandligi va kengligi bo'lgan uch xil koordinatalardan iborat bo'ladi. Bunday shakllar 3D kompyuter grafikasi, 3D printerlar, 3D skannerlar va boshqa ko'plab sohalarda ishlatiladi. 3D shakllar, 2D shakllarga nisbatan ko'proq ma'lumotlarni ifodalash imkonini beradi, chunki 3D shakllar uchun koordinatalar tashqi nuqtalarga nisbatan belgilanadi. Bu esa ularni o'zaro aloqada ko'proq ma'lumotlarni ifodalash imkonini beradi. 3D shakllar qiziqarli va amaliyotga mos holda ishlatiladi, masalan, 3D printerlar orqali qiziqarli narsalarni yaratish uchun yoki nafaqat arxitektura, dizayn, mashina ishlab chiqarish, balki ta'lim sohasida ham foydalanish mumkin.

3D ta'lim muhim, chunki bugungi kunda 3D dizayn, modelleme va animatsiya sohasida katta talab bor. Bu soha animatsiya filmlari, o'yinlar, arxitektura, tibbiyot, texnika va boshqa sohalar uchun juda katta ahamiyatga ega. 3D ta'lim o'rganish, yangiliklarga ochiq bo'lish va kreativlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, 3D ta'lim o'rganish texnikaviy malakani oshirish, ish bilan bog'liq muammolarni hal qilish va yangi kasblar uchun imkoniyat yaratishga yordam beradi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Ta'limda 3D samarasi o'quvchilarning o'zining o'rganishini yaxshilash uchun juda foydali bo'lishi mumkin. Bu texnologiya o'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshilaydi va ularning o'rganishini osonlashtiradi. Ta'limda 3D ta'limini amalga oshirishning bir nechta afzalliklari mavjud.

- o'qituvchilar o'quvchilarga 3D darsliklar tayyorlashadi. Bu darsliklar o'quvchilarning o'rganishini osonlashtiradi va ularni ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

- o'qituvchilar o'quvchilarga 3D model qurishni o'rgatishadi. Bu usul o'quvchilarning tasavvur qobiliyatini oshiradi va ularning o'zlarining 3D modellarni yaratishini o'rgatadi.

- ta’limning o‘z-o‘zini baholash: 3D VR lar asosida ta’limni tashkil qilish, talabalarning o‘z-o‘zini baholash uchun o‘ta muhim bo‘ladi. Bu usul orqali talabalar paydo bo‘lgan muammolarni hal qilishga yordam beruvchi dasturlarni bajarishadi va ularning barqarorligi va o‘sishi ta’minlanadi.

- ta’lim sifatining yuqori darajasiga erishish: 3D VR lar asosida tashkil qilingan ta’lim jarayonlari, talabalarga ko‘rinishli, interaktiv va samimiy ta’lim imkoniyatlarini beradi. Ushbu usul orqali talabalar, real hayotda amal qilganicha his qilib olishadi.

- oliy sifatli ta’lim materiallarini ta’minlash: 3D VR lar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonlari, oliy sifatli va samimiy ta’lim materiallarini talabalar uchun ta’minlaydi. Bu usul orqali talabalar maxsus bilimlarni osonlik bilan olishlari mumkin.

- ta’lim jarayonining shakllanishi: 3D VR lar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonlari, talabalarning o‘z-o‘zini o‘rganish shakllariga ham mos keladi. Ushbu usul orqali talabalar, o‘rganishning bir necha xil shakllarini ishlab chiqishingiz mumkin.

- ta’lim jarayonining dinamikligi: 3D VR lar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonlari, talabalarga dinamik va samimiy ta’lim imkoniyatlari beradi. Ushbu usul orqali talabalar, o‘rganish jarayonidan yuzaga keladigan muammolarni hal qilishni osonlashtiradi.[1]

3D samarasini o‘rganish uchun ko‘plab onlayn resurslar mavjud, masalan, Thingiverse, Tinkercad, Autodesk 1-2-3D va 3D Slash kabi. Bu resurslar o‘quvchilarga 3D modellarni yaratish va ularni o‘zlashtirish uchun kerakli vositalarni taqdim etadi.

**Materiallar va tadqiqot metodlari.** Kompyuter, telefon va planshetlar kabi raqamli qurilmalar yordamida ta’limni yanada rivojlantirish uchun, o‘qituvchilar va talabalar o‘zlariga mos keladigan darsliklar, videolar va testlar yaratishlari mumkin. Bu qurilmalar orqali o‘qituvchilar talabalarning o‘zlashtirilgan o‘qitish usullariga mos ravishda o‘rganishini osonlashtirishlari va talabalarning o‘zlarining o‘rganish uslublarini belgilashlari mumkin. Masalan, xorijiy tilini o‘qitishda 3D dan ham foydalanish mumkin. 3D model yaratish va o‘rganish talabalarga ko‘proq tajriba olishiga yordam berishi mumkin. 3D modellar ta’lim jarayonida talabalarga ko‘proq vizual tajriba beradi. 3D modellar, masalan, biologiya, kimyo, fizika va boshqa fanlarda qo‘llaniladi. Bu modellar talabalarga ko‘proq tushunarli va ko‘proq qiziqarli bo‘lishiga imkon beradi.

Bundan tashqari, 3D modellar talabalarning o‘zlarini mustaqil o‘rganishiga imkon beradi. Talabalar 3D modelni o‘zlariga mos ravishda ko‘rish, uni tahlil qilish va uni o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Boshqa fanlarga, xususan, astranomiya, tarix va geografiya fanlarini yanada yaxshiroq o‘rganish uchun 3D modelni qo‘llashga kelsak, sayyora, yulduzlar, koinotni, tarixiy inshootlarni yoki geografik hududlarni o‘rganishingiz va ularning 3D shakllarini ko‘rish imkoniyatiga ushbu saytlar orqali ega bo‘lishingiz mumkin:

- Sketchfab: Bu sayt orqali dunyodagi eng katta 3D model kolleksiyasiga ega.

- Smithsonian X 3D: Bu sayt orqali Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Smitson institutining tarixiy obyektlariga oid 3D modellarni ko‘rish imkoniyati mavjud.

- Ancient History Encyclopedia: Bu sayt orqali tarixiy inshootlarning 3D shakllarini ko‘rish mumkin.

- Google Arts & Culture: Bu sayt orqali dunyodagi ko‘plab muzeylar va qadimgi joylar 3D formatda ko‘rsatiladi.

- MyMiniFactory: Bu sayt orqali siz ko‘plab narsalarni 3D formatda yuklab olishingiz mumkin.

- Thingiverse: Bu sayt orqali siz ko‘plab buyumlarni 3D formatda yuklab olish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

- Stars.chromeexperiments.com: Ushbu super grafik 3D xarita-sayt sizga jami 10 000 ta yulduzlarning koinotda joylashuvini 3 o‘lchamda ko‘rish va har biri haqida batafsil ma’lumot olish imkoniyatini taqdim etadi. Olimlarning aniqlashicha, koinot haqidagi to‘g‘ri tasavvurlar - fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan. Ayniqsa, bolajonlarga koinotni tushuntirishimizni ushbu sayt juda yengillashtirib beradi.


- Richiecarl.github.io/sat/index.html: Ushbu sayt sizga ayni damda Yer orbitasida uchib yurgan kosmik chiqindilar va sun’iy yo‘ldoshlar joylashuvini 3D formatda ko‘rsatib beradi.

- Asterank.com/3d: Koinot haqida ushbu 3D model-sayt orqali bir qator qiziqarli ma’lumotlar bilib olishingiz mumkin.[2]

3D ta’lim menejment sohasida ham juda muhimdir. Menejmentda 3D dizayn va modelleme bilan ishlash, loyihalarni boshqarish va 3D animatsiya asosida strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini beradi. Menejment sohasida 3D ta’limni o‘rganish, kompaniyalarning dizayn va marketing strategiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, 3D modelleme va animatsiya, korxonalar boshqaruvining tizimli va samarali bo‘lishiga yordam beradi. Bu bilimlar menejmentning innovatsion yondashuvlari va yangiliklarni qabul qilishga yordam beradi, hamda kompaniyalarning sotish strategiyalarini rivojlantirish va mijozlarga yo‘naltirish uchun muhimdir.

Ta’lim jarayonini 3D VR lar asosida tashkil qilish va rivojlantirish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish mumkin. Bu ta’lim jarayonlarining ko’rsatilishi va o’qitish usullarining effektivligi haqida ko’proq ma’lumotga ega bo’lishga yordam beradi. Misol uchun, 3D VR lar orqali ta’limda test sinovlari o’tkazish uchun foydalanish mumkin. Bu sinovlarni amalga oshirishning murakkabliklarini kamaytiradi va talabalarga ta’lim dargohida realistik atmosferani boshqa usullardan ko’ra yuqoriroq ko’tarib beradi. Quyida biz tanlab olgan 2 guruh asosida 4 oy davomida o’tkazgan tajriba, sinov natijalarini ko’rishingiz mumkin. Bir guruhga 3D texnologiyalari yordamida ta’lim berildi, boshqa guruhga esa, 3D texnologiyalarsiz, o’qituvchi rejasi asosida dars mashg’ulotlari o’tilgan. Har ikkala holatda ham o’quvchilar bilimini o’sish holatini kuzatishingiz mumkin. Ammo, 3D texnologiyalari asosida o’tilgan dars mashg’ulotlarida o’quvchilarning bilimi va qiziqishlari ancha yuqori ekanligini ko’rishingiz mumkin.

Boshqa bir ilmiy tadqiqot esa, 3D VR lar orqali ta’lim jarayonini rivojlantirishning talabalarga qanday ta’sir qilishi haqida bo’ladi. Bu talabalar o’zlaridagi qiziqishni yaxshilash va intellektual salohiyatni rivojlantirishda 3D VR lar yordam beruvchi potentsialni tahlil qiladi. Shuningdek, 3D VR lar orqali ta’lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirishning sifatini baholash uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish ham mumkin. Bu ta’lim jarayonlarining effektivligi va talabalar uchun foydali bo’lgan elementlarning aniqlanishiga yordam beradi. Bularning hammasi 3D VR lar orqali ta’lim jarayonini rivojlantirishning muhimligi haqida ma’lumot olish yordam beradi va bu usulni to’g’ridan-to’g’ri amalga oshirishda yordam beradi.



**Tadqiqot natijalari va tahlili.** 3D ta’lim ta’limning yangi bir usuli hisoblanadi va bir nechta afzalliklari va noafzalliklari mavjud. Bu usul bilan o’quvchilar o’zlarini masofadan tashqarida joylashgan obyektlarning 3D modelini ko’rish, o’rganish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu esa 3D ta’limning afzalliklaridan biri hisoblanadi. Yuqorida to’rt oy davomida o’tkazgan tajribamiz davomida biz 3D texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo’llashning bir qancha ijobiy va salbiy holatlariga duch keldik. Quyida esa biz sizga shunday 3D ta’limning afzallik va noafzallik holatlarini ochib bermoqchimiz. *Afzalliklar:*

1. Vizualizatsiya: 3D modellash va tasavvur qilish o’quvchilarga abstrakt va murakkab ma’lumotlarni vizual ravishda tushuntirishga yordam beradi. Bu ularning ma’lumotlarini osonroq o’rganish va tushunish imkonini beradi.[3]

2. Interaktivlik: 3D ta’limning interaktiv xususiyati o’quvchilarni o’zgaruvchanlik, obyektlarni o’rganish va ulardan foydalanish imkoniyatiga ega qiladi. O’quvchilar 3D modellarni aylantirib, tahlil qilib, o’z fikrlarini bildirishlari va yangi ma’lumotlar olishlari mumkin.

3. Realistiklik: 3D modellash asosida tuzilgan obyektlar va muhitlar o’quvchilarga realistiklik hissini beradi. Ular haqiqiy hayotdagi obyektlar bilan o’zaro bog’lanishni oshiradi va o’quvchilarning o’zlarini ularning ichida his qilishini ta’minlaydi.[4]

4. Tashqi bog‘lanish: 3D ta‘lim o‘quvchilarni dunyo bo‘ylab tashqi obyektlar bilan bog‘lanish imkoniyatini yaratadi. Ular dunyo bo‘ylab turli obyektlarning 3D modellari bilan tanishish, ulardan o‘rganish va ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Biroq bu qurilmalar salbiy tomonlarga ham ega bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar va talabalar o‘qitish jarayonida salbiy tomonlarni cheklash va ularni savolga solishtirish orqali o‘rganishlarini osonlashtirishlari mumkin. *Noafzalliklari:*

1. Texnikaviy talablar: 3D ta‘lim uchun texnikaviy vositalar va dasturlar talab qilinadi. Bu esa 3D modellarni yaratish, tahlil qilish va ulardan foydalanish uchun o‘quvchilarning texnikaviy bilimlarini oshirishni talab qiladi.

2. Resurslar: 3D ta‘lim uchun yuqori sifatli 3D modellarga va dasturlarga ega bo‘lish zarur. Bu esa o‘quvchilarning ulardan foydalanish imkoniyatini cheklashga olib kelishi mumkin.

3. O‘qituvchilar tayyorligi: 3D ta‘limning samaradorligi o‘qituvchilarning texnikaviy bilimlari va ularni 3D modellarni o‘rganish va ulardan foydalanishda tayyorlik darajalariga bog‘liq. Bu esa o‘qituvchilar tayyorligi va ularning 3D ta‘limni o‘rganishga tayyorlash uchun yetarli vaqtni talab qiladi.

3D ta‘limning afzalliklari va noafzalliklari bilan tanishib chiqish bilan birga, o‘quvchilarning 3D modellarni o‘rganish va ulardan foydalanishning samaradorligini oshirish uchun yuqori sifatli resurslarga, o‘qituvchilar tayyorligiga va texnikaviy talablarga e‘tibor qaratish lozim. Shuningdek, o‘quvchilarning 3D ta‘lim usulini qabul qilish va unga qiziqishni oshirish ham muhimdir.

Tadqiqotlarimiz natijasida shuni aniqladikki, 3Dni ta‘limda qo‘llash orqali samaradorlikka erishish uchun quyidagi usullarni amalga oshirish mumkin. Dastlab, texnologiyalarni o‘rganish orqali ekan. 3D qo‘llashni o‘rganish uchun kerakli texnologiyalarni o‘rganish va ularni to‘liq tushunish juda muhimdir. Bu 3D model qilish, 3D printerda bosib chiqarish va boshqa 3D texnologiyalarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Keyingi bosqich esa amaliyotni oshirishdir. 3Dni ta‘limda qo‘llash uchun amaliyotni oshirish juda muhimdir. Bu bilimlarni amaliyotda qo‘llab-quvvatlash, texnikaviy qo‘llashni o‘rganish va 3D model yaratishda ishlatishga imkoniyat beradi. Uchinchi bosqich esa yaratuvchilikni rag‘batlantirish. 3Dni ta‘limda qo‘llash orqali yaratuvchilikni rag‘batlantirish juda muhimdir. Talabalar 3D model yaratish va uni bosib chiqarish orqali o‘zlarining fikrini ifodalash, dizayn qilish va innovatsion yechim topishga imkoniyat beradi.

So‘nggi bosqich ishbilarmonlik va jamoa ishlarini oshirishdir. 3Dni ta‘limda qo‘llash orqali talabalar jamoa ishlarini oshirish, ishbilarmonlik va boshqa texnikaviy ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkoniyat beradi. Bu esa ularning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi. Bu usullar bilan talabalar 3Dni ta‘limda qo‘llash orqali samaradorlikka erishishlari mumkin.

**Xulosa.** 3D ta‘limni rivojlantirish orqali beriladigan bilimlarning mustahkamlash, ularni uzoq muddatga xotirada saqlab qola olish imkoniyatiga ega bo‘lishimiz mumkin. Bu orqali ta‘lim sifati samaradorligini oshirishga erishishimiz mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Тилакова, М. А. (2022). Та‘лим тизими ва mazmunini takomillashtirishda “Virtual ekskursiya” metodini qo‘llanilishining ahamiyati: Tilakova Mavjuda Ashurovna, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Jizzax viloyati xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, “Pedagogika va psixologiya talim texnologiyalari” kafedrasini mudiri Eshmanova Nodira Nazarkulovna, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (7).

2. Mo‘minov, E. (2022). Virtual ta‘lim muhitida zamonaviy ta‘lim tizimi va virtual borliq metodikasini shakllantirish. Science and innovation, 1(B8), 1456-1460.

3. Qilichev, S., & Taniberdiyev, A. (2023). Ta‘lim sifati oshirishda virtual texnologiyalar o‘rni va ahamiyati. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 158-161.

4. Wickens, C. D. (1992, October). Virtual reality and education. In [Proceedings] 1992 IEEE International Conference on Systems, Man, and Cybernetics (pp. 842-847). IEEE.

## TALABALARNING SHAXSIY SIFATLARINI HAMKORLIK JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH METODI

*Haydarov Latifjon Rustamovich,*

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi*

*Birgalikda ijod qilish pedagogikasi zamonaviy darsning ajralmas qismidir, chunki u nazariy bilimlarni o'zlashtirishga ham ta'sir qiladi. Shuni e'tiborga olib, “Blended learning” innovatsion metodidan “Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi” fanining laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanildi. Natijada tajriba –sinov boshida ijodiy g'oyalarning shakllanganlik darajasi 14,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba-sinov oxirida 42,9 % ni tashkil etdi. Innovatsion metod, nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, balki o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga o'quv faoliyatini faollashtiradi, kognitiv faollikni va o'rganish samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolada yuqoridagilar haqida fikr boradi.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, o'qitishda birgalikda ijod qilish pedagogikasi, o'quvchi shaxsini rivojlantirish, birgalikda ijod qilishning asosiy va qo'shuvchi belgilari, sinfda o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, birgalikda yaratish jarayonini tashkil etish bosqichlari.*

## МЕТОД РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ СОТРУДНИЧЕСТВА

*Исходя из требований современного общества, задача учителя – раскрыть скрытый потенциал каждого ученика и развить творческий потенциал личности. Результаты эксперимента-проверки проведены посредством инновационной методики «Смешанное обучение» на лабораторных занятиях специальности «Технология переработки нефти и газа», а также уровень сформированности творческих идей в начале эксперимента-проверки. составили 14,3%, а в - в конце опытно-экспериментальных работ - составили 42,9%. Инновационный метод положительно влияет на усвоение теоретических знаний, а также на развитие личностных качеств обучающегося, в то же время активизирует учебную деятельность, повышает познавательную активность и эффективность обучения.*

***Ключевые слова:** образование, педагогика сотворчества в обучении, развитие личности ученика, основные и дополнительные признаки сотворчества, развитие творческого мышления учащихся на уроке, этапы организации процесса сотворчества.*

## METHOD OF DEVELOPING STUDENTS' PERSONAL QUALITIES IN THE PROCESS OF COOPERATION

*Based on the requirements of modern society, the task of the teacher is to reveal the hidden potential of each student and to develop the creative potential of the individual. The results of the experiment-test were carried out through the innovative method of "Blended learning" in the laboratory classes of the specialty "Oil and gas processing technology", and the level of formation of creative ideas at the beginning of the experiment-test was 14.3%, while the experiment - at the end of the test was 42.9%. The innovative method has a positive effect on the assimilation of theoretical knowledge, but also on the development of the student's personal characteristics, at the same time, it activates educational activities, increases cognitive activity and learning efficiency.*

***Key words:** education, pedagogy of co-creation in teaching, development of the student's personality, basic and additional signs of co-creation, development of creative thinking of students in the classroom, stages of organizing the process of co-creation.*

**Kirish.** Hozirgi vaqtda faoliyatning barcha yo'nalishlarida eng ko'p talab qilinadigan bo'lib, ular o'z chegaralaridan tashqari fikrlash va harakat qilish qobiliyatiga ega, sodir bo'layotgan jarayonlarga ko'p tomonlama, o'ziga xos va ijodiy nuqtayi nazarga ega bo'lgan xodimlardir.

Shu munosabat bilan Rossiya ta'lim tizimini qayta tashkil etish zarurati paydo bo'ldi. Binobarin, ta'limning yetakchi maqsadi nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda talaba shaxsini rivojlantirishdir – Respublikamiz ta'lim tizimining asosiy negizi quyidagi fazilatlarini o'z ichiga oladi: ijodkorlik va innovatsion faoliyat uchun motivatsiya; hamkorlik qilishga tayyor, ijodiy fikrlay oladigan, o'zini shaxs

sifatida anglaydigan, ijtimoiy faol, boshqa odamlarning fikrini hurmat qiladigan, konstruktiv muloqot o'tkaza oladigan, o'zaro tushunishga va muvaffaqiyatli muloqot qila oladigan shaxsiy fazilatlariga ega yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

Bundan kelib chiqib, ta'lim muassasalari oldida zamonaviy jamiyat fuqarosini, eng avvalo, o'ziga xosligi, o'zini-o'zi takomillashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini bilishi bilan ajralib turadigan ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi turibdi. Demak, talaba shaxsini rivojlantirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish zarurati tug'iladi.

Bugungi kunda pedagogik o'qitishning eng maqbul va samarali usuli ham o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga, ham talabalarning ishtiyoqini oshirishga qaratilgan birgalikda ijod qilish pedagogikasi bo'lib, natijada dars samaradorligida o'z ifodasini topmoqda. Shunga asoslanib, savol sinfda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikda ijod qilish jarayonini tashkil etish dolzarbdir.



1-rasm. Birgalikda ijod qilish jarayoni sxemasi

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda ijodkorlik, hamkorlik, birgalikda ijod qilish kabi atamalarga alohida e'tibor beriladi. Ijodkorlik birgalikda ijod qilish jarayonida rivojlanishi mumkin. Talaba mustaqil ravishda o'zi uchun yangi g'oyalarni o'ylab topishi mumkin, ammo birgalikda ijod qilish unga yanada kengroq ochilishiga yordam beradi. Uning qarashlari o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatida tanlagan savollar, harakat yo'nalishlari yordamida yanada kengayadi. Birgalikda ijod qilish jarayonida hamkorlikka asoslangan ijodkorlik ijodkorlikning yangi bosqichiga chiqadi.

G. A. Zasobina va V. S. Muhammed pedagogik ijod doimo birgalikdagi ijoddir, deb hisoblaydilar “Pedagogik ijodning o'ziga xos xususiyati shundaki, u doimo birgalikda ijod qiladi. Bu butun pedagoglar jamoasi va har birining ijodi bilan chambarchas bog'liq talaba” [1].

Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish hozirgacha Pedagogikada birgalikda yaratish turli talqinlarga ega ba'zi olimlar (V.I. Andreev [2], S.Yu. Stepanov [3,4], V.A. Slastenin [5]) o'z ta'riflarida birgalikda ijod qilishni o'qituvchi va shogirdning do'st bo'lib, bitmas-tuganmas manba bo'lgan munosabatlari sifatida aks ettiradilar.

Boshqa olimlar (V.I.Zagvyazinskiy [6]) birgalikda yaratish o'zaro ta'sirning o'ziga xos shakli – hamkorlikka asoslangan pedagogik ijodning almashtirib bo'lmaydigan xususiyati, tamoyili, deb hisoblaydilar.


Keyingi ishda birgalikda yaratishning ishchi ta'rifi taqdim etilgan ta'riflarning kombinatsiyasi bo'ladi. Birgalikda yaratish deganda biz o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning faol va ijodiy tabiatiga asoslangan qo'shma ijodiy faoliyat shaklini tushunamiz, unda o'quvchilar o'zlarining ijodiy g'oyalarni amalga oshiradilar, mustaqillikni namoyon qiladilar va muammolarni hal qiladilar, yangi ma'lumotlar o'rganadi [7].

“Blended learning” innovatsion metod orqali talabalarning hamkorlikdagi faolligini yanada oshirish orqali ijodiy g'oyalarni shakllantirishdan iborat.

Metodning maqsadi: Aralashtirilgan ta'lim an'anaviy sinfda o'qitish va yuqori texnologiyali onlayn o'qitishni birlashtirgan usuldir. Bu sizga va talabalaringizga samarali o'quv muhitini yaratish va o'rganish tajribasini moslashtirish uchun ko'proq moslashuvchanlikni beradi.

Biz yashayotgan texnologiyaga asoslangan dunyoda internet yoki elektron ta'lim dasturlari kabi kuchli vositalarni e'tiborsiz qoldirish qiyin. O'qituvchilar va talabalar uchun video uchrashuvlar, kurslarni boshqarish uchun LMS, o'zaro muloqot qilish va o'ynash uchun onlayn saytlar va o'quv maqsadlariga xizmat qiluvchi ko'plab ilovalar dunyoni egallab oldi.

Biz taklif qilayotgan raqamli darsga talabalar oflayn darslarga qo'shila boshlaganlarida, darslarni yanada qiziqarli qilish uchun raqamli vositalardan yordam olishlari fandagi muammoning oldini olishga va mavhumlik qolmaslikka imkon yaratadi.



2-rasm. O'zlashtirish ko'rsatkichlari diagrammasi


Oliy ta'lim muassasalari - talabalarini yuzma-yuz va virtual sinflarda jalb qiladigan aralash ta'lim uchun ajoyib vosita. Talabalarimiz ushbu platformada viktorinalar, o'yinlar, aqliy hujum va ko'plab sinf tadbirlariga qo'shilishlari mumkin.

Birgalikda yaratish jarayonini tashkil etish asosiy hisoblanadi va unga hamroh bo'lgan alomatlar. Asosiylarini, o'z navbatida, birgalikda yaratishning tashkiliy jihatlari bilan bog'liq bo'lgan tashqi va noqulay xarakterlovchi ichki qismlarga bo'lish kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, agar birgalikda yaratish darsining tashkiliy yondashuvlari psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarda sezilarli darajada tavsiflangan bo'lsa, u holda uslubiy komponent kamroq darajada ifodalanadi. Shuning uchun birgalikda yaratish darsining bosqichma-bosqich metodologiyasini ochib beradigan savol muhim sanaladi.

Birgalikda yaratish jarayonining hamrohlik belgilari davom etayotgan jarayonlarning dunyoqarashini idrok etishning to'liq rivojlanishiga yordam beradi.

Sinfda birgalikda ijod qilishni tashkil etish jarayonini o'rganish, S.Yu.Stepanov, E.Z.Kremer E'tibor bering, asosiy va qo'shilgan belgilar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lishi va salbiy munosabatni keltirib chiqarmasligi kerak [8].




3-rasm. Darsda birgalikdagi ijodkorlikning asosiy tashqi belgilari sxemasi

Birgalikda yaratish darsning alohida holati emas, balki uning tarkibiy qismlariga kirib boradi va ularni bir-biriga bog'laydi. Shuning uchun darsda birgalikda yaratish jarayonidan yangi mavzuni o'rganishda, uni mustahkamlashda, shuningdek, umumlashtirish va tizimlashtirishda foydalanish mumkin. Birgalikda ijod qilishning asosi - o'zaro ta'sirning faol va ijodiy tabiati (talaba-talaba, talaba-o'qituvchi). Ijodiy suhbat jarayonida, ochiq sharoitda tenglik sharoitida dastur materialini o'rganish jarayonida muhokama yangi g'oyalar, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining fikrlari hisobga olinadi va barcha nuqtai nazarlar hisobga olinadi, qachonki zarur bo'lsa, tadqiqot tajribalari o'tkaziladi.

Treningni tashkil etish juftlik, guruh yoki jamoaviy bo'lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini yanada to'liq rivojlantirish uchun guruh va jamoaga ustunlik berish kerak

Dars boshida muhokamani tashkil qilish uchun o'qituvchi har bir jamoaga muhokama qilish uchun ijodiy muammolarni beradi. Masalan: “Muhandis kadrlarni tayyorlaydigan OTM larda maxsus kursi o'qitilsa, samarali natijaga erishsa bo'ladi. Maxsus kurs neft va gaz ixtisosligini yorituvchi kontentlar batafsil bo'ldi. Darsni tashkil qilishda misol tariqasida sohadan kelib chiqqan holda quyidagicha savollarni o'rtaga tashlash mumkin:

Darsning birinchi bosqichi muammoni, maqsadni qo'yish, ma'lumot almashish va topshirilgan muammolarni hal qilishga qaratilgan ijodiy muhit yaratish bilan bog'liq. O'qituvchining vazifasi - fikrlarni tinglash va o'quvchilarning aqliy faoliyatini yo'naltirish. Bu bosqichda asosiy ijodiy jarayon ijodiy g'oyalarni ko'rib chiqishda yuzaga keladi, bu talaba-talaba o'qitishda kuzatiladi. Talabalar sxema bo'yicha guruhlarda ishlaydi. Guruh a'zolari (1-2, keyin 3-4 kishi) o'rtasida ma'lumot almashiladi va topshiriq bo'yicha g'oyalar ilgari suriladi. Talaba va talaba hamkorlikda ijod qilish amalga oshiriladi.



**4-rasm. Darsda birgalikdagi ijodkorlikning asosiy ichki belgilari sxemasi**

Darsning ikkinchi bosqichida guruhlar o'rtasida o'zaro ta'sir sodir bo'ladi, o'qituvchi har bir jamoa ilgari surgan g'oyalarni muhokama qilishni tashkil qiladi. Barcha taxminlar va farazlar tinglanadi. Ushbu bosqichda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri mavjud. O'qituvchi munozarani qo'llab-quvvatlaydi, ammo munozarali savollarga javob talabalar o'zlari ularni axborot matnlari, taqdimotlar, videolar yoki tajribalar yordamida topadilar.

Darsning uchinchi bosqichi natijalarni tasdiqlash bilan bog'liq va berilgan savollarga javob topish. Bu yerda asosan talabao' qituvchi, talaba-shogird mashg'ulotlari olib boriladi [9].

Birgalikda yaratish jarayoni o'quvchilarning shaxsiy va kommunikativ fazilatlarini shakllantirishga ta'sir qiladi.

a) birgalikda ijod qilish jarayonini tashkil etish o'quvchining shaxsiy fazilatlariga ma'lum darajada ta'sir qiladi: kognitiv qiziqish, tashabbuskorlik va qiziquvchanlik, bilim va ijod motivlariga tayyorlik mustaqil harakatlar va harakatlar, ularning natijalari uchun javobgarlik; o'z-o'zini mahorat maqsadlarga erishish yo'llarini, shu jumladan muqobillarni rejalashtirish, ta'lim va kognitiv muammolarni hal qilishning eng samarali usullarini ongli ravishda tanlash; o'rganish qobiliyati va o'z faoliyatini tashkil etish qobiliyati; maqsadlarga erishishda maqsadlilik va qat'iyatlilik, o'zini o'zi qadrlash, qiyinchiliklarni engishga tayyorlik va hayotdagi nekbinlik; o'zo'zini hurmat qilish va o'ziga nisbatan hissiy jihatdan ijodiy munosabat;

b) talabaning kommunikativ fazilatlarini quyidagilarda namoyon bo'ladi: tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish; boshqa shaxsga va uning fikriga ongli,



hurmatli va do'stona munosabatni shakllantirish; boshqa odamlar bilan muloqot qilish va unda o'zaro tushunishga erishishga tayyorlik va qobiliyatni shakllantirish; o'z pozitsiyasini ochiq ifoda etish va himoya qilishga tayyorlik, o'z harakatlariga tanqidiy munosabatda bo'lish va ularni munosib baholash qobiliyati o'z-o'zini hurmat qilish va hissiy jihatdan ijobiy o'ziga nisbatan munosabat; boshqalarga hurmat – sherikni tinglash va eshitish qobiliyati, har kimning huquqini tan olish o'z fikrlariga ega bo'lishi va barcha ishtirokchilarning pozitsiyalarini hisobga olgan holda qarorlar qabul qilishi.

Shaxsning shakllanishiga hamrohlik qiluvchi xususiyatlarning ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Ko'p jarayonlilik va ko'p mavzuli mavzu muhim ijtimoiy va shaxslararo munosabatlar tizimini tashkil qiladi.

Zamonaviy dunyoning ijtimoiy, madaniy, lingvistik, ma'naviy xilma-xilligini hisobga olgan holda fan va ijtimoiy amaliyotning zamonaviy rivojlanish darajasiga mos keladigan yaxlit dunyoqarash; o'rganishga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorligi va qobiliyatini o'rganish motivatsiyasi va bilish [10].

Shaxsning u yoki bu tomonining rivojlanishi jarayondan muntazam foydalanish bilan sodir bo'ladi.

Birgalikda yaratish jarayoni ko'proq shaxsning ijodiy kabi jihatini rivojlantirishga qaratilgan fikrlash.

Ijodiy fikrlash quyidagi xususiyatlar majmui sifatida taqdim etiladi (fikrlash stereotiplarini yengish qobiliyati, muammolarni aniqlash qobiliyati, noaniq vaziyatda yechim topish qobiliyati va intellektual qiyinchiliklarni yengish qobiliyati), muammoni hal qilishda mustaqillik. Ijodiy fikrlash ijodiy muammolarni hal qilishda, ijodiy ishlarni bajarishda rivojlanishi mumkin.

**Xulosa** Shunday qilib, birgalikda ijod qilish pedagogikasi zamonaviy darsning ajralmas qismidir, chunki u nazariy bilimlarni o'zlashtirishga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun sinfda birgalikda yaratish jarayonini tashkil etishga e'tibor berish dolzarbdir.

#### Adabiyotlar:

1. Засобина Г. А., В.С. Мухаммед. Исследование в педагогической деятельности преподавателя высшей школы. Иваново: «ИвГУ», 1997. 187 с.
2. Андреев, В.И. Эвристика для творческого саморазвития. Учебное пособие. Казань: «Центр инновационных технологий», 1994. 247 с.
3. Степанов С. Ю., Кремер Е. З. Сотворчество на уроке – как это возможно? Сборник материалов II Всероссийской научно-методической конференции «Актуальные проблемы химического образования». Москва, 2011, С. 123 – 128.
4. Степанов, С.Ю. Учитель-ученик ценности сотворчества. М.: «Педагогика», 1990. 144 с.
5. Слостенин В.А. и др. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2002. 576 с.
6. Загвязинский, В. И. Педагогическое творчество учителя. М.: Советская педагогика, 1988, № 1, С. 70–75.
7. Abdurasulovich, K. J., Abdurasulovich, K. O., Yangiboevich, K. M., Anvarovich, A. A., & Holmurodovich, G. A. (2020). Opportunities and results to increase the effectiveness of multimedia teaching in higher education. *Journal of Critical Reviews*, 7(14), 89-93.
8. Muradilloevich, I. U., Tanzilovch, O. K., Anvarovich, A. A., & Baxodirovna, S. I. (2020). Improvement of teaching methodology by using modeling programs of engineering education in higher education of uzbekistan. *Journal of Critical Reviews*, 7(14), 81-88.
9. Maxmudovich, X. M., Kuchkorovich, J. A., & Xo'Jjiyev, M. (2021). Technology of using E-learning modeling programs in teaching special subjects in professional education. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 5403-5411.

## BO'LAJAK TEXNOLOGIYALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI

*Jamolov Shaxboz Jamil o'g'li,*

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi  
everest11@gmail.com*

*Ushbu maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining kasbiy kompetensiyalarini va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta'minoti mazmuni differensial profессиogrammani ishlab chiqish, dasturiy apparatga ustuvorlik berish, informatsion, kasbiy, tizimli-axborotli, grafik, obyektga yo'naltirilgan dasturlash hamda tizimli, faoliyatli, kompetentli yondashuvlar asosida takomillashtirish haqida takliflar keltirib o'tilgan.*

*Maqolada bo'lajak texnologlarni pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va kasbiy faoliyatini tashkil etish usullar keltirib o'tilgan. O'quvchilarning kasbiy kompetentligini aniqlash mezonlari va kasbiy kompetentsiya tizimi haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, konfliktologiya, neyropedagogik, pedagogik aksiologiya, mezon.

## СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ТЕХНОЛОГОВ

*В данной статье изложены содержание методико-дидактического обеспечения развития профессиональных компетенций и профессиональной подготовки студентов в педагогических высших учебных заведениях, предложения по разработке дифференциальной профессиограммы, расстановке приоритетов в программном аппарате, совершенствованию на основе информационного, профессионального, системно-информационного, графического, объектно-ориентированного программирования и системного, деятельностного, компетентностного подходов.*

*В статье приведены методы обеспечения педагогических условий, формирования профессиональных компетенций и организации профессиональной деятельности будущих технологов. Были рассмотрены критерии определения профессиональной компетентности учащихся и система профессиональной компетентности.*

**Ключевые слова:** компетенция, конфликтология, нейропедагогика, педагогическая аксиология, критерии.

## THE SYSTEM FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGISTS

*In this article, the content of the methodological and didactic provision of the development of professional competencies and professional training of students in pedagogical higher educational institutions was proposed to develop a differential profессиogram, prioritize the software apparatus, improve on the basis of informative, professional, systematic-informative, graphic, Object-Oriented Programming and systematic, operational, competency approaches.*

*The article cites methods for ensuring pedagogical conditions for future technologists, the formation of professional competencies and the organization of their professional activities. The criteria for determining the professional competence of students and the system of professional competence are discussed.*

**Key words:** competence, conflictology, neuropedagogical, pedagogical axiology, criterion.

**Kirish.** Bo'lajak texnologlarni ko'rsatib o'tilgan o'quv kurslarida tayyorlash mazmuni, jarayoni va natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularni hozirgi sharoitda o'rganish faqat o'qituvchining maxsus va metodik tayyorgarligi tarkibiga kiruvchi bilim va ko'nikmalarning alohida elementlarini tashkil etadi. Shunday qilib, biz shunday xulosaga keldikki, texnologiya o'qituvchisining kasbiy faoliyatining ushbu sohasida maxsus va metodik bilim va ko'nikmalarning butun majmuasini shakllantirish, shuningdek, uning kasbiy yo'nalishini, imkoniyatlarini rivojlantirish muammosini hal qilishda bu kurslar yetarli emas. Binobarin, bir tomondan, telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida o'qituvchining kasbiy yo'nalishini va kasbiy tayyorgarligini shakllantirish uchun o'qituvchilarini tayyorlash mazmunining mavjud zaruriy elementlarini qayta yo'naltirish zarurati tug'iladi, ikkinchi tomondan, bo'lajak o'qituvchining kompyuter tarmoqlaridan

foydalanishga yo‘naltirilganligi va maxsus tayyorgarligini shakllantirish uchun muhandis texnolog o‘qituvchilarini tayyorlash mazmunini yetishmayotgan o‘quv fanlari bilan to‘ldirish, sinfda o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlashning eng muhim didaktik vositalaridan biri sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo‘lish mumkin: tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ta‘minlashda asosan fan dasturlari, o‘quv rejalar, talablarni ishlab chiqish, rivojlantirish, o‘quv-uslubiy ta‘minotni mazmunan rivojlantirish nazarda tutiladi, pedagogik-psixologik shart-sharoitlarga turli metodikalar ishlab chiqish va ta‘lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, psixologik o‘yinlar ishlab chiqish, tarbiyalanuvchilarning hissiy-emotsional va aqliy harakatlarini shakllanishiga xizmat qiluvchi ishlanmalar va texnologiyalar ishlab chiqish nazarda tutiladi; didaktik shart-sharoitlarga ta‘lim muassasigacha ta‘lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun o‘quv qo‘llanma va darsliklar, elektron uslubiy qo‘llanmalar, didaktik o‘yinlarning elektron variantlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Bo‘lajak texnolog o‘qituvchisini tayyorlash jarayonini modellashtirishda biz uzluksizlik va izchillik umumiy pedagogik tamoyiliga tayandik. Shunday qilib, pedagogika fakultetida psixologik-pedagogik va mutaxassislik fanlar bloklarini o‘rganish bo‘yicha belgilangan tartibni buzmaganda, biz axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida maxsus bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha kurslarni o‘z ichiga olish imkoniyatini ko‘rib chiqdik.

**Asosiy qism.** Pedagogik kompetentlik bir qator ya‘ni pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik konfliktologiya, neyropedagogika, pedagogik imidjologiya, innovasion pedagogik texnologiyalar, yosh davrlar psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik aksiologiya, pedagogik psixologiya fanlari bilan o‘zaro aloqada shakllanadi. Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta‘lim-tarbiya tizimini yangicha ko‘rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali ta‘lim samaradorligiga erishish davr talabidir. Ta‘lim muassasasi bitiruvchisi o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishini ta‘minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg‘unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning bilim samaradorligini oshirish, dars va ta‘lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish: Birinchidan, tizimda yuqori malakali pedagoglar kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini uzluksiz va sifatli ravishda oshirib borishga; Ikkinchidan, ta‘lim muassasalarida o‘qituvchilar kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlariga asoslangan uzluksiz sifatli metodik xizmatni tashkil etishga; Uchinchidan, mavjud fan xonalari, o‘quv laboratoriya asbob-uskunalar, jihozlar va kompyuter texnikasidan, umuman olganda, barcha shart-sharoitlardan samarali foydalanishga; To‘rtinchidan, sifatli ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, oliy ta‘lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va umumta‘lim maktablari hamkorligida ilg‘or ish tajribalarini amaliyotga joriy etishga; Eng asosiysi, xalq ta‘limi tizimida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi va mahoratiga bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya‘ni ta‘lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo‘llay olishi - kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Jumladan, – dunyo va mamlakatda ta‘lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta‘limi tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta‘minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish; – kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish; – talabalarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta‘lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish; – o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish; – o‘quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog‘ligi, texnik hamda axborot havfsizligini ta‘minlashga tayyor bo‘lish; – dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediahavfsizlik me‘yorlariga amal qilish.

Keyingi o‘n yilliklar mobaynida bir qator Yevropa, AQSh, Rossiya va bizning mamlakatimizda, oliy ta‘lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e‘tibor, talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo‘yicha kompetensiya shakllanishi va takomillashuviga qaratilmoqda. Bugungi kunlarda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis talab qilinayapti. U faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llovchi mutaxassis bo‘lib yetishishi lozim. Olimlarning fikriga ko‘ra, oliy ta‘limni isloh qilish, yangilash, takomillashtirishda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo‘llaridan biri kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv hisoblanadi. Oliy ta‘limda o‘qish va tarbiyaning bunday uslubini joriy qilish o‘z-o‘zidan an‘anaviy qarashlarni tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Bilim, ko‘nikma va tajribalar bu borada endi

kamlik qilishi ko‘zga tashlanmoqda. Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uslublarga, o‘qitish usullari, texnologiyalariga juda ko‘p e‘tibor qaratilganligini sezamiz. Ammo ana shu pedagogik usullarni tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta‘kidlash mumkin. Pedagogika fani ham boshqa gumanitar va tabiiy fanlar qatori o‘z o‘rgamchak ipiga o‘ralashib qolgandek tuyuladi. Muammo bu sohadagi pedagogik nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, o‘qituvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish mahoratining yetishmasligi sezilmoqda. Demak, ko‘plab o‘qituvchilarni, pedagoglarni eskirib qolgan nazariy bilimlar yuki bosib qolyapti. Ularda zamonga xos tub o‘zgarishlarga mos kelish, munosib bo‘lish kabi sifatlar yetishmaydi. Huddi shu sifat kompetensiya – kompetensiya egasi bo‘lish, kompetent pedagog nomini olish masalasi hisoblanadi.

Pedagog o‘z ixtisosligi bo‘yicha ta‘lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas‘uldir. U muntazam ravishda o‘z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o‘qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo‘lishi, aniqrog‘i, kasbiy kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Endilikda o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta‘lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. “Kompetensiya” tushunchasi, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv, kompetensiya egasi, bu atamalarning mazmuni haqida to‘xtalish uchun, eng avvalo, asrlar davomida shakllangan bu boradagi milliy an‘ana va qadriyatlarga e‘tibor qaratamiz.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tizimi – pedagogik mahorat orqali namoyon bo‘ladi. Kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirishda umumiylikdan xususiy mahorat sari boriladi. Umumiy mahorat – bu pedagogik fikr yuritish va faoliyat yurgazish hisoblanadi, fakt va hodisalarni nazariy jihatdan tahlil qilishga undaydi. Pedagog uchun zarur bo‘lgan mahoratning bu ikki unsurini birlashtirish asosida konkretlikdan abstraktklikka, ya‘ni aniqlikdan mavhumlik sari o‘tiladi. Ular sezgi, tafakkur va nazariy asoslarda yuz beradi. Tahlil etishni nazariy darajaga olib chiqish mahorati bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni pedagogik mahoratga o‘rgatishning yoki pedagogik mahoratni yanada takomillashtirish ning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Pedagogik masalalarning umumlashgan ligiga qaramay, pirovard natija, yechim “fikrlash, faoliyat yurgazish, fikrlash” mana shu uchlikka kelib taqaladi hamda pedagogik faoliyat unsurlari va unga mos bo‘lgan axborot bilan uyg‘unlashib ketadi. Natijada o‘qituvchining kasbiy kompetentligi modeli uning nazariy va amaliy tayyorgarligi sifatida namoyon bo‘ladi.

1. Pedagogik kompetensiya o‘qituvchi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim, mahorat, ko‘nikma;
2. Muammolarni muvaffaqiyatli yechish qobiliyati, oliy darajadagi kasbiy mahorat.
3. Kasbiy faoliyati davomida pedagog tomonidan qo‘llanilgan texnologiyalar, metodlar va usullar yig‘indisi.
4. Turli tajribalar yig‘indisi, pedagogik faoliyatdagi katta tajriba.

Ta‘lim-tarbiya sohasining demokratlashuvi o‘quv yurtlarida turli model-andozalarni qo‘llash talabalar individual jihatlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayonlarini tashkil etish imkoniyatlarini yaratadi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ko‘zda tutilgan va tatbiq etilayotgan me‘yorlar esa o‘qituvchi va murabbiylarni ijodiy izlanishga, o‘z o‘quv kurslarini tashkil etishga, yangi innovatsion ishlanmalar yaratishga va keng qo‘llashga safarbar qilmoqda. Natijada bu sohada o‘qituvchilarni professional tayyorlashning turli modellari va andozalarini tatbiq etish sharoitlari yuzaga keldi. O‘qituvchilarni professional tayyorlashning didaktik modeli (ta‘limtarbiya andozasi) asosan ikki jihatni o‘zida jamlagan: birinchisi, o‘zgarimas umumiy asos (barcha modellar uchun tatbiq etiluvchi didaktik jihat); ikkinchisi esa, o‘zgaruvchan muhitdan iboratdir. Umumiy didaktik model ta‘lim tizimining asosini tashkil etib, sohaning maqsadiga itoat qiladi. O‘zgarimas model esa asosan fundamental ta‘limga yo‘naltiriladi. Bunda o‘qituvchilar tayyorlashning umummilliy asoslari jamlangan bo‘lib, ma‘lum bir qolipda butun jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

**Metodlar.** O‘qituvchilarni professional kasbiy tayyorlashning turli-tuman modellari ichida kompetensiya modeli ham alohida o‘rin tutadi. Shu o‘rinda, kasbiy kompetensiya va pedagogning professionallik masalalarini bir-biridan ajratib olishimiz darkor. Biz yuqorida mamlakatimiz va xorijiy pedagog olimlarning izlanish va tadqiqotlariga e‘tibor qaratar ekanmiz, bir qator tayanch pedagogik atamalarni tilga oldik. Bu atama va tushunchalarning mazmun-mohiyati bir-birini to‘ldirib, pedagogik faoliyati qirralari sifatida, ma‘lum atama unsurlari sifatida qo‘llanildi, ular:

- pedagogik mahorat;
- kasbiy tayyorgarlik;
- professionalizm;
- pedagogik kompetensiya;

- kasbiy kompetensiya;
- zamonaviy pedagog;
- zamonaviy o‘qituvchi;
- zamonaviy model;
- pedagogik kompetensiya modeli;
- professional tayyorlashning zamonaviy modeli.

Kasbiy kompetensiya mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi jarayonlarida shakllanadi va takomillashib boradi. Oliy o‘quv yurtida olib borilgan ta‘lim kasbiy kompetentlik asoslarini shakllanishi jarayoni deb qaralsa, malaka oshirish tizimidagi o‘qish bu kasbiy kompetensiya takomillashuvi va yanada chuqurlashuvi jarayoni sanaladi hamda kompetensiyaning oliy darajaga ko‘tarilishi deb baholash mumkin. Bunda, albatta, “kompetentlik” va “kvalifikatsiya – “malaka” tushunchalarining pedagogik mohiyatini bir-biridan farq qila bilishni talab qiladi. Mutaxassis uchun berilgan malaka undan mazkur kasb bo‘yicha tajriba talab qilmaydi, balki o‘quv jarayonlari davomida olgan bilim va ko‘nikmalarini ta‘lim standartlari talablariga javob berishini ta‘minlaydi. Kvalifikatsiya bu kasbiy ta‘limning shunday turi va darajasiki (tayyorgarlik), u mutaxassis uchun ma‘lum bir ish joyida ishlash imkonini beradi. Mutaxassis o‘zi uchun zarur bo‘lgan kasbiy tajribaga ega bo‘lmay turib, malaka oshirishi mumkin. Shulardan ko‘rinib turibdiki, “professionalizm” tushunchasi “kasbiy kompetensiya” tushunchasiga nisbatan ancha kengroqdir. Professional – o‘z kasbining ustasi bo‘lish, nafaqat bilish, ularni qanday amalga oshirishni bilishgina emas, balki ana shu bilimlarni hayotga tatbiq eta olish hamda samarali natijalarga erishishi ham demakdir. Professionalizm deganda, unga baho berishda, so‘z samarali kasbiy faoliyat to‘g‘risida bo‘lishi lozim. Pedagogik kompetensiya va professionalizm haqida va ularni bir-biridan ajratib turuvchi jihatlari to‘g‘risida gaplashib o‘tdik. Demak, professionalizm mutaxassis kasbiy jihatdan o‘shirishning turli qirralarini aks ettiradi va kasbiy kompetensiyaning to‘rt turini o‘zida ta‘minlaydi.

1. Ijtimoiy yoki faoliyat ko‘rsatuvchi kasbiy kompetentlik oliy darajadagi kasbiy faoliyat hisoblanib, o‘z tarkibiga nafaqat maxsus bilimlarni egallaganlikdan tashqari ularni amaliyotda qo‘llay olishni bilish demakdir.

2. Ijtimoiy kasbiy kompetensiya hamkorlikda olib boriladi gan faoliyat usullarini egallaganlik, kasbiy muloqot usullariga ega bo‘lish.

3. Shaxsiy kasbiy kompetensiya. O‘z-o‘zini namoyish qilish va rivojlantirish, kasbiy deformatsiya, tanazzulni oldini olish, usullarini egallaganlik, ularning ichiga mutaxassis tomonidan o‘z kasbiy faoliyatni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni anglash xususiyatlari ham kiradi.

4. Individual kasbiy kompetensiya o‘z-o‘zini boshqarish yo‘lini egallaganlik, kasbiy o‘shirishga tayyorgarlik, o‘z ishiga sodiqlik, sabr-toqat hislatlari bilan xarakterlanadi.

Kompetentlikni shakllanishida asosiy o‘rinni talabalar mustaqil ta‘limi egallaydi. Chunki bo‘lajak mutaxassis faqat bilim va ko‘nikmaga ega bo‘libgina qolmay, uni amalda qo‘llay olishi talab qilinadi. Bunga esa ta‘lim jarayonida talabalarni muammoli topshiriq va vazifalarni mustaqil holda hal qilishga o‘rgatish orqali erishish mumkindir. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda mustaqil ta‘lim bo‘lajak mutaxassislarni har qanday sharoitda va holatda o‘zlarining aqliy salohiyatlarini to‘la ishga solish, zarur bo‘lgan bilimlarni izlab topish, amaliy faoliyatlarida tatbiq etishga odatlantirib boradi. Bir so‘z bilan aytganda ijtimoiy hayotda va ta‘lim-tarbiya jarayonida to‘laqonli, raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Talabalik davrida o‘qituvchining hamkorligida, maslahatlariga suyanganda holda mustaqil bilim olish ko‘nikma va malakalari tarkib topadi. O‘quv rejasi, dastur va darsliklarda belgilangan o‘quv materiallari o‘zlashtiriladi. Amaliy faoliyatda qo‘llashga, kafolatlangan natijalarga erishishga o‘rgatiladi. Bu jarayonda imkon qadar talabaniq mustaqil faoliyat yuritishiga e‘tibor qaratish ijobiy natija beradi.

**Takliflar.** Mustaqil ta‘lim talabalar o‘rtasida ijobiy ma‘nodagi raqobatni keltirib chiqaradi. Bir-biridan ibrat olgan holda o‘zlarining aqlini, kuchini, vaqtini foydali faoliyat bilan shug‘ullanishga yo‘naltiradilar. Turli xil tanlovlarga tayyorgarlik ko‘rish, fan olimpiadalarida ishtirok etish va g‘olib bo‘lishga intilish, ilmiy-ijodiy ko‘rgazmalarda qatnashish orqali talaba iste‘dodining noma‘lum qirralari ochiladi. Talabaniq o‘ziga, aqli va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchi ortadi. Mustaqil ta‘lim yoshlarning shaxs sifatida kamol topishlariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Unda xarakter xususiyatlarining barqarorlashuvi, ayniqsa, irodaviy sifatning mustahkamlanishi, o‘z-o‘zini boshqarish kabi fazilatlarining takomillashuvi ro‘y beradi. Atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga befarq bo‘lmaslik, ularni to‘g‘ri baholay olish, o‘zlarining mustaqil fikrlarini bildirish va dalillashga odatlanadilar.

OTMlarda talabalarining kompetentligini aniqlash mezonlari:

- talabaniq fan bo‘yicha egallagan bilimi, ko‘nikmasi va malakasini amalda qo‘llay olishi;
- intellektual qobiliyati;

- psixologik xususiyatlari;
- muammoni mustaqil hal qila olishi;
- yangiliklarga intiluvchanligi va o‘z ustida ijodiy ishlashi;
- o‘z fikrini ayta olishi va himoya qilishi. Ushbu mezonlar talabning kompetentlik darajalarini ishlab chiqishda tayanch OTMLar kafedralarining professor-o‘qituvchilari va mutaxassislari tomonidan e‘tiborga olinishi lozim.

**Xulosa.** Tahlil shuni ko‘rsatdiki, kasbiy-pedagogik yo‘nalishning xususiyatlariga bolalarga bo‘lgan qiziqish va muhabbat, pedagogik mehnatga ishtiyoq, psixologik-pedagogik hushyorlik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, adolatlilik, xushmuomalalik, talabchanlik qat’iyatlilik, maqsadga muvofiqlik, muvozanat, chidamlilik, o‘zini o‘zi qadrlash, kasbiy faoliyat, ilmiy va pedagogik fikrlashning innovatsion uslubi, yangi qadriyatlarni yaratish va ijodiy qarorlar qabul qilishga tayyorlik kabi fazilatlar kiradi.

#### Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Umarova G.U. Boshlang‘ich sinflarda informatika elementlarini o‘qitish metodikasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 72 bet.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
3. Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika. Pedagogika oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun darslik. Farmonov Sh.Q., Turgunbayev R.M., Sharipova L.D., Parpiyeva N.T., Toshkent, 2007
4. Abduqodirov A.A. Mamatov N.D. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T.: O‘qituvchi, 2002. – 133 b.
5. Yuldashev U., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. “Informatika” Toshkent. 2002 yil.
6. Современные языки программирования: учебное пособие / Ф. М. Закирова. Л. М. Набиулина: Мин-во высшего и среднего спец. образования РУз, Национальное общество философов Узбекистана. 2012. -192 с
7. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш. Пед. фан. докт. ... дис. – Тошкент. 2016.
8. Усаров Ж.Э. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини амалиётга жорий этиш: муаммо ва ечимлар // Физика, математика ва информатика. – Тошкент, 2016. - № 6. – Б. 40-48.
9. Арипов М., Бегалов В., Бегимқуллов У., Мамаражобов М. Аxborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. T. Noshir. 2009, 368 b.
10. Смирнов Е.Н. О воспитании информационной культуры студентов вуза. -Л.: ЛГПИ,1990.- 54
11. Yuldashev U., Mamarajabov M., Tursunov S. Pedagogik Web-dizayn. O‘quv qo‘llanma. T.: “Voriz”, 2013 y.
12. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий - методик асослари.: Пед.фан.докт. ... дисс. - Т.: 2007. - 45 б.

**TALABALARDA PSIXOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH  
MEXANIZMLARINING AMALIY XUSUSIYATLARI**

*Jo'rayev Qo'ldoshjon Ismatullo o'g'li,  
Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi*

*Mazkur maqolada talabalarda psixologik kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy - psixologik mexanizmlari va talabalarning muloqot qobiliyatlari, ulardagi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, talabalar uchun psixologik kompetensiyalar bo'yicha qilinadigan ishlar, uzluksiz ta'lim jarayonida talabalarda kasbiy mahoratga oid fazilatlarini shakllantirish bosqichlari yoritib berilgan. Bundan tashqari kompetensiya va kompetentlik tushunchalari, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar kasbiy pedagogik kompetensiyalarning turlari pedagogik kompetentlik shakllanish bosqichlari tavsiflab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik asoslar, til, o'qitish, yondashuvlar, uslublar.*

**ПРАКТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ  
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ**

*В данной статье рассматриваются социально - психологические механизмы формирования психологической компетентности у студентов и коммуникативных способностей учащихся по развитию у них профессиональных компетенций. Также освещена работа по психологическим компетенциям для студентов, этапы формирования у учащихся качеств, связанных с профессиональным мастерством, в процессе непрерывного образования. Кроме понятий компетентность и компетентность, сходства и различия между видами профессионально-педагогических компетенций описаны этапы формирования педагогической компетентности.*

***Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, будущий учитель, педагогические основы, язык. обучение, средства, методы.*

**PRACTICAL FEATURES OF THE MECHANISMS FOR THE FORMATION OF  
PSYCHOLOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS**

*This article discusses the socio - psychological mechanisms of the formation of psychological competence among students and the communicative abilities of students to develop their professional competencies. It also highlights the work on psychological competencies for students, the stages of formation of students' qualities related to professional skills in the process of continuing education. In addition to the concepts of competence, similarities and differences between the types of professional and pedagogical competencies, the stages of the formation of pedagogical competence are described.*

***Key words:** communicative competence, future teacher, pedagogical foundations, language training, aids, methods.*

**Kirish.** Pedagog kadrlar tayyorlashda bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish murakkab muammolar orasida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, ta'limni modernizatsiya qilish bilan bog'liq islohotlarning hozirgi bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, uslubiy yo'nalishlarga o'rgatish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bilan bir qatorda tadqiqot turlari ham boyib bormoqda. Kasbiy kompetensiyani baholash diagnostik, kommunikativ, boshqaruv va proyektiv tadqiqotlarning kasbiy shakllanishi guruhlarining mohiyatidir. O'qituvchining kognitiv faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandart, ijtimoiyni ajratib turadigan chegaralardir.

**Adabiyotlar tahlili.** xorij olimlardan L.I. Ansiferova, D.N. Zavalishina, Ye.F. Ribalko, N.V. Kuzmina, N.V. Yakovleva, A.K. Markova, M.A. Choshanov, Yu.V. Vardanyan, T.V. Zamorskaya, L.V. Temnova, O.A. Anisimova, S.S. Sedova, A.A. Derkach, V.G. Zazikin, I.A. Zimnyaya, Yu.G. Tatur, A.I. Yushko, A.I. Subetto, Z.M. Albekova va boshqalar tomonidan so'nggi yillarda kompetentlik va kompetensiya masalalariga ilmiy yondashuvlarni uchratish mumkin.

Asosiy modellashtirishning har qanday turiga qo'yiladigan talablar uchta komponentning mavjudligi: subyekt (tadqiqotchi), obyekt o'rganish (o'rganilishi/modellashtirilishi kerak bo'lgan obyekt), o'rganish

obyekti haqida bilim olish modeli va bu obyekt va subyekt o'rtasidagi munosabatni hisobga oladigan modellashtirish bilim olish usuli sifatida jarayonning tizimliliği bilan tavsiflanadi.

Bilimlarni egallash, tuzilgan modelning murakkabligi, amaliyotda qo'llash imkoniyati uning mavhum va mantiqiy protseduralari, universal qo'llanilishi, modellashtirilgan obyektning bashorat qilish qobiliyati va qobiliyati ham bilim olish, ham shakllar yaratish funksiyalarini bajarish» lozim.

Rus olimasi **O.A. Kozireva** o'z izlanishlarida kasbiy yetuklik darajalari va kasbiy kompetentlik shakllanishini qiyoslab o'rgangan. Uning fikricha, kasbiy yetuklikning uchta darajasi mavjud bo'lib, ularning har biri “*anglanmagan kompetentsizlik anglanilgan kompetentsizlik anglangan kompetentlik*” tizimidagi kasbiy kompetentlik darajalarini belgilab beradi.

1-jadval.

Kasbiy yetuklik (professionalizm)ning darajalari		Kasbiy kompetentlik darajalari
«Eng maqbul» (istiqbolli)	9	Anglangan kompetentlik («Men nima bilishim haqida bilaman»)
	8	Anglanilgan kompetentsizlik («Men bilmasligim haqida bilaman»)
	7	Anglanmagan kompetentsizlik («Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman»)
«Eng muhim» «nomigagina»	6	Anglangan kompetentlik («Men nima bilishim haqida bilaman»)
	5	Anglanilgan kompetentsizlik («Men bilmasligim haqida bilaman»)
	4	Anglanmagan kompetentsizlik («Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman»)
«Yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan» (ilmi-tarbiyali)	3	Anglangan kompetentlik («Men nima bilishim haqida bilaman»)
	2	Anglanilgan kompetentsizlik («Men bilmasligim haqida bilaman»)
	1	Anglanmagan kompetentsizlik («Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman»)

Shuningdek, bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog shaxsi shakllanishida kasbiy yetuklik va kompetentlik ahamiyatini kengroq yoritishda mutaxassis kompetentsiyalari klasteriga murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy kompetentlikning bunday klasteri uch xil: **faoliyatni; shaxslilikni; motivatsiyani** tashkil qiluvchi kompetentsiyalar majmuida ko'rinadi

Biz tomondan o'tkazilgan dastlabki tadqiqotlar natijasiga ko'ra, **kompetentlik** – inson faoliyatini uning eng yaxshi bajargan amallariga nisbatan baholashda yordam beradigan standart, deb aytish mumkin. Sababi, bunday baholanish, o'z navbatida, o'zgarishlar sharoitida tashkilot (iqtisodiyot subyektlari) faoliyatini yaxlit holda ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi. Oxir oqibat, muvaffaqiyat egalari – bu tashkilot, jamiyat va muayyan shaxslar hisoblanishadi.

2-jadval.

**Natijalar va tahlil**  
**Kasbiy kompetentlikni shakllanishiga to'siq bo'luvchi shaxs sifatleri reytingi**

№	Shaxs xislatlari	Bakalavr 2-kurs n=15	Magistr 1-kurs n=15
1	O'z-o'zini boshqara olmaslik	40	50
2	Shaxsiy qadriyatlarining shakllanmaganligi	40	20
3	Shaxsiy maqsadning aniq ifodalanmaganligi	36,7	13,3
4	Kamolotga intilishning yo'qligi	20	50



5	Muammoni yecha olmaslik	50	10
6	Ijodiy yondoshuvning yetishmasligi	20	20
7	Itoatidagi o'quvchilarga ta'sir etolmaslik	50	50
8	Boshqaruv faoliyati xususiyatini yaxshi bilmaslik	33,3	23,3
9	Boshqaruv malakasining sustligi	50	26,7
10	Itoatidagi o'quvchilarga mehnat malakasini shakllantira olmaslik	50	43,3
11	Jamoa tashkil etishdagi sust qobiliyat	16,7	16,7

2-jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, har ikkala guruh respondentlari «**o'z-o'zini boshqara olmaslik**» xislatini boshqaruvchilik ko'nikmasini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mezon sifatida baholashar ekanlar. Chunki bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogda bunday xislatning mavjudligi yoki qisman shakllanganligi, uning pedagog faoliyatini hayajon va zo'riqishlar asosida tashkil bo'lishini ta'minlaydi. Bunday sharoitda xulqda aniq maqsadning yo'qligi nafaqat akademik guruh faoliyatiga, balki o'qituvchi-pedagogning sog'ligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, «Bakalavrlar» guruhi a'zolarining baholashlaricha, «**shaxsiy qadriyatlarning shakllanmaganligi**» hamda «**shaxsiy maqsadning aniq ifodalanmaganligi**» xislatlari ham kasbiy kompetentlik shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omillar vazifasini o'taydi. Chunki, pedagog qaysi toifa o'qituvchi bo'lmasin doimo qaror qabul qilish vaziyatida bo'ladi. Vaholanki, qaror samarasi shaxsiy qadriyatlar, kasbiy va hayotiy tamoyillarga asoslanadi, ularning shakllanganligi bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Masalan, **ta'limdagi zamonaviy boshqaruv** – samaradorlik, talaba imkoniyatlarini ochishga ko'mak, ta'lim muassasasiga yangilik olib kirishga moyillik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Mustahkam qadriyat va tamoyillarga asoslanmagan bo'lajak o'qituvchi-pedagog beqarorlik va maqsad yo'lida irodasizlikni namoyon etadi. Zamonaviy o'qituvchi muhimni nomuhimdan ajrata olishi, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay bilishi kerak. Ta'lim muassasasi maqsadini chuqur anglash yo'lidagi birinchi qadam pedagogning o'z shaxsiy maqsadlarini yaxshi tushunib yetishidir. O'z maqsadini aniq bilgan o'qituvchigina uning faoliyatiga qo'yilayotgan talablarni jonu diliga singdira olishi mumkin. Shaxsiy maqsadning noaniqligi maktab (lisey, kollej) manfaati yo'lidagi maqsadlarni ham anglab olishga xalaqit beradi. Aniq maqsadning yo'qligi shaxsning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini pasaytiradi va demak, bunday pedagog, o'zga (jumladan, o'quvchi)larning muvaffaqiyatini ham his eta olmaydi.

«Magistrlar» guruhi sinaluvchilarining qayd etishlaricha, «**kamolotga intilishning yo'qligi**» xislatini mavjud emasligi o'z ustida ishlashdan bosh tortgan o'qituvchi-pedagogni qaltis vaziyatdan himoyalashiga, imkoniyat va qobiliyatlarini rivojlantirish ustida ishlamasligiga hamda odat tusiga kirgan xatti-harakatlari dorasidan chiqolmasligiga sababchi bo'ladi.

«**Muammoni yecha olmaslik**» kabi shaxsiy xislatning yo'qligi, «Bakalavrlar» guruh a'zolarining fikricha, ayrim o'qituvchi-pedagoglarni muammo ustida sifatli, muntazam va aql-zakovat bilan ishlay olmasligiga turtki bo'ladi. Chunki bu xislatning yo'qligi bir vaqtning o'zida bo'lajak o'qituvchi-pedagogda vazifa maqsadini aniqlash, ma'lumot to'plash, rejalashtirish va nazoratni amalga oshirish malakasiga ega emasligini yoritib beradi. Shu bois, mazkur toifa o'qituvchi oldida hal etilmagan masalalar to'planadi va uning muammoni hal etish imkoniyati cheklanib qoladi. Shu bilan bir qatorda har ikkala guruh sinaluvchilarning baholashlaricha o'qituvchi-pedagogdagi «**ijodiy yondashuv**» xislatining yetishmasligi bir qator salbiy munosabatlar shakllanishida muhim omil vazifasini o'taydi. Xususan, innovasiyaga moyilligi bo'lmagan o'qituvchi yangi g'oyalarni taklif etolmaydi, o'quvchilarga o'qishga bo'lgan ijodiy yondashuvni uyg'ota olmaydi. Bunday pedagog tajribadan, sinf (akademik guruh) hayotiga yangilik kiritishdan o'zini chetga oladi yoki yangiliklarga befarq bo'ladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha yuksak ijodiylik to'siqni yengib o'tishni va qiyinchilikka bardosh berib maqsadga intilishni taqozo etadi.

«**Itoatidagi o'quvchilarga ta'sir etolmaslik**» ham salbiy holat sifatida baholanib, xislatning shakllanganligini har ikkala guruh respondentlari e'tirof etishgan bo'lib, ularning fikricha, o'qituvchi o'z qo'li ostidagi o'quvchilarga ta'sir etishi lozim. Lekin, ayrim pedagog o'z o'quvchilariga suyanolmaydi va buning o'rniga ular haqida salbiy fikrda yuradi. Bunday pedagog o'z intilishida muntazam emas, atrofdegilar bilan yaqin muloqotga kirishmaydi va o'z ichki dunyosini yaxshi ifoda etolmaydi.

«Bakalavrlar» guruhi respondentlari (33,3%) fikricha, «**boshqaruv faoliyati xususiyatini yaxshi bilmaslik**» o'z faoliyatlarini samarali tashkil etishda to'siq bo'lishi mumkin ekan. Chunki, boshqaruv faoliyati samarasi haqida ma'lumotga ega bo'lmas ekan, bo'lajak o'qituvchi-pedagog o'z malakasini shakllantira olmaydi. Boshqaruvga o'z yondashuvini tahlil etolmaydigan o'qituvchi fikr va topshirig'ini ham o'quvchiga tushuntirishi qiyin. Bunday pedagog o'quvchilari u haqda nima deb o'ylashi bilan qiziqmaydi. Bu toifa o'qituvchi-pedagog o'z o'quvchilarini tashabbusga chaqirishi mushkul, ayniqsa, ularga o'quv

topshiriqlarini berishga qiynalishadi. Yana ushbu guruh vakillarining e'tirof etishlaricha pedagogdagi «**boshqaruv malakasining sustligi**» ham salbiy omildir. Shuningdek, mazkur guruh sinaluvchilari «**itoidatidagi o'quvchilarda mehnat malakasini shakllantira olmaslik**» ham salbiy voqeyliklarni yuzaga keltirib chiqaradi. Tajribalardan ko'rinadiki, har bir pedagog vaqti-vaqti bilan ustoz sifatida o'quvchisiga ish xususiyatini o'rgatadi. O'quvchining kasbiy qobiliyatini rivojlantira olmaydigan pedagog, o'z sinfi (akademik guruhi) mehnatini yuksak darajaga olib chiqolmaydi. Bu holda o'quvchi o'z mehnati natijasi haqida ustozdan hech qanday fikr eshitmaydi, o'qituvchining bahosi va tavsiyasi rasmiy tus oladi.

Tadqiqotda ishtirok etgan har ikkala toifa guruh vakillarining baholashlaricha (33,4%), «**jamoatashkil etishdagi sust qobiliyat**» maqsadga erishish uchun bo'lajak o'qituvchi-pedagogdan o'quvchilar bilan birlashishni va ularning malakasidan foydalanishni taqozo etadi. Sinf o'quvchilari (akademik guruh a'zolari) malakali va unumli jamoaga aylanmasa pedagoglik faoliyati qiyin kechib, ta'lim samaradorligini tushishini yuzaga keltiradi. Shu bois, bunday sinf (guruh)larda sifatli ta'lim mexanizmlari shakllanmaydi va nosog'lom muhit hukm suradi.

**Xulosa.** Kommunikativ o'z-o'zini takomillashtirishning maqsadi aniq, ammo motivlar boshqacha bo'lishi mumkin. Gumanitar o'qituvchini takomillashtirish uchun kommunikativ o'zini o'zi nafaqat o'z-o'zini takomillashtirish, balki amalga oshirishning asosiy sharti sifatida samarali o'zaro ta'sir, bu bolalarning rivojlanishi uchun zarur bo'lib, ularning individualligi va o'ziga xosligini saqlab qolishga yordam beradi. Shuning uchun ham kommunikativ o'z-o'zini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini amaliy yondashuv orqali tashkil etish mexanizmlarini rivojlantirish uning ta'minotini rivojlantirishni talab qildi. Treningni uchta blokda qurish: axborot, o'z-o'zini anglash va maqsadga muvofiqlik. Oliy pedagogik ta'limning o'ziga xosligini tushinish madaniyatdir va ta'lim tizimidagi shaxslardan, o'qituvchidan, o'z kasbiy ixtisosligining malakasini ko'rsatish zarurati an'anaviy ta'lim tizimining mohiyatidan izlanish manbai bo'lishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. Ананьев Б.Г. К проблеме психофизиологии студенческого возраста// Современные психолого-педагогические проблемы высшей школы. - Л., 1974. - Вып.2. - С. 3-15.
2. Анциферова Л.И. Способность личности к преодолению деформаций своего развития //Психол. журнал, 1999. №1. - С.6-19.
3. Аверина И.С. Вербальный тест творческого мышления «Необычное использование»: Пособие для школьных психологов/ И. С. Аверина, Е. И. Щепланова. - М.: Соборъ. -1996.
4. Абдуллаева Ш.Х. Педагог профессионал компетентлигини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик механизмлари. Психол.ф.д. диссертацияси автореферати. - Т.: 2019 й. - Б. 36-49.
5. Абдуқодиров А. Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланиш услубиёти. «Насаф» нашриёти. 2011 й. - Б. 213.
6. Альшуллер Г.С. Творчество как точная наука. - М., 1979. - С 14-15.

**BO‘LAJAK ENERGETIK MUHANDISLARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH  
MAZMUNI VA USULLARI**

**Jumayev Axrom Asror o‘g‘li,**

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti*

*Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti*

*“Elektr energetikasi va elektrotexnika” kafedrasida assistenti.*

*axromjumayev9@gmail.com*

*Maqolada bo‘lajak energetik muhandislarda kreativ fikrlashni shakllantirish mazmuni va usullari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. PISA (The Program for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturida kreativ fikrlashni baholash yo‘nalishi haqida asosiy tushunchalar, baholashda e‘tibor qaratiladigan muhim jihatlar va baholash yondashuvlari keltirib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *PISA, (The Program for International Student Assessment) baholash, yondashuvlar, qobiliyat, layoqat, tadqiqotchilik, tahlil, kreativ topshiriqlar.*

**СОДЕРЖАНИЕ И МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСТВА БУДУЩИХ  
ИНЖЕНЕРОВ-ЭНЕРГЕТИКОВ**

*В статье представлена информация о содержании и методах формирования творческого мышления у будущих инженеров-энергетиков. Международная программа оценивания PISA (The Program for International Student Assessment) излагает основные концепции направления оценивания творческого мышления, важные аспекты, на которых следует сосредоточить внимание, и подходы к оцениванию.*

**Ключевые слова:** *PISA, (Программа международной оценки учащихся), оценка, подходы, способности, компетентность, исследование, анализ, творческие задачи.*

**CONTENT AND METHODS OF FORMING CREATIVITY IN FUTURE ENERGY  
ENGINEERS**

*The article provides information on the content and methods of forming creative thinking in future energy engineers. The PISA (The Program for International Student Assessment) international assessment program outlines the basic concepts of the direction of creative thinking assessment, important aspects to be focused on and assessment approaches.*

**Keywords:** *PISA, The Program for International Student Assessment assessment, approaches, ability, competence, research, analysis, creative assignments.*

**Kirish.** Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib aniq va tabiiy, mutaxassislik fanlar kabi turli sohalarida insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g‘oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba‘zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nikmadir. Rivojlanishning innovatsion yo‘lini tanlash, yuqori texnologiyalarni yaratish va amalga oshirish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bilim va ma‘lumotlarning o‘sib borayotgan o‘rni yuqori malakali mutaxassislarga katta talab qo‘ymoqda. Bu ta‘lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining yangi shakllarini talab qiladi va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qodir bo‘lgan yangi avlod o‘qituvchilarini shakllantirishni ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilaydi. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa o‘z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta‘siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir ya‘ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Mustaqil hamdo‘stlik davlatlari olimlaridan L.Vigotskiy, A.Leontev, D.Elkonin, O.Vasilchenko, E.Melkumova, V.Miretskaya, M.Suxomlinova, E.Emmanuel kabilarning ilmiy ishlarida shaxs ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari o‘rganilgan. E.P.Torrance, N. Rogers, J.Purnell, P.Roberts, A.M.Galligan, Sh.Tatsuno kabi xorijiy olimlarning ishlarida shaxsning individual qobiliyatlari, ijodiy

salohiyatini namoyon etish masalalari ochib berilgan. Darhaqiqat, ta’lim sohasidagi mutaxassislar va psixologlarning fikriga ko’ra ijodiy faoliyat bilan bog’liq fikrlash jarayonlarida mashg’ul bo’lish deb tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko’nikmalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o’zini yaxshiroq anglash ko’nikmalari, muammoni hal etish ko’nikmalari kiradi. Shu bilan birga, shaxs kamoloti, ta’lim olishdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro’si ham insonning kreativ fikrlash ko’nikmasiga bog’liq.

#### **Muhokama.**

Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta’lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o’zgarishlarga sabab bo’lishi mumkin. Xalqaro PISA baholash dasturi bo’yicha olib boriladigan tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo’nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to’xtamga kelishda ko’maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo’lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko’nikmani ta’lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bo’ladi. PISA xalqaro baholash dasturidagi ushbu faoliyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo’llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa bir loyihasi bilan bog’liqdir. Kreativ fikrlashda ta’limning asosiy vazifasi o’quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo’ladigan ko’nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo’lishi kerak bo’lgan muhim ko’nikma bo’lib, bu ko’nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o’zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko’nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko’maklashadi. Bo’lajak energetik muhandislarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko’nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko’nikmalarini baholashda qo’llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, bugungi energetik muhandis kelajakda hozir hatto mavjud bo’lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko’nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Oliy ta’lim maskanlarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Ta’lim jarayonlarida yoshlar uchun o’z qobiliyat va ko’nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste’dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash talabalarning ta’lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo’llab-quvvatlaydi. Talabalarning qiziquvchanligi ta’lim jarayonida qo’l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o’zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta’lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Oliy ta’lim talabalarning motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha talabalarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta’limning yangi shakllari yo’lga qo’yilishi zarur. Bu ayniqsa ta’lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan talabalarga yordam berishi mumkin va ular o’z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi. Boshqa ko’nikmalar kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va yo’naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba’zi talabalarga talabaning kreativ fikrlashini rivojlantirish o’quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo’layotgandek ko’rinadi. Aslida, talabalar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan ma’ruza mobaynida ko’r-ko’rona yodlash o’rniga tadqiqot va ixtironi qo’llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Talabalar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o’zlari ham talabalarga fikrlashda ko’proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o’z navbatida, talabalarga ta’lim jarayonida talabalarda ijodiy g’oyalarni bo’lishi uchun muayyan vaqt talab etiladi. Kreativ fikrlash ko’nikmalarini baholash isbotga tayangan dalillar asosida shakllantirilib, talabalar kompyuter platformasida qilayotgan, o’qiyotgan va yaratayotgan narsalarni ko’p jihatli malakalar bilan bog’laydi. Kreativlikni baholash - talabaning qobiliyatlari haqidagi muayyan da’volarni dalilga asoslangan fikrlash jarayonida tahlil etishdir. Umuman olganda, talabaning baholashdagi vazifalarga javobi ushbu fikrlash jarayonida dalillar bilan ta’minlaydi, psixometrik tahlil esa har bir da’voni tahlil qilish uchun isbotning yetarli ekanligini belgilaydi. PISA baholash dasturidan kreativ fikrlashni baholashning asosiy doirasi sifatida foydalanish mumkin. PISA dasturida talabalar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash bilim sohasida original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurni ta’sirchan ko’rinishlarga olib keladigan g’oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati deb ta’riflanadi. Ushbu tavsif talabalarning turfa kontekst va ta’lim darajasida g’oya berish amaliyotida samarali qatnashishni o’rganishlari kerakligiga, g’oyaning o’ziga xosligi va munosibligini baholagan holda uning ustida mulohaza yuritishga va toki maromiga yetkazmaguncha g’oyani takomillashtirishga urg’u beradi. Bu tavsif ishlab chiqilayotganda, shuningdek, turli sohadagi mutaxassislar

maslahati va kreativlik borasidagi keng adabiyot tahlilining natijalari ham inobatga olingan. Kreativ fikrlash endigina shakllanayotgan talqin bo‘lib turgan bir paytda ancha keng hamda kreativlik tuzilmasi kuchli tadqiqotchilik an‘anasiga ega bo‘ladi. Demak, kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi ham foydali bo‘lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir. Ijodiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi. Masalan, muhandislar yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog‘liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e‘tirof ham talab etiladi. Aksincha, kichik yoxud kreativlik ijodiy fikrlashga qodir deyarli barcha insonlarga zarurdir. Tug‘ma talantning ahamiyatini kamaytirish hamda takomillashtirish mumkin bo‘lgan shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ko‘proq urg‘u berish maqsadida PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo‘nalishining baholashi mana shu kichik kreativlik bilan bog‘liq vazifalarga asosiy e‘tiborni qaratadi. Kreativ fikrlashning bu turi nafaqat ta‘lim kontekstiga, balki g‘oya berish masalalarini tahlil etish, jamiyatdagi muammolarni hal etishga aloqador bo‘lgan kengroq sohalariga ham taalluqlidir. Muayyan omillar bo‘lajak energetik muhandislarida kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda energetik muhandislar ushbu omillarni bartaraf etishga e‘tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

- 1) tavakkal qilishdan qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash;

Kreativ muhitda bo‘lajak energetik muhandislar diqqat-e‘tiborini jalb etish maqsadida biror bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uyg‘otuvchi ma‘lumot, bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘ziga jalb etib, ularda o‘qishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Kreativ fikrlash ko‘nikmasidan talabalar individual va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ham foydalanadilar. Ijtimoiy muammolarni hal qilish bo‘limida muammoga ijtimoiy ravishda yondashiladi. Bunda mavjud muammoga ijtimoiy jihatidan qaraladi, ya‘ni muammo shaxsiy, ta‘limiy hamda ijtimoiy globalligidan qat‘iy nazar har bir shaxsning ehtiyojlariga yechim topish yo‘llari izlab topiladi. Talabalar kreativ kompetentlik sifatlarini shakllantirishda ta‘lim mazmunini loyihalash va standartlashtirish, talabalar kreativ kompetentlikini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, talabalar kreativ kompetentlikini tashkil etish va rivojlantirishning kreativ pedagogik texnologiyalari, talabalar kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil etish va intensivlashtirishning intellektual o‘qitish tizimlarini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq ekan. Bu sohada talabalarning kreativ fikrlashi orqali innovatsion, global muammolarning amaliy yechimi, ijtimoiy guruh ehtiyojlarini aniqlash, o‘zgaralar fikriga ijobiy munosabat bildirish kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Ijtimoiy muammolarni hal qilish doirasida tuzilgan testlardagi topshiriqlarni bajaruvchi talabalardan, qo‘yiladigan muammo shaxsiy yoki global bo‘lishidan qat‘iy nazar muammoga ijtimoiy yechim topiladigan g‘oyalarni to‘plash talab etiladi.

**Natijalar.** Kreativ fikrlash testlarining birinchi avlodi domenning umumiyliigi, ya‘ni har qanday sohadagi ijodkorlikning umumiy xususiyatlari mavjudligi haqidagi g‘oyaga asoslangani kabi tadqiqotchilar ijodkorlikni baholaydigan sinovlarda shaxsning natijalari umumiyashtirilishi mumkinligini, bir sohadagi kreativlik ikkinchi sohaga ham o‘tkazilishi mumkinligini taxmin qilganlar. Ushbu tadqiqotlar yoki ijodkorlik uchun zarur bo‘lgan qobiliyat va ko‘nikmalar domenga bog‘liq bo‘lib, domendan domenga ajralib turishini ta‘kidlamogda, yoki ikki yondashuvning qisman jamlagan ijodkorlik modellarini taqdim etmogda. “Domen” deganda muayyan ilm sohasi asosida yotadigan va uni qo‘llab-quvvatlaydigan reprezentatsiyalar turkumi tushuniladi. Tadqiqotchilar tomonidan kreativ yondashuvning quyidagi domenlari sanab o‘tilgan: kundalik, ta‘limga oid, harakatga oid, ilm-fanga oid sohalar. Ijodiy faoliyat “ilmiy” sohalariga ajratilgan. Ijodiy faoliyat uch umumiy sohaga bo‘linishi mumkin: verbal, san’atkorlik va muammoni hal qilish. Kreativlik sohalarini o‘rgangan amaliy tadqiqotlarning batafsil tahliliga ko‘ra, matematika ilmiy sohasi doimo boshqa ijodkorlik sohalaridan yaqqol ajralib turadi. Har qanday shaxsning ijodiy faolligi uchun to‘rt zaruriy qismi sanab o‘tiladi: sohaga bog‘liq qobiliyatlari; kreativlikka bog‘liq jarayonlar; vazifa borasidagi ishtiyoq (motivatsiya) mos qulay sharoit. Olingan natijalar tahlili talabalarda ahamiyatli sifatlarni shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalarga asoslangan trening mashg‘ulotlari o‘quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirishda yuqori samaraga erishilganligini ko‘rsatdi. Nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishda talabalarda ahamiyatli sifatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikmalarni mustahkamlab borishda kreativ kompetentlik asosida talabalarda ahamiyatli sifatlarni shakllantirish usulidan foydalanish tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining yuqori darajaga bo‘lishini ta‘minladi.

Oliy ta’lim muassasalarida ham bo’lajak energetik muhandislar kreativ fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa bo’lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart-sharoitni yaratib bera olishlari zarur. Zero katta va kichik guruhlarda ishlash jarayonida bildirilgan har qanday fikrni kreativ jihatdan rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Bo’lajak energetik muhandislar kreativlik darslarida jamoa tuyg’usining ahamiyatini anglagan holda, doimiy ravishda guruhlarini o’zgartirib, bo’lajak energetik muhandislarida jamoa bo’lib ishlash, boshqalar qobiliyati va mahoratini hurmat qilish ko’nikmasini shakllantiradi. Vaholanki, yakka tartibda ishlash ma’lum vaziyatlarda samara bersa, kreativlik darslarida kichik guruhlarda ishlash maqsadga muvofiqdir, chunki kreativlik ko’nikmasi ijtimoiy fenomendir A.J.Rouning fikriga ko’ra, kreativ qarashlar jamoa bo’lib ishlash jarayonida va kreativ hamkorlik natijasida shakllanadi

**Xulosa.** Ijodiy sermahsullik bazaviy resurs yoxud sohaga bog’liq qobiliyatlar, jumladan, bilim va texnik ko’nikmalar bo’lib, ularni yangicha usulda birlashtirish uchun kerak bo’ladigan qobiliyatlar tayyor qo’llanmalardan voz kecha olish kabi zarur motivatsiyani taqozo etadi. Bu to’rt komponent ham turg’un, ham takomillashtirish va muhitga moyil bo’lgan komponentlardan iborat. Talabalarning kreativ fikrlash ko’rsatkichlari ularning tadqiqotchilik qobiliyatlariga qanday bog’liq ekanligini tahlil etish ham o’rinlidir. Xuddi talaba ishtiyogini o’lchaydigan uslub kabi, uning tadqiqotchilik qobiliyatini ham kompyuterlashgan testdagi xatti-harakatini kuzatishdan olingan (telemetriya) ma’lumotlar asosida tahlil qilish mumkin.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, oliy ta’lim tizimiga kreativ kompetentli yondashuvning joriy etilishi ta’lim maqsadi, mazmuni, o’qitish shakli, o’qitish usullari, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o’rtasidagi munosabatlarida jiddiy o’zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shunga ko’ra, oliy ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil etishning mavjud shakllari bo’lgan ma’ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg’ulotlarini mazmun jihatidan o’zgartirish nazarda tutiladi. Ma’ruza darslarini muammoli ta’lim shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg’ulotlarda tadqiqotchilik ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo’lishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

#### Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947- son “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida” Farmoni. –B.39.
2. Jumayev A.A., Mirzoyev D.P., Karimov I.N. O’qituvchilarning pedagogik mahorati tajribasida ta’lim metodlarini samaradorligini oshirish yo’llari. Qarshi 2022.
3. Креативное обучение в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров высших образовательных учреждений. Qarshi 2022 A.A.Jumayev, B.B. Amrullayev.
4. Kreativlik pedagogik faoliyatni rivojlantirishning asosi omili sifatida. Qarshi 2022 A.A.Jumayev, N.Karimov.
5. Elektrotexnikaning nazariy asoslari fani darslarida kreativ texnologiyalaridan foydalanish. A.A.Jumayev. Science and Innovation 2022 Internatoonal scientific journal. ISSN: 2181-33-37413
6. Methodology of teaching specialty subjects using elements of distance learning. Mirzoyev Dilshod Po’lotovich, Xusanov Shaxboz Shuxrat o’g’li, Shodiyeva Farida Anvarovna. “Development issues of innovative economy in the agricultural sector” International scientific-practical conference on March 25-26, 2021. Web: <http://conference.sbtsue.uz/uz>
7. Жумаев А. А., Иноятлов М. Б., Одинаев С., Садриев Ж. Ж., & Рузибоев М. М. (2014) Изучение техники ремонта повреждений в асинхронном двигателе. *The Way of Science*, 22.
8. Махмудова М. М., & Жумаев А. А. (2019). Film als werkzeug für den unterricht von deutsch als fremdsprache. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы.

## TANQIDIY FIKRLASH VA UNING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

*Maxammatova Ma'muraxon Jalilovna,  
Andijon davlat pedagogika institute katta o'qituvchisi  
maxammatovamamuraxon@gmail.com*

*Ushbu maqolada ta'lim jarayonlarida tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va har qanday bugungi kun fan dasturlari mazmuniga tanqidiy fikrlash muhimligi kiritilmoqda. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'lim yondashuvlari va modellari uchun muhim element hisoblanadi. Ushbu tadqiqot o'qitish yoki o'rganish jarayonida tanqidiy fikrlash tushunchasi bo'yicha asos yaratishni maqsad qilgan. Jahon ta'limi bugungi kunga texnik va murakkabroq muhitga aylanib bormoqda, shuning uchun har bir o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'limga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Tanqidiy fikrlash qobiliyati, ayniqsa, so'nggi o'n yilliklarda ta'limning har bir sohasida juda muhim bosqich sifatida qabul qilinadi. Tadqiqot sifatida tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining ahamiyati haqida umumiy takliflar keng bayon qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, fikrlash, o'rganish, kognitiv faoliyat, mantiq, mantiqiy fikrlash, ta'lim, dunyoqarash, qobilyat, dialogik fikrlash, dialektik fikrlash modeli.

## КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ

*В этой статье объясняются навыки критического мышления в образовательных процессах и важность критического мышления для студента в любой образовательной программе. Развитие навыков критического мышления является важным элементом современных образовательных подходов и моделей. Это исследование направлено на создание основы для концепции критического мышления в преподавании или обучении. Мир день ото дня становится все более технической и сложной средой, поэтому потребность в образовании для каждого подрастающего поколения возрастает. Способность критически мыслить, особенно в последние десятилетия, считается очень важным шагом в любой сфере образования. Широко сформулированы общие положения о важности навыков критического мышления для проведения исследований.*

**Ключевые слова:** критическое мышление, мышление, обучение, познавательная деятельность, логика, логическое мышление, образование, мировоззрение, способность, диалогическое мышление, диалектическая модель мышления.

## CRITICAL THINKING AND ITS IMPORTANCE IN EDUCATION

*This article explains critical thinking skills in educational processes and the importance of critical thinking for a student in any educational program. Development of critical thinking skills is an important element for modern educational approaches and models. This study aims to provide a framework for the concept of critical thinking in teaching or learning. The world is becoming a more technical and complex environment day by day, so the need for education for each growing generation is increasing. The ability to think critically, especially in recent decades, is considered a very important step in every field of education. General propositions about the importance of critical thinking skills as research are broadly stated.*

**Key words:** critical thinking, thinking, learning, cognitive activity, logic, logical thinking, education, worldview, ability, dialogical thinking, dialectical thinking model.

**Kirish.** Tanqidiy fikrlash ijodkorlikni oshiradi va vaqtdan foydalanish va boshqarish uslubingizni yaxshilaydi va nafaqat mantiq balki, ehtimollik qoidalariga muvofiq fikrlash qobiliyatini tasvirlaydi, bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarni real hayotda qo'llash qobiliyatini ham tavsiflaydi. Tanqidiy fikrlash sizga o'zingizni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bu sizga ob'ektiv, kamroq hissiyotli va ochiq fikrli bo'lish imkoniyatini beradi, chunki siz boshqalarning qarashlari va fikrlarini qadrlaysiz. Oldindan o'ylash orqali siz ba'zi tashvishlar haqida yangi istiqbollarni va yangi tushunchalarni taqdim etish uchun ishonchga ega bo'lasiz.

Fikrlash barcha kognitiv faoliyat yoki jarayonlarning asosi bo'lib, faqat odamlarga xosdir. Bu atrof-muhitdan olingan ma'lumotlarni boshqara olish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bunday boshqarish va tahlil qilish mavhumlashtirish, fikrlash, tasavvur qilish, muammolarni hal qilish, hukm qilish va qaror qabul qilish orqali sodir bo'ladi. Aql - bu tushunchalarni shakllantirish, muammolarni hal qilish, fikr yuritish va qaror qabul qilish kabi ma'lumotlarni qayta ishlashda ishtirok etadigan miyaning fikrlash jarayonlari.

Tafakkurni tadqiq qilish tarixi inson o‘z fikrlashini tan olgan vaqtga bog‘liq. Tafakkur insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan xususiyatlardan biridir. Fikrlash - bu qandaydir ichki vakillikning o‘zgarishidir[2] Shu ma’nodan fikrlash qobiliyati hayotimizning asosiy holatidir, chunki har birimiz maqsadga erishishimiz kerak; boshqa tomondan, odamlar jamiyatda munosabatlarga ega va hech kim yolg‘iz emas.

**Adabiyotlar tahlili.** Dekart fikrlash - bu fikrlash va bu sabab mantiqning qat’iy qoidalarini qo‘llash orqali bog‘langan oddiy g‘oyalar zanjiri ekanligini ta’kidladi [McGregor, 2007]. O‘rganish ham, fikrlash ham bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi va to‘ldiradigan tushunchalardir. Shu nuqtai nazardan ko‘rib chiqilsa, ta’lim uslubi va tanqidiy fikrlash tushunchalari turli xil sifatlariga ega bo‘lsa, ularni birgalikda qo‘llash mumkinligini aytish mumkin. Xuddi shunday, adabiyotlar o‘rganilganda, o‘rganish uslublari va tanqidiy fikrlash tushunchalarini birgalikda ko‘rib chiqadigan tadqiqotlar mavjudligi ko‘rinadi misol uchun (Guven va Kurum, asarlarida 2004).

"Tanqidiy fikrlash - bu o‘z fikringizni yaxshilash uchun o‘ylayotgan paytda fikringiz haqida o‘ylashdir." [3.Richard V. Pol]

"Tanqidiy fikrlash" atamasi izlanganda uning falsafa va psixologiya fanlari doirasida taklif etilayotgan ma’nolari borligi, lekin umumiy ma’nodan bu atama aniq ma’noga ega emasligi tushuniladi. "Tanqidiy" yunoncha "kritikos" so‘zidan olingan bo‘lib, hukm qilish ma’nosini bildiradi, tahlil qilish usulidan kelib chiqqan va Sokratik argument o‘sha paytdagi fikrlashni o‘z ichiga olgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tanqidiy fikrlash yodlab bo‘lmaydigan qobiliyatdir. O‘quvchilar tanqidiy fikr yuritganda, ular o‘zlaricha o‘ylashga, farazlarni so‘roq qilishga, hodisalarni tahlil qilish va sintez qilishga, yangi farazlar ishlab chiqish va ularni faktlar bilan tekshirish orqali bir qadam oldinga borishga undaydi. Savol berish tanqidiy fikrlashning asosi bo‘lib, u o‘z navbatida bilimlarni shakllantirish manbai hisoblanadi va shuning uchun barcha o‘rganish uchun asos sifatida o‘rgatish kerak. O‘quvchilar ko‘pincha o‘qituvchilar tomonidan boshqariladigan, darsliklarga asoslangan sinflardagi tajribalar orqali o‘rganishga bo‘lgan yondoshuvlarida shartlanadi. Bu holat zamonaviy o‘qituvchilarni tashvishga soladigan holat bo‘lib, shuning uchun ular o‘quvchilarni fikrlashga yo‘naltirishda samaraliroq bo‘lgan eng yangi model va usullarni tanlashni afzal ko‘rishadi. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilar ma’lumotni tahlil qilish, baholash, sharhlash yoki sintez qilish va argument yaratish, muammoni hal qilish yoki xulosa chiqarish uchun ijodiy fikrni qo‘llashda yuzaga keladi. Tanqidiy fikrlashning maqsadi - fikrlash va harakatda mustaqil fikrlash, shaxsiy avtonomiya va asosli mulohazani rivojlantirish. Bu ikkita bog‘liq o‘lchovni o‘z ichiga oladi:

1. Yaxshi fikr yuritish qobiliyati
2. Moyillik.

Tanqidiy fikrlash ijodkorlik bilan bir qatorda mantiqni ham o‘z ichiga oladi. U induktiv va deduktiv fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal qilish, shuningdek, muammo va muammolarni hal qilishda ijodiy, innovatsion va kompleks yondashuvlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ta’lim, ehtimol, odamlar uchun eng asosiy ehtiyoj, insonning rivojlanishini ta’minlaydigan jarayondir. Meyer fikricha, ta’limning maqsadi shaxsni tarbiyalash, yordam berish, uning ichida mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishdir. Bolaning tafakkurini kuchaytirish maktablarning asosiy vazifasi bo‘lishi kerak, degan fikr har doim mavjud bo‘lib kelgan, bu shunchaki tasodifiy natija emas - agar bu umuman sodir bo‘lsa malakali ta’lim o‘quvchilarga nimani va qanday o‘rganish kerakligini ko‘rsatishi kerak. O‘quvchilar o‘rganganlarini va o‘rganish usullarini baholar ekan, ular tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini namoyon etadilar.

As Cotton ta’kidlaganidek "Agar o‘quvchilar yuqori texnik jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun ular doimiy o‘zgaruvchan dunyoda ma’lumot olish va qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan umrbod ta’lim va fikrlash qobiliyatlari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak"[4].

Ta’limning maqsadlaridan biri o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini, shuningdek, ta’limning zamonaviy yondashuvlarining asosiy maqsadi bo‘lgan harakat qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘lishi kerak.

**Tahlillar va natijalar.** Ta’limning muhim maqsadlaridan biri yaxshi ma’lumotga ega bo‘lgan o‘quvchilarni yetishtirishdir, ya’ni o‘quvchilar muhim, foydali, chiroyli va kuchli g‘oyalarni tushunishlari kerak. Yana biri analitik va tanqidiy fikrlash ishtahasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarni yaratish, o‘z bilganlaridan foydalanish uchun ta’lim talabalarga nimani va qanday o‘rganishni ko‘rsatishi kerak. O‘quvchilar o‘rganganlarini va o‘rganish usullarini baholar ekan, ular tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini namoyon etadilar.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida ta’limning ushbu maqsadlari ma’lum taxminlarga asoslanadi.

- Miyalar biologikdir. Aqllar yaratilgan. Shunday qilib, o‘quv rejasi aqlni o‘zgartiruvchi vositadir. Bu o‘quvchilarga o‘z ongi va hayotining konturini aniqlashning asosiy qobiliyatiga ega bo‘lgan mustaqil ong markazlari sifatida munosabatda bo‘lish uchun axloqiy talabni oshiradi.



- Ta'lim o'quvchilarni oldindan o'ylab topilgan rollarga emas, balki o'z-o'zini boshqarishga tayyorlashga intilishi kerak. Shuning uchun o'quvchilar hayotda yuzaga keladigan qiyinchiliklar labirintini mustaqil ravishda o'ylab ko'rishga tayyor bo'lishlari juda muhimdir.

- Diqqat bilan tahlil qilish, aniq fikrlash va asosli mulohaza yuritish demokratiya va demokratik hayotning asosidir.

Ushbu mulohazalar asosida tanqidiy baholash va tahlil qilish qobiliyati yaxshi hayot sifatiga ega bo'lish uchun asos bo'lib chiqadi.

Har bir o'quvchi tanqidiy fikrlashning samarali qobiliyatiga ega bo'lishi kerak va ular hech narsani oddiy deb qabul qilmasligi kerak, lekin qanday qilib o'quvchilarga tanqidiy fikrlashni o'rgatish mumkin? Tanqidiy fikrlash bo'yicha o'qitishni tashkil qilishning bir necha usullari mavjud: Biz alohida kurs yoki bo'limni o'rgatishimiz mumkin, biz o'rgatgan barcha narsaga tanqidiy fikrlashni kiritishimiz yoki aralash yondashuvdan foydalanishimiz mumkin. Alohida kurs yoki bo'limning birinchi yondashuvi tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, ko'nikmalari va bilimlari uchun maxsus o'rgatiladigan materiallarni talab qiladi.

Salbiy tomoni shundaki, dastur yoki materiallar o'rgatadigan narsalardan o'quv rejasining qolgan qismiga ozgina o'tish mumkin. Infuzion, ikkinchi mumkin bo'lgan yondashuv, tanqidiy fikrlashni barcha fan sohalarning ajralmas qismi sifatida o'rgatishini talab qiladi Rayt, Xirose fikriga ko'ra, ish beruvchilar xodimlarning fikrlash va tanqidiy fikrlash qobiliyatining etishmasligidan shikoyat qiladilar. Bu qobiliyatlar juda muhim, chunki o'tmishdagi ishlar bilan solishtirganda zamonaviy ish muhiti ko'proq fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini talab qiladi. Bu holatni ta'limga ham moslash mumkin. O'qituvchilar yuqori tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bilan jihozlangan bo'lishi kerak edi. Tanqidiy fikrlash aql bilan teng emas va u bilan noto'g'ri tushunmaslik kerak. Tanqidiy fikrlash - bu rivojlantirilishi mumkin bo'lgan mahoratdir[6]. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mumkin bo'lgani kabi, uni turli o'lchovlari bilan izlash va tahlil qilish mumkin, shuning uchun bu ko'plab olimlar yoki mutaxassislarning tanqidiy fikrlash haqida faraz qilishlarini ko'rsatadi, chunki tanqidiy fikrlashning hayotiyiligi yaqinda ko'pchilik tomonidan amalga oshirildi. Pedagoglar tanqidiy fikrlash haqida fikr yuritish mumkinligini bilishadi.

Tanqidiy fikrlash bo'yicha olib borilgan dastlabki tadqiqotlar 1960-yillarda boshlangan. Tadqiqotchilar ushbu tadqiqotlar orqali tanqidiy fikrlashni ikkita asosiy fan bilan tushuntirishni maqsad qilganlar. Falsafiy yondashuv yaxshi fikrlash me'yorlari, ob'ektiv dunyoqarash uchun zarur bo'lgan inson tafakkurining tushunchasi va motivi va kognitiv qobiliyatlari haqida to'xtaldi; psixologik yondashuv fikrlash va eksperimental tadqiqotlar fikrlash, o'rganish tafakkuridagi individual farqlar va tanqidiy fikrlashning bir qismi bo'lgan muammolarni hal qilish kontsepsiyasiga to'xtaldi.

Endi men tanqidiy fikrlashni o'rganish bo'yicha bir nechta misollar keltiraman. Kurum Anadolu universiteti ta'lim fakultetida tadqiqot o'tkazdi. Kurum tadqiqotining maqsadi tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va ushbu qobiliyatni tashkil etuvchi fikrlash qobiliyatlari darajalarini va Anadolu universiteti ta'lim fakultetida tahsil olayotgan o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash edi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, stajyor o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va barcha darajadagi fikrlash qobiliyatlari o'rta darajada bo'lib, bu qobiliyatlar tanqidiy fikrlashning hayotiyiligi ekanligi yaqinda ko'pchilik tomonidan amalga oshirilmogda[5]. Pavlus esa o'quv muhitida tanqidiy fikrlashning moslashuviga bag'ishlangan tadqiqot o'tkazdi. Ushbu tadqiqotda Pavlus intizomli bo'lishni va o'zini o'zi boshqarishga o'rgatish mumkinligini taklif qiladi. Uning ta'kidlashicha, tanqidiy fikrlash xulosalarni aniqlash, xulosalar chiqarish va noto'g'ri tashxis qo'yish kabi ko'nikmalardan iborat. Shunday qilib, u tanqidiy fikrlashni "tafakkurning ma'lum bir usuli yoki sohasiga mos keladigan tafakkurning mukammalligini ko'rsatadigan intizomli, o'zini o'zi boshqaradigan fikrlash" sifatida qurishni taklif qildi. Shu tarzda kontsepsiyalashtirilgan tanqidiy fikrlash o'z manfaatlaridan qat'iy nazar, turli shaxslar yoki guruhlarning manfaatlarini hisobga olishga tayyor bo'lgan adolatli, tanqidiy fikrlovchilarni rivojlantirishga qaratilgan holda o'rgatish kerak. Pavlus buni dialogik yoki dialektik fikrlash modeli deb atadi.

Giancarlo, Blohm va Urdan to'rtta ketma-ket tadqiqotlar bilan tasvirlanganidek, o'smirlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini o'lchash bilan qiziqdilar. Ularning tadqiqotlari natijalari Kaliforniya ruhiy motivatsiya o'lchovini (CM3 sifatida qisqartirilgan) qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu tadqiqot tanqidiy fikrlash moyillik degan taxminga asoslandi va nafaqat o'smirlarda tanqidiy fikrlash moyilligi mavjudligini isbotlabgina qolmay, balki ushbu konstruksiyani baholash uchun qimmatli vositadir. Mualliflar shunday xulosaga kelishdi: "CM3 odamlarning o'zlarini murakkab muammolarga tizimli, innovatsion, ochiq fikrli va izlanuvchan tarzda yondashishga tayyor va moyil deb bilish darajasini baholaydi".

**Xulosa.** Yuqoridagi munozaradan kelib chiqadigan bo'lsak, tanqidiy fikrlash hayotning har bir sohasida, ayniqsa, odamlar bilan band bo'lgan kasblar uchun zarurdir. Finkelman e'tiborni qaratdi va inson salomatligi sohasida ishlaydigan odamlar, ayniqsa psixologlar, maslahatchilar va pedagoglar kabi inson hayotiga bevosita aralashadigan odamlar amaliyotda ham, boshqaruvda ham tanqidiy fikrlovchi bo'lishlari

kerakligini ta’kidladi. O’qituvchilar va maslahatchilar o’z sinflarida tanqidiy fikrlashni amalga oshirishlari uchun ular birinchi navbatda tanqidiy fikrlash va uning falsafasiga sodiq bo’lishlari kerak.

#### Adabiyotlar:

1. American Philosophical Association (1990). Tanqidiy fikrlash: Ta’limni baholash va o’qitish maqsadlari uchun ekspert konsensus bayonoti. "The Delphi Report 'Committee on pre-college falsafay. (ERIC Doc. No. ED 315 423).
2. Bowell, T. & Kemp, K. (2002). Tanqidiy fikrlash: qisqacha qo’llanma. Rutledge matbuoti.
3. Emir, S. (2009). Ta’lim fakulteti talabalarining Achedemic Achievement bo’yicha tanqidiy fikrlash qobiliyati. Ta’lim fanlari bo’yicha Jahon konferentsiyasi, 1.
4. Giancarlo, C. A., Blohm, S. V., & Urdan, T. (2004). O’rta maktab o’quvchilarining tanqidiy fikrlashga moyilligini baholash: Kaliforniyada aqliy motivatsiya o’lchovini ishlab chiqish. Ta’lim va psixologik o’lchov.
5. Guven, M., & Kurum, D. (2004). O’qituvchi nomzodlarining ta’lim uslublari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari o’rtasidagi bog’liqlik. Anadolu universiteti ta’lim fakulteti talabarlari ustidan tergov, 1.
6. Xelpert, D.F. (1996). Fikr va bilim: tanqidiy fikrlashga kirish. Nyu-Jersi: Lourens Erlbaum.
7. Xirose, S. (1992). Jamoa kollajlarida tanqidiy fikrlash. ERIC Digest 2006 yil 30 avgustda <http://www.ericdigest.org/19922/critical.htm> dan olingan
8. MakGregor Debra (2007). Fikrlashni rivojlantirish, o’rganishni rivojlantirish. Open University Press, 9
9. Pol, R. (1989). Tanqidiy fikrlashning ta’rifi haqida. Tanqidiy fikrlash va ta’limni isloh qilish bo’yicha xalqaro konferensiyaning 25-konferensiyasida taqdim etilgan ma’ruza, Rohert Park, CA, Amerika Qo’shma Shtatlari
10. Pol, R. & Elder, L. (2008) Tanqidiy fikrlash: o’rganishingiz va hayotingiz uchun javobgarlik vositalari. Pearson/Prentis Xoll.

## QO‘RIQLASH XIZMATI XODIMLARI KASBIY KOMPETENTLIGINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKASI

*Maxmudova Zulfiya Mexmonovna,  
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va  
sotsiologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi  
azizbekyarasev@mail.ru*

*Ushbu maqolada qo‘riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentligi omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash mexanizmlari ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** kompetentlik, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СОТРУДНИКОВ СЛУЖБЫ ОХРАНЫ

*В данной статье рассматриваются исследования проявления и развития факторов социально-психологической и коммуникативной компетентности сотрудников органов безопасности и совершенствования её специфических социально-психологических факторов, раскрываются механизмы определения компонентов.*

**Ключевые слова:** компетентность, социально-психологическая компетентность работника, профессиональная компетентность, компетенция, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения и навыки, профессионально-психологические характеристики.

## SOCIAL-PSYCHOLOGICAL DIAGNOSTICS OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PROTECTIVE SERVICE STAFF

*This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of social-psychological and communicative competence of security service employees and the improvement of its specific social-psychological factors, the mechanisms for determining the components are revealed.*

**Key words:** competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, professional activity, professional knowledge, skills and competencies, professional psychological characteristics.

**Kirish.** Respublikamizda so‘nggi yillarda huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, qo‘riqlash xizmati xodimlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilib kelinmoqda. «Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida qo‘riqlash xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko‘rsatib o‘tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, qo‘riqlash xizmati xodimlarlari kasbiy kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo‘lgan xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi kasbiy, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida belgilangan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o‘rganish jarayonida bir nechta yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo‘naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko‘nikma), kognitiv va operatsional.

Ma'lumki, kompetensiya – bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'pgina ilmiy adabiyotlarida, psixologik manbalarda aks eta boshlagan.

Namoyon Bo'lishi Kompetentlik turi	Bilim	Munosabat	Amalga oshirish xislati
Kasbiy kompetensiya	Davlat standartlari, zamonaviy ehtiyojlar darajasida o'z sohaning mazmun-mohiyatini tushunish va anglash	Adolatli va halol, yuksak ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni fuqarolar bilan har tomonlama, hamkorlik orqali muomalada ro'yobga chiqara olish	Faoliyat jarayonini zamonaviy psixologik usullar asosida muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali kutiladigan natijaga to'liq erishish
Ijtimoiy kompetensiya	Atrofdagilarni individual qobiliyatlarini, o'z vaqtida ilg'ash, his-tuyg'u, emotsional holatlarini tushunish, anglash	Fuqarolarni va hamkasblarini to'g'ri tushunish, ular haqida noto'g'ri salbiy fikrga bormaslik	Fuqarolar, hamkasblar, jamoatchilik va rahbariyat bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish
Shaxsiy, individual kompetensiyasi	O'zining intellektual, kognitiv kuchli tomonlarini va kamchiliklarini ilg'ash, ularni uzluksiz o'rganish orqali bartaraf qilib borish	O'zining kuchli tomonlarini qadrlash va kamchiliklarini tan olish, butun bor kuchini xatolarni tuzatishga o'zini har tomonlama serqirra rivoji uchun ichki va tashqi omillar, imkoniyatlardan samarali foydalana olish	O'zining nimaga qodirligini tan olgan holda o'zining individual-psixologik, intellektual, kognitiv salohiyatini yanada rivojlantirishni davom ettirish

Dastlab, kompetensiyalar uch asosiy guruhga ajratiladi: shaxsiyatga doir, kasbiga va faoliyatiga oid. Faoliyat jarayonida xodimning asosiy vazifasi - kasbiga oid (tayanch) kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam berishdan iborat. Qo'riqlash xizmati xodimlarini quyidagi kompetensiyalar, faoliyat jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy tayanch kompetensiyalar sifatida belgilab berilgan:

- Kommunikativ;
- Shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish;
- Ijtimoiy faol fuqarolik;
- Umummadaniy;

O'z sohasi yangiliklaridan xabardor bo'lish.

Faoliyat jarayonida qo'riqlash xizmati xodimlarida shakllantirilishi lozim bo'lgan bu tayanch kompetensiyalarni ularni emotsional intellekt omillarini shakllantirish bilan proportsional ravishda olib borilishi va takomillashtirilishi maqsadga muvofiq.

Qo'riqlash xizmati xodimlarida shakllantirilishi va takomillashtirilishi lozim, deb ko'rsatilgan tayanch kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

**Kommunikativ kompetensiya:**

– o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda qisqa, lo'nda, tushunarli hamda ta'sirchan bayon qilish, so'zlarni talaffuz qilishda urg'uni to'g'ri qo'yish, nutqda shevaga xos so'zlarni ishlatmaslik, adabiy til me'yorlariga amal qilish, o'z fikrini imlo va husnixat qoidalariga rioya etgan holda xatolarsiz bayon qilish;

– turli davralarda, katta-kichik yoshdagi notanish insonlar bilan muloqotga kirisha olish, muloqotda o'zidan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish;

– vaziyat taqozosiga ko‘ra hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a‘zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, e‘tirozli fikrlarga to‘g‘ri munosabat bildirish, ular fikrini shakllantirishda o‘z ulushini qo‘shish.

2. Shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

– shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, ma‘naviy, psixologik va intellektual kamolotga intilishni doimiy hayotiy-ma‘naviy ehtiyojiga aylantirish;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e‘zozlash va ularga amal qilish;

– hayoti davomida turli yo‘nalishdagi kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish, tegishli holatlarda ulardan o‘z fikrining isboti va dalili sifatida amliyotda foydalana olish;

– o‘z hatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o‘zini nazorat qila bilish, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera bilish.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko‘rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o‘qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya‘ni ta‘lim oluvchining ta‘lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

A.V.Xutorskiyning o‘tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o‘ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo‘lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlikka qo‘yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta‘kidlaydi.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko‘nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya‘ni insonlar bilan o‘zaro ta‘sir o‘tkazish malaka va ko‘nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo‘nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo‘lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to‘laonli hisoblanmasdi.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo‘naltirilganlik, maqsadni qo‘ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o‘z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o‘ziga xos bo‘lgan me‘yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish tajribasi, ya‘ni ko‘nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o‘zaro ta‘sir holatlariga bog‘liq holda namoyon bo‘lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo‘lish holatlarida o‘zini-o‘zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekspertizasi jarayonida o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali qo‘llash sud psixolog xodimidan o‘zini-o‘zi idora qilish va o‘zini-o‘zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Pedagog A.A.Dunyushin shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llay olish qobiliyati ekanligini ta‘kidlaydi. Ko‘rinib turibdiki, fikr muallifi quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

a) kompetentlik aniq bir faoliyat sub‘ekti tavsifi sifatida baholanishi mumkin;

b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyat maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog‘liq;

c) kompetentlik hissiy-irodaviy sifatlar, shaxsning muloqotmandligi, intellektual salohiyati, shaxsning yo‘naltirilganligi kompetentlikka asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud psixolog xodimlarining kommunikativ kompetentligiga aloqador bo‘lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, sud psixolog xodimlari kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tushunish lozim.

N.S.Aulova olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentlikning quyidagi mezonlarini asos qilish kerakligini ko‘rsatadi:

– shaxs refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o‘z kasbiga mosligini baholash, refleksiv (o‘z tushunchasi va hatti-harakatlarni anglash) harakatlarning shakllanganligi;

– asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, metodlari va yo‘llarini egallash;

– bilish faollik darajasining o‘zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo‘llash ko‘nikmasi;

– kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchning shakllanganligi darajasi;

– samarali kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;

– ularni o‘z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo‘llarini topishga intilish;

– anglashning faollik darajasi.

Bizningcha, muallifning mazkur ta’rifida o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e’tibor qaratadi.

Bugungi kunda jahonda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning quyidagi asosiy jihatlariga alohida ahamiyat beriladi:

a) ijtimoiy – o‘ziga mas’uliyatni his etish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va unda faol ishtirok etish qobiliyati, turli etnik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning jamiyat talablari bilan mosligi;

b) kommunikativ – turli tillardagi yozma va og‘zaki tarzda muloqot qila olish qobiliyatiga egalik;

c) ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;

d) kognitiv – doimiy ravishda ta’lim olish darajasini oshirishga intilish, o‘zining imkoniyatini faollashtirish va amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyoj, ya’ni bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish qobiliyati;

e) madaniyatlararo kompetensiyalar;

f) mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;

j) maxsus – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o‘z mehnati natijalarini baholash.

Yuqorida qayd etilgan ishlarda kompetentlik mezonlari umumilmiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va umumkasbiy bilimlar asosida talqin etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash kerakki, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni ijtimoiy-psixologik kompetentlik omili sifatida talqin qilish an’anasi ham mavjud.

Shunday qilib, malaka ham kompetentlik kabi asosiy va kasbiy bo‘lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko‘pincha oddiy malakalar deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar sifatida quyidagilar kiritiladi:

– shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunktsional bilimi, ko‘nikmalari, individual xususiyalari;

– aniq kasblar guruhlarini sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo‘ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlari va sifatleri;

– turli jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va qobiliyatlar.

Biz kasbiy kompetentlikka doir izlanishlarga tayanib, qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik omillarini belgilovchi mezonlar majmuasini quyidagilarga ajratdik:

Kognitiv (bilish);

1.1. Kasbiy faoliyat jarayonida fuqarolarni tushunishning maxsus qoidalarini bilish;

1.2. Ijtimoiy xotira – insonlarning qiyofasi, ismini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan xotira;

1.3. Ijtimoiy intuitsiya – fuqarolarning kayfiyatini, tuyg‘ularini, hatti-harakatlarini tushunish motivi, ijtimoiy mazmundagi xulq-atvorni mos tarzda kuzatuvchanlik qobiliyati;

1.4. Ijtimoiy voqelikni prognostik baholay olish – shaxsiy hatti-harakatlari rejasini shakllantirish, o‘zining faoliyatini jipslashtirishi, shaxsiy faoliyatini boshqalar ko‘zi bilan ko‘ra olishi va foydalanilmagan muqobil imkoniyatlar orqali baholash.

Emotsional (emotiv);

2.1. Ijtimoiy ifodalilik – ijtimoiy ifodalilik, ijtimoiy sezgirlik, ijtimoiy nazorat;

2.2. Birgalikda qayg‘urish – fuqarolarning holatiga kira olish, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘ya olishi qobiliyati.

2.3. O‘zini-o‘zi tartibga solish qobiliyati – o‘zining emotsiyasi va kayfiyatlarini tartibga solish uquvi.

3. Xulqiy (konativ);

3.1. Ijtimoiy idrok qilish insonlarni tinglash malakasi;

3.2. Ijtimoiy o‘zaro ta’sirlashuv – hamkorlikda ishlashga shaylik va qobiliyatlilik, o‘zaro jamoaviy ta’sirlashuvga qobiliyatlilik;

3.3. Ijtimoiy moslashuvchanlik – tushuntira olish va boshqalarni ishontira olish uquvi, o‘zga kishilar bilan chiqishib ketish qobiliyati, atrofdegilar bilan munosabatlarda samimiylikning namoyon etilishi.

Demak, qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligining to‘liq tuzilmasi motivatsion-yo‘naltiruvchi bo‘g‘in, rivojlantiruvchi, tuzatuvchi korreksion va kasbiy maslahat xarakteriga ega bo‘lganligi bilan xarakterlanadi.

Shu nuqtai nazardan qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini o‘rganish jarayonida har bir qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi va uning o‘ziga xos imkoniyatlarini o‘rganish va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, tadqiqotimizda qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi, uning kommunikativ, ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellektiga ham bog‘liq degan mulohazani ilgari surgan holda ular o‘rtasidagi uyg‘unlikni o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy fazilatlarini, ularning ijobiy xulq-atvori, ishchanligi, ruhiy asab tizimining barqarorligi, faoliyat davomiyligining uzviyligi, yosh xodimlarning xizmatga amaliy moslashishi, kasbiy shakllanish jarayonini tezlashtirish, hamda ularda xizmat vazifasi bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni mustaqil bajarish qobiliyatini rivojlantirish, ular o‘rtasida barqaror professional muhitning shakllanganligi, xodimlarning uzoq muddatli xizmatini rag‘batlantirish, shuningdek, kadrlarning professional va shaxsiy fazilatlarini hamda qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa qo‘riqlash xizmati xodimlarida ijtimoiy-psixologik tadqiqot ishlarini amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqotimizda belgilangan vazifadan kelib chiqib, qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligini ta‘minlovchi muhim bo‘lgan omillarni aniqlash va qo‘lga kiritilgan dastlabki natijalar asosida keyingi chora-tadbirlarni, yani psixokorreksion va rivojlantiruvchi tadbirlarni amalda qo‘llash maqsadida V.A.Melnikov, L.Ya.Yampolskiylarning «Psixodiagnostik test» metodikasidan foydalanildi.

**Natijalar.** Qo‘riqlash xizmati xodimi kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik, kommunikativ kompetentlik va emotsional intellekt omillarini rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlarini qo‘llash bilan bir qatorda ularning yakuniy natijalarini ikki xil tartibda baholashga erishildi. Birinchisi, trening ishtirokchilarining mashg‘ulotlar asosida kasbiy kompetentlik va uning omillarini aniqlashga qaratilgan mashg‘ulotlarida shakllantirgan sifat va xususiyatlari darajasini aniqlash hamda ikkinchidan, tadqiqotimizning asosiy maqsadidan kelib chiqib, qo‘riqlash xizmati xodimi kasbiy kompetentligini aniqlash usullarini tatbiq etishdan olingan natijalarga e‘tibor qaratildi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish dasturi oqibatida qo‘riqlash xizmati xodimlari o‘zlarining faoliyat jarayonidagi shaxsiy va kasbiy o‘shidagi kamchiliklarni bartaraf etishga erishdilar, deyish mumkin. Buni psixotrening dasturini qo‘llashdan keyingi bosqichdan olingan natijalar ham tasdiqladi.

Qo‘riqlash xizmati xodimlarining trening dasturidan keyingi kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik holatini baholash uchun, kasbiy kompetentlik ko‘rsatkichlarining qiyosiy holati o‘rganib chiqildi. Kasbiy kompetentlikni baholovchi so‘rovnomaning psixotrening dasturiga va undan keyingi holatga ko‘ra ko‘rsatkichlar o‘rtacha miqdoriy ko‘rsatkichlari bo‘yicha qiyosiy tahlil qilindi. Aniqlovchi tajriba davomida, kasbiy kompetentlik ko‘rsatkichlari yuqori, o‘rta va quyi darajalari bo‘yicha tahlil qilingan edi.

Qo‘riqlash xizmati xodimi kasbiy kompetentligi bilan kommunikativ hamda ijtimoiy-psixologik kompetentligi va ularning emotsional intellekti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan psixotrening dasturi jamoa a‘zolari o‘rtasida tashkil etildi. Bu bu o‘z navbatida qo‘riqlash xizmati xodimi kasbiy kompetentligini ta‘minlashning muhim jihatlari o‘zida mujassamlashtirilganligiga urg‘u berildi. Psixotrening dasturi qo‘riqlash xizmati xodimlarining faqatgina individual o‘shisi emas, balki jamoaviy va guruhij jipsligini ta‘minlashga, o‘zaro hurmat va tushunish, nizoga sabab bo‘luvchi holatlarni oldini olishga ham xizmat qila oldi, deyish mumkin. Buning qo‘riqlash xizmati xodimlarining psixotrening dasturini qo‘llashdan keyingi ko‘rsatkichlari ham tasdiqlaydi.

Psixotrening dasturidan keyingi natijalar qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligini ifodalovchi komponentlarda rivojlanishga erishilganligini ko‘rsatdi.

Qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashda V.A.Melnikov, L.Ya.Yampolskiylarning «Psixodiagnostik test» metodikasi asosida nazorat tajribada metodikaning 10 ta asosiy omillari bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ko‘pgina omillardagi ko‘rsatkichlarda yuqori ijobiy o‘shish kuzatilganligini guvohi bo‘lamiz (1-jadval).

1-jadval.

**Qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko‘rsatkichlari (V.A.Melnikov, L.Ya.Yampolskiylarning «Psixodiagnostik test» metodikasi bo‘yicha)**

t/r	Omillar	Ko‘rsatkichlar	uch yillik ish stajga ega bo‘lgan xodimlar n1=130					uch yildan ortiq ish stajga ega bo‘lgan xodimlar n1=130				
			Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba		Farq	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba		Farq
			M1	S	M2	S	p	M1	S	M2	S	p
1	Nevrotizm	quyi	1,27	1,90	1,89	1,02	0,04	1,41	1,36	1,91	1,73	0,00
		o‘rta	4,34	3,87	5,53	3,05	0,03	5,17	2,04	5,89	2,28	0,01
		yuqori	8,41	3,57	9,63	2,24	0,01	7,15	2,18	9,41	2,31	0,05
2	Psixotizm	quyi	1,74	1,38	1,93	1,22	0,02	1,32	1,45	1,96	1,04	0,04
		o‘rta	4,19	2,60	5,77	2,10	0,03	5,31	1,81	5,86	1,12	0,00
		yuqori	7,09	2,93	6,08	1,31	0,01	7,52	2,23	6,06	2,10	0,01
3	Depressiya	quyi	1,25	3,56	1,76	3,11	0,01	1,43	1,29	1,84	1,49	0,08
		o‘rta	5,41	1,86	5,81	1,12	0,07	5,47	2,14	5,85	2,35	0,06
		yuqori	8,32	3,10	6,12	2,13	0,05	7,65	1,16	6,5	1,28	0,08
4	Vijdonlilik	quyi	1,15	1,31	1,86	1,45	0,01	1,35	1,03	1,85	1,25	0,01
		o‘rta	4,83	2,96	5,89	2,04	0,09	5,84	2,64	5,92	2,04	0,08
		yuqori	9,42	3,29	9,91	2,19	0,04	8,84	1,62	9,87	1,03	0,05
5	Turg‘unlashganlik	quyi	1,34	1,14	1,84	1,44	0,01	1,37	1,23	1,88	1,47	0,01
		o‘rta	4,18	2,34	5,78	2,12	0,03	5,15	1,96	5,83	1,12	0,05
		yuqori	8,50	3,21	6,02	3,74	0,05	7,72	3,08	6,07	3,24	0,08
6	Umumiy faollik	quyi	1,08	1,00	1,01	1,42	0,00	1,40	1,86	1,03	1,21	0,04
		o‘rta	4,82	3,28	5,89	3,74	0,01	5,12	2,05	5,92	2,35	0,08
		yuqori	9,12	3,11	9,78	3,45	0,05	7,73	1,09	9,71	1,24	0,01
7	Tobelik	quyi	1,87	2,90	1,41	1,02	0,04	1,34	1,23	1,21	1,75	0,02
		o‘rta	4,51	3,49	4,51	3,21	0,00	5,07	2,03	5,59	2,41	0,03
		yuqori	8,48	2,92	6,23	2,21	0,01	8,37	1,08	6,21	1,24	0,01
8	Muomalaga kirishimlilik	quyi	1,37	3,65	1,02	2,75	0,08	1,41	2,09	1,08	2,42	0,01
		o‘rta	4,73	3,90	5,88	3,12	0,06	5,02	2,23	5,49	2,12	0,07
		yuqori	8,79	3,94	9,71	3,32	0,08	8,35	1,78	9,56	1,02	0,05
9	Estetik taassurotchanlik	quyi	1,80	4,03	1,02	2,67	0,01	1,52	1,06	1,52	1,24	0,01
		o‘rta	5,01	3,45	5,75	3,45	0,08	5,24	3,02	5,86	3,02	0,09
		yuqori	8,59	3,62	7,01	3,62	0,05	8,24	1,88	6,39	1,88	0,04
10	Nazokatlilik	quyi	1,27	3,58	1,10	3,58	0,01	1,43	2,12	1,03	2,12	0,01
		o‘rta	4,63	3,11	5,86	3,11	0,05	5,11	2,53	5,92	2,53	0,03
		yuqori	8,22	3,89	6,08	3,89	0,08	7,91	1,53	6,09	1,53	0,05

Izoh: quyi (1-2 ball), o‘rta (3-6 ball), yuqori (7-10 ball).

M – O‘rtacha arifmetik qiymat. S – Standart og‘ish

2-jadval.

**Qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi bilan ijtimoiy-psixologik kompetentligi umumiy ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari (n=260)**

Omillar		Kasbiy kompetentlik ( «Psixodiagnostik test» metodikasi bo‘yicha)									
		Nevrotizm	Psixotizm	Depressiya	Vijdonlilik	Turg‘unlashganlik	Umumiy faollik	Tobelik	Muomalaga kirishimlilik	Estetik taassurotchanlik	Nazokatlilik
Ijtimoiy-psixologik	Insonlarni tushunish	0,219	0,106	-0,281	0,462	0,597*	0,311	0,232	0,679*	0,585*	0,571*
	Vaziyatlar ni tushunish	0,239	-0,416	0,143	0,431	0,431	0,159	0,116	0,573*	0,2091	0,209
	Uddaburonlik	0,190	-0,037	0,136	0,259	0,407	0,690*	-0,043	0,23	0,203	0,102
	Axloqiy ustanovkalar	0,387	0,102	-0,318	0,571*	0,320	0,187	0,362	0,418	0,336	0,420



Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,401	-0,013	0,019	0,400	0,239	0,569*	-0,218	0,209	0,119	0,112
Emotsional barqarorlik	0,523*	-0,233	0,078	0,526*	0,469	0,207	-0,108	0,189	-0,108	0,356
Imidj	0,368	0,230	0,104	0,266	0,482	0,168	0,223	0,201	0,102	0,706*
Sotsial psixologik kompetentlik	0,211	0,201	-0,155	0,434	0,466	0,401	0,186	0,701*	0,301	0,466
Verbal kompetentlik	0,402	0,125	-0,154	0,398	0,487	0,201	0,109	0,609*	0,203	0,387
Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,561*	0,231	0,060	0,160	-0,102	0,642*	0,407	0,203	0,408	0,197
Ego kompetentlik	0,173	0,603*	0,412	0,435	0,228	0,204	-0,109	0,312	0,404	0,509*
Kommunikativ kompetentlik	0,492	0,152	0,149	0,247	0,395	0,298	0,105	0,708*	0,208	0,395
Ishonchlilik	0,468	0,116	0,159	0,746**	0,512*	0,132	0,103	0,459	0,102	0,312
Barqaror insoniy munosabatlilar	0,573*	0,103	-0,109	0,585*	0,432	0,473	0,109	0,608*	-0,109	0,496
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,478	0,236	-0,189	0,241	0,208	0,089	0,122	0,587*	0,204	0,301

\*  $p \leq 0,05$ , \*\*  $p \leq 0,01$

Olib borilgan trening mashg'uloti natijasida aniqlovchi tajribada qo'lga kiritilgan natijalarning ijobiy tomonga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Nazorat tajribasidan olingan ma'lumotardan ko'rinib turibdiki, qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi bilan ijtimoiy-psixologik kompetentligi ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanayotganligini belgilovchi bir qancha statistik ahamiyatga ega bo'lgan alomatlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikda o'z aksini topgan. qo'riqlash xizmati xodimlaridagi bunday ijtimoiy-psixologik imkoniyatning mavjudligi kasbiy faoliyatni to'g'ri tashkil qiluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Natijada qo'riqlash xizmati xodimlari faoliyat jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli nizoli holatlar va o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan kasbiy kompetentligi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'zaro bog'lovchi jihatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda insonlarni tushunish bilan turg'unlashganlik ( $r=0,597$ ,  $p \leq 0,05$ ), muomalaga kirishimlilik ( $r=0,679$ ,  $p \leq 0,01$ ), estetik taassurotchanlik ( $r=0,585$ ,  $p \leq 0,05$ ), nazokatlilik ( $r=0,571$ ,  $p \leq 0,01$ ) omillari, vaziyatlarni tushunish bilan muomalaga kirishimlilik ( $r=0,573$ ,  $p \leq 0,05$ ) omili, uddaburonlik bilan umumiy faollik ( $r=0,690$ ,  $p \leq 0,05$ ) omili, axloqiy ustanovkalar bilan vijdonlilik ( $r=0,571$ ,  $p \leq 0,05$ ), omili, muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi bilan umumiy faollik ( $r=0,569$ ,  $p \leq 0,05$ ) omili, emotsional barqarorlik bilan nevrozizm ( $r=0,569$ ,  $p \leq 0,05$ ), Vijdonlilik ( $r=0,526$ ,  $p \leq 0,05$ ) omili, imidj bilan nazokatlilik ( $r=0,706$ ,  $p \leq 0,01$ ) omili, sotsial psixologik kompetentlik bilan muomalaga kirishimlilik ( $r=0,701$ ,  $p \leq 0,01$ ) omili, verbal kompetentlik bilan muomalaga kirishimlilik ( $r=0,609$ ,  $p \leq 0,05$ ) omili, operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik bilan nevrozizm ( $r=0,561$ ,  $p \leq 0,05$ ), umumiy faollik ( $r=0,642$ ,  $p \leq 0,05$ ) omillari, ego kompetentlik bilan nevrozizm ( $r=0,603$ ,  $p \leq 0,05$ ), nazokatlilik

( $r=0,509$ ,  $p\leq 0,05$ ) omillari, kommunikativ kompetentlik bilan muomalaga kirishimlilik ( $r=0,708$ ,  $p\leq 0,01$ ), omili, ishonchlilik bilan vijdonlilik ( $r=0,746$ ,  $p\leq 0,01$ ), turg'unlashganlik ( $r=0,512$ ,  $p\leq 0,05$ ) omillari, barqaror insoniy munosabatlar bilan vijdonlilik ( $r=0,573$ ,  $p\leq 0,01$ ), vijdonlilik ( $r=0,585$ ,  $p\leq 0,05$ ), muomalaga kirishimlilik ( $r=0,608$ ,  $p\leq 0,05$ ) omillari, shaxslilik kommunikativ imkoniyati bilan muomalaga kirishimlilik ( $r=0,587$ ,  $p\leq 0,05$ ) omili bilan ijobiy korrelyatsiya berganligi qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy faoliyat samaradorligiga xizmat qilishi bilan ahamiyatli ekanligini qayd qilish lozim (2-jadval).

**Xulosa.** «Qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» mavzusidagi ish bo'yicha olib borgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini nazariy-metodologik tahlili shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda qo'riqlash xizmati xodimlarida kasbiy kompetentlik omillarini shakllanishini tadqiq qilish va baholash mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

2. Qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi namoyon etilishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishning psixodiagnostik va psixokorreksion metodlarini to'g'ri tanlash kasbiy faoliyat samaradorligini muvaffaqiyatli kechishini ta'minlanishiga olib keladi.

3. Qo'riqlash xizmati xodimlaridagi kasbiy kompetentlik ko'rsatkichlarining namoyon etilishi va rivojlanishi muayyan darajada shaxs tiplari, faoliyat davomiyligi xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

4. Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy, ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentligi ko'rsatkichlari o'rtasida muayyan darajadagi korrelyatsion bog'liqliklarning mavjudligi mazkur kompetentlik mezonlari haqida ilmiy tasavvurlarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi ko'rsatkichlarini V.A.Melnikov, L.Ya.Yampolskiylarning uslubi bo'yicha 10 ta mezon (nevrotizm, psixotizm, depressiya, vijdonlilik, turg'unlashganlik, umumiy faollik, tobelik, muomalaga kirishimlilik, estetik taassurotchanlik, nazokatlilik), Kunitsina uslubi bo'yicha o'n to'rtta mezon (insonlarni tushunish, vaziyatlarni tushunish, uddaburonlik, axloqiy ustanovkalar, muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi, emotsional barqarorlik, imidj, sotsial kompetentlik, verbal kompetentlik, operativ kompetentlik, egokompetentlik, kommunikativ kompetentlik, ishonchlilik, barqaror insoniy munosabatlar), Xoll uslubi bo'yicha beshta mezon (emotsional bilimdonlik, empatiya, o'zga inson kechinmalarini sezish, o'z-o'zini rag'batlantirish, o'z emotsiyasini boshqarish), G.M.Manuylov V.V.Kozlov M.P.Fetiskin uslubi bo'yicha 7 ta mezon (muloqotchan-muloqotga kirishishga qiynaladigan, mantiqiy fikrlaydigan-zaif fikrlaydigan, barqaror-berqaror, optimizm-pessimizm, ijodiy tafakkuri rivojlangan-realist, o'zini nazorat qila oladigan-nazoratda qiyinchilikka uchraydigan) asosida baholash va tadqiq qilish mumkin.

6. Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy savodxonligini shaxslilik sifatlariga bog'liqligiga ko'ra mustaqil, realistik fikrlashni kognitiv, ijodiy tafakkur omillarini integratsiyalash orqali ularda kasbiy hamda kommunikativ kompetentlikni uyg'un holda rivojlantirish mumkin.

7. Qo'riqlash xizmati xodimining kommunikativ kompetentlik, kasbiy faoliyatiga doir ijtimoiy-psixologik bilimlar diapazoni va ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarining muhimligiga ko'ra psixodiagnostik metodlarni qo'llashda hissiy-irodaviy, kognitiv va kommunikativ motivatsiya imkoniyatlarini takomillashtirishga qaratilgan psixotexnikalar kombinatsiyasini qo'llash orqali kasbiy kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

8. Psixotrening dasturidan avvalgi va keyingi natijalarning statistik jihatdan qiyosiy tahlili insonlarni tushunish, axloqiy ustanovkalar, muvaffaqiyat motivatsiyasi, emotsional barqarorlik, imidj va kommunikativ kompetentlik omillari bo'yicha muayyan darajadagi ijobiy natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari hamda ular asosida shakllantirilgan umumiy xulosalar quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif etish imkonini beradi:

1. Tadqiqotimizda aniqlanganidek, qo'riqlash xizmati xodimlari faoliyatida kasbiy kompetentlik omillarini rivojlantirish uzoq davom etadigan jarayondir. Ayni paytda, bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar va huquq-tartibot tizimidagi o'zgarishlar davrida bo'lg'usi qo'riqlash xizmati xodimlarini kasbiy kompetentligini oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichlaridayoq shakllantirish zarur. Ularni nafaqat maxsus bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, balki, professional kompetentlikning psixologik komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar bilan ham tanishtirib borish tavsiya etiladi.

2. Qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun qo'riqlash xizmati xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritish va ularning faoliyat davomiyligiga qarab kasbiy kompetentlik darajasini diagnostika qilib borish lozim.

3. Xodimlarni ahloqiy-ruhiy qo‘llab-quvvatlashda psixodiagnostik, psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirishda ularning hissiy-irodaviy, kognitiv va kommunikativ motivatsiya imkoniyatlarini inobatga olish lozim.

4. «Xodimbay» ishlash tizimi asosida aniqlangan oilaviy kelishmovshiliklar; oilasidagi muhit nosog‘lom va oilaviy janjalkashligi bo‘yicha xavf guruhiga kiritilgan har bir xodim hamda uning oila a‘zolari bilan alohida «xodimbay» ishlash, «xodimbay» ishlash tizimi asosida har bir xodimning yashash sharoiti, shuningdek, turmush o‘rtog‘i va farzandlari bilan psixologik suhbatlar o‘tkazilib, ularning psixologik holati hamda oiladagi ruhiy muhit, shu bilan birga, oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish asosida ularga psixologik xizmat ko‘rsatish lozim.

5. Qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini empirik jihatdan o‘rganish jarayonida V.A.Melnikov, L.Ya.Yampolskiylarning «Psixodiagnostik test» metodikasi, V.N.Kunitsinaning ijtimoiy-psixologik kompetentlikni baholashga mo‘ljallangan «Koskom» metodikasi, G.M.Manuylov, V.V.Kozlov M.P.Fetiskinlarning «Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi» testi, N.Xollning «Emotsional intellektni aniqlash» testi va qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini baholashga mo‘ljallangan ijtimoiy-psixologik so‘rovnomalar imkoniyatlaridan unumli foydalanish va shu asosda ularga psixologik xizmat ko‘rsatish uslubini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

5. Biz tomonimizdan qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligining namoyon etilishi va rivojlanishi yuzasidan to‘plangan nazariy va empirik ma‘lumotlar «Yuridik psixologiya», «Eksperimental psixologiya», «Testologiya», «Umumiy psixodiagnostika», «Huquq-tartibot organlariga psixologik xizmat» kabi fanlarda qo‘shimcha manba sifatida foydalanilishi maqsadga muvofiq.

6. Qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligi, uning namoyon etilishi, omillari, mexanizmlari va shakllantirish usullari haqida seminar-treninglar, davra suhbatlarini muntazam ravishda tashkil etib borish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ushbu muammo yuzasidan qo‘llanmalar chop etish va amaliy tavsiyalar berib borish, qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirib, faoliyat samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

11. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.

12. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnosics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.

13. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.

14. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

15. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.

16. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.

17. Olimov L.Ya., Bahronova M.O‘.O‘smirlar ma‘naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

18. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.

19. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnosics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.

20. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.

21. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

22. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.

23. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.

24. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O‘smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiypsixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.

25. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Ekstremal vaziyatlarda koping xulq-atvor va strategiyalar namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
26. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O‘smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
27. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixologicheskie mexanizmi deviantnogo povedeniya. Psixologiya XXI veka. Yaroslavl., 2020. –S. 125-127.
28. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya. Uchrediteli: Buxarskiy gosudarstvenniy universitet, 31-38.
29. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

## BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY PROGNOSTIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

*Nurmatov G‘ayrat Mustofoqulovich,*

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Gumanitar va axborot texnologiyalari kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*Maqolada o‘quv-pedagogik prognostika tushunchasi aniqlandi va qo‘llanish sohasi ko‘rsatildi, pedagogik prognozlashda qo‘llaniladigan asosiy usullar ko‘rib chiqildi, ta‘lim sohasida prognostik jarayon rivojlanishining qisqacha retrospektiv tahlili o‘tkazildi. Bundan tashqari maqolada yangi davlat ta‘lim standartlari g‘oyalarini amalga oshirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik faoliyatini rivojlantirish muammosi ochib berildi. Pedagogik prognozlash muammosining yuqori dolzarbligi va ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, o‘quv amaliyoti ehtiyojlarini prognozlash va kelajakdagi rivojlanish bo‘yicha ko‘rsatmalarga muvofiqlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi va pedagogika fanining yangi, o‘ta dolzarb sohasi sifatida o‘quv-pedagogik prognozlashning mohiyati, mazmuni va funksiyalari ochib berildi.*

***Kalit so‘zlar:** ta‘lim faoliyat, modernizatsiya, prognostika, pedagogik faoliyat, ta‘lim standarti, innovatsion faoliyat, kompetensiya.*

## УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ПРОГНОСТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*В статье определено понятие учебно-педагогического прогнозирования и обозначена область применения, рассмотрены основные методы, используемые в педагогическом прогнозировании, а также проведён краткий ретроспективный анализ развития прогностического процесса в сфере образования. Кроме того, в статье раскрыта проблема развития педагогической деятельности учителя начальных классов в процессе реализации идей новых государственных образовательных стандартов. Высокая актуальность и социально-педагогическая значимость проблемы педагогического прогнозирования послужили основой прогнозирования потребностей образовательной практики и согласования её с ориентирами перспективного развития, а учебно-педагогического как новой, чрезвычайно актуальной области педагогической науки. Раскрыты сущность, содержание и функции прогнозирования.*

***Ключевые слова:** образовательная деятельность, модернизация, прогнозирование, педагогическая деятельность, образовательный стандарт, инновационная активность, компетентность.*

## CONDITIONS FOR DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL PROGNOSTIC COMPETENCES OF PRIMARY EDUCATION TEACHERS

*The article defined the concept of educational and pedagogical prognostication and indicated the field of application, considered the main methods used in pedagogical forecasting, and conducted a brief retrospective analysis of the development of the prognostic process in the field of education. In addition, the article revealed the problem of developing the pedagogical activity of the primary school teacher in the process of implementing the ideas of the new state educational standards. The high relevance and socio-pedagogical importance of the problem of pedagogical forecasting served as a basis for forecasting the needs of educational practice and aligning it with guidelines for future development, and educational-pedagogical as a new, extremely relevant field of pedagogical science. The essence, content and functions of forecasting were revealed.*

***Key words:** educational activity, modernization, prognosis, pedagogical activity, educational standard, innovative activity, competence.*

**Kirish.** Hozirda globallashuv jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgani hech kimga sir emas. Bunday shiddat bilan kirib kelishining bir qancha omillari bor albatta. Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora ortib, inson qalbi va ongini egallash, avvalambor, yoshlarning ma‘naviy olamini izdan chiqarish, ularni o‘z qarindoshlariga qarama-qarshi qo‘yishga qaratilgan, el-yurtiga qarshi qo‘yishga qaratilgan tahdid va xurujlar kuchayib borayotgan bir paytda bugungi kun avlodining siyosiy faolligini oshirish, uning hayotda o‘z o‘rnini egallash, ta‘lim-tarbiya maskanlarida yetuk inson bo‘lib yetishish

masalalari dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Mana shunday tahlikali bir paytda davlatimiz har galdagidek, bugungi kun yoshlarini o‘ylashni kanda qilmadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” deya bildirgan fikrlari davlatimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar asosida o‘z tasdig‘ini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishida, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida oliy ta’lim tizimi sifatini yaxshilash va yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar kabi ustuvor vazifalar nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham “...oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirish zarur, oliy o‘quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta’lim maskanlarini ko‘paytirib, yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim” deb ta’kidlangan. Yuqoridagilarni e’tiborga olib, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga katta e’tibor qaratilishi lozim

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqda. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: “Tarbiyachi – ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo‘lishi kerak”. O‘qituvchi – ta’lim va tarbiya mazmunining boshqaruvchisi, o‘quvchilarning butun ongli faoliyatining tashkilotchisi hisoblanadi. Uning shaxsida pedagogik qadr-qimmatning obyektiv va subyektiv xususiyatlari ifodalanadi. U obyektiv bilim, malaka va ko‘nikmalarning miqdorini o‘zlashtiradi va shaxsiy qobiliyatlari me’yorida ularni shakllantirishni tashkil qiladi. Jamiyat rivojlangani sari shu jamiyat talabiga javob beradigan shaxslarni yetishtirish ehtiyoji ham ortib borgan. Yosh avlodni o‘qituvchilik kasbi yo‘nalishida o‘qitish va tarbiyalash sohasida tajribalarning boyishi, nazariy jihatdan kengayishi va hayotda qo‘llanilishi natijasida pedagogika alohida fan sifatida rivojlandi. Chunki, bugungi kun yoshlarini har tomonlama “... mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida turgan eng dolzarb masaladir. Shu sababli, yoshlar har soniya bilim olishdan, olgan bilimlaridan kelib chiqib tajribasini oshirishdan to‘xtamasligi lozim. Zero, ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda mamlakatimizni taraqqiyot sari yetaklash oliy maqsaddir”

Zamonaviy kadrlar oldiga qo‘yilayotgan eng muhim vazifalardan biri - malakali mutaxassislar sifatida o‘zligini, o‘z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofida mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko‘rsatishdir. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga tayanishlari talab etiladi. Bunday dolzarb muammolarni yechish, avvalo milliy mustaqillik sharoitida ta’lim tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Ta’lim muassasalarida barkamol shaxs tarbiyasining mazmun-mohiyati, maqsad-vazifalari, yo‘nalishlari, ta’lim-tarbiya jarayonlarining uzviy bog‘liqligi, ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash shakllari va xususiyatlarini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish hamda bo‘lajak pedagogik faoliyatda ushbu bilimlardan keng foydalanish, tajribalarni amaliyotda faol tadbir etishni yo‘lga qo‘yishdan iborat. Shu sababli ham ushbu mavzu o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv ta’lim maqsadlari ish dunyosida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga ko‘proq bog‘langanligini anglatadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Ushbu masala O‘zbekiston Respublikasi pedagog va psixologlari (N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘raev, R.X.Jo‘raev, O.Musurmanova, U.Sh.Begimqulov, N.N.Azizxodjaeva, M.G.Davletshin, M.Ochilovlar) tadqiqotlarida turli nuqtayi nazarlardan ko‘rib chiqilgan. Jumladan, N.Azizxodjaeva bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllanishini o‘rgangan. Tadqiqotchilar N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘raevlar pedagogning pedagogik kompetentligi hamda kreativligi asoslariga e’tibor qaratganlar. Shuningdek, Z.K.Kurbaniyazovning tadqiqotlarida aralash ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishga doir didaktik jarayonlar o‘rganilgan.

**Muhokama.** Prognostika qadimgi yunoncha soʻz boʻlib, eng umumiy maʼnoda bashoratlarni shakllantirish sanʼatini anglatadi. “Prognostika” tushunchasi yigirma asrdan koʻproq vaqt oldin, Gippokratning “prognostika” nomli kitobi paydo boʻlganidan keyin keng tarqalgan boʻlib, unda turli kasalliklarning borishi va natijasini aniqlash usullari koʻrib chiqilgan. Bashorat qilish sanʼati oʻsha paytda asosan sezgi, alomatlar, taxminlar va boshqa ilmiy usullardan uzoq boʻlgan.

Bashorat qilish boʻyicha ilmiy intizom sifatida prognozlash hali ham shakllanish bosqichida. Shunga qaramay, B. S. Gershunskiy yozganidek, endi biz oʻz tadqiqot predmeti, nazariy va uslubiy asoslari, kontseptual apparati, usullari va amaliyot bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan haqiqiy ilmiy fan sifatida bashorat qilish haqida gapirishimiz mumkin. Prognozlash predmeti har qanday tabiatdagi obyektlarning rivojlanishini bashorat qilish usullarini va prognozlarni ishlab chiqish jarayonlarining qonuniyatlarini qurishning umumiy printsiplari hisoblanadi. Hozirgi vaqtda prognostikaning kontseptual apparati asoslari ishlab chiqilgan, prognostika boʻyicha atamalar lugʻatlari nashr etilgan. Bashorat qilish usullariga kelsak, ilmiy prognozlash ularning yetarli miqdoriga ega. Prognostika amaliyot bilan uzviy bogʻliq boʻlgan ilmiy fan sifatida zamonaviy jamiyat hayotining turli tomonlarining talablariga javob berishi ham muhimdir. Ilmiy bilimlarning barcha tizimlarini istisnosiz oʻz ichiga olgan prognostikani qoʻllash sohasi fanlarning tasnifiga muvofiq kichik sohalarga boʻlinishi mumkin. Pedagogik prognostika haqida gapirish ham qonuniydir, bu holda biz pedagogika mavzusini tashkil etuvchi bilimlar tizimida prognostikaning nazariy tamoyillarini talqin qilish haqida gapiramiz.

Pedagogik prognozlash doirasi nihoyatda keng. Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- taʼlim sohasi kelajakda qanday ijtimoiy-iqtisodiy rivoj topishini; rivojlanayotgan jamiyatning shaxsga qoʻyadigan yangi talablari, uning taʼlim va tarbiya darajasi;
- butun taʼlim tizimida va uning alohida tarkibiy qismlarida zaruriy mazmuniy, tashkiliy va tarkibiy oʻzgarishlar;
- taʼlimning barcha bosqichlari va darajalarida demografik siljishlar va talabalar populyatsiyasining harakati;
- ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot taʼsirida taʼlim va tarbiya mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga, oʻquvchilarda mehnatga ongli va qiziqish, ilmiy qiziqishni maqsadli shakllantirish jarayonini boshqarishga qoʻyladigan yangi talablar;
- dunyoqarash, zarur ijtimoiy, psixologik va axloqiy fazilatlar;
- oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish, kasb tanlash va kasbga moslashtirish tizimini takomillashtirish yoʻllari va usullari;
- har xil turdagi taʼlim muassasalari bitiruvchilarining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga doimiy oʻzgarib turadigan ijtimoiy talablar munosabati bilan taʼlim faoliyatini optimallashtirish imkoniyatlari.

Prognozlash taʼlimning alohida bosqichlarida oʻqish muddati kabi masalalarni ham qamrab oladi. Umumiy taʼlimni kasb-hunar taʼlimi bilan samarali uygʻunlashtirish imkoniyati; yoshlarga umumiy kasb-hunar taʼlimining pedagogik muammolari; ilmiy axborotlar hajmining ortishi va murakkablashishi sharoitida uzluksiz (qoʻshimcha) taʼlim, oʻz-oʻzini tarbiyalash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish va boshqalar. Bundan tashqari, pedagogik prognozlashning muhim obyekti - fan sifatida pedagogikaning oʻzi, uning tendentsiyalari va rivojlanish istiqbollari demakdir. Yoki boshqacha qilib aytganda – “oʻz-oʻzini bilish” pedagogika tomonidan uning mantiqiy tuzilishi, obyekti, predmeti, asoslari, nazariyalari, qonunlari va qonuniyatlari, qoidalari va tamoyillari, gʻoyalari, usullari, faktlari va kontseptual va terminologik apparati. Shuningdek, shaxsiy oʻzini oʻzi anglash kontseptsiyasining tizimli bashoratli asoslanishi ham alohida eʼtiborga loyiqdir, bu uning barcha darajalari va bosqichlarida pedagogik faoliyatning eng yuqori ideallarini, oʻquvchilarni oʻqitish, tarbiyalash va rivojlantirishning ierarxik eng yuqori maqsadini belgilab beradi. Har bir talabning individual qobiliyatlari va qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish jarayonida bashorat qilish usullaridan foydalanish, kasbga yoʻnaltirishning faol usullaridan foydalanish va kelajakda talabalarning oʻquv va mehnat faoliyatining individual traektoriyasini aniqlash, shuningdek, Shaxsiylashtirilgan taʼlim tizimi oʻzining barcha boʻgʻinlarining birligida - oʻquvchining shaxsiy ehtiyojlariga mos keladigan pedagogik faoliyatning maqsadlari, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllarini aniqlab beradi.

Taʼlim muassasalarida taʼlim - tarbiyaning samarali boʻlishi koʻp jihatdan oʻqituvchining har tomonlama namunali boʻlishi, pedagogik kompetentligiga bogʻliq. Boʻlajak oʻqituvchi faoliyatida pedagogik kompetentlikni takomillashtirish maqsadida talabalar oʻrtasida “Eng yaxshi namunali dars”, “Eng yaxshi boʻlajak ijodkor oʻqituvchi” koʻrik-tanlovlarining muntazam oʻtkazilishi maqsadga muvofiqdir. Pedagogik amaliyotlar jarayonida fanlar boʻyicha barcha mavzularni oʻrganishda interfaol metodlardan samarali foydalanishga eʼtibor qaratish lozim. Shu maqsadda boʻlajak oʻqituvchi tomonidan taʼlim jarayonida ulardan maqsadli foydalanish malakalarini takomillashtirish muhim. Boʻlajak oʻqituvchilarni turli shakldagi (konferensiya, ilmiy seminar, uchrashuv, davra suhbat, trening) anjumanlarda qatnashishlarini izchil tashkil

etish orqali respublika pedagoglari o‘rtasida interfaol metodlarni samarali qo‘llash borasidagi tajribalarni ommalashtirish maqsadga muvofiq. Bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatida pedagogik kompetentlikni shakllantirish muammosining hal etilishi mutaxassislarni tayyorlash ishiga pedagogik va kasbiy fanlarning ilg‘or yutuqlarini qo‘llash, xususan, kompyuter texnologiyalari, texnologik yondashuvlar, ta‘lim amaliyotiga zamonaviy o‘qitish, milliy tarbiya texnologiyalarini joriy etish, ta‘lim samaradorligini oshishiga yordam beradigan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish lozim. Har bir pedagog yodda saqlashi lozim: o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi lozim. Buning uchun o‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi, buyuk mutafakkirlarning qoldirgan bebaho ma‘rifiy, ma‘naviy, axloqiy boyligidan to‘la – to‘kis foydalanishi hamda amal qilishi lozim.


**Natijalar.** Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarini kuzatish, ularning pedagogik amaliyot davrida kompetentlikka xos vazifalarini bajarishlarini, dars jarayonlari natijalarini tahlil qilish, tajriba davomida o‘rganilayotgan obyekt holatiga kirib borish, shu vaziyatlarning shaxsiy kechinmalar tahlili singari yangi pedagogik texnologiya, turli o‘quv fanlariga tegishli ma‘lumotlarga jalb etish bilan bilimlarni rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi haqida xulosa chiqarish imkonini berdi. Bo‘lajak o‘qituvchilar kompetentlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida an‘anaviy metodlar bilan yangi pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan holda o‘z imkoniyatlari darajasida ular bilan quyidagi yo‘nalishlarda tadbirlar o‘tkazildi: “Kompetensiya nima?”, “Zamonaviy o‘qituvchining kompetentlik modelini tashkil etuvchi elementlar”, “Ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish vositalari”, “Zamonaviy sharoitda ta‘limni tashkil etish”, “Pedagogik kompetensiyaning shakllanish bosqichlari”. Bu jarayonda har bir talaba faollik ko‘rsatdi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida amaliyot davomida olib borilgan ishlar natijasida talabalar an‘anaviy metodlar bilan yangi pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan holda o‘z imkoniyatlari darajasida tashkil etdilar. Ular har bir mashg‘ulotni aniq maqsad asosida tashkil etish, o‘qitish samaradorligiga erishish uchun uning eng qulay yo‘llarini tanlagan holda erishdilar. Bunda “Kichik guruhlarda ishlash”, “Bahs- 74 munozara”, “Rolli o‘yinlar”, “Muammoli vaziyatlarni hosil qilish”, “Aqliy hujum”, “6x6x6”, “Klaster metodi”, Guruxli bahs”, “Blits-so‘rov”, “Sinkveyn” kabi metodlardan keng foydalandilar. Kuzatishlarning ko‘rsatishicha, tajriba guruhida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish sohasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar bo‘ldi. Tajriba-sinov jarayonida respondentlarning pedagogik kompetentlikka oid bilimlari aniqlanib, tahlil qilindi. Mazkur tarbiyalanganlik shaklini takomillashtirishning pedagogik vositalari belgilandi hamda amalda sinab ko‘rildi.

Olib borilgan tajribalardan so‘ng natijalar tahlil qilindi. Respondentlar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar quyidagi mezonlar yordamida aniqlanib, yuqori, o‘rta va quyi darajalar sifatida guruhlandi. Ya‘ni: Yuqori daraja – «5» O‘rta daraja – «4» Quyi daraja – «3» Yuqori daraja – zamonaviy o‘qituvchining pedagogik kompetentlikka oid yangiliklarni teran anglaydilar, nazariy zamonaviy bilimlarni puxta o‘zlashtirganlar, pedagogik kompetentlikni mustaqil ravishda o‘zlashtirishga rag‘bat bildirib, bu yo‘lda amaliy faoliyat olib boradilar, shuningdek, mavjud pedagogik kompetentlikni amaliyotda qo‘llay oladilar. O‘rta daraja – zamonaviy o‘qituvchining pedagogik kompetentlikka oid yangiliklarni teran anglaydilar, nazariy zamonaviy bilimlarni puxta o‘zlashtirganlar, ammo bu yo‘lda izchil ravishda amaliy faoliyat olib bormaydilar, shuningdek, amaliyotda bu bilimlardan samarali foydalana olmaydilar. Quyi daraja – zamonaviy o‘qituvchining pedagogik kompetentlikka oid yangiliklarni qisman anglaydilar, pedagogik kompetentlikka oid bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyoj va qiziqishga ega emaslar, pedagogik kompetentlikka oid bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirishga rag‘bat bildirmaydilar hamda ulardan amaliyotda qo‘llay olmaydilar.

Tajriba-sinov xulosalari sifat darajalariga ko‘ra umumlashtirildi. Ushbu umumlashtirishning ko‘rsatishicha, talabalarning bilim darajasidagi o‘zgarishlar quyidagicha bo‘ldi: x Bo‘lajak o‘qituvchilarda kompetentlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida rejalashtirish, shunga doir asosiy tushuncha va g‘oyalarni aniqlashga; x Bo‘lajak o‘qituvchilarning mazkur tushuncha va tamoyillarni qay darajada o‘zlashtirib olganligi natijasini aniqlashga yordam berdi. Tajriba-sinov natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishlari oshdi. Chunki ular bu faoliyat turlarida o‘z ijtimoiy, fuqarolik, individual, mustaqil va ijodiy-qayta yaratuvchilik ehtiyojlarining qondirilishini kashf etishdi.

Shunday qilib, tadqiqot muammosi doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining natijasi respondent-talabalar faoliyatining kompetentlikka oid bilimlar bilan boyitilganligi va bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish borasidagi fikrning haqqoniyligini tasdiqlaydi.





**1-rasm. Tajriba so'ngida bo'lajak o'qituvchilarda kompetentlik sifatlarini rivojlantirish bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish darajasi diagrammada quyidagicha ifodalanadi**

Buni biz dastlab 86 talabalarining o'qituvchilik kasbiga bo'lgan munosabatlarining o'zgarganligida, ularning darslarda ko'tarilgan muammolarni mustaqil hal etishda, turli vaziyatlarda to'g'ri fikr yurita olish, tahlil etish, muhokama yuritish, o'z fikrini ma'lum tizimda ifodalay olish ko'nikmalarini hosil qilishga o'rganganligida ko'rdik.

**Xulosa.** Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyasini tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. “Kompetentsiya” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish ma'nosini anglatga, pedagogik kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi ma'nosini bildiradi.

2. Kompetentlik mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentlik sifatlarini shakllantirish muammosining hal etilishi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash ishiga pedagogik va kasbiy fanlarning ilg'or yutuqlarini qo'llash, xususan, kompyuter texnologiyalari, texnologik yondashuvlar, ta'lim amaliyotiga zamonaviy o'qitish, milliy tarbiya texnologiyalarini joriy etish, samaradorligini oshishiga yordam beradigan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish orqali erishilishi aniqlandi.

4. Interfaol metodlar zamonaviy ta'limda talabalarining o'quv-bilish faolligini oshirish, ularda ta'lim olishga bo'lgan rag'batni kuchaytirish imkoniyatiga ega.

5. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik amaliyotlar jarayonida fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan samarali foydalana olishlari maqsadga muvofiqdir. Ular yordamida o'zaro juftlikda, kichik va katta jamoalarda ta'lim olish esa talabalar tomonidan o'quv masalalarining har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

6. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi: dars berish mahorati, tashkilotchilik, ijodiy yondashuv, o'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash va yangi bilimlar olishga intilish, 88 yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallanganlik, internetning global tarmog'i bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarining shakllanganligi, o'zida notiqlik san'atini rivojlantirishi, pedagogik amaliyot jarayonida ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati, vaziyatni baholash va muammolarni echish ko'nikmasiga ega bo'lish va nihoyat, o'z ustida tinimsiz ishlashi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagi PF-4456-sonli “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2018, 29 271-272.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori., 2018, 6 iyun, 115.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrda 365- sonli “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Ma’naviyat. Toshkent. 2008 yil, 63 bet.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zR Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O‘zR Oliy majlisi konunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi. -T.: 19-tom. 2011 yil, -35 b.
10. Karimov I.A. Barkamol avlod–O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997, 10-bet.
11. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. B.14.
12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017. B.189.
13. Avliyakov N.X. «Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari» T. 2001 yil.
14. Agzamov A., Yusupov A. “O‘quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish”. — Toshkent, 2004.
15. Golish L.V. «Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish» Ekspress qo‘llanma T. TESIS, 2001 yil. -59 bet.
16. Zunnunov A. «Pedagogika tarixi» Darslik — T. «O‘qituvchi» nashriyoti 2009y.
17. Ishmuxamedov R. J. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”. — Toshkent, 2006.
18. Iskandarov K. A. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirishga munosabat: izlanishlar, muammolar, yechimlar// Molodoy ucheniy. 2016. v29.3. S.13-17. URL <https://moluch.ru/archive/133/37854/>
19. Yo‘ldashev J.G., Usmonov S.A. “Pedagogik texnologiya asoslari”. 92 Toshkent. — “O‘qituvchi”, 2004. 23.Kuznetsova N.P. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi DTSlari talabalarini amalga oshirish sharti sifatida. M. 2003.
20. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi /Pedagogika oliy o‘quv yurtlari va dorilfunun talabarlari uchun darslik. – T.: Milliy kutubxona nashriyoti, 2005. – 320 b.

**BO’LAJAK MUTAXASSISLARNI KOUCHING KOMPETENSIYASINI  
SHAKLLANTIRISHDAGI ASOSIY KOMPONENTLAR**

*Nurumbekova Yarkinay Anarmatovna,  
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)  
yorkinaynurum@gmail.ru.com*

*Ushbu maqolada bo’lajak mutaxassislarni kouching kompetensiyasini shakllantirishdagi asosiy komponentlar yoritilgan. Unda, kouching kompetensiyasining bilim komponenti kouching bilan bog’liq nazariyalar, modellar va amaliyotlarni mustahkam tushunish masalalariga alohida urg’u berilgan. Shuningdek o’rganish va motivatsiya bilan bog’liq psixologik nazariyalar, turli xil kouching modellari va turli xil o’quv uslublari va ularning kouching ta’siri haqidagi bilimlar tahlili keltirilgan Bundan tashqari, kouch-murabbiylar ular faoliyat ko’rsatayotgan kontekstni yaxshi tushunishlari, tashkilot, ta’lim muassasasi, sanoat va kouching amaliyotiga ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan tegishli qonunlar yoki yo’riqnomalar haqidagi bilimlar alohida o’rganilgan.*

**Kalit so’zlar:** *mutaxassis, innovatsiya, kouch-murabbiylik, kompetensiya, mexanizm, psixologiya, nazariya va amaliyot, samaradorlik, mijoz, tahlil qilish, muammo, ichki motivatsiya, xatti-harakat, "xaridorlar", "shikoyatchilar" va "tashrif buyuruvchilar", konstruktiv, ong introspektsiya, Vedik kouching.*

**ОСНОВНЫЕ КОМПОНЕНТЫ В ФОРМИРОВАНИИ КОУЧИНГОВОЙ  
КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ**

*В данной статье освещены важные аспекты механизма формирования коучинговой компетентности будущих специалистов. В ней компонент знаний коучинговой компетентности подчёркивает чёткое понимание теорий, моделей и практик, связанных с коучингом. В ней также представлен анализ знаний психологических теорий, связанных с обучением и мотивацией, различных моделей коучинга и разных стилей обучения, а также их влияния на коучинг. Доступ к знаниям о возможных соответствующих законах или руководящих принципах рассматривается отдельно.*

**Ключевые слова:** *эксперт, инновация, коучинг, компетентность, механизм, психология, теория и практика, эффективность, заказчик, анализ, проблема, внутренняя мотивация, поведение, «покупатели», «жалобники» и «посетители», конструктивный, интроспекция сознания, ведический коучинг.*

**THE MAIN COMPONENTS IN THE FORMATION OF COACHING COMPETENCE OF  
FUTURE SPECIALISTS**

*This article highlights the important aspects of the mechanism of coaching competence formation of future specialists. In it, the knowledge component of coaching competency emphasizes a solid understanding of coaching-related theories, models, and practices. It also provides an analysis of the knowledge of psychological theories related to learning and motivation, different coaching models and different learning styles and their impact on coaching. Access to knowledge of possible relevant laws or guidelines is explored separately.*

**Keywords:** *expert, innovation, coaching, competence, mechanism, psychology, theory and practice, efficiency, customer, analysis, problem, intrinsic motivation, behavior, "buyers", "complainers" and "visitors", constructive, mind introspection, vedic coaching.*

**Kirish.** Oxirgi besh yil davomida adabiyotlarda asosiy e’tibor kouching mashg’ulotlari va pedagogik diagnostikani standart o’quv dasturlariga kiritish muhimligiga qaratildi. Kouching ko’nikmalari va o’qitish kompetensiyalari o’rtasidagi mustahkam bog’liqlik kouching faoliyatini baholash uchun moslashtirilgan moslashtirilgan so’rovnomasi kabi vositalar yordamida aniqlangan.

Dunyoning rivojlangan va rivojlanmagan mamlakatlarida kouching, innovatsion faoliyatni o’rganish va o’tkazishda asosiy amallardan biri sifatida yoritilib, mutaxassislarni innovatsion yondashuvda qatnashtirishni ta’minlaydi.


Jahonda innovatsion yondashuv zamonaviy jamiyatning asosiy taqdiriga belgi beruvchi tarafi bo’lib, uni boshqarishda yoki bo’yicha yondashuvda yangi mahsulotlarni, uslublarni va texnologiyalarni ishlab chiqarish va qo’llashga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ushbu yondashuvda ishtiroq etish imkoniyatiga ega bo’lgan

mutaxassislar hamda qarorlarni ijodiy holda ishlab chiqaradigan, yondashuvni boshqara oladigan va innovatsion protsesslarda ishtirokida amaliy tadbirlarni o‘tkaza oladigan kishilarni tayyorlash maxsus himoya bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Mutaxassislarda kouching kompetensiyasini mexanizmlarini shakllantirish S.K.Abdulina, G.V.Abramyan, V.A.Adolf, V.I.Andreev, O.M.Atlasova, M.V.Belov, V.P.Bespalko, A.A.Derkach, V.G.Zazikin, E.F.Zeer, N.V.Kuzmina, E.A.Klimova, O.N.Lazareva, O.V.Muromseva, A.V.Nekrasov, A.A.Rean, G.K.Selevko, V.V.Serikov, V.D.Shadrikovlar tomonidan ham tadqiqot etilgan. Chet ellik olimlar E.Baker, P.Chambers, P.Fongkanta, H.Gandhi, N.Hauck, X.Karamanos, S.E.Lee, S.MsSray, A.J.Medina, V.Montoro, F.Osmin, P.Peerthy, M.K.Trehearn, T.L.Vega, R.T. Williams, Ch.R.Wright, K.Yoonlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamiga qaramay, innovatsion texnologiyalar asosida bo‘lajak mutaxassislarda kouching kompetensiyasini shakllantirish mexanizmlarini isloh qilish va ish samaradorligiga tatbiq etish, shakllanish manbalarini aniqlashga, samaradorligini baholashga asoslangan tizimli yondashuvga asoslangan ilmiy tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish talab etiladi [6].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni, va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tadqiqot metodologik asos bo‘ladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Kouching kompetensiyasi mazmunini tushunish bo‘lajak mutaxassislar uchun samarali ta’lim muhitini loyihalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu muvaffaqiyatli kouching uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va munosabatlarni chuqur tushunish va ularni rivojlantirish uchun tegishli strategiyalarni aniqlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu elementlar birlashtirilganda, kouching malakasini shakllantirishga samarali va innovatsion yondashuvning asosini tashkil qiladi.



**1-rasm. Bo‘lajak mutaxassislarni kouching kompetensiyasini shakllantirish mexanizmining muhim jihatlari**

Kouching kompetensiyasining bilim komponenti kouching bilan bog‘liq nazariyalar, modellar va amaliyotlarni mustahkam tushunishga ishora qiladi. Bunga o‘rganish va motivatsiya bilan bog‘liq psixologik nazariyalar, turli xil kouching modellari (Devis va Jonson, 2016) va turli xil o‘quv uslublari va ularning kouching ta‘siri haqidagi bilimlar (Teylor, 2020) kiradi. Ushbu sohalarni har tomonlama tushunish kouch-murabbiylarga o‘zlari kouching qilayotgan shaxslarning ehtiyojlariga mos ravishda o‘z strategiyalarini moslashtirishga imkon beradi va shu bilan ularning kouching samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, kouch-murabbiylar ular faoliyat ko‘rsatayotgan kontekstni yaxshi tushinishlari ham muhimdir. Bunga

tashkilot, ta’lim muassasasi, sanoat va kouching amaliyotiga ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan tegishli qonunlar yoki yo’riqnomalar haqidagi bilimlar kiradi (Robinson va Tompson, 2017) [2].

Kouching kompetensiyasining malaka komponenti kouch - murabbiylar o’z bilimlarini real hayot sharoitlarida samarali qo’llash uchun zarur bo’lgan qobiliyatlarni o’z ichiga oladi. Bunga muloqot qobiliyatlari (Edwards va Kollinz, 2017), savol berish qobiliyatlari (Harrison, 2018), faol tinglash qobiliyatlari (Klark va Tompson, 2019), munosabatlarni boshqarish qobiliyatlari (Mur va Jonson, 2017) va qulay o’rganishni yaratish qobiliyati kiradi. atrof-muhit (Tompson va Roberts, 2016). Bundan tashqari, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish kabi amaliy ko’nikmalar ham juda muhim, chunki ular murabbiylarga dinamik va murakkab vaziyatlarga samarali javob berishga yordam beradi (Anderson va Edwards, 2015) [5].

Kouching kompetensiyasining munosabat komponenti kouch-murabbiyning xatti-harakatlarini asoslaydigan qadriyatlar, e’tiqodlar va moyilliklarni o’z ichiga oladi. Bunga empatiya, hurmat va sabr-toqat munosabati kiradi. Bundan tashqari, ochiq fikrlash va Uzluksiz o’rganishga bo’lgan munosabat o’zgaruvchan kontekstlarda o’sish tafakkurini va moslashuvchanlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kouching kompetensiyasini shakllantirishning asosiy muammosi barcha uch komponent - bilim, ko’nikma va munosabatlarni qamrab oluvchi muvozanatli va integrativ yondashuvni ta’minlashdir. Ko’pincha bilimlarni uzatishga qaratilgan o’qitishning an’anaviy usullari samarali kouching uchun zarur bo’lgan ko’nikma va munosabatlar doirasini rivojlantirish uchun etarli bo’lmasligi mumkin. Shu munosabat bilan, tajribaviy o’rganish, talabaga yo’naltirilgan o’qitish strategiyalari va Uzluksiz o’rganishni o’z ichiga olgan innovatsion yondashuv dolzarb bo’lib qoladi[5].

Tajribali o’rganish, nomidan ko’rinib turibdiki, tajribadan o’rganishni o’z ichiga oladi. Bu shunchaki bilimlarni egallashdan tashqariga chiqadi va talabalarga o’z bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo’llash imkonini beradi va shu bilan amaliy ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi [1].

Talabaga yo’naltirilgan o’qitish strategiyalari individual talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va o’rganish uslublarini ta’kidlaydi. Ular o’rganishda faol ishtirok etish va jalb qilishni kuchaytiradi, shu bilan bilimlarni chuqurlashtirish va ko’nikmalarni rivojlantirishni kuchaytiradi. Ta’lim oluvchiga yo’naltirilgan strategiyalarga misol tariqasida talabalarga real hayotiy muammolarni hal qilish topshirilgan muammoli ta’lim va turli ko’nikmalarni qo’llashni talab qiluvchi murakkab loyihalar ustida ishlaydigan loyiha asosidagi ta’lim berladi.

Nihoyat, uzluksiz o’rganish madaniyatini targ’ib qilish kouching kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Kouching sohasi dinamik va doimiy rivojlanib boruvchi bo’lib, murabbiylardan doimiy ravishda o’z bilimlarini yangilash va malakalarini oshirishni talab qiladi. Uzluksiz o’rganish madaniyati o’z-o’zini yo’naltirilgan o’rganishni rag’batlantiradi va samarali kouching uchun muhim bo’lgan qiziquvchanlik va ochiq fikrlashni rivojlantiradi. O’rnatilgan psixologik tushunchalar foydasiga psevdopsixologik g’oyalari va nazariyalarni rad etishga ham e’tibor qaratish lozim. O’tmishda kouch-murabbiylik nazariyotchilari har doim ham psixologik asoslarga tayanmasdan, rivojlanish va hayotni o’zgartirishning yangi nazariyalarini yaratishga harakat qilishdi. Biroq, bu yondashuv ko’pincha yuzaki va etarli darajada asoslanmagan modellarni yaratishga olib keldi[4].

Bo’lajak mutaxassislarining innovatsion yondashuv asosida kouch-murabbiylik kompetensiyasini shakllantirish mexanizmini muvaffaqiyatli takomillashtirish uchun zamonaviy psixologik nazariya va tadqiqotlarni kouch-murabbiylik amaliyotiga faol integratsiya qilish zarur. Bu ushbu sohani rivojlantirish uchun yanada barqaror va mustahkam poydevor yaratishga yordam beradi.

Bo’lajak mutaxassislarining kouch-murabbiylik kompetensiyasini innovatsion asosda shakllantirish mexanizmini takomillashtirish istagi doirasida kouch-murabbiylik samaradorligini cheklashi mumkin bo’lgan ayrim amaliyotlarni tanqidiy tahlil qilish zarurati aniqlandi.

Ko’pincha mijozning holatlarini tahlil qilishni soddalashtirish bilan bog’liq muammo mavjud. Masalan, mijozning ichki motivatsion mojarosi odatdagi xatti-harakat yoki shaxsiy xususiyat sifatida noto’g’ri talqin qilinishi mumkin. Mijozlarni "meta-dasturlar" yoki "xaridorlar", "shikoyatchilar" va "tashrif buyuruvchilar" ga tasniflashga asoslangan yondashuv cheklangan tushunish va yomon muloqotga olib kelishi mumkin. Mijozning motivatsiyasini chuqur tahlil qilishga va uning individual holatini sinchkovlik bilan tushunishga intilish yanada konstruktiv bo’ladi[5].

Institutsional baholash tizimini tahlil qilgach, biz baholash mezonlari va optimal natijalarga erishishda xodimlarni qo’llab-quvvatlashning roli kabi ba’zi asosiy jihatlarni aniqladik. Ma’lum bo’lishicha, boshqaruv tajribasi va xodimlarning innovatsion samaradorlik chora-tadbirlarini (IST) qo’llashdagi mahoratini samarali baholash uchun yaxlit ko’rinish zarur edi. Mavjud operatsiyalarni sinchiklab o’rganishdan tortib, xodimlarning ish haqi va ko’tarilishi bo’yicha futuristik tanlovlarni amalga oshirishgacha bo’lgan muhim ma’muriy vazifalar IST ma’lumotlariga juda bog’liq.

Oliy ta’lim muassasalari (OTM) o’z mas’uliyat doirasini tobora oshirishga intilayotgani sababli, diqqat markazida doimo xodimlarning ish faoliyatini baholashga qaratiladi. Mutaxassislar o’zlarining kasbiy vakolatlarining asosiy segmenti sifatida faoliyatni baholashning ahamiyatini tushunishlari va baholashlari juda muhimdir. Shunday qilib, institutsional rahbarlar motivatsion kompensatsiya va ish faoliyatini tekshirish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun oltin standartlarni yaxshi bilishlari kerak. Aslini olganda, ushbu baholash tizimlarini miqdoriy baholash, baholash, mukofotlash, saralash va rag’batlantirish uchun rahbariyatdan doimiy harakat talab etiladi[4].

Kouching kompetensiyalariga quyidagilar kiradi: insonga samimiy qiziqish, hissiy kompetensiya, shaxsni, uning ahvolidan qat’i nazar, qabul qilish, empatiya boshqa odamning his-tuyg’ularini baham ko’rish qobiliyati sifatida.

Hayotimizda har birimiz tez-tez boshqalarga maslahat berishga to’g’ri keladi - aslida kouch-murabbiy sifatida harakat qiling. Shunday ekan, kouchingning mohiyatini va uning asosiy tamoyillarini tushunish muhimdir. Chunki har qanday maslahat foydasiz bo’lishi mumkin. Biror kishi nasihat eshitsu, yo rozi bo’ladi, lekin qo’llamaydi yoki uni to’g’ridan-to’g’ri rad etadi. Bu erda murabbiy to’g’ri savollarni berish va unga o’z-o’zidan javob topishga yordam berish orqali odamga chuqurroq qarashga yordam berishi kerak, bu esa introspektsiyani rag’batlantiradi.

Shaxsga kouch-murabbiyning yordami muhim bo’ladi - bu tashqi omillarning aralashuvini engishga yordam beradi. Ushbu aralashuvdan xalos bo’lish, ong tiniq va introspektsiyaga qodir bo’lganda, xotirjamlik holatiga olib keladi. Introspektsiya - bu o’zingizga tashqi tomondan qarash va savollarga javob topish imkoniyatidir.

Shuni ta’kidlash kerakki, Vedik kouching maqsadlarga va umumiy rivojlanishga individual yondashuvni birlashtiradigan noyob vositadir, shuningdek, talabalarga o’zlarida aniqlik topishga va savollarga javob topishga yordam beradi.

Biznesda, sudlarda, advokatlarda, ta’lim muassasalarida, o’qituvchi va talabalar – barchasi savol-javob berishadi. Siyosatda, siyosatchilar va jurnalistlar orasida javob topiladigan savollar bor [2].

Hayotda inqirozlarga duch kelganimizda, ko’pincha biz keng qamrovli echimlarni izlamaymiz, lekin vaziyatdan chiqish yo’lini qidiramiz, yaxshisi tezda. Hamma narsani bir zumda hal qilish istagida biz muhim masalalarni o’tkazib yuboramiz. Ko’pincha, zamonaviy hayotning shiddatli sur’ati ta’siri ostida biz eng muhim narsalarni keyinga qoldirib, chuqur muammolarni unutimiz. Bizga tatbiq etilayotgan shafqatsiz "tamahsot ritmi" bizni shoshilishga, sotib olishga, harakat qilishga majbur qiladi. Va bu tajovuzkor muhitda biz asosiy masalalarni e’tiborsiz qoldira boshlay miz va buning o’rniga doimiy ravishda kichik kundalik muammolarni hal qilamiz.

Kouching san’ati paradigma o’zgarishini boshdan kechirmoqda. Tez texnologik taraqqiyot va innovatsion ishlab chiqarish usullari bilan ajralib turadigan davrga o’tayotganimizda, nafaqat tegishli kouching malakasiga ega bo’lgan mutaxassislarni tayyorlash, balki ularning real stsenariylarda samaradorligini kuzatish va ta’minlash zarurati tug’iladi. Ushbu monitoring jarayoni kouching usullarining samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega bo’lib, murabbiylar nafaqat nazariy bilimga ega bo’lishlarini, balki o’z bilimlarini qo’llashda ham malakali bo’lishlarini ta’minlaydi. Innovatsion ishlab chiqarish deganda ilg’or texnologiyalar, texnika va metodologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga kiritish tushuniladi. Bunday sharoitni hisobga olsak, kouching kompetensiyasi faqat an’anaviy o’qitish yoki kouching usullarinigina emas, balki o’z ichiga quyidagilarni ham oladi:

- Texnik malaka: Eng yangi texnologiyalarning nuanslarini tushunish va ularni kouching jarayoniga integratsiya qilish.

- Moslashuvchanlik: innovatsion ishlab chiqarish jarayonlari va metodologiyalaridagi o’zgarishlarga tez moslashish.

- Strategik fikrlash: ishlab chiqarish sohasidagi tendentsiyalarni, qiyinchiliklarni va imkoniyatlarni oldindan ko’ra bilish va ularni kouchingka kiritish qobiliyati.

- Monitoring mazmuni: bunday dinamik muhitda kouching malakasini monitoring qilish har tomonlama va ko’p qirrali yondashuvni talab qiladi.

- Ushbu monitoring jarayonining mazmuni quyidagilarni o’z ichiga olishi mumkin:

- Bilimlarni baholash: bu nafaqat murabbiy nimani bilishi, balki uni qanday qo’llashi haqida. Simulyatsiyalar, rolli o’yinlar yoki hatto real vaqtda muammoni hal qilish stsenariylari kabi vositalar murabbiyning innovatsion ishlab chiqarish usullarini tushunishini baholashi mumkin.

- Ko’nikmalarni qo’llash: seminarlar, amaliy mashg’ulotlar va amaliy ko’rgazmalar murabbiyning haqiqiy innovatsion ishlab chiqarish sharoitida o’z mahoratini qanchalik mohirlik bilan qo’llashini kuzatishda samarali bo’lishi mumkin.

- Teskari aloqa integratsiyasi: murabbiy fikr-mulohazalarga qanchalik javob beradi? Monitoring tizimlarida takomillashtirish sohasini baholaydigan va ta’kidlaydigan mustahkam aloqa zanjirlari bo’lishi kerak.
- Texnologik tanishlik: innovatsion ishlab chiqarish texnologiyaga asoslanganligini hisobga olsak, murabbiyning ushbu texnologiyalardan ta’lim maqsadlarida foydalanish bo’yicha malakasini kuzatish juda muhimdir. Bunga namoyishlar uchun kengaytirilgan haqiqat yoki shaxsiy kouching uchun sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish kiradi.
- Uzluksiz o’rganish: Innovatsion ishlab chiqarish dunyosi doimo rivojlanib bormoqda. Monitoring mazmunining muhim qismi murabbiyning doimiy o’rganishga bo’lgan bag’ishlanishiga, ularning eng so’nggi tendentsiyalardan xabardor bo’lishini ta’minlashga qaratilgan bo’lishi kerak.
- Innovatsion ishlab chiqarish sohasida kouching malakasini monitoring qilish haqida gap ketganda, raqamli platformalarning ahamiyatini ta’kidlab bo’lmaydi. Ushbu platformalar quyidagilarni ta’minlaydi:
  - Haqiqiy vaqtda monitoring: kouching mashg’ulotlari, o’zaro ta’sirlar va namoyishlarni ular sodir bo’lganda kuzatib boring.
  - Ma’lumotlarga asoslangan tushunchalar: ma’lumotlar namunalarini tahlil qilish orqali murabbiy qo’shimcha trening yoki yordamga muhtoj bo’lishi mumkin bo’lgan sohalarni bashorat qilish mumkin.
  - Hamkorlikdagi fikr-mulohazalar: raqamli platformalar talabalar, tengdoshlar va murabbiylar o’rtasidagi uzluksiz aloqalarni osonlashtiradi, boy qayta aloqa ekotizimini yaratadi.
  - Monitoring zarurati aniq bo’lsa-da, jarayon qiyinchiliklarga to’la:
  - An’anani innovatsiya bilan muvozanatlash: vaqt sinovidan o’tgan kouching usullari va innovatsion ishlab chiqarish talablari o’rtasidagi muvozanatni qanday topish mumkin?
  - Masshtablilik: trenerlar soni va innovatsion ishlab chiqarish texnikasining murakkabligi oshgani sayin, monitoring jarayonlarini masshtablash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.
  - Sub’ektivlik: kouching ma’lum darajada sub’ektivdir. Barcha murabbiylarni adolatli baholaydigan ob’ektiv monitoring parametrlarini yaratish qiyin bo’lishi mumkin[5].

**Xulosa va takliflar (Conclusion&Recommendations).** Bo’lajak mutaxassislarda, ayniqsa innovatsion ishlab chiqarish sharoitida kouching kompetensiyasini monitoring qilish mazmuni keng. Bu qattiq ko’nikmalarni (masalan, texnik mahorat) va yumshoq ko’nikmalarni (moslashuvchanlik va strategik bashorat kabi) baholashning aralashmasi. Raqamli vositalarni o’z ichiga olish, muntazam fikr-mulohazalarni ta’minlash va Uzluksiz o’rganishga urg’u berish bu jarayonning asosidir. Qiyinchiliklar ko’p bo’lsa-da, ularni engib bo’lmaydi. Tizimli yondashuv va mukammallik bilan monitoring jarayoni nafaqat tartibga soluvchi talab, balki innovatsion ishlab chiqarish davrida o’sish, takomillashtirish va tengsiz kouching standartlariga erishish vositasiga aylanadi. Innovatsion yondashuv asosida bo’lajak mutaxassislarning murabbiylik kompetensiyasini rivojlantirish sohasida mavjud ma’lumotlar murabbiylikning turli xil tajriba sohasini kognitiv, hissiy, xulq-atvor qamrab olgan turli xil ta’sirlarni tasdiqlaydi. Ushbu ta’sirlarni turli kontseptual asoslar bilan izohlash mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. G’oziyev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
2. Воспитай своего лидера, как находить, развивать и удерживать в организации талантливых руководителей. \ Пер. с англ.-М.: Издательский дом “Вильямс”, 2002.- 416 с.
3. Nurumbekova, Y. (2021). Training of future teachers to professional educative activity on the basement. Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 66-74.
4. Ya. Nurumbekova. “Shaxs psixologiyasi va kouching” o’quv qo’llanma – Guliston: GulDU, 2022. - 285 b.
5. Nurumbekova Ya. “Kouch tayyorlash va kouching o’tkazish istiqbollari” monografiya. GulDU. 2023y-145b.



## SUD-PSIXOLOG EKSPERTI KOMPETENTLIGINING O‘ZIGA XOSLIGI

*Olimov Laziz Yarashovich,*

*Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrası dotsenti,  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo‘lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog‘liqligi ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.*

## ХАРАКТЕРИСТИКА КОМПЕТЕНТНОСТИ СУДЕБНОГО ПСИХОЛОГА-ЭКСПЕРТА

*В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование ее конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компоненты судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.*

**Ключевые слова:** *судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.*

## CHARACTERISTICS OF COMPETENCE OF FORENSIC PSYCHOLOGIST EXPERT

*This article discusses the study of the manifestation and development of factors of socio-psychological competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.*

**Key words:** *forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.*

**Kirish.** Respublikamizda so‘nggi yillarda sudlov va huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud psixolog ekspertlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaralib kelinmoqda.

“Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko‘rsatib o‘tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo‘gan xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta‘sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Sud doimiy ham real voqelikni adekvat aks ettiruvchi u yoki bu shaxslar tomonidan yetkaziladigan ish uchun muhim bo‘lgan faktlar haqida ma‘lumotlarga to‘liq ega bo‘la olmaydi. Bu esa turli sabablar va odatda sub‘ektiv sabablar bilan izohlanadi (masalan, qabul qilish sharoitlarning xususiyatlari va sub‘ektning shaxsiy fazilatlarini, umuman xulq-atvor vaziyatining psixologik spesifikasi bilan). Ushbu sabablarni aniqlash ob‘ektiv haqiqatga erishish uchun o‘ta muhimdir. Bundan tashqari, bir qator psixologik omillar mavjud bo‘lib, ularni



bilish sudning ish ko‘rish predmetiga to‘g‘ri huquqiy baho berish uchun zarurdir. Va bunday holatlarni aniqlash uchun psixologiya sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Odatda bunday bilimlarga psixologik ekspertizani o‘tkazadigan mutaxassislar ega bo‘ladilar.

Agar psixik sog‘lom inson avval kelishib, keyinchalik sudda o‘z harakatlarini boshqara olmaganligini (ongli tarzda amalga oshirmaganligi) va ularning mazmunini tushunmaganligini ta’kidlab tursa, chunki bunga qattiq ruhiy iztirob sabab bo‘lgan va u hammasini oqilona o‘ylab chiqmagan bo‘lsa – bu vaziyatda nima qilish kerak? kabi savollarni yechimini topish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi va bu borada bir necha yillik tajribaga ega bo‘lgan sud psixolog ekspert(lar)i holatga adekvat baho bera olishadi.

Bunday arzni e’tiborsiz qoldirish mumkinmi yoki sud uni tekshirish chiqishga majburmi? “Ha”, – degan taqdirda ham, – qanday dalillar eng samarali bo‘lishi mumkin? Aynan ana shu yerda maxsus psixologik bilimlar sud ekspertizasining jarayon shaklida bo‘lishi zarurdir.

Psixologik tadqiqotning umumiy usullariga asosan: eksperiment, psixodiagnostika, taxmin qilish, modullashtirish, ta’sir o‘tkazish usullarini kiritish mumkin. O‘z navbatida, umumiy usullarning har bittasi maxsus usullar majmuidan iborat bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya rivojlanishining zamonaviy ko‘rinishlaridan biri bu - sud psixologik ekspertizaning katta imkoniyatlarga ega bo‘layotganligi hisoblanadi. Albatta, bu imkoniyatlar chegarasiz degani emas. Bu borada O‘zbekistonda yechilmagan muammolar hali juda ham ko‘p. Masalan, ayrim ishlarda psixologik sababni aniqlash imkoniyati yetarli emas, ammo shaxsning asosiy sabab chiziqlari ierarxiasini va mazmunini aniqlash real holatdir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vazifasi yuklanib, faqatgina ko‘rsatmalar haqiqiylikliginiga tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo‘lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan. Aksincha, qonuniy sud ishida mukammallashib borayotgan amaliyotning, o‘zib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o‘rinlidir.

Ta’kidlash joizki, amaliy psixologiyada yuridik amaliyot ehtiyojlari uchun uning qo‘llanilishi asosan jinoiy jarayon ishtirokchilari ko‘rsatmalarining haqiqiylikligini aniqlash metodikalarini ishlab chiqish uchun qo‘llanilgan. T.V.Saxnova yozishicha, bir tomondan bu qonunbuzar shaxsini o‘rganib chiqishga e’tibor kuchayishidan darak bergan (ilgari u faqat qonunbuzarning o‘zini o‘rganilishida to‘xtalgan), bu esa o‘z navbatida, ob’ektiv va sub’ektiv tomonlarni inobatga olgan holda, sodir etilgan qonunbuzarlikka aniq va to‘g‘ri baho berishga imkon bergan. Boshqa tomondan, jarayon ishtirokchilarining ko‘rsatmalarini haqiqiy ekanligini isbotlash uchun, sud psixolog eksperti sud yoki tergov jarayonida berilgan ma’lumotlar qay darajada haqiqiy ekanligini aniqlash bo‘yicha vazifani o‘z zimmasiga yuklatadi.

T.V.Saxnova yondashuvlarning tipik misollarini keltiradi, ular haqiqatni aniqlash ekspertizasi doirasida shaxsga tashxis qo‘yish uchun qo‘llanilgan. Respondentning erkin hikoyasi (o‘zi bilan sodir bo‘lgan holat yoki hodisa to‘g‘risida bildirgan fikrlari) va ekspert bergan savollarning javoblari asosida, ob’ektiv u yoki bu shaxs tipi bilan shartlangan, yolg‘onchilik belgilari mavjudligi (yoki mavjud emasligi) haqida xulosa qilinadi. Taxmin qilinishicha, sovuqqon, xo‘mraygan va yopiq odam oldindan uyulab qo‘ygan yolg‘onni aytishga tayyor bo‘lishadi. Shuning uchun u bergan ko‘rsatmalar ahamiyatli emas. Bajarilmagan istak-xohishlar majmui mavjud bo‘lgan shaxsning ko‘rsatmalari ham to‘la haqiqiy, deb tan olinmasligi mumkin, biroq boshqa sabablariga ko‘ra: sub’ekt boshqalar nigohida o‘z mavqeiga ega bo‘lishi uchun, tilaklarini qiziq tarzda amalga oshiradi. Bu turdagi ekspertizalar voyaga yetmagan guvohlarga nisbatan samaralidir. Bu borada shuni ta’kidlash joizki, o‘sha paytda ishonchli, ilmiy asoslangan shaxsni tadqiq etish bo‘yicha metodikalar ishlab chiqilmagan edi, shu tufayli ekspert vazifasini ob’ektiv tarzda hal etish imkoni bo‘lmagan [3].

O‘rganish jarayonida keltirilgan vajlarning haqiqiylikligini aniqlash ekspertizaning asosiy kamchiligi bundan iborat bo‘lmagan. Ko‘rsatmalarining haqiqiylikligi haqida savolga javob berayotganda, sud psixolog eksperti o‘zining maxsus bilimlari chegarasidan, jarayondan tashqari, o‘z vakolati doirasidan chiqib ketgan va sud vakolati chegaralariga kirgan. Rivojlanishining birinchi bosqichida sud psixologik ekspertizasi imkoniyatlariga vakolatidan ortiqcha baho berish, ehtimol qonuniydir, chunki amaliy psixologiya darajasi yuridik amaliyot ehtiyojlaridan ochiq-oydin orqada qolgan edi. Bu esa o‘z navbatida vazifalarni noto‘g‘ri, xato belgilashga va ularni yechish uchun vositalarni noadekvat tanlashga olib kelar edi.

Sud psixologik ekspertizaga huquqiy holatlarni aniqlash vakolati berilib, faqatgina ko‘rsatmalar haqiqiylikligini tekshirish emas, balki ularni isbotlash, qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs hatti-harakatlarida aybdorlikni aniqlash vositasi sifatida mustahkamligini tekshirish ham kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Garchi bunga asos bo‘lmasa ham, qandaydir ishonchsizlik haligacha ham oxirigacha bartaraf etilmagan.

Aksincha, qonuniy sud ishida mukammalashib borayotgan amaliyotning, o‘shib borayotgan ehtiyojlari sharoitida, zamonaviy psixologiya fanining imkoniyatlariga yetarlicha baho bera olmaslik o‘rinlidir.

Olimlarning jiddiy tadqiqot ishlari (xususan, A.R.Luriya, M.M.Kochenov, A.R.Ratinov, V.L.Vasilev, V.F.Pirojkov, A.V.Dulov, V.F.Yengalichev, S.S.Shipshin va boshqalarning) jinoiy va fuqarolik ishlari bo‘yicha sud jarayonlarining maqsadlariga nisbatan sifatli darajada psixologik vazifalarni qo‘yish va hal etish imkonini beradi.

Sodir bo‘lgan jinoyatni tergov qilish jarayonida, shuningdek uni sud muhokamasida tekshiruv vaqtida ish uchun ahamiyatli bo‘lgan qator holatlar yuzasidan maxsus bilim, ya‘ni fan, texnika, san‘at yoki kasbni qo‘llab, tekshiruv o‘tkazish va shuning asosida tegishli ma‘lumotlarni olish zarur bo‘ladi. Bunday tekshiruvlar maxsus jihozlangan laboratoriya va ilmiy-tekshirish muassasalarida maxsus bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladi.

Hozirgi vaqtda sud psixologik ekspertiza nazariyasida, mavjud bo‘lgan hal etilmagan muammolarga qaramay, yetarli darajada ilmiy vositalar mavjud. Ular yuridik faoliyatning turli sohalarida amaliy vazifalarni hal etish uchun psixologiya fanining yutuqlaridan foydalanish imkonini beradi.

Kriminalistik ekspertizaning jinoyatni tekshirishda, tergov qilishda va sud jarayoni muhokamasi davrida o‘tkazilish zaruriyati tug‘iladi. O‘zbekiston Respublikasi JPKning 172-moddasida ko‘rsatilishicha “Ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni fan, texnika, san‘at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimi bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda ekspertiza tayinlanadi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassislar, xolislarning bunday bilimlarga ega bo‘lishi ekspertiza tayinlash zaruratidan ozod etmaydi [99].

Ekspert oldiga qo‘yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas.

Ekspertizani ushbu Kodeksda belgilangan tartibga xilof ravishda o‘tkaziladigan tekshiruv bilan almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Idoraviy tekshiruv xulosasi, taftish hujjatlari, mutaxassislar maslahati ekspertiza o‘tkazish zaruratini istisno etmaydi”, - deyilgan. Umuman olganda, sud psixolog ekspertining sudga doir psixologik ekspertizasi yuzasidan vakolatlari to‘g‘risidagi yetarli darajada ma‘lumotga ega bo‘lishi sifatli sudga oid psixologik ekspertizalarni o‘tkazish uchun juda muhimdir.

**Natijalar.** Endi bevosita nazorat tajribadan keyin sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahliliga o‘tamiz.

1-jadval.

**Besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti umumiy ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari (n=41, nazorat tajribadan keyin)**

Shklalar	Emotsional intellekt (N.Xoll metodikasi bo‘yicha)				
	Emotsional bilimdonlik	O‘z emotsiyasini boshqarish	O‘zini-o‘zi rag‘batlantirish	Empatiya	O‘zga insonlarning kechinmalarini sezish
Insonlarni tushunish	0,638**	-0,080	0,304	0,482*	0,639**
Vaziyatlarni tushunish	0,692**	0,507*	0,263	-0,103	0,706**
Uddaburonlik	0,220	0,049	0,098	0,203	0,276
Axloqiy ustanovkalar	0,259	0,604*	0,502	0,703**	0,091
Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,572*	-0,036	0,508*	0,402	0,506*
Emotsional barqarorlik	0,302	-0,123	0,096	0,208	0,341
Imidj	0,403*	0,635*	0,506*	0,108	0,631*
Sotsial psixologik kompetentlik	0,603**	0,528*	0,654*	0,100	0,709**
Verbal kompetentlik	0,489*	-0,032	0,482	0,282	0,509*
Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,422	0,573*	0,681**	0,512*	0,444
Ego kompetentlik	-0,090	0,353*	-0,098	0,622	-0,068
Kommunikativ kompetentlik	-0,108	0,516*	0,621*	-0,011	-0,091
Ishonchlilik	-0,101	0,262	0,013	0,746**	-0,101
Barqaror insoniy munosabatlar	0,009	-0,024	-0,063	0,712**	0,012
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,603*	0,082	0,096	0,701*	0,625*

Izoh: \*  $r \leq 0,05$ , \*\*  $r \leq 0,01$

Olib borilgan trening mashg‘uloti natijasida aniqlovchi tajribada qo‘lga kiritilgan natijalarning ijobiy tomonga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Nazorat tajribasidan olingan ma‘lumotardan ko‘rinib turibdiki, sud psixolog ekspertlarining emotsional intellekti bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko‘rsatkichlarining ijobiy shakllanayotganligini belgilovchi bir qancha statistik ahamiyatga ega bo‘lgan alomatlar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikda o‘z aksini topgan. Besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlaridagi bunday ijtimoiy-psixologik imkoniyatning mavjudligi kasbiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil qiluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Natijada sud psixolog ekspertlari ekspertiza jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan turli nizoli holatlar va o‘zaro ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo‘lishni biladilar.

Yuqoridagi jadvaldan bilishimiz mumkinki, besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellektini o‘zaro bog‘lovchi jihatlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda insonlarni tushunish bilan o‘zga insonlarning kechinmalarini sezish ( $r=0,639$ ,  $p\leq 0,01$ ) va emotsional bilimdonlik ( $r=0,638$ ,  $p\leq 0,01$ ) bilan yuqori ijobiy korrelyatsiya bergan bo‘lsa, o‘z emotsiyasini boshqarish ( $r=-0,080$ ,  $p\leq 0,01$ ) shkalasi bilan salbiy, vaziyatlarni tushunish o‘zga insonlarning kechinmalarini sezish ( $r=0,706$ ,  $p\leq 0,01$ ), emotsional bilimdonlik ( $r=0,692$ ,  $p\leq 0,01$ ) bilan yuqori ijobiy, empatiya ( $r=-0,103$ ,  $p\leq 0,01$ ) bilan salbiy, axloqiy ustanovkalar empatiya ( $r=0,703$ ,  $p\leq 0,01$ ) o‘z emotsiyasini boshqarish ( $r=0,604$ ,  $p\leq 0,05$ ) bilan yuqori ijobiy, muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi emotsional bilimdonlik ( $r=0,572$ ,  $p\leq 0,05$ ) bilan yuqori ijobiy, o‘z emotsiyasini boshqarish ( $r=-0,036$ ) bilan salbiy, emotsional barqarorlik o‘z emotsiyasini boshqarish ( $r=-0,019$ ) bilan salbiy, verbal kompetentlik o‘zga insonlarning kechinmalarini sezish ( $r=0,509$ ,  $p\leq 0,05$ ) bilan yuqori ijobiy, o‘z emotsiyasini boshqarish ( $r=-0,032$ ) bilan salbiy, ego kompetentlik, kommunikativ kompetentlik uchta, ishonchlilik va barqaror insoniy munosabatlar ikkita shkala bilan salbiy korrelyatsiya namoyon qilgan bo‘lsa, uddaburonlik, axloqiy ustanovkalar, imidj, sotsial psixologik kompetentlik, operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik va shaxslilik kommunikativ imkoniyati barcha emotsional intellekt shkalalari bilan ijobiy korrelyatsion bog‘liklik kuzatilganligi qo‘llanilgan psixotexnikalarning samarali ta‘siri ostida rivojlanganligidan dalolat beradi va bu holat sifati sud psixologik ekspertizalarni amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

2-jadval.

**Besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti umumiy ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari (n=61, nazorat tajribadan keyin)**

Shklalar	Emotsionla intellekt (N.Xoll metodikasi bo‘yicha)				
	Emotsional bilimdonlik	O‘z emotsiyasini boshqarish	O‘zini-o‘zi rag‘batlantirish	Empatiya	O‘zga insonlarning kechinmalarini sezish
Insonlarni tushunish	0,473	0,304	0,509	0,267	0,701**
Vaziyatlarni tushunish	0,036	0,772**	0,207	0,441	0,532
Uddaburonlik	0,098	0,252	0,336	0,328	0,551
Axloqiy ustanovkalar	0,761**	0,203	0,098	0,346	0,208
Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,395	-0,029	0,556	0,509	0,289
Emotsional barqarorlik	0,226	0,046	0,408	0,509	0,391
Imidj	0,395	0,406	0,189	0,503	0,449
Sotsial psixologik kompetentlik	0,075	0,523	0,332	0,749**	0,276
Verbal kompetentlik	0,236	0,541	0,493	0,285	0,208
Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,773**	0,099	0,031	0,231	0,523
Ego kompetentlik	0,405	0,472	0,432	0,375	0,289
Kommunikativ kompetentlik	0,017	0,316	0,792*	0,472	0,413
Ishonchlilik	0,079	0,486	0,475	0,489	0,318
Barqaror insoniy munosabatlar	0,341	0,789**	0,483	0,494	0,699*
Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,123	0,503	0,789**	0,276	0,371

Izoh: \*  $r\leq 0,05$ , \*\*  $r\leq 0,01$

Navbatdagi tahlil esa besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti oʻrtasidagi bogʻliqliklarga qaratilgan.

Besh yildan ortiq ish stajiga ega boʻlgan sud psixolog ekspertlari koʻrsatkichlarida ham emotsional intellekt bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik oʻrtasida yuqori korrelyatsion bogʻliqlikni ifodalovchi koeffitsientlar kuzatilganligini koʻrishimiz mumkin. Bu esa besh yildan ortiq ish stajiga ega sud psixolog kasbiy faoliyatini tashkil etishda shaxsiy tajriba va tasavvurlariga yaqqol tayanishlarini koʻrsatmoqda (2-jadval).

Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida oʻziga xos tarzda shakllangan emotsional intellekt, kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bogʻliqligi haqidagi gʻoyalarimiz oʻz tasdigʻini topdi. Bu borada ijtimoiy-psixologik kompetentlik eng avvalo, kasbiy faoliyat samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini taʼminlashga xizmat qilishi aniq.

3-jadval.

**Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi boʻyicha olingan maʼlumotlar tahlili (n=102)**

Omillar		Besh yilgacha ish stajiga ega boʻlgan ekspertlar (n1=41)				Besh yildan ortiq ish stajiga ega boʻlgan ekspertlar (n2=61)			
		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	
		n	%	n	%	n	%	n	%
«A» omil	Muloqotchan	16	39,01	32	78	40	65,6	55	90,2
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	60,9	9	22	21	34,4	6	9,8
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«B» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	19	46,3	29	70,7	33	54,1	48	78,7
	Zaif fikrlaydigan	22	53,6	12	29,3	28	45,9	13	21,3
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«C» omil	Barqaror	13	31,7	24	58,5	43	70,5	51	83,6
	Beqaror	28	68,3	17	41,5	18	29,5	20	16,4
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«D» omil	Optimizm	16	39,01	34	83	34	55,7	55	90,2
	Pessimizm	25	60,09	7	17	27	44,3	6	9,8
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	34,1	23	56,1	38	62,3	47	77
	Realist	27	65,9	18	43,7	23	37,7	14	23
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«N» omil	Oʻzini nazorat qila oladigan	19	46,3	28	68,3	45	73,8	52	85,2
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	22	53,7	13	31,7	16	26,2	9	14,8
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«M» omil	Oʻziga yoʻnalgan	18	43,9	14	34,1	28	45,9	24	39,3
	Oʻzgalarga yoʻnalgan	23	56,1	27	65,9	33	54,1	37	60,7
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
Jami		41	100	41	100	61	100	61	100

“Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi” metodikasi asosida olingan natijalar tahliliga qaraydigan boʻlsak, nazorat tajriba natijalari barcha ijobiy omillarning oʻsishga erishilganligini qayd etish lozim. Xususan, besh yilgacha ish stajiga ega boʻlgan ekspertlarida optimizm (83%), muloqotchanlik (78%), mantiqiy fikrlaydigan (70,7%), oʻzgalarga yoʻnalganlik (65,9%) omillari boʻyicha koʻrsatkichlarning yuqori darajada oʻsish kuzatilgan boʻlsa, besh yildan ortiq ish stajiga ega boʻlgan ekspertlarda muloqotchanlik (90,2%), optimizm (90,2%), oʻzini nazorat qila oladigan (85,2%), barqarorlik (83,6%) omillari boʻyicha

ko‘rsatkichlarning yuqori darajada o‘shish kuzatildi. Bu esa sud psixologik ekspertizasi sifat-samaradorligining yuqori darajada bo‘lishini ta‘minlaydi (3-jadval).

Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishda kommunikativ kompetentlik, sud psixologik ekspertizasiga doir ijtimoiy-psixologik bilimlar diapazoni va emotsional intellekt ko‘rsatkichlarining muhimligiga ko‘ra muammolar yechimini izlashda hissiy-irodaviy, kognitiv va kommunikativ motivatsiya imkoniyatlarini takomillashtirishga qaratilgan psixotexnikalarni qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishilganligini ko‘rishimiz mumkin.

**Xulosa.** Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnika, hamda o‘quv modulining samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi va uni sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga ta‘siri natijasini tadqiq qilish bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega va ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturida sud psixologik ekspertizasiga doir psixologik vaziyatlar va shaxslararo munosabatlar tizimining ta‘sirchan mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratildi.

2. Kasbiy kompetentlikning rivojlantirish bo‘yicha o‘quv modulini amalda qo‘llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga aloqador bo‘lgan kasbiy kompetentlik (kasbiy layoqat)ning o‘ziga xos tarzda o‘zgarganligini ko‘rsatadi. O‘quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta‘minlovchi sohaga oid qonun va qonun osti hujjatlari yuzasidan huquqiy, hamda psixodiagnostik ishlarni amalga qo‘llay olishi, sud psixologik ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish bo‘yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

3. Sud psixologik ekspertizasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning ekspertlik faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog‘liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

#### Adabiyotlar:

1. Golniz G., Schulz-Wulf G. Rhythmic-psychomotorische Musiktherapie. Yena, 2004.-112 p.
2. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.
3. Gmott H.G. between Parent and Children. N.Y., 2003. P – 219.
4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnosics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
6. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
7. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
8. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
9. Olimov L.Ya., Nazarov A.M. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
10. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O‘smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiypsixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
11. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Ekstremal vaziyatlarda koping xulq-atvor va strategiyalar namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
12. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O‘smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
13. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixologicheskie mexanizmi deviantnogo povedeniya. Psixologiya XXI veka. Yaroslavl., 2020. –S. 125-127.
14. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya. Uchrediteli: Buxarskiy gosudarstvenniy universitet, 31-38.

15. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va koping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.
16. Plutchik R., Kellermann H., Conte H.R. A structural theory of ego defences and emotions // Isard C. E. (ed.) Emotions in personality and psychopathology. N.Y.: Plenum, 1979. – P. 229-257.
17. Pratt L.A. Ford D.E., Crum R.M., et al. Depression, psychotropic medication, and risk of myocardial infarction: prospective data from Baltimore ECA follow-up. Circulation 1996; 94:3123-3129.
18. Reynolds C.K., Gutkin T.B. School Psychology: Essentials of theory and Practice – IV.V., 1984.
19. Satir V. The new peoplemaking. – California: Science and Behavior Books, Inc., Mountain View, 2003. - 400 p.

## STEAM TA'LIMI TEXNOLOGIYASI ASOSIDA ILMIY QARASHLARNI TARKIB TOPTIRISH

*Otayeva Salamat Sabirovna,  
Urganch davlat universiteti Maktabgacha ta'lim  
metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

*Maqolada zamonaviy yondoshuvga asoslangan STEAM ta'limi texnologiyalari orqali talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish zarurligiga e'tibor qaratilib, ta'limda davr talabiga asosan STEAM ta'limini qo'llash orqali yaratiladigan shart-sharoitlar tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Ilm-fan, ilmiy-tadqiqotchilik, ilmiy faoliyat, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, ilmiy dalil, STEAM ta'limi, aql, intellekt, qobiliyat.*

## ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНОГО ВИДЕНИЯ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ STEAM

*В статье акцентируется внимание на необходимости развития научно-исследовательской деятельности студентов посредством образовательных технологий STEAM на основе современного подхода и анализируются условия, создаваемые применением STEAM-обучения с учетом современного спроса в образовании.*

***Ключевые слова:** наука, научные исследования, научная деятельность, творчество, критическое мышление, научные доказательства, STEAM-образование, умный, интеллект, способность.*

## CONTENT CREATION OF SCIENTIFIC VIEWS BASED ON STEAM EDUCATION TECHNOLOGY

*The article focuses on the need to develop scientific research activities of students through STEAM education technologies based on a modern approach, and analyzes the conditions created by applying STEAM education based on the needs of the time in education.*

***Key words:** Science, scientific research, scientific activity, creativity, critical thinking, scientific evidence, STEAM education, mind, intellect, ability.*

**Kirish.** Hozirgi vaqtda dunyoda mavjud tarqoqlikni, bilimlarning parchalanishini va ta'limdagi o'qituvchilik mahoratining tor ixtisoslashuvini bartaraf etishning yondashuvlari va usullarini izlashga e'tibor tobora ortib bormoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari buyumachiga ilmiy va ijodiy faol kadrlarni yetkazib berishi muhim vazifaga aylangan. Shuning uchun bo'lajak kadrlarning sifat samaradorligini oshirish, ularning kasbiy komponentlarini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyotda qo'llash borasida bir qator keng ko'lamdagi islohotlar olib borilmoqda.

**Asosiy qism.** Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi axborot va texnologik taraqqiyotning doimiy ravishda rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Natijada bilim va texnologiyalarning tez eskirishi oqibatida odamlar doimiy raqobat sharoitida yashamoqdalar. XXI asrda insonning muvaffaqiyati butunlay uning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga bog'liq bo'lib, ulardan eng muhimi - tanqidiy fikrlash, ijodkorlik qobiliyati, mustaqillik va o'z faoliyatini mustaqil tashkil etish, dalillarni ilmiy asoslash qobiliyatida o'z aksini topadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi nomli kitobida “Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tarmoq institutlari, ilmiy va innovatsion markazlar hamda korxonalarining o'zaro hamkorligini mustahkamlash, ilm-fan va ta'lim sohalaridagi ilmiy, innovatsion faoliyatni rag'batlantiradigan shart-sharoitlarni yaratishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.”-deb ta'kidlab o'tgan.[1.227-b.]

Bo'lg'usi kadrlarda ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish orqali ilm-fan va ta'lim sohasida ko'zlangan maqsadga erishiladi. Shunday ekan bu jarayonda zamon talabiga javob beradigan texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish kerak.

**Muhokamalar va natijalar.** Maqsadli tashkil qilinadigan mashg‘ulotlarda talabalar internet, ilmiy-ommabop filmlar, ilmiy jurnallar, ilm-fan yangiliklari va ajoyib kashfiyotlar bilan tanishishlari ularda ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘nalishlari uchun asos bo‘ladi. Talabalarni birinchi navbatda dalillar bilan tanishtirish maqsadga muvofiq. Ilmiy dalilning asosi nimada, u yoki bu kashfiyot, muvaffaqiyatning mohiyati nimada va uni qanday yo‘l bilan amalga oshirish lozimligi ham juda muhim sanaladi. Buni talabalar ongiga, albatta, ularga tushunarli tarzda va tegishli shaklda yetkazish katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda talabalarni “bilim xazinasiga dalillarni yig‘ishga” o‘rgatishning o‘zi yetarli emas. Hayot talabalaridan ma‘lum hodisa va jarayonlarning mohiyatini payqashni, ularni tushuntirishga harakat qilishni, ular orasidagi aloqalarni topishni o‘rganishni talab qiladi. Talabadan nafaqat o‘rgatilgan bilimni o‘zlashtirish, balki o‘zi mustaqil izlanib o‘rganilgan bilimlarni amalda qo‘llashni ham bilish talab qilinadi. Buning uchun ta‘lim jarayonini axborotlashtirish, ijtimoiylashtirish va integratsiyalashtirish kerak bo‘ladi.

Bugungi kunda pedagogik ta‘lim yo‘nalishi talabalarini ilmiy –tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish uchun zamonaviy yondoshuvlar asosida ta‘lim texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga tadbiiq qilish davr talabi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda XXI asrda ta‘limning barcha bosqichlarida ta‘lim oluvchilarni faollashtirishda, turli faoliyatda muloqotda, kognitiv tadqiqot faoliyatida, dizayn va hokazolarda tashabbus va mustaqillik ko‘rsatishlarida STEAM ta‘limi texnologiyalari muhim hisoblanadi.

“STEAM - ta‘lim” (Science - tabiiy fanlar, Technology - texnologiyalar, Engineering - texnik ijodkorlik, Art - san‘at va ijod, Mathematics - matematika) yondashuvi ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.[2]

“STEAM ta‘limi” atamasi fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika sohalarida o‘qitish va o‘rganishni anglatadi. U odatda maktabgacha ta‘limdan doktorlik bosqichigacha bo‘lgan barcha jarayonlardagi ta‘lim faoliyatini o‘z ichiga oladi.

STEAM ta‘limi amaliy mashg‘ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash tushuniladi.

STEAM ta‘limi tahsil oluvchilarga tajriba o‘tkazish, modellar yaratish, mustaqil ravishda ijod qilish, o‘z g‘oyalarni amaliy sinab ko‘rish va yakuniy mahsulotni yaratishga imkon beradi.

L.I. Suvonovning “Bitiruvchilarning pedagogik texnikasini STEAM texnologiyalari asosida rivojlantirish” nomli avtoreferatida STEAM texnologiyalari asosidagi bitiruvchilarni kasbiy faoliyatga yo‘llash bosqichlari quyidagicha ko‘rsatib o‘tilgan: 1) motivatsion-maqsadli: o‘z kasbiy faoliyatida STEAM texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va zaruriyatini anglab yetadi. Bunda ta‘lim va rivojlanishning trayektoriyasi namoyon bo‘ladi; 2) mazmunli-faoliyat: STEAM texnologiyalaridan foydalanishning mazmunida ifodalanadi va o‘quv materiallari bankini yaratish imkoniyati kengayadi; 3) natijaviy-refleksiv: yuqori sifatli pedagogik texnikaning shakllanishidagi STEAM texnologiyasi dinamikasi kuzatiladi va bilish faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyati kengayadi. [3.12-b]

Hozirgi vaqtda “aql” va “intellektual qobiliyatlar” atamalarining turli xil talqinlari mavjud. Aql eng keng tarqalgan tushuncha hisoblanadi va “Idrok jarayonini amalga oshirish va muammolarni samarali hal qilish qobiliyati, maqsadga erishish uchun o‘z harakatlarini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish qobiliyati” kabilarni nazarda tutadi.

Aql va intellektual qobiliyatni tushunish uchun zarur bo‘lgan yangi va chuqur bilimga ega bo‘lishda narsani tushunish; mavjud tajribadan foydalanish qobiliyati va asosiyni ikkilamchidan ajratish; izchillik, tanqidiylik, kenglik va ijodiy fikrlash qobiliyati; qonunlarni umumlashtirish, mavhumlash va topish qobiliyati, o‘rganish qobiliyati kabilar nazarda tutiladi.

Zamonaviy yondoshuvlar asosida ta‘lim texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga tadbiiq qilish orqali talabalarda tadqiqotchilik faoliyatiga o‘rgatishda asosan quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- talabalarni o‘quv dasturidan tashqari bo‘lgan yangi bilim olishga qiziqtirish;
- ijodkorlik va kashfiyot yaratishni o‘ziga xos tomonlarini o‘rgatish;
- talabalarining yangi bilimlarni egallashlariga erishish;
- ularning me‘yoriy hujjatlar (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, tegishli qonunlar, har bir fan bo‘yicha yaratilgan kontseptsiya, davlat ta‘lim standartlari va h.k.) o‘quv adabiyotlari, badiiy-ilmiy asarlar, amaliy materiallar, statistik ma‘lumotlardan foydalanishga o‘rgatish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, asosiy kompyuter dasturlari bilan ishlash layoqatlarini tarkib toptirish hamda internet axborot tizimidan foydalanishga o‘rgatish;
- yig‘ilishlarda yaratayotgan ilmiy maqolalari bilan chiqish (taqdimot) qilish, o‘z fikrini bildirish, boshqalarga o‘z fikrini yetkaza bilish va uqtira olish, fikrlarini asoslash, o‘z fikrlarini auditoriya bilan o‘rtoqlashishga o‘rgatish.

STEAM yondashuvi an’anaviydan tubdan farq qilishini ko‘rishimiz mumkin, natijada talabalar quyidagi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:



- talabalar o‘z-o‘zini tayyorlashga ko‘proq vaqt ajratadilar, muammolarni topishni va ularni mustaqil ravishda hal qilishni o‘rganadilar.

- talabalar o‘zlarining muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz ta‘lim tajribalarini bir-birlari bilan baham ko‘rishadi, loyihalar ustida birgalikda ishlashadi yoki muayyan muammolarni hal qilishadi.

- Guruh talabalari yangi ko‘nikma va bilimlar yordamida o‘quv muammolarini hal qilish orqali bir-birlariga yordam berishadi va bir-birlarini qo‘llab-quvvatlaydilar.

H.C. Сологуб, Е.Я. Аршанский o‘zlarining “STEAM-компетентность как интегративное качество современного педагога” nomli maqolasida STEAM yondashuvini ta‘lim maydoniga kiritishda uning muvaffaqiyat darajasi bevosita o‘qituvchiga bog‘liq ekanligi bunga sabab o‘qituvchining STEAM ta‘limi nima ekanligini tushunish darajasi, STEAM fanlarini integratsiyalash usullari, faoliyatda faqat o‘z fanini o‘qitish bilan cheklanmagan holda fanlararo aloqalarni amalga oshirishga qodir bo‘lishi, ijtimoiy-madaniy makon kontekstida kasbiy bilimlarning muhimligi va XXI asr kompetentsiyalarini rivojlantirish zarurligini tushunadigan mutaxassis talabalarga ta‘lim berishi kerakligi haqida so‘z yuritilgan. [4.60-b]

STEAM ta‘limi yondashuvi yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati, o‘z-o‘zini tayyorlash ko‘nikmalari, dalillar keltirish, jamoada ishlash, xatolarni doimiy ravishda tuzatish va o‘quv muammolarini hal qilish kabilarga asoslanadi.

STEAM ta‘limi yondashuvi bizning ta‘limda ilmiylikka asoslanish jaraoyiniga bo‘lgan qarashimizni o‘zgartiradi. Amaliy qobiliyatlarga e‘tibor qaratgan holda, talabalar iroda, ijodkorlik, moslashuvchanlikni rivojlantiradilar va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadilar.

STEM ta‘limi - bu talabalarning ko‘nikmalarini oshirishning yangi bosqichiga chiqish imkonini beruvchi innovatsion metodologiya. Uning yordamida biz iqtisodiy mustaqil va raqobatbardosh ilg‘or kadrlar bazasini shakllantiramiz.

STEM ta‘limining afzalliklari:

- Mavzu bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan tarzda o‘rganishni tashkil qilish.
- Ilmiy-texnik bilimlarni hayotda qo‘llash.
- Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- O‘ziga ishonchni shakllantirish.
- Faol muloqot va jamoada ishlash.
- Loyihalarga ijodiy va innovatsion yondashuvlar.
- Erta professional orientatsiya.
- Talabalarni hayotning texnologik yangiliklariga tayyorlash.[5. 45-b]

STEAM XXI asrning innovatsion texnologiyalariga asoslangan yangi ta‘lim tizimi hozirda turli darajalarda faol muhokama qilinayotgan alohida soha hisoblanadi. Qarashlarning mohiyati shundan iboratki: sanoat davrida savodxonlikni belgilovchi asosiy ko‘nikmalar o‘qish, yozish va arifmetika bo‘lgan bo‘lsa, XXI asrda asosiy e‘tibor tanqidiy fikrlash qobiliyatiga, o‘zaro muloqot qilish va muloqot qilish qobiliyatiga, biznesga ijodiy yondashishga qaratilmoqda. Shunday qilib, kelajakning asosiy ko‘nikmalari shakllantirildi va ular quyidagicha:

- Aloqa
- Hamkorlik
- Tanqidiy fikrlash
- Ijodkorlik

Bu ko‘nikmalarni faqat laboratoriyalarda yoki ma‘lum matematik algoritmlarni bilish orqali olish yetarli bo‘lmaydi, mutaxassislar STEAM fanlarini tez-tez o‘rganishlari lozim.

STEAM o‘quv dasturi STEM ta‘limiga ijodkorlik g‘oyasini kiritadi. Bugungi dunyoda qutidan tashqarida o‘ylash qobiliyati juda qimmatli hisoblanadi. Innovatsiyalar doimiy o‘zgarishlarni yaratish potentsialiga ega bo‘lgan yangi mahsulotlar, yangi jarayonlar va g‘oyalarga olib keladi.

Aytish joizki, STEAM kompetentsiyasining asoslari o‘qituvchining professional standarti doirasida qo‘yilgan. Oliy ta‘limning ta‘lim standartida mutaxassisning quyidagi akademik kompetentsiyalari ro‘yxati keltirilgan:

- asosiy ilmiy-nazariy bilimlarni nazariy va amaliy masalalarni yechishda qo‘llay bilish;
- tadqiqotchilik ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- yangi g‘oyalar yarata olish (ijodkorlikka ega bo‘lish);
- muammolarni hal qilishda fanlararo yondashuvga ega bo‘lish;
- o‘quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshira olish;
- texnik qurilmalardan foydalanish, axborotni boshqarish va kompyuterda ishlash bilan bog‘liq ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;
- hayot davomida o‘rganish, o‘z mahoratini oshirish va h.k.

AQShning tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim standartida (A Framework for K-12 Science Education) [6] STEAM yondashuvi kontekstida talabalar tomonidan talab qilinadigan asosiy kompetentsiyalarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- savollar berish va muammolarni aniqlash;
- modellarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish;
- rejalashtirish va tadqiqot;
- ma'lumotlarni tahlil qilish va izohlash;
- hisoblash masalalarini yechishda matematikani qo'llash;
- mantiqiy dalillar keltirish va yechimlar ishlab chiqish;
- dalillardan foydalanish;
- axborot sifati va uning uzatilishini baholash.

STEAM ta'limi talabalarning individual rivojlanishiga ham, inson kapitali sifatini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, STEM ta'limini erta joriy etish talabalarni tanqidiy, ijodiy fikrlashga undaydi. Bu o'quvchilarning o'zlarini muammolarga ijodiy yechim izlashni o'rganishlariga hissa qo'shadi. Ushbu ijodiy va innovatsion ko'nikmalar potentsial ish beruvchilar tomonidan qo'yiladigan talablarga javob beradi.

Bir guruh tadqiqotchi olimlar tomonidan yozilgan “Defining STEAM Approaches for Higher Education” nomli maqolaning baholash asoslarini yaratish qismida “Yangi metodologiyalarni ishlab chiqish bilan bir qatorda STEAM fanlari bo'yicha fanlararo hamkorlik samaradorligini baholash uchun baholash vositalarini yaratish ham mavjud. Bular STEAM say-harakatlaridan kelib chiqadigan noan'anaviy yondashuvlar va usullarning ahamiyatini aniqlashga, ularning samaradorligini baholashga va o'quv dasturlarini loyihalash, ishtirok etish va siyosat doirasini kengaytirishga yordam berishi haqida so'z boradi va quyidagilar keltirib o'tiladi:

- Loyiha orqali yaratilgan yangi usullarni baholash va kengroq tarqatish va amalga oshirish uchun baholash vositalarini ishlab chiqish.

- Talabalarga o'zlarining STEAM kompetentsiyalarini yaxshiroq tushunish va joylashtirish va STEAM tashabbuslarida ishtirok etishning afzalliklarini o'rganish imkonini beruvchi o'z-o'zini baholash vositasini ishlab chiqish.

- Loyiha doirasida yaratilgan STEAM ta'riflari va malakalaridan foydalangan holda hamkorlikni, hamkorlik usullarini va natijada olingan natijalarni baholash uchun butun loyihani darajali baholash.

Birgalikda uchta maqsad - STEAM qo'llanmasi, yangi usullar va baholash asoslari - Oliy ta'limda STEAM ning joriy holati va amaliyotini har tomonlama tanqidiy baholashni ta'minlash, shuningdek, sohani kengaytirish imkonini beradigan va yaratadigan amaliy vositalar to'plamini taqdim etishga qaratilgan” ligi ta'kidlanadi.[7. 5-b]

Oliy ta'limda talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilarning “uy intizomi”, bilim bazasi va tarbiyalangan qobiliyatlari bilan bog'liq mavjud shaxsiyatlariga e'tiroz bildirishi mumkin. STEAM turli bo'shliqlarni, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirishga imkon beradi va rivojlantiradi; lekin bu rassomlar olim bo'lishlari kerak, olimlar esa rassom bo'lishlari kerak degani emas. Biroq, “STEAM tizimi va yoki universitet STEAM madaniyati qanday ko'rinishga ega?” va “Uni oliy ta'lim muassasasida qanday tashkillashtirish kerak?” degan savollarni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

“Defining STEAM Approaches for Higher Education” nomli maqolada hamkorlar STEAM ishlarining asosiy xususiyatlari, asosiy jihatlari va tushunchalarini yetti toifada o'rganadilar. Ulardan tanqidiy fikrlash oliy ta'limda STEAM yondashuvining eng ko'p aniqlangan sifati ekanligi ko'zga tashlanadi. Biroq, tanqidiy fikrlashning o'zi yetarli bo'lgan asosiy qobiliyat deb hisoblanmaydi. Aksincha, olimlarning munozaralarida asosiy paradigma(lar)ga sifatlar uyg'unligi va e'tibor muhimligi ko'rsatiladi. O'rganilgan xususiyatlardan birgalikda foydalanish orqali STEAM qiymat, yangi istiqbollar va yangi fikrlash qo'shadigan (aqliy, jismoniy, ijodiy) makon yaratadi. Tadqiqotchilar STEAM ta'rifi uchun quyidagi ko'rinishni qabul qiladilar.

STEAMda oliy ta'lim yondashuvi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- San'at va fanlarni teng asosga qo'yadigan madaniyat (yoki madaniyatlar);
- jarayonga asoslangan, talabalarga yo'naltirilgan, yaxlit va noaniq yakuniy natijalar bilan qulay bo'lish bilan birga muvaffaqiyatsizlikka ruxsat beruvchi paradigma doirasida ishlash;
- hamkorlik, xilma-xillik va xavfsiz joylar orqali yetkazib berish;
- tubdan ochiqlik, moslashuvchanlik, mulohaza yuritish, tajriba va qiziquvchanlik ongini shakllantirish;

- o'rganish, hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan fazilatlarni shakllantirish;

- baholash usullarini hisobga olgan holda yangilik yaratish va yaratishga urg'u beradigan amaliyotlarni qo'llab-quvvatlash;

• tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, shu bilan birga ularni yechimlarni ishlab chiqarishda qanday qo‘llash mumkinligini o‘rganish.[7.11-b]

Oliy ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalari deganda ta’limda fanning zamonaviy yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan usullar tushuniladi. Ular o‘quvchilarning ijodkorligi va mustaqilligini rivojlantirish orqali o‘qitish sifatini oshirishga qaratilgan. Ular onlayn ta’lim olish imkonini beradi; talabalarning o‘rganilayotgan fanga qiziqishini oshirish; o‘qishni kundalik hayot amaliyotiga yaqinlashtirish (samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, tez o‘zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashish, psixologik stressga chidamliligini oshirish, nizolarni hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish va boshqalar); yangi ilmiy bilimlarni olish usullarini ishlab chiqadi.

**Xulosa sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:**

Har qanday pedagogik jarayonning asosiy maqsadi talabalar tomonidan ma’lum ta’lim natijalariga erishish - ularning keyingi o‘sishi va rivojlanishi uchun asos bo‘ladigan ilmiy-tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirishdir. Biz yashayotgan jamiyat bugungi avlodan XXI asr kompetensiyalarini puxta egallashini talab qilmoqda. Globallashayotgan dunyoda postindustrial jamiyatda ilmiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishning global ta’lim yo‘nalishlaridan biri STEAM yondashuvi orqali amalga oshiriladi.

**Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022-y. 227- b.

2. STEAM is an innovative method of teaching and should be implemented across Europe. More and more institutions should work together to share ideas and develop further projects. Participant at STEAM education Conference, Porto 2019 (<https://steameducation.eu/bookinginformation.html>).

3. Suvonova L.I. “Bitiruvchilarning pedagogik texnikasini STEAM texnologiyalari asosida rivojlantirish” Avtoreferat. T.: 2023-y

4. Сологуб Н.С., Аршанский Е.Я. STEAM-компетентность как интегративное качество современного педагога. Педагогика журнал. 60 с.

5. Otayeva Salamat Sabirovna “Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Bookmany print” nashryoti. 2022 –y. 45-bet.

6. Framework A for K-12 Science Education. Practices, Crosscutting Concepts, and Core Ideas [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.nap.edu/download/13165>. – Дата доступа: 05.12.2020.

7. Defining STEAM Approaches for Higher Education. Available from: [https://www.researchgate.net/publication/356361273\\_Defining\\_STEAM\\_Approaches\\_for\\_Higher\\_Education](https://www.researchgate.net/publication/356361273_Defining_STEAM_Approaches_for_Higher_Education) [accessed Oct 30 2023].

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TARIX  
DARSLARINI SAMARALI TASHKIL QILISH USULLARI

*Qodirov Ikrom Davronovich,*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

*O‘qituvchi darsni samarali tashkil etishda u kasbiy bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirishi, shuningdek, yangi pedagogik vazifalarni va o‘qitishning yangi texnika hamda usullarini qo‘llay olish qobiliyatini doimiy ravishda rivojlantirib borishi lozim.*

*Maqolada o‘quvchilarni tarix darslariga qiziqishlarini oshirishda turli shakl va metodlardan foydalanish muhimligi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalaridan biri bo‘lgan o‘yin texnologiyasi, uning samaradorligi “To‘g‘ri top!” va “Aqliy poyga” mualliflik o‘yini xususida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** didaktika, innovatsiya, texnologiya, kognitiv, metodologiya, kasbiy ko‘nikma, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, didaktik o‘yin, munozara, tasavvur, tafakkur, xotira, nutq.

МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ИСТОРИИ НА ОСНОВЕ  
ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Чтобы эффективно организовать урок, учителю необходимо совершенствовать профессиональные знания и навыки, а также постоянно развивать умение использовать новые педагогические задачи и новые приёмы и методы обучения.*

*В статье рассматривается важность использования различных форм и методов повышения интереса учащихся к урокам истории, игровой технологии, которая является одной из личностно-ориентированных образовательных технологий, ее эффективность «Найди правильное!» и обсуждается авторская игра «Гонка ума».*

**Ключевые слова:** дидактика, инновация, технология, познавательная, методология, профессиональные навыки, личностно-ориентированное образование, дидактическая игра, дискуссия, воображение, мышление, память, речь.

METHODS FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF HISTORY LESSONS BASED ON  
PERSONALIZED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

*To effectively organize a lesson, a teacher needs to improve professional knowledge and skills, as well as constantly develop the ability to use new pedagogical tasks and new teaching techniques and methods.*

*The article discusses the importance of using various forms and methods of increasing students' interest in history lessons, gaming technology, which is one of the student-oriented educational technologies, its effectiveness “Find the right one!” and the author's game “Mind Race” are discussed.*

**Key words:** didactics, innovation, technology, cognitive, methodology, professional skills, student-centered education, didactic game, discussion, imagination, thinking, memory, speech.

**Kirish.** Har bir davlatning kelajagi va uning ravnaqi dastavval ilm-fan taraqqiyoti hamda ta‘lim-tarbiyaning rivojlanishi va takomillashishi bilan belgilanadi. Shu bois O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ilm-fan, ta‘lim-tarbiya va kasb-hunar o‘rgatish hamda sifatli kadrlar tayyorlash masalalariga davlatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tibor qaratildi. Ayniqsa, har bir ta‘lim oluvchilarda chuqur va mustahkam bilim, teran fikr, yuksak ma‘naviyat va madaniyat, ijodkorlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni tarkib toptirishga e‘tibor kuchaydi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov “Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz” [1], deb ta‘kidlaganidek, ushbu buyuk maqsadga erishishda asosiy e‘tibor yosh avlodni barkamol, ma‘naviy va jismonan sog‘lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalashga qaratilganligi milliy an‘analarimiz, mentalitetimizning o‘ziga xos ifodalanishini e‘tiborga olib islohotlar olib borish, dolzarb vazifalardan biri ekanligi bugungi kunda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash masalasiga hozirgi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarab kelmoqda. Respublikamizdagi maktabgacha, umumiy-o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga asosiy pedagogik kadrlar va mutaxassislarni tayyorlab beradigan oliy ta'lim muassasalarini moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, soha xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash, OTMLlarda o'qitish sifati va mazmunini yangilash borasida bir qancha qaror va farmonlar qabul qilinib, sohaga oid islohotlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmonining to'rtinchi yo'nalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari”ga bag'ishlangan bo'lib [2], ushbu yo'nalishning 4-bandi “Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish” deb nomlanganligi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi 2017-yil 18-iyuldagi 515-sonli “Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi Qarori, 2017-yil 27-iyuldagi PQ 3151-sonli “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori va 2017-yil 9-avgustdagi PQ 3183-sonli “Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida”gi Qarorlarini qabul qilinishi ham bejiz emas, albatta.

Bugungi kunda ta'lim texnologiyalarining keng ilmiy manbalarini o'rganmasdan turib, pedagogik jihatdan barkamol mutaxassis bo'lish mumkin emas. O'qituvchi keng ko'lamli zamonaviy innovatsion texnologiyalar, g'oyalarni o'zlashtirib olishi zarur. Bunda pedagogik texnologiyalar alohida ahamiyatga ega. B.A.Nazarova [3] pedagogik texnologiya tushunchasini ilmiy asoslab beradi, o'ziga xos tasnifini taklif qiladi, umumlantirilgan shaklda 50 ga yaqin texnologiyani ko'rsatadi.

Ushbu ro'yxatda u qo'llash darajasini hisobga olgan holda umumiy pedagogik, maxsus fan va mahalliy yoki modulli texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada tarix o'qitishda eng ko'p qo'llaniladigan bir qancha texnologiyalar keltirilgan. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari ko'pincha keng qo'llaniladi. Rivojlanayotgan ta'limda pedagogik ta'sirlar shaxsning psixologik ma'lumotlarining rivojlanishini kutadi, rag'batlantiradi, yo'naltiradi va tezlashtiradi. Bola to'liq huquqli faoliyat sub'ektidir. Rivojlantiruvchi ta'lim bolaning proksimal rivojlanish zonasida amalga oshiriladi. Proksimal rivojlanish zonasi - bu bolaning mustaqil ravishda nimaga qodir bo'lganidan, nima qila oladigan, hamkorlikda qanday qilishni biladigan narsaga o'tish imkoniyati. Rivojlanish uchun doimiy rivojlanish sohasi va proksimal rivojlanish zonasi o'rtasidagi chegara - noma'lum, ammo bilim uchun potentsial foydalanish mumkin bo'lgan hududni engib o'tish kerak. Rivojlanayotgan ta'limning muhim xususiyati shundaki, u proksimal rivojlanish zonasini yaratadi, aqliy neoplazmalarning ichki jarayonlarini keltirib chiqaradi, rag'batlantiradi, harakatga keltiradi [4]. Proksimal rivojlanish zonasining tashqi chegaralarini aniqlash, uni haqiqiy zonadan ajratish (bola buni mustaqil ravishda amalga oshirishi mumkin) - bu o'qituvchining tajribasi va mahoratiga qarab, hozirgacha faqat intuitiv darajada hal qilinadigan vazifadir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – bu o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyati hamda imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanishga qaratilgan jarayondir. Shu bois o'qitishni differensiallash va individuallashtirish shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishning asosiy tamoyillari sifatida xizmat qiladi [1].

O'qituvchi o'quv materialini tizimli shaklda taqdim etib, amaliy ishning eng mos usullarini ko'rsatib, o'quvchilarni o'rganilayotgan materialni idrok etishga psixologik jihatdan tayyorlaydi, ularning bilim va kasbiy qiziqishini rivojlantiradi [5].

**Metodika.** Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi insoniylik falsafasi, psixologiyasi va pedagogikasining uyg'unligini namoyish etadi. Pedagogning diqqat markazida o'zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilayotgan, yangi tajriba-sinovlarni qabul qila oladigan va hayotning har xil holatlarida mustaqil, ongli va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga qodir bo'lgan butun bir noyob bolaning shaxsi turmog'i lozim. O'quvchiga ijtimoiy normalar asosida bilim beruvchi an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida yuqorida qayd qilingan yo'nalish(sifat)larni shaxs tomonidan zabt etilishi tarbiyaning asosiy maqsadi qilib qo'yiladi.

Tarix fanini o'qitish bo'yicha N.Yu.Nikulaning fikriga ko'ra, o'quv faoliyatining asosiy motivatsiyasi bu kognitiv qiziqishdir. Metodologiya oqilona va hissiy, faktlar va umumlashmalar, jamoaviy va individual, axborot va muammoli, tushuntirish va qidiruv usullarini birlashtiradi. O'qitishda didaktik o'yinlar, munozaralar, shuningdek, tasavvur, tafakkur, xotira, nutqni boyitishga qaratilgan o'qitish usullari qo'llaniladi. Tarixni o'qitishda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi izlanish va rivojlanish holatidadir. Dars

o‘quv jarayonining asosiy elementi bo‘lib qoladi, lekin uning vazifalari, tashkil etish shakli turlicha bo‘lishi mumkin [4].

Tarixni o‘qitish fanning mavhumligi tufayli qiyin bo‘lishi mumkin. Abstraktlik shundan iboratki, o‘tmishdagi voqealar haqiqiyliги uchun qayta ishlab chiqilishi va qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas va harakatlarning sabablarini tekshirish uchun ochiq bo‘lmaydi.

Tarixni samarali o‘qitish, shu jumladan, mavzuni hayotga qaytarish va uni o‘quvchilarning intellektual va hissiy qobiliyatlarini jalb qilish bilan bog‘liq. Bu og‘zaki taqdimot yoki voqealarni aytib berish yoki ma‘ruzalarni ishlatishdan tashqariga chiqadi, lekin mazmun va o‘qitish san‘ati haqida keng qamrovli tushunchani o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha o‘quvchilar tarixiy tushunchalarni o‘zlashtirishlari hamda tarixiy fikrlash mahoratini oshirishlari uchun sharoit yaratishda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, mavzuning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘qituvchilarni o‘qitish samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni qabul qilishlari kerak [6].

O‘quv jarayonida o‘yin texnologiyalarining o‘rni, roli, shuningdek, o‘yin elementlari hamda ta‘limning o‘zaro uyg‘unligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan pedagogik o‘yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Pedagogik o‘yinlar yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish, mustahkamlash, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko‘nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida o‘quvchilar turli holatlardan o‘quv materialini tushunish, uning negizida ma‘lum ko‘nikma, malaka va sifatni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi [7].

Fikrimizni mantiqiy davom ettirgan holda biz mualliflik texnologiyalari bilan tanishib o‘tamiz:

O‘quvchilarni tarix fanining ajralmas jihatlari bo‘lgan hukmdorlar yoki qahramon shaxslar, sanalar, atamalar, davlatlar kabi muhim jihatlarning o‘ziga xos sifati, xususiyati, farqini tushunib yetishida asosiy vosita bo‘la oladigan «**To‘g‘ri top!**» o‘yin usulini tanishtirib o‘tamiz. Bu o‘yin usuli mavzuning xarakteridan kelib chiqib qo‘llanadi.

Mazkur o‘yin usulidan foydalanish bo‘yicha namuna (1-jadval) keltirib o‘tamiz. 1-kurs «O‘zbekiston tarixi» fanining “IX-XII asrlarda Movorounnahrda fan va madaniyat ” mavzusi asosida tayyorlangan [8].

**1-jadval.**

**«To‘g‘ri top!» o‘yin usuli uchun namuna**

<b>T/r</b>	<b>Ma‘lumotlar</b>	<b>Imom Buxoriy</b>	<b>Imom Termiziy</b>	<b>Abu Mansur al-Moturudiy</b>
1	U arab tili grammatikasiga oid «Al-mufassal» (1121-yil) nomli asarini Makkada yashagan paytida, bir yarim yil davomida yozgan. «Al-mufassal» arab tili nahv-u sarfini o‘rganishda yirik qo‘llanma sifatida azaldan Sharqda ham, G‘arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi.			
2	1998-yili buyuk hadisshunos allomaning 1225 yillik tavalludi keng jamoatchilik tomonidan katta hurmat va ehtirom ila nishonlanib, uning maqbarasi qayta qurildi.			
3	Uning mashhur asarlaridan yana biri «Ash-shamoil an-nabaviya» («Payg‘ambarning alohida fazilatlarini») bo‘lib, ba‘zi manbalarda «Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallollohu alayhi vasallam» nomi bilan ham keltirilgan			
4	U «Hadis ilmida amir al-mo‘miniyn» degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan alohida e‘tiborga molik buyuk olimdir.			
5	Allomani chuqur hurmat va mehr bilan «Ustoz ul-arab va-l-ajam» («Arablar va g‘ayri arablar ustozini»), «Faxr-u Xvarazm» («Xorazm faxri») kabi sharaflı nomlar bilan atashgan.			
6	Markaziy Osiyolik mashhur olim va tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Sam‘oniy (113/1167) «Al- Ansob» nomli asarida yozishicha, at-Termiziy Bug‘ (hozirgi Sherobod tumani) qishlog‘ida vafot etganligi uchun uning nomiga al-Bug‘iy 471 taxallusi ham qo‘shilgan.			
7	Manbalarda ko‘rsatilishicha, u o‘n yoshidan boshlab o‘z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadis ilmi, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to‘plamlarini mutolaa qilib yodlagan, ustozini shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg‘in bahslarda qatnashgan.			

Mazkur o‘yinda namunadagi asosida to‘ldirilgan blankalar o‘quvchilarga tarqatiladi. Ular keltirilgan ma’lumotlar kimga tegishli bo‘lsa to‘g‘ri topgan holda tegishli kataklarga belgi qo‘yib chiqadi. O‘qituvchi mashg‘ulot so‘ngida belgilangan tartibda natijani e‘lon qiladi.

«Aqliy poyga» o‘yini. O‘yinning tavsifi. Ushbu o‘yin usulida o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishtirok etishadi. O‘tilgan mavzuni o‘zlashtirish va takrorlash darslarida qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir. O‘quvchi mavzuning barcha muhim jihatlarini yaxshi va to‘g‘ri o‘zlashtirishini ta’minlash ayni muddaodir.

O‘yinning maqsadi: dars jarayonida o‘quvchilarni erkin, mustaqil, zukko, teran fikrlash, o‘zini-o‘zi baholash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash va har bir javobni isboti bilan izohlashga o‘rgatadi.

**O‘yinning qo‘llanilishi:** o‘rganilgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarni baholash, mustahkamlash, takrorlash uchun mo‘ljallangan.

O‘yin qoidasi: mashg‘ulotga o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan jadval tarqatiladi. Bu jadval har bir guruhga alohida taqdim etiladi.

2-jadval.

«Aqliy poyga» o‘yini uchun jadval namunasi

№	Asr va yillar	Tarixiy-geografik hudud nomlari	Sulolalar, hukmdorlar va tarixiy shaxslar	Tarixiy shahar va qishloq nomlari	Tarixiy atamalar	Soliq turlari
1.						
2.						
3.						

Namuna (2-jadval) 2-kurs «O‘zbekiston tarixi» fanining «Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy hayot» mavzusida tayyorlangan [9].

**Xulosa.** Jadvallardan o‘yin davomida qanday foydalanish lozimligi o‘qituvchi tomonidan batafsil tushuntirib berilishi lozim. Ishtirokchilarning o‘yin qoidasini yaxshi bilishi o‘yinning maqsadiga erishishni kafolatlaydi.

O‘quvchilar jamoa bo‘lgan holda o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan jadvalni mavzuning xususiyatidan kelib chiqib o‘z aqliy qobiliyatidan kelib chiqib to‘ldirishadi. Bunda jadvalda so‘ralgan muhim kompetentlar soni o‘qituvchi ta’kidlagan sonlarga mos ravishda to‘ldirishi maqsadga muvofiq to‘ldirishadi. Jamoaning o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan jadvaliga muvofiq taqqoslanadi va qaysi jamoa aqliy qobiliyati ustunligi yuzasidan baholanadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, o‘qituvchi darsni samarali tashkil etishda u kasbiy bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirishi, shuningdek, yangi pedagogik vazifalarni va o‘qitishning yangi texnika hamda usullarini qo‘llay olish qobiliyatini doimiy ravishda rivojlantirib borishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat”, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son.
3. Nazarova B. A. Pedagogika kollejlari bo‘lg‘usi o‘qituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash. Diss.ped. fan. nom. -Toshkent: 2009. 176-s. 12-bet
4. Жукова Г.С., Никитина Н.И., Комарова Е.В. Технологии профессионально-ориентированного обучения: учеб. пособие. – М.: Издательство РГСУ, 2012. - С.8.
5. Никулина Н.Ю. Методика преподавания истории в средней школе: Учебное пособие / Калинингр. ун-т. – Калининград, 2000. -С.60-61.
6. Gideon Boadu.Effective Teaching in History: The Perspectives of History Student-Teachers//International Journal of Humanities and Social Sciences.Volume 3, No 1, -P.38-51.
7. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – Toshkent: 2015. -B.160-161.
8. Sagdullayev A.S.. “O‘zbekiston tarixi” 1-kitob. Toshkent-2021 B. 468-474.
9. Eshov B.J., Odilov A.A. “O‘zbekiston tarixi” 2-kitob. Toshkent-2020 B.153-164.

## STEAM FANLARNI MODELLASHTIRISHDA DASTURLAR MAJMUASINING AFZALLIKLARI

*Qurbonov Shuhrat Zarifovich,  
Toshkent kimyo-texnologiya instituti  
Shahrisabz filiali mustaqil izlanuvchisi  
shuhratqurbonov544@gmail.com*

*Ushbu maqolada fizik va matematik modellashtirish imkonini beruvchi dasturlar xususida atroflicha mulohaza yuritilgan. Model va modellashtirish funksiyalari to’g’risida nazariy tushunchalar berilgan hamda STEAM fanlar ta’limida talabalarning mustaqil ta’limini integratsiyalash orqali yuqori samaradorlikka erishish, fizik yoki matematik modellarni yaratish bo’yicha tadqiqot ishlari olib borish yo’nalishlari va uslublari ko’rsatilgan.*

**Kalit so’zlar:** model, matematik modellashtirish, fizik modellashtirish, modellar sxemasi, matematik nazariya, fizik amaliyot, fizik jarayonlar, obyekt, dasturlar.

## ПРЕИМУЩЕСТВА КОМПЛЕКСА ПРОГРАММ STEAM ПО ПРЕДМЕТАМ МОДЕЛИРОВАНИЯ

*В данной статье сделан подробный обзор программ, позволяющих проводить физическое и математическое моделирование. Даны теоретические представления о моделях и функциях моделирования, показаны направления и методы проведения исследований по созданию физических или математических моделей, достигающие высокой эффективности за счет интеграции самостоятельного обучения студентов в научное образование STEAM.*

**Ключевые слова:** модель, математическое моделирование, физическое моделирование, схема моделей, математическая теория, физическая практика, физические процессы, объект, программы.

## ADVANTAGES OF THE COMPLEX OF PROGRAMS IN MODELING STEAM SCIENCES

*In this article, there is a detailed review of programs that allow physical and mathematical modeling. Theoretical concepts of models and modeling functions are given, directions and methods of conducting research on creating physical or mathematical models, achieving high efficiency by integrating independent education of students in STEAM science education are shown.*

**Keywords:** Model, mathematical modeling, physical modeling, scheme of models, mathematical theory, physical practice, physical processes, object, programs.

**Kirish (Introduction)** Chegara bilmaydigan ilm-fan yutuqlari, innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirilgan fanlar va mukammal internet olami bugungi kunda jadallik hayotimizga chuqurroq kirib kelmoqda. Hozirda hech bir sohada kuchi texnologiyadan foydalanmasdan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab bo’lmaydi. Ta’limda texnologiyalarni tatbiq etilishi hamda texnologiyaning jadal kengayishi orqali talabalar istalgan vaqtda, istalgan joyda ma’lumot olish imkoniyatini beradi. Kompyuter texnologiyalardan foydalanish usullarini kengayishi kelajakdagi texnika va texnologiyalarning o’zgarishlariga sababchi bo’ladi. Bu o’zgarishlar ta’lim tizimining texnologiya tendensiyalarining rivojlanishiga bog’liq bo’ladi. So’nggi o’n yil ichida texnologiyalardagi o’zgarishlar juda jadallik bilan hayotiy ehtiyojga aylanib bormoqda, ushbu ehtiyojlar tufayli, ta’lim tizimini texnologiyalar bilan integratsiyalash ta’limni texnologiya va texnika rivojlanishi bilan birga olib borilishini ta’minlashi dolzarb masaladir.

Albatta, yangi innovatsion texnologiyalar, zamonaviy kompyuter texnikalarini va dasturlarini rivojlanishi 3 D modellarni yaratish imkoniyatini bermoqda. Obyektlarni 3 D modellarini yaratish asosi baribir STEAM fanlarni modellashtirishiga tayanadi. Ya’ni fizik modellashtirish, matematik modellashtirish, kimyoviy modellashtirish, biologik modellashtirish, texnik modellashtirish, innovatsion modellashtirishlardan foydalaniladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)** Mamlakatimizda STEAM ta’limini rivojlantirish “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini investitsiya dasturlari, xududiy va



tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqiyosidagi texnologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo'nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injenering, ijodiy san'at va matematika) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish" muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda muhandislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun STEAM fanlari ta'limini modellashtirish va raqamlashtirish orqali muammolarning yechimi ham ilmiy ham amaliy ahamiyat kasb etmog'i lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)** Ushbu maqolada biz matematik va fizik modellashtirish haqida atroflicha mulohaza yuritimiz qolgan modellashtirishlar haqida keyingi maqolalarimizda to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Matematik modellashtirish imkoniyatlarini ochib beruvchi dasturlarga: MatCad, MatLab, Maple, Matematika sistemalari va boshqa dastur paketlarini misol keltirish mumkin. Bu dasturlar matematik formulalar va matematik qonuniyatlarni raqamlashtirish vazifasini bajaruvchi dasturlar hisoblanadi. Matematik modellashtirish metodidan matematika ta'limida ikki shaklda foydalaniladi: Birinchidan, birorta ham modellar sxemasiga joylashmaydigan modelga olib kelinadi va bu holda yangi sinf modellarini tadqiq etishning ichki matematik muammosi paydo bo'ladi, u mavjud matematik nazariyaning rivojlanishiga yoki yangi nazariyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Matematik modellashtirish metodining bu shaklidan ko'pincha ma'ruza mashg'ulotlarida foydalaniladi va u quyidagi tuzilmalar asosida quriladi:

1. Yangi matematik tushunchaga olib keluvchi kasbiy mazmundagi masalalarni qarash-modelni tuzush.

2. Yangi mavzu, yangi bo'lim (tushuncha, teoremlar, isbotlash usullari, formulalar) asosiy mazmunini bayon qilib berish.

3. Yaratilgan modelni yangi matematik apparat bilan tadqiq etish.

4. Tuzilgan model yordamida olingan kasbiy mazmundagi masalani yechish yo'riqnoma tuzish va natijani mazkur masala tiliga o'tkazish.

Ikkinchidan, ma'lum ko'rinishdagi matematik modelga keltirish orqali, u materialni mustahkamlash uchun asosan amaliy mashg'ulotlarda tadbiq etiladi yoki ilgari ifodalangan kasbiy mazmundagi masalalarni yechish uchun ma'ruza oxirida foydalaniladi. Bu mashg'ulotning tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

1. Masalaning qo'yilishi.

2. Ma'lum modellar orasidan uning matematik modelini tanlash.

3. Modelni tadqiq etish.

4. Natijani mazkur masala tiliga o'tkazish.

Matematika fanida matematik modellashtirish elementlarini aks ettirish ko'plab asosiy pedagogik vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

Nazariy olingan bilimlarni amaliyotga yo'naltirishni mukammallashtiradi;

Matematikani muhandislik faoliyatida qo'llash imkoniyatini oshiradi; fanlararo bog'liqlikni takomillashtiradi va boshqalar.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results)** Fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradigan dasturlarga: MatCad, MatLab, Maple, Matematika sistemalari, Crocodile Physics, Electronics Workbench, Interactive Physics va boshqa dastur paketlarini misol keltirish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayonlarida qo'llash ijobiy samarasini beradi. Kompyuter modellarini o'quv jarayoniga qo'llash tamoyillari quyidagilar:

1. Kompyuter dasturi tajribani o'tkazish mumkin bo'lmagan yoki tajriba kuzatib bo'lmagan darajada harakatlangan vaqtda qo'llanishi lozim.

2. Tuzilgan kompyuter dasturi o'rganilayotgan detalni aniqlashda illiustrasiyasida yordam bemog'i lozim.

3. Ish natijasida talabalar model yordamida hodisalarni xarakterlovchi kattaliklarni ham sifatii ham miqdoriy bog'lanishlarini ilg'ay olishlari kerak.


4. Dastur bilan ishlash vaqtida talabalarning vazifasi turli qiyinlik darajasidagi topshiriqlarni ishlashdan iborat bo'lib, bu o'z ustida ishlash imkonini beradi [1].

**Interactive Physics** - aslida inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "Jonli fizika" degan ma'noni anglatadi. Bu dastur paketi fizika ustozlari va kompyuter dasturchilarining o'n yillik mehnatlari samarasidir, Interactive Physics dastur paketidagi harakat instrumentlaridan foydalanish mumkin va talabalarning o'zlari mustaqil ravishda muhandis yoki ilmiy mutaxassislar kabi fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatiga egadirlar. Bu dastur davlat ta'lim standartlariga va ta'lim muassasalarida bilim berilayotgan adabiyotlarga mos kelganligi bilan muhim pedagogik qurol hisoblanadi.

Ma'lumki, ba'zi bir jarayonlar yoki fizik modellarning tasnifi chizmalarda to'liq namoyon bo'ladi. Shu bilan birga jarayonning o'zgarishini ko'rish imkoniyati mutlaqo mavjud emas. Bunday vaziyatda

Kompiyuter modellari yordamga keladi. Albatta, fizik jarayonlarning barcha elementlarini o'zida aks ettirgan o'quv filmlari mavjud, biroq bunday filmlarni talabalar passiv tomoshabin sifatida kuzatadilar. Jarayonning kompiyuter modelida esa o'rganuvchi fizik jarayonga bevosita “aralashib” turishi, uning parametrlarini o'zgartirib, unda amal qilinayotgan qonuniyatga qanday ta'sir qilayotgani to'g'risida xulosalar chiqarish, ya'ni bilim olish va uni chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi [2].

Modellashtirish jarayoniga bo'yso'nuvchi, modellashtirish postulatlarini deb ataluvchi quyidagi prinsiplarda ajratib ko'rsatilgan [3] (1-rasm).



1-rasm. Modellashtirish postulatlarini

“Model hech qachon qaralayotgan obyektning barcha xossalari va o'ziga xos jihatlari aks ettirmaydi, unga nisbatan ayniy bo'lmaydi. U soddalashtirishga, ideallashtirishga asoslangan bo'lib, obyektning taxminiy aks ettirilishidir” [4].

Modellashtirishning quyidagi funksiyalari mavjud:

Gnoseologik – fandagi obyektlarni soddalashtirib tadqiq etishni, ularni bevosita o'rganish u yoki bu sababga ko'ra imkoniyati mavjud emas;

Ilyustratsiyali – analiz va umumlashtirish uchun tayanch sezgini hosil qilish;

Evristik – yangi bilimlarni olish;

Integrativ yoki sintezlovchi – bilimning yagona modelini o'rnatish [4].

STEAM fanlar ta'limida talabalar nazariy va amaliy bilimlarni integratsiyalash orqali fizik yoki matematik modellarni yaratish bo'yicha tadqiqot ishlari tashkil etilishining alohida shakl va metodlari haqida quyidagilarni aytib o'tishimiz mumkin. Talabalar fizik yoki matematik modellarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etilishining muhim qismi – tadqiqotchilik elementlari bilan bog'liq obyektning muammosini o'rganish hisoblanadi. Bu ko'rinishdagi tadqiqotlar talabalar va o'qituvchidan hech qanday ortiqcha vaqtni talab etmaydi va barcha talabalarni birday qiziqtiruvchi mashg'ulot sifatida qamrab oluvchi o'quv jarayonining ajralmas qismidir. Bu yerda biz murakkablik darajasi turlicha bo'lgan nostandart yondashuvlarni talab etuvchi va ularni STEAM fanlarini modellashtiruvchi tadqiqotlar obyektini tashkil etishga imkon beruvchi muammolar yechimlarini qarab chiqamiz. STEAM fanlarini modellashtiruvchi tadqiqotlarni o'tkazish natijasida, har bir talabada mazkur obyekt yoki hodisani tashkil etuvchi muhim va muhim bo'lmagan jihatlarni bir-biridan ajrata olish, tadqiqot ketma-ketligini birlashtira olish, tizimlashtirish, farazlarni ayta olish va shu kabi boshqa ko'nikma hamda malakalar shakllanadi. Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, bunday masalalar yechimini izlash jarayonida tafakkur qobiliyatlarini intensive rivojlanishi davom etadi va natijada talabalarda abstract tafakkur qilish salohiyati o'sib boradi.

Talabalar STEAM fanlarini modellashtiruvchi tadqiqotlar jarayonini tashkil etish uchun, yaxshi masalani tanlash yetarli emas, balki uni yechish jarayonini to'g'ri tashkil etish zarurdir. Eng avvalo masala yechish bosqichlari ketma-ketligini pedagogika jihatidan maqsadga muvofiqligini farqlash lozim bo'ladi. An'anaviy amaliyotning aksariyat hollarida, masala xos yechimlari ustida ishlash bilan boshlanib, shu bilan tugaydi hamda ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun eng muhim bosqichlari - masalani tushunish, uning yechimini izlash va uni umumlashtirish kabi muhim jihatlarni amalga oshirilmaydi. Bunday metodikada

maqsad faqat masalaning yechimini topish bo'lib, ta'lim oluvchilarni yechimni izlash va tadqiq qilish metodlariga o'rgatilmaydi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Masala ustida ishlash, eng avvalo, yechimni izlashning umumiy usullarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bunga evristik ko'rsatmalar tizimidan doimiy foydalanish yechimni muvaffaqiyatli izlashga ko'mak beradi.

Shunday STEAM fanlar ta'limida talabalar nazariy va amaliy bilimlarni integrasiyalash orqali fizik yoki matematik modellarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari quyidagi maqsadlarga erishish uchun: yuqori malakali, ijodiy fikrlovchi yuqori malakali, ijodiy fikrlovchi talabaning kasbiy tayyorgarligini mukammallashtirishga;

Ta'kidlaymizki, har qanday hodisalar sinfiga nisbatan shakllangan variatsion tamoyillar nafaqat mexanik, balki fizik, kimyoviy, biologik va boshqa jarayonlarning matematik modellarini bir xilda qurish imkonini beradi [5]. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini va shaxs sifatida rivojlanishiga hamda tadqiqotchilikni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Собирович, Х .В. Физика фанини ўқитишда Interactive PHYSICS дастуридан фойдаланиш. Тошкент 2008.
2. Shadiev R.D. The characteristics of the category concept and their comprehension - components of any understanding. // Science and world. International scientific journal. №7(47).2017, Vol.II. P-66-68.(Impact factor-0,325).
3. Плотникова, С.В. Профессиональная направленность обучения математическим дисциплинам студентов технических вузов Текст. : дис. . канд. пед. наук / С.В. Плотникова. Самара, 2000.
4. Тарасова Н.А. Роль метода математического моделирования в формировании профессиональных умений у студентов инженерно-педагогического вуза Текст. : автореф дис. . канд. пед. наук Тарасова/ Н.А.. -Нижний Новгород, 2002. 22 с.
5. Primov T.I., Qurbonov S.Z. Matematik modellarni tuzishda variatsion tamoillar Academic research in educational sciences 2 (4), 2021 yil

TALABALARNING O’QITILAYOTGAN FANLARGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA  
FOYDALANILADIGAN SAMARALI PEDAGOGIK METODLAR

Sayliyeva Gulrux Rustam qizi,  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston  
g.r.saylieva@buxdu.uz

*Ushbu maqolada bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarida o‘tiladigan aniq fanlar mutaxassisligi fanlarining ma‘ruza va amaliy mashg‘ulot darslarida foydalanilganda samarali natija beradigan pedagogik metodlar haqida fikr yuritilgan. Xususan, “Shkalalashtirish”, “Express-testlar” kabi pedagogik metodlardan foydalanish yo‘llari, afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan. Amaliy mashg‘ulot darslarida talabalarni rag‘batlantirish va shu orqali ularning fanga nisbatan qiziqishini rivojlantirib, darsga faol qatnashishini ta‘minlab beruvchi usullar aytib o‘tilgan. Ushbu usullardan funksional analiz fani darslarida foydalanish uchun bir nechta namunaviy topshiriqlar berilgan. Maqolada keltirilgan pedagogik metodlar darsning mazmunli va maqsadli bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so‘zlar:** “Shkalalashtirish” metodi, “Express-testlar” metodi, Chiziqli fazo, Yevklid fazosi.

ЭФФЕКТИВНЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ДЛЯ  
ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕРЕСА СТУДЕНТОВ К ПРЕПОДАВАЕМЫМ ПРЕДМЕТАМ

*В данной статье рассматриваются педагогические методы, которые дают эффективные результаты при использовании на лекциях и практических занятиях по точным наукам, проводимых сегодня в высших учебных заведениях. В частности, представлена методика использования таких педагогических методов, как «Шкалирование», «Экспресс-тесты», их преимущества и недостатки. В статье также приводятся способы мотивации студентов, обеспечивающие их активное участие на практических занятиях, тем самым, развивая у них интерес к науке. Приводится несколько типичных примеров для применения этих методов на занятиях функционального анализа. Перечисленные педагогические методы, играют важную роль, чтобы сделать урок содержательным и целенаправленным.*

**Ключевые слова:** метод «Шкалирования», метод «Экспресс-тестов», линейное пространство, евклидова пространства.

EFFECTIVE PEDAGOGICAL METHODS USED IN INCREASE STUDENTS' INTEREST IN  
THE SUBJECTS TAUGHT

*This article discusses pedagogical methods that give effective results when used in lectures and practical classes in the exact sciences, conducted today in higher education institutions. In particular, the methodology for using such pedagogical methods as “Scaling”, “Express Tests”, their advantages and disadvantages are presented. The article also provides ways to motivate students, ensuring their active participation in practical classes, thereby developing their interest in science. Several typical examples are given for the application of these methods in functional analysis classes. The listed pedagogical methods play an important role in making the lesson meaningful and focused.*

**Keywords:** "Scaling" method, "Express-tests" method, linear space, Evklid space.

**Kirish.** Bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji har bir ta‘lim muassasasida, xoh u maktab bo‘ladimi, xoh u oliy o‘quv yurtimi fan o‘qituvchisidan o‘z fanini o‘qitishi davomida turli zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanishni talab qiladi. Ushbu metodlarni tanlashda hozirgi talabalarning qiziqishlari, fikrlashi, dunyoqarashini inobatga olish juda muhim. Ushbu maqolada dars davomida talabalarni fikrlarini jamlashning, ularni fanga nisbatan qiziqishlarini oshirishning va dars davomida faol qatnashishlarini ta‘minlashning samarali usullari va bir nechta pedagogik metodlar hamda ularni tadbig‘i keltirilgan. Kuzatishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, talabalarning har bir amaliy mashg‘ulot darslarida baholanishi ularning fanga nisbatan qiziqishi va darsdagi faolliklarini oshirishda samarali yo‘ldir. Quyida biz baholashning maqsadli usullaridan birini keltiramiz.

**Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar.** Aniq fanlar yo‘nalishidagi deyarli barcha asosiy fanlar amaliy mashg‘ulotlarida talabalar turli masalalarni yechish, teoremlarni isbotlash va tahlil qilish

topshiriqlarini bajaradilar. Talabalarni baholashning samarali usullaridan biri bo‘lgan ushbu baholash quyidagicha amalga oshiriladi. Amaliy mashg‘ulot darsida mavzuga oid asosiy masalani fan o‘qituvchisi tahlil qilish va yechish usulini talabalarga dastlab tushuntiradi. Keyin doskaga namunada ko‘rsatilgan misoldan kelib chiqib hal qilinadigan topshiriqlardan bir nechta yoziladi. Doskadagi topshiriqlarga o‘qituvchi tomonidan istalgan talaba ixtiyoriy ravishda ( bunda doskaga chiqishning biror qoidasi yo‘q) chiqariladi. Doskada keltirilgan misollarning barchasi to‘liq doskada ishlab bo‘lingunga qadar bu masalalarni barchasini daftariga ishlab bo‘lgan talabalar ishlari tekshirilib baholanadi. Semestr davomida barcha talabalar bir xil miqdorda doskaga chiqib, masalani yechishiga qarab mos ravishda “5”, “4”, “3” ballar bilan baholanishadi. Oxirgi doskaga chiqish jarayoniga ulgurmagani talabalar oldingi doskaga chiqqanlarida olgan baholari bilan baholanishadi. Shunday qilib barcha talabalar doskaga chiqqanlari uchun baholanishadi. Doskaga yozilgan misollarni doskadan oldin yechgan talabalar ishlari tekshirilib, ularga har safar “3” ballardan berib boriladi, Har bir talabaning semester davomida to‘plagan ballari yozib borilib, oxirida ular jamlanadi. Ballar ichida eng yuqori ball to‘plagan beshta talaba ushbu fandan bo‘ladigan oraliq nazoratidan “5” baho bilan ozod qilinadi. Yuqori ball to‘plagan beshta talabalar to‘plagan ballarini o‘rtachasi ushbu guruh talabalar uchun eng yaxshi ko‘rsatkich deb olinib, o‘rtacha ballning 72 % idan 90 % igacha ball yig‘gan talabalar oraliqdan “4” baho bilan, 60 % idan 72 % igacha ball yig‘ganlar esa “3” baho bilan ozod qilinadi. 60 % ini yig‘a olmagan talabalar oraliq nazorat topshirishadi. Agar “4” baho olgan talaba bahosidan qoniqmasdan oraliq nazoratida qatnashishni xohlasa, unga albatta nazoratga qatnashishiga ruxsat beriladi. Ushbu usulning samaraligi shundaki, barcha talabalar dars davomida ball yig‘ish uchun darsga qatnashishga harakat qilishadi va natijada dars mazmunli va natijali o‘tadi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Yuqorida biz talabalar darsga qatnashishlarini baholovchi samarali usulni keltirdik. Endi ma‘ruza yoki amaliy mashg‘ulotning qanchalik maqsadli, samarali va ko‘zlangan maqsadga qanchalik erishganlik darajasini baholovchi, “Shkalalashtirish” nomli metoddan foydalanish usulini keltiramiz. Dastlab dars mavzusi doskaga yoziladi. Dars boshlanishidan avval guruhning ixtiyoriy ravishda 40 % talabalariga o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan, bir xil uzunlikdagi, ikki tomoniga bir xil miqdorda shkalalar joylashtirib chiqilgan qog‘ozlar tarqatiladi. Qog‘ozga shkalalashtirilgan vertikal chiziqning o‘ng tomoniga “Darsgacha”, chap tomoniga esa “Darsdan so‘ng” degan yozuvlar bo‘ladi. Qog‘ozlar tarqatilgan talabalar qolgan 60 % talabalar bilan professor-o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni mustahkamlaguncha, vertikal chiziqning o‘ng tomonining har bir shkalasiga yangi mavzu yuzasidan shu kungacha o‘zi bilgan ma‘lumotlardan kelib chiqib kalit so‘zlarni yozib chiqishadi va o‘zlari bilgan ma‘lumotlarini foizini aniqlab, o‘ng tomon burchakka yozib, qog‘ozni chetga olib qo‘yishadi. Professor o‘qituvchi mavzuni to‘liq tushuntirib, mavzuga oid masalalarni yechish va tahlil qilish usullarini mukammal ravishda talabalarga tushuntiradi. Darsning oxiriga yaqin yangi mavzuni mustahkamlash qismida qolgan talabalar bilan o‘tilgan mavzumni savol-javob qilib bo‘linguncha yuqoridagi 40 % talabalar tarqatilgan qog‘ozdagi shkalalarning har biriga bugungi darsda o‘rganilgan tushunchalar kalit so‘zlar sifatida yoziladi va foizi hisoblanadi. Hosil qilingan foiz ko‘rsatkichlari orqali bugungi dars mashg‘uloti qay darajada maqsadli bo‘lganligi aniqlanadi. Masalan ushbu metodning Oliy o‘quv yurtining matematika mutaxassisligi talabalariga o‘tiladigan funksional analiz faniga tadbig‘ini qaraylik. Faraz qilaylik, talabalarga yangi bobning birinchi mavzusi bo‘lgan “Chiziqli fazolar va ularga misollar” mavzusi o‘tilayotgan bo‘lsin. Professor o‘qituvchi tomonidan bugungi darsga mo‘ljallab tayyorlangan slydda dars davomida o‘rganiladigan formulalar va tushunchalar yozilgan qismi bo‘lib, ekranda namoyish qilinadi. Talabalar shu tushunchalardan kelib chiqqan holda, ekrandagi kalit so‘zlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan, shu kungacha o‘zlari o‘rganganlarini tarqatilgan qog‘ozlarga quyidagicha yozib oladilar. Bu mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni ular algebra va sonlar nazariyasi, matematik analiz kabi asosiy fanlar orqali o‘rganishgan. Masalan, ular qog‘ozning “Bilaman” degan qismiga quyidagi tushunchalarni yozishlari mumkin.

	<b>BILAMAN! ( Darsgacha)</b>		<b>BILIB OLDIM ! (Darsdan so‘ng)</b>
1	To‘plam	1	Chiziqli fazo
2	$n$ o‘lchamli vektor fazo	2	Haqiqiy chiziqli fazo
3	To‘plamda amalning aniqlanishi	3	Kompleks chiziqli fazo
4	kommutativlik	4	Yevklid fazo
5	assotsiativlik	5	Banax fazo
6	Neytral elementning mavjudligi	6	To‘la fazo
7	Simmetrik elementning mavjudligi	7	Normalangan fazo
8	Skalyarga ko‘paytirish	8	Uzluksiz funksiyalar fazosi
9	tranzitivlik	9	Integrallanuvchi funksiyalar fazosi
10	Uzluksiz funksiyalar	10	Kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar fazosi

11	Integrallanuvchi funksiyalar	11	Birinci tartibli hosilasigacha uszluksiz funksiyalar fazosi
		12	Chegaralangan ketma-ketliklar fazosi
		13	Limiti a ga teng ketma-ketliklar fazosi
		14	Limiti nolga teng ketma-ketliklar fazosi
		15	K-darajasigacha jamlanuvchi ketma-ketliklar fazosi
		16	Banax teoremasi
		17	Kuchli yaqinlashish
		18	Norma bo'yicha yaqinlashish
		19	Chegaralangan fazo
		...	...
%	11 %		100 %

Ma'ruza mashg'uloti to'liq tushuntirib bo'linganidan keyin talabalar jadvalning “Bilib oldim ” deb nomlangan ustuniga yuqorida farqli rangda yozilgan tushunchalarni yozishlari mumkin.

Ma'ruza mashg'ulotida talabalarga berilgan bilim va ko'nikmaning samarali bo'lishida va keyinchalik talaba o'rganganlaridan bevosita foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishida darsning mustahkamlash qismi ham muhim rol o'ynaydi. O'rganilgan yangi ma'lumotlar shu kungacha o'rganilgan bilimlarga bog'lab eslab qolishga harakat qilinsa yaxshi natija beradi. Ushbu maqolada har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning mustahkamlash qismida samarali foydalanish mumkin bo'lgan “Express-testlar” metodini ishlash mexanizmini keltiramiz.

Express-testlar ma'lum tushunchalar ketma-ketligidan so'ng (1-2 mavzu) shu mavzularda o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini nazorat qilish va uni mustahkamlash uchun o'tkazish maqsadga muvofiq. Express-testlar adatda shu mavzularga oid 3-4 ta kichik va yengil mashg'ulot topshiriqlardan yoki testlardan iborat bo'ladi. Express-testlarni dars davomida, qisqa vaqt vaqt oraliqlarida (5-10 min) o'tkazish mumkin. Topshiriqlar ko'p variantli tizimda kartochkalarda tarqatiladi. Bu testni o'tkazishdan asosiy maqsad talabalarning ma'ruza yoki amaliy mashg'ulotda berilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganliklari tezkor ravishda aniqlab olishdan iborat.

Talabalarning o'zlashtirganlik darajalarini nazorat qilish va baholash topshiriqlarining namunalari turli xil manbalardan yig'ilgan bo'lib, ular haqida ma'lumotga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash o'qituvchilar uchun foydadan xoli bo'lmaydi.

Topshiriqlar quyidagi bandlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Bo'sh qoldirilgan joylarni zarur so'zlar bilan to'ldiring
2. Jumlaning ma'nosidan kelib chiqib, qavslar ichida keltirilgan so'zlardan mosini tanlang va tagiga chizing
3. To'g'ri javobni toping
4. Ikki tasdiqdan to'g'risini ajrating
5. Ta'rifdagi (jumladagi) xatoni toping
6. Quyida keltirilgan so'zlarning ma'nosidan kelib chiqib, mantiqiy juftliklarni tuzing
7. Matematik tushuncha va atamalar talqiniga ko'ra jumlani davom ettiring
8. Quyida keltirilgan formulalar qaysi matematik tushuncha xossalriga tegishli ekanligiga qarab, jufti-jufti bilan mos guruhlariga ajrating
9. A ustunda berilgan atamaga B ustundagi tegishli talqinni mos qo'ying
10. Andazaga ko'ra masala tuzing va uni yeching
11. Sonli yozma ish (diktant)

O'qituvchi o'quv taxtasiga bir nechta atamaning nomlarini yozib nomerlab chiqadi. So'ng esa, bu atamalarning (tushunchalarning) nomini aytmasdan ta'rifini ixtiyoriy tartibda o'qiydi. O'quvchilar esa bu atama (tushuncha) qaysi raqam ostida yozilganligini topishlari so'raladi. Natijada 5, 6, 10, 1, 7, 2, 3, 12, 4, 9, 8 ko'rinishdagi sonli satrdan iborat javob hosil bo'ladi. .

12. Biror mavzuga oid masala yoki savol tuzish

Masalan, Funktsional analiz fanidan o'tilgan “Yevklid fazosi. Ortogonallashtirish jarayoni. Gilbert fazosi” mavzusini mustahkamlash qismida “Express-testlar” metodi uchun quyidagi topshiriqlarni olishimiz mumkin.

**1-Topshiriq. Bo'sh qoldirilgan joylarni zarur so'zlar bilan to'ldiring.**

- a) Cheksiz o'lchamli to'la Yevklid fazosi \_\_\_\_\_ fazosi deyiladi;

b) Yevklid fazosi \_\_\_\_\_ ko‘paytma kiritilgan chiziqli fazodir;

c) Agar  $R$  va  $R^*$  Yevklid fazolari o‘rtasida o‘zaro bir qiymatli moslik o‘rnatish mumkin bo‘lib,  $x \leftrightarrow x^*, y \leftrightarrow y^*, x, y \in R, x^*, y^* \in R^*$

ekanligidan

$$x + y \leftrightarrow x^* + y^*, \lambda x \leftrightarrow \lambda x^* \text{ va } (x, y) = (x^*, y^*)$$

munosabatlar kelib chiqsa,  $R$  va  $R^*$  lar \_\_\_\_\_ fazolar deyiladi.

d)  $H$  separabel Hilbert fazosining ixtiyoriy  $M$  qism fazosida shunday  $\{\varphi_n\}$  \_\_\_\_\_ sistema mavjudki, uning chiziqli qobig‘ining yopig‘i  $M$  ga teng.

**2-Topshiriq. Jumlaning ma‘nosidan kelib chiqib, qavslar ichida keltirilgan so‘zlardan mosini tanlang va tagiga chizing.**

a)  $\ell_2$  va  $L_2[a, b]$  lar cheksiz o‘lchamli \_\_\_\_\_ (to‘la, separabel, to‘la separabel) fazolaridir.

b)  $R$  separabel Evklid fazosining har qanday  $R'$  qismi \_\_\_\_\_ (yana separabeldir, o‘ziga ortogonaldir, o‘zaro ortoniormaldir).

c)  $M \subset H$  qism fazoning ortogonal to‘ldiruvchisining ortogonal to‘ldiruvchisi \_\_\_\_\_ (bo‘sh to‘plamdir,  $M$  ning o‘ziga teng, ya‘ni  $(M^\perp)^\perp = M$ , mavjud emas).

d)  $H$  fazodagi har qanday ortonormal sistemani \_\_\_\_\_ (to‘la sistemagacha,  $H$  fazogacha,  $H$  ning qo‘shmasigacha) to‘ldirish mumkin.

**3. To‘g‘ri javobni toping.**

a)  $C_2[a, b]$  haqiqiy Yevklid fazosida skalyar ko‘paytma qanday aniqlangan?

$$A) (f, g) = \int_a^b f(t)g(t)dt, \quad B) (f, g) = \int_a^b (f(t) + g(t))dt, \quad C) (f, g) = \int_a^b \frac{f(t)}{g(t)}dt$$

b)  $C^n - n$  o‘lchamli kompleks vektorlar fazosida skalyar ko‘paytma qanday aniqlanadi?

$$A) (x, y) = \sum_{k=1}^n x_k \overline{y_k}, \quad B) (x, y) = \sum_{k=1}^n \overline{x_k y_k}, \quad C) (x, y) = \sum_{k=1}^n (x_k + \overline{y_k}).$$

c)  $\ell_p, (p \geq 1) - p$  -darajasi bilan jamlanuvchi ketma-ketliklar fazosida skalyar ko‘paytma qanday aniqlangan?

$$A) (x, y) = \sum_{k=1}^{\infty} x_k \overline{y_k}, \quad B) (x, y) = \sum_{k=1}^{\infty} \overline{x_k y_k}, \quad C) (x, y) = \sum_{k=1}^n (x_k + \overline{y_k}).$$

**4. Ikki tasdiqdan to‘g‘risini ajrating. To‘g‘ri tasdiqni \* orqali belgilang?**

a)  $L$  -chiziqli fazo qachon Yevklid fazosi deyiladi?

■  $L$  -chiziqli fazoda “+” va skalyarga ko‘paytirish amallari aniqlangan bo‘lsa, unгаа Yevklid fazosi deyiladi.

■  $L$  -chiziqli fazoda skalyar ko‘paytirish amali aniqlangan bo‘lsa, unгаа Yevklid fazosi deyiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, auditoriyaga kirayotgan har bir professor-o‘qituvchi o‘tayotgan har bir darsining mazmunli bo‘lishi va talabalarining shu mavzu yuzasidan yetarlicha, bugungi zamonaviy ta‘lim standartlariga mos ravishda ta‘lim olishida mas‘uldir. O‘z kasbini to‘laqonli bajarishni maqsad qilgan hamkasblarimiz kirayotgan har bir auditoriyasi talabalaridan kelib chiqqan holda dars davomida foydalanadigan metodlardan eng munosibini tanlashi va uni dars jarayoniga samarali qo‘llay olishi lozim. Ushbu maqolada ular foydalanishi mumkin bo‘lgan bir nechta zamonaviy pedagogik metodlar va ulardan foydalanish tartibi keltirilgan.

#### Adabiyotlar:

1. Abdullayev J.I., G‘anixo‘jayev R.N., Shermatov M.H., Egamberdiyev O.I., Funktsional analiz va integral tenglamalar, darslik, Toshkent, El press-2013.

2. Sayliyeva G.R., Diskret matematika va matematik mantiq fanida bul funksiyalarni jégalkin ko‘phadlariga yoyish mavzusini mustahkamlashda «matematik domino» metodidan foydalanish, Scientific progress, 2(2), 2021, 773-780.

3. Sayliyeva G.R., Sharipova S.A., Hardi tengsizligi va uning baholanishi, Science and education, may 2023/ Volume 4, Issue 5, (58-64-b.).

4. Sayliyeva G.R., Nurilloeva M.M.,  $AW^*$  -faktorlarning tuzilishi, Science and education, may 2023/ Volume 4, Issue 5, (22-28-b.).

## KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINING LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI O'RGANISHDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

*Turdimurodov Baxtiyor Qurbonovich,*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali*

*“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida katta oqituvchisi*

*baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com*

*Ushbu maqolada bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining laboratoriya mashg'ulotlarini o'rganishda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llarini va shu bilan birga kreativlik qobiliyatlarini oshirishga alohida to'xtalgan. O'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Shu sababli maqolamizda kasb ta'limi o'qituvchilarining laboratoriya mashg'ulotlarini o'rganishda kreativ qobiliyatlarini takomillashtirish e'tiborga olingan.*

**Kalit so'zlar:** kreativlik, qobiliyat, kreativ qobiliyat, innovatsion uslub va yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikrlash, laboratoriya mashg'uloti.

## ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ УЧИТЕЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ

*В данной статье рассматриваются эффективные способы развития творческих качеств и одновременно повышения творческих способностей будущих учителей профессионального образования при изучении лабораторной деятельности. Формирование творческих способностей учителей сегодня считается одной из актуальных проблем. Поэтому в нашей статье рассматривается совершенствование творческих способностей педагогов профессионального образования при изучении лабораторных занятий.*

**Ключевые слова:** креативность, способности, творческие способности, инновационные методы и подходы, инновационные педагогические технологии, творческое мышление, лабораторное обучение.

## EFFECTIVE WAYS TO DEVELOP CREATIVITY QUALITIES OF VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS IN LEARNING LABORATORY ACTIVITIES

*This article focuses on the effective ways to develop creativity qualities and, at the same time, to increase creativity skills of future vocational teachers in the study of laboratory activities. Formation of creative abilities of teachers is considered one of the urgent problems today. Therefore, in our article, the improvement of creative abilities of vocational education teachers in learning laboratory exercises is considered.*

**Key words:** creativity, ability, creative ability, innovative methods and approaches, innovative pedagogical technologies, creative thinking, laboratory training.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev: “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur..” deb ta'kidlab o'tganlar.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirishda ta'limning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy-metodik asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish borasida chora-tadbirlar belgilab berildi[1].



**Muhokama va natijalar.** Bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashuv va dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida ko‘zlangan natijalarga erishishda hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilim va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash bosh maqsadimizdir. Chunki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiradigan kadrlar ta‘lim muassasalarida o‘qib-ulg‘ayadi. Demak, sifatli ta‘lim tizimi sifatli kadrlarni, sifatli kadrlar esa rivojlangan, boy jamiyatni quradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (YuNESKO, NENISEF) Xalqaro forumida qabul qilingan 2030-yilgacha ta‘lim deklaratsiyasida “... ta‘lim sifatini oshirish va shaxsning butun umri davomida ta‘lim olishini muvofiqlashtirish va monitoringini o‘tkazish” e‘tirof etilgan bo‘lib unda, malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida zamonaviy bilim – tajribalar, ta‘lim texnologiyasi, innovatsion va interfaol metodlar, ta‘limning didaktik vositalari, axborot texnologiyalaridan foydalanishning sifat va samaradorligini oshirish zarurati yuzaga kelganligi aytilgan.

Jahon miqyosidagi ta‘limda laboratoriya mashg‘ulotlarini interfaol dasturiy vositalar hamda ularning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida qator, ilmiy natijalar olingan, jumladan muammoli o‘qitishning interfaol ta‘lim texnologiyalari ishlab chiqilgan (Leiden University), laboratoriya mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda o‘qituvchilarning fikrlash tafakkurini rivojlantirishning interfaol dasturiy vositalari yaratilgan (Polish Society For Himan Evolution Studies), o‘quv-metodik, ilmiy tadqiqot jarayonlarining integratsiya va differentsiatsiya ustuvorligi asosida modulli ta‘lim tizimi ishlab chiqilgan (Center for Celiutar and Molceular Biology); tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlari PISA (Programma for International Student Assessment) dan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan (Rossiya ta‘limni rivojlantirish strategiyalari instituti)[2].

Kreativlik bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilari dunyoqarashi, birinchidan, kreativ faoliyat strategiyasini ko‘rsatib beradi; ikkinchidan, natijalariga baho berishda ishonchli, tartibga soluvchi ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Va, albatta, M.Plank bu borada haq bo‘lgan, u shunday deb ta‘kidlaydi, tadqiqotchining dunyoqarashi har doim uning kreativ yo‘nalishini belgilaydi. Kreativ qobiliyat rivojlanishi jarayonida juda muhim vazifalarni bajaradi.

Ta‘kidlash joizki, dunyoqarash bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilari kreativ imkoniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. B.S.Shayginaning “Ijodkorning dunyoqarashi tajribada asosiy omil, uning yetarli ekanligi o‘qituvchilarining butun kreativlik xususiyatini yo‘qqa chiqarishi mumkin” – degan fikriga to‘la qo‘shilish mumkin.

Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining kreativlik xususiyati uchun yuqori darajali intellektual qobiliyat bilan bir qatorda, har qanday kreativ faoliyatda maqsadga intilish va tashkilotchilik qobiliyati muhim hisoblanadi. Bularni umumlashtirgan holda, bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarining boshqarish va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati sifatida aniqlash mumkin. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilari kreativ qobiliyatlari intellektual tarkibiy qismining mantiqiylikni ko‘rsatishi kerak.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

**Kreativlik** (lot., ing. “sreate” – yaratish, “sreative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma‘nosini ifodalaydi.

P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta‘sirchanlik.

Modomiki, kreativlik – aqliy jarayon ekan, odam aqlini yuksaltirishning, rivojlantirishning, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishning bitmas-tuganmas yo‘llari va usullari, albatta, topiladi. Bu borada mutaffakir Abu Ali ibn Sino qarashlarida ham kreativlikni talqin etishimiz mumkin. Uning qarashlarida o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining mayl, intilish, faolligi, qobiliyati, iste‘dodi va layoqatini aniqlamasdan turib, uni ijodiy fikrlashga yo‘naltira olmaydi degan.

Mutaffakir Jalolidin Davoniy “Axloqi Jaloliiy” nomli asarida insoniy fazilatlarida aqliy qobiliyat va aqliy iste‘dodni tarbiyalash uchun zukko, zehni, fahm-farosatli, ijodkor bo‘lishi va bilimlarni tez eslab qolishi, ularni anglab yetish lozimligini ta‘kidlagan.

Mutaffakir Zahiriddin Muhammad Bobur qarashlarida ham kreativlikni ko‘rishimiz mumkin: U inson shaxsining taraqqiy ettirishning asosiy yo‘llaridan biri deb muammoli vaziyatni, ijodkorlikni tushunadi va undan o‘z faoliyatida unumli foydalangan[3].

Kreativlik (ijodiylik) – qandaydir yangi, betakror narsa yaratish layoqati, yangicha fikrlash, original g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. Tushunchaga berilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, kreativlik ham xuddi tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondashuv xislatlari singari albatta tug‘ma, ilohiy tuhfa bo‘lishi aslo shart emas.

Kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda ta’lim oluvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi: ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash; “ta’lim oluvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish; ta’lim oluvchilarda individual, kichik” guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish va hokazo[4].

Laboratoriya mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda yuqori baho olishga intilish, kreativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari uchun natijaga baho berish ahamiyati bilan ifoda etiladi. Baho berish uchun bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining laboratoriya mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda muvaffaqiyatsizlikdan umidsizlanishi, rag‘batlantirishga munosabati, o‘z natijalariga baho va maqtovlardan ta’sirlanishi asos qilib olindi.

Kreativ vaziyat-bu bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining dunyoqarashidagi ba’zi dialektik qarama-qarshilikni hal qilish taqozo qilib bu bir vaqtning o‘zida shaxsning salohiyatini rivojlantirishni rag‘batlantiradigan yangi usul, texnika, faoliyat vositalarini izlashga undaydi. **Kreativ vaziyatlar** quyidagilardan iborat:

*munozarali vaziyat;*

*tanqidiy fikrlash, baholashni talab etuvchi vaziyat;*

*o‘xshashlarni qo‘llashni talab etuvchi vaziyat;*

*taxmin qilish, farazlarni ilgari surish vaziyatlari va boshqalar.*

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining shaxs kreativligi uning tafakkurida his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Masalan, laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda ular uzviy birlikda va yuqori darajadagi kreativ qobiliyatda namoyon bo‘lib, bular ilg‘or ijtimoiy, shaxsiy va kreativ natijalarga erishishga imkon beradi.

Kasb ta’limi o‘qituvchilaridan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishga doir o‘quv material turli shakllarda ifodalanadi. Masalan, muammoli tajribalar bajarishga oid o‘quv materialining asosiy g‘oyasini matn ko‘rinishida, ko‘nikma yoki malaka darajasida shakllantirish rejalashtirilgan faoliyatni mashq ko‘rinishida, o‘zlashtirilganligi darajasi aniqlanayotgan bilimlarni test topshirig‘i shaklida, muammoli tajribalar bajarish shaklida, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarilarda bilishga rag‘batni oshirish uchun muammo shaklida, ularni kreativ faoliyatga undash maqsadida topshiriq shaklida, faollikni rivojlantirish uchun o‘yin va h.k. ko‘rinishida ifodalash mumkin. Ularning barchasi ta’lim jarayonida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining bilimlarni o‘zlashtirishlari uchun vosita vazifasini bajaradi, xolos. Bunday vositalarning har biri xususida quyida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz[5].

Kompyuterli ta’limda kasb ta’limi o‘qituvchilaridan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishga doir o‘quv materiallarining mazmuni matn sifatida kompyuter ekranida namoyish qilinadi. Bunday laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishga oid o‘quv materiallari matnlari mazmunan chuqur ilmiy-g‘oyaviy va mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi hamda bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari uchun tushunarli, hissiyotga boy va sodda tilda yoritilishi lozim.

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni qanchalik darajada o‘zlashtirishi laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishga doir o‘quv materialini bayon qilishda foydalaniladigan ko‘rgazmali vositalarga bevosita bog‘liq. Kasb ta’limi o‘qituvchilaridan laboratoriya mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari asosida mustaqil bajarishda metodlardan foydalanish talab qilinadi.

Kasb ta’limi o‘qituvchilaridan laboratoriya mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda interfaol metodlardan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

-bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda uchraydigan tayanch tushunchalarni bilish va ularning bir-biriga o'zaro qanday uzviy bog'liqligini aniqlash;

-bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida mustaqil bajarishga erishishiga;

-bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda faolligi va kreativligining o'sishiga;

-bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda o'quv-metodik majmualardan mustaqil holda foydalanishiga hamda uning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malaka kompetensiyalari kengayishiga.

Kasb ta'limi o'qituvchilaridan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda zamonaviy kompyuter va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, birinchidan, kasb ta'limi o'qituvchilarining bilim saviyasi va sifatini oshirsa; ikkinchidan, kompyuter va axborot kommunikatsion texnologiyasi bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kundalik ish quroliga aylantiradi. Bu o'z navbatida kompyuter va axborot kommunikatsion texnologiyalarini kasb ta'limi o'qituvchilaridan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda keng qamrovda qo'llash hamda ulardan foydalanish, shuningdek, kompyuter savodxonlikni shakllantirish dolzarb muammo ekanligini taqozo etadi.

Jumladan, laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarish kreativ faoliyat jarayonida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari oldiga qo'yilgan nazariy va amaliy topshiriqlar mazkur jarayonning harakatlantiruvchi kuchlar bo'lib hisoblanadi. Kasb ta'limi o'qituvchilaridan laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarish jarayonida kreativ faoliyat davriyligi o'zining murakkabligi bilan bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari ongiga kreativ faoliyatga doir ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarish jarayonida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari ongida kreativ faoliyat davriyligiga amal qiladigan ziddiyatlar ikki xil bo'ladi:

**1. Salbiy ziddiyatlar.** Ziddiyatlarning bu turi kasb ta'limi o'qituvchilaridan yangi laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish vaqtida bartaraf etilishi zarur. Negaki, ular kreativ faoliyat davriyligining, binobarin, nazariy bilimi, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini o'zlashtirishning ongli kechishiga to'sqinlik qiladi.

**2. Ijobiy ziddiyatlar.** Laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari kreativ faoliyati davriyligining ma'lum bir qonuniyatga ko'ra, harakat qilish uchun zarur ziddiyatlar. Ziddiyatlarning bu turi bartaraf qilinmaydi. Aksincha, ular bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari kreativ faoliyati davriyligi jarayonida maxsus metodlar orqali rivojlantiriladi.

***Laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish davrining quyidagi holatlari mavjud:***

kreativ faoliyatning umumiy maqsadini belgilash;

kreativ faoliyat maqsadini umumiy shakllantirishdan aniqlashtirishga o'tish;

bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kreativ faoliyatga tayyorgarlik darajasini tashxislash;

bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va kompetensiyaviy masalalarni korreksiyalash;

kreativ faoliyat natijasini tekshirish.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari bilan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishga doir material o'rtasidagi bog'lanishlarni quyidagi guruhlariga ajratishi mumkin:

***maqsadli bog'lanish*** bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari bilan u yoki bu o'quv materiali o'rtasida aloqa;

***mazmunli bog'lanish*** bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari bilan o'rganilayotgan o'quv materiali mazmuni o'rtasidagi aloqa;

***funksional bog'lanish*** bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari bilan o'rganilayotgan ob'ekt faoliyatida bajariladigan muammoli tajriba o'rtasidagi aloqa;

***metodik bog'lanish*** bu bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari bilan laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishga doir materialni o'rgatish metodi o'rtasidagi aloqa;

***boshqaruv faoliyati*** - bu bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishga doir materialni o'zlashtirishning bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga ko'tarilishiga rahbarlik;

***kreativ faoliyat*** bu ta'lim natijalarini tahlil qilish, ta'lim jarayonida uchraydigan ijobiy va salbiy aloqalarni tasnif qilishda o'qituvchining bilish faoliyati.

Kasb ta'limi o'qituvchilaridan laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishga doir nazariy bilimni o'zlashtirgan holda amaliy ishlarni bajarish va ulardan kreativ faoliyatda foydalanish usullari - taqqoslash, guruhlash, tasniflash bir-biriga uyg'unlashtirish, natijani olish. Laboratoriya

mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda sifat o'zgarishlar bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari kreativ faoliyati natijalarida yuz beradi. Davrdan davrga o'tgan sari bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari mavhum, harakatsiz, atroflicha anglanmagan bilimlardan aniq, tushunilgan, harakatchan bilimlarga qarab boradi. *Bilimlarni o'zlashtirish quyi darajadan yuqori darajaga ko'tariladi.*

***Kasb ta'limi o'qituvchilaridan laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarish loyihasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan quyidagi topshiriqlar tizimi belgilab chiqildi:***

1. Dastur, darslik, o'quv-qo'llanmalar, laboratoriya topshiriqlarining yo'riqnomasining umumiy tavsifnomasi bilan tanishish.

2. Kreativ faoliyatda laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishning asosiy vazifalari majmuasi: o'qitish, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarini belgilash.

3. Kreativ faoliyatda laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishning asosiy bosqichlarini to'g'ri, aniq va izchillikda joylashtirish.

4. Kreativ faoliyatda laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishning har bir bosqichi mazmunidagi asosiy o'rinni ajratish.

5. Kreativ faoliyatda har bir bosqich uchun interfaol metodlarni, shuningdek, laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarish metod va vositalarini tanlash.

6. Kreativ faoliyatda laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishning har bir bosqichi uchun uning yetakchi: umumsinfy, kichik guruh va individual shakllarini tanlash.

7. Kasb ta'limi o'qituvchilarilari uchun vaqt me'yorlariga muvofiq uy vazifasining optimal hajmi va mazmunini tanlash.

Kasb ta'limi o'qituvchilaridan laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda darslarda muammoli vaziyatlar hosil qilish uchun uchraydigan qarama-qarshiliklar tipini aniqlash lozim. Tadqiqot ishimizning ko'rsatishicha, kasb ta'limi o'qituvchilaridan laboratoriya mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari asosida bajarishda muammoli vaziyatlar yaratish uchun qarama-qarshiliklarning quyidagi uch tipidan foydalanish mumkin:

1. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarilarning hayotiy mashg'ulotlari bilan o'rganilayotgan bilimlari orasidagi qarama-qarshilik.

2. Bilish jarayonidagi qarama-qarshilik. Boshqacha aytganda, o'rganilgan bilimlari bilan yangi o'rganilayotgan bilimlari orasidagi qarama-qarshilik.

3. Obyektiv reallikning o'zidagi qarama-qarshilik.

Laboratoriya mashg'ulotlari guruhlarda tashkil etilgan va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun o'rganilgan axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va boshlang'ich amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida faol va interaktiv shakllarda kompyuter sinfida, sinfdan tashqari ish bilan birgalikda olib boriladi. Tajriba ishi jarayonida o'quv intizomining asosiy nazariy qoidalari ham tushuntiriladi va fanlararo aloqalar aniqlanadi.

Laboratoriya vazifalarini tayyorlash va bajarish paytida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilariga Microsoft Office dasturiy ta'minotining ma'lumotnomalaridan, C ++ va HTML dasturlash tillaridan, O'zbekiston Respublikasining elektron hukumat tizimidan, tavsiya etilgan adabiyotlardan va raqamli ta'lim manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Internetda va universitetning mahalliy tarmog'ida joylashtirilgan tegishli o'quv materiallarini tarqatish tariqasida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilariga laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatmalarning oldindan elektron versiyalari beriladi, agar ular kerak bo'lsa, mustaqil ravishda kerakli miqdordagi qog'ozga ko'paytiriladi yoki flesh-xotirada saqlanadi.

Laboratoriya ishining zaruriy tarkibiy elementlari, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining mustaqil faoliyatidan tashqari, shuningdek laboratoriya ishlari natijalarini muhokama qilishni tashkil etishdir. Har bir laboratoriya tajribasi uchun ishning maqsadi, o'quv vazifasini bajarish uchun ko'rsatma va ko'rsatmalar berilgan, ba'zilar esa ushbu mavzuning asosiy nazariy qoidalarini o'z ichiga oladi.

**Xulosa.** Olingan xulosa va bildirilgan tavsiyalardan o'quv jarayoni sifatini ta'minlashda, kasb ta'limi o'qituvchilarining laboratoriya mashg'ulotlarini o'rganishda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari ochib berish, ta'lim muassasalari faoliyatida kreativ yondashuv asosida o'qitishni takomillashtirish jarayoniga xizmat qiladi.

Xulosa shundan iboratki, laboratoriya mashg'ulotlarini texnik qurilmalar yordamida ishlatishda kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilish imkoni mavjud. Bu laboratoriya mashg'ulotlarini bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmasini takomillashtirish zarur va kompyuter dasturlarini mustaqil va amaliy ishlata olishligi muhimdir.

**Adabiyotlar:**

1. 2-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-son Farmoni tahririda – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son).
2. Incheon declaration /Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum. 19-22 may, 2015 y. Incheon. Republic of Korea).
3. Turdimurodov B. K. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodologiyasi. Ta’lim, fan va innovatsiya. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274, 2023yil 4-son – C. 338-342.
4. Turdimurodov B. Kasb ta’limi axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini tayyorlashda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirish. electronic education. Scientific journal. September, 2023, No4, Vol.3 ISSN 2181-1199 – C. 83-97.
5. Turdimurodov B. et al. Tibbiyotda kompyuter texnologiyalari: aloqa tarixi, ahamiyati va istiqbollari // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 140-146.
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
7. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. -T.: 2017, 39 b
8. Muslimov N.A. “Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi” /Monografiya. -T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
9. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. -T.: “Fan”, 2005.
10. <http://www.uza.uz>

**UZLUKSIZ TA'LIM YAXLIT MAKONINI MODELLASHTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY TAHLILI**

*Umarov Lutfillo Murodilloyevich,*

*Qarshi davlat universiteti*

*“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası dotsenti (PhD)*

*umarovlutfulla275@gmail.com*

*Ushbu maqolada uzluksiz kasbiy ta‘limning mohiyatini ko‘rib chiqishda muallif yangi tushunchalarning hosil bo‘lishi; hosila tushunchalarni aniqlash, farazni ilgari surish va asoslash; muallif tomonidan ilmiy-nazariy va amaliyotga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning integratsiyalashgan tizimi sifatida ko‘rilgan uzluksiz kasbiy ta‘lim rivojlanishi tamoyillarini belgilashga tayangan. Nazariy tadqiqotning pirovard maqsadi tushunchalarning yagona konseptual tizimini aniqlash va yaratishdan iborat bo‘lib, uning yordamida uzluksiz kasbiy ta‘limning yaxlit makonini pedagogik modellashtirish amalga oshirilganligi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** uzluksiz kasbiy ta‘lim, uzluksiz ta‘lim makoni, o‘zaro aloqadorlik, darajalar bo‘yicha subordinatsiyalanganlik.*

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В МОДЕЛИРОВАНИИ ЦЕЛОСТНОГО ПРОСТРАНСТВА НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*В данной статье, рассматривая природу непрерывного профессионального образования, автор рассматривает формирование новых понятий, на основе определения принципов развития непрерывного профессионального образования, рассматриваемого автором как целостной системы научно-теоретической и практико-ориентированной педагогической деятельности, выявляет производные понятия, выдвигает и обосновывает гипотезы. Конечной целью теоретического исследования является выявление и создание единой концептуальной системы понятий, с помощью которой осуществляется педагогическое моделирование целостного пространства непрерывного профессионального образования.*

***Ключевые слова:** непрерывное профессиональное образование, пространство непрерывного образования, взаимосвязанность, подчинённость по уровням.*

**THEORETICAL ANALYSIS OF THE IMPLEMENTATION OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE MODELING OF THE INTEGRATED SPACE OF CONTINUOUS EDUCATION**

*In this article, when considering the essence of Continuing Professional Education, the author relied on the formation of new concepts; the identification of derived concepts, the promotion and justification of the hypothesis; the definition of the principles of the development of Continuing Professional Education, seen by the author as an integrated system of scientific-theoretical and practice-oriented pedagogical activity. The ultimate goal of theoretical research is to identify and create a unified conceptual system of concepts, with the help of which pedagogical modeling of a holistic space of continuous professional education is carried out.*

***Keywords:** continuing professional education, continuing education space, interoperability, degree subordination.*

**Kirish.** Uzluksiz kasbiy ta‘limning zamonaviy holati ijtimoiy va ta‘lim sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarning o‘zgarishi pedagogik tadqiqotlarda uzluksiz kasbiy ta‘lim mazmunli tavsifining bir necha jihatlari belgilangan bo‘lib, ularda ta‘lim qadriyat, tizim, jarayon va natija sifatida ko‘rib chiqiladi.

Uzluksiz ta‘lim makonini tadqiq qilishning markaziy g‘oyasi shaxs ijtimoiy-gumanitar salohiyatidan foydalanish asosida uning imkoniyalarini kengaytirish va kasbiy faoliyatga innovatsion yondashuvni shakllantirishdan iborat [1;136-b.] Mazkur kontekstda talabaga ta‘lim olishning xususiy dasturini amalga oshirish imkoniyatini taqdim qilgan, vaqt, sur‘at va yo‘nalganligiga ko‘ra, individuallashtirilgan ta‘lim uzluksiz deb aniqlangan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Uzluksiz ta‘lim ijtimoiy-pedagogik tabiatini tadqiq qilishga ko‘rsatilgan tendensiyalar hamda madaniyatshunoslikka asoslangan yondashuvning rivojlanishini hisobga

olgan holda, tadqiqotning falsafiy asoslari sifatida quyidagilar tanlangan: ziddiyatlarni hal qilishning asosiy manbasi hisoblangan rivojlanish to‘g‘risidagi falsafiy ta‘limot hamda faoliyat falsafiy nazariyasi (G. Gegel, I. Kant, I. Fixte, M.S. Kagan va b.);

butunlik (yaxlitlik) va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan pedagogik jarayonga quyidagi ilmiy-pedagogik yondashuvlar: tizimli (V.G. Afanasyev, F.F. Korolev, N.V. Kuzmina, G.P. Shedrovitskiy, V.S. Ilin), shaxsga yo‘naltirilgan (Sh.A. Amonashvili, V.A. Suxomlinskiy, YE.V. Bondarevskaya, V.V. Serikov va b.), faoliyatli (A.N. Leontyev, L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn) kabilar katta hissa qo‘shganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Uzluksiz kasbiy ta‘limni rivojlantirishning muhim maqsadlaridan biri insonparvarlikka oid qadriyatlarni mustahkamlash va shaxsning o‘zini o‘zi ochish, ro‘yobga chiqarish mexanizmlarini yanada rivojlantirishdan iborat. Uzluksiz kasbiy ta‘limning yetakchi tendensiyasi va tavsifi sifatida ta‘limni bilimlarni iste‘mol qiladigan va uni qayta ishlab chiqaradigan ijtimoiy institutdan bilimlarni ishlab chiqarish va bilimlarni kengaytirilgan qayta ishlab chiqarilishi institutiga aylantirish belgilangan. Bugungi kunda uzluksiz kasbiy ta‘lim «yangi bilim, voqelik obrazini shakllantirish, olam haqidagi axborot oqimini tarkiblashtirishni» ta‘minlaydi. Y.P.Ilin ta‘kidlashicha, bilimlar «iqtisodiy kategoriya bo‘lib, bilimning tovarga, bilim tashuvchisining esa ularning egasiga aylantirish, buning oqibatida ta‘lim oluvchilarning egallaydigan bilimning o‘ziga xosligi bilan belgilanadigan noyob ta‘lim olish istagi xarakteriga ega bo‘lmoqda» [2;118-b.].

**Tahlil va natijalar.** Uzluksiz kasbiy ta‘lim jarayonini modellashtirish metodologiyasi kasbiy va fuqarolik kasbiy ta‘limni integratsiyalash, uning kasbiy ta‘lim jarayonining rivojlanishini, bo‘ljak pedagoglarning ijodiy salohiyatini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishni ta‘minlaydigan asosiy va variativ komponentlarini aniqlashga asoslangan.

Tadqiqotning tushunchalar apparati va metodologiyasini aniqlagan holda, muallif V.G. Onushkin va Y.I. Ogarevlarining “uzluksiz ta‘lim” atamasining talqiniga, ya‘ni ushbu tushuncha hayotda mustahkamlangan reallikni emas, balki shakllangan ta‘lim amaliyotining ijtimoiy samaradorligini oshirish uchun uni o‘zgartirish haqidagi g‘oyani aks ettirishi haqidagi fikrga qo‘shiladi. Muallif uzluksiz kasbiy ta‘lim mohiyatini shaxslarni butun umri davomida va kasbiy faoliyatida kasbiy va shaxsiy rivojlanishini muntazam ijodiy yangilash, takomillashtirish deb tushunadi.

Uzluksiz kasbiy bilimlarni farqlaydigan belgilari quyidagilardan iborat:

a) vaqt bilan bog‘liq xarakteri – ta‘lim jarayonining uzluksizligi (bog‘langanlik, vorisiylik, integrativlik);

b) mazmun bilan bog‘liq – uzluksiz kasbiy ta‘lim jarayoni turli segmentlari, ta‘lim jarayonining yaxlitligi;

v) mohiyat bilan bog‘liq – ijodiy va shaxsiy salohiyatining izchil boyib borishiga qartilganlik.

Kasbiy ta‘limda uzluksizlik tushunchasini aniqlashda muallif ushbu tushunchaga A.M. Novikov bergan ta‘rifga tayangan, u uning quyidagi uch obyektga (subyektga) yo‘naltirilganligini aniqlagan [2;52-b.]

Kasbiy ta‘limni o‘zlashtirish bilan birga o‘z-o‘ziga ta‘lim berish bilan shug‘ullanayotgan, uzluksiz (vorisiylik asosida va parallel ravishda) ta‘lim olayotgan shaxs (talabalar);

ta‘lim jarayonlari (ta‘lim dasturlari), ular uzluksiz amalga oshirilib, talabalarni makon amal qilishining turli bosqichlarida va uning rivojlanishining turli pallalarida talabalarni ta‘lim jarayonlariga jalb qiladi;

hamkorlikdagi faoliyati uzluksiz kasbiy ta‘limning makonini yaratadigan, talabalar jamoasida yuzaga keladigan ta‘limiy ehtiyojlarni qondirish qobiliyatiga ega ta‘lim dasturlarining o‘zaro aloqasi va vorisiylikni ta‘minlaydigan o‘zaro bog‘liq ta‘lim tashkilotlarining tarmog‘ini o‘z ichiga olgan makonning tashkiliy tuzilishi.

Uzluksiz kasbiy ta‘lim jarayonini modellashtirishning tanlangan nazariy-metodologik asoslari shaxsning madaniy-ta‘limiy makonda ko‘p o‘lchovli harakatini ta‘minlaydi va bunday harakat uchun optimal shart-sharoitlar yaratadi. Tizim tashkil qiluvchi omil bo‘lib uzluksiz kasbiy ta‘lim jarayonining yaxlitligi hamda modellashtirilayotgan makonda quyi tizimlar va jarayonlarning integratsiyasi hisoblanadi. Bularni A.N.Nyudyurmagedovanning uzluksiz pedagogik ta‘lim misolidagi tadqiqoti tasdiqlaydi, bunday ta‘lim asosini muallif “...OTMdan oldingi, OTMda va OTMdan keyingi pedagogik ta‘limdagi uzluksiz va dinamik jarayonlar” tashkil qiladi deb belgilagan.

“Uzluksiz kasbiy ta‘lim” tushunchasi polisemantik tushuncha sifatida tadqiq qilingan, uning mazmuni quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- qamrovi bo‘yicha keng qamrovli, vaqt bo‘yicha individuallashtirilgan, sur‘atlari va yo‘nalganligi bo‘yicha har bir talabaga o‘z ta‘lim trayektoriyasini amalga oshirish imkonini beradigan ta‘lim (mazmunli yondashuv);

talabaga ta‘lim olish texnologiyasini tanlash imkoniyatini beradigan ta‘lim olish texnologiyasi (protsessual yondashuv);

- umumiy maqsadlar va vazifalar bilan birlashgan, mazmuni integratsiyalashgan va uning innovatsiyalarga qaratilganligi, uzluksiz ta’lim texnologiyalari tamoyillariga muvofiq qurilgan turli darajadagi vorisiylikka asoslangan kasbiy ta’lim dasturlari va ta’lim standartlari tizimi (tizimli yondashuv);

shaxsning ta’limiy ehtiyojlarining rivojlanishi yo’nalishini ochib beradigan va shaxs rivojlanishiga qaratilgan yaxlit tizimni amalga oshiradigan ijtimoiy institut sifatida ta’limga yangi metodologik yondashuvni aks ettiradigan ijtimoiy-pedagogik kategoriya.

Tadqiqot mantig’ida turli ta’lim shakllarida turli ta’limning daraja va yo’nalishlarda uzluksiz parallel yoki ketma-ketlikda kasbiy ta’lim olish ochib beriladi, u kasbiy va ta’lim trayektoriyalarini almashtirish, nazariy qoidalar, tushunchalar apparatini, vorisiylik, integratsiyani amalga oshirish texnologiyalarini yangilash va boyitish imkonini yaratadigan uni amalga oshirishning yagona metodologiyasida birlashgan[3;28-b.].

Tadqiqot kontekstida uzluksiz kasbiy ta’lim jarayoni rasmiy (bizning tadqiqotda) ta’lim bilan birga amalga oshadigan formal (rasmiy), noformal (norasmiy) va informal (standart ta’lim muhitidan tashqaridagi) ta’limning mumkin bo’lgan integratsiyasi sifatida ko’rilgan.

Uzluksiz kasbiy ta’lim yaxlit makonini yaratishga integrativ yondashuvni amalga oshirishda muallif uning afzalliklarini ta’minlaydigan quyidagi majburiy shartlarni aniqlagan:

Ilmiy va kasbiy faoliyatning har xil turlariga kiritish uchun zarur bo’lgan ta’limga ochiq va uzluksiz kirishni kafolatlaydigan asosiy bilim, ko’nikma va malakalarni doimiy ravishda egallash va yangilash uchun integrativ tashkiliy-pedagogik va meyoriy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish.

Inson resurslariga (talabalar, o’qituvchilar) bilim investitsiyalari hajmini, kasbiy ta’limga bo’lgan talabni va talabalarning intellektual salohiyatini oshiradigan uzluksiz kasbiy ta’limning har qanday bosqichida xavf-xatarsiz kirish va chiqish imkoniyati.

Uzluksiz kasbiy ta’lim jarayonini modellashtirish metodologiyasini amalga oshirish samaradorligini ta’minlaydigan innovatsion ta’lim faoliyatini rivojlantirish.

Talabalarga fuqaroviy mutaxassislikka ega bo’lish individual trayektoriyasini tanlash va oliy ta’lim bilan bir vaqtda yangi malakalarga ega bo’lish imkonini beradigan o’quv-metodik ta’minot mazmunining integratsiyasi.

Pedagogik olib borish (hamkorlik qilish), ustozlik qilish, tyutorlik qo’llab-quvvatlash, maslahat berish va talabalar kasbiy-amaliy faoliyatini amalga oshirish, ta’lim olish imkoniyatlari, ilmiy va kasbiy o’sish to’g’risida erkin ma’lumot olishni ta’minlashga qaratilgan o’qituvchilarning ilmiy-kasbiy, psixologik-pedagogik va kasbiy-sohaviy hamkorligining samaradorligi.

Uzluksiz kasbiy ta’lim fenomenini tadqiq qilish amaliyotida muallif tomonidan Y.V.Bondarevskaya, V.F.Zeyer, D.M.Mallayev, G.V.Muxammetzyanova, A.M. Novikov, N.K. Sergeyev, Y.V. Tkachenkolar ilmiy maktablari doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tajribasidan foydalanilgan, ular ilmiy faoliyatining mazmuni integratsiyalashgan bilim va ko’nikma, kasbiy kompetensiyalar va o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyatiga ega shaxsni shakllantirish metodologiyasidan iborat. Uzluksiz kasbiy ta’lim jarayonini modellashtirish va uning amal qilishi davomida uning rivojlanish ichki salohiyati to’plangan: vorisiylikka asoslangan innovatsion loyihalar ishlab chiqilgan, talabalarning qadriyatlarga yo’налganligini faol qayta anglash jarayoni sodir bo’lgan.

1-jadval.

**Uzluksiz kasbiy ta’lim jarayonini boshlang’ich sinflarda o’qitiladigan fanlar bo’yicha mazmunda o’zgartirishlar kiritish imkoniyatini ta’minlash asosida klassifikatsiyalash**

Mazmunda o’zgartirish kiritish imkoniyatlari	Imkoniyatning yo’qligi	Boshqaruv imkoniyatning mavjudligi	
	Imkoniyatni ta’minlay olmaydiganlar	Interfeys vositasida imkoniyatni yaratish	Chetki dasturiy vositalar bilan imkoniyatni yaratish
Mazmunni qayta o’zgartirish		+	
Mazmunni shakllantirish		+	

Uzluksiz kasbiy ta’lim jarayonini modellashtirishning yetakchi nazariy tamoyillari sifatida quyidagilar tanlangan: turli shakllardagi kasbiy (yo’nalish bo’yicha) ta’lim darajalarining integratsiyasini (vorisiyligini) ta’minlaydigan integrativlik tamoyili; turli yo’nalishdagi dasturlar bo’yicha kasbiy ta’lim asosida amalga oshiriladigan to’ldirish tamoyili; talabalar talab qilib oladigan yangi kasbiy ta’lim dasturlarini o’zlashtirish imkoniyatini ta’minlaydigan mohirona harakat qilish tamoyili; uzluksiz kasbiy ta’lim yaxlit makonini



yaratish imkonini beradigan ta’lim dasturlarining vorisiylik tamoyili.

Integrativlik mutaxassisni tayyorlashning tuzilishi, mazmuni va natijasiining tavsifi sifatida tadqiq qilingan, bu nazariy va amaliy tayyorlashning birligi, ta’limning amalga oshirilayotgan darajalarining mazmuni, shaxsiy va kasbiy ahamiyatga ega kompetensiyalar majmuini shakllantirish, foydalanilayotgan texnologiyalarning integrativ harakterini ta’minlaydigan ta’lim makoni quyi tuzilishlarining bog’langan holatini belgilaydi[4;48-b.].

Bunday yondashuv «integratsiya» tushunchasini tadqiq qilinayotgan mavzu kontekstida quyidagicha aniqlash imkonini bergan. Uzluksiz kasbiy ta’lim jarayoni doirasida integratsiya – bu dialektik jihatdan o’zaro bog’liq va tabaqalashtirilgan jarayon hamda talabani nazariy va amaliy tayyorlash, uning shaxsiy va kasbiy jihatdan shakllanishining tashkiliy tuzilishi, mazmuni, texnologiyalarining umumlashishi darajasi, kompleksligi, yaxlitligi va o’zaro bir-birini shartlab berishining ortishi bilan birga yaratilayotgan makon ishtirokchilarining umumiy pedagogik va metodologik asosda o’zaro boyishining natijasidir. Ushbu ta’rif o’tkazilgan tadqiqot asosida berilgan va ko’rib chiqilayotgan tushunchaning ma’nosini modellashtirilayotgan uzluksiz kasbiy ta’lim jarayon doirasidan tashqarida to’liq ochib berishga da’vo qilmaydi.

Tanlab olingan tushunchalarga tayanish hozirgi davr sharoitida integratsiya ta’limning barcha darajalarining o’zaro bir-biriga o’tishi va o’zaro bir-birini boyitishini ifodalab, ta’limning xarakteri va mazmunining o’zgarishi, ixtisosliklarning kengayishi va kattalashishi, yangi integratsiyalashgan ixtisosliklar va ularning yiriklashtirilgan guruhlarining paydo bo’lishiga olib keladi.

Uzluksiz kasbiy ta’lim jarayonini modellashtirishning yetakchi nazariy tamoyillaridan biri insonparvarlashtirish (gumanizatsiya) tamoyili bo’lib, u quyidagilarga asoslangan innovatsion makonni yaratish yo’li bilan shaxsni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligini aks ettiradi:

- yuqori malakali professionalning har tomonlama rivojlangan shaxsini tayyorlashga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali mazmuni boyitishga;

- birgaliklikdagi faoliyatning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, pedagogik hamkorlik tamoyili va insonparvar munosabatlarni shakllantirishga asoslangan ta’limning natijalaridan talabalarning qoniqishini oshirishga;

- kasbiy, malakaviy va xizmat darajasining (karyeraning) o’sish kafolatlarini ta’minlashga;

- kasbiy ta’limning gumanitarlashishini kengaytirishga.

Insonparvarlashtirish tamoyili kasbiy ta’lim mazmunini gumanitar o’quv fanlar va yo’nalishlarining muayyan majmuasi bilan to’yintirish va shaxs ijtimoiy muhofazasini ta’minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishni ko’zda tutadi.

Uzluksiz kasbiy ta’lim jarayonining ochiqligi tamoyili talabalarga quyidagilarni taqdim qiladi: kasbiy ta’limning har qanday bosqichida qo’shimcha dasturlarni o’zlashtirish huquqi; individual ta’lim trayektoriyalarini qurishga rivojlangan subyektiv tayyorlik; kasbiy jihatdan doimiy takomillashishga intilish.

Kasbiy ta’limning meyoriy tavsifi sifatidagi uning standartlashtirilganligi tegishli davlat, idoraviy meyoriy hujjatlarda aks ettirilgan kasbiy tayyorlashning darajasi, mazmuni va sifatiga qo’yilgan talablar va meyorlarni majburiy bajarilishi shart bo’lgan. Ta’lim mazmunining integrativligi va kompetentlik darajasiga talablar uzluksiz kasbiy ta’limning modellashtirilayotgan makonining tizim tashkil qiluvchi omili hisoblangan[5;212-b.].

**Xulosa va takliflar.** Bo’lajak mutaxassis shakllanishi va rivojlanishining asosi sifatida uning doim o’zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, kasbiy muhitning o’ziga xos xususiyatlariga moslashuvi, shuningdek, kasbiy sotsiumda samarali faoliyatni amalga oshirish imkonini beradigan uning ijtimoiy-kasbiy kompetentligi tan olingan. Axloqiy-shaxsiy va sof kasbiy tavsiflar turli ijtimoiy rollarni bajarish imkonining asosini tashkil qilgan kasbiy shakllanish va rivojlanish jarayonida bir-birini to’ldiradi.

#### Adabiyotlar:

1. Qurbonov Sh. E., Seytxalilov. E. Ta’lim sifatini boshqarish./T.. “Turon iqbol”, 2006-592 b.
2. Quysinov O.A Kasb ta’limi yo’nalishi bakalavr o’qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta’limning ilmiy metodik asoslari Diss. ...ped.fan nom.-Toshkent TDPU, 2008-160 b.
3. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: Дисс.... канд.пед.наук. -С.: 2004. -190 с.
4. Jo’rayev R., Yuldashev M., Rahmonqulova N., Bahromov A., Zokirov A. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish. O’quv-metodik qo’llanma. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2014, –160 b.
5. Olimov Q.T. va boshqalar. Kasb ta’limi metodikasi. Darslik. “Fan texnologiyalari nashriyoti”. –T.: 2016. 328 b.

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA O‘QITUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN  
FAOLIYAT MAZMUNIGA DOIR TADQIQOTLAR**

*Usmonov Abdurashid Norbo ‘tayeovich,*

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,  
Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrası o‘qituvchisi  
abdurashidusmonov881@gmail.com*

*Ushbu maqolada mamlakatimizda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi (ularning malakasini oshirish jarayoni) sohasida ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan jihatlar, undagi yangiliklar va muammolar haqida so‘z boradi. Xususan, uzluksiz kasbiy rivojlanishda pedagoglarni deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirish, bu borada ularni ilmiy-metodik qo‘llab-quvvatlash hamda ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili yuzasidan batafsil fikr yuritildi.*

***Kalit so‘zlar:** kasb standarti, kompetensiya, deviant xulq, kasbiy rivojlanish, shaxsiy resurslar, boshqaruv, ilmiy izlanish, ilmiy tadqiqotlar.*

**ИССЛЕДОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, ПРОВОДИМОЙ С  
ПЕДАГОГАМИ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ**

*В данной статье говорится об аспектах, нововведениях и проблемах, которым следует уделить внимание в сфере непрерывного профессионального развития педагогов нашей страны. В частности, подробно рассматривается работа педагогов с учащимися с девиантным поведением в процессе непрерывного профессионального развития, обеспечение их научно-методической поддержкой, а также анализ научных исследований, проводимых в этом направлении.*

***Ключевые слова:** профессиональный стандарт, компетентность, девиантное поведение, профессиональное развитие, личностные ресурсы, лидерство, научные исследования.*

**RESEARCH ON THE CONTENT OF ACTIVITIES CONDUCTED WITH TEACHERS IN  
THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT**

*This article analyses about the importance of aspects, innovations and problems that should be given in the field of continuous professional development of pedagogues in our country. In particular, it was discussed in detail about directing pedagogues to work with students with deviant behavior in continuous professional development, providing them with scientific-methodical support, and analyzing scientific research conducted in this direction.*

***Key words:** professional standard, competence, deviant behavior, professional development, personal resources, leadership, scientific research.*

**Kirish.** Asrlar zanjirida shaxs kamoloti va e’tiroflarini o‘rganar ekanmiz, insonlarning jamiyatdagi o‘rni bashariyatning umumiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan belgilanishiga guvoh bo‘lamiz. Zamonaviy dunyoda xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va mamlakatlarning jahon maydonida raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy omili sifatida inson kapitalini rivojlantirishga bo‘lgan zarurat, davlatlarning ta’limga oid siyosatini takomillashtirish dolzarb masala sifatida talqinlanmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlanishi lozim bo‘lgan ayni haqiqat shuki, jamiyat rivojidadagi yangilanish zarurati va ehtiyoji zaminida ta’lim-tarbiya omili hamda uni amalga oshirishda esa umumta’lim maktabi o‘qituvchilari asosiy poydevor vazifasini o‘taydi. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas qismi bo‘lgan ta’lim tizimining rivojlanish darajasi o‘qituvchining mahorati bilan belgilanadi.

**Metodologik asos tahlili.** Keyingi yillarda respublikada uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, unga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda umuta’lim maktablarida ta’lim berishning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi bejiz emas. Ta’kidlash joizki, malaka oshirish jarayoni va bunda olinadigan tajribalar o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan, kompetensiyasini rivojlantiradigan muhim sharoit ekanligi shubhaga o‘rin qoldirmaydi. Shu bilan birgalikda prezidentimizning: “Agar rahbarlar, muallimlar Yangi O‘zbekistonga munosib harakatlar qilsa, farzandlarimizni davr talabiga munosib o‘qitishimiz mumkin. Xalqimiz bizga eng katta boyligini – zurriyodini ishonib beryapti, bu juda katta mas’uliyat. Shuni his qilib, o‘zimizni qiynab, maktabni isloh qilsak, kelajakka zamin yaratamiz”, – degan ta’kidlari, jumladan, davlatimiz rahbarining maktab

o‘qituvchilarini yangi metodikalar asosida qayta tayyorlash bo‘yicha umummilliy loyiha boshlanishini e‘lon qilishi malaka oshirish jarayonini tubdan isloh qilish mavzusini yanada mustahkam g‘oyaga aylantirmoqda [6].

O‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga shu nuqtayi nazardan qaralganda, o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentliklariga qo‘yilgan davlat talablari har bir fan kesimida alohida ko‘rsatilganligi, ushbu talablarni amalga oshirishda ularning ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi, o‘z ustida ishlashi, kasbiy rivojlanishda, shaxsiy samaradorlikka erishishda tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilayotgan bo‘lsa-da, biroq ba‘zan o‘qituvchining ruhiy barqarorligi, turli xarakterdagi o‘quvchilar bilan ishlay olishi – psixologik kompetentligi, pedagog xodimlar tomonidan olib borilayotgan ishlar ko‘lamida mas‘uliyatni his etmaslik holatlaridan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda uzluksiz kasbiy rivojlanish terminiga to‘xtalib o‘tsak, ushbu atama ta‘lim oluvchilarning professional vazifalari doirasidagi bilim, ko‘nikma, malakalarini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. Tadqiqot ishimiz misolida umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchilarining deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, o‘z-o‘zini namoyon qilish, mustaqil bilim olish, idroki, tafakkuri, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, konsultativ va innovatsion faoliyatga turg‘un motivatsiya shakllanishini nazarda tutuvchi qisqa muddatli, muammoli, mualliflik o‘quv kurslarini taklif etish ularning bilim sifati, jumladan, o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligining yanada ortishiga xizmat qilmoqda.

1984-yilda YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish” (keyingi o‘rinlarda – UKR) konsepsiyasida UKR tushunchasining o‘ziga xos izohini ifodalovchi quyidagicha ta‘rif berilgan: “ta‘lim tizimida yoki undan tashqarida hayotning turli davrlarida ro‘y beradigan, bir-birini to‘ldiradigan, bilim olishga, shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga, shu jumladan, o‘rganish va kasbiy vazifalarni bajarish uchun tayyorlashga qaratilgan ongli harakatlar yig‘indisidir” [16]. Bugungi kunga kelib, respublikamizda xalq ta‘limi tizimidagi islohotlar natijasida umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish zarurati yanada ortdi. Jahondagi zamonaviy ta‘lim integratsiyalashuvi jarrayonlarining kuchayishi bilan bir qatorda, O‘zbekistonning innovatsion rivojlanish vazifalari pedagog xodimlar malakasini oshirish tizimining raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun alohida talablar qo‘ymoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va o‘rganishlar natijasida qanchalik ko‘p islohotlar o‘tkazilmasin, milliy pedagogikada malaka oshirish jarayoni tinglovchilarini deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirish tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmaganligining guvohi bo‘lindi. Shuningdek, tadqiqot manbasi hisoblangan malaka oshirish, ya‘ni uzluksiz kasbiy rivojlanish sohasida keyingi yillarda olib borilgan islohotlar hamda ilmiy izlanishlar ularning ahamiyatli jihatlarini batafsil bayon qilish lozim, deb hisobladik.

Mazkur yo‘nalishdagi vazifalar ijrosini samarali ta‘minlash maqsadi hamda amalga oshirilajak ishlar mexanizmi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda PF–6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida o‘z aksini topgan deb xulosa qilinsa o‘rinli bo‘ladi [1]. Xususan, mazkur Farmonda belgilangan quyidagi asosiy yo‘nalishlar xalq ta‘limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkonini beradi hamda yetaklovchi funksiyani bajaradi:

-mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma‘naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish;

-dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta‘lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

-pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish;

-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda ta‘limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar hamda masofaviy ta‘limni yanada rivojlantirish, ta‘lim oluvchilar o‘rtasida IT sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

-ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

-ta‘lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta‘lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

Shuningdek, respublikamizda “Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi”ning institutsional tuzilma tarzida shakllantirishga doir harakatlarning boshlanishi ham ta‘lim sifatini

oshirish, mehnat bozorining talablari yoki istiqbollari mos kasblarga o‘qitish hamda malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat bo‘lgan butun ta‘lim jarayonini yangilash zaruriyatini dolzarblashtiradi. Shu maqsadda qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrda PQ-4939-sonli “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorini ta‘lim sohasida navbatdagi burilish nuqtalaridan biri sifatida ta‘kidlash mumkin. Qarorda belgilangan, “ta‘limning eng past darajasiga qo‘yiladigan talablarni bekor qilgan holda, har bir lavozim va kasb bo‘yicha malaka doirasiga muvofiq malaka darajasiga talablar kiritilishi”, ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish majburiyati o‘qitish tizimini o‘zgartirish, jumladan, o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini o‘stirishga doir yondashuvlarni zamonaviylashtirish lozimligini ko‘rsatadi [3].

Jumladan, yuqoridagi Qaror avvalroq qabul qilingan ikkita muhim hujjatning, ya‘ni “O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi” hamda “Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi to‘g‘risidagi Nizom”ning amaliyotga kiritilish jarayonlarini yanada mustahkamladi [5]. Yuqorida keltirilgan hujjatlardagi vazifalarning ijrosini ta‘minlash uchun “Umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘qituvchisining kasb standarti” ishlab chiqildi. Muhimi shundaki, o‘qituvchi faoliyatini baholashga qaratilgan kasb standarti mazmunida “O‘qituvchi tarbiyaviy ishlarni ta‘lim oluvchilarning rivojlanishiga va ijtimoiy me‘yorlar shakllanishiga ko‘maklashuvchi turli shakllarda tashkil etadi”, “O‘qituvchi tarbiyaviy faoliyatni qadriyatlarini rivojlantirib va tarbiyaviy ishlarni interfaol shakl va usullarini qo‘llab olib boradi”, “O‘qituvchi barcha o‘quvchilar uchun psixologik va jismoniy xavfsiz muhitni yaratadi” kabi kompetensiya standartlarini o‘z ichiga oluvchi katta mazmuni o‘zida aks ettirgan. Bunday talab o‘qituvchining o‘quvchi tarbiyasi bilan olib borayotgan faoliyatining yanada muhimligini bildiradi [7].

Zamonaviy yondashuv hamda o‘zgarishlarni o‘zida jamlagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan vazifalar xalq ta‘limi xodimlarining malakasini oshirish borasidagi tom ma‘nodagi yangiliklarga qaratilgan huquqiy-me‘yoriy hujjat bo‘ldi, desak o‘rinli bo‘ladi [4]. Ushbu metodologik asos bilan malaka oshirish jarayoni davriylikdan uzluksizlikka o‘tkazildi.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “maktablarda ta‘lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” [2] maqsadi alohida ta‘kidlanib, bu borada xalq ta‘limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirib borishga ustuvorlik qaratish, malaka oshirish turlarini kengaytirish, muqobil shakllarini iste‘molga kiritish hamda o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash orqali kutilgan natijalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar uzluksiz kasbiy rivojlanish, malaka oshirish ta‘lim tizimiga jiddiy o‘zgartirishlar kiritish uchun metodologik asos vazifasini o‘taydi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Alohida ta‘kidlash joizki, tahlillanayotgan metodologik asos hamda ilmiy tadqiqot ishlarining natijasi o‘qituvchilarning amaliyotdagi kompetentlik darajasining qanday ekanligi bilan mutanosibdir. Shu jihatdan qaralganda, deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirishda o‘qituvchilarning kompetentligini takomillashtirish, tarbiyaviy ishlarga strategik jihatdan faollashtirish, xususan, jarayonda ularni ilmiy-metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Psixologik nuqtayi nazardan ayrim qarashlar umumlashmasida, kompetentlik – atrof-dagi olamni tushunish mezonini va u bilan o‘zaro ta‘sirining mutanosibliyi sifatida, faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi sifatida yoki insonning atrof-muhitga va o‘z-o‘ziga ta‘sir etish metodlarini egallaganligi ta‘rifi yuzaga kelsa, A.K.Markovanning fikricha, kompetentlik – insonning muayyan tavsifi, ya‘ni kasbiy talablarga munosibliyi darajasi bo‘yicha faqat o‘zigagina xos bo‘lgan (individual) xarakteristikasi sanaladi. Shuningdek, u muayyan insonning kompetentligi uning kasbiy mahoratiga nisbatan torroq bo‘ladi, deb hisoblaydi: “Umuman olganda, inson o‘z kasbining ustasi bo‘lishi mumkin, lekin barcha kasbiy masalalarni hal etishda kompetentli bo‘lmasligi mumkin” [17]. Kompetentlikning o‘zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta‘limni boshqarishning ilmiy asoslari bo‘yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o‘z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga qodirlik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko‘nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo‘lishni nazarda tutadigan kasbiy bilim va ko‘nikmalarining mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va takomillashtirishga qodirlik bilan belgilanadi.

O‘qituvchilarni deviant xulqli o‘quvchilar bilish ishlashga yo‘naltirishda ularni pedagogik va ilmiy-metodik qo‘llab-quvvatlash ham muhim ahamiyatga ega. “Qo‘llab-quvvatlash” strategik yo‘nalishi “faollashtirish” strategik yo‘nalishini har tomonlama to‘ldirish va o‘qituvchini tezkor rivojlanish hududiga o‘tkazishda ko‘maklashadi. “Qo‘llab-quvvatlash” atamasi psixologlar tomonidan o‘qituvchilarning kasbiy

hayotiga mustahkam kirib kelgan, aniq muammolarni hal qilish uchun ham konseptual, ham amaliy faoliyatga nisbatan qo‘llanilsa-da, bu tushunchani belgilashda mutaxassislar fikrlari birligiga erishilmagan.

Sohadagi o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim tizimidagi ba’zi tub burilishlar, qadriyatlarni qayta yo‘naltirish, bu jarayonda o‘qituvchilarning rolini jamoatchilik tomonidan tushunish va boshqalar, o‘qituvchilarning malakasiga, ularning malaka darajasiga va turli toifadagi o‘quvchilarga ta’lim bera olishiga, zamonaviy ta’lim uchun tayyorligiga qo‘yiladigan yangi talablarni belgilaydi. Shuning uchun o‘qituvchilarning nafaqat kasbiy takomillashuvga, balki deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirilganligi va maktab o‘qituvchilari malakasini oshirishning o‘quv dasturlariga o‘zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi uzluksiz kasbiy rivojlanishning tarbiyaviy faollashtirilganlik muammolari o‘zining yaxlit ilmiy yechimiga ega bo‘lishi zarur.

Pedagogika sohasida uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish va olib borish borasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarni deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirish muammosi yetarlicha o‘rganilmagan. Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- o‘qituvchining innovatsion faoliyatini belgilovchi mezonlar ishlab chiqilgan va bu faoliyatni shakllantirish texnologiyasi, malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning amaliy ahamiyati yoritilgan [11];

- xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish sohadagi barcha tur, resurs, shakl va tajribalarni integratsiyalash va ko‘p vektorli modelning tarkibiy komponentlari mazmunini belgilash hamda pedagogning kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuvni amaliyotga joriy qilishning zaruriy omillariga ustuvorlik berish asosida kengaytirilgan [10];

- o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmining komponentlari (motivatsion, kognitiv, protsessual, kreativ) va amalga oshirish bosqichlari (mustaqil malaka oshirish, o‘quv kurslari, mahorat darslari) texnologik taraqqiyot hamda o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha yangiliklarni o‘zlashtirish dinamikasini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan [9];

- pedagogik kadrlar kompetentligini rivojlantirishning strategik tuzilmasi kompetensiyaviy mezonlar (ijtimoiy, kasbiy, reflektiv, akmeologik)ni malaka oshirish jarayonida innovatsion faollikni rivojlantirish usullari (refleksiya sinergiyasi, zaruriy motivlar) bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan [12];

- o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirishning boshqaruv tizimi komponentlari (motivatsion-qadriyatli, kasbiy-faoliyatli, reflektiv-kommunikativ) onlayn tarmoq hamkorligi asosida mazmunan takomillashtirilgan [14];

- malaka oshirish jarayonida ta’lim sifati hamda boshqaruviga alohida e’tibor qaratilgan [8];

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’minoti va ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish tizimi takomillashtirilgan [13];

- malaka oshirish jarayonlarining uzluksizligi va uzviyligidan ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantiruvchi, harakatchanligini ta’minlovchi pedagogik tizim sifatida foydalanish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan [15].

**Tadqiq va xulosa.** Yuqoridagi malaka oshirish jarayoniga taalluqli izlanishlardan farqli ravishda, tadqiqotimizning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarni deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirishni chuqur tahlil qilishga e’tibor qaratdik.

Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan izlanishlar, sohaga daxldor adabiyotlar tahliliy xulosasi maktab ta’limi tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan o‘qituvchining amaliy faoliyati hamda deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlay olish kompetentligi o‘rtasida quyidagicha ziddiyatlar mavjudligini ko‘rsatdi:

- uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida o‘qituvchilarni deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirish muammosiga pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik jihatdan tegishli darajada e’tibor qaratilmagan;

- jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq maktab ta’limida bugungi kun o‘quvchisiga moslashuvchanligi, o‘quvchilarda deviantlikni keltirib chiqaruvchi zamonaviy omillarni tahlil qila olish, ilmiy-metodik salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik talablarning ortishi taqozosi yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilmagan;

- o‘qituvchilarni deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirishning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari aniqlanmagan;

- o‘tkazilgan davra suhbatlari va so‘rovnomalarga ko‘ra, yosh o‘qituvchilar deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga oid zaruriy mazmun yuzasidan yetarli ma’lumotga ega emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘qituvchilarni deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirishni amalga oshirish, o‘qituvchining o‘z kasbi doirasidagi talablarga muvofiq kompetentlik darajasini ko‘tarish, jumladan, ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o‘rganish talab etiladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – QHMMB, 07.11.2020. 06/20/6108/1483-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – QHMMB, 29.01.2022. 06/22/60/0082-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi PQ–4939-son “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – QHMMB 31.12.20., 07/20/4939/1703-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ–4963-son “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – QHMMB, 26.01.2021. 07/21/4963/0064-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-son “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi Qarori. – QHMMB, 16.05.2020. 09/20/287/0595-son.
6. Xalq ta’limi sohasidagi islohotlar natijadorligi tahlil qilindi. Xalq so‘zi. 2022-yil 6-aprel, № 71 (8133). – B.1.; 1-b.
7. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yil 8-fevraldagi 43-IC-son Buyrug‘i (R.003.043.0964/B-21 raqami bilan ro‘yxatga olingan).
8. Ahmedov M.U. Umumta’lim maktab direktorlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 155 b.
9. Boymurodova G.T. Malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmi: ped. fan. dok... diss. (DSc). – Toshkent, 2020. – 286 b.; 11-b.
10. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko‘p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Samarqand, 2018. – 215 b.
11. Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari: ped. fan. nom... diss. – Toshkent, 2007. – 176 b.
12. Mustafoyeva D.A. Ixtisoslik fan o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish: ped.fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2020. – 207 b.; 8-b.
13. Po‘latova D.T. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish tizimini takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Namangan, 2019. – 191 b.
14. Umarov L.M. Elektron axborot ta’lim resurslari asosida pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish boshqaruvinii takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Qarshi, 2020. – 133 b.; 8-b.
15. Shodmonova M.B. Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 182 b.; 16-b.
16. Звонников В.И., Чельшкова М.Б. Контроль качества обучения при аттестации: компетентностный подход. М.: Университетская книга, 2009. 272 с.; 128-b.
17. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. – 308 с.; 19-20-b.

## O‘QUVCHILARDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING YO‘NALTIRUVCHI MODELI

*Utamuradov Umarjon Muxammadkulovich,  
Navoiy davlat pedagogika instituti “Milliy g‘oya,  
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, milliy qadriyatlar, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, o‘smir va o‘spirin yoshidagi tahsil oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash masalalariga oid olimlarning ishlarining tahlili yoritilgan. Shuningdek, yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish modeli ishlab chiqilgan hamda uning imkoniyatlari yoritilgan. Shu bilan birga ushbu maqolada yuridik texnikumlarda indikativ model asosida o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan mezonlar takomillashtirilgan. Ushbu mezonlardan foydalanib baholash uchun ularning ko‘rsatkichlari, ifodalanganlik darajasi, dinamizm belgilari, xususiyatlarining tahlili hamda undan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, huquq, model, mezon, algoritm, texnologiya, tizimli-kognitiv, indikativ, tamoyil, me‘ros, mafkura.

## МОДЕЛЬ, НАПРАВЛЯЮЩАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ

*В данной статье освещён анализ работы учёных, связанной с вопросами повышения правовой грамотности и правовой культуры, формирования национальных ценностей, идеологического иммунитета, оценки уровня воспитания учащихся подросткового и подросткового возраста, коррекции дефектов поведения. Также разработана модель формирования правовых компетенций у студентов юридических техникумов, и освещены её возможности. Вместе с тем, в данной статье усовершенствованы критерии формирования правовых компетенций у студентов юридических техникумов на основе индикативной модели. Для оценки с использованием этих критериев представлены их показатели, уровень выраженности, признаки динамичности, анализ их характеристик, а также приведены предложения и рекомендации по его использованию.*

**Ключевые слова:** компетенция, право, модель, критерий, алгоритм, технология, системно-когнитивный, индикатив, принцип, наследие, идеология.

## A MODEL GUIDING TO THE FORMATION OF LEGAL COMPETENCIES OF STUDENTS

*This article analyzes the work of scientists on the issues of increasing legal literacy and legal culture, the formation of national values, ideological immunity, assessing the level of education of adolescent and young adult students, and correcting behavioral defects. A model for developing legal competencies among students of law colleges has also been developed and its capabilities are highlighted. At the same time, this article improves the criteria for the formation of legal competencies among students of law colleges based on the indicative model. To evaluate using these criteria, their indicators, level of expression, signs of dynamism, analysis of their characteristics are presented, as well as suggestions and recommendations for its use.*

**Keywords:** competence, law, model, criterion, algorithm, technology, systemic-cognitive, indicative, principle, heritage, ideology.

**Kirish.** Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda qo‘llaniladigan yondashuvlar: tizimli-kognitiv, maqsadli, uzluksiz, ona zamin moddiy, ma’naviy va ma’rifiy me‘roslarini qadrlash, ular bilan faxrlanish, milliy qadriyatlar va ilg‘or tarbiyaviy tajribalar uyg‘unligida o‘z ifodasini topadi [2, 3, 4, 10, ]. Shu jihatlarni inobatga olib, biz 2020-2023-yillarda izlanish bosqichlarida kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini loyihalashga va shu asnodan o‘quvchilarning huquqiy kompetensiyalarini shakllantirish modelini maqsadga muvofiq yaratish, ularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish usullari, vositalarini tanlashga undashga kirishdik. Natijada, o‘quvchilar tomonidan texnologik operatsiyalar, o‘quv faoliyatini boshqarish usullarini o‘rganish, subyektning o‘ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berish, huquqiy munosabatlarda hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni baholash kabi ko‘nikmalarni

shakllantirishga ustuvorlik berildi. Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ usullari va subyekt faoliyatining turlari aniqlandi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimizda yoshlarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, milliy qadriyatlar, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, o‘smir va o‘spirin yoshidagi tahsil oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash masalalari E.Abzalov [1], H.Boboyev [2], I.Zokirov [3], Z.Islomov [4], H.Yo‘ldoshev [5], V.Karimova [6], H.Mamatov [7], Sh.Mardonov[8], O.Musurmonova [9], A.Saidov [10], E.G‘oziyev [11], M.Quronov [12] kabi pedagog, psixolog va huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH olimlari: M.N.Marchenko [13], Ye.A.Pevsova [14], S.V.Tatarinseva [15], Y.V.Tixonravov [16]larning ilmiy izlanishlarida huquqiy ongini shakllantirish madaniyati, huquqiy tartibot organlarida yoshlar bilan ishlash tizimi, turli mamlakatlarda konstitutsiyaviy huquqlarda inson omilining aks ettirilishi va qiyosiy tahlili, bolalarning huquqiy savodxonligini shakllantirish masalalarini tadqiq etishgan.

Xorij mamlakatlari olimlari: M.Abraham [17], J.Agresto [18], J.Auerbach [19], S.Bailey [20] va boshqalarning tadqiqotlarida fuqaroviy jamiyatning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, bolalar va ayollar huquqiy madaniyatini o‘stirish masalalarini, P.Dominick [21] ilmiy izlanishlarida huquqiy madaniyat nazariyasi, huquqiy madaniyat va huquqiy xulq-atvoriga sinergetik–sotsiodinamik yondashuv masalalari o‘z ifodasini topgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda o‘quvchilarning huquqiy ongini shakllantirish madaniyati va fuqaroviy jamiyatning huquqiy madaniyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan bo‘lib, biroq yuridik texnikum o‘quvchilarini huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish nazariy va amaliy jihatdan to‘laligicha ilmiy asoslanmagan. Shu bois, ilgari surilayotgan tadqiqot dolzarb muammolardan biri sanaladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish modeli tizimlashtiriluvchi elementlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning kelgusidagi yaxlit faoliyati mazmunini yoritadi. Andozada ifodalanganidek, o‘quv faoliyati bosqichlari, pedagogik-konseptual yondashuvlar o‘quvchilarning huquqiy ongini rivojlantirishni ta‘minlaydi, shaxs va jamiyat rivojlanishining ehtiyojlarini ifoda etadi. Ularning individual rivojlanib, o‘zini to‘liq namoyon qilishi, javobgarlik, mas‘uliyatlilik, jamoa bo‘lib ishlash, o‘zaro yordam va boshqa qimmatli fazilatlarini voyaga yetkazadi. Ushbu maqsadlar pedagogik jarayonni tashkil etishning jamoaviy, guruhiy va individual shakllarining maqbul kombinatsiyasini nazarda tutadi.


Modelda aks ettirilganidek, ta‘lim subyektlarining ijtimoiy–pedagogik sharoitlari ta‘lim muassasalarining o‘quv-moddiy bazasi, o‘qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, o‘quv imkoniyatlari, jamoaning shaxslararo munosabatlari, ta‘lim shakllari, o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari, metodlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ana shu omillar hisobga olinishi zarur. Ta‘lim jarayonning samarali bo‘lishi, ko‘p jihatdan ta‘lim tamoyillariga asoslangan holda o‘qitish jarayonlarini tashkil qilishga bog‘liq. Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun model asosida o‘quv faoliyatiga yo‘naltiruvchi usullar, mustaqil ta‘lim shakli, o‘zini-o‘zi rivojlantirish bilan birga intellektual rivojlanish imkoniyatlaridan keng foydalanish imkoniyati kengayadi.

Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kasbiy faoliyatga tayyorlashda: 1) texnologiya algoritmini ishlab chiqish; 2) huquqiy-madaniy rivojlantirish faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini baholash; 3) texnologiyani amaliy faoliyatda qo‘llash muhim bo‘lib hisoblanadi. Biz ishlab chiqilgan modelning indikativ vositachi qismida yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish komponentlarini belgiladik (1-rasmga qarang).

Yuridik texnikumlarda indikativ model asosida o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan mezonlar takomillashtirildi. Xususan: huquqiy savodxonlikka tayanuvchi tushunchalarning shakllanganligi (burch, huquqiy madaniyatni chuqur anglaganlik darajasi, qarashlar, e‘tiqodlar, motivatsiya, qadriyatlar, hayotiy mo‘ljallar, ideallarning mavjudligi va boshqalar); faoliyatli - natijaviy – o‘quvchilarning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga fidoyiligi, sadoqatligini belgilovchi, ularning qalbi va ongiga Vatan va o‘zining taqdirini belgilovchi mutanosiblik hissiyotiga yo‘naltirilgan mezon; mafkuraviy xurujlardan himoyalanih hissinging shakllanganligi - turli ko‘rinishdagi destruktiv g‘oyalardan himoyalanih, ularga nisbatan murosasiz bo‘lish, Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishga yo‘naltirilgan mezon.





**1-rasm. Yuridik texnikum o'quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning yo'naltiruvchi ( indikativ) modeli**

Yuridik texnikum o'quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi mezonlarni baholashda ularning ko'rsatkichlari, ifodalanganlik darajasi, dinamizm belgilari, xususiyatlarining tahlili inobatga olindi. Meyorlarni baholash o'quvchilarda shakllangan huquqiy kompetentlikka xos xususiyatlar tahlilidan kelib chiqdi.

Bu yuridik texnikum o'quvchilarida huquqiy kompetensiyalarning uyg'un bo'lishi, ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish tarbiyasidagi tadbirlar mahsuldorligini uning mavjud holati bilan qiyoslash, solishtirish, baholashni ta'minlashda inobatga olindi.

Yuridik texnikum o'quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish ko'rsatkichlari majmuasi fuqarolik ongi va fuqaroviy vatanparvarlik tamoyiliga asoslanadi. Ushbu tamoyil yagona tizimga birlashtirilgan va umumlantirilgan meyorlarda ifodalanishi mumkin bo'lgan asosiy mezonlarga mos kelishi mumkin. Binobarin, mezon – muayyan, aniq indikatorga nisbatan keng tarqalgan umumiy xususiyat. Har bir mezon muayyan belgilar, muayyan turdagi faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan bir necha indikatorlarning birikmasidir va uni amalga oshirish jarayonida erishilgan natijalarning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari baholanadi.

Binobarin, yuridik texnikum o'quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishni baholash mezonini ikki guruhga differensiallashadi. Birinchi guruhga huquqiy madaniyatni aks ettiruvchi mezonlar, ikkinchi guruhga huquqiy ongni obyektiv baholash uchun shaxsga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, sifatlarni tahlil qiluvchi mezonlarga ajraladi.

Fikrimizcha, yuridik texnikum o'quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish asosan 7 bosqichda shakllantiriladi va rivojlantiriladi: 1) bilish — kelgusi kasbiy faoliyatida deontologik qadriyatlarini egallash; 2) kasbiy kompetentlikni rivojlantirish; 3) e'tiqod — vatanparvarlik qadriyatlarini to'g'risida olgan bilimlarini e'tiqodga aylantirish; 4) harakat — bu e'tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish; 5) refleksiya-huquqiy kasbiy sohaga aloqador qarorlarni qabul qila olish; 6) monitoring – baholash -

o‘z faoliyatini tahlil qila olish asnosida kelgusidagi kasbiy faoliyatini to‘g‘ri tashkil qila olish; 7) stimuly-shaxsiy va kasbiy faoliyati natijasida rag‘batga ega bo‘lish, kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib, Vatan ravnaqiga xizmat qilish hissini shakllantirish. Shu bois, yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarning ko‘rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish va baholashda yoshlarning kelgusidagi kasbiga munosabati, o‘z ona yurti to‘g‘risidagi qadriyatlarga ega bo‘lganlik darajasi, fuqarolik e‘tiqodining shakllanganligi, ijtimoiy-siyosiy faollik darajasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari va innovatsiyalarning asosiy usullari sifatida quyidagi (1-jadval)lardan tajriba mobaynida foydalanildi:

1-jadval.

**Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlarning asosiy usullari**

O‘quv jarayonining bosqichlari	Asosiy usullar		
	Ta’lim berishni olish	nazoratga	Motivatsiyani rivojlantirish
Qiziqish uyg‘otish	Xabar berish, axborot almashinish, himoya qilish, qaror qabul qilish	Idrok	Da’vat etish
Qabul qilish	Tushuntirish, Namoyish qilish	Stimul	Rag‘bat
Tushunish	Kuzatish, suhbat, savollar ko‘rsatmalar	Namuna	
O‘zlashtirish	Nazorat qilish, baholash	G‘oyaviy patternlardan foydalanish	
Nazorat qilish (Tekshirish)	Suhbat, yo‘naltiruvchi savollar	Chelenjlar, ijtimoiy roliklar	
Rejalashtirish	Suhbat o‘tkazish, yo‘naltirilgan savollar berish	Tarbiyaviy tadbirlardagi faollik	
Baholash	Suhbat o‘tkazish, yo‘naltirilgan savollar berish	Ma’naviy-axloqiy yo‘nalganlik	

Yuqorida ko‘rsatilganlardan ko‘rinib turibdiki, yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish pedagog vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi: zarur sharoit yaratish, ularni jiplashtirish, jamoa a‘zolarini obyektiv vaziyatni baholashga, fikrlashga (mulohaza qilishga), izchillik bilan, asoslangan, qat’iy mulohaza qilishga o‘rgatish; jamoa a‘zolarini ularning fikrlari va ta’kidlari to‘g‘riligini mustaqil ravishda isbotlash va asoslay olish malakalarini rivojlantirish va shakllantirish; abstraksiyalash va aniqlashtirishga, muammoni hal qilish yo‘llarini qidira olishga, o‘zining fikri va boshqalarning fikrini tekshira olish va baholay olishga, tezda fikrlay olishga o‘rgatish; jamoa a‘zolarining tanqidiy fikrlarini rivojlantirish.

Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur sharoit yaratish, ularni jiplashtirish, jamoa a‘zolarini obyektiv vaziyatni baholashga, fikrlashga (mulohaza qilishga), izchillik bilan, asoslangan, qat’iy mulohaza qilishga o‘rgatish lozim.

Jamoa a‘zolarini ularning fikrlari va ta’kidlari to‘g‘riligini mustaqil ravishda isbotlash va asoslay olish malakalarini rivojlantirish va shakllantirish; abstraksiyalash va aniqlashtirishga, muammoni hal qilish yo‘llarini qidira olishga, o‘zining fikri va boshqalarning fikrini tekshira olish va baholay olishga, tezda fikrlay olishga o‘rgatish; jamoa a‘zolarining tanqidiy fikrlarini rivojlantirish zarur.

**Tahlil va natijalar.** Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish, ularda huquqiy kompetentlikni namoyish etuvchi unsurlarning jihatlarini o‘rganish maqsadida Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi va Navoiy viloyati yuridik texnikumining o‘quvchilari o‘rtasida anketa savollari tarqatildi. Savolnomalarning tahlillariga ko‘ra, bugungi kunda o‘quvchilar o‘rtasida huquqiy madaniyatning rivojlanganlik darajasi 78 foizni tashkil qildi. Huquqiy ongning yetakchi unsurlari –jamiyatda o‘rnatilgan qonun normalarini xolisona baholovchilar –diagnostika qilinganda o‘rtacha 92,5(%) foizni, huquqiy sezgirlikni namoyish etuvchilar – 71,3 (%)foizni, umumbashariy va milliy qadriyatlar, iqtisodiyot, islohot va

taraqqiyot yo‘nalishida bo‘layotgan o‘zgarishlarni – 79,7 (%) foiz, milliy g‘oya va dunyo mafkurasi bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishlik – 87(%) foizni, daxldorlik tuyg‘usi bo‘yicha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish-91,4(%) foizni, mafkuraviy xurujlardan himoyalaniş-82,7(%)foizni va boshqa yo‘nalishlarda muayyan foizlardagi ko‘rsatkichlar namoyon bo‘ldi.

Bunda yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi ko‘rsatkichlari pedagogik tahlil qilinganda, huquqiy bilimlarga egalik– 91 (%) foizni, huquqiy madaniyat – 78,4 (%) foiz, huquqiy immunitet 87 foizni, kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishlik – 89,1(%) tashkil etdi.

Kuzatuvlarimizdan va diagnostik tahlillardan aniqlanishicha, bugungi kunda yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini baholashning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish zarurati mavjud, chunki, O‘zbekistonga mustaqil fikr yurituvchi, izlanuvchan, shijoatli, olijanob, yuksak ma‘naviyatli, vatanparvar insonlar kerak. Bunday shaxslarni faqat ta‘lim – tarbiya metodlari, usul va vositalari orqali berilgan bilim hamda ko‘nikmalar shakllantira oladi. Shuning uchun ham ta‘lim – tarbiya jarayonlarida o‘quvchilarga pedagogik ta‘sir o‘tkazish, o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasining sifat ko‘rsatkichlarini pedagogik tahlil qilish va baholashning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish kerak.

Anketa savollariga berilgan javoblardan va yuridik texnikumlarda tashkil qilingan mashg‘ulot tahlillaridan aniqlanishicha, o‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga mo‘ljallangan o‘quv mashg‘ulotlaridagi mavzular: globallashuv (67%), inson huquqlari (77%), kasbga yo‘naltirish (78%), vatanparvarlikka oid mavzular taqsimoti (83%) belgilangan. Demak, yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini namoyish etuvchi komponentlar mohiyatini yoritib beruvchi mavzular mazmunan boyitilishiga ehtiyoj mavjud.

Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga mo‘ljallangan mavzular davlat va huquq asoslari 21%ni, davlat boshqaruv organlari-13%ni, ma‘muriy huquqbuzarlik va ma‘muriy jazo-17%ni, O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat-2%ni, bank huquqi tushunchasi va tizimi-12%ni, soliq huquqi tushunchasi-2,5%ni, yuridik shaxslar, mulk huquqi-2,5%ni, tadbirkorlik faoliyatining subyektlari-2,3%ni, O‘zbekiston Respublikasida mehnat huquqi-18%ni, O‘zbekiston Respublikasida oila huquqi-19,1%ni tashkil etar ekan. Bu ko‘rsatkichni, ayniqsa, ekologik javobgarlik tushunchasi, atrof - muhitni xalqaro – huquqiy muhofaza qilish, qishloq xo‘jaligi korxonalarining turlari va ularning huquqiy holati, qilmishning jinoyiligini istisno qiladigan holatlar, shuningdek, oila huquqi, soliq huquqi, mulk huquqi, tadbirkorlik faoliyatining subyektlari haqidagi mavzularni yuqori foizga ko‘tarish zarurati yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

**Xulosa.** Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda tahlil, baho, bashoratlash va modellashtirish tarbiyaviy jarayonni qamrab oluvchi unsurlar sifatida ishtirok etadi. Zamonaviy pedagogikada tarbiya modellarini ishlab chiqish va ularni pedagogik jarayonda qo‘llash bo‘yicha yetarlicha tajriba orttirilgan. Modellashtirish nazariyasida quyidagi model turlari farqlanadi: 1) maqsadlarni oydinlashtirish va resurslardan oqilona foydalanishga mo‘ljallangan - nazariy modellar; 2) qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish va ta‘sir o‘tkazish vositalari bilan ishlashga mo‘ljallangan vositachilik modellari; 3) kutilmagan vaziyatlarda qarorlar qabul qilish va ishlab chiqishga yo‘naltiruvchi reflektiv modellar; 4) metodologik manba bo‘lib xizmat qiluvchi, ma‘lumotlar bazasi va harakatlar dasturiga tayangan konseptual modellar; 5) kasbiy faoliyatda teskari aloqa o‘rnatuvchi, mexanizmlarni yaratishga mo‘ljallangan va kafolatlangan natijaga erishishda og‘ish holatlarini oldini oluvchi monitoring modellari. [159,122-b.]. Yuqorida zikr etilgan modellar tahlillari natijasida yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun konseptual model zarurligi aniqlandi (1-rasm) va tadqiqot doirasida ushbu model yaratildi. Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish modelida: ijtimoiy buyurtma: kasbiy salohiyati bilan birgalikda, yuksak huquqiy madaniyatli, huquqiy ongi rivojlangan, huquqiy savodxon, axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan mutaxassisni tayyorlashga qo‘yilayotgan malaka talablari. Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish omillari: jamiyatdagi huquqiy madaniyatning shakllanganlik darajasi; shaxsning huquqiy qarashlari majmuasi; ma‘naviy va mafkuraviy xurujlardan himoyalaniş darajasi; kasbiy kompetentligi.

Yuridik texnikum o‘quvchilarida huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadi jamiyatning turli tarmoqlari bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas‘uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Yuridik texnikum o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi muhim bo‘lib, bu darslarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini, mashg‘ulotlarda ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, kazuşlar bilan ishlash,

guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini (yechimlar daraxti, ishbilarmon o‘yini) tatbiq qilish zaruratini ko‘rsatdi.

**Adabiyotlar:**

1. Абзалов Э. Правовое воспитание и формирование правовой культуры молодёжи. –Т.: Академия МВД, 2018.–23 с.
2. Бобоев Х., Одилқориев Х., ва бошқалар. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. –Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2010. – 528 б.
3. Зокиров И. Ижтимоий турмушда ҳуқуқий онгнинг ўрни. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 248 б.
4. Исломов З. Ҳуқуқий онг, маданият, мафкура. // Қонун ҳимоясида. – Тошкент, 2014. – № 9. – Б. 18–19.
5. Йўлдошев Х., Тожихонов У., Зарипов З., Мирзажонов Қ. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарликларини олдини олишда ҳуқуқий воситаларининг аҳамияти. - Т.: ИИВ Академияси, 2009. – 174 б.
6. Каримова В. Ижтимоий психология. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2016, – 206 б.
7. Маматов Х. Ўқувчиларда ҳуқуқий онгни шакллантириш.-Т.:Меърос, 2018. – 180 б.
8. Мардонов Ш. Касб-хунар коллеж ўқувчиларида маънавий-маърифий сифатларни тарбиялаш.-Т.:Ўқитувчи, 2015. –154 б.
9. Мусурмонова О. Ўқувчилар маънавий маданиятини шакллантириш. // –Т.; “Ўқитувчи”, 1995. – 24 б.
10. Саидов А. Тожихонов У., Тошқулов Ж. Мустақиллик ва ҳуқуқий мафкура. - Т.: Ўзбекистон, 2008. – 120 б.
11. Ғозиев Э. Ўсмир психологияси.- Т.; Университет, 2018. – 198 б.
12. Қуронов М. Ижтимоий педагогика.-Тошкент:Университет, 2010. –122 б.
13. Марченко М.Н. Социальная адаптация правонарушителей. –М.:Знание, 2019. – 192 с.
14. Певцова Е.А. Формирование правового сознания школьной молодежи: Состояние, проблемы и перспективы // Государство и право. Москва, 2005. № 4. – С. 28-36.
15. Татаринцева С.В. Правовое воспитание. Методология и методика. - М.: Высшая школа, 1990. – 174 с.
16. Тихонравов Ю.В. Профилактика правонарушений среди юношей.-М.:Мысль, 2018. – 124 с.
17. Abraham M. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954. – 365 p.
18. Agresto J. Legal Education among Youth, Chicago, 2019, – 56 p.
19. Auerbach J. Что такое ювенильное воспитание. Нью-Йорк, 2015. – 144 с.
20. Bailey S. What is juvenile education, New York, 2015, – 144 p.
21. Dominick P. Fighting Child Crime. – New Washington, 2017. – 122 p.

## XORIJ OLIMLARI TOMONIDAN SIBLING MUNOSABATLARINI O’RGANISHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHLARINING AHAMIYATI

*Yo’ldoshev Sardorbek Asliddin o’gli,  
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali  
Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada oilaviy nizolarni ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida dunyo olimlari tomonidan o‘rganilganligi ochib berilgan. Oiladagi sibling munosabatlar jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan oila muhitida, ota-ona va farzandlar munosabatlari tizimida, boshqa har qanday ijtimoiy institutlar orasidagi uzviylik sifatida olib qaralganda ko‘proq darajada o‘zlashtiriladi va an‘ana, ma‘naviy meros tarzida avloddan avlodga o‘tadi.*

**Kalit so‘zlar:** oilaviy nizo, konstruktiv nizo, destruktiv nizo, sibling munosabatlar, ota-ona, farzand, nizo, tarbiya, xulq-atvor muhit, shaxs, ijtimoiy axloq.

## ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ В ИЗУЧЕНИИ ЗАРУБЕЖНЫМИ УЧЁНЫМИ СИБЛИНГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ

*В этой статье раскрывается, что семейные конфликты как социокультурный феномен изучаются учёными всего мира. Сиблинговые отношения в семье были одной из важнейших проблем с самого начала существования общества. По мере развития общества значение этой проблемы будет только возрастать. Достижения человечества усваиваются в большей степени именно в среде семьи, в системе родительских и детских отношений, когда рассматриваются как преемственность между любыми другими социальными институтами и передаются из поколения в поколение в виде традиций, духовного наследия.*

**Ключевые слова:** семейный конфликт, конструктивный конфликт, деструктивный конфликт, сиблинговые отношения, родитель, ребенок, конфликт, воспитание, поведенческая среда, личность, социальная этика.

## THE IMPORTANCE OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS IN THE STUDY OF SIBLING RELATIONSHIPS BY FOREIGN SCIENTISTS

*This article reveals that family conflicts as a sociocultural phenomenon are studied by scientists around the world. Sibling relationships in the family have been one of the most important problems since the very beginning of society. As society develops, the importance of this problem will only increase. The achievements of mankind are absorbed to a greater extent precisely in the family environment, in the system of parental and child relationships, when they are considered as continuity between any other social institutions and are passed on from generation to generation in the form of traditions and spiritual heritage.*

**Key words:** family conflict, constructive conflict, destructive conflict, sibling relationship, parent, child, conflict, education, behavioral environment, personality, social ethics.

**Kirish.** Respublikamizda oila institutini mustahkamlash, “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” konseptual g‘oyasini ro‘yobga chiqarish, oila institutini qo‘llab-quvvatlash, ota-ona va farzand munosabatlarini yaxshilash, yoshlarni oila qurish, farzand tarbiyalashga psixologik tayyorlash masalalarini takomillashtirishning me‘yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha[1] Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ota-onalarning pedagogik madaniyatini, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas‘uliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan Natijada ota-ona va farzandlar muloqotini belgilovchi omillarni aniqlash, ularning turli xil nisbatda hosil qiladigan ta‘sir effektlarini tekshirish, ularni nazorat qilish va prognozlash imkoniyatlarini ko‘rsatish yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga imkoniyatlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[2], 2020-yil 18-

fevraldagi PQ-4602- son “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorlari.

Oila va oilaviy munosabatlar, ayniqsa, sibling munosabatlar, ota-oalar va farzandlar o‘zaro aloqalari jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Chunki insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan oila muhitida, ota-ona va farzandlar munosabatlari tizimida, boshqa har qanday ijtimoiy institutlar orasidagi uzviylik sifatida olib qaralganda ko‘proq darajada o‘zlashtiriladi va an‘ana, ma‘naviy meros tarzida avloddan avlodga o‘tadi. Shunday ekan, u yoki bu jamiyat, xalq va millatning istiqboli ko‘p jihatdan shu munosabatlarning xolatiga bog‘liq. Buning uchun esaoildagi ichki muhitning har tomonlama sog‘lom, ma‘naviy mustahkam bo‘lishiga erishish lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)** Xorij mamlakatlarida oilaviy munosabatlar, sibling oilaviy nizolar yetarlicha yaxshi o‘rganilgan bo‘lib ular orasida A.Adler, Frensis Galton, Uolter Toumen, Judi Dann, R.Zayons, N.Greyvz, R.B.Felson, Stenli Shexter, Abraxam Tesser, Klif Isaakson, G.T.Xomentauskas, AD.Iksteynlar tomonidan Sibling maqomi bilan bog‘liq holatlar bola psixik rivojlanishiga ta‘sir, oilada o‘zaro munosabatlar tarkibiy tuzilishi va yosh dinamikasi, ushbu munosabatlarning bolalar katta bo‘lganda qanday shaxs xususiyatlariga ega bo‘lishidagi roli, munosabatlardagi buzilishlarni korreksiya qilish imkoniyatlari, onaning o‘smir farzand bilan munosabat xususiyatlari, xususan, maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan (giyohvand moddalarga tobe, somatik, nevrologik patologiyaga ega) o‘smirlarning ona bilan munosabatlari, farzandini yolg‘iz tarbiya qiluvchi onalarning o‘smir farzandi bilan munosabatiga xos xususiyatlar o‘rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)** Xalqimiz uzoq o‘tmishdan ota-ona va farzand munosabatlaridan keyingi o‘rinda, aka-ukalik va opa-singillik munosabatlariga alohida e‘tibor bilan qaragan. Oilada farzandlar o‘rtasida iliq munosabatlar bo‘lishi va saqlanib qolinishi, oiladagi farzandlar mavqeiga munosabat xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘z aksini topgan. Bunga “Uch og‘a-botirlar”, “Kenja botir”, “Birlashgan o‘zar” kabi ertaklarni, “Shirin va Shakar” kabi dostonlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Oila bolaning ilk ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan maskani bo‘lib, unda bolaning ota-onasi, aka-uka, opa-singillari bilan bo‘ladigan muloqati ijtimoiylashuv jarayoniga kuchli ta‘sir qiluvchi omil hisoblanadi. Individual psixologiyaasoschisi A.Adler bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uning jinsiga, oilada nechanchi farzand ekanligiga, oilasida aka-ukalar va opa-singillari borligiga, ya‘ni uning sibling maqomiga bog‘liqligi g‘oyasini ilgari surgan olim sanaladi.

Psixologik adabiyotda sibling maqomi aslida (inglizcha *sibling*, *sibs* –bir oiladagi akalar va opalar ma‘nosini bildiradi) – muayyan insonning muayyan oilada tug‘ilishi, jinsi va tug‘ruqlar orasidagi rasmiy farqni ifodalovchi tushunchani bildiradi. Bolaning sibling maqomi va uning shaxsiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligi masalasiga hali aniqlik kiritilmagan, ya‘ni aniq ilmiy dalillar yetarli emas. Shunga qaramay, ko‘pgina tadqiqotchilar (Richardson R., 1994; Driskoll R., Iksteyn D., 2003; Brazington R., 2003 va boshqalar) shaxsning sibling maqomi uning shaxsiga, er-xotinlik va ota-onalik maqomlariga, do‘stlar bilan muomalasiga, ishda rahbariyat va hamkasblar bilan o‘rnatadigan muloqotlarining xarakteriga ta‘sir etishini o‘rganishgan.

Individual psixologiyaasoschisi Alfred Adler ilk bor oilada bolaning tug‘ilish tartibi, ya‘ni sibling maqomi va sibling munosabatlar individning hayot uslubini shakllanishiga muhim ta‘sir ko‘rsatishini o‘rgandi. Alfred Adler bir insonni tushunish uchun avvalo, uning oiladagi o‘rni, farzandlar soni va u tug‘ilib, o‘sgan muhitni o‘rganishi kerak, deb hisobladi. U Zigmund Freydning jinsiy mayllar va agressiyaga inson hayotning markaziy mazmuni sifatida haddan tashqari kata e‘tibor berayotganligi bilan kelishaolmadi. Freydga qarshi chiqib, Adler bolaning muhabbati u aytganidek o‘z tanasiga emas, balki insonlarga qaratilgan deb hisobladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results)** Amerikalik psixolog olim Stenli Shexter esa sibling maqomining shaxs muloqotchanligiga ta‘sirini ayollar guruhida o‘rgangan. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, oilada to‘ng‘ich va yolg‘iz bo‘lgan ayollar stressli vaziyatlarda ko‘proq muloqot qilishga moyil ekanlar. Ammo shuni e‘tirof etish joizki, ular odatiy holda muloqotga kirishishga intilmaydilar. Shexter bu holatni, to‘ng‘ich va yolg‘iz farzandlarning xavotirli vaziyatlarda hamdard izlashlari bilan izohladi.

Olim Abraham Tesser siblinglar munosabatlaridagi kelishmovchilar sababini shaxsning o‘ziga nisbatan baholashini saqlash mexanizmi bilan bog‘lab o‘rgangan. Tesserning fikricha, uka tomonidan akaning omadliroq, qobiliyatliroq, deb idrok etishilishi, uning harakatlarida nima qilib bo‘lsa ham o‘ziga nisbatan hurmatni saqlab qolish motivatsiyasini kuchayishiga sabab bo‘ladi. Agar uka yoki singillarning muvaffaqiyatli odimlari oilada e‘tirof etilaversa, bu aka yoki opaning ularga nisbatan nizoli munosabatlar shakllanishiga turtki beradi. Taqiqotlar natijasiga ko‘ra, qobiliyatlar nuqtayi nazaridan keskin bir-biridan farq qiladigan aka-ukalar o‘rtasida o‘zaro kelishmovchiliklar darajasi yuqori ekanligi aniqlangan. Qobiliyatliari

bir xil darajada bo'lgan aka-ukalar esa, o'zaro munosabatlardagi ayrim juz'iy kelishmovchiliklarga eslay olar ekanlar, xolos. Aniqlanishicha, oilada o'smir yoshli o'g'il bolalar va akalar o'rtasidagi kelishmovchilikning bosh sababi bu oila kattalarining farzandlariga adolatsizlarcha munosabatlari ta'sirida o'smirning o'z imkoniyati hamda oiladagi ijtimoiy mavqei akanikidan past deb idrok etishidir.

Doktor Frank Sallovey shaxs shakllanishida muhim omil hisoblangan sibling maqomi haqida ko'p ma'lumotlar to'playdi. Uning ma'lumot berishicha, oilada yolg'iz va to'ng'ich bo'lgan farzandlar faoliyatining intellektual turlariga ko'proq qiziqar ekanlar, o'qish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashdilar, shuning uchun ham ular maktab dasturini tez va samarali o'zlashtiradilar. Ular o'zlarini qadrlaydigan va o'zlariga ishongan, tengdoshlari bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlarda hukmronlikka intiluvchan bo'lar ekanlar. Shu bilan birga ularda xavotirlilik yuqori va asab ko'proq uchraydi. Ikkinchi va keyingi farzandlar (o'rtancha farzandlar) muloqotga intiluvchan, moslashuvchan, hamkorlik va ko'pincha yordamga tayyor bo'lishar ekan. Ammo ular o'zgarar fikriga qo'shilavermaydilar, tartibni yoqtirishmaydi. Turli sibling maqomidagi bolalarning shaxsiy xususiyatlarini Sallovey ularning oiladagi vaziyatlar bilan bog'ladi. Uning fikricha, to'ng'ichlar ikkinchi farzand tug'ilganidan keyin “taxtdan tushish” jarayonini o'ziga xos qayg'urish bilan boshdan kechirganligi sababli kattalar fikriga ta'sirchan bo'lib qoladilar. Kenja farzandlar ma'lum vaziyatlarga qarshi chiqish, tan olmaslik, ozodlikka intiluvchan, o'jar bo'lishlari mumkin.

Amerikalik psixiatr Klif Isaakson tug'ilishdagi tartib nazariyalarga asoslangan holda, insonning tug'ilish tartibi uning psixologik tipiga ta'sir qilinishi ta'kidladi va sibling maqomini o'ziga usullar bilan o'rgandi. Shuningdek tug'ilishdagi tartibni hisobgaolgan holda shaxsga psixologik yordam ko'rsatish mumkinligini ta'kidlab, har bir sibling maqomigao'ziga xos ta'rif keltiradi. Uning fikricha, tug'ilishdagi tartib bilan bir qatorda, tug'iriqlar orasidagi yosh, oiladagi farzandlarning o'zaro munosabatlari shaxsning psixologik tipi shakllanishida ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Isaakson o'z kuzatishlaridan kelib chiqib, kishilarni “yolg'iz farzand”, “birinchi”, “ikkinchi”, “uchinchi” va “to'rtinchi” shaxs tiplariga ajratadi. Uning fikricha, goho shaxsning ushbu tipi uning real tug'ilishidagi tartibiga mos kelmasligi ham mumkin. Ammo siblinglar o'rtasidagi munosabat, oiladagi ijtimoiy vaziyat va holat shaxsda aynan shu psixologik xususiyatlarni shakllantiradi. Misol uchun birinchi farzand ikkinchi farzand tug'ilgunga qadar yolg'iz farzand mavqeida bo'ladi. Agar ota-onalardan qaysi biridir yoki boshqa kattalar birinchi farzandgaalohida e'tibor bilan parvarishda davom etsa, unda “to'ng'ich farzand” emas, “yolg'iz farzand farzand” tipiga xos xususiyatlar shakllanadi. Umuman, Isaakson fikricha, birinchi farzand yoki kata farzand bo'lishib o'rganganligi sababli ko'ngilchan. Ota-onalar unga ko'p umid bog'lashadi. Undan ko'pincha ko'p ma'suliyat talab qilishadi, kichiklarga namuna bo'lishi kerakligi haqida uqtiriladi. Natijada bola avtoritar va jiddiy bo'lib o'sishi mumkin.

Ikkinchi farzandning mavqei boshqacharoq, katta akasi yoki opasining doimo oldinda bo'lishi bolada raqobatchilik ruhini tarbiyalaydi, u doimo kattadan oldinga o'tishga intilib yashaydi. Agar oilada farzandlar ko'p bo'lib, bolao'zini ko'rsatish uchun kurashib yashagan bo'lsa, raqobatlashish hayotining mazmuniga aylanib qolishi mumkin. Ko'pincha ular o'zlarini e'tibordan chetda qolgan deb hisbolashadi. Tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, psixik kasalliklarga chalingan bemorlarning ko'pchilik qismi tug'ilish tartibi bo'yicha oxiridan ikkinchi o'rinda bo'lgan kishilar ekan. Buning sababi, uning o'zidan keyingi ukasi yoki singlisini erkalatishlariga ko'nikishi qiyin bo'lganligida deb ko'rsatish mumkin. Ammo o'rtancha farzandlar ko'ngilsiz hodisalarni xotirjam qarshilaydi, boshiga tushgan omadsizliklarga chidamli bo'ladi. Ular haqsizliklarga chidolmaydigan, adolat uchun kurashuvchi bo'lishlari bilan birga, hayotdao'z o'znini topishga biroz qiynalishlari mumkin. Kenja farzandning esa homiylari ko'p bo'ladi, shuning uchun erkaroq bo'ladi. Shu bilan birga, unga xo'jayinlik qiluvchilar ham ko'p bo'ladi. Ular tezroq kata bo'lishga intilsada, bir umr “kichkintoy” bo'lib qolaveradi.

Klif Isaakson egizaklar xarakterining shakllanishiga ularning juftligi ta'sir ko'rsatadi deb hisobladi. Uning aytishicha: “egizaklar juftligida munosabatlar birining hukmronligi va boshqasining unga tobelgi bilan farqlanadi. Ammo bu munosabat vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin. Tug'ilishidagi tartib xarakterlaydigan xususiyatlar egizaklarda boshqa bolalarga nisbatan kuchliroq bo'ladi, mavqei ham, yoshlari ham tengligi bois, lider mavqeini ushlab qolish uchun ko'proq harakat qilishi kerak bo'ladi. Bu esa ularning har ikkalasining xarakterigao'zgartirishlar kiritadi.”

Psixologlarning ta'riflashicha, shaxs xarakteriga tug'ilish tartibining ta'siri hayotning birinchi yillaridan boshlanadi. Egizaklarda esa bu farq daqiqalar bilan o'lchanadi. Ularning oilada mavqei yakka holda emas, balki juftligiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, agar oilada egizaklar eng so'nggi farzandlar bo'lsa, ularning har ikkalasi ham kichik farzand mavqeida bo'lishadi. Shunga qaramay, ko'pgina tadqiqotlar ko'rsatishicha egizaklarning birinchi tug'ilgani hukmron, ikkinchisi esa unga tobe bo'ladi. Afsuski, bu masalaga oid ishlari juda kam o'tkazilgan. R.Levining fikricha, jamoa psixologiyasi vao'zgarar fikriga

tobelikning shakllanishi, bolaning o'zidan katta opalari, akalari hamda tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari xarakteridan kelib chiqadi.

Ko'pgina olimlar F.Doych, R.Driskoll, D.Iksteyn, R.Brazingtonlar ham sibling maqomi va uning shaxs shakllanishiga ta'sirini o'rganganlar. Siblinglar munosabatida ularning jinslari, yoshlari o'rasidagi farq ham katta ahamiyatga ega ekanligini aniqlashgan. Masalan, siblinglar orasidagi yosh 5-6 yoshdan oshib ketsa, ular o'zaro munosabatlarda kam tortishsalarda, qiziqish va yoshlaridagi farq ularni umumiy faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin deb hisoblashadi.

Shon Bern esa bolaning jinsi uchun xos xulqning tarbiyalanishida ota-onadan tashqari, oilada aka-uka, opa-singillarning mavjudligi ahamiyatliroq, deb ta'kidlaydi. Olim oilada turli jinslardagi farzandlarning mavjudligi qarama-qarshi jinsga oid fe'l-atvor, xatti-harakatlarning bolalarda kuzatilishini ta'kidlaydi. Kuzatishlar natijasiga ko'ra, bolalar Yoshi orasidagi tafovut qanchalik oz bo'lsa, ta'sir shunchalik kuchliroq bo'lar ekan. Katta farzand o'z jinsidagi uka yoki singlisiga kata ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir o'z jinsiga nisbatan havas, intilish, taqlid bilan izohlanib, bolaning psixofiziologik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi[3]. Olimlar fikricha, to'ng'ich o'g'il bolalarda jinsiy mutanosiblikni tan olish birmuncha sust bo'ladi. Katta akalarning mavjudligi boalada tan olish, jinsiy mutanosiblikning shakllanishiga hissa qo'shadi.

Psixologiya fanlari doktori G.T.Xomentauskas o'zining “Oila-farzand nigohida” kitobida sibling maqomini tavsiflab, har bir sibling maqomidagi farzandning o'ziga xosligi va oilada ular uchraydigan qiyinchiliklarni ko'rsatib o'tgan. Olim ota-onalarni oilaga farzand ko'zi bilan qarashga undar ekan, har bir farzandning oilani idrok qilishi, har bir farzand uchun oiladagi vaziyat o'zgacha ekanligi ko'rsatib berdi. Xomentauskas fanga siblinglar raqobati hodisasini kiritdi va o'rgandi. Bunda bolalarning o'zaro munosabatlari, qachon bir-biriga raqib, qachon birlashishlari o'rganilgan. Masalan, oilaviy inqirozlar paytida, ota-ona qazo qilganda yoki xastalanib qolganda ular albatta bir-biriga muruvvat qiladi, jipslashadi. Oilada bola kichikligidan jamoa o'rganib, shaxslararo munosabatlarda tajriba orttiradi. Turli yoshdagi bolalar bor oiladagi siblinglar o'rtasida mehr-muruvvat, hamkorlik, raqobat, do'stlik tuyg'ulari turli shakllarda mustahkamlanadi[4].

Shaxs shakllanishida biologik omillar o'rnini tadqiq etgan etgan ingliz olimi Frensis Galton birinchilardan bo'lib, egizaklar va boshqa siblinglar ustida tizimli tadqiqot ishini o'tkazdi. U o'z tadqiqotlarida Britaniya olimlarining ko'pchilik qismi oilada to'ng'ich va yolg'iz farzand ekanligini aniqladi. Galton bolalar xulqidagi individual farqlar nasldan naslga o'tishi mumkin, har bir individga xos differensial xususiyatlar mavjudligini “egizaklar metodi” yordamida asoslashga harakat qildi. F.Galton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidan musiqaga layoqatlilik misolda aniqlangan natijalarga ko'ra, musiqaga moyil ota-onalarning farzandlarida musiqaga moyil emaslikni ko'rish mumkin.

Atoqli rus olimi L.S.Vigotskiy inson psixik taraqqiyotida genetik ommillar rolini inkor qilmagan holda ijtimoiy muhitning yetakchi ta'siri to'g'risidagi farqni yoqlagan. Chunki tashkil etilgan ta'lim tarbiya, oil ava undagi o'zaro munosabatlarning xarakteri, shaxs bilan muloqotda bo'ladigan ijtimoiy guruhlar muhitikabi qator ijtimoiy omillar shaxsning rivojlanishi, uning o'z-o'zini anglashi vao'zgalarga munosabati, bilish jarayonlari hamda intellectual taraqqiyotida katta ahamiyatga egaliliga shubha yo'q.

Uch yosh inqirozi haqida gapirar ekan, Vigotskiy bola xulqida bu yoshda uchraydigan ayrim salbiy sifatning ifodalanishi oila tarkibiga va farzandlar soniga ham bog'liqlini keltirib o'tadi. Yolg'iz farzandli oilalarda hukmronlikka intilishni uchratish mumkin. Bu esa oilada tarbiya topayotgan bolada atrofdagilarga nisbatan hukmron munosabatda bo'lish maylini uyg'otadi. Masalan, onasi har doim uning yonida bo'lishi, hech qayerga ketmasligini talab qiladi. U istagan barcha narsalarga ega bo'lishni, u bor narsani emas, balki o'zi istagan taomni tayyorlashlarini talab qiladi. Bola atrofdagilarni boshqarishning turli usullarini qo'llaydi. Ko'p farzandli oilalarda esa xuddi shu holat o'zidan katta yoki kichkina siblingga nisbatan rashk ko'rinishida bo'lishi mumkin.

XX asrning 70-yillarida avstraliyalik psixolog Uolter Toumen sibling maqomining shaxs shakllanishiga ta'siri mavzusiga oid ko'pgina tadqiqot ishlari olib borildi. U minglab oilalarni o'rganib, qadriyatlar tizimning, moliyaviy ahvolining va ma'lumoti darajasining turlicha bo'lishiga qaramasdan oiladagi o'rni bir xil bo'lgan insonlar xarakterida juda ko'p o'xshashliklar borligini aniqlagan. U sibling maqomi hatto kelajakda umr yo'ldoshi tanlashga va u bilan bo'ladigan munosabatlarga ham ta'sir qiladi, deb hisobladi. Toumen nazariyasi aka va opalar sifatlarini qaytarilishi, deb atalib, shunga ko'ra, agar turmush qurayotgan yoshlarning opalar yoki akalari bo'lsa, ular yangi turmushdagi munosabatlardaana shu o'z yaqinlarga bo'lgan munosabatlarni jinsga muvofiq tarzda namoyon qilishga intilisharkan. Ayniqsa, xotinning akasi va erning kichik singlisi bo'lganligi oilaviy munosabatlarning ijobiy bo'lishiga yordam beradi. Atoqli rus olimi L.S.Vigotskiy inson psixik taraqqiyotida genetik ommillar rolini inkor qilmagan holda ijtimoiy muhitning yetakchi ta'siri to'g'risidagi farqni yoqlagan. Chunki tashkil etilgan ta'lim tarbiya, oil ava undagi o'zaro munosabatlarning xarakteri, shaxs bilan muloqotda bo'ladigan ijtimoiy guruhlar



muhitkabi qator ijtimoiy omillar shaxsning rivojlanishi, uning o'z-o'zini anglashi va o'zgalarga munosabati, bilish jarayonlari hamda intellectual taraqqiyotida katta ahamiyatga egaliliga shubha yo'q .

Uch yosh inqirozi haqida gapirar ekan, Vigotskiy bola xulqida bu yoshda uchraydigan ayrim salbiy sifatlarning ifodalanishi oila tarkibiga va farzandlar soniga ham bog'liqlini keltirib o'tadi. Yolg'iz farzandli oilalarda hukmronlikka intilishni uchratish mumkin. Bu esa oilada tarbiya topayotgan bolada atrofdagilarga nisbatan hukmron munosabatda bo'lish maylini uyg'otadi. Masalan, onasi har doim uning yonida bo'lishi, hech qayerga ketmasligini talab qiladi. U istagan barcha narsalarga ega bo'lishni, u bor narsani emas, balki o'zi istagan taomni tayyorlashlarini talab qiladi. Bola atrofdagilarni boshqarishning turli usullarini qo'llaydi. Ko'p farzandli oilalarda esa xuddi shu holat o'zidan katta yoki kichkina siblingga nisbatan rashk ko'rinishida bo'lishi mumkin .

**Xulosa va takliflar (Conclision/Recommendations).** XX asrning 70-yillarida Avstraliyalik psixolog Uolter Toumen sibling maqomining shaxs shakllanishiga ta'siri mavzusiga oid ko'pgina tadqiqot ishlari olib bordi. U minglab oilalarni o'rganib, qadriyatlar tizimning, moliyaviy ahvolining va ma'lumoti darajasining turlicha bo'lishiga qaramasdan oiladagi o'rni bir xil bo'lgan insonlar xarakterida juda ko'p o'xshashliklar borligini aniqlagan. U sibling maqomi hatto kelajakda umr yo'ldoshi tanlashga va u bilan bo'ladigan munosabatlarga ham ta'sir qiladi, deb hisobladi. Toumen nazariyasi aka va opalar sifatlarini qaytarilishi, deb atalib, shunga ko'ra, agar turmush qurayotgan yoshlarning opalar yoki akalar bo'lsa, ular yangi turmushdagi munosabatlarda ana shu o'z yaqinlarga bo'lgan munosabatlarini jinsga muvofiq tarzda namoyon qilishga intilisharkan. Ayniqsa, xotinning akasi va erning kichik singlisi bo'lganligi oilaviy munosabatlarning ijobiy bo'lishiga yordam beradi .

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamalakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir Toshkent: O'zbekiston, 2017. -B.22.
2. <https://minikar.ru/uz/eto-interesno/krizis-otrochestva-predpodrostkovyi-krizis-otrochestva/>.
3. Берн Ш. Гендерная психология. - М: Прайм-еврознак,2004-320с.
4. Хоментausкас Г.Т. Семья глазами ребенка: Дети и психологические проблемы в семье/ Г.Хоментausкас.- Екатеринбург: Рама Публишинг, 2010-233с.
5. Toshimov R., G'oziyev E.G'. “Zamonaviy individual va guruhiiy psixologiya” Toshkent, “Universitet” 1999y.
6. Salayeva M.S O'zbek oilalaridaota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis.psixol.fan.nom 19.00.05.-T.:2000.

## KASBIY REFLEKSIYA ASOSIDA BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

*Zarmasov Sherzod Raximberdiyevich,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o’qituvchisi*

*Ushbu maqolada bo’lajak o’qituvchilarning psixologik tayyorgarligining turli jihatlarini, uning ijodga qobiliyati, pedagogik mahorati, pedagogik tayyorgarligi va egallagan tayyorgarligi darajalari o’rganilgan. Shuningdek, psixologiyada tayyorgarlik hodisasini tadqiq qilishning asosiy yo’nalishlarini, uning tuzilishini, asosiy tarkibiy qismlarini, tayyorgarlik turlari va darajalarini, shakllanish sharoitlarini va tizim hosil qiluvchi omillar ko’rib chiqilgan. Bundan tashqari shaxsda refleksivlik asosida kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik darajasining oshishi haqida so’z boradi.*

**Kalit so’zlar:** kasbiy refleksiya, faoliyat, diagnostika, qobiliyat, motivatsiya, individual, mohirlik, ijod, ishonish, avtoritarlik konservativizm.

## РАЗВИТИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕФЛЕКСИИ

*В данной статье рассматриваются различные аспекты психологической подготовки будущего педагога, его способности к творчеству, педагогического мастерства, уровня педагогической подготовленности и приобретённой подготовленности. Также в психологии рассматриваются основные направления исследования феномена готовности, его структура, основные компоненты, виды и уровни готовности, условия формирования и системообразующие факторы. Далее идёт речь о повышении уровня психологической готовности человека к профессиональной деятельности на основе рефлексивности.*

**Ключевые слова:** профессиональная рефлексия, деятельность, диагностика, умение, мотивация, личность, мастерство, творчество, убеждение, авторитарность, консерватизм.

## DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF PROFESSIONAL REFLECTION

*In this article various aspects of the psychological training of future teachers are studied, the levels of his ability to creativity, pedagogical skills, pedagogical training and acquired training. Also in psychology, the main directions of research on the phenomenon of preparation, its structure, its main components, types and levels of preparation, conditions of formation and factors forming a system are considered. In addition, there is an increase in the level of psychological readiness for professional activities on the basis of reflexivity in the individual.*

**Key words:** professional reflection, activity, diagnosis, skill, motivation, individual, skilled, creativity, believing, authoritarian, conservatism.

**Kirish.** Zamonaviy kasbiy yo’nalishlardan, mehnat psixologiyasi va muhandislik psixologiyasi insonning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyati bilan bog’liq masalalarni o’z ichiga olmoqda. Insonning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyati shaxsning o’z faoliyatini boshqarish va uni konstruktiv yo’nalishga yo’naltirish qobiliyatiga bog’liq. Muvaffaqiyatli shaxs - bu faoliyatga psixologik va kasbiy jihatdan tayyor, muvaffaqiyat uchun aniq motivatsiyaga ega va ruhiy holatni o’z-o’zini boshqarishga qodir shaxs hisoblanadi. Muvaffaqiyat kasbiy imkoniyatlarni o’z vaqtida amalga oshirish orqali erishilishi ham muhimdir. Ikkinchisi shaxsning qobiliyatlari, uning kasbiy jihatdan muhim fazilatlarini, kasbiy bilimlari, qobiliyatlari, ko’nikmalari va aks ettirishni kasbiy rivojlanish imkoniyati sifatida o’rganamiz.

Faoliyatga psixologik tayyorgarlikni o’rganish g’oyasi, inson shunchaki kasbiy talablarni bajarishga moslashmaydi, aksincha, mavjud sharoitlarni rivojlantirish va yengib o’tishga intiladi, degan fikrga asoslanadi. Bu holat faqat moslashish jarayonlarining yetarli emasligini tavsiflaydi, u shaxsning kasbiy rivojlanishi g’oyasini, shaxsning individual xususiyatlarini, uning kasbiy yaroqlilik darajasini va o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda akmeologik rivojlanish imkoniyatlariga erishishni aks ettiradi. U yoki bu akmeologik variantni amalga oshirishning muvaffaqiyati, bir tomondan, ma’lum bir shaxsda rivojlanish zarurati qanchalik kuchli namoyon bo’lishiga bog’liq bo’lib, u tegishli qobiliyatlar bilan qo’llab-quvvatlanadi va boshqa tomondan, ushbu variantni noaniq sharoitlarda amalga oshirishga tayyor.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik muammolarini ishlab chiqish mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, kasbiy psixologiya va boshqalarda amalga oshiriladi. “Shaxsiy tayyorgarlik”, “kasbiy tayyorgarlik”, “kasbiy yaroqlilik”, “kasbiy o’zini o’zi anglash” kabi psixologik hodisalar o’rganiladi.

Shaxsning psixologik tayyorgarligi muammosiga bag’ishlangan asarlarni o’rganar ekanmiz, bu muammo kamida ikki jihatdan ko’rib chiqiladi.

- Birinchi jihat kasbiy tayyorgarlik natijasida psixologik tayyorgarlikni hisobga olish bilan bog’liq. Bo’lajak mutaxassisning bilimlari, ko’nikmalari va qobiliyatlari rasmiy natija sifatida ko’rib chiqiladi, lekin ular mutaxassis shaxsini rivojlantirishda hisobga olinmaydi.

- Ikkinchi jihat insonning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarligi darajasini oshirish g’oyasini amalga oshirish bilan bog’liq. Bu jihat kasbiy tayyorgarlikni aynan mutaxassis shaxsini rivojlantirish, kasbiy imkoniyatlar chegaralarini kengaytirish orqali uning psixologik tayyorgarligi darajasini oshirish jarayoni sifatida tavsiflaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ijtimoiy munosabatlarning butun tizimiga o’z ta’sirini ko’rsatishi jamiyatga integratsiyalangan va uni takomillashtirishga yo’naltirilgan, shaxsning o’z-o’zini aniqlashi va o’z-o’zini amalga oshirishi imkoniyatini ta’minlovchi sharoitlarni yaratishni talab etmoqda. “Ta’lim to’g’risida”gi qonun pedagogik oliy ta’lim muassasalarida har bir pedagog o’z oldiga qo’ygan ta’lim maqsadlariga erishishning o’z yo’lini topish huquqini berdi, ammo har bir pedagog ham bunday mustaqillikka, ta’lim dasturlarini amalga oshirishda ijodiy yondashuvga tayyor emasligi namoyon bo’lib qoldi. Bo’lajak o’qituvchining psixologik tayyorgarligi to’g’risidagi nazariy tasavvurlarni chuqurlashtirib, tegishli metodikalar hamda dasturlar ishlab chiqish shubhasiz katta ahamiyatga egadir. Zamonaviy sharoitlar yaratilgan hozirgi kunda bo’lajak o’qituvchining psixologik tayyorgarligini oshirish muammosiga bo’lgan e’tibor yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, shu tufayli ham “Ta’lim to’g’risida”gi qonunda bo’lajak o’qituvchining psixologik tayyorgarligini rivojlantirish zarurati va mazkur maqsadga erishish mexanizmi belgilab qo’yilgan.

Ko’plab psixolog va pedagog olimlar o’quv-tarbiya jarayonining samaradorligi ko’p jihatdan o’qituvchining dunyoqarashi, umumiy madaniyatiga, insonparvarlik yo’nalganligiga, pedagogik va psixologik bilimlarga, bo’lajak o’qituvchilarning o’qitish va tarbiyalash metodikasini yuqori darajada egallashiga bog’liq deb hisoblaydilar. Pedagogning faoliyatning mohirlik bilan amalga oshirilishi ko’p jihatdan mazkur faoliyat ishtirokchilarining o’zaro munosabatlari hamda muloqot jarayonlari xususiyatlariga bog’liq bo’ladi. Bundan nafaqat psixologik tayyorgarlik tushunchasining talqini, balki uni ta’minlash yo’llarini aniqlashda ular o’rtasidagi ba’zi tafovutlarni ham ko’rish mumkin. Birinchi holatda bu kasbiy refleksiya bo’lib, buning uchun doim ham zarur bo’lgan asoslar va unga erishish kafolatlariga ega bo’lmay, erishilishi kerak bo’lgan maqsad sifatida ta’riflanadi; ikkinchisida har kimning individual tajribasi va imkoniyatlarini inobatga olib, shu asosda rivojlanishning individual yo’nalishini aniqlash zarurati bilan belgilanadi.

Bo’lajak o’qituvchilarning psixologik tayyorgarligining turli jihatlarini, uning ijodga bo’lgan qobiliyatini o’rganib, olimlar ijod - bu doimo biror-bir yangilikka intilish, yanada ilg’or g’oyalarni yaratish ekanligini ta’kidlaydilar. Amaliyotda ko’rsatishicha, mazkur yangilikni yaratishga intilishda pedagog yangilikni yaratishni o’zidan boshlash kerakligi to’g’risida xulosaga keladi, pedagog o’zining mustaqil ta’limi, o’z-o’zini rivojlantirish, o’z-o’zini takomillashtirishning zaruratini anglay boshlaydi.

Psixologik tayyorgarlik tajriba bilan rivojlanadi degan fikrga to’liq bog’lanib qolish ham maqsadga muvofiq emas. Ko’p yillik ish tajribasi o’zida ham ijobiy, ham salbiy sifatlarni ifodalashi aniqlangan. Ixtiyoriy professional kabi bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy faoliyati jarayonida uning ishi uchun ayniqsa muhim bo’lgan sifatlari ayniqsa intensiv rivojlanadi. Psixologik amallarni bajarish stereotiplarining yuzaga kelishi muqarrar bo’ladi, andozaviylik yuzaga keladi, kasbiy moslashuv yuz beradi.

O’qituvchilik kasbi eng ichki qarama-qarshiliklardan biridir. Uning dialektikasi konservatizm va yangilik o’rtasidagi qarama-qarshilikka, an’analarni saqlashga va doimiy yangilanishga, kechagi kunni inkor etishga intilishga asoslanadi. Demak, hozir, axborot texnologiyalari asrida zamon o’qituvchining o’z funksiyalarini o’zgartirishni talab qilmoqda. Agar ilgari o’qituvchining asosiy vazifasi ijtimoiy tajribani (bilim va bilish usullari shaklida) uzatish bo’lsa, zamonaviy maktabda o’qituvchi har bir shaxsning individual intellektual rivojlanishi jarayonini loyihalash va boshqarish muammosini hal qilishi kutiladi. Shunga ko’ra, o’qituvchi faoliyatining turli xil o’quvchilarni o’qitishning individual strategiyalarini ishlab chiqish, o’quv-pedagogik diagnostika, individual maslahat va boshqalar kabi shakllari birinchi o’ringa chiqadi.

Bunday faoliyatni amaliy amalga oshirish o’qituvchining yuqori kasbiy mahoratini nazarda tutadi, uning muhim tarkibiy qismi uning kasbiy fikrlash qobiliyatidir. O’qituvchi faoliyatida aks ettirishning ahamiyati haqiqatdan ham katta va xilma-xildir. Refleksiv jarayonlar o’qituvchining butun kasbiy faoliyatiga tom ma’noda kirib boradi, bu bolalar bilan to’g’ridan-to’g’ri munosabatda bo’lish sharoitida ham, ularning

o'quv va tarbiyaviy faoliyatini loyihalash va qurish jarayonida ham, o'zini o'zi tekshirish va o'zini o'zi baholash bosqichida ham namoyon bo'ladi. O'qituvchining o'z faoliyatiga aks ettiruvchi munosabatiga bo'lgan ehtiyoj o'qituvchilik kasbining ko'p funktsionalligini belgilaydigan ko'plab omillar bilan belgilanadi.

O'qituvchi amaliy tafakkurining zaruriy xususiyati bo'lib, u umumiy bilimlarni voqelikning aniq holatlariga qo'llashda namoyon bo'ladi. Refleksiv ishlab chiqilmasdan, kontseptual g'oyalarni tashkil etuvchi kasbiy mavzu bilimlari harakatsizlanadi. Kundalik kasbiy amaliyot nuqtai nazaridan o'z nazariy bazasini doimiy ravishda aks ettiruvchi qayta ko'rib chiqish o'qituvchiga o'z kasbiy sohasida malakali bo'lish imkonini beradi.

O'qituvchining o'z kasbiy tajribasini tushunishida ham aks ettirishning o'rni katta. Axir, ma'lumki, tajribaning o'zi emas, balki undan kelib chiqadigan fikr ishlatiladi. Bundan tashqari, bu professional tajriba va uning aks ettirish kombinatsiyasi kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish kalitini beradi:

Darhaqiqat, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining nazariy bilimlari va uning amaliy tajribasining refleksli integratsiyalashuvi uning faoliyatini tartibga solish funktsiyasini o'z zimmasiga oladigan shaxsiy ma'no - yetakchi g'oyalar bilan to'ldirilgan professionalning sifat jihatidan yangi ta'limini keltirib chiqaradi.

O'qituvchining konsentrlangan shakldagi yetakchi g'oyalari uning amaliy faoliyatini boshqaradigan kasbiy dasturini o'z ichiga oladi. O'qituvchining e'tiqodlari, qadriyat yo'nalishlari va shaxsiy munosabatlari har qanday yetakchi g'oyaning asosidir.

O'qituvchining yetakchi g'oyalari - bu uning o'ziga xos kredosi bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'qituvchining o'z tajribasi va hamkasblari tajribasini kasbiy bilimlari va shaxsiy e'tiqodlari nuqtai nazaridan tushunish mahsuli sifatida rivojlanadi.

O'qituvchining kasbiy tajribasini aks ettiruvchi tahlil qilish madaniyatini o'zlashtirishi uning kasbiy va shaxsiy kamolotiga yordam beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Olimlar pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirish muammosini bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishi va mustaqil ta'lim olishi bilan bog'laydilar, mustaqil ta'lim olish ehtiyoji rivojlangan shaxsning ajralmas sifati, uning ma'naviy hayotining zarur elementi, shaxs rivojlanishi va bo'lajak o'qituvchilarning faoliyati omili hisoblanishini ta'kidlaydilar.

Y.N.Kulyutkin tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar katta insonlarning ta'limga munosabatlariga muhim ta'sir ko'rsatuvchi qator omillarni ajratishga imkon beradi. Ularga katta insonlarning o'quv faoliyati motivatsiyasining o'ziga xosligi, katta insonning ta'limdagi vaziyati xususiyati, katta insonlarning amaliy tajribalarining bilimlarni o'zlashtirishlariga ta'siri taalluqlidir. Buni bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini rivojlantirish istiqbolli rejalarini tuzishda, ularni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishda inobatga olish zarur.

Bo'lajak o'qituvchilar mehnatining emosional kuchlanishi, muvaffaqiyatsizliklar, katta emosional kuch sarflashda o'z ishi natijalaridan ko'p qoniqmaslik o'qituvchi shaxsining kasbiy deformatsiyalarining yuz berishiga olib kelishi mumkin bo'lib, bu ortiqcha o'ziga ishonish, avtoritarlik va ijtimoiy ikkiyuzlamachilik, konservatizm kabi sifatlarda aks etadi.

Shu tariqa, nazariy qoidalarga tayanib, biz bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini ustida ishlash faqatgina uning uchun shaxsiy ahamiyatli, hayotiy zarur bo'lganidagina, ya'ni barqaror ijobiy motivatsiyaning mavjudligida samarali bo'lishi to'g'risidagi xulosaga kelishimiz mumkin.

Shuningdek, ijobiy motivatsiyani shakllantirishning shartlaridan biri his-tuyg'ular(emosiyalar) hisoblanadi deb hisoblaymiz, chunki nafaqat faoliyat his-tuyg'ularni yuzaga keltiradi, balki his-tuyg'ular ham faoliyatning o'zini yuzaga keltiradi va boshqaradi. Ijobiy his-tuyg'ular xulqqa undovchi ehtiyojlarga ta'sir ko'rsatadi, qiyin vaziyatda esa hatto kichik yutuq ham ilhomlanish ijobiy hissiyatini uyg'otadi va u maqsadga erishish ehtiyojini kuchaytiradi. P.V.Simonovning fikriga ko'ra, “ijobiy his-tuyg'ular rivojlanishdan to'xtab qolish, o'z-o'zini undash va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining to'xtashiga olib kelishi mumkin bo'lgan, qondirilmagan ehtiyojlarning yetishmasligi va pragmatik noaniqlikning o'rmini to'ldiradi”.

Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarga o'z kuchiga ishonish imkoniyatini berish juda muhimdir. Pedagogik diagnostikadan o'tkazish asosida ishni tashkil etishda, bo'lajak o'qituvchilar o'zining kasbiy qiyinchiliklarini yechishda professor-o'qituvchilardan yordamlar olishi va bir vaqtning o'zida o'zi uchun pedagogik mahorat manbai bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni yaratish zarur. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini o'z-o'zini amalga oshirish imkoniyati bilan mustahkamlangan uning muvaffaqiyatligi, unda ijobiy his-tuyg'ularning yuzaga kelishiga ko'maklashadi va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'nalganligini oshiradi.

Pedagogik diagnostikadan o'tkazish to'g'risida fikr bildirishda bo'lajak o'qituvchilarning to'g'ri kasbiy o'z-o'zini baholashini shakllantirishda to'xtalib o'tish zarurdir. Bu holatda “bo'lajak o'qituvchilarga tashqaridan ixtiyoriy baho (hatto nohaq bo'lgani ham) uning kasbiy barqarorligiga zarar yetkaza olmaydi, uning faoliyatini buzmaydi, uning umuman o'z-o'ziga hurmatini pasaytirmaydi”. O'z-o'zini past baholash bo'lajak o'qituvchilarning psixologik faoliyati samaradorligini pasaytiradi.

Bo'lajak o'qituvchilar u o'zini darsda qanday his qilishini bilishi, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ko'ra olishi kerak. O'z vaqtidagi yordam, e'tiborli do'stona munosabatsiz ayrim bo'lajak o'qituvchilarning darsga bo'lgan qiziqishni yo'qotishlari mumkin, yordam mahoratli, bo'lajak o'qituvchilarning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olib ko'rsatilishi kerak. Agar bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish zarurati ta'minlanmasa, psixologiya fanining hech bir darajasi rejalashtirilgan natijalarni ta'minlay olmaydi.

Shuningdek, psixologik muhitni shakllantirishga to'xtalib o'tish zarur deb hisoblaymiz, ko'pgina olimlar bo'lajak o'qituvchilarni o'zining pedagogik qobiliyatidan qoniqmasligini o'z ustida ishlamaslik bilan bog'laydilar.

**Muhokama.** Bir qator mualliflar (A.A.Bizyaeva, V.V.Vetrova, E.N.Peksota, I.A.Stetsenko, I.G.Tatur, A.V.Xristeva va boshqalar) aks ettirish qobiliyatini pedagogik faoliyatning zaruriy tarkibiy qismi deb hisoblaydilar. ) pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida shakllantirilishi kerakligi haqidagi g'oyani ilgari surish.

A.V. Xristeva reflektiv vaziyatlarning mohiyatini kasbiy faoliyatda ijodiy tizimlarni shakllantiruvchi komponent sifatida ko'rib chiqadi. U bo'lajak o'qituvchining reflektiv tizimini shakllantirish va rivojlantirish uning o'qitishdagi qobiliyatlarining zaruriy ijodiy qismidir va reflektiv tizimsiz o'qituvchini yuqori malakali o'qituvchi sifatida takomillashtirish mumkin emas, deb hisoblaydi.

Qayd etilishicha, pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarining o'quv jarayonida aks ettirish mexanizmlarini o'zlashtirish o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Bugungi kunda ko'plab olimlar o'qituvchining reflektiv individualligi modelini yaratishni taklif qilmoqdalar. Muayyan pedagogik va psixologik sharoitlarda bo'lajak o'qituvchining shaxsiy kasbiy mustaqil ta'limining talqini dastlabki nazariy asos va jadval bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy aks ettirishi oliy pedagogik o'quv yurtlarida o'quv jarayonini individuallashtirish asosida rivojlanishi mumkin.

V.A. Krivosheyev kommunikativ va shaxsiy reflektivni o'rgangan ta'kidlaganidek, o'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik mahoratga ega bo'lsa, u hamkasblari va o'quvchilari u haqida qanday fikrda ekanligini yaxshiroq tushuna boshlaydi, o'qituvchi chuqur bilim va pedagogik mahorat tufayli o'zini o'zi qadrlay boshlaydi. Kommunikativ aks ettirish shaxsiy aks ettirishning mazmuni, tizimi va aniq shaxsini belgilaydi, deb xulosa qiladi muallif.

Ba'zida pedagogik muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar, ya'ni “tushunmovchiliklar” tufayli talabalar guruhida faoliyatni davom ettira olmaslik o'qituvchilik faoliyatidan reflektiv chiqib ketishga olib keladi, chunki ikkinchi o'qituvchi birinchisining mazmunini tushunmaydi va natijada, ikkalasi ham nizo sabablarini tahlil qilishga majbur bo'ladi. Ayrim olimlarning fikricha, individual aks ettirish shaxslararo aks ettirishning alohida shaklidir.

O'qituvchining kasbiy aks ettirishning o'ziga xos tomonlarini o'rganib, A.A. Bizyaeva inson faoliyatining boshqa turlarini tahlil qilish va tushunish, shuningdek, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash zarurati bilan bog'liq bo'lgan o'qituvchi aks ettirishning asosiy omillariga e'tibor qaratadi.

Olimning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning intellektual aks ettirish darajasi ularning kasbiy aks ettirishi bilan bevosita bog'liq bo'lmay, balki bilvosita uning malaka komponentlari orqali bog'liqdir. Bu olimga intellektual aks ettirishni o'qituvchining kasbiy aks ettirishini rivojlantirishning asosi sifatida baholash imkonini beradi. Bizningcha, bular o'qituvchining uzluksiz kasbiy o'sishini ta'minlovchi asosiy fazilatlaridir.

Pedagogik bilimlarni o'zlashtirish va uni amaliyotda qo'llash jarayonida o'qituvchi uchun reflektorlik qobiliyati muhim ahamiyatga ega. “Bunday holatda, - Kulyutkin, - o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini ishlab chiqish va amaliy qarorlar qabul qilish jarayonini fikrlash mavzusiga aylantirishi kerak deb yozadi. Buning uchun o'qituvchi ushbu jarayonlarni tahlil qilish uchun mos fikrlash usullarini ishlab chiqishi kerak.

Ilg'or pedagogik fikrlashsiz o'qituvchi doimiy ravishda o'zini tahlil qiladi va yo'naltiradi. O'z-o'zini tahlil qilmasdan turib, amaliy va nazariy pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammo va qarama-qarshiliklarni chuqur anglab yetish, ularni doimiy tahlil qilishning to'g'ri yo'llarini tanlash, olingan natijalarni tanqidiy baholab, ularni tuzatish mumkin emas.

G.M. Qodjaspirova pedagogik reflektivni shaxsning o'z-o'zini anglashi deb ta'riflaydi, bunda “nafaqat o'qituvchi, balki pedagogik muloqotda o'qituvchi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan o'quvchilar jamoasi, pedagoglar jamoasi, tarbiyaga mas'ul shaxslar ham o'z xulq-atvorini to'g'ri baholaydilar. Demak, mulohaza

bu o‘qituvchining o‘z-o‘zini anglashi, uning kamchilik va kamchiliklarini bilishi, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi, o‘quvchilarining ichki imkoniyatlarini ochib berishi, o‘z-o‘zini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

**Xulosa.** Amalga oshirilgan ishlar insonning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorligini kasbiy faoliyat tuzilishini ongli yoki ongsiz ravishda aks ettirish natijasida yuzaga keladigan va shaxsning ma’lum motivatsion va operatsion xususiyatlari bilan tavsiflangan ruhiy holat sifatida tushunishga imkon beradi. Kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlik murakkab dinamik tuzilish bilan tavsiflangan murakkab ko‘p o‘lchovli ruhiy hodisa sifatida ishlaydi. Shaxsning psixologik tayyorgarligini tartibga solish subyektning kasbiy faoliyat talablarini refleksi aks ettirish jarayonida amalga oshiriladi. Refleksiv harakatda subyektning o‘z motivlari, harakatlari va operatsiyalarini ongli ravishda boshqarishi mumkin bo‘lgan sharoitlar yaratiladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.
4. Кулюткин Уу.Н. Ценностные ориентиры и когнитивные структуры в деятельности учителя / Ю.Н.Кулюткин, В.Р.Бездухов. – Самара: Самар. гос. педагог. ун-т, 2002. – 400 с.
5. Халиков А.А. Касбий рефлексия ва педагогик фаолият.// Мактаб ва ҳаёт. –Тошкент. –2012. – № 2. – Б.14-16.
6. Симонов В.Р. Диагностика личности и профессионального мастерства преподавателя./Учебное пособие для студентов педвузов, учителей и слушателей ФРК.- М.: Межд.ред.академиуа, 1995.- 192.

## ПАРАДИГМЫ ПРОГРАММИРОВАНИЯ И СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ ПРОГРАММИРОВАНИЮ

*Атаева Гульсина Исроиловна,  
преподаватель Бухарского  
государственного университета  
g.i.ataeva@buxdu.uz*

*В данной статье рассматривается тема обучения парадигмам программирования. Она охватывает основные понятия и принципы различных парадигм, таких как императивное, декларативное. В статье рассматриваются преимущества и недостатки каждой парадигмы, а также их сравнение между собой. Статья также включает в себя примеры кода на различных языках программирования, чтобы наглядно продемонстрировать применение каждой парадигмы. В целом, статья посвящена способам обучения парадигмам программирования, предназначенным для опытных разработчиков, чтобы помочь им передать студентам свои знания и навыки в области программирования.*

**Ключевые слова:** *способы мышления, программный код, императивное программирование, декларативное программирование, языки программирования, запись циклов на языке программирования, концепции программирования.*

### DASTURLASH PARADIGMALARI VA DASTURLASHNI O'RGATISH USULLARI

*Ushbu maqolada dasturlash paradigmalari o'qitish mavzusi ko'rib chiqiladi. U imperativ, deklarativ va boshqalar kabi turli paradigmalarning asosiy tushunchalari va tamoyillarini qamrab oladi. Maqolada har bir paradigmaning afzalliklari va kamchiliklari ko'rib chiqilgan, shuningdek, ular bir-biri bilan taqqoslangan. Maqola, shuningdek, har bir paradigmaning qo'llanilishini vizual ravishda namoyish etish uchun turli xil dasturlash tillaridagi kod namunalari o'z ichiga olgan, umuman olganda, maqola dasturlash paradigmalari o'rgatish usullariga bag'ishlangan bo'lib, ba'zilar tajribali dasturchilar uchun talabalarga dasturlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yetkazishda yordam berish uchun mo'ljallangan.*

**Kalit so'zlar:** *fikrlash usullari, dastur kodi, imperativ dasturlash, deklarativ dasturlash, dasturlash tillari, dasturlash tilida sikllarni yozish, dasturlash tushunchalari.*

### PROGRAMMING PARADIGMS AND WAYS OF TEACHING PROGRAMMING

*This article discusses the topic of teaching programming paradigms. It covers the basic concepts and principles of various paradigms, such as imperative, declarative, etc. The article discusses the advantages and disadvantages of each paradigm, and compares them with each other. The article also includes code examples in various programming languages to demonstrate the application of each paradigm. In general, the article is devoted to ways of teaching programming paradigms, designed for experienced developers to help them transfer their knowledge and skills in programming to students.*

**Keywords:** *ways of thinking, program code, imperative programming, declarative programming, programming languages, writing cycles in a programming language, programming concepts.*

**Введение.** Парадигмы программирования – это различные способы мышления о том, как решать проблемы с помощью кода. Они могут влиять на дизайн, структуру и стиль ваших программ, а также на инструменты и языки, которые вы используете. Изучение различных парадигм программирования может помочь вам расширить свои навыки, творческий потенциал и универсальность как программиста. Но как можно эффективно обучать парадигмам программирования? Одними из самых распространённых парадигм программирования являются императивное и декларативное программирование — это старые, широкие, полярно противоположные парадигмы, которые сегодня часто используются для описания других парадигм программирования. Они отличаются тем, что императивное программирование шаг за шагом сообщает компьютеру, как что-то сделать, в то время как декларативное программирование объявляет конечный результат и позволяет компьютеру понять, как его достичь.

При *декларативном подходе* выражается логика вычисления без отсутствия описания потока управления, тогда как в *императивной* парадигме программирования используются утверждения, изменяющие состояние программы (рисунок 1).



Рисунок 1. Описание императивного и декларативного подходов

Современные языки программирования, такие языки, как Python и C++— мультипарадигматичны, поскольку поддерживают написание кода в более чем одной парадигме. Рассмотрим некоторые способы, которые помогут вам внедрить и изучить различные парадигмы вместе с вашими студентами [4].

**Обсуждение.** Один из лучших способов обучения парадигмам программирования - показать примеры кода, использующего различные парадигмы. Вы можете использовать онлайн-ресурсы, такие как metanit.com, чтобы найти фрагменты кода, иллюстрирующие одну и ту же задачу на разных языках и парадигмах. Показывая примеры, вы можете помочь своим студентам увидеть различия и сходства между парадигмами, а также преимущества и недостатки каждого подхода.

Императивное программирование – это парадигма программирования, в которой программа состоит из последовательных инструкций, указывающих компьютеру, как выполнять определенную задачу. Основная идея заключается в изменении состояния программы с помощью последовательности команд [5].

Пример кода на C++ в императивном стиле:

```
```cpp
#include
int main() {
int sum = 0;
for (int i = 1; i <= 10; i++) {
sum += i;
}
std::cout << "Сумма чисел от 1 до 10: " << sum << std::endl;
return 0;
}
```
```

Этот пример демонстрирует использование цикла for для вычисления суммы чисел от 1 до 10.

Декларативное программирование – это парадигма программирования, в которой программа описывает желаемый результат, а не последовательность команд для его достижения. Он сосредотачивается на описании «что» должно быть сделано, а не «как».

Пример кода на Python в декларативном стиле:

```
```python
numbers = [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10]
sum = sum(numbers)
```



```
print("Сумма чисел от 1 до 10:", sum)
```
```

Этот пример использует встроенную функцию ‘sum()’, которая принимает список чисел в качестве аргумента и вычисляет их сумму [7].

В обоих примерах результат одинаков - сумма чисел от 1 до 10, но подходы к написанию кода различаются. В императивном стиле программист явно указывает, как выполнить задачу, в то время как в декларативном стиле программа описывает желаемый результат, и компьютер самостоятельно находит способы его достижения.

Очень часто приходится писать коды программ с ветвлениями, для этого используется конструкция **if-else** для разветвления программы на несколько путей выполнения кода в зависимости от некоторого условия.

Рассмотрим пример, переменная *a* сначала проверяется на условие  $a > 0$ . Если это условие выполняется, то выводится сообщение “a is positive”. Если это условие не выполняется, то переходит к проверке следующего условия -  $a == 0$ . Если и это условие не выполняется (т.е. значение *a* не равно нулю), то выводится сообщение “a is negative”.

Код на C++.

```
{
    int a;
    std::cout << "Enter a number: ";
    std::cin >> a;
    if (a > 0) {
        std::cout << "a is positive" << std::endl;
    } else if (a == 0) {
        std::cout << "a equals zero" << std::endl;
    } else {
        std::cout << "a is negative" << std::endl;
    }
}
```

Ниже приведен пример кода на Python:

```
a = 5
if a > 0:
    print("a is positive")
elif a == 0:
    print("a is zero")
else:
    print("a is negative")
```

Теперь рассмотрим пример с использованием оператора выбора. В этом примере программа запрашивает у пользователя число от 1 до 3, а затем использует оператор выбора для выполнения различных действий в зависимости от введенного числа.

В C++, оператор выбора **switch** используется для выполнения различных действий в зависимости от значения выражения.

Код C++:

```
{
    int choice;
    std::cout << "Введите число от 1 до 3: ";
    std::cin >> choice;
    switch (choice) {
        case 1:
            std::cout << "Вы выбрали 1" << std::endl;
            break;
        case 2:
            std::cout << "Вы выбрали 2" << std::endl;
            break;
        case 3:
            std::cout << "Вы выбрали 3" << std::endl;
    }
}
```

```
break;
default:
    std::cout << “Неверный выбор” << std::endl;
}
```

В этом примере программа запрашивает у пользователя число от 1 до 3, а затем использует оператор `switch` для выполнения различных действий в зависимости от введенного числа. Если введенное число не соответствует ни одному из **case**, выполняется код в блоке **default**.

Код Python:

```
choice = int(input(“Введите число от 1 до 3: “))
```

```
if choice == 1:
    print(“Вы выбрали 1”)
elif choice == 2:
    print(“Вы выбрали 2”)
elif choice == 3:
    print(“Вы выбрали 3”)
else:
    print(“Неверный выбор”)
```

Этот код сначала запрашивает у пользователя ввод числа. Затем он использует условные операторы **if**, **elif** и **else**, чтобы выполнить различные действия в зависимости от введенного числа. Если введенное число не соответствует ни одному из вариантов, будет выполнен блок кода в **else** [1].

При сравнении кодов, можно заметить, что запись на языке программирования Python выгладит более компактно и удобна в использовании.

Теперь рассмотрим организацию циклов на разных языках программирования.

В языках программирования C++, Java и Python используются различные подходы к организации циклов, но все они служат одной цели - повторению набора инструкций определенное количество раз или до выполнения заданного условия.

В C++ для организации циклов используются ключевые слова **“for”**, **“while”** и **“do-while”**. Например, цикл **“for”** используется для выполнения блока кода определенное количество раз:

```
for(int i = 0; i < 10; i++){
    // тело цикла
}
```

Цикл **“while”** используется, когда количество итераций заранее не известно и продолжает выполняться, пока условие истинно:

```
int a = 5;
while(a > 0){
    a--;
    //тело цикла
}
```

Наконец, цикл **“do-while”** выполняется хотя бы один раз, даже если условие ложно:

```
do{
    // тело цикла
} while(a == 42);
```

В Java циклы организованы аналогично C++, с использованием ключевых слов **“for”**, **“while”**, **“do-while”**, а также **“foreach”** для итерации по коллекциям:

```
цикл for
for(int i = 0; i < 10; i++) {
    System.out.println(i);
}
цикл while
int a = 5;
while(a > 0) {
    a--;
    System.out.println(a);
}
цикл do-while
do {
```

```
System.out.println("Hello, World!");  
} while (true);  
итерация по коллекции:  
for(String s : collection) {  
System.out.println(s);  
}
```

Python предлагает более простой и понятный синтаксис для организации циклов. Для этого используются ключевые слова **“for”**, **“while”** и **“break”**:

```
цикл for  
for i in range(10):  
print(i)  
цикл while  
a = 5  
while a > 0:  
a -= 1  
print(a)  
//прерывание цикла  
while True:  
n = int(input("Введите число: "))  
if n == 42:  
break  
print("Число не равно 42")
```

Все эти языки предоставляют возможность организации циклов для решения различных задач. Выбор языка и подхода к организации циклов зависит от предпочтений и опыта программиста. Проанализировав записи можно сделать вывод, что наиболее компактной записью выглядит на языке Python, однако, стоит заметить на остальных, приведённых в примере языках, запись цикла более понятна для обучающегося основам программирования. Чтобы понять, как работает цикл рекомендуется рассмотреть запись на языке C++.

Рассматривая вышеприведённые примеры, можно сказать, что циклы являются одной из основных конструкций в программировании, позволяющих повторять определенный набор инструкций несколько раз. В языках программирования C++, Java и Python существуют различные типы циклов, которые могут быть использованы в зависимости от конкретных задач.

В C++ наиболее распространенными типами циклов являются циклы for, while и do-while. Цикл for обычно используется, когда заранее известно количество итераций, которое нужно выполнить. Внутри цикла указываются начальное значение, условие продолжения и инструкция инкремента/декремента. Цикл while используется, когда количество итераций неизвестно, а условие продолжения или завершения цикла проверяется перед каждой итерацией. Цикл do-while также используется, когда количество итераций неизвестно, но условие проверяется после каждой итерации.

В Java также существуют циклы for, while и do-while, которые работают аналогично циклам в C++. Однако, в Java добавлено еще несколько типов циклов, таких как цикл foreach и циклы с метками. Цикл foreach используется для итерации по элементам массива или коллекции. For-each — это разновидность цикла for, которая используется, когда нужно обработать все элементы массива или коллекции. “For each” с английского так и переводится — “для каждого”. Собственно, само словосочетание foreach в этом цикле не используется. Циклы с метками позволяют управлять выполнением нескольких вложенных циклов, указывая метку и используя операторы break и continue для управления выполнением циклов.

В Python циклы for и while работают по принципу, схожем с циклами в C++ и Java. Цикл for в Python используется для итерации по элементам коллекции, а также для выполнения указанного числа итераций с помощью функции range(). Цикл while используется, когда условие продолжения или завершения цикла проверяется перед каждой итерацией. В Python отсутствует цикл do-while, однако его функциональность можно эмулировать с помощью цикла while и дополнительных проверок.

Таким образом, циклы в языках программирования C++, Java и Python имеют общие особенности, но также имеют некоторые различия, особенно в контексте дополнительных типов циклов, которые добавлены в Java и отсутствуют в Python. Важно выбрать подходящий тип цикла в зависимости от конкретной задачи и требований программы.

Пример декларативного программирования в Python:

Функции **any()** и **all()**

проверяют, удовлетворяют ли элементы объекта условию.

**any()** принимает итерируемый объект (например, список `nums`) в качестве аргумента и возвращает `True`, если хотя бы один элемент в списке считается `True`. Если все элементы ложные или `nums` пуст, то `any()` возвращает значение `False`. **all()** тоже принимает такой объект в качестве аргумента и возвращает значение `True`, если все элементы в нем считаются истинными, или если итерируемый объект пуст. Если там есть хотя бы один элемент, который считается `False`, то `all()` вернет `False`.

```
nums = [1, 3, 5, 7, 9]
print(any(x % 2 == 0 for x in nums)) # False
print(all(x % 2 != 0 for x in nums)) # True
```

Здесь мы можем заметить, что декларативное программирование позволяет скомпоновать код и использовать готовые функции без особых разъяснений «как и что». Поэтому чтобы научиться программировать, лучше использовать императивный метод, который позволяет понять, что и как происходит. Декларативное программирование больше используют профессионалы.

После демонстрации примеров вы должны объяснить концепции и принципы, лежащие в основе каждой парадигмы. Вы можете использовать диаграммы, аналогии или метафоры, чтобы помочь своим студентам понять абстрактные идеи. Например, вы можете объяснить, что императивное программирование похоже на предоставление пошагового рецепта повару, в то время как декларативное программирование похоже на составление функций, которые преобразуют ингредиенты в блюда. Вы также можете объяснить ключевые особенности и термины каждой парадигмы, такие как состояние, побочные эффекты, рекурсия или логический вывод [2].

Как только ваши ученики получают базовое представление о парадигмах, вы должны предоставить им возможность практиковать полученные навыки и применять их к реальным проблемам. Вы можете использовать онлайн-платформы для поиска упражнений и задач, которые проверяют различные парадигмы. Вы также можете разрабатывать свои собственные проекты или задания, которые требуют от ваших учеников использовать различные парадигмы или сравнивать их. Например, вы можете попросить их реализовать алгоритм сортировки с использованием императивного и декларативного программирования или решить головоломку с использованием логического программирования.

Заключительным шагом в обучении парадигмам программирования является поощрение размышлений и обратной связи. Вам следует попросить своих учеников поделиться своими мыслями и опытом использования различных парадигм. Вы можете использовать такие вопросы, как: «Как вы отнеслись к использованию этой парадигмы? Что вам в этом понравилось или не понравилось? Что вам показалось легким или трудным? Как это повлияло на качество вашего кода и производительность? Как это соотносилось с другими парадигмами или языками, которые вы знаете?» Размышляя, ваши ученики могут углубить свои знания и оценить различные парадигмы.

**Заключение.** Обучение парадигмам программирования – это не разовое мероприятие. Это непрерывный процесс, который требует постоянного обучения и исследований. Вы всегда должны быть в курсе последних разработок и тенденций в парадигмах программирования, а также появляющихся новых языков и инструментов. Вы также должны знакомить себя и своих студентов с различными парадигмами и языками, даже если они не имеют прямого отношения к вашим текущим проектам или целям. Поступая таким образом, вы можете расширить свой кругозор и открыть для себя новые возможности в программировании.

Статья обсуждает важность обучения парадигмам программирования для развития навыков и знаний в области IT. Обучение различным парадигмам помогает программистам лучше понимать и анализировать проблемы, а также разрабатывать эффективные и надежные решения.

### Литература:

1. Атаева Гульсина Исроиловна, Минич Людмила Станиславовна Создание вывода скрипта Python // Вестник науки и образования. 2021. №1-2 (104). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sozdanie-vyvoda-skripta-python>.

2. Атаева Гульсина Исроиловна, Адизова Зухро Маруф Кызы Конвертирование изображений в формат PDF с помощью Python // Universum: технические науки. 2022. №4-1 (97). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/konvertirovanie-izobrazheniy-v-format-pdf-s-pomoschu-python>.
3. Атаева Г.И., Асадова О.А. Проблемы и решения в преподавании информатики // Приоритетные направления развития науки и образования. – 2021. – С. 169-171.
4. <https://medium.com/nuances-of-programming/декларативный-код-против-императивного-b640ea08835f>
5. <https://skine.ru/articles/10429/#:~:text=Императивное%20и%20декларативное%20программирование%20—,компьютеру%20понять%2C%20как%20его%20достичь>
6. <https://otus.ru/journal/imperativnoe-i-deklarativnoe-programmirovanie/>
7. <https://tproger.ru/translations/imperative-declarative-programming-concepts>

## МАСОФАЛИ ЎҚИТИШ ВОСИТАСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ АУДИТОРИЯДАН ТАШҚАРИ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ МЕТОДИКАСИ

*Ахмедова Дилноза Эшназар қизи,  
Навоий давлат педагогика институти таянч докторанти*

*Ушбу мақолада бугунги таълим тизимида талабаларнинг аудиториядан ташқари мустақил таълимни ташкил этишининг методикаси ҳамда талабалар томонидан мустақил таълимни бугунги кунда бажарилиши ҳолати, мустақил таълимларни ташкил этишида компьютер технологияларидан фойдаланишининг афзалликлари, мустақил таълимнинг мақсади ва ўқитишининг индивидуализацияси ва фарқланишини таъминлаш бўйича кўрсатмалар берилган.*

**Калит сўзлар:** мустақил таълим, билим, кўникма, малака, аудиториядан ташқари мустақил таълим, масофавий ўқитиш методикаси, педагогик принцип, ўз-ўзини фаоллаштириш принципи, танлаш принципи, кириш маъруза.

## СПОСОБ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕАУДИТОРНОГО САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

*В данной статье рассмотрены методика организации самостоятельного обучения студентов во внеаудиторное время в современной системе образования и состояние самостоятельного обучения студентов сегодня, преимущества использования компьютерных технологий в организации самостоятельного обучения, цели самостоятельного обучения, а также даны указания по обеспечению индивидуализация и специализация образования.*

**Ключевые слова:** самостоятельное обучение, знания, умения, компетенции, самостоятельное обучение внеа, метод конкурсного обучения, педагогический принцип, принцип самоактивации, принцип отбора, вводная лекция.

## A WAY OF ORGANISING STUDENTS' EXTRACURRICULAR INDEPENDENT LEARNING BY MEANS OF DISTANCE LEARNING

*In today's educational system, the method of organizing independent education of students from auditory perception and the status of independent education by students today, the advantages of using computer technology in organizing independent education, the purpose of independent education, and instructions on ensuring individualization and specialization of teaching are given;*

**Key words:** independent education, knowledge, skill, competence, independent education without audiotopia, method of competitive teaching, pedagogical principle, principle of self-activation, principle of selection, introductory lecture.

**Кириш.** Ҳозирги вақтда мустақил таълим ҳажмининг ошиши ва олий ўқув юртлари кундузги таълим шаклида унинг ролини ошиб бориши ўқув жараёнида масофавий технологияларни жорий этишни тақозо этмоқда. Бу ўз навбатида талабаларнинг аудиториядан ташқари мустақил таълимларини самарали ташкил этиш бўйича янги талабларни кўймоқда. Ўқув жараёнини масофадан туриб ташкил этиш натижасида оғирлик маркази айнан талабаларнинг мустақил таълимларига ўтади ва мустақил фаолият масофавий ўқишнинг асосий принципига айланади. Ҳар бир талаба мустақил равишда ўзлаштирадиган ўқув материалнинг ҳажмини ва вақтини белгилайди, режалаштиради, иш ва ўтиш тезлигини ва ўқув материални мустаҳкамлаш ҳажмини белгилайди.

Юқорида айтиб ўтганимиздек, ҳозирги вақтда талабаларнинг аудиториядан ташқари бажарадиган мустақил таълимларини ташкил этишда масофавий ўқитиш технологиялари энг самарали ҳисобланади. Анъанавий ўқув жараёнида аудиториядан ташқари мустақил таълимларга асосан адабиётлар билан мустақил таълимлаш, уй вазибаларини бажариш ишлари киради. Мустақил таълимни бажариш жараёнида талабада савол туғилган тақдирда, ўқитувчидан дарсда бўш вақтида маслаҳатлар олиши мумкин. Анъанавий педагогикада мустақил таълимларнинг бажарилишини назорат қилиш, одатда, семестр охирида доимий равишда амалга оширилмайди.

**Асосий қисм.** Ҳозирги кунга келиб, олий таълим муассасаларининг ахборот-таълим муҳитининг шаклланганлиги талабаларнинг мустақил таълимларини масофавий технологиялар асосида ташкил этиш имкониятларини кенгайтди[1].

**Мустақил таълимнинг мақсади** - бўлажак мутахассиснинг амалиётида юзага келадиган техник ва илмий муаммоларни мустақил ижодий ҳал қилишга қаратилган асосий касбий компетенциялар сифатида намоён бўладиган талабаларнинг билим ва кўникмаларини шакллантиришдир. Мустақил таълимнинг ҳар бир босқичи талабаларга топшириқларни бажаришда керакли бўлган билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришга хизмат қилади ва билим олишга бўлган психологик муносабатини ривожлантиради, ўз-ўзини тарбиялашнинг энг муҳим шартларидан бири бўлган касбий маҳоратини оширади[2].

Мустақил таълимларни ташкил этишда компютер технологияларидан фойдаланишнинг афзалликлари қуйидагилардан иборат:

Ўқитишнинг индивидуализацияси ва фарқланишини таъминлаш;

тарқатилган манбаларга киришни таъминлаш орқали фойдаланиладиган материалларни кенгайтириш;

-фаолликни рағбатлантириш;

-ўқув материалларини ишлаб чиқиш жараёнида талабаларни рағбатлантириш;

-тақдимотнинг қулайлиги ва равшанлиги, ҳаракатланиш қулайлиги маълумотни тезкор кидириш ва жараёнлар ва ҳодисаларни моделлаштириш[3].

Масофавий ўқитиш методикаси, анъанавий ўқитиш методикаларидан фарқ қилади. Тармоқда ўқитувчи ва талабаларнинг мулоқот формалари (электрон почта, чат, форум) ахборотларни тезкор узатиш ва қабул қилиш имконини беради. Лекин, суҳбатдошни идентификация қилиш имконияти бўлмайди. Ўқитувчида мустақил таълимни айнан талабанинг ўзи бажарганига тўлиқ ишонч ҳосил бўлмайди. Психологик – педагогик адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, бугунги кунда мустақил таълимларни ташкил этишнинг методик аспекти етарли даражада ишлаб чиқилмаган [4]. Шу муносабат билан, биз томонимиздан масофавий ўқитиш тизимида талабаларнинг мустақил таълимларини ташкил этиш методикаси тавсия этилди. Унинг асосий компонентлари қуйидаги жадвалда келтирилган.

**1-жадвал.**

**Масофавий ўқитиш тизимида мустақил таълимни ташкил этиш методикасининг компонентлари**

| Педагогик ёндашув            | Шахсга йўналтирилган ёндашув   |
|------------------------------|--|
| Мустақил таълим принциплари  | ўз-ўзини фаоллаштириш принципи;<br>индивидуаллаштириш принципи;<br>танлаш принципи;<br>ижодкорлик ва муваффақият принципи.   |
| Мустақил таълимнинг мақсади  | Талабалар томонидан ўқув материалларини оптимал ўзлаштирилишига эришиш, уларнинг билиш фаоллигини ривожлантириш, мустақил таълим олишга бўлган тайёрлигини ва эҳтиёжларини қондириш.   |
| Мустақил таълим вазифалари   | -мустақил таълимлаш қобилиятини ривожлантириш, фикрлаш ва қарор қабул қилиш мустақиллигини шакллантириш;<br>-талабаларнинг фаоллиги ва когнитив қобилиятини ва тадқиқот қобилиятини ривожлантириш;<br>-вақтни режалаштириш ва таксимлаш қобилиятини ривожлантириш. |
| Мустақил таълимлаш методлари | -лойиха методи;<br>-муаммоли-кидирув методи;<br>-кейс-стади методи;<br>-тадқиқот методи;<br>-дискуссион методлар;<br>-ўйинли методлар.   |
| Таълим воситалари            | -LMS(Moodle)<br>-Edmodo;<br>-Online TestPad  |
| Мустақил таълим босқичлари   | тайёргарлик;<br>ташкилий;<br>-назорат ва баҳолаш.  |
| Баҳолаш мезонлари            | -лойихаларни баҳолаш мезонлари;<br>-тақдимотларни баҳолаш мезонлари;<br>-талабаларнинг мустақил ишлари натижаларини баҳолаш мезонлари.   |

Методиканинг асосида шахсга йўналтирилган ёндошув ётади ва у ҳар бир талабанинг индивидуал сўровларини ва эҳтиёжларини қондириш заруриятини инобатга олган ғояларни амалга оширади [5]. Ушбу ёндошувнинг негизида биз томонимиздан мазкур методиканинг педагогик принциплари ажратиб кўрсатилди:

**Ўз-ўзини фаоллаштириш принципи.** Ҳар бир талаба ўзининг интеллектуал, коммуникатив, бадиий ва жисмоний қобилиятларини фаоллаштириш эҳтиёжларини тушунади. Мустақил таълимда талабаларнинг эгаллаган табиий ва ижтимоий имкониятларини намоён этиш ва ривожлантириш ҳаракатлари қўллаб-қувватланади.

**Индивидуаллик принципи.** Мустақил таълимда ўқитувчи ва талабаларнинг индивидуал шахслигини шакллантириш учун шароитлар яратилади. Шахснинг индивидуаллигини шакллантириш учун шароит яратилади. Бунда талаба ва ўқитувчининг индивидуал томонлари инобатга олиниши билан бирга, уларнинг янада ривожланишига ҳисса қўшилади.

**Танлаш принципи.** Мустақил таълим жараёнида талаба доим танлаш шароитида ўқишини назарда тутаяди, унинг мақсади, мазмуни, формалари, ўқув жараёнини ташкил этиш ва гуруҳда фаолият олиб боришда барча ваколатларга эга бўлиши таъминланади.

**Ижодкорлик ва муваффақият принципи.** Мустақил таълимда индивидуал ва жамоавий ижодий фаолият талабанинг шахсий фазилатларини аниқлаш, индивидуал қобилиятларини ривожлантириш имконини беради. Мустақил таълимда намоён бўладиган ижодкорлик талабада ўзининг “кучли” ва “кучсиз” томонларини англаб етишига ёрдам беради[6].

Кириш маърузасида фаннинг мақсади ва вазифалари тушунтирилади, талабалар фаолиятининг турлари аниқланади, аудитория ва аудиториядан ташқари ўқув ишларини ташкил этиш усуллари кўриб чиқилади, назорат фаолияти турлари ва уларнинг ўтказиш муддатлари муҳокама қилинади.


Амалий машғулотда ахборот-таълим муҳитининг имкониятлари намоён этилади (талабаларни рўйхатдан ўтказиш, шахсий маълумотларни бошқариш, ўқув ва услубий материалларга кириш, электрон курс элементлари билан ишлаш, коммуникация воситалари, тест синовлари ахборот - ташкилий материалларга кириш тартиби). Талабалар фаннинг ҳар бир модулининг мақсади ва вазифалари тўғрисида қандай қилиб маълумот олишлари мумкинлиги, ташкилий масалаларни аниқлаб олишлари, аудитория ва аудиториядан ташқари ишларнинг жадвали билан танишиш йўллари, назорат тадбирларини ўтказиш вақтлари ҳақида маълумот олишлари керак бўлади.

**Хулоса** ўрнида биз, талабаларни мустақил таълим олишларини тўғри ташкил этсак, билим олиш сифати ва самараси юқори бўлади деб ҳисоблаймиз ва бу эса келажак авлодни мустақил фикрлай олиши, танқидий ва креатив тафаккурини янада ривожланиши, замон талабларига жавоб берадиган рақобатбардош кадрларнинг етишиб чиқишига замин яратади, деб баралла айта оламиз. Бунинг учун биз юқорида тавсия этган педагогик принципларга амал қилиш мақсадга мувофиқдир.

#### Адабиётлар:

1. Малиатаки В.В. Формирование готовности будущего учителя информатики к развитию информационной образовательной среды современной школы: диссертация кандидатпед.наук. 13.00.08.–Владикавказ,2014.–174с.
2. Зимняя И. А. Педагогическая психология М.: Логос, 2000.
3. Brame C. (2013). Flipping theclassroom.Vanderbilt University Centerfor Teaching [Электронный ресурс]–Режим доступ <http://cft.vanderbilt.edu/guides-sub-pages/flipping-the-classroom/> (дата обращения: 17.05.2021).
4. Пидкасистый П. И., Фридман Л. М., Гарунов М. Г. Психолого-дидактический справочник преподавателя высшей школы. – М.: Педагогическое общество России,1999.–354с.
5. Глазунова Е.Г. Факторы эффективной организации самостоятельной работы студентов высших учебных заведений сиспользованием технологийe-learning// Дистанционное виртуальное обучение. 2013.–№11. –с.36–51.
6. Knowles M. Self-Directed Learning. Aguide for learners and teachers, Englewood Cliffs: Prentice Hall / Cambridge,1995.135p.





## ТАЛАБАЛАР ИЛМИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ЮКСАЛТИРИШИНИНГ АХБОРОТЛИ ТАЪМИНОТИНИНГ ПЕДАГОГИК САМАРАДОРЛИГИ

*Камолова Ширин Ўсаровна,*

*Жиззах давлат педагогика университети*

*Умумий психология кафедраси мудири, катта ўқитувчи*

Мақолада талабалар илмий дунёқарашини юксалтиришининг ахборотли таъминотининг педагогик самарадорлиги ҳақида сўз юритилиб, унда бугунги кундаги таълим тизими замонавий мутахассисларга бўлган талаб асосида яратилган янги стандартлар ва дастурлар доирасидаги таълим жараёнини эскирган услубда олиб боришга йўл қўйиб бўлмаслиги, ҳозирда педагогик инновацияга яхлит мураккаб жараён сифатида қаралиб, унинг интерфаол сифатлари, тарбиявий қисмлари, функционал тавсифи ва узвийлиги изчил тадқиқ қилиниши ҳақида сўз юритилган. Талабалар онгига шахс ижодий камолоти босқичларини илмий, маънавий қадрият сифатида сингдириши уларни ижодий камолот сари интилишига туртки бўлади ва натижада улар ижтимоий фаол шахс бўлишга интилади, олимликни ва комилликни ҳавас қилади.

**Калит сўзлар:** талаба, онг, шахс, ижодий камолот, илмий, маънавий қадрият, интилиш, ижтимоий, фаол шахс, олимлик ва комиллик, истиқбол, баркамол, интеллектуал салоҳият.

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАУЧНОГО КРУГОЗОРА СТУДЕНТОВ

В статье говорится о педагогической эффективности информационного обеспечения воспитания научного мировоззрения студентов, при которой образовательная система сегодня не может допустить ведения образовательного процесса по устаревшему принципу в рамках новых стандартов и программ, созданных на основе востребованности для современных специалистов, и сейчас педагогическая инновация рассматривается как целостный сложный процесс, обсуждаются его интерактивные качества, образовательная часть, функциональное описание и системность. Внедрение в сознание студентов этапов личностного творческого развития как научной и духовной ценности мотивирует их к стремлению к творческому развитию, и как следствие, они стремятся стать социально активными личностями, восхищаются наукой и совершенством.

**Ключевые слова:** студент, ум, личность, творческая зрелость, научная, духовная ценность, стремление, социальный, активный человек, ученость и совершенствование, перспектива, совершенство, интеллектуальный потенциал.

## PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF INFORMATION SUPPORT OF STUDENTS FOR THE FORMATION OF A SCIENTIFIC WORLDVIEW

The article talks about the pedagogical effectiveness of information support for improving the scientific horizons of students. In which today's education system cannot be allowed to conduct the educational process according to an outdated principle within the framework of new standards and programs created on the basis of the demand for modern specialists, now pedagogical innovation is considered as an integral complex process and its interactive interaction qualities, educational part, functional description and coherence of spoken language are consistently examined. The introduction into the consciousness of students of the stages of personal creative development as a scientific and spiritual value motivates them to strive for creative development, and as a result, they strive to become socially active individuals, envy science and perfection.

**Key words:** student, mind, personality, creative maturity, scientific, spiritual value, aspiration, social, active person, scholarship and improvement, perspective, perfection, intellectual potential.

**Кириш.** Ҳозирги вақтда бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашнинг мазмун-моҳиятини такомиллаштириш бўйича бир қатор илмий тадқиқот ишлари амалга оширилмоқда ва уларга мос илмий-методик натижалар қўлга киритилмоқда. Аммо ҳозиргача бўлажак ўқитувчиларнинг илмий дунёқарашини ахборот-коммуникацион технологиялари негизида шакллантиришни технологиялаштиришнинг илмий-педагогик асослари яратилмаган. Ушбу ҳолат олий ўқув юртларида

бўлажак ўқитувчиларнинг илмий дунёқарашини шакллантиришни педагогик ва ахборот – коммуникацион технологиялари нуктаи назаридан асослаш зарурлигини таъкидлайди. Ушбу заруриятдан келиб чиққан ҳолда тадқиқот муаммоси сифатида «Шахс илмий дунёқарашини юксалтиришнинг ахборотли технологиялари» мавзуси танланди.

Мамлакатимизнинг истикболи кўп жиҳатдан баркамол интеллектуал салоҳиятли авлодни шакллантириш ва унга мос таълим-тарбия олиб боришга боғлиқ ва бунга мустақил Республикамиздаги ижтимоий-тарихий тараққиётнинг тезкор суръатлар билан ривожланиши, фан-техника ва технологиялар соҳаларида қўлга киритилаётган ютуқларнинг таълим-тарбия соҳасига кенг жорий этилиши асос бўлмоқда. Бу асослар ўз Ватанини ва халқини севадиган, миллий мафкурамизга садоқатли, мустақил фикрлайдиган ижодкор шахсни шакллантиришдек муаммо ечимини ҳал этишни таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг устивор йўналишларидан бири даражасигача кўтарди. Бу борадаги ишларнинг аҳамиятлилигини Президентимиз кўйидагича таъкидлаган эди: «Биз комил инсон тарбиясини давлат сиёсатининг устивор соҳаси деб эълон қилганмиз. Комил инсон деганда биз, аввало, онги юксак, мустақил фикрлай оладиган, хулқ-атвори билан ўзгаларга ибрат бўладиган билимли, маърифатли кишиларни тушунамиз».

Республикамизда ҳам ушбу соҳага, яъни жамиятни ахборотлаштириш бўйича эътиборга молик ишлар амалга оширилмоқда. Республикамизнинг барча тармоқларини ахборотлаштириш ва уни такомиллаштириш бўйича қатор қарорлар, қонунлар, фармойишлар, йўриқномалар ҳамда бошқа меъёрий ҳужжатлар қабул қилинмоқда ва улар амалиётга жорий қилинмоқда. Жумладан, «Ахборотлаштириш», «электрон ҳисоблаш машиналари учун дастурлар ва маълумотлар базаларини ҳуқуқий муҳофаза қилиш», «Алоқа», «Интернет», «Масофавий таълим», «Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш ва ахборот - коммуникация технологияларини жорий этиш тўғрисида» гилар бўйича телекоммуникация тармоқларини ривожлантиришнинг меъёрий ҳуқуқий асослари яратилди.

Бу яратилган имкониятлар талабаларнинг дунёқарашини кенгайтириш ва уларнинг интеллектуал салоҳиятини юксалтириш асосида таълим жараёнида янги техника-технологияларни қўллашни ўзлаштиришнинг истикболли йўналишларини очиб беради. Бу эса ахборот – коммуникацион технологиялардан фойдаланган ҳолда илмий дунёқарашини кенг баркамол авлодни шакллантиришнинг дидактик асосларидан бири ҳисобланади.

Маълумки, онгли инсон пайдо бўлибдики, фикр, ғоя, қараш, мафкура, илм-фан, техника-технологиялар тадрижий (эволюцион) тарзда ривожланмоқда ва улар жамият тараққиётига мос ҳолда такомиллашиб бораверади.

**Асосий қисм.** Интеллектуал салоҳиятнинг тарихий-тадрижий ривожланишида яқин ва ўрта Шарқ мамлакатларининг файласуф олимлари, шоирлари: Абу Наср Фаробий, Абу Али ибн Сино, Алишер Навоий, Абу Юсуф Яъқуб ибн Исҳоқ, Жалолиддин Румий, Ибн Божжа, Ибн Руша ва бошқалар ўз асарларидаги қарашларида ва тадқиқотларида муносиб ҳиссаларини қўшганлар.

Маълумки, кейинги йилларда таълим-тарбия жараёнидаги фаолият юритишни муайян режалаштирилган тартибга солувчи ёндашув сифатида педагогик технология назариясидан фойдаланган ҳолдаги педагогик фаолият эътироф этилмоқда. Жумладан, бўлажак мутахассисларни тайёрлашларга технологик ёндашув қилиш ва мазкур жараёнларга ахборот-коммуникацион технологияларидан кенг фойдаланишни амалга ошириш борасида салмоқли ишлар амалга оширилмоқда.

Маълумки, жисмоний камолот ҳар доим ҳам инсон маънавий камолати ва интеллектуал салоҳиятини, яъни инсон дунёқарашини даражасини тўғри белгилаб олиш имконини беравермайди. Кўйидаги кетма-кетлик эса инсон камолатини жисмоний ва маърифий даражалар асосидаги босқичларини белгилайди: чақалоқ; гўдак; ўқувчи; ўқувчи-шахс; талаба; талаба-шахс; мутахассис; юқори малакали мутахассис.

Менталитет ёшларимиз илмий дунёқарашини кенгайтиришда мустаҳкам асос бўлади. Маълумки, баркамол авлодни тарбиялаш ғояси ҳам миллий, ҳам умуминсоний характерга эга бўлиб, у башариятни маънавий ва маърифатга, эзгулик ва юксакликка олиб борувчи комиллик сари йўлдир. Шу сабабли ҳам тарбия масаласи кишилар, оилалар, жамоалар, давлатлар олдидаги муҳим муаммолар бўлиб келмоқда ва улар турлича йўллар, воситалар билан турлича шаклларда, услубларда амалга оширилмоқда.

Ушбу узлуксизлик инсон онги, дунёқарашини ва муносабатларини мунтазам равишда такомиллашиб боришини баҳолай олиш имкониятини бера олади. Қайд этилган узлуксизликдаги «КЕЧА» сўзига ўтмишдаги бой илмий-маънавий меросимиз маълумотлар тўғри келади, яъни буюк қомусий олимларимиз ва ҳадис илми соҳибларининг ижоди, фаолиятини ибрат-намуна қилиб кўрсатиш ҳамда тарихий-бадий адабиётлардаги, жумладан, «Алпомиш», «Гўрўғли», «Авазхон»,

«Рустамхон» ва бошқа дostonлардаги ботир пахлавонларнинг доимийлиги, инсонпарварлиги, меҳнаткашлиги, дўстлик ва муҳаббатга садоқатлари ҳам шу йўналишдаги маълумотлардир.

Юқоридаги тизимнинг «БУГУН» сўзига эса баркамол авлод тарбиясига ҳукуматимиз томонидан яратилаётган имкониятлар тўғри келади. Жумладан, «Таълим тўғрисида»ги Қонун, «Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури», «Давлат таълим стандартлари», «Ўрта махсус, касб-хунар таълимини тубдан ислоҳ қилиш», «Ўрта умумий таълимни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ҳужжатларнинг қабул қилиниши ва турли оммавий тарбиявий тадбирларнинг уюштирилиши, шунингдек, ёшларимизга бугунги кунда ривожланган хорижий давлатларда ўз интеллектуал салоҳиятини ривожлантириб келишига яратилаётган имкониятлар ҳамда турли ёшларимиз камолотига мос спорт мусобақаларининг («Умид ниҳоллари», «Баркамол авлод», «Универсиада») ташкил этилиши ёшларимизнинг ҳар томонлама камолат топишидаги кенг имкониятлардир. Ва ниҳоят юқоридаги қайд этилган тизимнинг сўнгги бўғинига, яъни «ЭРТАГА» сўзига эътибор берадиган бўлсак.

Унда ёшларимизнинг дунёқарашини қуйидагича шакллантириш мақсадга мувофиқ бўлади, яъни Хўш ҳурматли ёшлар ўтмишимиз буюк экан, маънавиятимиз илдишлари ниҳоятда чуқур бўлиб, у 3000 йиллик тарихга эга экан, бугун ўз интеллектуал салоҳиятининг юксалтиришга кенг имкониятлар яратилган экан, энди биз уларга хос ва мос авлод бўлишимиз учун нима ишлар қилишимиз керак? Албатта бу борада ота-боболаримизнинг бизга қолдирган буюк меросини авайлаб, асраб, бойитиб келажак авлодга етказишни ўйлашимиз керак ва бунда бугунги мавжуд имкониятлардан унумли фойдаланмоғимиз лозим. Ана шундагина ўтмиш авлодларимизга муносиб ва бугунги имкониятни кадрлай оладиган саводли фарзанд бўла оламиз. Бу эса ўтмиш аждодларимиз хотирасига чуқур ҳурмат бўлиб, у «ЭРТАГА» жамиятимиз тараққиётига таъсир этувчи мустаҳкам пойдевор бўлади.

Бу борада Абу Наср Фаробийнинг (873-950) «Фозил одамлар шаҳри» номли асари билан аҳамиятлидир. Бундан ташқари у «Фазилат, бахт-саодат ва камолат ҳақида», деб номланган асарида «Ҳар бир инсон бошидан комил бўлиб туғилмайди, аммо туғма равишда ўзига хос ички шуурга эга бўлади ва бу шуур билан босқичма-босқич комилликка жидду жаҳд билан интилади», деган фикрни ва шу асосдаги ғояни илгари суради.

Ёшларимизга шахс камолоти пиллапояларини ҳисобга олган ҳолда таълим-тарбия беришдаги барча хатти-ҳаракатлар (ўқув қўлланмалар, дарсликлар, таълимнинг ахборотли технологиялари ва ҳ.к.)да қуйидаги омиллар асосий диққат-эътиборда туриш лозим экан:

- миллий-маънавий кадрларимиз ҳақидаги батафсил маълумотлар тайёрлаш, уларни ёшларимиз онгига сингдиришга қулай ҳолга келтириб, яъни ахборот кўринишига келтириб тизимларга (қомусий ва ҳадис илми олимлари, шоирлар, ёзувчилар, тарихчилар, файласуфлар, халқ қаҳрамонлари, давлат арбоблари, тарбиявий аҳамиятга эга бўлган расм-русумлар ва урф-одатлар, анъаналар ва ҳ.к.) ажратиш;

- ёшларимизда шахс камолати босқичлари асосда Ватан туйғусини шакллантириш ва бунда улар онгига Она тупроқ, Она Ватан, Ватан соғинчи, Ватан қайғуси каби тушунчаларга ҳурмат уйғотиш;

- ёшлар тарбиясида «Баркамол авлод», «Комил шахс», «Олим», «Пахлавон», «Аллома», «Мутафаккир», «Донишманд» каби камолат босқичларидан аниқ далиллар асосида ибрат-намуна тизимдан кенг фойдаланиш лозим;

- шахс ижодий камолоти босқичларини талабалар онгига сингдиришда аниқ фанлардан таълим-тарбия беришда қомусий олимлар, донишманд, файласуфлар ижоди ва фаолиятдан фойдаланиш, ижтимоий-гуманитар фанлар бўйича эса шоирлар, ёзувчилар, тарихчилар, халқ қаҳрамонлари, давлат арбоблари, ҳадис илми соҳибларини ибрат-намуна қилиб таълим-тарбия бериш ижодий педагогик самараларни беради;

- талабалар онгига шахс ижодий камолоти босқичларини илмий, маънавий кадрлар сифатида сингдириш уларни ижодий камолот сари интилишига туртки бўлади ва натижада улар ижтимоий фаол шахс бўлишга интилади, олимликни ва комилликни ҳавас қилади.

Маълумки, бугунги кундаги таълим тизими замонавий мутахассисларга бўлган талаб асосида яратилган янги стандартлар ва дастурлар доирасидаги таълим жараёнини эскирган услубда олиб боришга йўл қўймайди. Шу сабабли ҳам ҳозирда педагогик инновацияни яхлит мураккаб жараён сифатида қаралиб, унинг интерфаол сифатлари, тарбиявий қисмлари, функционал тавсифи ва узвийлиги изчил тадқиқ қилинмоқда. Бу борада биз инновацион таълим технологиялари таркибига кирувчи талабалар илмий дунёқарашини юксалтиришга кўмакчи компьютерли тизим яратиш муаммосини ҳал қилдик. Бунинг учун қуйидаги кўринишларда маълумотлар базалари яратилди:

- шахс ақлий камолоти босқичлари бўйича маълумот базалари;
- шахс дунёқараши шаклланиши бўйича маълумот базалари;
- шахс илмий дунёқараши шаклланиши бўйича маълумот базалари;
- илмий кадрятлар ва уларнинг жамият тараққиётидаги аҳамияти бўйича маълумот базалари;
- шахс илмий дунёқараши ривожини узлуксизлиги бўйича маълумот базалари;
- шахс илмий дунёқараши юксалишининг ахборотли таъминоти маълумот базалари;
- шахс илмий дунёқарашининг юксалтириш орқали талабаларга ақлий тарбия беришнинг алгоритмик босқичлари асосидаги маълумот базалари.

Юқорида қайд этилган маълумот базалари орқали ахборотли бошқарув блоки тузилди ва унинг таркибига қуйидагилар киритилди:

- махсус ўқув-дидактик таълим (ахборотлар банки, маълумот базалари, билимлар банки);
- мультимедиалар инфорацион технологиялар.

Бу борада олиб борган кўп йиллик илмий изланишларимиз натижаларининг кўрсатишича, талабалар илмий дунёқарашининг юксалтиришга кўмакчи компьютерли тизимни қўллаш қуйидагича қатор таълимий афзалликларни қўлга киритиш имкониятини берар экан:

- ўқитишнинг ижодий муҳити яратилади;
- талаба сифатли ва ишончли ўқув-дидактик ва интеллектуал маълумотлар билан таъминланади, яъни улар шуғулланаётган соҳаси бўйича ўзлари илм-фан ва техника-технологияларнинг энг сўнгги ютуқларидан хабардор бўлади;
- кўмакчи компьютерли тизим барча турдаги ўқув машғулотида компьютер дастурларининг қўлланилишини таъминлашга имконият яратади;
- кўмакчи компьютерли тизим талабаларни янги ахборот технологияларидан фойдаланишга ўргатади ва уларнинг мустақил таълим олишларига шароит яратади, яъни уларнинг касбий фаолиятида, мустақил ҳолда, билимлар эгаллашларида ишончли универсал восита сифатида бўлиб, янги ахборот технологияларидан фойдаланишга эҳтиёж ва мойилликни шакллантиради.

Кўмакчи компьютерли тизимда фойдаланишга қулай ҳолга келтирилиб қўйилади, яъни уларни қуйидагича ўзаро боғлиқликда компьютер хотирасидаги маълумот базалари номли файлга жойлаштирилади ҳамда улардан шахс интеллектуал камолоти даражаларининг асослашда фойдаланилади.

Бундай жараённинг диққатга сазовор томони шундаки, бўлажак мутахассис ўз касбий фаолиятининг такомиллаштиришга онгли ва ижодий ҳолатда ёндашади.


Демак, педагогик инновациялар, хусусан, кўмакчи компьютерли тизимлар кенг қамровли, кўп функцияли мураккаб динамик ижодий ташкилий-педагогик фаолият бўлиб, унинг ёрдамида таълим-тарбия жараёнининг истиқболли ва самарали услубиятини яратиш ҳамда «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»да қайд этилган рақобатбардош замонавий кадрларни тайёрлашга эришиш мумкин экан.

Энди кўмакчи компьютерли тизим баёнига ўтамиз ва уни «ИНТЕЛЛЕКТ» деб атадик. «ИНТЕЛЛЕКТ» номли кўмакчи компьютерли тизимни ишлаб чиқишдаги дастлабки босқич маълумотларни йиғиб, уларни ахборот кўринишига келтириб тайёрлаб қўйилди.

Юқоридаги маълумотлар базалари ифодаларидан ҳам кўриниб турибдики, уларнинг ахборотли таъминоти ҳам ўта муҳимдир. Шу сабабли ушбу кўмакчи компьютерли тизимда шахс илмий дунёқараши юксалишининг ахборотли таъминотининг ҳал қилишга эътибор қаратилган.

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларга илмий дунёқараши асосида ақлий тарбия беришни маълум бир алгоритмик босқич асосида олиб бориш режалаштирилган таълим-тарбия технологиясининг амалиётга оғишмай жорий этишни кафолатлайди.

Кўмакчи компьютерли тизимининг яратишимиз учун маълумотлар ва улар асосидаги ахборотлар етарли бўлиб, улар 1-шакл (бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларнинг илмий дунёқарашининг юксалтириш узлуксизлигининг ахборотли таъминоти–маълумот базалари<sub>6</sub>)даги тамойилни ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилса мақсадга мувофиқ бўлади. Бундан мақсад бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларнинг илмий дунёқарашининг юксалтириш асосида, уларга ақлий тарбия беришдаги маълумотларни тўплаш, қайта ишлаш ва узатиш ишларининг автоматлаштириш ҳамда уларнинг интеллектуал салоҳиятини кўтариш, шунингдек таълим-тарбияда оптимал вариантларни кафолатлаш. Шунинг билан бирга яратилаётган кўмакчи компьютерли тизими орқали таълим-тарбия жараёнига инновацион ёндашувлар қилишга имконият яратилади ва янги ахборот технологияларнинг жорий этилишига кенг имкониятлар яратилади ҳамда компьютерлар ёрдамида кенг кўргазмалилик таъминланади.



1-расм. Инсоннинг ақлий фаолияти тамойиллари

Яратилаётган ИНТЕЛЛЕКТ номли кўмакчи компьютерли тизимнинг афзаллиги шундаки, бунда бўлажак бошланғич синф ўқитувчилар куйидаги имкониятларга эга бўлади:

- бўлажак бошланғич синф ўқитувчилар ўқув режаси, дастури, давлат таълим стандартлари ва кадрлар тайёрлаш миллий дастури ҳамда «Таълим тўғрисида»ги қонун каби меъёрий ҳужжатлар талаблари асосида илмий дунёқарашини юксалтиришга эришади ва булар талабалар ақлий тарбиясига ижобий таъир этади;

- илмий дунёқарашини кенгайтиришнинг узлуксиз тизими яратилади ва бу жараёндаги кўргазмалилик кафолатланади;

- илмий дунёқарашини ва ақлий тарбия йўналишидаги тушунчаларнинг мантикий кетма-кетлиги асосида ўзлаштирилиши орқали бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларнинг билими янада мустаҳкамланади;

- бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларнинг илмий дунёқарашини юксалиши алгоритмик тарзда олиб борилиши мақсадга мувофиқ эканлиги яна бир бор исботланади;

- фанга оид илмий дунёқараш ва улар асосидаги ақлий тарбияга оид тушунчаларни умумий дастур асосида компьютер воситасида ўрганиш имкониятини мавжудлиги бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларнинг мустақил ишлаши учун оптимал вариантларни қўлга киритиш имконини беради;

- кўмакчи компьютерли тизими билан мунтазам шуғулланиш бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларнинг илмий дунёқараш ва ақлий тарбияга оид билим, қўникма, малакаларини компьютерларда мустақил шакллантиришларига эришишларини кафолатлайди ва бу ўз навбатида улар билан қўшимча қизиқарли машғулотлар олиб боришга имконият яратади.

**Хулоса.** «ИНТЕЛЛЕКТ» номли кўмакчи компьютерли тизимдан талабаларга «илмий дунёқарашини шакллантириш ва ўқувчиларга ақлий тарбия бериш» бўйича билим беришда бевосита фойдаланиш мумкин, шунингдек, бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларни тайёрлашдаги бошқа фанлардан ҳам талабалар илмий дунёқарашини юксалтиришда фойдаланиш мумкин. Бу орқали таълимда янги ахборот технологиялар ва кадрлар тайёрлашнинг жаҳон андозалари талабларига жавоб берадиган вариант кафолатланади.

Таъриба-синов ишлари натижалари асосида шуни таъкидлаш мумкинки, талабаларимиз замон талаби асосида касбий фаолиятга тўла тайёр бўлишини хоҳласа, улар албатта ахборотли ўқув муҳити тўғрисида батафсил маълумотларга эга бўлиши керак экан ва уни мутахассислар тайёрлаш йўналишларига мос равишда олиб боришни йўлга қўйиш лозим, айниқса ижтимоий-гуманитар йўналишлар бўйича мутахассислар тайёрлашда тайёр интеллектуаллаштирилган компьютерли тизимдан, компьютерли тренажёрлардан, касбий компьютерли ўйинлардан фойдаланиб, интеллектуал салоҳиятини бойитиб ва илмий дунёқарашини юксалтиришга эришилса замон талабига мос рақобатбардош мутахассислар тайёрлашга эришилади.

Бўлажак мутахассисларни тайёрлашга биз тавсия этган таълимга ахборот технологиясини кенг жорий этиш тизими орқали ёндашилса, қутилган педагогик самарага эришишни кафолатлайди, деб ҳисоблаймиз.

#### Адабиётлар:

1. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – 172 б.
2. Толипов Ў.Қ. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Тошкент: Фан, 2005. ... б.
3. Тўрақулов Х.А. Илмий ижодиёт методологияси. – Тошкент: Фан, 2006. – 252 б.
4. Қувондиқов Э.О. Педагогик синергетика асослари. – Самарқанд: 2007. – 125 б.
5. Ишматов Қ. Педагогик технология асослари. – Наманган, 2001. – 136 б.
6. Йўлдошев Ж. Янги педагогик технологиялар йўналишлари, муаммолари, ечимлари // Халқ таълими. – Тошкент: 1999. - № 4. – Б. 4-11.
7. Климов И.А. Воспитание в процессе модернизации образования // Педагогическое образование и наука. – М.: 2006. - № 6. – С. 45 – 47.
8. Кошчанов Э., Каримов Р., Жабборов Э. Таълим жараёнида математик моделлаштириш ва ЭҲМ ёрдамида эксперимент

## ЦИФРОВЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ КАК ОСНОВА ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Нуралиева Парвина Эркиновна,  
преподаватель кафедры “Информатика”, НГПИ,  
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)*

*В статье рассматриваются основные аспекты цифровой трансформации образования на различных уровнях, разбираются ограничения и возможные трудности по внедрению новых методик цифрового обучения. Дается понятие об актуальности и необходимости изменения принципов образовательного процесса. На примере деятельности высших учебных заведений показана основная тенденция перехода в цифровую область.*

**Ключевые слова:** образовательная среда, цифровые технологии, система образования, цифровая компетенция, цифровые навыки, цифровое образование, цифровая трансформация.

## RAQAMLI KOMPETENSIYALAR KASBIY TA'LIMNI O'ZGARTIRISHNING ASOSI SIFATIDA

*Maqolada ta'limning raqamli transformatsiyasining asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi, yangi raqamli ta'lim usullarini joriy etishdagi cheklovlar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar o'rganiladi. Ta'lim jarayonining tamoyillarini o'zgartirishning dolzarbligi va zarurligi haqida tushuncha berilgan. Oliy ta'lim muassasalari faoliyati misolida raqamli sohaga o'tishning asosiy tendensiyasi ko'rsatilgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim muhiti, raqamli texnologiyalar, ta'lim tizimi, raqamli kompetensiya, raqamli ko'nikmalar, raqamli ta'lim, raqamli transformatsiya.

## DIGITAL COMPETENCIES AS A BASIS FOR TRANSFORMATION OF PROFESSIONAL EDUCATION

*The article discusses the main aspects of the digital transformation of education at various levels, examines the limitations and possible difficulties in introducing new digital learning methods. The concept of the relevance and necessity of changing the principles of the educational process is given. Using the example of the activities of higher educational institutions, the main trend of transition to the digital field is shown.*

**Key words:** educational environment, digital technologies, education system, digital competence, digital skills, digital education, digital transformation.

**Введение.** В настоящее время цифровые технологии (ИТ) стали использоваться во всём мире, что привело к значительным изменениям во всех областях человеческой деятельности. Модернизируется общий уклад жизни человека, отношения между людьми в процессе производственной деятельности, трансформируется экономика и современное образование. В мировой системе образования проводятся исследования по совершенствованию методического обеспечения предметов, формированию и развитию профессиональной компетентности обучающихся с применением электронных информационно-образовательных ресурсов, широкому и массовому использованию электронных образовательных ресурсов и цифровых технологий в образовании. В качестве приоритетной задачи указано развитие и цифровизация большинства направлений, инновационному обучению студентов, постоянное повышение их профессиональных навыков и умений. На сегодняшний день в международном сообществе определена эффективность использования образовательных ресурсов, обеспечивающих активные методы обучения с использованием интерактивных, мультимедийных и цифровых технологий.

**Обзор литературы.** В странах СНГ проводятся научные исследования по совершенствованию системы образования и использованию инновационных технологий в образовательном процессе. Также теоретико-методологические основы разработки и совершенствования методики использования современных информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе нашли свое выражение в научно-исследовательских работах, проведенных рядом ученых. В частности, можно отметить работы ученых СНГ как С.А. С.А.Бешенков, А.Г.Гейн, Б.М.Гаврилов, В.А.Каймин, А.Г.Кушниренко, М.П.Лапчик, В.Л.Латышев, Н.В.Макарова, Г.К.Селевко, И.Г.Семакин, Т.А.Бороненко, В.В.Давыдов, А.Н. Сергеев, Н.Д.Угринович. В развитых странах научно-

исследовательские работы по теории и практике внедрения информационно-коммуникационных технологий в образование и проблемам использования цифровых технологий проведены такими учёными как А.Камеас, А.В.Радфорд, С.Райан, Л.Юан, М.Кооле, Т.Монаха, Д.Фолман, А.Шорго.

Учёными нашей республики также проведён ряд научно-исследовательских работ по проблемам обучения с использованием информационных технологий в высшем образовании, выполнены научные исследования по созданию современной учебной литературы (учебник, учебное пособие, монографии), дидактических средств и их экспертизы, созданию и использованию программно-педагогических средств в образовании, методам использования цифровых технологий в образовательном процессе, проблемам использования технологий дистанционного обучения. В частности, это нашло отражение в научных исследованиях таких отечественных учёных как А.А.Абдукодиров, К.Т.Олимов, М.М.Арипов, Б.Бегалов, У.Ш.Бегимкулов, Ф.М.Зокирова, Р.Р.Бокиев, Н.И.Тайлоков, А.Х.Махмудов, У.Й.Юлдашев, А.Сатторов, Б.Б.Муминов, Ф.Р.Мурадова, А.Аширова, И.Исоков, А.М.Пулотов, М.А.Файзиев, А.Г.Хайитов.

Процесс и закономерности формирования профессионального образования, проблемы подготовки будущих специалистов к профессиональной педагогической деятельности, создания современных дидактических средств и их использование в образовательном процессе изучены такими учёными как Р.Х.Джураев, Н.А.Муслимов, А.Р.Ходжабаев, К.Т.Олимов, Ж.А.Хамидов, Х.Ф.Рашидов, Ш.Ш.Шарипов, У.И.Иноятов, М.Б.Урзова, З.К.Исмоилова, У.Н.Нишоналиев, Д.О.Химматалиев и другими.

**Методологическая база исследования.** В системе высшего профессионального образования, основанной на компетентностном подходе, цели обучения любому предмету определяются системой компетенций, которые должны быть развиты у выпускников.

Анализ научно-педагогической литературы показывает, что общепринятых определений этих терминов не существует. Мы проанализировали различные источники информации о значении компетентности и столкнулись с различными взглядами на значение «Компетенция» и «Компетентность». Большинство исследователей обозначают компетентность как результат обучения через следующие понятия: способность и готовность (новые образующиеся психологические переживания), обобщенные способы действия, знания, опыт и др.

По мнению Т.А. Ахлилловой, компетенция – это новое качество профессиональной подготовки, и знания компетентного человека оперативны и гибки, которые обновляются регулярно. [5]

Согласно определению А.Г.Сергеева, компетенция – это уникальная способность, позволяющая эффективно решать проблемы и вопросы, возникающие в реальных ситуациях повседневной жизни. [6]

В нашем исследовании мы обобщили эти определения компетенции и пришли к выводу, что **«Компетенция – это способность использовать знания, навыки, умения и личностные качества, необходимые для успешной деятельности в определенной сфере».**

Исследователи, раскрывшие сущность термина «компетентность» (Н.А. Гришанова, А.И. Жилина, В.А. Исаев и др.) подчёркивают его многогранность.

А.М. Махмудов в своей исследовательской работе определяет компетентность как интегративное качество (социально-психологический компонент) личности, охватывающий индивидуальные аспекты взаимосвязанных и взаимодействующих интегративных знаний, умений и навыков (когнитивный компонент) и социально значимые качества (готовность, способность и ответственность за принимаемое решение). [7]

Дополняя данное определение, мы сочли необходимым дать следующее определение термину компетентности. **Компетентность** – это целостная способность личности самостоятельно применять различные знания, умения, навыки и компетенции в той или иной (учебной, личной и профессиональной) ситуации.

Компетенции должны быть направлены не только на контроль, но и на обучение, развитие, поощрение, исправление и выполнение других функций, то есть креативная компетенция связана с творческими процессами в педагогической деятельности, и зачастую осуществляется на интуитивном уровне.

Креативная компетенция педагога предусматривает его способность изучения законов творческой педагогической деятельности, разработки инновационных форм обучения и воспитания, измерения их эффективности, внесения необходимых изменений, педагогического анализа и интерпретации достигнутых результатов, проведение лекций, презентаций, участие в обмене опытом и т.д.



Приведём вышеназванные элементы информационно-технологического обучения в высшем образовании, то есть текущего предмета «Информатика и цифровые технологии» и других дисциплин (рисунок 1).



**Рисунок 1. Элементы предмета Информатика и цифровые технологии и других предметов**

По мнению учёных нашей республики, социально-психологические факторы формирования навыков самостоятельного мышления и творчества у студентов формируют и определяют специфические аспекты профессиональной компетентности через формирование самостоятельного и творческого мышления с помощью интерактивных методов обучения, активизирующих деятельность обучающихся, стимулирующих самостоятельное мышление, познавательные подходы в образовательном процессе

Исходя из вышеизложенного, необходимо уделять большое внимание когнитивным способностям в высшем образовании. Особенно на сегодняшний день, в условиях электронного правительства, требованием времени является чтобы каждый выпускник высшего образования в определенном смысле в рамках информационно-технологического образования формировал гибкие и определяющие знания, делая акцент на содержание и процесс образования профессиональной компетентности.

В Инчхонской декларации, принятой международными образовательными организациями, отмечено, что: «Необходимо использовать новые информационные и коммуникационные технологии для укрепления системы образования, распространения знаний, использования различной информации, организации качественного и эффективного образования».

Необходимо обеспечить устранение противоречий между непрерывным ростом объема педагогической информации, количеством ее источников, информационных потоков и их адекватной структурой; рост потребности педагогов в информации и недостаточная сформированность культуры работы с современными информационно-педагогическими ресурсами у большинства из них; растущая потребность в высококвалифицированных специалистах, обладающих достаточной информационной подготовкой и профессиональными знаниями и навыками как основа профессиональной подготовки для работы в современной профессиональной информационной среде.

Целью нашего исследования является создание цифровой информационно-образовательной платформы, позволяющей организовать учебный процесс таким образом, чтобы позволить студентам использовать научное содержание изучаемых предметов как средство решения профессиональных задач и формирования навыков в условиях новых требований для профессии выпускников высших учебных заведений.

При обучении предметам от учащихся требуется не только наличие определенных знаний, но также и определенных умений, и навыков, а также творческого мышления, где задания, учащиеся выполняют по своим разработкам. В таком случае будет необходима идея новых механизмов оценивания, широко использующих возможности дистанционного образования и ИКТ. Независимо от того, какая система используется, важно создать систему, удобную и быструю для студента. Мы

предложили организовать систему обмена информацией, связывающую деятельность разных систем на образовательно-информационной платформе, созданной в рамках нашей исследовательской работы. При этом оценка может проводиться в разных системах, системе, самостоятельно созданной министерством высшего образования или самим высшим учебным заведением, или системах с открытым исходным кодом, или созданной нами платформе (profcom.uz).

Ниже приведем элементы интерфейса и компоненты платформы profcom.uz (рисунок 2).




Рисунок 2. Интерфейс платформы profcom.uz

Интерфейс платформы включает разделы «О системе», «Курсы», «Управление», «Инструкция», «Теоретический курс», «Практический курс» и «Лабораторный курс».

**Заключение.** Данная работа открывает возможности для дальнейших исследований в области определения структуры «цифровая компетентность педагога», который является одной из составляющих профессионализма современного учителя, соответствующего требованиям общества в условиях цифровой экономики. Таким образом, при активном использовании цифровых навыков в образовательном процессе успешнее достигаются общие цели образования, легче формируются компетенции в области коммуникации: умение собирать факты, их сопоставлять, организовывать, выражать свои мысли, открывать что-то новое, делать выбор и принимать решения.

#### Литература:

1. Nuraliyeva P.E. The Role of Digital Technologies in the Formation of Student Competency // Spanish journal of Innovation and Integrity. – Spain, 2022. Volume 05. Impact Factor 6.6. ISSN 2792-8268. – P. 257-263.
2. Nuraliyeva P.E. The Relevance of the Implementation of Programs for the Formation of Digital Competencies Among Students // Miasto Przyszłości Kielce. Online research journal from Poland. – Poland, 2023. Vol. 35. Impact Factor 6.5. ISSN 2544-980X. – P. 51-55.
3. Muradova F.R., Shafiev T. R., To`xtayeva N.R. Digital Technologies Es as a Perspective Information Technology in the Educational Proces // Spanish journal of innovation and integrity. Volume: 05, 2022. P. 271-277.
4. Jumankuziev U. “Using new approaches to teaching programming languages in secondary schools”. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, vol. 11, no. 5, May 2023.
5. Ахлиллоев Т.А. Формирование профессиональной компетенции будущих педагогов в условиях вузовского образования / Известия ВУЗов Кыргызстана. . – №15. 2018. – С. 121-124.
6. Сергеев, А.Г. Компетентность и компетенции: монография / А.Г. Сергеев. - Владимир: Изд-во Владим. гос. ун-та, 2010. -107 с.
7. Махмудов А.Х. Бўлажак магистрларни компетентли тайёрлашнинг дидактик таъминотини такомиллаштириш: Пед. фан. док (DSc). дисс. автореф. –Т.: 2017. – 69 б.

## ПЕДАГОГ ФАОЛИЯТИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ ШАХСЛИЛИК ДЕТЕРМИНАНТЛАРИ

*Самарова Шохиста Рабиджановна,  
Чирчиқ давлат педагогика университети  
доценти, психология фанлари номзоди*

*Психологияда детерминантлар шахснинг шаклланишига таъсир қилувчи омиллардир. Улар инсоннинг хулқ-атвор хусусиятлари ҳақида, яъни тадқиқотчи учун уларни “аниқлаш” имконини берувчи маълум маълумотларни олиб юрадилар. Детерминизм тамойиллари тушунчасидан фойдаланиш фалсафий таълимот сифатида моддий ёки моддий бўлмаган характердаги сабаб-оқибат муносабатлари билан боғланган.*

*Мақолада педагог фаолияти самарадорлигининг шахслик детерминантлари масалалари ёритиб берилган.*

***Калит сўзлар:** жараён, ёндашув, тадқиқот, шахс, муҳит, муносабат, детерминизм, детерминант, касбий шаклланиш.*

## ЛИЧНОСТНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА

*В психологии детерминантами называют факторы, влияющие на формирование личности. Они несут определённую информацию о поведенческих особенностях человека, то есть позволяют исследователю «идентифицировать» их. Использование концепции принципов детерминизма как философского учения связано с причинно-следственными отношениями материальной или нематериальной природы.*

*В статье раскрыты вопросы личностных детерминант эффективности деятельности педагога.*

***Ключевые слова:** процесс, подход, исследование, человек, среда, отношение, детерминизм, детерминант, профессиональное становление.*

## PERSONAL DETERMINANTS OF TEACHER EFFECTIVENESS

*In psychology, determinants are factors that influence the formation of personality. They carry certain information about a person's behavioral characteristics, that is, they allow the researcher to “identify” them. The use of the concept of the principles of determinism as a philosophical doctrine is associated with cause-and-effect relationships of material or immaterial nature.*

*The article reveals issues of personal determinants of teacher effectiveness.*

***Keywords:** process, approach, research, person, environment, attitude, determinism, determinant, professional development.*

**Кириш.** Бугунги кунда эса мамлакатимизда 2020 йил 24 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва унда белгилаб берилган устувор йўналишларни амалиётда янгича услублар асосида қўллаш Республика мактабгача таълим, олий ва ўрта махсус таълим ҳамда олий таълимдан кейинги таълим тизимида фаолият олиб бораётган ўқитувчи, тарбиячи, ишлаб чиқариш усталарининг маънавий қиёфаси ҳамда касбий маҳоратларига ҳам боғлиқдир. Шахсни тарбиялаш иши ниҳоятда мураккаб фаолият жараёни бўлиб, жуда қадимдан ушбу фаолиятга жамиятнинг етук кишилари жалб этилган [1]. Мазкур ҳолат ёш авлод тарбияси, унинг ташкил этилиш мазмуни нафақат шахс камолоти, балки жамият тараққиётини ҳам белгилашда муҳим аҳамиятга эга эканлигини англатади. Бирор бир инсон педагоглик касбини танладими, демак, у албатта, педагог шахси ва унга қўйиладиган талабларга ҳам ҳар томонлама мос бўлиши керак [2].

Мамлакатимизда кадрлар тайёрлаш Миллий дастурини ҳаётга татбиқ этиш жараёнида ўқитувчининг ёш авлодга таълим ва тарбия беришида жамият олдидаги жавобгарлиги янада ортиб бораверади. Педагог учун қўшимча, лекин нисбатан турғун талаблар қаторига киришувчанлик, артистлик, шодон хулқ, яхши дид-фаросат ва бошқаларни киритиш мумкин. Бу хусусиятлар энг асосий ўринда турмасида, аммо ўқитувчи фаолияти учун катта ёрдам беради. Бош ва иккиламчи педагогик хоссалар жамланиб, педагогнинг шахсиятини аниқлайди, шу жиҳатлар кучи билан ҳар бир

ўқитувчи ажойиб ва ўзига хос шахс сифатида намоён бўлади. Жамият томонидан қўйиладиган талаблардан энг муҳими ўқитувчининг шахси ва унинг касби билан боғлиқ хислатларига қаратилганлигидир.

Педагоглик касби, унинг пайдо бўлиши ва равақ топишининг тарихий жиҳатларига назар солар эканмиз, педагоглик касбининг шаклланиши кишилик тараққиёти тарихи билан узвий боғлиқлигини англаймиз. Териб-термалаб кун кечирган ибтидоий давр кишилари болаларни ўзлари билан эргаштириб юриб, уларга ов қилиш, турли дарахт меваларини териш, ўсимликларнинг илдизини қавлаб олиш, сув манбаларини излаб топиш каби ҳаракатларни амалга оширишни ўргатганлар. Бундай ҳаракатлар қабила ва уруғнинг тажрибали кишилари ёки кексалар томонидан амалга оширилган. Оддий кундалик эҳтиёжларни қондириш йўлида олиб борилаётган хатти-ҳаракатлар асосида ёшларга мавжуд тажрибалар орқали маълумотлар бериб, уларда амалий кўникмаларни шакллантирганлар. Турли товушларни чиқариш ёрдамида атрофдагиларни яқинлашайтган хавфдан огоҳ қилишни болалар катталарнинг намуналари асосида ўзлаштирганлар. Нутқ ва ёзув пайдо бўлгунга қадар бу каби ҳаракатлар имо-ишоралар асосида амалга оширилган. Кишилик тарихида туб инқилобни содир этган нутқ ва ёзувнинг пайдо бўлиши, шунингдек, уруғ жамоаси томонидан бажариладиган меҳнат фаолиятининг турли соҳаларга ажралиши ёшларга нисбатан муносабатнинг илғор (прогрессив) характер касб этишига имкон берди.

**Асосий қисм.** Турли табиий офатлар таъсиридан ҳимояланиш, кишилар ҳаётига хавф солаётган касалликларни даволаш, ҳаёт кечирish учун етарли озик-овқатларни жамлаб олишга бўлган табиий эҳтиёж – ёшларга ҳаётий тажрибаларни маълум меҳнат фаолияти йўналишида етарлича билимга эга бўлган кишилар томонидан берилиши мақсадга мувофиқ эканлигини кўрсатди. Натижада болаларга ҳаёт тажрибаларини ўргатувчи кишилар гуруҳи шаклланди ҳамда болаларга маълум йўналишлар бўйича билимларни бериш махсус ажратилган жойларда ташкил этила бошланди. Дастлабки мактаблар қадимги Шарқда (Бобил, Миср, Ҳиндистон)да пайдо бўлиб, уларда болаларга маъмурий-хўжалик бошқаруви асослари ўргатилган. Антик даврда мактаблар Спарта, Афина ва Рим тарбия тизимининг муҳим таркибий қисми сифатида фаолият олиб борганлар. Қадимги Юнонистонда бундай жойлар “академия” деб номланган. “Академия” сўзи афсонавий қахрамон Академа номидан келиб чиққан. Милоддан аввалги ИВ асрда Афина яқинидаги “Академа” номи билан номланувчи жойда Платон ўз шогирдларига маълумотларни ўқитган бўлиб, кейинчалик, таълим ташкил этилувчи маскан ҳам шундай ном билан атала бошлаган. Қадимги Рим ва Юнонистонда болаларга билим бериш файласуфлар зиммасига юклатилганлигини ҳам алоҳида таъкидлаш ўринли. Жамиятнинг табақаланиши натижасида қулдорлик тузумида болаларни таълим масканларига олиб бориш ва олиб келиш вазифасини қуллар бажаришган ва улар “педагог” деб номланганлар. Ушбу тушунчанинг маъноси “бола етакловчи” демакдир. Тарихий тараққиётнинг кейинги босқичларида болаларга тизимли билимларни бериш билан доимий шуғулланувчи кишилар айнан шу ном билан атала бошлаганлар.

Инновацияларсиз замонавий жамиятнинг ривожланиши мумкин эмас. Ҳозирги вақтда инновацион фаолият ҳар қандай ташкилот ва корхона фаолиятида асосий ўринлардан бирини эгаллайди. Иқтисодиётнинг ривожланиши замонавий таълим тизими олдида инновацияларни идрок этишга ва амалга оширишга тайёр шахсни тарбиялаш вазифасини қўяди. Замонавий мактаб ва олий таълим муассасаси битирувчиси ҳар хил турдаги муаммоли вазиятларни ҳал қилиш, инновацион лойиҳаларни амалга ошириш ва инновацион фаолиятда иштирок этиш зарурати бўлган доимий ўзгарувчан дунёда яшашга тайёр бўлиши керак. Бу ўз навбатида фикрлашнинг ўзига хос турини, шахсий фазилатларини ривожлантириш, янги вазиятларни ижобий идрок этишга ва ўз ҳаракатлари учун жавобгарликни олишга тайёрликни талаб қилади.

Педагог фаолияти самарадорлигининг шахслик детерминантлари бўйича мавжуд маълумотларга кўра, ўқитувчилар ҳаракатчанлик, ҳаёт давомида ўрганишга интилиш, тадбиркорликка мойиллик ва таваккалчилик каби шахсий фазилатлари бўйича юқори инновацион фаолликка эга касб вакилларига қиради.

Психологияда детерминантлар шахснинг шаклланишига таъсир қилувчи омиллардир [Старов, 2019]. Улар инсоннинг хулқ-атвор хусусиятлари ҳақида, яъни тадқиқотчи учун уларни “аниқлаш” имконини берувчи маълум маълумотларни олиб юрадлар. Детерминизм тамойиллари тушунчасидан фойдаланиш фалсафий таълим сифатида моддий ёки моддий бўлмаган характердаги сабаб-оқибат муносабатлари билан боғланган.

Жамиятга ижодий, мустақил, фикрлашда мослашувчан, ўз ривожланишини кадрият деб биладиган, доимо янги нарсаларни ўрганишга қодир ва тайёр инсонлар керак. Бу фазилатларнинг барчаси мактабда шакллантирилиши керак. Бирок, бир қатор замонавий тадқиқотлар (Т.Н.Разуваева,

Н.А.Баулина, Э.А.Шмелева ва бошқалар) кўрсатганидек, замонавий мактаб кўпинча кўпроқ фанларни тайёрлашга, Ягона давлат имтиҳонлари натижаларига, зарур билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантиришга қаратилган. Бинобарин, таълим тизими жиддий қайта қуриш ва инновацион ривожланиш мантиғига бўйсундирилиши талаб этилади.

Олий таълим муассасаларининг таълим-тарбия мазмунидаги фаолияти жараёнининг умумий қонуниятлари ва бўлажак ўқитувчиларнинг касбий етуқлигини таъминлашнинг самарали технологиялари Н.Н.Азизхўжаева, Ў.Қ.Толипов, Ф.Р.Юзликбаевлар [3; 10; 11], шахс фаолиятининг мотивацион муҳитини яратиш ҳамда такомиллаштиришнинг назарий масалалари М.Г.Давлетшин, Е.А.Климов, С.Л.Рубинштейн [4; 5; 8] ва бошқалар томонидан олиб борилган тадқиқотларнинг аҳамияти беқиёс.

Бир қатор олимлар (В.В.Краевский, Е.А.Крюкова, В.В.Сериков [6; 7; 9]) томонидан таълим жараёнига янгича ёндашувни қарор топтириш йўллари ва уларнинг моҳияти борасидаги тадқиқотлар амалга оширилган. Улар ўз ишларида касбий педагогик таълимнинг асосий вазифаси, ўқитувчининг мавжуд илмий билимлар билан қуроллантиришдангина иборат эмас, балки унинг шахс сифатида ўз мавқеини белгилаб олиши, ўзлигини англаши, ижтимоий муҳитга нисбатан муносабатини шакллантиришда ёрдам бериши лозим бўлган восита сифатида қарайдилар. Таълим олувчиларга билим беришда ўз фикрини ёқлаш, мавҳумлик ва авторитар мавқени эгаллашга уриниш хиссидан халос бўлишни таъминлаш лозим бўлади.

Педагогик фаолиятнинг воситалари сифатида илмий (назарий ва эмпирик) билимларни кўриш мумкин. Ёрдамчи воситаларга эса техник, компьютер, график воситаларни киритиш мумкин. Педагог фаолиятидаги ижтимоий-маданий малакани етказиш бу тушунтириш, кўрсатиш (иллюстрация), дарслик машқларини таҳсил олувчилар билан бирга ишлаш, таҳсил олувчини бевосита амалиёти (лаборатория, амалдаги) ва тренингдан иборат. Педагогик фаолиятнинг махсули бўлиб ўқувчининг аксиологик, эмотсионал мазмуний, предметли, баҳолаш мезонларини акс эттирувчи индивидуал малакасининг шаклланиши ҳисобланади. Педагогик фаолиятнинг натижаси асосий мақсаддан келиб чиққан ҳолда ўқувчиларнинг шахсий, интеллектуал ривожланиши, уларни ўқув фаолиятининг субъекти ва шахс сифатида шаклланиши ҳисобланади. Педагогик фаолиятнинг муҳим таркибий қисмларидан бири бу мотивация ҳисобланади. Педагогик фаолиятда ҳам ўқув фаолиятидаги каби мотивацион соҳа ажратилиб кўрсатилади. Бу ташқи ва ички мотивлардир. Ташқи мотив сифатида бирор-бир нарсага эришиш истагини, ички мотив сифатида эса ўз фаолиятининг жараёни ва натижасига эътибор беришни мисол қилиш мумкин. Педагогик фаолият педагогик вазиятдаги турлитуман хатти-ҳаракатларнинг умумлашмасидан иборат: перцептив, мнемик, коммуникатив, изланувчанлик, назорат қилиш, баҳолаш ва ҳ.к. Ушбу турлитуман фаолиятларнинг жамланмаси бир қанча психолого-педагогик функцияларни белгилаб беради.

Педагогик фаолиятнинг инсонпарварлик тамойилига асосланувчи парадигмаси қуйидаги мезонларга таянади:

- таълимнинг ижтимоийлашуви - ўқитувчиларни тайёрлаш жараёнига нисбатан технократик ёндашувдан воз кечиш, улар томонидан нисбатан ўзлаштириладиган билимлар мажмуасининг педагогик ҳамда психологик хусусият касб этишини таъминлаш, ўқитувчиларда умуминсоний, умуммаданий кадрлар мазмунида илгари сурилган ғояларга асосланган ижтимоий тафаккурни шакллантириш;

- миллий ҳамда жаҳон маданияти асослари ва уларнинг моҳиятидан хабардор бўлиш;

- таълим ва тарбия жараёнини ташкил этишда миллий истиқлол ғояларига асосланиш;

- шахснинг ўз-ўзини ривожлантириш ҳамда мустақил таълим олишга бўлган лаёқатига таяниш ва уни такомиллаштириш;

- ўқитувчиларнинг касбий жиҳатдан шакллантириш жараёнида ўқитувчи ҳамда талабаларнинг ўзаро ҳамкорликда фаолият олиб боришларига эришиш;

- таълим (хусусан, касб таълими) жараёнида ўқув дастурларининг талабалар қобилияти ҳамда кизиқишларига кўра танлаб олиниши борасидаги имкониятнинг мавжудлиги;

- педагогик таълимнинг фундаментал хусусият касб этиши, яъни, талабалар томонидан ўзгарувчан шароитларда шахс ижодий ривожини асосини таъминловчи инвариант билимларнинг ўзлаштирилишига эришиш;

- меҳнат бозори ҳамда ижтимоий жараёнларда юзага келувчи ҳамда доимий равишда ўзгариб турувчи, эҳтиёжларга тўлақонли жавоб бера оладиган таълим тизимини шакллантириш, шу асосда касбий мослашувчан мутахассисларни тарбиялаш;

- таълимнинг узлуксизлиги, таълимнинг ҳар бир жараён босқичининг натижаланишини таъминловчи касбий таълим (кадрлар малакасини ошириш ҳамда уларни қайта тайёрлаш)

дастурларининг тизимининг яратиш ва ривожлантириш, муайян дастурни таълимнинг у ёки бу босқичида ўқитилиши ёки ўқишни бошқа типдаги ўқув муассасасида давом эттира олиш имкониятини бера олиши;

- таълимнинг эквивалентлиги, яъни унинг давлат таълим стандарти, миллий маданияти ва менталитет, шунингдек, халқаро меъёрларга мувофиқ даражаси.

Талабалар фаолиятининг етакчи соҳаси ўқув жараёни ҳисобланади. Бундан келиб чиққан ҳолда, касбий шаклланиш жараёнининг характерли хусусияти таълимга, билим олишга қизиқишнинг юқорилиги бўлиб ҳисобланади. Айнан мана шу қизиқиш касбий шаклланишнинг ўзига хос характерини ифодалайди.

«Касбий шаклланиш» тушунчасига берилган таъриф ва тавсифларни умумлаштириб, уни қуйидагича талқин этиш мумкин:

Касбий шаклланиш - шахс камолотининг муҳим жиҳатларидан бири бўлиб, шахснинг фақатгина меҳнат ва касбий фаолиятни танлаш билан боғлиқ эҳтиёж ва қизиқишларини ифодалайди (умумий ривожланиш барча эҳтиёжлар мажмуасини, унинг борлиққа, атрофдагиларга, ўзига нисбатан муносабатлари тизимини ифода этади).

Касбий шаклланиш – меҳнат фаолияти ёки касб соҳасининг аниқ турини танлаш билан алоқадор, аниқ ва онгли равишда қабул қилинадиган қарорнинг ифодаланиши бўлиб, талабалар билан амалга ошириладиган мақсадга йўналтирилган ишлар билан бевосита боғлиқ бўлади.

Шундай қилиб, касбий шаклланишни талабада педагогик фаолиятга бўлган эҳтиёжни ривожлантирувчи, унга нисбатан масъулиятли ҳамда ижодий ёндашувни, ижтимоий кадриятлар мотивациясини тарбияловчи ҳамда шахсга қаратилган йўналиш касб этувчи жараёнлар алоҳида таркибий қисмларининг ўзаро интеграцияси сифатида қараш мумкин.

Шахснинг касбий шаклланишини белгиловчи жараёнлар табиатини аниқлаш касбий педагогиканинг асосий вазифаси ҳисобланади. Ушбу жараёнлар моҳиятини қай даражада билиш инсоният фаолиятининг муҳим қирраларидан бири, биологик ва ижтимоий яшовчанлик ҳамда унинг равнақини белгиловчи омил ҳисобланган – ёш авлод тарбиясининг муваффақиятли амалга оширилиш даражасини белгилаб беради.

Тадқиқот объекти сифатида талабаларнинг касбий шаклланиши бу ижтимоий-иқтисодий, психологик-педагогик, техник-технологик ҳамда махсус билимларнинг очиқ, ўзини-ўзи ривожлантирувчи тизими бўлиб, у давр талаби ҳамда тадқиқотлар натижалари асосида мазмунан ўзгариб, узлуксиз равишда бойиб боради.

Илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатдики, касбий шаклланиш тушунчаси қуйидаги усулларда акс эттирилиши мумкин:

- жараён схемаси асосида (даврлар, босқичлар, даражаларнинг вақт бўйича кетма-кетлиги кўринишида);

- фаолият тузилмаси тарзида (восита ва усуллар мажмуаси кўринишида, бу ўринда ўзаро таъсирлашув вақт бўйича эмас, қўйилган мақсадга кўра талқин қилинади).

Шахснинг касбий аҳамиятли сифатларининг шаклланиши индивид томонидан ўз мойилликларини англаб етгунига қадар амалга ошади. Таълим олиш, ривожланишга бевосита таъсир кўрсатади ва ривожланишнинг эришилган даражаси таълим олиш жараёнларининг кечишига жиддий таъсир кўрсатади.

**Хулоса ва таклифлар.** Педагог фаолияти самарадорлигининг шахслик детерминантлари билим ва кўникмаларнинг эгалланиши, тасаввурни, дунёқарашни, эътиқодни шакллантиради. Инсон булардан ўзининг кейинги ҳаётида фойдаланиб ўз ҳаётий ўрнини, бўлажак касби тўғрисидаги тасаввурлари ҳамда кадриятларга бўлган муносабатини белгилайди. Ушбу ходисалар касбий шаклланишнинг педагогик йўналтирилганлигини белгилаб беради.

Педагог фаолияти самарадорлигининг шахслик детерминантлари етарлича тадқиқ қилинмаган, унинг моҳияти, мазмуни ва тузилмаси аниқланмаган, шунингдек, ривожланиш даражалари, шаклланиш омиллари амалда умуман, ўрганилмаган.

Республикада амалга ошириладиган таълимий ислохотларнинг бош мақсади – баркамол шахс ва малакали мутахассисни тарбиялашдан иборат этиб белгиланган бир шароитда педагог фаолияти самарадорлигининг шахслик детерминантлари масаласи ўзига хос аҳамият касб этади. Зеро, комил инсон қиёфасида нафақат шахслик детерминантлари, шу билан бирга, касбий сифатлар ҳам акс этиши зарур.

**Адабиётлар:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqi.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик махорат. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003. - 174 б.
4. Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. – Т.: Ўзбекистон, 1999. - 29 б.
5. Климов Е. А. Психология профессионала. – М.: Педагогика, 1996. - 400 с.
6. Краевский В.В. Методология педагогического исследования. – Самара. СГПУ, 1994. - 174 с.
7. Крюкова Е.А. Личностно-развивающие образовательные технологии: природа, проектирование, реализация. Монография. – Волгоград. Перемена, 2000. – 97 с.
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2006. - 713.
9. Сериков В.В. Личностный подход в образовании: Концепция и технологии. Монография. – Волгоград: Школа, 1994. - 152 с.
10. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий қўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед. фан. докт... дисс.–Т.: 2004. - 314 б.
11. Юзликаев Ф.Р. Теория и практика интенсификации дидактической подготовки будущего учителя в системе высшего педагогического образования (на материале педагогических дисциплин): Автореф. дисс... докт. пед. наук. – Т.: 2005. - 36 с.

## ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАР ПЕДАГОГИК ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

*Тожибоев Марат Норматович,  
Чирчиқ давлат педагогика университети,  
Психология кафедраси катта ўқитувчиси*

*Мақолада индивидуал ёндашув асосида талабалар педагогик тафаккурини ривожлантириши мантигининг ўзига хос хусусиятлари, жумладан, билишни фаолият билан, воқеликни амалий ўзгартириши билан боғлашга қаратилганлиги, шунингдек педагогик тафаккурнинг ўз хусусиятига кўра даражаларга бўлиниши ҳақида сўз юритилади.*

*Ақлий фаолиятнинг барча турлари талабаларнинг ҳам назарий, ҳам стратегик, ҳам тактик, оператив фикрлаш қобилиятини шакллантиради. Илмий педагогик тафаккур диалектика қонуниятлари асосида фаолият юритади. Мақолада талаба педагогик фактларни, вазиятларни, ҳодисаларни ривожлантириши, ўзи билиб ҳаракат қилиши нуқтаи назаридан кўриб чиқиши учун индивидуал ёндашув асосида педагогик тафаккурни ривожлантириши борасидаги қонуниятлар ёритиб берилган.*

***Калит сўзлар:** шароит, рағбат, ҳаракат, ҳақиқат, мотив, эҳтиёж, қизиқиши, ёндашув, вазият, тарбия.*

## ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА

*В статье говорится об особенностях логики развития педагогического мышления студентов на основе индивидуального подхода, в том числе о том, что оно направлено на соединение знаний с деятельностью и практическим изменением действительности, а также на разделение педагогического мышления на уровни согласно его характеристикам.*

*Все виды умственной деятельности формируют у студентов способность мыслить теоретически, стратегически, тактически и оперативно. Научно-педагогическое мышление действует на основе законов диалектики. В статье объясняются принципы развития педагогического мышления на основе индивидуального подхода, чтобы студент мог рассматривать педагогические факты, ситуации, события с точки зрения самостоятельного развития и действия.*

***Ключевые слова:** обстоятельства, стимул, действие, факт, мотив, потребность, интерес, подход, ситуация, воспитание.*

## ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' PEDAGOGICAL THINKING BASED ON AN INDIVIDUAL APPROACH

*The article talks about the peculiarities of the logic of development of students' pedagogical thinking based on an individual approach, including the fact that it is aimed at connecting knowledge with activity and practical changes in reality, as well as dividing pedagogical thinking into levels according to its characteristics.*

*All types of mental activity form in students the ability to think theoretically, strategically, tactically and operationally. Scientific and pedagogical thinking operates on the basis of the laws of dialectics. The article explains the principles of development of pedagogical thinking based on an individual approach, so that the student can consider pedagogical facts, situations, events from the point of view of independent development and action.*

***Keywords:** circumstance, stimulus, action, fact, motive, need, interest, approach, situation, education.*

**Кириш.** Бугунги кунда мамлакатимизда миллий таълим тизимининг ҳуқуқий асосларини шакллантириш борасида кенг шароитлар яратилди. Бу эса, ўз навбатида, ислохотлар таълим тузилмаси ва мазмун-моҳиятини такомиллаштириш имконига замин яратмоқда. Бу ҳақда фикр юритганда Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: “Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз деб биламиз”[3]. Бинобарин, давлатимиз раҳбари ҳозирги замон талабидан келиб чиққан ҳолда энг авалло, таълим самарадорлигини ошириш, мутахассисларнинг



касбий компетентлик даражасини ривожлантириш, педагог кадрларни инновацион фаолиятга йўналтириш, олий таълим муассасаларидаги ўқув жараёнига инновацион таълим ва ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш, илғор хорижий тажрибаларни ўзлаштириш ва мақсадли йўналтиришни устувор вазифалар сифатида белгилаб бергани бежиз эмас, албатта. Шу ўринда муҳим бир мулоҳаза: “Яна бир муаммони ҳал этиш ҳам ўта муҳим ҳисобланади: бу педагог ва ўқитувчилар таркибининг профессионал даражаси, уларнинг махсус билимларидир. Бу борада таълим олиш, маънавий-маърифий камолот масалалари ва ҳақиқий кадриятларни шакллантириш жараёнларига фаол кўмак берадиган муҳит яратиш зарур” [1] бу талабаларда касбий компетенцияни замонавий ёндашувлар асосида ривожлантириш вазифасини кўяди.

Ўқитувчининг педагогик тафаккури - бу таркибнинг ўзига хос тузилиши ва амалий жиҳатдан самарали фондлари ва сифат хусусиятлари билан ажралиб турадиган мураккаб шаклланиш ҳисобланади.

“Педагогик тафаккур” атамаси кўпинча икки маънода қўлланилади: биринчидан, у тафаккурнинг ўзига хос хусусиятларида ифодаланган мутахассиснинг юқори профессионаллик даражаси, бунда асосий эътибор сифат жиҳатига қаратилади; иккинчидан, фикрлашнинг ўзига хос хусусиятлари касбий фаолиятнинг табиати билан белгиланади, бунда асосий эътибор предмет жиҳатига қаратилади [4].

Соғлом тафаккурнинг шахс ривожигадаги ўрни Абу Наср Форобийнинг “Фозил одамлар шахри” асарида келтирилган бўлиб: “Модомики, у ўз зотидан фикр қилишга қодир бўла олар экан, у оқил бўла олади. Натижада унинг зоти ақлга эришса, у ҳолда у феъли билан ақлга эга бўлади. Балки у ақл бўла олади, у ўз зоти билан фикр қиладиган, оқил бўла олади. Зотнинг ўзи ҳам ақлга эришдими, демак, унинг ўзи ҳам ақлга эриша олади”, деган фикр орқали ақл ва интеллектнинг ўзаро уйғун ҳамда фарқли жиҳатларини таҳлил этган [2].

Педагогик тафаккур ҳар қандай амалий тафаккурга хос хусусиятлар мажмуи сифатида қаралади. Унинг энг муҳим белгилари: рефлекслилик, танқидийлик, мураккаблик, ўзига хослик, мустақиллик, конструктивлик, касбий компетенция, фикрлашнинг индивидуаллиги ва бошқалардир.

Индивидуал ёндашув асосида талабалар педагогик тафаккурини ривожлантириш педагогик муаммоларни ҳал қилишга қаратилган бўлиб, таълим ва тарбия жараёнининг мақсадлари билан боғлиқ фикрлаш жараёнларининг иерархик занжирдир. Педагогик, шунингдек, ҳаётий ўзаро муносабатларда талабалар нафақат таълим объекти сифатида, балки ўз ҳаётини ўзига хос тарзда акс эттирувчи, англайдиган ва ўзгартирадиган ижодий ҳаракат қилувчи субъектлар сифатида ҳам ҳаракат қиладилар.

Педагогик тафаккурни махсус билимлар воситасида объект, жараён, ишлаб чиқариш шароитлари ёки ўқув фаолиятининг умумлаштирилган инъикоси сифатида аниқлаш мумкин. Педагогик тафаккур - ўқитувчининг ўзига хос ақлий ва амалий фаолияти бўлиб, унинг ўқув ва тарбиявий ишда ахлоқий кўрсатмалар, илмий билимлар, педагогик технология, шахсий сифатлардан фойдаланиш самарадорлигини таъминлайди.

Педагогик тафаккур ҳар қандай амалий тафаккурга хос хусусиятлар мажмуи сифатида қаралади. Унинг энг муҳим белгилари: рефлекслилик, танқидийлик, мураккаблик, ўзига хослик, мустақиллик, конструктивлик, касбий компетенция, фикрлашнинг индивидуаллиги ва бошқалардир.

**Тадқиқотнинг методологияси ва объекти.** Таълим олувчининг мавжуд шахсий имкониятларни рўёбга чиқаришини таъминлаш, замонавий ўқув жараёнига қўйиладиган жадаллашган илмий-техникавий тараққиётининг талабидир. Бунга индивидуал ва индивидуаллаштирилган ўқитиш орқали эришиш мумкин.

Индивидуал ўқитиш – бу ўқув жараёнининг ташкил этишнинг шакли бўлиб, бунда педагог таълим олувчилар билан яқкама-яқка шуғулланади, таълим олувчи ўқув воситалари (китоблар, компьютер ва ҳ.к.) ёрдамида узлуксиз мустақил таълим олади.

Индивидуал ўқитишнинг афзалликлари: педагог жараённинг таълим олувчи қобилиятларига мослашувчанлиги имкониятидир. Бунда таълим олувчининг билим олиш даражаси доимий мониторингини амалга ошириш ва зарурий тузатишлар киритиш натижасида мақбул педагогик жараён ташкил этилади.

Индивидуал ёндашиш – бу педагогик принципга кўра, педагог жараёнда педагогнинг таълим олувчилар билан ўзаро муносабати, уларнинг шахсий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қурилади ва бутун гуруҳ ҳамда ҳар бир алоҳида таълим олувчининг ривожини учун психологик-педагогик муҳит яратилади. Индивидуаллаштирилган ўқитиш бундай ўқув жараёнини ташкил этишда индивидуал ёндашиш асосида ўқитиш йўллари, усуллари, суръати танланади ва турли ўқув-услубий психологик-педагогик ҳамда ташкилий бошқарув тадбирлари орқали таъминланади.

Якка тартибда ўқитиш технологияси – бунда ўқув жараёнини ташкил этишда индивидуал ёндашиш ва ўқитишнинг индивидуал шакли устувор ҳисобланади. Ўқитишнинг барча шахсга йўналтирилган технологияларида у ёки бу даражада индивидуал ёндашиш қўлланилади, аммо индивидуаллаштирилган ўқитишда, индивидуаллаштириш, ўқув мақсадларига эришишнинг асосий воситаси ҳисобланади. Индивидуаллаштирилган ўқитишнинг асоси, таълим олувчининг индивидуал-педагогик хусусиятларини ўрнатиш ҳисобланади. Олинган натижалар асосида, ўқитиш усули танланади. Қабул қилинган технологиялар, қоидалар ва принципларга кўра ўқитиш жараёни амалга оширилади.

Индивидуал ёндашув асосида талабалар педагогик тафаккурини ривожлантириш педагогик муаммоларни ҳал қилишга қаратилган бўлиб, таълим ва тарбия жараёнининг мақсадлари билан боғлиқ фикрлаш жараёнларининг иерархик занжиридир.

Н.В.Кузминанинг фикрига кўра педагогик тафаккурнинг хусусиятлари педагог меҳнатининг ўзига хос хусусиятлари билан белгиланади, улар:

- Ўқитувчи маданият ташувчиси ва ахборот манбаи бўлиб, яхлит таълим-тарбия жараёнида талабалар фаолияти ва мулоқотининг ташкилотчиси бўлганлиги сабабли, унинг тафаккури ижтимоий тафаккур сифатида намоён бўлади, унинг характерли хусусиятлари тушуниш, англаш ва мулоқот қобилияти ҳисобланади;

- Педагогик тафаккур ижтимоий йўналтирилганлиги сабабли, унинг объекти ўқитувчининг бошқа одамлар билан ўзаро муносабати ҳисобланади;

- Ўқитувчининг педагогик тафаккури доимо кутиш жараёнлари, яъни интиқлик билан, воқеаларни башорат қилиш билан боғлиқ [6].

Педагогик тафаккур учта тамойилга асосланади:

- табиийлик;

- маданиятлилик;

- тўлдирувчилик.

Улар амалиётда “кўриш, олдиндан билиш, ҳаракат қилиш” формуласи орқали амалга оширилади.

Ҳар бир мутахассиснинг, шу жумладан ўқитувчининг педагогик тафаккури ўз даври тафаккурининг концептуал-муаммоли даражасини, жамиятда мавжуд бўлган кадриятлар тизими, ахлоқий меъёрлар ва бошқа ижтимоий-психологик механизмлар билан мустаҳкамланган педагогик жараёнлар ва ходисаларни тушунишнинг ўзига хос усулини ифодалайди.

Ўқитувчининг педагогик тафаккури назарий ва амалий бўлиши мумкин. Назарий тафаккур педагогик жараёни ташкил этиш тамойилларини топиш ва унинг стратегик тамойилларини ишлаб чиқишдан иборат. Амалий тафаккур муайян, аниқ педагогик муаммоларни ҳал қилишга қаратилади.

Индивидуал ёндашув асосида талабалар педагогик тафаккурини ривожлантириш мантиғи ўзига хос хусусиятларга эга: у билишни фаолият билан, воқеликни амалий ўзгартириш билан боғлашга қаратилган, чунки ҳақиқий педагогик вазият ўқитувчидан ўқитиш ва тарбиялашнинг умумий масалаларига ечим топишни талаб қилади.

Индивидуал ёндашув асосида талабалар педагогик тафаккурини ривожлантириш ўқитувчи томонидан Naulearning, Moodle ва бошқа таълимни бошқариш тизимлари ёрдамида методик ёрдам билан амалга оширилиши керак. Талабанинг субъектив позициясини ҳисобга олиш учун индивидуал ёндашувни шакллантириш мақсадини белгилашда унинг иштирокини таъминлаш керак, бу эса мақсадга эришиш учун ўқитувчи ва талабани жамоага бирлаштиришга имкон беради. Шу билан бирга, ўқитувчи ва талаба ўртасидаги вазифаларни тақсимлаш ўқув жараёнидан таълимга эътиборни ўзгартиришни назарда тутаяди.

Ўқитувчи фаолиятидаги назарий ва амалий тафаккур ўртасидаги боғлиқлик нафақат мантиқда, балки ўқитувчининг педагогик интуициясида ҳам намоён бўлади, бу ўқитувчининг билим тўплаши, уни янги, қутилмаган педагогик муаммоларни ҳал қилишда қўллашга тайёрлигининг бир туридир.

**Тадқиқот натижалари ва муҳокамаси.** Педагогик вазифалар тизимни шакллантириб, тарбиявий ишнинг умумий истикболни акс эттиради, ўқитувчини ижодий фикрлашга ва бу муаммоларни ҳал қилиш йўллари излашга мажбур қилади. Педагогик қарорларни қабул қилиш жараёни ўқитувчи фаолиятида марказий ўринни эгаллайди ва кўп жиҳатдан педагогик тафаккурнинг ривожланиш даражасига боғлиқ [7].

Педагогик тафаккур ўз хусусиятига кўра уч даражага бўлинади:

1) ўқитувчи фаолиятининг умумий йўналишини ифодаловчи етакчи ғоялар даражаси; ғоялар ҳал қилиниши керак бўлган муаммоларни яратади;

2) конструктив-методик схемалар даражаси; бу ерда ўқитувчи томонидан қурилган турли хил ўқитиш усулларини конструктив схемаларда синаб кўриш бўйича илгари сурилган тахминлар амалга оширилади;

3) ҳақиқий педагогик жараёнда ишлаб чиқилган схемаларни аниқ амалга ошириш даражаси.

Барча уч даражани ўқитувчининг тафаккурини индивидуаллаштириш бирлаштиради, бу ўқитувчининг у ёки бу методик техника фойдасига фақат мантиқий далиллар эмас, балки аниқ ҳаракатлар, фаолият, муносабатларда фикр юритишида ифодаланади.

Ўқитувчининг педагогик тафаккури ҳақида гапирганда, улар фазовий-мажозий ва узлуксиз тафаккур назарда тутилади, бу эса яхлитлик, аниқлик ва сезги қобилияти билан ажралиб туради. Ўқитувчининг педагогик тафаккури катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишлашга асосланган турли муаммоларни ҳал қилишга ва педагогик жараёни лойиҳалашга, таҳлил, синтез ва умумлаштириш каби ривожланган кўникмаларга асос бўлади.

Ақлий фаолиятнинг барча турлари талабаларнинг ҳам назарий, ҳам стратегик, ҳам тактик, оператив фикрлаш қобилиятини шакллантиради. Болалар билан мулоқотда бўлган талаба кўпинча шундай вазиятга тушиб қоладики, у нафақат факт, ҳодиса, ҳодисани тушуниш ва қарор қабул қилиш, балки уларни генезиси, ҳаракати, муносабатлари, қарама-қаршиликларида баҳолаш, оқибатларини олдиндан кўра билиши керак.

Янги индивидуал ёндашувнинг моҳияти шундаки, у таълим тизимида ўқув фанидан таълим олувчига эмас, таълим олувчидан ўқув фани томонга ҳаракатланишни тақозо этади, таълим олувчиларнинг мавжуд имкониятларини инобатга олиб, уларни ривожлантириш, такомиллаштириш ва бойитишга қаратилган бўлади. Индивидуал ёндашувнинг замонавий янги талқини куйидагилардан иборат:

- ўртача таълим олувчига йўналтиришдан воз кечиш;
- шахснинг яхши хислатларини излаш;
- шахс ривожланишининг индивидуал дастурларини тузиш.

Илмий педагогик тафаккур диалектика қонуниятлари асосида фаолият юритади. У педагогик фактларни, вазиятларни, ҳодисаларни ривожлантириш, ўзи билиб ҳаракат қилиш нуқтаи назаридан кўриб чиқади, ташқи шароитлар ва болалар ҳаётидаги рағбатлантиришлари билан шартланади. Бола қандай ҳаракат қилишидан қатъи назар, унинг хатти-ҳаракати ва шахсиятини нафақат муайян яхши ёки ёмон иш ҳақиқатига асосланиб, балки унинг ички дунёси: идеаллари, мотивлари, эҳтиёжлари, қизиқишлари асосида ҳам таҳлил қилиш керак. Ушбу ёндашув, ҳаракат тасодифий ёки пайдо бўлган шахснинг характери ва моҳиятининг табиий натижаси эканлигини ишончли аниқлаш имконини беради. Бу хулқ-атворни педагогик жиҳатдан малакали таҳлил қилиш, унга оқилона баҳо бериш ва тўғри жавоб бериш имконини беради.

Индивидуал ёндашув асосида талабалар педагогик тафаккурини ривожлантириш педагогик муносабатларда ва болаларнинг хулқ-атвори ҳамда атрофдаги ижтимоий ҳаёт билан боғлиқликда ва ўзаро таъсирда ҳисобга олиниши керак. Ижтимоий муҳит ва оммавий ахборот воситалари субъектлари, қоида тариқасида, талабалар онги ва хатти-ҳаракатларини бошқаради. Талаба шахсининг характери ва йўналишини жамоавий муносабатлар, атроф-муҳит, шунингдек, унинг шахси ва индивидуаллигини ҳисобга олган ҳолда яхшироқ тушуниш мумкин.

Педагогик, шунингдек, ҳаётий ўзаро муносабатларда талабалар нафақат таълим объекти сифатида, балки ўз ҳаётини ўзига хос тарзда акс эттирувчи, англайдиган ва ўзгартирадиган ижодий ҳаракат қилувчи субъектлар сифатида ҳам ҳаракат қиладилар. Шунинг учун ўқитувчи ҳар қандай кутилмаган ҳодисаларга, талабаларнинг фикрлаш ва хатти-ҳаракатларидаги ғайриоддийликка тайёр бўлиши керак. Ҳақиқий педагогик тафаккур унга қонуниятларни енгиб ўтишга ёрдам беради, нарсаларга янги, янгирақ қарашга имкон беради, қарама-қаршиликларни таҳлил қилади ва уларни ҳал қилиш йўллари топади.

Илмий-педагогик тафаккурнинг зиддиятлари реал ва ҳаёлийдир. Педагогик воқеликнинг қарама-қаршиликларини бартараф этишга ёрдам берадиган педагогик тафаккур тарбиявий муносабатларнинг зиддиятли ҳолатини онгда адекват акс эттириш натижасида шаклланади. Масалан, когнитив ахборот ҳажмининг узлуксиз ортиб бориши ва турли ёш гуруҳлари томонидан таълим жараёнида уни ўзлаштириш қобилиятининг чекланганлиги ўртасида қарама-қаршилик мавжуд. Педагогик тафаккурда бу қарама-қаршиликнинг илмий акс этиши шакл ва усулларнинг ижодий изланишлари манбаига айланади.

**Хулоса.** Индивидуал ёндашув асосида талабалар педагогик тафаккурини ривожлантиришдаги қарама-қаршиликларнинг яна бир тури - ўқитиш ва тарбия амалиётининг ўзгарганлиги, янги ҳолатлари ва эскирган педагогик ғоялар, фикрлар ва тушунчаларнинг тўқнашувидир. Бундай

вазиятдан чиқишнинг иккита йўли бор: одатий ҳаракатлар доирасидан чиқиш ёки илғор ижодий фикрлаш ғоялари билан курулганиб, педагогик воқеликни англаш ва ўзгартириш.

Шундай қилиб, индивидуал ёндашув асосида талабалар педагогик тафаккурини ривожлантиришда диалектик мантикнинг узлуксизлик, ривожланишдаги босқичма-босқичлик, унинг узилиши ва янги сифатнинг пайдо бўлиши каби элементи муҳим рол ўйнайди. Педагогик жараёнлардаги узлуксизлик ва босқичма-босқичлик боланинг табиий ривожланишида, органик ва аклий тузилмаларнинг сифат жиҳатидан ривожланишини белгилловчи миқдорий материални тўплаш ва кўпайтиришда; билимларни тизимли равишда ўзлаштиришда, шахсий хусусият ва фазилатларни шакллантиришда; болалар таълим жамоаси ривожланишининг ижтимоий-психологик истиқболларини ўзгартириш ва мураккаблаштиришда намоён бўлади.

#### Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. 45-б.
2. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. — Т.: Янги аср авлоди, 2016
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv30-09-2020>
4. Исмагуллаева, Г. Э. Соғлом тафаккур тушунчаси ҳақида / Г. Э. Исмагуллаева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 15 (305). — С. 449-451. — УРЛ: <https://moluch.ru/archive/305/68391/> (дата обращения: 21.10.2023).
5. Рогов Е. И. Настольная книга практического психолога в образовании.
6. Кузьмина Н. В. Russian Grammar in Tables / Русская грамматика в таблицах. Флинта, Наука. 2010
7. Кулюткин Ю.Н. Эвристические методы в структуре решений. [Djv-1.7M] (Москва: Издательство «Педагогика», 1970.

**O‘ZBEKISTONDA O‘QISH VA YASHASHDA CHET ELLIK TALABALARNING  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUV SHARTLARI**

*Nazarova Manzura Mustafu qizi,*

*Buxoro davlat universiteti*

*Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada O‘zbekistonda o‘qish va yashashda chet ellik talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuv shartlari, moslashuv tushunchasining mohiyati ochib berilgan bo‘lib, ushbu tushuncha vaziyat va uning xususiyatlari o‘zgarishi bilan bog‘liq jarayon, adaptiv subyektning harakatlari moslashish uchun uning o‘zi ustida ishlashi bilan bog‘liq jarayon sifatida tushuntirilgan. Chet ellik talabalarni adaptatsiya holatiga moslashtirish, ularning yangi muhitda yashash va tahsil olish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan stresslarini yengib o‘tishga bo‘lgan ehtiyojining oshishi bilan bog‘liq psixologik xizmatlarni ko‘rsatish O‘zbekiston zamonaviy oliy ta‘limini xalqarolashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi haqida aytib o‘tilgan. O‘zbek xususiyatlarini yaxshi tushunadigan va qabul qiladigan mutaxassislar, shu bilan birga, raqobatbardosh chet ellik kadrlarni tayyorlashda psixologiyaning oldida turgan muhim vazifalar sanab o‘tilgan. Chet ellik talabalarda o‘zga yurtida tahsil olish mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil moslashuv to‘siqlari va xalqaro talabalarning O‘zbekistonda ta‘lim olish va yashash uchun moslashuvining muvaffaqiyatli rivojlanishiga qanday to‘siq bo‘lishi mumkinligi aytib o‘tiladi. Axborot aloqa buzilishlari, fiziologik to‘siqlar, siyosiy, diniy va kasbiy farqlar kabi tushunchalarning turli xil talqinlari ijtimoiy-psixologik moslashuvning asosiy to‘sig‘i sifatida keltiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** adaptatsiya, axborot aloqa buzilishlari, hissiy to‘siq, fiziologik to‘siq, psixologik to‘siq, til to‘sig‘i, diksiya, gender to‘sig‘i, adaptiv ta‘lim, inklyuziv ta‘lim.*

**УСЛОВИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ ИНОСТРАННЫХ  
СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ И ПРОЖИВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

*В данной статье раскрыты условия социально-психологической адаптации иностранных студентов при обучении и проживании в Узбекистане, сущность понятия адаптации, данное понятие объясняется как процесс, связанный с изменением ситуации и её характеристик, как процесс, посредством которого действия адаптивного субъекта работают над собой для адаптации. Было отмечено, что оказание психологических услуг иностранным студентам в связи с их повышенной потребностью в адаптации, преодолении стрессов, которые могут возникнуть в процессе жизни и учебы в новой среде, приобретает важное значение для интернационализации современного высшего образования Узбекистана. Специалисты, хорошо понимающие и принимающие узбекские особенности, при этом перечислены важнейшие задачи, стоящие перед психологией в подготовке конкурентоспособных иностранных кадров. Будет рассказано о различных адаптационных барьерах, которые могут возникнуть у иностранных студентов во время обучения в другой стране, и о том, как они могут стать препятствием для успешного развития адаптации иностранных студентов для получения образования и проживания в Узбекистане. В качестве основных препятствий социально-психологической адаптации приводятся различные интерпретации таких понятий, как информационные коммуникативные расстройства, физиологические барьеры, политические, религиозные и профессиональные различия.*

***Ключевые слова:** адаптация, информационные коммуникативные расстройства, эмоциональный барьер, физиологический барьер, психологический барьер, языковой барьер, дикция, гендерный барьер, адаптивное обучение, инклюзивное образование.*

**TERMS OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL ADAPTATION OF FOREIGN STUDENTS WHEN  
STUDYING AND LIVING IN UZBEKISTAN**

*This article reveals the conditions of socio-psychological adaptation of foreign students when studying and living in Uzbekistan, the essence of the concept of adaptation, this concept is explained as a process related to the change in the situation and its characteristics, the process by which the actions of an adaptive subject work on it for adaptation. It has been mentioned that the adaptation of foreign students to the state of adaptation, the provision of psychological services associated with an increase in their need to cope with the possible stress of living in a new environment and in the process of studying, is important in the*

*internationalization of modern Higher Education of Uzbekistan. Specialists who well understand and accept Uzbek features are listed, at the same time, the important tasks facing psychology in the training of competitive foreign personnel. Foreign students will be told about the various adaptation barriers that may arise during their studies in a foreign country and how the successful development of the adaptation of international students for education and residence in Uzbekistan can be an obstacle. Various interpretations of concepts such as Information Communication Disorders, physiological barriers, political, religious and professional differences are cited as the main barrier to socio-psychological adaptation.*

**Key words:** adaptation, information communication disorders, emotional barrier, physiological barrier, psychological barrier, language barrier, diction, gender barrier, adaptive education, inclusive education.

**Kirish.** Moslashuv – ko‘p ma‘noli tushuncha bo‘lib, bu birinchidan, vaziyat va uning xususiyatlari o‘zgarishi bilan bog‘liq jarayonni ifodalaydi. Ikkinchidan, ushbu jarayonning natijasi o‘zgargan hayot sharoitlariga moslashish bilan yakunlanmog‘i lozimdir. Uchinchidan, bu adaptiv subyektning harakatlari moslashish uchun uning o‘zi ustida ishlashi bilan bog‘liq jarayonlarni aks ettiradi. Va nihoyat, to‘rtinchidan, bu moslashuv obyekti bilan ishlashda uning atrofidagi odamlar ham muhim ahamiyat kasb etadilar. Chet ellik talabalarni adaptatsiya holatiga moslashtirish, ularning yangi muhitda yashash va tahsil olish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan stresslarini yengib o‘tishga bo‘lgan ehtiyojining oshishi bilan bog‘liq psixologik xizmatlarni ko‘rsatish bugungi kunda O‘zbekiston zamonaviy oliy ta‘limini xalqarolashtirish oldida turgan muhim, ammo hal qilinmagan masala hisoblanadi. Bugungi zamonda o‘zbek xususiyatlarini yaxshi tushunadigan va qabul qiladigan mutaxassislar, shu bilan birga, raqobatbardosh chet ellik kadrlarni tayyorlash zarurati iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun xalqaro talabalarni o‘qish va yashash sharoitlariga moslashtirish muammosini hal qilish O‘zbekistonda, nafaqat, dolzarb, balki, strategik ahamiyatga ham ega hisoblanadi. Dastlab adaptatsiya tushunchasining o‘ziga tarifi berib o‘tsak. "Adaptatsiya" so‘zi (lat. Adapto-qurilma) dastlab biologik atama sifatida paydo bo‘lgan tananing atrof-muhit sharoitlariga moslashish jarayonidir. Moslashuv jarayonlari bir qator fanlarning o‘rganish mavzusidir, jumladan, falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, tibbiyot va boshqalar, ammo umumiy qabul qilingan moslashuv tushunchasining ta‘rifi mavjud emas. Har doim inson bilan munosabatlar tizimida atrofdagi voqelikda sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi, inson muqarrar ravishda moslashishni boshdan kechiradi, bu esa uning muvaffaqiyatli davom etishining yetakchi shartidir. Bundan tashqari, shaxs va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish va tuzatish, ijtimoiy muhit, shaxsning u uchun yangi madaniyatga kirishi bu nafaqat jarayon, balki, natijadir. Shuning uchun muvaffaqiyatli moslashish imkoniyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Moslashuvning fiziologik, psixologik, ijtimoiy, madaniy singari bir necha shakllari mavjud bo‘lib, bu inson mavjudligining turli sohalariga ta‘sir qiladi. Psixologik moslashuvning asosiy ko‘rsatkichlari yetarli o‘z-o‘zini hurmat qilishning yuqori darajasi va xavotirning past darajasi, ijobiy hissiy munosabat va qoniqarli ruhiy munosabat bo‘lib hisoblanadi[1]. Xorijiy talabalarni o‘qitishda ularning shaxsiy moslashuvi yangi sharoitlarga ko‘nikish, ularning jamoadagi mavqei bilan bevosita bog‘liq, bundan tashqari, shaxsiyat, guruh va atrof-muhit bir-biriga faol ta‘sir qiladi. Chet elda o‘qish holatida moslashuv aspektlariga o‘quv jarayoniga moslashish ham qo‘shiladi. Moslashish jarayoni tezroq yoki sekinroq bo‘lishi mumkin, bu xalqaro talabalarning hayot sifatiga ham, ularning ta‘limiga ham ta‘sir qiladi. Ijtimoiy muhit qadriyatlarini, maqsadlar va faoliyat turlarini aralashtirish, mahalliy aholi bilan muloqot doirasining kamligi hamda o‘zga muhitda yuzaga kelgan muayyan muammolarni hal qilishni ortga surish kabi holatlar chet ellik talabalar adaptatsiyasini qiyinlashtiradi.

**Tadqiqot obyekti.** Chet ellik talabalarda o‘zga yurtda tahsil olish mobaynida turli xil moslashuv to‘siqlari yuzaga kelishi mumkin. Xalqaro talabalarning O‘zbekistonda ta‘lim va yashash uchun moslashuvining muvaffaqiyatli rivojlanishiga asosiy to‘siq quyidagilar bilan bog‘liq: Axborot aloqa buzilishlari-ushbu to‘siqda o‘ziga notanish bo‘lgan muhitda yashashni va o‘qishni boshlagan xorijlik talaba mahalliy tilni yetarli darajada bilmasligi, o‘zi ayni paytda bo‘lib turgan mamlakatning odatlari, ijtimoiy me‘yorlaridan xabardor emasligi ko‘p hollarda ularga turli muammolarning tug‘ilishiga olib kelishi mumkin. Fiziologik to‘siqlar- mazkur to‘siqlar chet ellik talabalarning begona mamlakatda uning oziq-ovqatlariga va suviga moslashish bilan bog‘liq holatlarda namoyon bo‘ladi. Odatda, bu to‘siqlar talabaning chet elda bo‘lishining birinchi haftalarida namoyon bo‘ladi, ammo ularning o‘tishi osonroq va tezroq amalga oshiriladi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan to‘siqlardan tashqari psixologik to‘siq ham mavjud bo‘lib, uning asosiy sababi ijtimoiy-madaniy kommunikatorlar o‘rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, diniy va kasbiy farqlardir. Ushbu yoki boshqa tushunchalarning turli xil talqinlari aloqa jarayoni bo‘lib hisoblanadi. Ko‘pincha psixologik to‘siqning sababi kommunikatorlar o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy farqlar: ijtimoiy, siyosiy, diniy va kasbiy farqlar, shuningdek, suhbatdoshning avtoritetsizligi. Psixologik to‘siqni yengishda kommunikatorning

vakolati keng rol o‘ynaydi, bunda ko‘zlar katta ahamiyatga ega. Shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlardan yana biri bu hissiy to‘siqlardir. Hissiy to‘siqlar, ko‘pincha, moslashuv jarayonining dastlabki bosqichlarda paydo bo‘ladi, chunki chet elda bo‘lishning dastlabki bosqichida har doim hali o‘ziga notanish bo‘lgan mamlakatning ortiqcha hissiy yuki bilan bog‘liq taassurotlar boshdan kechiriladi. Bunda hissiy xavotirni o‘z ichiga olgan omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Moslashuvning muvaffaqiyati guruh ichidagi jarayonlar, o‘zini va boshqalarni tushunish qobiliyatiga ko‘proq bog‘liq. Til to‘sig‘i-bu eng muhim muammo, uning yechimi moslashuvning ko‘plab jihatlari bilan bog‘liq: ham ta‘limiy, ham ijtimoiy, ham madaniy, ham psixologik. Til to‘sig‘ini muvaffaqiyatli yengish, birinchi navbatda, motivatsiyaning intensivlik darajasiga bog‘liq. Ushbu intensivlikni oshirish uchun xorijlik talabalarning tashkilotda xalqaro talabalar bilan ishlaydigan vakillari bilan hamkorlikda ish olib zarur. Chet ellik talabalarda to‘g‘ri motivatsiyani shakllantirish ular bilan psixologik yaqinlikning boshlanishiga imkon beradi. Ijtimoiy-psixologik, aloqa, didaktik, madaniy to‘siqlarni yengib o‘tib, notanish mamlakat ta‘lim tizimi va madaniyatiga adaptatsiya hosil qilishni bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur. Yetarli va muvaffaqiyatli aloqa yo‘lida ko‘p to‘siqlar mavjud: mexanik buzilish va buzilishning turli holatlaridan nozik psixologik daqiqalarga qadar ma‘lumot: (kommunikatorni hissiy rad etish). Noto‘g‘ri ma‘lumotlarning katta ehtimoli quyidagilar bilan bog‘liq:

Hissiy to‘siqlar, to‘siqlar mavjudligi haqida tushunmovchiliklar, ijtimoiy-madaniy tafovutlar va munosabatlar to‘siqlari. Muloqot ishtirokchilari turli xil tillar va lahjalardada gaplashganda nutqda tushunmovchilik paydo bo‘ladi. Diksiyada sezilarli nuqsonlar mavjud bo‘lishi mumkin. Ifodasiz, tez so‘zlash nutqqa ko‘p sonli tovush parazitlarini kiritishi mumkin[2]. Tushunishga kommunikatorning nutq uslubi, aloqa holati va kommunikatorlarning psixologik holati ham ta‘sir qiladi. Hatto bir xil madaniyat ichida ham ko‘p narsalar mavjud: mikrokulturalar, ularning har biri o‘z mikropolini yaratadi. Bunday turli madaniyatlar haqida gap ketganda, farqlar yanada aniqroq bo‘ladi. Va nihoyat, mantiqiy to‘siq mavjudligi haqida gapirish mumkin. Gapning mantig‘i suhbatdoshga juda ko‘p yoki murakkab bo‘lib tuyulsa, tushunmovchilik yoki noto‘g‘ri idrok qilish holati yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, gender to‘sig‘i ham paydo bo‘lishi mumkin. Chet ellik talabalarda turli xil to‘siqlarni yengib o‘tish jarayonida muayyan xatti-harakatlar tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu xalqaro talabalarni yangi ta‘limga ijtimoiy-psixologik, madaniy moslashtirishga ko‘maklashadi.

**Qo‘llanilgan metodlar.** Chet ellik talabalar o‘zlari uchun yangi hisoblangan muhitga, ta‘lim tizimiga o‘rganib ketishlarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun o‘qituvchilaridan har xil turdagi va darajadagi yordamni talab qiladilar. Qo‘llab-quvvatlash darajasi va chuqurligi talabalarning individual individual-tipologik xususiyatlari hamda ehtiyojlariga qarab o‘zgaradi. Shuning uchun oliy ta‘lim dargohi o‘qituvchilari o‘zlari tahsil berayotgan xorijlik talabalarning ehtiyojlarining turli darajalarini, shuningdek, ularni o‘rganish uchun har qanday to‘siqlarni tushunishlari juda muhimdir. Buni bilish o‘qituvchilarga chet ellik talabalarning o‘zlashtirish natijalarini oshirish uchun zarur bo‘lgan maqsadli yordamni taqdim etish uchun moslashuvchan o‘qitish amaliyotidan foydalanishga yordam beradi. Xo‘sh, buni qay tarzda amalga oshirish mumkin, degan haqli savol tug‘iladi. Bu jarayon adaptiv o‘qitishni takomillashtirish natijasida muvaffaqiyatli kechishi mumkin. Adaptiv o‘qitishning o‘zi nima? Adaptiv o‘qitish barcha talabalarga umidlarni qondirish imkoniyatini berishini ta‘minlash uchun o‘qitishga qilingan moslashuvlar bilan bog‘liq. Bu darsdan oldin samarali rejalashtirishning muhimligini, shuningdek, dars davomida o‘qitish va o‘rganishga kiritilgan tuzatishlarni o‘z ichiga oladi. Bu atama inklyuziv bo‘lib, guruhdagi har bir talabaning alohida ehtiyojlarini tan oladi. Adaptiv ta‘limda talabalarning qobiliyati, qiziqishi, individual xususiyatlariga ko‘ra guruhlariga bo‘lib, o‘qituvchilar har bir talaba uchun taxminiy prognozlariga ega bo‘ladilar. Samarali adaptiv o‘qitish amaliyoti doirasida barcha chet ellik talabalar vaqt o‘tishi bilan yaxshi taraqqiyotga va yaxshi yutuqlarga erishishga yordam berish uchun turli xil qo‘llab-quvvatlash qatlamlari bilan o‘qituvchi tomonidan belgilangan bir xil yuqori umidlarni boshdan kechiradilar.

Adaptiv ta‘lim berish nima uchun muhim? Adaptiv o‘qitish barcha chet ellik talabalarning eng yaxshi natijalarga erishishini ta‘minlashda juda muhimdir. Adaptiv ta‘lim berish:

❖ Har bir xorijlik talabaning mavjud turli-tuman ehtiyojlarini iloji boricha qondirgan holda yanada inklyuziv guruh maydonini rivojlantirishga yordam beradi.

❖ O‘qituvchilarga chet ellik talabalarning mavzuni tushunishlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muayyan noaniqlarni kamaytirishga, o‘z ma‘ruzalarini samarali rejalashtirishga imkon beradi.

❖ O‘qituvchilarga mavjud bo‘lgan har qanday to‘siqlarni aniqlash va rejalashtirishga yordam beradi. Masalan, ma‘lumotni talabaga yetkazib berishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy, madaniy, diniy, hissiy, aloqa chegaralarini hisobga olishda qo‘l keladi.

❖ O‘qituvchilarga barcha talabalar uchun adolatli ta’lim imkoniyatlarini taqdim etish imkonini beradi. Ayni paytda ko‘rib chiqilgan, rejalashtirilgan adaptiv o‘qitish strategiyalari natijasida moslashuvchan bo‘lish chet ellik talabalar uchun yaxshi ilmiy natijalarga erishishga yordam beradi.

❖ Hech bir xorijlik talaba adaptatsiya hosil qilishda va o‘zlashtirishda ortda qolmasligi uchun har bir talabaga muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini beradi. Bu talabalar o‘rtasida taraqqiyotga erishish va kamchiliklarni kamaytirish uchun yordam berishi mumkin.

❖ Ta’lim uchun katta hurmat va hayratni tarbiyalashga yordam beradi, talabalarni rag‘batlantirish va ularni o‘rganish bilan shug‘ullanadi..

❖ Ham o‘qituvchilarni, ham talabalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ko‘rib chiqilgan va xabardor rejalashtirish bilan o‘qituvchilar ko‘proq va aniqroq ma’lumot yetkazib berishlariga ishonadilar, chunki ularni rejalashtirish chet ellik talabalar duch kelishi mumkin bo‘lgan har qanday to‘siqlarni kutgan bo‘ladi. Bu o‘qituvchilarga dars natijalarini ko‘proq nazorat qilishga yordam beradi va bu ularga hozirgi vaqtda moslashuvchan o‘qitish strategiyalarini o‘rganish va mustahkamlash uchun erkinlik beribgina qolmay, o‘qituvchilarning uzoq muddatli kasbiy qoniqishini oshirishga yordam beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili: Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, chet ellik talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvdagi o‘qituvchining roli juda muhimdir. Bugungi kunda, universitetning madaniy-ma’rifiy maydonida talabani o‘rni haqida ikkita fikr mavjud bo‘lib, bularning birinchisiga ko‘ra talabalar universitet korporatsiyasining to‘liq a’zolari va tarafdorlaridir, ikkinchisi esa universitet talabalarni ta’lim xizmatlari mijozlari deb hisoblaydi. Shu nuqtayi nazardan, chet ellik talabalarni universitetning madaniy ta’lim makoniga ijtimoiy psixologik moslashtirish jarayoni o‘zaro faoliyatdir. Chet ellik talabalar, o‘qituvchilar va universitet ma’muriyati ijtimoiy-shaxsiy, madaniyatlararo, kommunikativ, kasbiy va akademik (o‘quv) kompetensiyalarni rivojlantirish orqali yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda o‘z madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolishga harakat qiladi [3].

Fikrimizcha, chet ellik talabalarning muvaffaqiyatli ijtimoiy-psixologik moslashuvining asosiy shartlari quyidagilaridan iborat:

❖ chet ellik talaba shaxsining individual xususiyatlarini aniqlash, shu jumladan, O‘zbekiston universitetlarida o‘quv va tarbiyaviy ishlar tashkil etish va amalga oshirish;

❖ barcha subyektlarning samarali o‘zaro ta’sirini amalga oshirish, yangilarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv jarayoni, chet ellik talabalarning muvaffaqiyatli tayyorgarligini ta’minlash uchun mo‘ljallangan vakolatlarni ishlab chiqish;

❖ shaxsni o‘qitish va rivojlantirishda talabani ijtimoiy- madaniy tajribasi fonida uning ijodiy imkoniyatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sabablarini o‘rganish.

Ijtimoiy-psixologik moslashishda muhim bo‘g‘in chet elning bir qator xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘sha yerning ijtimoiy-psixologik portretini tuzishdir. Bu orqali talaba:

- ma’lum bir ijtimoiy-demografik xususiyatga tegishli guruh (jinsi, yoshi, ota-onalarning ijtimoiy holati, joyi turar joy);

- ta’lim jarayoniga jalb qilish darajasi (afzallik, ta’limning muayyan shakllari va usullari, akademik ko‘rsatkichlar);

- qiymat yo‘nalishlari (ma’lum bir kasbni tanlash motivlari, mutaxassislikni tanlash motivlari, ta’limni tanlash motivlari, muassasalar);

- ijtimoiy farovonlik (talaba o‘zining ijtimoiy farovonligini tushunish, universitetning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi ahamiyati, ishtiroki);

- boshqa millatlar va madaniyatlarlarning vakillariga nisbatan bag‘rikenglik darajasi;

- o‘z madaniy o‘ziga xosligini anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Xulosa** o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, chet ellik talabalarning O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashuvda markaziy rol universitetda ularga yaratiladigan munosib sharoit hamda o‘qituvchilarning har bir xorijlik talabaga individual yondashgan holda ta’lim berishiga qaratiladi. Xalqaro talabalarning yangi mamlakatga, yangi o‘quv tizimiga moslashuv qiyinchiliklarini yengishga ko‘maklashishda birinchi navbatda, o‘quv kuratorlari guruhlarida uslubiy va maslahat yordamini ko‘rsatishlari kerak. Va nihoyat, mamlakatlar madaniy to‘sig‘ini yengib o‘tish, kommunikativ kompetensiya va madaniyatlararo savodxonlikni oshirishda eng samarali usul sifatida chet ellik talabalar va xodimlar uchun maxsus aloqa treninglari va individual tuzatish dasturlarini muntazam ravishda o‘tkazib borish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

#### Adabiyotlar:

1. Воронина Л.Н. “Адаптация первокурсников: проблемы и тенденции” // Университетское управление: практика и анализ”. 2001. – № 4(19).



2. Доморовская О.Г. “Социально-педагогические условия адаптации студентов мигрантов в культурно-образовательном пространстве вуза”. Автореферат – Р-н-Д, 2007.
3. Гладуш А.Д., Трофимова Г.Н., Флиппов В.М. “Социально-культурная адаптация иностранных граждан к условиям обучения и проживания в России”, учебное пособие. Москва .2008.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МОЛОДОЙ СЕМЬИ

*Кахарова Дилдора Сидиққовна,  
доцент кафедры психологии и социологии  
Бухарского государственного университета,  
директор 23-школы-интерната города Бухары,  
dildora.kaharova@mail.ru*

*Мақолада мактабгача таълим соҳаси узлуксиз таълим тизимининг бирламчи бўғини ҳисобланиб, ҳар томонлама соғлом ва баркамол бола шахсини тарбиялаш ва мактабга тайёрлашда гоёят муҳим ўрин эгаллаши тўғрисида фикр юритилган.*

**Калит сўзлар:** инклюзив таълим, интеграциялашган таълим, алоҳида эътиборга муҳтож болалар, тенг ҳуқуқ, кўникма, таълим-тарбия, алоҳида ёндашув.

## ЁШ ОИЛАНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

*В статье утверждается, что область дошкольного образования является основным звеном в системе непрерывного образования и играет жизненно важную роль в воспитании и подготовке к школе всесторонне здорового и гармоничного ребёнка.*

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, интегрированное образование, дети с особыми потребностями, равные права, навыки, образование, особый подход.

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SOCIAL PROTECTION OF YOUNG FAMILY

*The article states that the field of preschool education is the main link in the system of continuing education and plays a vital role in the upbringing and preparation for school of a comprehensively healthy and harmonious child.*

**Keywords:** inclusive education, integrated education, children with special needs, equal rights, skills, education, special approach.

**Введение.** Приходя мир, ребёнок получает воспитание и воспитание формирующие и развивающие навыка приспособляющиеся их во время лицом к лицу со сложными законами общества, начиная с самостоятельных шагов, писать и читать. Известно, что семейная жизнь, вбирая в себя больше половины жизни, может принести настоящее, полноценное счастье, но и, наоборот, несмотря на всестороннюю обеспеченность всем необходимым, счастье может быть не лишено недостатков. Семья является начальной ячейкой любого общества. Если семья является надёжной, спокойной, честной, то и общество тоже будет спокойным, надёжным и ровным. Если обращаться к высказываниям мудрецов и мыслителей прошлого по этому значению семьи, то мы можем выделить ряд мыслей высказанных о роли мужчины и женщины в появлении семьи. В рубаи (стихах) поэта философа Омара Хайама показано какое большое значение имеет для создание счастливой семьи придаётся такими чувствам в отношении между молодыми людьми как дружба, доброта, нежность, внимание. С давних времён каждое общество обращало большое внимание вопросу семьи и проводила необходимы меры и мероприятия для возможности счастливой жизни семьи. Быть счастливым, в первую очередь, это быть достойным счастья. Что посеешь, то и пожнёшь. Если мы будем хорошими, то и окружающие нас люди будут к нам относиться хорошо. Для того, чтобы быть счастливым, надо совершать только хорошие поступки. Не надо избегать действия совершать хорошие поступки. Аристотель пишет «Идеальный человек, совершая хорошие поступки, радуется, если ему делают хорошо, то стесняется». Не надо забывать, что счастье улыбается не тому кто ждёт счастья, а тому кто слыша за свои действия спасибо, чувствует себя стесненным. Построение счастливой семьи в большой степей чем рождение и воспитании в богатой, в материальном плане, семье, зависит от взрослении и воспитание супругов в счастливых семьях. Выбор жизненного партнера должен совершаться разумно и открыто, принимал во внимание все особенности. По мнению психологов молодые, стремящиеся к совместной жизни, должны узнать все интересы своих

партнеров, и должны иметь совместные интересы [1]: Должны быть общие черты в воспитавших их семьях, в среде, в их воспитании и образовании.

Потому что различные мысли, считающиеся незначительными, после заключения брака могут не исчезнуть. Это может привести к потере спокойствия в семейной жизни, из-за неуместная приспособляемость к друг другу. Как и нелюбящий человек не может дарить любовь, так и человек не живущий в благо состоятельной, спокойной семье не может создать такую семью. Как и цветок нуждается после посадки в уходе, так и семейная жизнь требует к себе внимания. Люди должны предпринимать необходимые мероприятия для превращения своей семейной жизни более привлекательной, красивой.

**Основная часть.** Первоначальные годы семейной жизни протекают значительно «тонко». Потому что объединяются два человека, выросшие в разных семьях, имевших разные интересы, разные обычаи, разную среду. Поэтому первоначальные годы считаются периодом изучения и приспособления друг друга. Большое количество разводов в основном приходится именно к периоду изучения и сближения (приспособления) друг к другу. По мере прохождения нескольких лет изучения и приспособления количество разводов резко сокращается. Поэтому надо обратить особое внимание на первоначальные годы семейной жизни. Поэтому умудренные опытом, умные пожилые члены семьи должны стать мостом между молодыми в семейной жизни, должны контролировать их, материально и морально поддерживать их. Многогранный жизненный путь старших поколений должны служить для молодого поколения своеобразным уроком. Они должны воспринимать молодых в качестве самостоятельных, полноценных личностей, и должны передать им полную информацию о семейной жизни. Так чтобы первые кирпичи, в построение семейной жизни молодых, поставленные на фундамент были поставлены правильно и надёжно. На этом месте можно привести одну притчу... «Однажды теща приходит к недавно заключившим брак молодым, чтобы провести зятя и свою дочь. Вечером зять приходит домой с подарками для жены в руках. Он показывает каждый подарок в отдельности и рассказывает как их приобрёл. Жена равнодушно говорит, что ничего не поняла. У парня зануло в сердце. Сдвинув брови, он медленно начал обижаться. В это время приветливая, умудрённая опытом и жизненной школой умная теща говорит дочери «Моя баловница не понимающая своей цены дочь» Как можно равнодушно относиться к подаркам мужа? Где ты научилась этому? Когда-нибудь ты увидела, что я равнодушно относилась к подаркам твоего отца? Если я также как и ты равнодушно приняла бы подарки, он меня наказал бы, выгнав из дома. Мой приветливый, терпеливый зять, сынок Вы оказались очень терпеливым? Так сказав, теща наставила свою дочь на правильный путь. После этого молодая невестка перестала равнодушно принимать вещи, приносимые мужем. Парень избавился от холодного отношения молодой жены, её неприветливой картины [2]. Нельзя забывать, что фактором счастья являются спокойствие и благосостояние совместной семейной жизни. Ещё одним фактором оказывающим решающее влияние на надёжность семьи являются представления молодых о совместной жизни. Их близость повседневной действительностью является залогом надёжности их семейной жизни. Но представления многих современных молодых о семейной жизни не совпадает с реалиями сегодняшнего дня.

Одна из индийских легенд, как нельзя лучше отображает отношение таких молодых людей к семейной жизни. В притче говорится, что четверым слепым людям сказали «Перед Вами стоит слон Вы его никогда не видели, но Вы можете изучить его, потрогав. Когда изучите, ответьте, какое это животное»? Слепые, возвратившись после «изучения слона» начали отвечать на вопрос «Какое это животное?» Первый сказал «Слон похож на дерево, его тело грубое». Второй, отрицая первого, сказал «Нет, слон твёрд как земля, круглый и его человек не может охватить руками». Третий, отрицал, сказал «Слон животное похоже на длинную, толстую, внутри с дырочками кишку. Четвёртый сказал «Слон, это животное, похожее на раскинувшейся большой лист». Каждый из них настаивал на своём представлении слона, и поэтому между ними возник скандал. Каждый из них считал себя правым. Потому что первый тронул ногу слона, второй живот, третий хобот, а четвёртый ухо слона. Таким образом, каждый из слепых имел представление о слоне, исходя из своих возможностей.

Точно также многие молодые не имеют перед свадьбой полноценного, единого представления семейной жизни на это у них нет возможности. В результате имел различные представления о реалиях совместной семейной жизни, каждый из молодых старается склонить своего партнера к своему представлению. И они также как и слепые, считая себя, «правыми» начинают скандалить и не могут прийти к согласию.

В настоящее время существует несколько классификаций типов современных семей. С точки зрения социологии, исторически сложились следующие формы семейных отношений: 16 Традиционная семья. Для семьи такого типа характерно следующее распределение домашних обязанностей: мужчина, являющийся главой семьи, занимается материальным обеспечением собственной семьи, женщина выполняет все бытовые обязательства и зависит от своего мужа. Кроме этого, при данной форме семейных отношений семья чаще всего является расширенной, то есть на одной территории проживают не только молодожены, но и их родители и иные родственники. Следующей формой семейных отношений, выделяемой исследователями, можно назвать нетрадиционную семью. Данный тип семейного уклада исторически сложился во время перехода от аграрного общества к индустриальному, что способствовало более обширному привлечению женщин к общественному труду и выполнению производственных заданий женщинами наравне с мужчинами. Однако, при этом типе семейных отношений, помимо общественного труда, женщины должны выполнять и бытовые обязанности, вести домашнее хозяйство, заниматься воспитанием детей, поэтому данную форму семейных отношений в истории также называют эксплуататорской.

Эгалитарная семья, или семья равных. При этой форме семейных отношений мужчина и женщина выполняют равное количество домашних обязательств, в равной степени участвуют в общественной жизни. Для семьи такого типа в большей степени характерны проявления любви, дружбы, уважения по отношению друг к другу, способности и стремлению брать на себя ответственность за благополучие своей семьи, эмоциональная насыщенность. Существуют и другие классификации брачно – семейных отношений, так, по выделению функции, играющей главную роль в семейной деятельности, выделяют следующие исторически сложившиеся типы семей:

Патриархальная семья. Главная цель семьи такого типа – эффективное ведение совместного хозяйства и достижение экономического благополучия. Детоцентристская семья. Главная цель семьи такого типа – рождение и воспитание детей, а также их дальнейшая социализация.

Супружеская семья. Главная цель семьи такого типа – удовлетворение собственных желаний и потребностей. Часто это бездетные семьи, стремящиеся к взаимному эмоциональному удовлетворению. На современном этапе развития брачно – семейных отношений в зависимости от состава семьи, выделяются следующие виды: Нуклеарная семья. В её состав входят родители и дети, совместно проживающие на одной территории.

Расширенная семья. В её состав входят молодая семья, их дети, родители и иные родственники, совместно проживающие на одной территории. Неполная семья. В её состав входит ребенок и один из родителей, совместно проживающие на одной территории. В зависимости от жизненного цикла выделяются следующие виды семей:

1. Молодая семья, не имеющая детей.
2. Молодая семья с младенцем
3. Семья, воспитывающая ребенка школьного возраста
4. Семья, воспитывающая ребёнка подросткового возраста
5. Семья зрелого возраста, стадия «опустевшего гнезда», дети покидают родительскую семью
6. Стареющая семья
7. Семья после смерти одного из супругов

По форме брака выделяются следующие типы семей: Моногамная семья, состоящая из пары, образованной мужчиной и женщиной.

Полигамная семья. Подразделяется на полигинию (в структуре семьи находится один мужчина и несколько женщин) и полиандрию (в структуре семьи находится одна женщина и несколько мужчин). В зависимости от пола супругов семьи подразделяются на: Разнополая семья (браки заключены между мужчиной и женщиной)

Однополая семья (браки заключены между представителями одного пола, между парой мужчин или парой женщин) В зависимости от количества детей семьи подразделяются на следующие виды: Бездетная семья (семья без детей).

Однодетная семья (семья, воспитывающая одного ребенка)

Малодетная семья (семья, воспитывающая двух детей)

Среднедетная семья (семья, воспитывающая трех – четырех детей).

Многодетная семья (семья, воспитывающая пятерых и более детей). Согласно классификации, в основе которой лежит тип отношений, складывающихся между супругами, исследователями выделяются следующие три типа брачно – семейных отношений: Диктаторская семья. Данный тип характеризуется тем, что все значимые решения для семьи принимаются исключительно одним из

супругов, второй из пары может нести ответственность за решение менее значимых, второстепенных проблем и вопросов.

Демократическая семья. Данный тип брачно – семейных отношений наиболее характерен для молодой семьи. Отличительной чертой выделенного типа можно считать неустойчивость в связи со стремлением супругов к обоюдному принятию решений, нахождению компромиссов в сложных ситуациях. При этом часто один из супругов думает, что вкладывает в отношения больше, чем получает в ответ.

Автономная семья. Данный тип характеризуется четким разграничением сферы влияния, муж несет ответственность за решения одних задач, жена отвечает за выполнение других задач. Психологами выделяются основные отличительные черты, характерные для семей на современном этапе развития:

- Стремление молодожёнов жить на собственной территории, вести хозяйство отдельно от родителей.

- Стремление современной семьи к экономической независимости, самостоятельному обеспечению собственной семьи.

- Стремление к разностороннему развитию и саморазвитию, участию в общественной жизни, самореализации.

- Равное распределение бытовых обязанностей между мужчиной и женщиной

- На сегодняшний день возраст мужчин и женщин, вступающих в брак несколько выше относительно показателей прошлых десятилетий, что объясняется нежеланием современных молодых людей к раннему созданию семьи, вступлению в брак.

- Стремление современной семьи обрести экономическую независимость и стабильность, обеспечить семью всем необходимым, а также иметь достаточно средств для обеспечения будущего ребенка перед планированием и рождением детей. При этом у большего количества современных семей не более одного – двух детей.

**Заключение.** Самой важной чертой семьи является свойства воспитания в жизни воспитуемого. Если семья является дружной, может решать сплочённо совместно свои проблемы и умеет защищать себя от различных взглядов общества то она является совершенным воспитательным центром для воспитуемого подрастающего поколения семьи.

#### Литература:

- 1.Каримова В.М. Оилавий ҳаёт психологияси. Т.-2006.-143б.
- 2.“Оила психологияси” ўқув қўлланма.-Тошкент.-2008.- 140 б.
- 3.Алимов У. Оилада фарзанд тарбияси. –Т: Мовароуннахр, 2011. –78
- 4.Выготский С. Л. Собрание сочинений. В 6 томах. Т. 2. – М.: Педагогика, 19 5.Раджапова А. Р. Педагогик мулоқотни оптималлаштиришнинг коммуникатив усуллари. //Халқ таълими. – 2011 №6. – 104-бет.
- 6.Дьюи Дж. От ребенка – к миру, от мира – к ребенку. – М.: Карапуз, 2009. –С. 122.;
7. Жўраев Т. С. Ўсмир ўқувчилар аклий ривожланишининг психологик хусусиятлари: Псих. фан. номзоди ...дисс. – Т., 2005. – С. 139.
8. Каждаспаров Г. М., Каждаспаров А. Г. Педагогический словарь. – М.: Просвещение, 1998. – С. 49.
9. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – М.: АСТ, 2005. – С. 684.с.
- 10.Дивицина Н.Ф. Семейведение: учеб. пособие. — М.: Изд-во ВЛАДО.9-10 (55), 2015 г.

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MA‘NAVYI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O‘QUV TARBIYA JARAYONIGA AKSIOLOGIK VA DEONTOLOGIK YONDASHUVLARNING IMKONIYATLARI**

*Mamajonov O‘kirbek Tajiddinovich,  
Andijon davlat universiteti*

*Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning ma‘naviy kompetentligini rivojlantirishda o‘quv tarbiya jarayoniga aksiologik va deontologik yondashuvlarning imkoniyatlari, “tarbiya”, “qadriyat”, “ma‘naviyat”, “aksiologiya”, “deontologiya” kabi pedagogik atamalarning mazmun mohiyati, ularning o‘zaro integratsiyasi va aloqadorligi ta‘lim-tarbiya samaradorligini ta‘minlovchi omil ekanligi, oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma‘naviy kompetentligini rivojlantirishda tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitishning aksiologik va deontologik imkoniyatlari haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** ma‘naviy kompetentlik, aksiologiya, deontologiya, qadriyat, ma‘naviyat, aksiologiya, deontologiya, integratsiyasi.*

**ВОЗМОЖНОСТИ АКSIОЛОГИЧЕСКОГО И ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДОВ К УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОМУ ПРОЦЕССУ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

*В статье рассматриваются возможности аксиологического и деонтологического подходов к учебно-воспитательному процессу в развитии духовной компетентности будущих педагогов, сущность содержания таких педагогических терминов, как “воспитание”, “ценность”, “духовность”, “аксиология”, “деонтология”, их интеграция и взаимосвязь являются факторами, обеспечивающими эффективность обучения и воспитания, развитие духовной компетентности будущих педагогов в системе высшего образования, рассматриваются аксиологические и деонтологические возможности преподавания предмета, методика воспитательной работы.*

***Ключевые слова:** духовная компетентность, аксиология, деонтология, ценность, духовность, аксиология, деонтология, интеграция.*

**POSSIBILITIES OF AXIOLOGICAL AND DEONTOLOGICAL APPROACHES TO THE EDUCATION PROCESS IN DEVELOPING THE SPIRITUAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS**

*The article considers the possibilities of axiological and deontological approaches to the educational process in the development of spiritual competence of future teachers, the essence of the content of such pedagogical terms as "education", "value", "spirituality", "axiology", "deontology", their integration and interrelation are factors that ensure the effectiveness of education and training, the development of spiritual competence of future teachers in the system of higher education, the axiological and deontological possibilities are considered.*

***Keywords:** spiritual competence, axiology, deontology, value, spirituality, Axiology, deontology, integration.*

**Kirish.** Globallashuv jarayonlari tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan sharoitda xalqaro hamjamiyatni yurtimizda barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni, inson huquqlari, ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya sohalarida erishilayotgan natijalar, mintaqaviy, ham global ahamiyatga ega bir qator belgilangan vazifalarni uzluksiz davom ettirishda yoshlarga berilayotgan ishonch va imkoniyatlar benihoya kattadir.

**Adabiyotlar sharhi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi ikki milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o‘ringa ega bo‘layotgani va yoshlar omilining alohida e‘tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimizning ushbu anjumanda ta‘kidlaganidek, «...diyormiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, islomni ilm-ma‘rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari ulug‘ alloma va mutafakkirlar vatani ekani bilan haqli ravishda faxrlanamiz, shu bilan birga zamonaviylashuv jarayonlarida inson kapitalini rivojlantirish va

har tomonlama iqtidorli bo‘lgan salohiyatli kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biridir. Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo‘lmish Yangi O‘zbekistonni barpo etish siyosatini qat’iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz «Inson qadri va manfaatlar uchun» degan ezgu g‘oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgari bormoqda.[1]

“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq... Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”, degan xulosasi esa BMTga a‘zo barcha mamlakatlar vakillarining diqqatini o‘ziga qaratgani bejiz emas. [2]

Ushbu davlat ahamiyatiga molik belgilangan vazifalar ijrosini sifatli ta‘minlash uzluksiz ta‘lim-tarbiya tizimi sohasi zimmasiga katta ma‘suliyat yuklaydi. Ya‘ni, yetuk, salohiyati, kompetentli kadrlar tayyorlash, o‘z kelayotgan yosh avlodga har tomonlama halqaro talablarga javob bera oladigan darajada ta‘lim-tarbiya berish, ularning bugungi kunda ehtiyojlarga asoslangan yo‘nalishlar bo‘yicha zaruriy bilimlarga ega bo‘lishlarini ta‘minlash, milliylik va o‘zlikni anglagan holda, buyuk ajdodlar merosiga asoslangan, dunyoviy va diniy dunyoqarashni o‘zida aks ettirgan ijtimoiy demokratik jamiyatning ongli fuqarosi bo‘lib ulg‘ayishlarini kafolatlash bugung kunning asosiy masalasidir.

#### **Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.**

Yuqoridagi dolzarblilikni e‘tiborga olgan holda biz avvalo “tarbiya”, “qadriyat”, “ma‘naviyat”, “aksiologiya”, “deontologiya” kabi pedagogik atamalarining mazmun mohiyatini ochib berishga so‘ng esa, oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma‘naviy kompetentligini rivojlantirishda tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitishning aksiologik va deontologik imkoniyatlarini yoritib berishni lozim topdik. Zero, ushbu tushunchalar shaxs ma‘naviyatini uyg‘unlashtirgan holda rivojlantirilishini ta‘minlaydigan mezonlar hisoblanadi.

**Tarbiya** - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo‘lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chora - tadbirlar yigindisidir. Tarbiya insonning insonligini ta‘minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanib, odam va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasiga o‘ziga xos ta‘rif berilgan bo‘lib, tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy hayotida faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan barcha ta‘sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi.

Ma‘lumki, tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, yosh avlodning o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma‘naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma‘naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma‘naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda milliy ta‘lim tizimimizda tarbiya va unga bog‘liq jarayonlarga yangicha sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuvlarga asoslangan holda tarbiyaning milliylikiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunda ajdodlar merosidan samarali foydalanish, xalq pedagogikasi boyliklari, o‘zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini sinchikovlik bilan o‘rganish natijasida O‘zbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o‘ziga xos o‘rni borligi tan olinib boshlandi. Shaxs ma‘naviyatining asosiy omili bo‘lgan tarbiyaga zamonaviy tarzda e‘tibor qaratib, tarbiyaning ijtimoiylashuvi uchun imkoniyat yaratildi.

***Pedagogik faoliyatlar jarayonida “tarbiya” tushunchasi o‘z navbatida “qadriyat” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq ravishda qo‘llaniladi.***

**Qadriyat** - voqelikdagi muayyan hodisalarning umum insoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma‘naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha sifatida inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, mas, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma‘rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma‘naviy boyliklar, an‘ana, urf-odatlarining o‘zaro uyg‘unlikdagi tushunchasi hisoblanib, u aksiologiyaga xos kategoriyadir. Tadqiqot ishimizda muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma‘naviyati, urf-odat va an‘analari, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan milliy hamda inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e‘tiqodi, umr ma‘nosi, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq shaxsiy qadriyatlar asosida komil inson tarbiyasi va uning ma‘naviy kompetentligi tarkib toptirilishiga alohida e‘tibor qaratamiz.

**Ma‘naviyat** - inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, u kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma‘lumki, insonning tashqi va ichki

olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘ybasti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati kirsa, ichki olamiga uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini kiradi. Insonning ana shu ichki olami uning ma’naviyatir, qaysikim, unga ruhiy oziq va kudrat bag‘ishlaydi. Ma’naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Ma’naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste’dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g‘ururi, obro‘-e’tibori hisoblanadi. Ma’naviyatli jamiyatda aql, sog‘lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo‘ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi. Millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy madaniy rivojlanishi -insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrati hisoblanadi.

Yuqoridagi tushunchalar pedagogik jarayonlarning natijadorligini ta’minlovchi mezonlar hisoblanib, ta’lim-tarbiya jarayonida aksiologik hamda deontologik yondashuvlarga asoslangan holda qo‘llaniladi.

**Aksiologiya** – qadriyatlar haqidagi fan bo‘lib, olam va insonga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish yo‘llarini o‘rganadi. Aksiologiya bu – shaxs, jamoa, jamiyatning moddiy, madaniy, ma’naviy, axlokiy va psixologik kadriyatlarini, ularning voqeiliklar olami bilan aloqasi, kadriyatlar va me’yoriy tizimdagi uzgarishlar xakidagi falsafiy ta’limot, tarixiy rivojlanish jarayonidir.[3] Pedagogika ta’lim yo‘nalishi fanlarida qadriyatlarni ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq etuvchi alohida fan sohasi – pedagogik aksiologiya mavjud bo‘lib, so‘nggi yillarda mazkur yo‘nalishda alohida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**Deontologiya** – deontos – “shart”, “burch”, logos – “ta’limot”, degan ma’noni anglatib, ingliz faylasufi Dj.Bentam mazkur tushunchani ilmiy jihatdan asoslagan.[4] Uning “Deontology of science of morally” asarida deontologiya ya’ni, inson axloqi, etikasi haqidagi ilmiy fikrlar bayon qilingan. [5] Dj.Bentam tomonidan tavsiya qilingan “deontologiya” fanidagi g‘oyalar nemis faylasufi I.Kant tomonidan rivojlantirildi, u deontologiyani “etika bu burch, majburiyat etikasidir” deb ta’riflagan.

Zamonaviy ta’lim jarayonlarida “deontologiya” inson tomonidan talab darajasida xulq normalarini va qoidalarini o‘rgatuvchi fan sifatida qullanilib, kasbiy etikada keng qo‘llanilib har bir kasb doirasida kasbning odob, xulq, qonunchilik, sud, pedagog, quruvchi, hamda davlat boshqaruvi tizimida burch, odob-axloq normalarini ifodalaydi.

Pedagogik odobni, burchni egallashda, guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Bunday muhitda o‘zaro fikr almashish shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirayotgan qarashlar bilan taqqoslash ularning to‘g‘riligi, haqqoniylikiga ishonch hosil qilish mavjud bilimlarni yanada boyitishga imkoniyat yaratadi. Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda odob, axloq, burch va majburiyatlarni yuqori darajada his etish va unga amal qilish haqida sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, zamonaviy pedagog olimlarimizdan M.Ochilov, X.Ibragimov, D.Ro‘ziyeva, B.Xodjayev, O.Musurmonovalar o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar xususidagi fikrlarini bayon qilganlar. “Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan shaxs ta’lim-tarbiya samaradorligini va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi”, deb ta’kidlaydi O.Musurmonova o‘zining pedagogik mulohazalarida.[6]

Pedagogik ta’limni rivojlantirishning zamonaviy bosqichida ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘nalganlik, insonni jamiyatda oliy qadriyat sifatida e’tirof etish ijtimoiy sohaning eng muhim va keng ko‘lamli yo‘nalishlaridan biridir. Ta’limni insonparvarlashtirish g‘oyasi pedagogikada aksiologik yondashuvning keng tatbiq etilishi natijasidir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan umumiy aksiologiyaning kategorial apparati pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi, uning ijtimoiy roli va shaxsni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladigan pedagogik aksiologiyaga e’tibor qaratishga imkon beradi. B.X.Xodjayev ta’kidlab o‘tganidek, pedagogik aksiologiya ta’limiy qadriyatlar (ularning tabiat va aloqadorligi) haqidagi fan sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

mazmun-mohiyat bilan aloqador (ta’lim mazmuni va tashkiliy jihatlarini birlashtirganligi sababli, intellektual tashabbusni rag‘batlantiradi) – fikriy jarayon, obyektini aktuallashtirish, aniq dalil va isbotlarni belgilash, axborotni tanqidiy mushohada etish, ma’no- mazmunini tushunish, shaxsiy fikrning o‘sishi;

baholovchi – pedagogik jarayon ishtirokchilarida borliq va ma’naviy hodisalarni adekvat baholashni rivojlantirishni aks etiradi;

yo‘naltirish funksiyasi – “qadriyatlar iyerarxiyasi”ning ma’lum parametrlari asosida shaxsiy, kasbiy tavsifning muhim qoidalarini aniqlash imkoniyatlari bilan bog‘liq;

me’yoriy (normativ) – pedagog va tarbiyachining aksiosferasining tarkibiy qismlari, o‘zida qadriyat tarzini aks ettiruvchi ularning o‘zaro munosabatlari tizimini “qonuniylashtiradi”;

boshqaruvga doir – insonparvar mazmunga ega milliy va umuminsoniy qadriyatlar oqimidagi tizim



subyektlari, ta’lim tizimi rivojlanishini yo‘naltiradi, ta’lim sohasidagi o‘zaro zaruriy harakatni hosil qiladi; nazorat – madaniy-tarixiylik kontekstida qadriyatning rivoji, shaxsda qadriyatga yo‘nalganlikni shakllantirish imkonini beradi.[7]

Ta’limga aksiologik yondashuvning turli talqinlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, pedagogik-psixologik fanlarning aksiologik salohiyati talabalarning real hayotiy faoliyatining xulqiy me’yorlarini shakllanishidagi imkoniyatlari (zahiralari) majmui sifatida namoyon bo‘ladi.

**Xulosa va munozara.** Oliy ta’lim jarayonlarida bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik-psixologik ta’limni takomillashtirishga doir turli yondashuvlarini o‘rganib shunday xulosaga keldikki, bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy kompetentligini rivojlantirish umumiy va maxsus (o‘quv - analitik, qadriyatga yo‘nalganlik va refleksiv-faoliyatli) pedagogik- psixologik fanlarning ommalashuvi, talabalar o‘quv faoliyati usullarining faollashuvi va o‘qituvchining boshqaruv faoliyati takomillashuvi hisobiga amalga oshadi. Shu bilan birga, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining ushbu salohiyati yuqorida sanab o‘tilgan komponentlar birligini ko‘zda tutuvchi tizim sifatidagina samarali tatbiq etilishini taqazo etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari mazkur fanning aksiologik salohiyatini ro‘yobga chiqarishning o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi uch yo‘nalishini ajratib ko‘rsatishga asoslandi.

birinchi yo‘nalish – tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining aksiologik asoslarini keng ommalashtirish;

ikkinchi yo‘nalish – bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv faoliyatini ma’naviy-axloqiy tavsifdagi ma’lumotlar bilan boyitish;

uchinchi yo‘nalish – avvalgi ikki bosqichni tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishdan iborat ekanligi aniqlandi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi", 2023-yil 20-sentabr.

2. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi", 2017-yil 20-sentabr.

3. Каджаспирова Г.М. “Педагогик луғат” (М.2000)

4. Bentham J. Deontology // Bentham J. Deontology together with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983, p. 121.

5. Bentham J. Deontology // Bentham J. Deontology together with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983, p. 124

6. О.Мусурмонова. Умумий педагогика. Тошкент. “Ўзкитоб савдо нашриёти”, 2020, 61-бет.

7. Ходжаев Б. Педагогик аксиология. Ўқув қўлланма. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2012. – 165 б

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM

### MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

*Bekchanova Feruza Marimboy qizi,  
Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
“Maktabgacha ta’lim metodika” kafedrasida o‘qituvchisi  
feruzamarimboyevna@gmail.com*

*Hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri ekologiya hisoblanadi. Ekologik muammolarning sabablari turlicha bo‘lib, ularning eng ahamiyatlisi ekologik madaniyatning yaxshi shakllanmaganligidir. Ushbu maqolada ekologik madaniyat dastlab maktabgacha yoshdagi bolalarda olib borilishi haqida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda ekologik muammolar tobora oshib bormoqda. Demak insoniyat oldidagi muhim vazifalardan biri ana shu muammolarni bartaraf qilish va kelgusida kutilayotgan muammolarning oldini olishdir. Bolalar misli ochilmagan hazinadir. Ularda yoshligidan ekologiya haqidagi tushunchalarni shakllantirish, ularning ekologiya haqidagi tasavvurlarini boyitib borish lozimdir. Mazkur maqolada ekologik madaniyatning shakl va usullari ko‘rsatilib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik ong, tabiat, ekologik mas’uliyat, ekologik tarbiya omillari, atrof-muhit, maktabgacha ta’lim tashkiloti .*

### ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

*Одним из самых актуальных вопросов сегодняшнего дня является экология. Причины экологических проблем различны, наиболее значимыми из них являются недостаточное формирование экологической культуры. В этой статье говорится о том, что экологическая культура изначально формируется у детей дошкольного возраста. В настоящее время состояние экологии всё более ухудшается. Поэтому одной из важных задач, стоящих перед человечеством, является устранение этих проблем и предотвращение предстоящих проблем. Дети - это неизведанное сокровище. У них с малых лет необходимо формировать и обогащать представления об экологии. В данной статье отражены формы и методы экологической культуры.*

***Ключевые слова:** экология, экологическая культура, экологическое сознание, природа, экологическая ответственность, факторы экологического воспитания, окружающая среда, организация дошкольного образования.*

### FORMATION OF ENVIRONMENTAL CULTURE OF PRESCHOOL CHILDREN

*Ecology is one of the most urgent issues of today. There are various reasons for environmental problems, the most important of which is the lack of a well-formed environmental culture. In this article, it is said that ecological culture is initially carried out in preschool children. Today, environmental problems are increasing more and more. Therefore, one of the important tasks before humanity is to eliminate these problems and prevent future problems. Children are treasures to be discovered. It is necessary to form concepts about ecology in them from a young age, to enrich their ideas about ecology. This article shows the forms and methods of ecological culture.*

***Key words:** ecology, ecological culture, ecological consciousness, nature, ecological responsibility, factors of ecological education, environment, preschool education organization.*

***Kirish.** Bugungi kunga kelib insonlar ekologik madaniyatga rioya qilmaganliklari sababli, insonlar va tabiat o‘rtasidagi xilma-xil muammoli vaziyatlar hali hanuzgacha davom etmoqda. Ekologik madaniyat bu - insonlarning yetakchi umuminsoniy qadriyatlarining asosidir. Uning mohiyati shundaki, ekologik inqirozga olib keladigan salbiy muammolarni ijobiy faoliyatga aylantirish maboynida ekologik madaniyatni bilish, uni ongli ravishda anglash muhim sanaladi. Lekin jamiyatdagi insonlar ekologik madaniyatga ongli ravishda amal qilmaslik holatlari kuzatilmoqda. Shu sababli bu kabi xilma-xil muammolar hali hanuzgacha o‘z yechimini topolmay davom qilib kelmoqda. Shu kabi muhim jihatlardan biri, bu munosabatlardagi*

muammo biz uchun yangi emas, u doimo mavjud bo‘lgan. Biroq hozirgi davrda bu kabi o‘zaro ta’sirlar, inson jamiyatning atrof-muhit bilan o‘zaro keskin ta’sirining ekologik muammosi eng dolzarb masalalardan biridir.

Jamiyatda inson va tabiatning o‘zaro ta’siri ekologik madaniyatni bilish va uning qonun-qoidalariga rioya qilishni talab etadi. Bugungi kunga kelib ekologik madaniyatni ongli va maqsadli rivojlantirish taqozo etilib kelinmoqda. Bu butun ta’lim jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygan holda, unda ekologik ta’limning rolini oshirmasdan qolishi mumkin emas. Chunki ekologik madaniyat tarbiyalashning asosi bo‘lib xizmat qiladi deya qo‘rqmasdan ta’kidlay olamiz. V.A.Suxamlinskiy aytganidek: “tabiatni inson tushungandagina tabiat uning tarbiya manbasi bo‘lib qoladi”[1]. Ushbu olimning fikri ham ta’kidlaydiki bolalarga ilk yoshdan boshlab tabiat haqida tushuncha paydo qilish, uni asrab-avaylashni o‘rgatish, ekologik madaniyatni bolalarga singdirishimiz zarur. Inson tabiatga o‘zini, o‘rab turgan muhitga nisbatan bo‘lgan o‘z munosabatini o‘zgartirishi, tabiat qonunlarini bilishi, o‘rganishi va ularning asosida o‘z hayotini rivojlantirishi shart, shu sababdan tabiat qonunlariga mos keladigan hayot yo‘llari ishlab chiqilishi kerak. Bu chora tadbirlar ishlab chiqilmagan holda hayot davom etsa inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi. Ekologik ta’lim asosida shakllanuvchi ekologik madaniyat dunyoni yaxlit tushunishni, biosferaning noyob xususiyatlarini, undagi odamning hukmron mavqeini bilishga asoslangan turli xil inson faoliyati sintezini aks ettiradi. Shuningdek, Ekologik ta’lim va tarbiya - bu insonni tabiatga qadam qo‘ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e’tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boylklarni ko‘paytirish, bog‘-u-rog‘lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg‘otishdan iboratdir[2]

Zardushtiylik dinining asosiy manbasi hisoblangan “Avesto”da yer, suv, havoni bulg‘ash, ifloslantirish og‘ir gunoh sanalgan. Bunday ibratli tasdiqlash bugungi avlodlarni ham tabiatga, atrof-muhitga aslo yaxshiyona munosabatda bo‘lmaslikka chorlaydi [3].Shunidek zardushtiylik dini ham insonlarga tabiatni asrab-avaylash suvni isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, suv ariqlarini toza saqlash va ularga turli xil axlat va shu kabi narsalarni tashlamaslikka da’vat etgan. Bu kabi bizga tarixdan kelayotgan manbalar anchagina bisyor. Bunday manbalarga biz olim va mutaffakirlarning asarlari va fikrlarini, hayotiy tajribalarini aytishimiz mumkin. Masalan, sharq allomalaridan Abu rayhon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlar o‘z asarlarida tabiatni muhofaza qilish, uni asrab-avaylash va bu ishlar amalga oshirilmasa qanday oqibatlariga olib kelishi haqida ma’lumotlar berib o‘tganlar. Ekologiya, ekologik madaniyat uni shakllantirish bo‘yicha nafaqat sharq mutaffakirlari balki, g‘arb olimlari ham keng qamrovli ishlar olib borishgan va tajribalari va o‘rganganlarining hosilasi bo‘lgan bilimlarini bizga madaniy yodgorlik sifatida qoldirishgan. Masalan maktabgacha pedagogika sohasida ko‘plab ishlar olib brogan, Chexiyalik mashhur pedagog Yan Amos. Komenskiy bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o‘rin olganini bilamiz. Olim o‘zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini bolalarni o‘qitish va tarbiyalashdek oliyanob ishga bag‘ishlagan. U shunday fikrlaydi-“ inson tabiatning eng go‘zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin”. O‘zining “Buyuk didaktika”, “Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi”, “Fizika”, “Falakiyot”, “Onalar maktabi”, “Tinchlik farishtasi” kabi asarlarida o‘zining muhim pedagogik g‘oyalarini ifodalagan. Yan Amos Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o‘xshatgan. “Onalar maktabi” xushbo‘y o‘simliklar, g‘uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi. “Ona tili” maktabi yozga va ayrim erta pishgan mevalarga o‘xshaydi. “Gimnaziya”da dalalar, bog‘ va terakzorlardagi mo‘l hosilni yig‘ib, uni “aql xazinasi” ga joylayotgan kuz faslini eslatadi va nihoyat, “Akademiya” yig‘ilgan hosilni umr bo‘yi sarflashni mo‘ljallab taqsimlayotgan kishiga o‘xshatiladi. Yan Amos Komenskiy “Onalar maktabi” da 18 ta fandan ma’lumot olishni tavsiya etgan. Uning fikricha olti yashar bola:

- suv, yer, havo, olov, yomg‘ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o‘t, qush, baliq kabilarni;

-yorug‘lik va qorong‘ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni;

- o‘zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog‘, vodi, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerakligini ilgari suradi. Yan Amos Komenskiy hamma narsani tabiatga bog‘lab tushuntirgan. U o‘quvchilar diqqatini jalb etish uchun kitoblarning nomini qiziqarli nomlab, mazmunini to‘liq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mavjud narsalardan eng chiroylisi bog‘ning turli manzaralaridan namuna olishdir. Masalan, nega endi 1- sinf uchun bitilgan kitobni “Gunafsha jo‘yagi”, 2- sinf kitobini — “Atirgul tupi”, 3- sinf kitobini — “Istirohat bog‘i” va hokazo deb nomlash mumkin emas? Yan Amos Komenskiy bolalarni tarbiyalashda tabiatning ahamiyatini o‘zining boshqa asarlarida ham ochib bergan. Yuqorida ko‘rib tahlil qilib chiqqan fikrlarimiz bolalarni tabiat bilan tanishtirishda, ekologik tarbiya

berishda va ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi va ulardan foydalanganimizda biz ta’lim jarayonida samara va sifatga erishamiz.

Ekologik madaniyatni shakllantirishni yoshlikdan, aniqrog‘i maktabgacha yosh davridan ya’ni, uzluksiz ta’lim tizimining asosiy dastlabki bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim pog‘onasidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunga kelib ta’limning turli sohasidagi islohotlar ham aynan maktabgacha ta’lim sohasidan boshlanmoqda. Sababi, maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom va barkamol shaxs sifatida maktab ta’limiga tayyorlash muhim hisoblanadi. Bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish, ekologiya, ekologik madaniyatga oid bilimlarni to‘g‘ri va sifatli bolalarga yetkazib berish, amalda uni bolalar qo‘llay olgan va oladigan vaziyatdagina, ya’ni bolalarni ekologik madaniyat saviyasini oshira olganimizda biz inson va tabiat oldidagi muammolarni bir qancha kamaytirishga olib keladi.

**Asosiy qism.** Hozirgi zamon talabi sifatida, dolzarb muammolarni hal qilishda jamiyatimiz kommunikativ va kreativligini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan konstruktiv shaxsga muhtoj. Bu kabi shaxsning asosiy tamoyillari maktabgacha yosh davrlarida qo‘yilishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilar faoliyatining asosiy muammolaridan bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatini rivojlantirish va uning maktabga tayyorligi kabilarga duch kelamiz. Ekologik ta’lim bugungi kundagi ta’lim tizimlari faoliyatini yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida rasman e’tirof qilinib kelinmoqda. Ekologiya hozirgi davrda yangi turmush tarzini shakllantirishning asosiy bo‘g‘ini desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Boshlanishlarning shakllanishi ekologik madaniyat va tabiatning barcha xilma-xilligi bilan birga bevosita tabiatning o‘ziga ongli ravishda to‘g‘ri munosabatni shakllantirish bilan uzviy bog‘liq ekanligi bizga ma’lum. Bugungi zamon hamnafasi bilan aytadigan bo‘lsak, dunyo hamjamiyatlarida aynan ekologik tarbiyaga qanday yechimlar topilayotgani, bartaraf etilayotgani, usul va uslublaridan ham yetarlicha o‘rganib, uni maktabgacha ta’lim tashkilotining faoliyat ishlanmalarimizga qo‘shishimiz darkor. Bugungi kunda Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha pedagogika uchun bolalarning tabiat bilan yaqin aloqasini shakllantirish maqsadida ekskursiyalar sonini ko‘paytirish maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuv bir tomondan bolada axloqiy tamoyillarni rivojlantirish, tabiatning go‘zalligini ko‘rish, uni his qilish va tushunish qobiliyatini rivojlantirishiga guvoh bo‘lsak boshqa tomondan esa, bilimga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish, tabiatni bolani o‘qitishning universal obyekt sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutgan holatda shakllantirishda ko‘rishimiz mumkin. Tahlil qilib ko‘rsak, bunday holda, tarkibning ekologik bilimlari quyidagichalarni qamrab oladi:

-O‘simlik va hayvon organizmlarining atrof-muhit bilan aloqasi, unga morfofunktsional moslashuvi; -O‘sish va rivojlanish jarayonlarida atrof-muhit bilan bog‘liqlik;

-Tirik organizmlarning xilma-xilligi ekologik birlik;

-Tirik organizmlar jamoalari;


-Inson tirik mavjudot sifatida, uning yashash muhiti, salomatlik va normal hayotni ta’minlaydi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishga ta’sir qiluvchi muhim tarbiyaviy jihatlardan biri-bu bolalar bog‘chasida qulay ekologik muhitni barpo etishdir. Bu uzluksiz jarayonligini barchamiz bilmiz, maxsus ekologik makonni tashkil etish va undagi hayvonot dunyosi uchun zarur shart-sharoitlarni saqlashga yo‘naltirilgan muntazam harakatlarni amalga oshirish ishlarini qamrab oladi. Ushbu ish shaklining eng keng tarqalgan turlari – “tirik burchak”, “jonli burchak” yaratish, yopiq gullarni parvarishlash, gulzor dizaynini yaratishdir. Bolalar nafaqat hayvonlar va o‘simliklarni kuzatsalar, balki ularga g‘amxo‘rlik qilish maboynida faol ishtirok etganlaridagina, ta’limiy, tarbiyaviy samaraga erishiladi. “Jonli burchak”ni tashkil qilish qanday bo‘lishini hozir ko‘rib chiqamiz. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ushbu burchakda hayvonlar uchun ajratilgan joy bo‘lishi kerak va u hayvonlarning tabiatdagi hayot sharoitlariga mos bo‘lishi kerak. Akvariumni zoodo‘kondan olgan ma’qul. Ammo akvarium sifatida xohlagan shisha idishdan foydalanishimiz mumkin, lekin shuni hisobga olishimiz kerakki, baliqlar asosan to‘rtburchak idishda yaxshi ko‘rinadi. Akvariumdagi baliqlar soni uning katta-kichikligiga (o‘lchamiga) va undagi o‘simliklarning soniga muvofiq bo‘lishi kerakligini unutmasligimiz kerak, bunda yutiladigan va chiqariladigan kislorodning balansi ta’minlansin. Akvarium baliqlari doimiy parvarishga muhtoj. Ularga oziqni zoodo‘kondan sotib olish mumkin. Baliqlar shartli refleks hosil qilishlari uchun ularni muayyan vaqtda oziqlantirish kerak. Bolalar suv haroratini termometr bilan o‘lchab tekshirib boradilar.

Sudralib yuruvchilar, suvda va quruqlikda yashovchilar uchun xilma-xil ko‘rinish va o‘lchamdagi terrariumlar quriladi. Odatdagi terrarium metallardan yoki yog‘ochdan tayyorlangan yashik bo‘lib, yon va tepa devoriari shisha va to‘rdan iborat. Shisha devor terrariumda yashovchilarni kuzatish, yon devor hamda tepasining to‘rdan bo‘lishi toza havo bilan ta’minlash imkoniyatini beradi. O‘simlik va hayvonlar namunalarini yig‘ish, kuzatishlar tashkil qilishimiz jonli tabiat burchagining a’zolari (ya’ni o‘simlik va hayvonlari) uning asosini tashkil qiladi, unga qarab jihozlar tanlanadi. O‘simlik va hayvonlar to‘plami

tabiatshunoslik dasturiga muvofiq, o‘lkashunoslik xususiyatlari hisobga olinib belgilanadi. Barcha xona o‘simliklari ularning nomlari, qachon va qayerdan olinganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar yozilgan yorliqlarga ega bo‘lishlari zarur.

Zamonaviy jamiyatda ekologik muammolarning dolzarbligi ekologik ta‘lim masalalarini oldingi o‘rinlarga olib chiqib qo‘yishi holati mavjud. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida muhim vazifalardan biri bolalarga faqatgina, tabiatning go‘zalligini ochib berish emas, balki ularni o‘zi payqashga va qadrlashga o‘rgatishdir. Bu jarayonda biz maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda quyidagi usullardan foydalanamiz.



Shuningdek, bolalar bilan tabiatni tanishtirish ishlari olib borilayotganda yanada samarali jihati ota-onalarni bolalar bilan birgalikda ishlashda ishtirok etishi maktabgacha yoshdagi bolalarning vazifaga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirib, oila a‘zolari o‘rtasida ijobiy munosabat o‘rnatishga, shakllantirishga, ularni hissiy jihatdan yaqinlashtirishga va kattalar orasida ekologik madaniyatni shakllantirishga yordam beradi. Asosiy tamoni shundaki, ota-onalarni bunday faoliyatga qiziqtirish, ularga shaxsan muhim ekologik ma‘lumotlarni taqdim etish lozimdir. Tarbiyalanuvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish, ekologik madaniyat tuyg‘usini yaratish bevosita atrof-muhitni o‘rgatish bilan aloqadordir. Pedagogik izlanishlar natijasida tarbiyalanuvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirishning metodlari, usul va uslublari aniqlangan. Bolalarda tarbiya turini shakllantirishda pedagogik kuzatuv, suhbat va savol-javob metodlari muhim o‘rin tutishi bizga ma‘lum. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonida quyidagi shakl va usullar alohida ahamiyatga ega.

- Og‘zaki va adabiy usullar (hikoyalar o‘qish);
- Bolalar o‘yinlari;
- Kuzatuv;
- Elementar qidirish faoliyati;
- Modellashtirish;
- Ekologik faoliyat[3]

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan metod, usul, uslublardan keng miqyosda foydalaniladi va ta‘lim va tarbiya samaradorligiga erishiladi. Asosan bolalar faoliyatlarda “Ilm fan va tabiat” markazida kuzatish metodidan ko‘p foydalaniladi.

Pedagogikada umuman olganda maktabgacha ta‘lim tashkilotida metod - pedagog-tarbiyachi va ta‘lim oluvchining (bolaning) ma‘lum ta‘lim tarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o‘stirish, axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun mo‘ljallangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Bolalar bog‘chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o‘z o‘lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashishini bilamiz. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va birbirini to‘ldiradi. “Ilm fan va tabiat” markazida asosan turli xil tajribalar o‘tkaziladi, o‘simliklar o‘stiriladi va hayvonlar parvarishlanadi. Ushbu faoliyat markazida

qilinadigan ishlar asosan kuzatuv asosida o‘rganib olinadi va takrorlash orqali mustahkamlanadi. Mustahkamlash maboynda suhbat va savol-javob metodlardan foydalaniladi. Suhbat va savol-javob metodlari ham tarbiyalalanuvchilar bilan keng qo‘llaniladi, sababi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ko‘p muloqat qilish, suhbatlashish, ularda keng fikr yuritish va qo‘rqmasdan, o‘ziga ishonch bilan fikr bildirish holatlari paydo bo‘ladi, guruh tarbiyachisi va uning tarbiyalanuvchilari o‘rtasida yaqinlik va iliq munosabat paydo qiladi, va bu ta‘lim berishda va ta‘lim olishda ijobiy samara beradi. Shuningdek, ahamiyatga maolik tamoni shundaki ushbu metodlardan foydalanish tarbiyalanuvchilarda kommunikativ mahorat, kreativlik, ijtimoiylashuv kabi taraflari rivojlanadi. Bu sifatlarni shakllanishi jamiyatdagi kuzatiladigan turli xil muammolarni yechimi hisoblanadi.

**Xulosa** qilib aytganda, jamiyatimizda kuzatilayotgan nafaqat ekologik muammo, balki boshqa muammolarning ham yechim jamiyatimizning har bir a‘zolarini qo‘lida. Bu muammolarga yechim topish va ularni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ko‘rishning asosi maktabgacha yosh davridan boshlanadi. Bu kabi ishlarni tashkillashtirish va amalga oshirish uchun davlatimiz tamonidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda va kundan-kunga bu sohaga e‘tibor kuchaymoqda. Maktabgacha ta‘lim sohasiga doir turli xil markazlar, shart-sharoitlar hamda, tarbiyachilarimiz uchun maxsus seminar-treninglar, ular o‘z ustilarida ishlab shu sohaning mukammal, malakali kadrlari bo‘lishlari uchun “Yil tarbiyachisi” kabi ko‘rik-tanlovlar tashkillashtirib kelinmoqda. Bu kabi ishlarning tasdig‘i sifatida milliy aql markazimizni yaratishimiz bo‘yicha qilinayotgan ishlarni aytishimiz mumkin. Haqiqatdan ham biz yaratishimiz kerak bo‘lgan milliy aql markazlarimizda bolalar o‘rganishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalarga tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash (ijodkorlik), hamkorlik, muloqot, jismoniy bilim, mantiqiy matematika va ijtimoiylashuv kabi ko‘nikmalar kiradi.[4]

Maktabgacha ta‘lim tizimida qilinishi kerak bo‘lgan va qilinayotgan ishlar haqida gapirar ekanmiz, hozirgi kunda ekologik madaniyatni shakllantirishga va jamiyatdagi har bir inson unga amal qilgan holda o‘z hayot va ish faoliyatlarini olib borishlariga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababdan bu vazifa erta davrlardan boshlanadi, aniqrog‘i maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tahsil olib tarbiyalanayotgan bolalarga o‘rgatiladi. Bu jaroyon tashkilotlarda takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida tashkillashtiriladi. Bolalarga ekologik tarbiya berish, ekologik madaniyatini shakllantirishda shu sohadagi tarbiyachi pedagoglar guruhlardagi faoliyat markazlaridan “Ilm-fan va tabiat” markazidan unumli foydalanishadi. Ushbu jarayonda asosiy vazifani bajarishda tarbiyachiga ham ko‘pgina talablar qo‘yiladi. Bular quyidagicha: Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilaridan bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun tabiat haqidagi turli fan sohalaridagi katta bilim zahiralari ega bo‘lishlari, ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishlari, aql sohasi (noosfera)ning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olishlari, tabiatda yuz beradigan narsa hodisalar orasidagi aloqadorliklarni izohlay olishlari talab etiladi. Shuningek faoliyot davomida va so‘ngida turli xil interfaol metodlar, o‘yinlar, o‘yinli texnologiyalardan foydalanish orqali bolalar ta‘limida samaraga erishamiz. Misol uchun faoliyat yakunlanish arafasida “Ha-Yo‘q” bahsini o‘tkazsak bolalarga bergan bilimlarimizni mustahkamlab olamiz va dars jarayoni qiziqarli tashkil qilingan va tugallangan bo‘ladi[5]. Ayniqsa, o‘zi yashab turgan joy tabiati: fasl almashinuvlarini kuzata olishi, tabiat kalendarini tuza olishi, o‘simlik va gullarni ko‘paytirish ko‘nikmasiga o‘rganishi muhim. Bolalarda tabiatga faol va ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash maktabgacha ta‘lim tashkilotida mavjud bo‘lgan hayvon va o‘simliklarni oziqlantirishga yordam beradi. Tarbiyachidan jonli tabiat burchagini tashkil eta olish, o‘simlik va hayvonlar uchun ularning tabiatda yashashlariga yaqin shart-sharoitlar yaratish talab etiladi. Bundan tashqari bolalarga ta‘lim-tarbiya berishda ota-onalar ham faol qatnashmoqdalar, ekologik madaniyatni shakllantirish maboynda ular birgalikda mehnatini tashkil etishadi va bu juda foydali. Avvalo shu kabi ishlarni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning ekologik savodxonligi darajasini oshirish; bukletlar umumiy dunyo va xususan shaharda kuzatiladigan dolzarb ekologik muammolar bo‘yicha ota-onalar bilan ishlashning shakllari, ota-onalar bilan o‘zaro munosabatni qurish bolalar bog‘chasida olib boriladigan ekologik ta‘limning zarur tarkibiy qismidir. Kattalar bolaga namuna bo‘la olishi kerak. Ko‘pgina ota-onalarning bo‘sh vaqti yo‘qligiga qaramay, ular hali ham qo‘shma tadbirda qatnashish takliflariga ishtiyoq bilan javob berishadi. Shanbalikda bolalar maktabgacha ta‘lim tashkilotining hududini tozalash, obodonlashtirish, oziqlantiruvchilarni tayyorlash, axlat yig‘ish, batareyalar va boshqalar. Bu kabi chora-tadbirlardan tashqari yana ham yangi, samarali, zamonaviy usullar, ya‘ni ota-onalar bolalar va tarbiyachi birgalikda hamkorlik olib borishi uslub, va texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu ishlar olib borilishi barobarida kattalarning ham bilimlari va amaliy ko‘nikmalari mustahkamlanadi .

**Adabiyotlar:**

1. Bekchanova F.M., Xatamova N.Sh. Innovative developments and research in education international scientific-online conference. “tarbiyalanuvchilarda ekologik tushuncha va ekologik madaniyatni rivojlantirish texnologiyasining modeli, shakllari, metodi va vositalari”. № 14 2 tom 87-bet.
2. Maktabgacha Pedagogika Qodirova F.R., Toshpo’latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. “Tafakkur” nashriyoti TOSHKENT – 2019 295-bet
3. Quchqarova N.M. Journal of Advanced Research and Stability. Tarbiyachilarga “Avesto”da iqtisodiy qarashlar va iqtisodiy tarbiya masalalarini o’rganish, 2-bet
4. Bekchanova F.M. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>. “The value of observation in environmental education of preschoolers” № 2/S, 4 tom, 124-125-bet.
5. Specific aspects of steam technologies in preschool education. international bulletin of applied science and technology, 3(1), 150-bet
6. “Pedagogika nazariyasi va tarixi” Sharifzoda S.O’., Otajonov O.A., Salovatova X.S., Karimov H.Q., Yunusxo’jayev M.Z., “Bookmany Print” Toshkent-2023 440-bet.

## BOSHLANG‘ICH SINIF BOLALARIDA O‘QUV FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI

*Korayeva Latifa Zarifovna,*

*Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi (PhD)*

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinif bolalarida o‘quv faoliyatining xususiyatlari o‘rganilgan. Boshlang‘ich sinif yoshidagi bolalarni o‘qitish jarayoni, o‘quv faoliyatining asosiy komponentlari: o‘quv masalalari, o‘quv vaziyatlari, o‘quv harakatlari, nazorat qilish va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi. Boshlang‘ich sinif o‘qituvchilarini ta’limga moslashish sifatlarini baholash va to‘plangan tadqiqot ishlari natijalarining psixologik tahlili keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinif bolalari, o‘quv faoliyati, o‘qitish jarayoni, o‘quv faoliyatining asosiy komponentlari, ta’limga moslashish.*

## ОСОБЕННОСТИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ДЕТЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*В данной статье рассматриваются особенности учебной деятельности детей младшего школьного возраста. Процесс обучения детей младшего школьного возраста начинается с ознакомления с основными компонентами учебной деятельности: учебными вопросами, учебными ситуациями, учебной деятельностью, контролем и оцениванием. Представлены оценка качества адаптации учителей начальных классов к обучению и психологический анализ результатов собранной исследовательской работы.*

***Ключевые слова:** ученики начальных классов, учебная деятельность, учебный процесс, основные компоненты учебной деятельности, адаптация к обучению.*

## CHARACTERISTICS OF STUDY ACTIVITY IN PRIMARY CLASS CHILDREN

*This article will talk about the features of the educational activity of children of primary school age is characterized. The process of teaching children of primary school age begins with familiarization with the main components of learning activities: learning issues, learning situations, learning activities, monitoring and evaluation. An assessment of the quality of adaptation of primary school teachers to learning and a psychological analysis of the results of the collected research work are presented.*

***Key words:** younger schoolchildren, educational activity, educational process, main components of educational activity, adaptation to learning.*

**Kirish.** Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang‘ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta’lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta’lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda — bilimlarni olish bilan birgalikda qo‘shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o‘qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo‘lmagan, umumiy tushunishdan o‘qish va o‘rganishning zarurligi sabablarini anglashda, “o‘zi uchun” o‘qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinif yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati bo‘lgan o‘qish shu yoshdagi bolalar psixikasi rivojidadagi o‘zgarishlarni belgilab beradi. Maktab ta’limi o‘quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o‘rnini o‘zgartiradi. Uning vazifasi o‘qishdan, bilim olish, ko‘nikma va malakalarni egallash, o‘zlashtirishdan iborat bo‘lib qoladi. Bunda bolalar muhitga moslashishi kerak bo‘ladi. Boshlang‘ich sinif yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlari murakkab bo‘lgan ko‘p darajali motivlar tizimi bilan boshqariladi.

**Tadqiqot obyekti:** O‘quvchi shaxsini ongli ravishda o‘quv faoliyatiga yo‘llashda birlamchi omil - bu shaxsning ichki imkoniyatlari, qiziqishlari, iqtidori hamda ehtiyojlari hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan o‘quv jarayonini tashkil etishda subyektning (o‘quvchining) ichki pozitsiyasini (motivatsiyasini) va unga ta’sir etib turuvchi tashqi muhit bilan mutanosiblik jihatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘quvchi o‘quv-faolligiga yo‘naltirish jarayonining obyekti bo‘lsa-da, umumiy o‘zlikni anglash, ongli munosabat jarayonining subyekti hisoblanadi. Munosabat tizimi shkalasida o‘quvchilar faoliyatida shakllanayotgan o‘quv faolligini tanlash jarayoniga bo‘lgan «faol-ijobiy», «ijobiy», «indifferent» munosabatlar motivatsiyasining kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xarakteriga mos o‘rtacha umumiy,



qiyosiy-tipik ko'rsatkichlari ko'lamini kiritiladi va bu esa tadqiqot maqsadiga mos ijtimoiy psixologik mezonlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. O'quv faoliyati motivlari o'quvchilar nima uchun o'qiyotganlarini ko'rsatib beradi. Maktabning birinchi sinfiga kelgan bolalarda ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu motivlar atrofda orasida yangi mavqeni egallash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va baholaniladigan faoliyat bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. O'quvchilarning maktab faoliyatiga bo'lgan munosabatlari motivatsiyasi o'ziga xos harakterga ega bo'lib, ularni aksariyat hollarda “faol - ijobiy”, “ijobiy” hamda “indefferent” mezonlar bo'yicha talqin qilish o'rinlidir. Shuningdek, o'quvchi shaxsini kichik maktab davri o'zining ichki ijtimoiy motivatsiya yo'nalishiga nisbatan, yosh, individual, xududiy va etnopsixologik imkoniyatlar va tafovutlar ko'lamining mavjudligi bilan baholanadi. Bu baholash o'quvchi shaxsi tomonidan maktab yoki o'quv faoliyatini qanday tushunish uning ichki hissiy kechinmalariga bog'lash, ayni paytda hissiy – irodaviy sifatlarning namoyon etilishi bilan ham bevosita bog'liq ekanligi yaqqol seziladi. Maktabga birinchi bor kelgan bola o'z faoliyatining tub mohiyati va vazifasini to'la tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb biladi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Maktab ta'limi esa ko'proq verbalikka asoslangan. Professor B.R.Qodirov tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, o'g'il bolalarda aniq fanlarga nisbatan layoqatlar ko'proq rivojlangan bo'lib, ko'rish-fazoviy intellekt baland hisoblansa, qiz bolalarda nutq malakalari ko'proq rivojlangan bo'lib, tafakkur egiluvchanligi baland bo'ladi. Birinchi sinfnig oxirlariga borib ko'pchilik o'quvchilar o'z maktab majburiyatlariga ma'suliyatsizlik bilan qaray boshlaydilar. Bu bir qancha sabablar bilan bog'liq.

1) Bola endi o'quvchi bo'ldi, o'quvchi bo'lish istagi qondirildi. Bu maqomni ushlab turish uchun hech narsa qilmasa ham bo'ladi.

2) O'quvchining ijtimoiy mavqei maktabda ularga beriladigan o'quv faoliyati mazmuni bilan belgilanmaydi. Bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchisidan ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha usullarda yondashish zaruriyatini taqazo etadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarning o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Mazkur masalaga oid aniq vazifalar qo'yidagilarda o'z aksini topgan:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash va ko'nikmalarni shakllantirish;

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish.

Demak, yuqoridagi vazifalardan shu narsa yaqqol namoyon bo'lmoqdaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga qiziqish va moyilliklarini shakllantirish, shuningdek, intilishlarini oshirish muhim omillardan biri bo'lib, mazkur jarayonda o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish uning asosi hisoblanadi, ya'ni boshlang'ich ta'limning mazmun mohiyatini kashf etadi. Bunday yondashuvsiz ta'limning boshlang'ich pog'onasini sifat-samaradorligini oshirishga erishish mushkuldir.

Bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga qiziqishlarini shakllantirish maqsadida, o'quv jarayoniga boshlang'ich ta'lim mazmunini integratsiyalashni targ'ib qilish, yangi innovatsiyalarni kiritish, axborot kommunikativ texnologiyalardan unumli foydalanish natijasida ta'lim sifatini oshishga erishiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv jarayoniga tayyorlashda o'quvchilarning shaxsiy individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, o'quv jarayoniga jalb etishning pedagogik-psixologik asosini tashkil etib, ularda o'ziga ishonch hissini shakllantiradi.

Qo'llanilgan metodlar: Boshlang'ich sinf ta'limi mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi, o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan yuzaga keladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istak va ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponentlari: o'quv masalalari, o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat qilish va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim.

O'quvchining o'quv faoliyatini o'zlashtirishi o'quv masalalari tizimini yechish jarayonida amalga oshiriladi O'qishning boshida boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar mustaqil ravishda o'quv masalalarini qo'yish va yechishni bilmaydilar. Bu vazifani boshida o'qituvchi bajaradi. Asta-sekinlik bilan o'quvchilarning o'zlari ham o'quv masalalarini qo'yish va yechish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallay boshlaydilar. Bu mustaqil o'quv faoliyati shakllanishining muhim bosqichidir. O'quv masalalarini ajratib olish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Shuning uchun ham har bir darsning soʻngida oʻqituvchi oʻquvchilari aniq bir topshiriqlarni bajarishning maʼnosini qanday tushunganliklarini aniqlash uchun vaqt ajratishi kerak. “Biz bugun darsda nimalarni oʻrgandik?” tarzidagi savol bolalarga shunchaki daftarda chiziqchalarni chizib, doirachalarni boʻyashni emas, balki sanashni, qoʻshishni yoki ayirishni oʻrganganlarini tushunishlarida yordam beradi. Agar bola oʻquv harakatlarini notoʻgʻri bajarsa, bu uning oʻquv harakatlarini nazorat va baholash bilan bogʻliq harakatlarni bilmasligi yoki ularni yaxshi egallamaganligidan dalolat beradi.

Bolaning mustaqil ravishda bajargan harakatlari natijalarini oʻz xatti-harakatlarining xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda oʻz-oʻzini nazorat etish layoqati maʼlum darajada shakllanganidan dalolat beradi. Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu uslubdan oʻquv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish va oʻz yechimini asoslab berish aqliy sifatlarni oʻsishiga xizmat qilib, kishi oʻz mulohazalari va xatti-harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi. Boshlangʻich sinf yoshidagi oʻquvchilarda aqliy va oʻquv materialini oʻzlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. Toʻgʻri tashkil etilgan taʼlimda bu yoshdagi bolalar oʻrta maktab dasturida koʻrsatilgan bilimlarga nisbatan koʻproq bilimlarni tushunishlari va oʻzlashtirishlari mumkin.

Boshlangʻich sinf yoshidagi bolalar oʻquv faoliyatining oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab oʻquv materialini oʻzlashtirmaslikning dastlabki belgilari koʻzga tashlanadi. Boshlangʻich sinf yoshida past oʻzlashtirish sabablari va oʻqishdagi qiyinchiliklar quyidagilar bilan bogʻliqdir:

- 1) neyrofiziologik sabablar;
- 2) bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- 3) erkin va mustaqil harakat qilish darajasining pastligi;
- 4) motivatsion sohalarning yetarli rivojlanmaganligi;
- 5) oila tarbiyasidagi, oilaviy munosabatlardagi kamchiliklar;
- 6) maktab taʼlimi va tarbiyasidagi kamchiliklar;
- 7) oʻzaro muloqot va munosabatdagi kamchiliklar;
- 8) shaxs xususiyatlaridagi ogʻishishlar.

Boshlangʻich sinf yoshidagi bolalar oʻqishdagi qiyinchiliklar bola shaxsining barcha shaxsiy, bilish, motivatsion, hissiy va irodaviy sohalarida aks etadi. Bu qiyinchiliklar oʻzaro bir-biri bilan bogʻliq. Bir qiyinchilikni bartaraf etilishi ikkinchi qiyinchilikni ham kamayishiga olib keladi. Bunda bolalarni taʼlimga moslashishi qiyinlashadi. Notoʻgʻri moslashish oʻzini yorqin va kuchli namoyon qilishi mumkin boʻlgan **birinchi davr** - bu maktab (boshlangʻich sinf)da oʻqishni boshlaganda.

**Ikkinchi davr** - boshlangʻich sinfdan oʻrta sinfga oʻtish. Katta yoshli odamning oʻzgarishi, marshrutning oʻzgarishi, garchi tanish maktabda boʻlsa ham, notanish oʻqituvchilarga, sinflarga koʻnikish.

**Uchinchi davr** - oʻsmir 13-14 yoshda oʻquv faoliyatining keskin pasayishi kuzatiladi. Oʻqituvchilar 7-8-sinflardagi darslar keskin ziddiyatli boʻladi. Boshlangʻich sinf davrining oxirlariga kelib oʻqishga nisbatan ijobiy munosabatning birmuncha pasayishi koʻzga tashlanadi. Oʻquv faoliyatiga qiziqish – 1-2-sinflarda koʻtarilib, 3-4-sinflarda pasayadi. Oʻquv faoliyatiga qiziqishning pasayishida oʻqituvchining tayyor materialni bayon etishi va oʻquvchilarning yodlab olishlari ustanovkasi ustunlik qiladi va oʻquvchilarning faolliklari taqlid qilish xarakterida boʻladi. 3-4 sinf oʻquvchilari odatda oʻqilganlarni qayta hikoya qilib berishni, doskada yozilgan mashqni koʻchirib yozishni, qoidalar va sheʼrlarni yodlashni yoqtirmaydilar va aksincha, misol hamda masalalarni mustaqil ravishda yechishni, tabiat hodisalarini kuzatishni, rasm chizish, plastilin va loydan narsalar yasash ishlarini yaxshi koʻradilar. Boshqacha aytganda boshlangʻich sinf yoshidagi oʻquvchilar tashabbus va mustaqillik imkoniyati bor boʻlgan ishlarga koʻproq qiziqish bildiradilar.

Boshlangʻich sinf yoshida oʻqishga qiziqishning pasayish sabablaridan biri sifatida V.A.Suxomlinskiy oʻqituvchi tomonidan past bahoning koʻp qoʻyilishi, bu esa bolaning oʻqishga nisbatan qiziqishning pasayishi va oʻz imkoniyatlariga nisbatan boʻlgan ishonchning pasayishida deb biladi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalar faoliyatiga qoʻyilgan bahoni shaxsiga qoʻyilgan baho deb qabul qiladilar. Oʻqituvchi tomonidan qoʻyilgan past baho “Demak men yomon bolaman. Ustoz meni yomon koʻradilar” qabilida qabul qilinadi. Bu esa bolaning oʻqishga va ustoz bilan munosabatiga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻquv faoliyatining hamma elementlari shakllantirilganligi va mustaqil bajara olinishi yetakchi faoliyat sifatidagi oʻqish oʻz vazifasini bajarganligini anglatadi.

Boshlangʻich sinf yoshidagi oʻquvchilarning oʻquv faoliyati oʻz tarkibiga quyidagilarni kiritadi: - masalalar yechimlarining umumiy yoʻllarini mustaqil ravishda topish koʻnikmalari: - oʻquv vazifalarini ajrata olish topish va oʻzlashtirish; - oʻzini va oʻz faoliyatini adekvat baholay olish va nazorat qila olish; - faoliyatda oʻzini-oʻzi boshqara olish; - mantiqiy fikrlash qoidalaridan foydalana olish; - umumlashtirishning turli shakllarini egallash va ulardan foydalana olish; - jamoaviy faoliyatlarda ishtirok eta olish; - yuqori darajada mustaqil ijodiy faollikka ega boʻlish. Lekin afsuski, maktab amaliyotida aksariyat hollarda birinchi

o‘ringa boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarni amaliy ko‘nikmalarga, o‘qish, yozish, sanash malakalariga o‘rgatish muammosi turadi. Bu esa bolaning kelgusi rivoji uchun to‘laonli zamin bo‘la olmaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasining shakllanishi juda ko‘plab ijtimoiy – psixologik omillar bilan, jumladan, shaxs umumiy yo‘nalganligi doirasidagi o‘z – o‘ziga, muloqotga va faoliyatga nisbatan munosabatlar tizimi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Chunki talaygina ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quv faolligiga munosabat eng avvalo o‘z – o‘ziga, o‘zgalarga va faoliyat natijalariga munosabatdan boshlanadi va rivojlanadi. Albatta, bu jarayonda shaxsning o‘z - o‘ziga talabchanligi, ta‘lim – tarbiya jarayoni, shaxsning o‘ziga xos individual xususiyatlari, o‘quv faoliyatining pedagogik – psixologik talablar asosida to‘g‘ri tashkil etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Munosabat motivatsiyasi ko‘rsatgichlari tahlili talaygina o‘quvchi yoshlardagi o‘quv faolligiga nisbatan faol-ijobiy munosabatlarning yetarlicha qaror topmayotganligidan dalolat beradi. Jumladan, bu munosabatlar zamirida o‘quv faolligining namoyon etilishi bilan bog‘liq o‘ziga xos qiziqishlar, o‘quv komponentlari, shaxs umumiy yo‘nalganligi, ustanovkalar hamda o‘ziga xos hamkorlikka intilish tizimi mavjudligining ta‘siri alohida o‘rin tutadi. Bu esa shaxs va faollik o‘rtasidagi ijtimoiy psixologik mutanosiblik ko‘rsatkichlari ko‘lamini ham ma‘lum darajada tahlil qilish va tegishli ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida maktabga munosabat motivatsiyasi tahlillari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning maktab faoliyati bilan bog‘liq har bir harakatlari zamirida o‘quv faolligi va uni bevosita ta‘minlashga xizmat qiluvchi omillar yotadi. Chunki, o‘quv faolligining namoyon etilishi bir tomondan o‘quv jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa o‘quvchi shaxsida tarkib topayotgan o‘quv komponentlari – “kognitiv”, “hissiy-irodaviy” hamda “baholash” mezonlariga ham ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Zero, har bir o‘quv komponentining o‘quvchi shaxsida yetarli darajada tarkib topishi o‘quv faolligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Boshlang‘ich sinf o‘quv faoliyatining asosiy vazifasi - bu o‘quvchilarni “o‘qish”ga, bilim olishga o‘rgatishdir. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar psixik rivojlanishida ta‘limning ta‘sirida jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Bu o‘zgarishlar ularni hayotlarining mas‘uliyatli davri bo‘lmish o‘smirlik davriga o‘tish uchun tayyorlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun xarakterli bo‘lgan taqlidchanlik, muloqotmandlik, kattalar ko‘rsatmasiga moyillik, hissiy ko‘tarinkilik kabi xususiyatlar yordamida ularda o‘quv faolligi motivlarini shakllantirish mumkin. Shuningdek, ular bilan olib borilayotgan suhbat va muloqotlarda ushbu jarayonga jiddiy e‘tiborni qaratish lozim.

#### Адабиётлар:

1. Avlayev O.U. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tasavvurida o‘qituvchi timsoli. “Maktab va hayot” jurnali. 2019, №2, 5-8 b.
2. Avlayev O.U. Talabalar kamolotida ijtimoiy intellektning gender farqlari. «Psixologiya» ilmiy jurnal.2021. № 1, 34-41 betlar.
3. G‘oziyev E.G‘. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent, 1988. - 102 b.
4. Jabborov A.M. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. –Toshkent: ”Zarqalam”, 2006. - 48 b
5. Kolominskiy Ya.L. Pedagogicheskaya diagnostika v shkole. – Moskva, 1987. - 223 s.
6. Mirzayeva S.R., Karimov, R. R O‘quv faoliyatida o‘qituvchi - o‘quvchi munosabatining psixologik xususiyatlari. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(2), (2022). 297-306. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-2-297-306>.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA IDROKINI MASHG‘ULOTLAR VA O‘YINLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

*Qodirova Malikaxon Qaxramonovna,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Umumiy psixologiya kafedra katta o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasasida olib boriladigan mashg‘ulotlar va o‘yinlar orqali bolalar idrokini rivojlantirishning ahamiyati yoritib berilgan. Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unda o‘z kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda “Men” konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir.*

***Kalit so‘zlar:** mashg‘ulot, bola idroki, o‘yin, faoliyat, tarbiyachi, guruh, muhit, pedagog xodim, maktab, “Men” konsepsiyasi, tushuncha, anglash, bilish, aql, qobiliyat.*

## ФОРМИРОВАНИЕ ВОСПРИЯТИЯ РЕБЁНКА ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПРИ ПОМОЩИ ЗАНЯТИЙ И ИГР

*В данной статье подчёркивается важность развития восприятия детей посредством занятий и игр, проводимых в дошкольном образовательном учреждении. Важно не только научить ребёнка чему-то, но и то, чтобы он обрёл уверенность в своих силах, умение отстаивать свою идею, самостоятельно принимать решения, формировать понятие своего “Я”.*

***Ключевые слова:** занятие, ребёнок, игра, деятельность, группа, среда, педагог, школа, понимание, знание, познание, разум, концепция “Я”, способность.*

## FORMATION OF PRESCHOOL CHILD'S PERCEPTION THROUGH CLASSES AND GAMES

*This article emphasizes the importance of developing children's perception through classes and games held in a pre-school educational institution. It is important not only to teach a child something, but also to gain self-confidence in him, to defend his idea, to make a decision independently, to form the concept of “I” in him.*

***Keywords:** occupation, child, game, activity, group, environment, teacher, school, understanding, knowledge, cognition, mind, concept of “I”, ability.*

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o‘rin tutadi” deya ta’kidlaydi. Respublika Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomi maktabgacha ta’limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta’limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilg‘or xorij tajribalarini tadbiiq qilish imkononi beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” davlat dasturi asosida rejalashtiriladi.[2]

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog‘lom, aqlan yetuk va ma’naviy jihatdan shakllangan etib voyaga etkazish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda albatta zamon talabiga mos keladigan Davlat talablarini yangi, qo‘shimchalar kiritilgan variantini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi. Shulardan kelib chiqqan holda, bir qator olim va tajribali amaliyotchilar ishtirokida ushbu Davlat talablari yaratildi. O‘z navbatida maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq ishlab chiqilgan. Yaratilgan Davlat talablari ko‘p jixatdan mavjud bo‘lgan Davlat talablaridan keskin farq qiladi. Birinchidan, yangi turdagi Davlat talablari bolalarning asosan psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan. Ikkinchidan, yo‘nalishlarida farq bor. Uchinchidan, bolalarning yosh ko‘rsatkichlari orasidagi intervallar uzaytirilgan. [3]

Maktabgacha ta’limga qo’yiladigan Davlat talablari bolalarning psixologik xususiyatlariga asoslangan holda ta’lim-tarbiya jarayonini belgilab beradi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog xodimlaridan psixologiyaga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirish talab etiladi.[2]

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko’nikmasi, kattalar va tengdosh o’rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo’yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko’nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi.[4]

Bolani biror narsaga o’rgatishgina emas, unda o’z kuchiga ishonchni orttirish, o’z g’oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda “Men” konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir.

O’zbekiston Respublikasida «Davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to’g’risidagi Nizom»ga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda, ota-onalarning mustaqil ravishda ta’lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko’rsatadigan maktabgacha ta’lim muassasalarida, shuningdek, muassasaga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. [3]

**Asosiy qism.** Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o’tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o’zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta’lim muassasasida yoki uyda maktab ta’limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko’nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo’ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo’lishga yordam beradi.

Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Yo’nalishlar asosiy bo’limlarga bo’lingan va shu bilan birgalikda, ular bolaning meyorda rivojlanish ko’rsatkichlarini aks ettiradi. [3]

Shu bilan bir qatorda maktabgacha ta’limning turli shakllari tarmog’i (ilk rivojlanish markazlari, yakshanbalik, qisqa muddatli guruhlar, xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari)ni kengaytirish va ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish, har bir maktabgacha ta’lim muassasasini bolalarning intellektual va mantiqiy fikrlash qobiliyatini erta rivojlanishiga ko’maklashuvchi ko’rgazmali qo’llanmalar, didaktik materiallar, shuningdek qo’l motorikasini rivojlantiruvchi mantiqiy o’yinlar va o’yinchoqlar bilan byudjet mablag’lari hisobidan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash ishlarini yaxshilash maqsadida rasmi qo’llanmalar tayyorlandi, nashr qilindi hamda maktabgacha ta’lim muassasalariga bepul tarqatildi. [4]

Bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish orqali bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash, bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish maktabgacha ta’lim muassasasining maqsadi hisoblanadi. Shunday ekan, bolaning har tomonlama shakllanishi va rivojlanishi undagi bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog’liq. Aynan bolaning idrok jarayoniga alohida to’xtalish lozim bo’ladi. Bola idrokini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb bo’lib, bu o’z navbatida bir qator pedagoglar, psixologlar hamda maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachi va psixologlari oldiga bir qator vazifalarni qo’yadi. [2]

**Tadqiqot metodlar.** Bolani atrof-muhit bilan tanishtirish, tabiat bilan tanishtirish, ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish, ijtimoiy-hissiy rivojlantirish, nutq o’stirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqaga o’rgatish maktabgacha ta’limga oid vazifalar bo’lib, bu mashg’ulotlar orqali bola idroki shakllantiriladi. Masalan, tabiat bilan tanishtirish mashg’ulotlarida jonli tabiat, ya’ni mevalar bilan tanishtirish mashg’uloti alohida o’ringa ega. Mevalar bilan tanishtirishda rasmlar, mevalar (yoz faslida) xamda video lavhalaridan foydalanish mumkin bo’ladi. Bu bola idrokini yanada rivojlanishini ta’minlaydi. Bolaning mevalar xaqidagi tushunchalari rivojlanadi. Mevalarning ko’rinishi, xajmi, shakli, rangi, hidi, ta’mi bilan birga ularning foydali xususiyatlarini ham bilib oladilar. Video lavhada mevalardan tayyorlanadigan mahsulotlar, dorilar, vitaminlar va ularning ahamiyati xaqida tushunchalarga ega bo’ladilar. Shundan so’ng bolalarga mujassam mashg’ulot sifatida mevalar rasmini chizish orqali olgan tushunchalari mustahkamlanadi. (Rasm mashg’ulotini o’rniga applikatsiyadan ham foydalanish mumkin. [4]

Bu mashg’ulotlar bolaning qo’l motorikasini rivojlantirish uchun ham ahamiyatlidir). Mashg’ulot yakunida bolalar bilan birga ”Mevalar” o’yinini o’ynash mumkin bo’ladi. [3]

Bola idrokini shakllantirish va rivojlantirishga oid yana bir mashg’ulot fasllar xaqida tushunchalar berishdan iboratdir. Ushbu mashg’ulotni quyidagi tartibda tashkil etish mumkin:

#### **Mashg’ulot mavzusi: Men sevgan fasl**

**Maqsad:** Bolalarning qaysi fasl yoqishi haqidagi fikrlarini bilish, bahor fasli bo’yicha tushunchalar berish, bahor faslidagi bayramlar haqida tushuncha berish. Bolalarning faoliyatlar orqali bahor faslini aks ettirishlarini aniqlash. Mazkur faslga oid o’yinlar o’rgatish.

**Kerakli jihozlar:** Hamma fasl aks ettirilgan rasmlar, bahor bayramlarini aks ettiruvchi rasmlar, rangli qog‘oz, yelim, qaychi, qalam va rasm daftar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**Tarbiyachi:** Bolalar bir yilimizda nechta fasl bor?

**Bolalar:** To‘rtta fasl bor.

**Tarbiyachi:** Qani, birin-ketin ularning nomlarini aytaylikchi.

**Bolalar:** Qish, bahor, yoz va kuz.

**Tarbiyachi:** Sizga qaysi fasl ko‘proq yoqadi yoki qaysi faslni sevasiz?

**Bolalar:** Bahor

**Tarbiyachi:** Juda yaxshi. Men ham bu faslni juda ham yoqtiraman. Qani, hammamiz qo‘llarimizni qattiqroq ushlaylikchi. Endi esa sekin-asta yumshatib qo‘yib yuboramiz. Demak, biz qish faslidan bahor fasliga kirib keldik. Bahor faslida hammayoq yam-yashil tusga kiradi. Ob-havomiz qanday bo‘ladi?

**Bolalar:** Iliq, ba‘zi-ba‘zida yomg‘ir yog‘adi. Lekin ob-havo iliq bo‘lib, quyosh charaqlab chiqib turadi.

**Tarbiyachi:** Yaxshi bolalar, bahor faslining elchisi bo‘lib qaysi qush birinchi bo‘lib uchib keladi?

**Bolalar:** Qaldirg‘och

**Tarbiyachi:** To‘g‘ri, qaysi daraxt birinchi bo‘lib gullaydi?

**Bolalar:** Bodom va o‘rik

**Tarbiyachi:** To‘g‘ri bolalar, bodom va erta pishar o‘riklar birinchi bo‘lib gullaydi. Bolalar sizlar juda ham bahor faslini yaxshi ko‘rar ekansiz. Bu fasldagi bayramlar haqida ham bilasizlarmi?

**Bolalar:** Xa, bu faslimiz o‘z ichiga mart, aprel, may oylarini olib, bayramlarga boy fasl hisoblanadi.

**Tarbiyachi:** Bolalar 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar bayrami” ya’ni onajonlarimiz, opajonlarimiz, singiljonlarimiz bayrami. 21- mart Navro‘z bayrami, ya’ni yangilanish, yasharish bayrami. 9-may Xotira va qadrlash kuni.

**Tarbiyachi:** Yaxshi bolalar, qani endi biz xohlagan stolimizga borib, bahor faslini aks ettiraylikchi.

Bolalar o‘zlari yaxshi ko‘rgan bahor faslining rasmini daftarga qirqib, yopishtirish orqali aks ettirishadi.

**Tarbiyachi:** Kelinglar bolalar, shu faslga mos ajoyib bir uyin o‘ynaymiz. O‘yinimizning nomi “Bahoroy va yomg‘iroy”. Men sizlarga o‘yinimizning shartini tushuntirib beraman. Qo‘limdagi mana bu shildiroqni tez shildiratsam demak yomg‘ir yog‘ayotgan bo‘ladi. Biz tezda soyabon tagiga qochamiz. Agar men shildiroqni asta-sekin, birin-ketin chalsam, sizlar lola, lolaqizg‘aldoqlar terib savatingizga solasiz. Endi esa o‘yinimizni sizlar bilan birgalikda o‘ynaymiz. Yaxshi bolajonlar, endi o‘yinimizni shu tarzda sayrda davom ettiramiz.

Maktabgacha yoshdagi bola idrokini rivojlantirishga oid o‘yinlar bilan tanishib chiqamiz:

### **"Qarsaklar" (5-7 yoshli bolalar uchun o‘yin)**

Bolalar zal (platforma) atrofida erkin harakatlanadilar.

Rahbarning bir qarsak chalishi uchun ular sakrashlari kerak, ikkita qarsak chalish uchun - o‘tirish uchun, uchta qarsak chalish uchun - qo‘llarini yuqoriga ko‘tarish (yoki boshqa harakat variantlari).

Barcha bolalar qandaydir harakatga taqlid qiladilar, masalan, akkordeon chaladilar, otlarga minadilar va hokazo. Haydovchi tasvirlangan harakatni taxmin qiladi. Agar haydovchi to‘g‘ri taxmin qilmasa, u yutqazadi. Bolalar unga nima qilganlarini aytib berishadi va yangi harakatni o‘ylab topishadi. Haydovchi yana taxmin qiladi.

Keyin boshqa haydovchi tanlanadi, o‘yin takrorlanadi.

### **"Toza" (5-7 yoshli bolalar uchun o‘yin)**

Bolalar aylanada yoki tarqalib turishadi.

O‘qituvchi harakatlarni ko‘rsatadi va matnni aytadi, bolalar harakatlarni takrorlaydi.

Bo‘yinimni yuving, quloqlarimni yuving (Kaftlar bo‘ynini, quloqlarini ishqalaydi.) Biz ularni quritamiz. (Sochiq bilan ishqalanishga taqlid qiling.)

Tozalik hamma narsa. (Barmoq bilan tahdid qilish.)

Biz ham tishlarimizni yuvamiz. (Tish cho‘tkasiga taqlid qiling.)

Bir-ikki-uch, bir-ikki-uch (Qo‘l urish.)

Tishlarni tozalovchi uchta cho‘tkasi! (Tish cho‘tkasiga taqlid qiling.)

### **"Hamma yo‘l atrofida" (6-7 yoshli bolalar uchun o‘yin)**

Bolalar kattalar oldida turishadi. O‘qituvchi qo‘llarning holatini ritmik ravishda o‘zgartiradi va bolalar bir xil harakatlarni faqat teskari tartibda bajaradilar. Masalan, o‘qituvchi qo‘llarini ko‘taradi, bolalar esa qo‘llarini tushiradilar; o‘qituvchi qo‘llarini orqaga oladi - bolalar qo‘llarini oldinga cho‘zadilar. Biz harakatlar uchun quyidagi variantlarni taklif qilamiz (kattalar - bolalar):

Qo‘llaringizni yuqoriga ko‘taring - tana bo‘ylab pastga tushing;

Oldinga torting - orqaga, orqaga oling;

Tana bo‘ylab pastga tushing - yuqoriga ko‘taring;

Orqaga torting - oldinga torting;

O‘ng qo‘l yuqoriga, chap qo‘l pastga - o‘ng qo‘l pastga, chap qo‘l yuqoriga.

**"Buning aksini bajarang" (6-7 yoshli bolalar uchun o‘yin)**

Bolalar xona bo‘ylab tarqalib ketishdi.

O‘qituvchi mashqni ko‘rsatadi, bolalar esa uni teskari yo‘nalishda bajaradilar.

Masalan, o‘qituvchi o‘ngga, bolalar esa chapga egiladilar; o‘qituvchi oldinga bir qadam tashlaydi, bolalar esa orqaga qadam tashlaydi va hokazo.

**"Agar sizga yoqsa ..." (6-7 yoshli bolalar uchun o‘yin)**

Bolalar aylanada turishadi.

O‘qituvchi harakatlarni ko‘rsatadi va matnni talaffuz qiladi, bolalar harakatlarni va matnni takrorlaydi. (Ikki qarsak chalish.)

Agar sizga yoqsa, buni qiling. (Ikki qarsak chalish.)

Agar sizga yoqsa, uni boshqa birovga ko‘rsating. Agar sizga yoqsa, buni qiling. (Ikki qarsak chalish.)

Keyin so‘zlar takrorlanadi, lekin turli harakatlar bilan: bolalar tizzalarini qarsak chalib, qo‘llarini yonoqlariga bosadilar, aytadilar: "Ai-ay", "Bi-bi" so‘zlari bilan barmoqlari bilan burunlariga teginish. Siz boshqa kulgili harakatlar bilan chiqishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har bir chiziqdan keyin bolalar ilgari ko‘rsatilgan barcha harakatlarni izchil takrorlaydilar.

Ketma-ketlikda xato qilmaslik va harakatlarni tez sur‘atda bajarish muhimdir.

**"Taqiqlangan harakat" (6-7 yoshli bolalar uchun o‘yin)**

O‘yinchilar aylana hosil qiladilar.

O‘qituvchi bolalar bilan qanday harakat qilmaslik kerakligi haqida oldindan kelishib oladi, masalan: cho‘zing, qo‘llaringizni chaying, qo‘llaringizni silkiting.

Keyin musiqaga o‘qituvchi o‘yinchilar undan keyin takrorlashlari kerak bo‘lgan turli harakatlarni ko‘rsatadi. Bu harakatlar qanchalik xilma-xil va qiziqarli bo‘lsa, o‘yin shunchalik qiziqarli bo‘ladi.

To‘satdan o‘qituvchi har qanday taqiqlangan harakatni ko‘rsatadi.

Taqiqlangan harakatni tasodifan takrorlagan o‘yinchilardan biri keyin raqsga tushishi, qo‘shiq aytishi, she‘r o‘qishi kerak bo‘ladi (bolaning xohishiga ko‘ra).

**Xulosa.** Siz o‘yinni murakkablashtirishingiz mumkin: takrorlanmaydigan ikkita harakat borligiga rozi bo‘ling, lekin ularning o‘rniga boshqalarni bajarish kerak. Masalan, o‘qituvchi qo‘lini boshning orqa tomoniga qo‘yganda, o‘yinchilar oyoqlarini chalishtirib cho‘kadi, o‘qituvchi oldinga egilganida esa ikki marta qarsak chaladi.

Xulosa qilib aytganda har bir mashg‘ulot va o‘yinlar bola idrokining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim ekan, mashg‘ulotlarning har tomonlama qiziqarli, bola yoshiga xos, layoqatini hisobga olgan holatda amalga oshirilishi va eng muhimi barcha bolalarning pedagogik va psixologik rivojlanganlik darajasini inobatga olgan holda amalga oshirilishi hozirgi kun talablaridan biridir.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent shahri, 2017 yil 9 sentabr.

3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay‘at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

4. Malika Qodirova, Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg‘ulotlarning o‘rni, Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI: 2020: Arxiv №41 (science.i-edu.uz, jspi.uz).

## MAKTAB O‘QUVCHILARIDA TAHLILY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Ravshanov Jamshid Fayzullayevich,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, PhD*

*Mazkur maqolada o‘quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirishning didaktik ta‘minoti mazmuni tizimli, shaxsiy, tahliliy, kompetensiyaviy yondashuvlar hamda ko‘p funksional topshiriqlar tizimi hamda o‘quv elementlari va didaktik birliklarning semantik tarkibiga ega mantiqiy tuzilmalar kabi pedagogik shart-sharoitlarni metodik jihatdan ta‘minlash asosida rivojlantirish, umumta‘lim maktablarida tarix fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi mantiqiy va tizimli fikrlash, ma‘lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini vitagen ta‘lim integratsiyasini ta‘minlash kabi masalalari yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, kompetentlik, kompetensiya, tahlil, modul texnologiyalari, metodika, tahliliy kompetensiyalarni shakllantirish modeli, baholash mezonlari, individual metodologik yondashuvlar, vitagen ta‘lim integratsiyasi, kvalimetrik mezonlar.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СПЕЦИФИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ШКОЛЬНИКОВ

*В данной статье содержание дидактического обеспечения формирования аналитической компетентности студентов методически базируется на системном, личностно-аналитическом, компетентностном подходах и педагогических условиях, таких как система многофункциональных задач и логических структур со смысловым содержанием, а также приводится разработка на основе положения учебных элементов и дидактических единиц, методов формирования аналитической компетентности учащихся в процессе преподавания истории в общеобразовательных школах, логического и системного мышления, обработки данных, аналитических способностей и обеспечения интеграции витагенного образования.*

**Ключевые слова:** студент, компетентность, компетентность, анализ, модульные технологии, методология, модель формирования аналитической компетентности, критерии оценки, индивидуальные методические подходы, образовательная интеграция vitagen, качественные критерии.

## IMPROVING SPECIAL CHARACTERISTICS OF THE METHODS FOR FORMING ANALYTICAL COMPETENCE IN SCHOOLCHILDREN

*In this article, the content of didactic support for the formation of analytical competence of students is methodically based on systemic, personal-analytical, competency-based approaches and pedagogical conditions, such as a system of multifunctional tasks and logical structures with semantic content. Development, based on the position of educational elements and didactic units, methods for developing the analytical competence of students in the process of teaching history in secondary schools, logical and systemic thinking, data processing, analytical abilities and ensuring the integration of vital education.*

**Key words:** student, competence, competency, analysis, modular technologies, methodology, model for the formation of analytical competence, assessment criteria, individual methodological approaches, vitagen educational integration, quality criteria.

**Kirish.** Jahon ta‘lim tizimidagi zamonaviy yondashuvlar, talablar, ta‘lim mazmunini milliy an‘analarni, qadriyatlar asosida takomillashtirish orqali samaradorlikka erishish, tarixiy qadriyatlar, an‘analarning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish kabi masalalar ta‘lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi. Shuningdek, bugungi kundagi mazkur yo‘nalishda tarix fanini o‘qitish borasidagi yangiliklar, o‘zgarishlar va qonunlar, zamonaviy va tarixiy manbalardan samarali foydalanish metodikasi dolzarb pedagogik muammolar sirasiga kiradi. Xususan, tarix ta‘limi amaliyotidan foydalanish yuzasidan Yevropa va Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar natijalari umumta‘lim maktablari o‘quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].



Dunyoning taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri – ta'lim va tarbiya hisoblanadi. Shu sababli umumta'lim maktablari ta'lim sifatini ta'minlashdagi muammolarni bartaraf etishda amaliy jihatdan turli yondashuvlar, tadbirlar amalga oshirilmoqda. Umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish asosida o'quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirishning didaktik ta'minotini mazmunan rivojlantirish, tashkiliy - funksional modeliga asoslangan metodik modelini ishlab chiqish, tarix fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish asosida o'quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllanganlik darajalarini aniqlashtirish shuningdek, baholash mezonlarini takomillashtirishning amaliy ahamiyati tarix fanini o'qitish asosida o'quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish zaruratini taqozo qiladi [2].

Mamlakatimizda tarix fanidan ta'lim-tarbiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, o'quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish, tarixiy tafakkurni rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalarini optimallashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada umumta'lim maktablari o'quvchilarida tahliliy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, tarix fanidan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifat hamda fazilatlarini rivojlantirish va takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Shu sababli umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish asosida o'quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga chiqmoqda [3].

Bugungi kunda ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o'qituvchi hamda o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va muntazam tarzda rivojlantirib borish pedagogikaning dolzarb masalalariga kiradi.

Kompetensiya – o'quvchilarning ma'lum sohada samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun ta'lim tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan ijtimoiy talab. Kompetentlilik ko'p qirrali bo'lib, uning bir necha talqinlari mavjud [4].

Kompetentlilik o'quvchi tomonidan tegishli kompetensiyalarga ega bo'lishni anglatadi. Kompetentlilik o'quvchida tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berilgan sohadagi faoliyati bo'yicha to'plagan minimal darajadagi bilim, ko'nikma, malakalari va amaliy tajribalarini o'z ichiga oladi. Xususiy kompetensiyalar bilan tayanch kompetensiyalar o'zaro farqlanadi. Tayanch kompetensiyalar o'quvchining istiqboldagi hayotiy-ijtimoiy faoliyati modeli hisoblanadi. O'quvchilar muayyan bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lgach, o'zlari egallagan kompetensiyalarni faoliyatlari orqali tatbiq eta oladilar. Tayanch kompetensiyalar ko'proq o'quvchining istiqboldagi ijtimoiy faoliyati uchun zarur hisoblanadi. Xususiy o'quv fani doirasida o'zlashtiriladigan kompetensiyalar esa, asosan, o'quv va istiqboldagi kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Kompetensiyalar har bir mamlakat xalqining turmush tarzi, madaniy, ma'naviy hayoti, an'analaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar kreativ, ya'ni ijodiy yaratuvchilik xarakteriga ega bo'lib, ularni muntazam faollikka undaydi. Bunday kompetensiyalar sirasiga kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kabilarni kiritish mumkin. O'quvchilarda kompetensiyalardan foydalanish tajribasini hosil qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash, o'qituvchilar tomonidan tanlanadigan ikkilamchi loyihalar tarkibiga kompetensiyalarni hosil qilishga xizmat qiladigan o'quv materiallari, ta'limiy topshiriqlarni kiritish, raqamli didaktik vositalarni ishlab chiqishga xuddi shu nuqtai nazardan yondashish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

**Metodika.** So'nggi yillarda kompetentli yondashuv tushunchasi pedagogikada keng qo'llanilmoqda. Ta'lim amaliyotida tez-tez qo'llanilayotgan ushbu atama ta'lim mazmunida ustuvor o'rin egallamoqda. Kompetentli yondashuv tayanch tushuncha sifatida zamonaviy pedagogikaning ilmiy tushunchalari tarkibiga singish bosqichlarini o'tamoqda. Mazkur tushunchaning o'ziga xos jihati uning pedagogika fanida eskirib qolgan tushunchalar bilan o'zaro qiyoslashni taqozo qilishidir. Biz o'z tadqiqotimiz davomida kompetensiyaviy yondashuv doirasiga kiradigan va u bilan o'zaro aloqador bo'lgan tushunchalarni izohlashga harakat qilamiz. Ular: kompetensiya, kompetentlilik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik kabilar. Shu bilan bir qatorda biz tadqiqotimiz davomida kompetentlilik va tayyorlik, kompetensiya hamda bilim, ko'nikma, malakalarning har biri ustida fikr yuritishga harakat qildik.

Kompetentli yondashuv yagona ta'lim jarayonini ta'minlashning konseptual asosi sifatida taqdim etiladi. Shuning uchun ham u bugungi kunda ta'lim mazmunini yangilashni taqozo qilmoqda. O'tgan asrning 90-yillaridayoq, kompetentlilik tushunchasi, bir tomondan yangi kashfiyotlar va ishlanmalarni muvofiqlashtirish imkonini berib, insonning bilish faoliyati va amaliy harakatlariga taalluqlidir. Ikkinchi

tomondan esa, har bir sinfda pedagogik vaziyat bilan bog‘liq holda ta’limiy talablarni aniqlashga ko‘maklashadi, deb yozgan edi H.C.Розов [6].

Kompetentlik tushunchasi so‘nggi yillarda asosan kasbiy ta’lim sohasidagi tadqiqotlarda keng qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, S.T.Turg‘unov, M.B.Ma‘murov, O‘.Q.Tolipov, Sh.Q.Mardonov, G.T.Boymurodova, G.N.Ibragimovalarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasiga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etishning ayrim masalalari tadqiq etilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida tadqiqotlarni amalga oshirish umumiy o‘rta ta’lim maktablari davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish bilan bog‘liq holda tadqiq etilmoqda. Bu sohada R.G.Safarova, M.M.Vahobov, Yu.M.Asadov, M.Pardaevalarning tadqiqotlarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish haqida fikr yuritganda И.А.Зимняя uchta sababni ko‘rsatib o‘tgan: integratsiyaning umumevrova va jahon miqyosidagi ko‘lami, ta’lim paradigmasining o‘zgarishi, ta’lim sohasidagi yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar, dasturlar va farmoyishlar[5].


Yuqorida omillarni inobatga olib umumta’lim maktablarida maktab o‘quvchilarining tahliliy kompetensiyasini tarix fanini o‘qitish asosida shakllantirish metodikasini takomillashtirish kabi muammolarning yechimi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda o‘quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirishning didaktik ta‘minoti mazmuni tizimli, shaxsiy, tahliliy, kompetensiyaviy yondashuvlar hamda ko‘p funksional topshiriqlar tizimi hamda o‘quv elementlari va didaktik birliklarning semantik tarkibiga ega mantiqiy tuzilmalar kabi pedagogik shart-sharoitlarni metodik jihatdan ta‘minlash asosida rivojlantirish, umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi mantiqiy va tizimli fikrlash, ma‘lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini vitagen ta’lim integratsiyasini ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari vositasida shakllantirish asosida takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borildi.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari sifatida psixologik-pedagogik adabiyotlarda tahliliy ko‘nikma va mahoratlar tushunchasi tahlil qilingan, tarix fanini o‘qitishda maktab o‘quvchilarining tahliliy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirilgan, bundan tashqari, tarix fanini o‘qitishda maktab o‘quvchilarining tahliliy kompetensiyasini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari keltirib o‘tish mumkin.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim maktabgacha, umumiy o‘rta, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish turlari tizimi integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi va shu asosda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitish metodlarini ham o‘zgartirishni taqozo etadi. Shu ma’noda, umumta’lim maktablarda tarix fanini o‘qitish va o‘qitishning zamonaviy yondoshuvi ko‘plab interfaol usullari o‘quvchilarning ijodiy, mustaqil fikrlashlarini hamda tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga hissa qo‘shadi. Bunda o‘quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish modelini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o‘quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-funksional modeli shaxsga yo‘naltirilgan, modulli-kompetensiyaviy, faoliyatli va individual metodologik yondashuvlarni ta’lim muhiti, kompetentlik sifatleri, fanlararo aloqadorlik kabi pedagogik shart-sharoitlarga pedagogik jarayon bloki vositasida tashkiliy va metodik jihatdan integratsiyalash asosida ishlab chiqish, mobillik, ta’limda muntazamlik va izchillik hamda nazariya va amaliyotning birligi kabi tamoyillar ustuvor etib belgilandi [7].

Xususan, “Jahon tarixi” fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanish “Pedagogik kommunikasiyada psixologik kompetentlik” nomli ikki: “Kommunikativ ko‘nikmalar va malakalarni aniqlash hamda rivojlantirish” va “Verbal va noverbal kommunikasiya mohiyatini ochish” bosqichlari dasturidan foydalanish ham samarali natija beradi. Shuningdek, tahliliy kompetensiyani shakllantirish metodikasi mantiqiy va tizimli fikrlash, ma‘lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini vitagen ta’lim integratsiyasini ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari vositasida shakllantirish orqali “Jahon tarixi” fanini o‘qitishda hamkorlikda o‘rganish modelidan, kichik guruhlarda ishlash, to‘rt pog‘onali, aqliy hujum, insert texnikasi, keys stadi metodi, rolli va ishbop o‘yinlar, muammoli ta’lim, loyiha ma‘ruza, yo‘naltiruvchi matn hamda tushunchalar tahlili kabi metodlardan foydalanib amalga oshirildi [8].

O‘quv mashg‘ulotlarni olib borishda “Nuqtalar” metodidan foydalanish asosida o‘qitishning metodik ta‘minotini ishlab chiqish ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (1-rasm).



### 1-rasm. “Nuqtalar” metodikasi

Bunda o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha avvaldan tayyorlab qo'yilgan savol o'rta tashlanadi. 1-rasmda keltirilgan yoki ixtiyoriy shaklda bosh savol atrofida nuqtalar qo'yiladi. Har bir nuqtada o'rta tashlangan muammoning kelib chiqishiga yoki uning yechimiga ta'sir ko'rsatgan omillar o'quvchilar ishtirokida belgilanadi. Misol uchun berilgan savolda 2-jahon urushining yakuniga ta'sir qilgan voqea-hodisalar sifatida o'quvchilar tomonidan Germaniyaning 1941-yil 22-iyundagi SSSR ga hujumi, 1941-yil dekabrda AQSh ning Germaniya va uning ittifoqchilariga urush e'lon qilinishi, 1943-yil fevraldagi Germaniyaning 6-armiyasining Stalingraddagi mag'lubiyati, 1944-yil 6-iyundagi 2-frontning ochilishi, 1945-yil 6-9-avgustda AQSh tomonidan Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga tashlagan atom bombalari kabi javoblar berildi. Bu kabi metodlardan foydalanish tarix fanini o'qitishda o'quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish orqali o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashi, ma'lumotlarni qayta ishlash hamda tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi muhim hisoblanadi. Umuman olganda, tarix fanidan ta'lim jarayonida o'quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi [9]:

1) o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini ko'p funksiyali topshiriqlar tizimini ishlab chiqish asosida takomillashtirish;

2) o'quvchilarning tizimli fikrlashini Blum taksonomiyasi asosida rivojlantirish;

3) o'quvchilarning ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish ko'nikmalarini didaktik birliklarning semantik tizimini qurish va pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash asosida takomillashtirish.

**Xulosa.** Yuqorida ko'rsatilgan usullarni qo'llash umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishning interfaol metodlari va klaster metodidan foydalanish o'quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllanganlik darajasini oshirishga xizmat qildi. Bundan tashqari umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish asosida o'quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi tarix fanini o'qitishda ustuvorlik beruvchi innovatsion ta'lim metodlaridan biri sifatida “Nuqtalar” metodi ishlab chiqildi. Bunda tarix fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning tahliliy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi mantiqiy va tizimli fikrlash, ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish ko'nikmalarini vitagen ta'lim integratsiyasini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari vositasida shakllantirish asosida takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalari asosida umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarida tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda elektron ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratish, tarix fanini o'qitishda o'quvchilarda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish kerakligi bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. Toshkent sh.,2020-yil 23-sentabr, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikda yangi texnologiyalarning o‘rni // “infoCOM,UZ” jurnal. -2005. №7, -B. 42-43 .
4. Абдуллаева Н.М. Интеграционный метод обучения в школах и его особенности // Н. М. Абдуллаева. - Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. 2018. № 12 (198). - С. 141-142.
5. Иванова Т.П. Формирование аналитических умений и навыков зрителя в процессе внутри школьного контроля: Диссертация на соискание учён. ст. канд. пед. наук. - Москва, 1996. - 155с
6. Короткова М. В., Студеникин М.Т. Методика обучения истории в схемах таблицах и описаниях. Практическое пособие для учителей. - М., 1997.
7. Равшанов Ж.Ф. “Методика работы с понятиями и терминами на уроках истории // “Узлуксиз таълим” илмий-услубий журнали, 2020 йил махсус сон, 98-101 бетлар. (13.00.00 № 9)
8. Равшанов Ж.Ф. “Формирование некоторых ключевых компетенций на уроках истории // Муг‘аллим ҳам узлуксиз билимденрио‘ илмий-методологик журнали, 2021 йил № 2/1, 156-159-бетлар (13.00.00 № 20)
9. Ravshanov J. Methodology of forming analytical competence of students in general schools. // European journal of research and reflection in educational sciences, Great Britain, volume 10 № 3, 2022 november, ISSN 2056-5852 (13.00.00 № 3)
10. Ravshanov J.F. O‘quvchilarda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda an’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish // “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali 2022 yil 2-son, 25-27 betlar. (13.00.00 № 17)
11. Usarov. J. Using Teaching Methods for Development Student Competencies // International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 2019. 15(1), -P. 272-274.
12. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Ped.f.b. f.d. (PhD) ...dis. Avtoreferati. –Toshkent, 2019. – 221 b.
13. Avazboyev A.I. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari // Zamonaviy ta’lim. 2018. №8. B. 21.
14. Ganiyeva M., Fayzullayev D., Ne‘matov I. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalari to‘plami - Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.
15. Garry G. Azgaldov, Alexander V. Kostin, Alvaro E. Padilla Omiste. The ABC of Qualimetry. Toolkit for measuring the immeasurable Ridero 2015. p 87.
16. Daniel J. Tew. Pedagogy of Teaching History: Comparing the Chronologic and Thematic Approaches. USA. Western Oregon University, 2014.

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Turdiqulova Luiza Zayniddinovna,*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi*

*luiza.turdiqulova@gmail.com*

*Qarshi davlat universiteti dotsenti p.f.f.d.(PhD) U.L.Yoziyeva taqrizi asosida*

*Maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jamoa va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga katta e'tibor berilmoqda. Ota-onalar ta'lim xizmatlarining mijozlariga aylangan zamonaviy o'zgaruvchan sharoitlarda o'zaro ta'sir sifatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish asosiy sabablari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, ota-onalar, talim, tarbiya, pedagogik jarayon.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ И РОДИТЕЛЬСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

*В статье Сегодня в организациях дошкольного образования большое внимание уделяется взаимодействию педагогического коллектива и родителей. Представлены основные причины понимания особенностей управления качеством взаимодействия в современных меняющихся условиях, когда родители стали заказчиками образовательных услуг.*

**Ключевые слова:** организация дошкольного образования, родители, воспитание, обучение, педагогический процесс.

## PEDAGOGICAL CONDITIONS OF STRATEGIC DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION AND PARENT COOPERATION

*In the article today preschool education organizations pay great attention to the interaction between the pedagogical team and parents. The main reasons for understanding the peculiarities of managing the quality of interaction in modern changing conditions, where parents have become customers of educational services, are presented.*

**Key words:** organization of preschool education, parents, education, training, pedagogical process.

**Kirish.** Nima uchun pedagogik shart-sharoitlarga nisbatan tizimlilik haqida gapirish muhim? Ilmiy tomondan "tizim" tushunchasi tegishli ma'lum tartibda joylashgan kichik bo'lakchalarning o'zaro bog'liq elementlari birligini, umumiylikini ifodalash uchun ishlatiladi [80, 245-b]. Har bir tizimni yuqori tartibli tizimning komponenti sifatida o'rganish mumkin, lekin uning elementlari quyi tartibli tizimning bir qismi bo'lishi ham mumkin. An'anaga ko'ra, didaktik tizim yetti element shaklida taqdim etiladi: ta'lim maqsadi, mazmuni, o'quvchi, o'qitish, ta'lim texnologiyalari, vositalari va shakllari uni pedagogik fenomen sifatida o'rganish va rivojlantirishga imkon beradi. Tadqiqotlarimiz muammolariga muvofiq, tizim shakllantiruvchi rolni maqsad - maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirish o'ynaydi.

Ushbu maqsad asosida istalgan shart-sharoitlar to'plamini tizimli tanlash bir qator bosqichlarda namoyon bo'ladi: 1) maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirish jarayonini amalga oshirish imkoniyatlari tahlili; 2) maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirish imkoniyatlarini asoslash; 3) innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirishga yordam beruvchi shart-sharoitlar guruhini aniqlash; 4) pedagogik shart-sharoitni muayyan ta'lim jarayonida sinab ko'rish; 5) aniqlangan shart-sharoitlar guruhini tahlil qilish va ularni guruhlash; 6) innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik shart-sharoitlar majmuini tuzish.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).**

Pedagogik shart-sharoitlar ko'pincha pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli kechishi uchun majburiy bo'lgan holatlar bilan belgilanadi. V.M.Bajenov, P.F.Kapteryov, N.V.Kovalev, A.V.Rogachev va boshqalar tadqiqotlarida pedagogik shart-sharoitlarni tarbiyachilar tomonidan maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirishda o'z qobiliyatlarini ijtimoiy idealga muvofiq tizimli yordam berish uchun maxsus yaratilgan shart yoki sharoitlar shaklida ko'rib chiqadi. Pedagogik shart-sharoitlar ham

ta’lim nazariyasi nuqtayi nazaridan (didaktik shart-sharoit sifatida), ham ta’lim nazariyasi nuqtayi nazaridan ko’rib chiqiladi. Didaktik shart-sharoitlar ta’lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli olib borilishi yoki uning komponentlari uchun majburiy bo’lgan sharoitlardir. Shart-sharoitlar, avvalo, pedagogik jarayonning barcha jabhalarini amalga oshirishning o’ziga xos xususiyatlarini, tadqiqotimiz sharoitida-maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirish jarayonini belgilab beradi.

"Pedagogik o’zaro ta’sir" tushunchasi V.I.Zagvyazinskiy asarlarida tushuntirilgan. Tadqiqotchi buni "ko’p komponentlardan: o’quv va tarbiyaviy faoliyat, ta’lim va tarbiya maqsadlari bilan shartlangan va vositachilik qiluvchi didaktik, tarbiyaviy va ijtimoiy-pedagogik o’zaro ta’sirlardan tashkil topgan murakkab jarayon deb hisoblaydi. Pedagogik o’zaro ta’sir faoliyatning barcha turlarida mavjud: kognitiv, mehnat, ijodiy. Pedagogik o’zaro ta’sirning asosini inson ijtimoiy hayotining boshlanishi bo’lgan hamkorlik tashkil etadi”.

O’zaro ta’sirni o’rganishda "Hamkorlik pedagogikasi" alohida rol o’ynadi, bunga Sh.A.Amonashvili, I.P.Volkova, Y.N.Ilina, V.F.Shatalova va boshqalarning faoliyati yordam berdi.. Keyinchalik bu fanning yangi yo’nalishi - "o’zaro ta’sir pedagogikasi" ning rivojlanishini belgilab berdi. Ushbu yo’nalish vakillaridan biri Y.V.Korotayeva pedagogik o’zaro ta’sirlarning xilma-xilligini ajratib ko’rsatadi, ular quyidagicha tavsiflanadi: destruktiv, restrektiv, restruktiv, konstruktiv. Tarbiyachilar tomonidan o’zaro munosabatlarning bir turini tanlashga subyektiv yoki obyektiv omillar ta’sir qiladi.

Y.V.Korotayevaning ta’kidlashicha, maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o’rtasidagi konstruktiv pedagogik hamkorlikni rivojlantirish jarayonini boshqarish mumkin, yangi boshqaruv omillarini izlash muhim ilmiy vazifa deb hisoblanishi mumkin. Tadqiqotimiz kontekstida maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning o’ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratishimiz kerak.

#### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).**

Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayoni ma’lum bir texnologiya asosida o’zaro bog’liq tartib va jarayonlar tizimi ko’rinishida taqdim etiladi, texnologiyaning mazmuniy jihati bilan uzviylashtiriladi.

Maqolamizda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni muhim deb hisoblaymiz: maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirishni texnologik komponentlarning shakllanishini kuzatish orqali ta’minlash; innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanib maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirishni pedagogik boshqarish; maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirish jarayonida alohida ish shakllarining ulushini oshirish; maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirishning ilmiy, uslubiy va didaktik ta’minoti, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanib hamkorlikni strategik rivojlantirish darajasini oshirishga yordam beradi. Tanlangan pedagogik shart-sharoitlarning har birini asoslaymiz.

#### **Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

Maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirishni texnologik komponentlarning shakllanishini kuzatish orqali ta’minlashda monitoring qilish jarayonida kuzatish va nazorat usulining tavsifli xususiyati aniqlanib, miqdor jihatdan belgilangan parametrlar guruhidan foydalanish orqali ifodalanadi. Natijada ularning umumiyligida kuzatuvchiga o’rganilayotgan jarayon to’liq aks etadi. Shunday qilib, kuzatishni tashxislashda obyekt haqida maksimal miqdorda ma’lumot to’plashga intilish shart emas. Ba’zi hollarda uning holatini baholash va uni bashorat qilish uchun cheklangan axborot to’plamidan ham foydalanish mumkin, lekin bu to’plam tizimning holatini, funksiyalarini kuzatish va uning rivojlanishini maqbul aniqlik chegarasida bashorat qilish uchun rinlidir.

Tizimli-mazmuniy aloqalar ta’lim jarayonini boshqarish bilan monitoring qilish sifatida harakat qilishi mumkin deb hisoblanadi, monitoring qilish axborot olish, tashxislash, qaror qabul qilish, tashkillashtirish va boshqaruv faoliyati ijrosini ta’minlash, uning aloqa va tuzatish jihatlarigi ham ta’sir qilishi mumkin.


Monitoring natijalari ta’lim va tarbiya jarayonining maqsadlarini shakllantirishga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Buning uchun ular o’quv dasturlarida keltiriladi va monitoring tartiblarining boshlang’ich nuqtasi sifatida belgilanadi. Boshqacha aytganda, monitoring maqsad va rejalarini amalga oshirish samaradorligini baholash bilan bevosita bog’liq. Monitoringning asosiy vazifasi esa ular o’rtasidagi farqni kamaytirishdir.

Maktabgacha ta’lim muassasasi va ota-onalar hamkorligini strategik rivojlantirish monitoringi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- yo’naltiruvchi-o’zaro o’zaro hamkorlikni tashkil etishda o’z yondashuvlarini yo’naltirish orqali ta’lim jarayoni obyektlarini amalga oshirishga ko’maklashish;
- konstruktiv-aniqlangan ma’lumotlardan ta’lim jarayoni subyektlari faoliyati uchun konstruktiv strategiyani izlashga imkon berish;

- tashkiliy-faoliyatli-subyekt-subyekt va subyekt-obyekt o‘zaro ta‘sirining mazmunini tashkil yetuvchi kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish;
- baholovchi-tashxislovchi - kelajak uchun o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish tendensiyalari bo‘yicha harakatlar va takliflarning samarali darajasini qidirish va amalga oshirish.
- o‘zaro tegishli o‘zaro hamkorlikni tashkil yetishda o‘z pozitsiyalarini yo‘naltirish o‘quv jarayoni obyektlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi indikativ;
- aniqlangan ma‘lumotlardan ta‘lim jarayoni subyektlari faoliyati uchun konstruktiv strategiyani izlashga imkon beruvchi konstruktiv;
- subyekt-subyekt va subyekt o‘zaro ta‘sirining mazmunini tashkil yetuvchi amaliy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi tashkiliy va faollikka asoslangan;
- kelajak uchun o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish tendensiyalari bo‘yicha qarshi say-harakatlar va takliflarning samarali darajasini qidirish va amalga oshirishni ko‘rsatuvchi baholovchi va bashoratli.

Monitoring asosan o‘lchash jarayonini o‘z ichiga oldi. Ijtimoiy sohada o‘lchash-ijtimoiy axborotni buyurtma qilish usuli bo‘lib, unda raqamli tizimlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarda bir qator o‘lchanadigan ijtimoiy omillarga muvofiq qo‘yiladi.



1-rasm. Strategik hamkorlikni rivojlantirish parametrlari

Innovatsion ta‘lim texnologiyalarini strategik hamkorlik ehtiyojlariga moslashtirish algoritmini o‘zlashtirish imkonini beruvchi ta‘lim texnologiyalarini tanlash va shakllantirishda ota-onalar bilan teng asosda ishtirok etadigan o‘tarbiyachi-pedagoglarning o‘zlari ilmiy-metodik ishlarining ahamiyatini ko‘rsatuvchi nuqtaga e‘tibor qaratamiz.

Bunday subyekt-subyekt munosabatlar har bir tarbiyachining individual xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi va qo‘llaniladigan o‘qitish shakllari individuallikni ochib berishni ta‘minlovchi juda qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratadi.

Umuman olganda, strategik hamkorlikni monitoring qilish asosan tashkiliy, boshqaruv va pedagogik ta‘sirlarning samaradorligini aniqlash va baholash uchun qo‘llaniladi. U nazorat, analitik, diagnostik, tashxislash va ma‘lum darajada korreksion (boshqaruv faoliyatiga nisbatan) funksiyalarni bajaradi. Shu munosabat bilan strategik hamkorlikni rivojlantirish monitoringi pedagogik boshqaruvning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning kelgusida umumiy o'rta ta'lim maktabida muvaffaqiyatli o'qishi, balki hayotiy o'rnining shakllanishi ham ma'naviy-axloqiy tarbiyasi darajasiga bog'liq. Maktabgacha yosh davrida oilada va maktabgacha ta'limda tashkil etilgan ta'lim va tarbiya jarayonlarda bolaning shaxsiyati shakllanadi, ya'ni tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijtimoiy-madaniy faollik, faol muloqotga kirishuvchanlik, mustaqillik, mas'uliyat, javobgarlik kabi asosiy shaxsiy fazilatlar shakllanadi.

Bolalarni tarbiyalash insonning eng qadimgi faoliyatidir. Qadim zamonlarda u san'at bilan taqqoslangan. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, yosh avlod tarbiyasida oila birlamchi bo'lganligi haqida ko'plab dalillar mavjud. Inson rivojlanishi jarayonida bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishi alohida funksiyaga aylandi va oiladan tashqari ta'lim muassasalari shakllana boshladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'p asrlar davomida oilaning farzand tarbiyasidagi o'rni birinchi darajali ahamiyatga ega.

Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzui, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi va maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyati ularning yosh bosqichlariga xos ravishda takomillashib boradi.

Bugungi kunda pedagogik jamoa va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga katta e'tibor berilmoqda. Ota-onalar ta'lim xizmatlarining mijozlariga aylangan zamonaviy o'zgaruvchan sharoitlarda o'zaro ta'sir sifatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun "o'zaro ta'sir" tushunchasining mohiyatini ko'rib chiqish muhimdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan aloqasi mustahkam bo'lsa, pedagoglar va ota-onalar o'rtasida ishonch va hamkorlik aloqalari o'rnatilsa, ta'lim-tarbiya oldidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkin. O'zaro ta'sir ta'lim-tarbiya muassasasi ichidagi bo'linmalarning eng yaqin mikrojamiyat bilan o'zaro munosabatlari orqali ta'lim maqsadlariga erishishning ustuvor mexanizmi, jamoada shaxsni samarali tarbiyalash sharti, kasbiy tayyorgarlik va moslashuv omili sifatida tushuniladi. Ta'kidlash mumkinki, ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalalari maktabgacha ta'lim pedagogikasida ko'rib chiqilgan.

#### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Aytilganlarni sarhisob qilar ekanmiz, shuni ham ta'kidlash kerakki, biz maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar o'rtasidagi strategik hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan ilmiy, uslubiy va didaktik ta'minoti: ilmiy va amaliy konferensiyalar va pedagogik o'qishlarni o'z ichiga oladi; tematik uchrashuvlar; ijodiy ishlarning sharhlari; ilmiy, pedagogik va boshqa adabiyotlar sharhlari; tanlovlar; fan oyliklari; maxsus kurslar va o'zgartirilgan dasturlarni ishlab chiqish; o'z mahorati va tajribasidan unumli foydalanish imkonini beradi.

Bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning kelgusida umumiy o'rta ta'lim maktabida muvaffaqiyatli o'qishi, balki hayotiy o'rnining shakllanishi ham ma'naviy-axloqiy tarbiyasi darajasiga bog'liq. Maktabgacha yosh davrida oilada va maktabgacha ta'limda tashkil etilgan ta'lim va tarbiya jarayonlarda bolaning shaxsiyati shakllanadi, ya'ni tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijtimoiy-madaniy faollik, faol muloqotga kirishuvchanlik, mustaqillik, mas'uliyat, javobgarlik kabi asosiy shaxsiy fazilatlar shakllanadi.

Bolalarni tarbiyalash insonning eng qadimgi faoliyatidir. Qadim zamonlarda u san'at bilan taqqoslangan. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, yosh avlod tarbiyasida oila birlamchi bo'lganligi haqida ko'plab dalillar mavjud. Inson rivojlanishi jarayonida bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishi alohida funksiyaga aylandi va oiladan tashqari ta'lim muassasalari shakllana boshladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'p asrlar davomida oilaning farzand tarbiyasidagi o'rni birinchi darajali ahamiyatga ega.

#### **Adabiyotlar:**

1. Miklyayeva N.V.. Bolalar bog'chasida pedagogik o'zaro ta'sir. Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2010. - 180 s
2. Ibragimov X., Abdullayeva SH.. Pedagogika nazariyasi / Darslik. T., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet.
3. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma. - T.: «Fan», 2004, 182-b.
4. Ziyomhammadov B. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.-T.: "Turon-Iqbol" .2006.-58-68 b
5. Mallyayev D.M., Omarova P.O., Gasanova Z.Z..- M.: SMUR Academia, 2008. - 143 s.



## МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ПАРЕМИК ЖАНРЛАР ВОСИТАСИДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ

*Камилова Гулмира Алимовна,*

*Бухоро давлат педагогика институти в/б профессори, п.ф.н.,*

*Мактабгача ёшдаги болалар ёшликданоқ топишмоқ, яъни жумбоқ жавобини топишга қизиқадилар ва эртак тинглашни хуш кўрадилар. Бунда паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантиришга доир тамойиллар қўл келади. Мақолада шу ҳақида мулоҳазалар билдирилган.*

*Калит сўзлар:* мактабгача ёш, тамойил, экология, топишмоқ, мақол, афоризм, қизиқтириш, ҳикоя, эртак.

## ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ПРИ ПОМОЩИ ПАРЕМИЧЕСКИХ ЖАНРОВ

*Дети дошкольного возраста с интересом находят ответы на загадки и с удовольствием слушают сказки. В этом помогают принципы развития экологической культуры посредством паремических жанров. В статье идёт речь об этом.*

*Ключевые слова:* дошкольный возраст, принцип, экология, загадка, пословица, афоризм, интерес, рассказ, сказка.

## PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH PAREMIC GENRES

*Preschool children find answers to riddles with interest and listen to fairy tales with pleasure. The principles of the development of ecological culture through paremic genres help with this. The article comments on this.*

*Key words:* preschool age, principle, ecology, riddle, proverb, aphorism, interest, story, fairy tale.

**Кириш.** “Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари”да кичик ёшдан бошлаб тайёрлов гуруҳига қадар билиш жараёнининг ривожланиши тадқиқий билиш ва самарали рефлексив фаолият соҳасида болалар билиши лозим бўлган талаблар киритилган.

Тажрибалар шуни кўрсатдики, болалар топишмоқ яъни жумбоқ жавобини топишга қизиқадилар ва эртакларни айниқса ётиш олдидан тинглаб, ухлаб қолишни хуш кўрадилар.

Ўрганилган адабиётлар таҳлили шуни англатдики, паремик жанрлар намуналари топишмоқ, эртак ва мақоллар болалар ақлини чархлайди, уларни зукко қилиб тарбиялайди, болаларда ўзаро меҳр-муҳаббатли бўлишга чақиради. Топишмоқни шунчаки жавобини топишга эмас балки жавобини чуқур англаб олишга имкон беради. Ранг-баранг бўлган топишмоқ, эртак ва мақоллар турли ёш гуруҳларда турлича ўргатилиш, ўқитилиш талабига эга.

Мактабгача ёшдаги болаларни мактаб таълимига тайёрлаш жараёнида болалар учун тавсия этилаётган паремик жанрлар намуналарини ёши, интеллектуал имкониятларини ҳисобга олган ҳолда танлаш мақсадга мувофиқдир. Бу босқич тарбияланувчиларда ахлоқий инсоний сифатларни ривожлантиришда асосий босқич саналади.

Шу боисдан мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланувчиларни табиат олами билан таништириш билан бир қаторда асосий восита сифатида паремик жанрлардан фойдаланиш фойдадан холи эмас.

Мактабгача ёшдаги болалар билан ташкил этилаётган фаолиятларнинг асосий вазифаларидан бири ўсиб келаётган ёш авлодни мустақил фикрлашга ўргатиш, теварак-атрофга нисбатан муносабатини эркин билдира оладиган муҳит яратиб беришдан иборат.

Ҳар бир бола ўз олдига қўйиладиган вазифани бажаришда онгли тушунган ҳолда муносабат билдириши, мустақил равишда фикрлай олиши ва эркин фаолиятда киришиши учун ўз билимини намоен эта олиши, фаолият мобайнида турли хил вазиятларга дуч келса бу ҳолат унда қизиқиш уйғота олиши керак.

Тадқиқот методикаси. Мактабгача ёшдаги болалар жуда қизиқувчан бўлганлиги боис, ҳар қандай муаммога дуч келсалар уни тезда баргараф этишга киришадилар. Яъни айтилган топишмоқ жавобини тез топишга киришадилар. Бу ёшдаги болаларнинг билишга бўлган қизиқишини оширишда таълимий муҳитни ҳозирлаш муҳим саналади. Ҳар қандай бола берилган жумбоқни ўрганиш орқали таҳлил қилиш, умумлаштириш, тартибга сола билиш каби кўникмаларни эгаллашга ҳаракат қилади.

Бола тарбиячи томонидан ҳикоя қилинган эртақни бола диққат билан эшитиш оқали теварак-атрофни, инсонларни, тенгдошларини идрок эта бошлайди. Ҳикоя қилинган ёки ўқиб берилган эртақ, мақоллар орқали тарбиячининг фикрларини англаб олиш, асар аҳамиятига, мавзусига ва эртақ қаҳрамонларининг тасвирланишига кўп жиҳатдан боғлиқ.

Мактабгача ёшдаги болаларни паремик жанрлар намуналари орқали экологик маданиятни ривожлантириш ишларини бажараётган тарбиячи-педагоглар қатор маъсулиятли вазифаларни ҳал қилишлари муҳим ҳисобланади.

Шуни таъкидлаш жоизки, тарбиячи-педагогларнинг олиб бораётган фаолияти тарбияланувчиларнинг ҳар томонлама гармоник ривожланиши учун зарурий шартдир.

Буларни қуйидаги изоҳлаш мумкин: мактабгача ёшдаги болаларни “ Илм фан ва табиат ” марказида ўтказиладиган тажрибалар билан таништириш билан бирга атроф олам ҳақида билим ва кўникмалар, осмон жисмлари ва унда содир бўлаётган воқеа-ҳодисалар ҳақидаги маълумотлар чуқурлаштирилади.

Ушбу маълумотлар ўқитиш, билим бериш орқали амалга оширилади. Ўқитиш-икки томонлама жараён бўлиб, бунда тарбиячи билан болалар фаол иштирок этгандагига у увффақиятли амалга ошади. Тарбиячи янги маълумотни баён қилибгина қолмай, балки унинг ўзлаштириб олинишга ҳам эришилади. Болаларнинг билиш фаолиятига фаол таъсир кўрсатиб унга раҳбарлик қилади.

Ўқитиш натижалари билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштириб олишда ҳам, бола шахсининг ўзгаришида намоён бўлади.

Тадқиқотимиз давомида тарбияланувчилар томонидан эгаллаши лозим бўлган билим, ва малакаларни қабул қилишга оид экологик маданиятни ривожлантириш босқичларини белгилаб чиқдик:

Булар қуйидагича изоҳланади.

Биринчи босқич- шу билан тавсифланадики, болалар тарбиячининг тушунтиришларини тинглайди, сайр ва экскурсиялар, таълимий марказларда фаол иштирок этадилар, ва унга амал қилишга ҳаракат қилади. Олинган маълумотларни болалар онгли қабул қиладилар. Бунда табиат ва экологига оид маълумотлар шаклланиб бўлган бўлади. Топишмоқ, эртақ ва мақолларни маъносини англаб этадилар. Табиат неъматларини асрашни тушуниб этадилар.

Иккинчи босқич- бунда болалар бирор нарсага ўргатилиши ва маълумот берилиши мумкин бўлиб, улар кўрсатмаларга амал қиладилар, топшириқларни бажаришда бир-бирларига тақлид қилишга мойил бўладилар, ўз натижаларини бошқалар натижаси билан таққослаб ўз-ўзларини текширадилар. Табаитга оид тажрибаларда иштирок этиш хоҳиш ва истаклари пайдо бўлади.

Учинчи босқич-бунда бола машғулотларда ва тажрибаларда ташқи кўринишдаги умумий интизомлилик билан тавсифланади, тавсияларга кулоқ соладилар. Топишмоқ жавобини топишга интилади. Эртақларни мазмунан англаб оладилар. Мақолларни мазмунини тушуниб этишга интилиш пайдо бўла бошлайди...

Муҳокама ва натижалар. Биз тадқиқот жараёнида мактабгача ёшдаги болаларни паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантиришга оид қуйидаги тамойилларни белгилаб чиқдик:

1. Танлаб олинган паремик жанрларнинг илмийликка асосланиши;
2. Паремик жанрларнинг анъанавийлиги тамойили;
3. Танлаб олинган жанрларнинг ёш хусусиятларини инобатга олиш тамойили;
4. Жанрлар воситасида болаларни ҳар томонлама ривожлантириш тамойили; ( намунавийлик, ибратлилик, ижобий хулоса чиқариш)
5. Жанрда ўхшаш сўз ва жумбоқнинг топишга қаратилганлик тамойили;
6. Паремик жанрлардан фойдаланишда системалилик тамойили;
7. Паремик жанрлардан фойдаланишда изчиллик тамойили;
8. Паремик жанрларни тушунтиришда билимларни ўзлаштириб олиш, болаларнинг онглилиги ва фаоллиги тамойили;
9. Паремик жанрларда кўрсатмалилик тамойили;
10. Тарбияланувчиларга паремик жанрларни тушунтиришда яқка ёндашув тамойили;
1. Танлаб олинган паремик жанрларнинг илмийликка асосланиши;

Таълимий тамойиллар -ўқитиш таълим бериш ишларини ташкил этишда тарбиячи амал қиладиган асосий тамойилдир. Танлаб олинган тамойиллар илмий асосланган бўлиши лозим. Чунки паремик жанрлар илдизи узоқ тарихга бориб тақалади. “Авесто” деб аталган маънавий меросимизда паремик жанр намуналари, ёдгорликлари ўз аксини топган. Илмий жихатдан асосланган бу тарихий манбада буюк маданият, ўлмас кадрият ва анаъанлар, паремик жанрларда ўрин эгаллаган.

2. Паремик жанрларнинг анъанавийлиги тамойили;

Халқ оғзаки ижоди назарда тугилган ғоя, мазмун, образ хусусиятлари-буларнинг барчаси халқ оғзаки ижоди қоидаларига суянган ҳолда- анъанавийлик тамойилига асосланган ҳолда намоён бўлади. Паремик жанрлардаги матн анъанасининг ўзини ҳам икки кўринишга ажратиш мумкин. Биринчисидан, ҳар бир асарнинг жанр хусусиятларини белгиловчи анъанавийлик (ҳажм, шакл, мазмун) бўлса, иккинчидан, бадиий тасвир воситалари-бадиий санъатларда намоён бўладиган анъанавийлик

3. Танлаб олинган жанрларнинг ёш хусусиятларини инобатга олиш тамойили;

Ҳар ким ўз фарзандининг ақлий ва жисмоний жихатдан комил бўлиб етишишини хоҳлайди. Бола ёшлигидан эртақ ва қўшиқлар таъсирида улғаяр экан, унинг маънавий қиёфаси шаклланади. Қувлашмачоқ, Бекинмачоқ, чиллак, варрак учирини эса уни жисмонан чиниктиради. Бинобарин, асрлар давомида халқ болани ақл, фаросат, хотира машқлари ва турли жисмоний ҳаракатлар орқали балоғат ёшига етганида ҳаётга ҳар жихатдан етук инсонни тарбиялаш режаси асосида иш олиб борган. Ҳеч иккиланмай айтиш мумкинки, дунё илм-фани тараққиётига муносиб ҳисса қўшган ўнлаб алломаларнинг айнан бизнинг миллатимиз ва юртимиздан чиқишида болалар фольклоридagi қўшиқ, эртақ, чандиш, топишмоқ, тез айтишлар ҳиссаси ҳам йўқ эмас.

4. Жанрлар воситасида болаларни ҳар томонлама ривожлантириш тамойили; ( намунавийлик, ибратлилик, ижобий хулоса чиқариш) Болалар боғчалари, мактабларда ўйинлардан кенг фойдаланилади. Болалар фольклори ёш авлодни интизомли, жасур, қатъиятли, қийинчиликларни енгишга, ўртоқларига ёрдам беришга тайёр бўлиш сингари яхши сифатларга эга бўлиб ўсишларига ёрдам беради. Унинг айрим намуналари мактаб дарсликлари ва ўқиш китобларига киритилган.

Тарбиячи, ҳар томонлама ривожлантириш тамойилига амал қилиб, болаларга бажариш бир оз куч-ғайратни, ақлий фаолиятни талаб этадиган қийинчилик даражаси етарлича юқори бўлган топшириқлар айтади ёки ахлоқий жихатдан тарбиялайдиган мақол ва эртақларни ўқиб беради. Бу тамойилнинг вазифаси-фақат билим бериш эмас, балки шу билимлар орқали ҳаётга, теварак-атрофдаги борлик, табиатга, меҳнатга, кишиларга тўғри муносабат ҳосил қилишдир.

5. Жанрда ўхшаш сўз ва жумбоқни топишга қаратилганлик ва ахлоқ меъёрларига асосланганлик тамойили;

Топишмоқларда топиши лозим бўлган нарсанинг шакли, ҳажми, ранги, вазифаси ва шу каби хусусиятлар ҳақида маълумот берилади, аммо бу белгилар истиора санъатидан фойдаланилган ҳолда бошқа нарса билан боғланади. Масалан: қопча ичида унча, унча ичида устунча.

Бу матнда яширинган нарсанинг учта белгиси учта истиора воситасида берилган. Демак, унинг шакли қопга, ичидаги қисми унга ўхшатишмоқда. Фақат ун ўртасида устуни ҳам бор экан. Топишмоқни топаётган одам матнда жийда ҳақида гап кетаётганини топса, фикрий мусобақада енгган бўлади.

Ахлоқ меъёрлари мужассамлашган эртақ ва мақолларда ҳам экологик мавзулар ёритилади. Эртақда тасвирланган табиий олам, муҳит ва ундаги ўзгаришларни бола онгида сақлаб қолиниши учун расм ва видеолардан фойдаланилса мақсадга мувофиқ бўлади. Ўрмонни кўрмаган бола видео ёки мультфилмларда дарахтларнинг жуда кўплигини ва улар жуда ҳам баланд эканлигини, табиат манзарасининг гўзаллигини, ўрмонда турли хил ҳайвонлар яшашини кўриб зақланади. Болажонлар айниқса ҳайвонлар ҳақидаги эртақларни севиб томоша қиладилар.

6. Паремик жанрлардан фойдаланишда системалилик тамойили;

Бу тамойил-жанрларни ўрганишнинг шундай мантиқий тартибини назарда тутадиги, бунда янги билимлар аввал ўрганилган эртақ, мақол, топишмоқларга таянади. Жанрлардан фойдаланишда ҳам бу тамойилга риоя қилиш керак. Тарбиячи машғулотларда жанр намуналарини ўрганишни шундай тақсимлайдиги, машғулотдан машғулотга ўтган сари унинг доимо мураккаблашуви, кейинги материалнинг аввалги материал билан боғлиқлиги таъминланади, бу эса билимларнинг аниқ бўлиши ва мустаҳкамланишига ёрдам беради.

7. Паремик жанрлардан фойдаланишда изчиллик тамойили;

Бу тамойил-теварак-атрофдаги ҳодислар тўғрисидаги билимларнинг изчиллик билан тўпланиб бориши асосида тарбиячи болаларда умумлашган тушунчалар ҳосил қилади. Масалан, куз ойлари мобайнида болалар тарбиячи билан бирга табиатдаги ўзгаришларни кузатадилар. Мавсумнинг

охирида ўтказиладиган умумлаштирувчи суҳбатда тарбиячи болаларни кузнинг характерли хусусиятлари, унинг бошқа йил фаслларида фарқи тўғрисида хулоса чиқаришга олиб келади. Бу тамойилда кичик жанрлар болалар томонидан англандан, тушуниб олинган тақдирдагина мустаҳкам бўлади. Бола жанрлардан қанчалик, фаол фойдаланса, улар шунчалик яхши англаб олинади, мабодо болалар олдида ақлий вазифа қўйилса, олинган билимлар яхши ўзлаштириб олинади.

8. Паремик жанрларни тушунтиришда билимларни ўзлаштириб олиш, болаларнинг онглилиги ва фаоллиги тамойили;

Болалар томонидан билимлар англандан, тушуниб олинган тақдирдагина мустаҳкам бўлади. Болалар эртақ, топишмоқ ва мақоллар мазмунини тушуниб етишсагина улар онгида узоқ вақтгача сақланиб қолади, берилган топшириқларни муваффақиятли бажаради.

Мактабгача ёшдаги болаларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш учун педагог турли усуллардан фойдаланади. Улардан бири саволлар беришдир. “ Нима учун сиз бу расмда куз тасвирланган, деб ўйлайсиз?”, “ Топишмоқда камалак ҳақида гапирилишини қандай қилиб топдингиз?”, “ Қорни хонага олиб кирсак, унима бўлади?”. Жавоб топишда болалар ўзларининг амалий тажрибаларига суянадилар; агар улар қийналса, тарбиячи уларни кузатишга, мулоҳаза юритишга жалб қилади.

Мактабгача таълим ташкилотларида таққослаш усулидан кенг фойдаланилади. Масалан, ниначи билан капалакни таққослашда болалар уларнинг ташқи кўриниши, овқатланиш усулига боғлиқлигини аниқлайдилар, шунга ўхшаш топишмоқ айтишлари мумкин. Сайр вақтида эса уларни кузатишлари мақсадга мувофиқ саналади.

Болаларда табиатга ва унда содир бўладиган воқеалар билиш фаоллигини ривожлантириш мақсадида болаларнинг энг оддий изланиш фаолияти ташкил этилиши мумкин.

9. Паремик жанрларда кўрсатмалилик тамойили;

Мактабгача ёшдаги болаларда паремик жанрлар билан таништиришда кўрсатмалилик тамойили муҳим ўрин эгаллайди, чунки боланинг тафаккури яққол, образли бўлади.

Болалар эртақда тасвирланган ҳайвонларни расмини кўришлари, меваларни татиб кўришлари, ушлаб сезиш мумкин бўлган нарсаларни-ушлаб билиб олишлари керак. Бирданига кўп сезгилар ёрдамида идрок этиш мумкин бўлган нарсаларни иложи борича, бир неча сезгилар иштирокида идрок этишлари лозим.

Ҳозирги замон мактабгача таълимида кўрсатмалиликнинг хилма-хил турлари, жонли табиатни кузатиш, предметлар, суратлар, намуналарни кўздан кечириш, ўқитишнинг техника воситаларидан фойдаланишни мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз.

10. Тарбияланувчиларга паремик жанрларни тушунтиришда яққа ёндашув тамойили;

Болалар ақлий фаолиятнинг турли даражада мосланувчанлиги, билимларни турли суръатда ўзлаштириб олиш билан фарқ қилади. Айрим болалар топишмоқ жавобини тез топа оладилар, бошқалари эса тўғри хулосага келиши учун жуда кўп ўйлаб кўриши керак.

Айрим болалар ўқиб берилаётган эртақ мазмунини тез тушуниб олади ва эслаб қолади, бошқаларнинг эса янги эртақ ёки мақолни ўзлаштириб олиши учун узоқ вақт ишлаш ва такрорлаши лозим бўлади. Малака ҳам турли суръатда ҳосил бўлади, айрим болалар иш-ҳаракат ўн марталаб такрорлангандан кейин автоматик равишда бажаради, бошқаларда эса такрорлашлар сони икки ва уч марта ортади ва шундан кейин иш ҳаракат автоматлашади. Бунда марказларда олиб бориладиган тажриба ишлари бир неча марта такрорак кўрсатилгандагина болада аниқ тасаввур шаклланади. Эртақдаги воқеа-ҳодисалар ҳам масалан “ Зумрад ва Қиммат ” эртагида калин ўрмонда Зумрад адашиб қолиб кетишини бир неча бор тасаввур орқали бола эсда сақлаб қолади.

Хулоса. Мактабгача таълим ташкилотларида тарбиячи юкоридаги тамойилларга амал қилиб, болаларни ўқитишда ва паремик жанрлар билан таништириш орқали экологик маданиятни ривожлантиришга эришади.

Мактабгача ёшдаги болаларни паремик жанрлар воситасида экологик маданиятни ривожлантириш жараёни дидактик тузилманинг ташкилий-методик тамойилларига таянган ҳолда ҳаракат қилади. Ушбу жараёни ташкил этиш илмий манба, табиат олами, тажрибалар жараёни, билимларни ўзлаштириб олиш, болаларнинг онглилиги ва фаоллиги тамойилларига асосланиши лозим.

Ушбу мақсадда тарбиячи бир қатор усуллардан фойдаланиши лозим. Бунда болаларнинг диққат-эътибори эртақ мазмунига, топишмоқда яширинган жумбоққа қаратилса, мақолларда панд-насихатларга қаратилади. Бола шу йўсинда жанрлар мазмунини яхши тушуниб олади ва табиатда учрайдиган воқеа-ҳодисалар билан таққослайди.

**Адабиётлар:**

1. “ Илк қадам ” такомиллаштирилган Давлат ўқув дастури. Тошкент. 2022 йил
2. Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари. Тошкент. 2018 йил.
3. Камилова Г.А. Халқ оғзаки ижоди-мактабгача ёшдаги болаларда экологик маданиятни шакллантириш воситаси сифатида.”Ta`lim va innovatsion tadqiqotlar ” jurnali. 2023 у.150-153 бетлар.
4. Камилова Г.А. Экологик тарбия ва экологик маданиятни паремик жанрлар воситасида шакллантириш. “Boshlangich ta`lim mazmunini takomillashtirish:O`quv dasturi-o`qituvchi baholash” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.2023-yil 19-oktabr. Buxoro- 2023 у, 304-306 бетлар.
5. Жаҳонгиров Ғ., Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди, Т., 1980 й
6. Сафаров О., Ўзбек болалар поэтик фольклори, Т., 1985 й

**ОБУЧЕНИЕ РЕШЕНИЮ ЗАДАЧ ПО МАТЕМАТИКЕ В ПЕРВОМ КЛАССЕ  
НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЗАДАЧ СКАЗОЧНОГО СОДЕРЖАНИЯ**

*Мустафоев НEMAT Сафоевич,*

*старший преподаватель Бухарского инженерно-технологического института  
mamatov.tulkin@mail.ru*

*В работе рассмотрены сюжетные задачи со сказочным содержанием для 1-классов начальной школы. Сюжетные задачи, особенно практически сориентированные, обеспечивают связь математики с реальной жизнью ребёнка, выявление учеником своей компетентности.*

**Ключевые слова:** задача, математические методы, сюжетной задача, арифметика, решение.

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDA MASALALARNI ERTAK  
MAZMUNLI MASALALARDAN FOYDALANIB YECHISHNI O‘RGATISH**

*Ushbu maqolada boshlang‘ich maktabning 1-sinflari uchun ertak mazmunidagi syujet masalalari o‘rganiladi. Syujet asosidagi, ayniqsa amaliy yo‘naltirilgan topshiriqlar, matematika va bolaning real hayoti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlab, o‘quvchiga o‘z malakasini aniqlash imkonini beradi.*

**Kalit so‘zlar:** masala, matematik usullar, syujetli masala, arifmetika, yechim.

**TEACHING TO SOLVE PROBLEMS IN MATHEMATICS IN THE FIRST CLASS IN  
PRIMARY SCHOOL USING THE PROBLEM OF FAIRY SCHOOL CONTENT**

*The paper considers plot tasks with fairy-tale content for grades 1 of elementary school. Plot tasks, especially those practically oriented, provide a connection between mathematics and the real life of the child, and the student reveals his competence.*

**Keywords:** problem, mathematical methods, plot problem, arithmetic, solution.

**Введение.** Одной из задач обучения математике в первом классе начальной школы является формирование у учеников способности распознавать практические проблемы, которые можно решить с применением математических методов. В связи с этим особенно значимая роль отведена содержательной линии «Сюжетные задачи».

Сюжетные задачи выступают важным средством:

иллюстрации и конкретизации учебного материала; развития познавательных процессов, овладения приемами умственной деятельности;

воспитания волевых качеств, эстетических чувств; развития умения строить суждения, строить умозаключения;

формирования у учеников мотивации их учебной деятельности, интереса и способности к этой деятельности.

**Методика исследования.** Сюжетные задачи, особенно практически сориентированные, обеспечивают связь математики с реальной жизнью ребёнка, выявление учеником своей компетентности. Умение решать задачи являются показателем обучаемости и научаемости, способности к самостоятельной учебной деятельности.

Целью этой содержательной линии является формирование у учеников общего умения работать с задачей, умений решать задачи определенных типов.

В 1-м классе формируют понятие о задаче (простой или составной), ее структурными элементами, сущности процесса решения. Основной целью являются обретение учениками общего умения решать сюжетные задачи.

Учитывая методическую целесообразность, задачи на нахождение суммы трех слагаемых рассматриваются в пределах подраздела «Простые задачи». Запись их решения выражением есть более простой для учеников, чем решение двумя действиями. Кроме этого, такие задачи в дальнейшем широко применяются для подготовки учеников к работе с задачами на раскрытие сути умножения. Сюжетные задачи подаются с постепенным повышением сложности. Рассматривают также задачи с буквенными данными и геометрическим содержанием. Представление о процессе решения задачи формируется как переход от текстовой модели (текст задачи) к схематической (короткая

запись, схематический рисунок), а дальше - к математической (выражение, уравнение). Процесс решения задачи предусматривает анализ ее условия, представление результатов этого анализа в виде вспомогательной модели - короткой записи (схематично, таблицей, чертежом), схематического рисунка и т.п.; поиск путей и составление плана решения задачи, создание математической модели задачи. Во время решения простых задач акцент относится на обосновании выбора арифметического действия, необходимого для ответа на вопрос задачи; во время решения составных - на аналитических или синтетических соображениях относительно поиска плана решения. Для решения сюжетных задач преимущественно избирается арифметический способ; алгебраический - вводится лишь с целью ознакомления. Решение задачи арифметическим способом записывают действиями с объяснением к каждому из них или с помощью выражения. Этим обеспечивается единство выполнения умственных действий анализа и синтеза.

**Результаты и их обсуждение.** Сюжетные задачи со сказочным содержанием. Программные требования к сюжетным задачам в 1 классе.

Объем изучаемого в 1-м классе по «Программе по математике в 1-4 классах начальной школы» [5] материала для подготовки к решению сюжетных задач:

нумерация и порядок образования целых чисел от 1 до 100, число 0;

понятие операций сложения и вычитания (слагаемое, уменьшаемое, вычитаемое, результат (сумма или разность чисел));

поразрядное сложение и вычитание одно- и двухразрядных чисел в пределах 100 без перехода через разряд;

сложение и вычитание одно- и двухразрядных чисел в пределах 20 с переходом через разряд;

знание единиц длины (см, дм, м), веса(кг), объема(л), времени (час, день, неделя) и связи между единицами;

знание простых геометрических фигур (треугольник, квадрат, круг, куб).

#### **а) Простые задачи**

Простые задачи на нахождение суммы, разности двух чисел; увеличение и уменьшение числа на несколько единиц, разностное сравнение; нахождение неизвестного слагаемого, уменьшаемого, вычитаемого. Задачи, которые содержат изученные величины длины, веса, емкости, стоимости, времени. Обратная задача (ознакомление).

Процесс решения задачи: ознакомление с текстом задачи, выделение из него условия и вопроса, числовых данных и искомого, объекта (объектов) задачи, моделирование описанной ситуации с помощью схематических рисунков, отбор и обоснования арифметического действия для решения задачи, запись решения, формулирование и запись ответа задачи.

#### **Задачи со сказочными персонажами**

##### **Задачи на нахождение суммы**

№1. Золушка вымыла 6 тарелок утром, а в обед - 7 тарелок. Сколько всего тарелок вымыла Золушка?

Решение

Утром - 6 (первое слагаемое)

В обед - 7 (второе слагаемое)

Всего - ? (сумма слагаемых)

$+ 7 = 13$

Ответ: Всего Золушка вымыла 13 тарелок

№2. Карлсон съел 7 банок варенья, а Малыш только 2. Сколько банок варенья они съели вместе?

Решение

Карлсон - 7 (первое слагаемое)

Малыш - 2 (второе слагаемое)

Всего - ? (сумма слагаемых)

$+ 2 = 9$

Ответ: Вместе Малыш и Карлсон съели 9 банок варенья

##### **Задачи на нахождение неизвестного слагаемого**

№3. Снегурочка увидела на дереве 18 птичек. 8 из них были воробьи, а остальные синички. Сколько синичек увидела Снегурочка на дереве?

Решение

Воробьи - 8 (первое слагаемое)

Синички - ? (второе слагаемое)

Всего - 18 (сумма слагаемых)

$$+ ? = 18$$

$$- 8 = 10$$

Проверка:

$$+ 10 = 18$$

Ответ: На дереве Снегурочка увидела 10 синичек

№4. Незнайка решил 14 примеров. Из них 11 примеров были на сложение, а остальные на вычитание. Сколько примеров на вычитание решил Незнайка?

Решение

Сложение - 11 (первое слагаемое)

Вычитание - ? (второе слагаемое)

Всего - 14 (сумма слагаемых)

$$+ ? = 14$$

$$- 11 = 3$$

Проверка:

$$+ 3 = 14$$

Ответ: Незнайка решил 3 примера на вычитание

**Задачи на нахождение уменьшаемого**

№5. Когда Кай составил из льдинок Снежной королеве 8 слов, ему осталось составить еще 9 слов. Сколько всего слов должен был составить Кай?

Решение

Всего - ? (уменьшаемое)

Составил - 8 (вычитаемое)

Осталось составить - 9 (разность)

$$? - 8 = 9$$

$$+ 9 = 17$$

Проверка:

$$- 8 = 9$$

Ответ: Всего Кай должен был составить из льдинок 17 слов для Снежной Королевы

№6. Карабас-Барабас продавал билеты в кукольный театр. Когда он продал 26 билетов у него осталось 4 билета. Сколько всего билетов хотел продать Карабас-Барабас?

Решение

Всего - ? (уменьшаемое)

Продав - 26 (вычитаемое)

Осталось продать - 4 (разность)

$$? - 26 = 4$$

$$+ 26 = 30$$

Проверка:

$$- 26 = 4$$

Ответ: Всего Карабас-Барабас хотел продать 30 билетов в кукольный театр

**Задачи на нахождение остатка**

№7. Фрекен Бок пожарила 20 котлет. Малыш съел 5 котлет. Сколько котлет осталось?

Решение

Было - 20

Съел - 5

Осталось - ?

$$- 5 = 15$$

Ответ: Осталось 15 котлет

№8. На столе в коробке было 15 конфет. Карлсон съел 9 конфет. Сколько конфет осталось в коробке?

Решение

Было - 15

Съел - 9

Осталось - ?

$$- 9 = 6$$

Ответ: Осталось 6 конфет

**Задачи на увеличение и уменьшение числа на несколько единиц**



№9. В среду Пьеро сочинил 2 стихотворения, а в четверг - на 3 больше. Сколько стихотворений сочинил Пьеро в четверг?

Решение

В среду - 2

В четверг - ?, на 3 больше

$+ 3 = 5$

Ответ: В четверг Пьеро сочинил 5 стихотворений

№10. Баба-Яга загадала Ивану-царевичу 10 легких загадок, а трудных - на 5 меньше. Сколько трудных загадок задала Баба-Яга?

Решение

Легких - 10

Трудных - ?, на 5 меньше

$- 5 = 5$

Ответ: Баба-Яга загадала Ивану-царевичу 5 трудных загадок

№11. В мешке у деда Мороза 8 игрушечных медведей и 20 игрушечных зайчиков. На сколько у деда Мороза в мешке больше зайчиков, чем медведей?

Решение

Медведей - 8

Зайчиков - 20, на ? больше

$- 8 = 12$

Ответ: В мешке у Деда Мороза на 12 зайчиков больше, чем медведей

**Выводы.** В работе рассмотрены сюжетные задачи со сказочным содержанием для 1-классов начальной школы, распределенные с новой программой математики для начальных классов 2021/2022 учебного года: 31 задача для 1 класса;

Систематизированы программные требования по обучению школьников, а, соответственно, сюжетные задачи и их решения представлены в соответствии с программой подготовки младших школьников для решения сюжетных задач.

Практическая ценность этой работы состоит в возможности использования ее как практическое учебное пособие для учителей 1 классов начальной школы при изложении курса математики.

### Литература:

1. Беденко М. Математика з усмішкою. Робочий зошит. Жабка-мандрівниця. 1 клас. - Тернопіль: Вид-во «Богдан», 2011. - 32 с
2. Беденко М. Барвисті задачі: Збірник задач. 1 клас - Тернопіль: Вид-во «Богдан», 2003. - 112 с.
3. Блинова И.В. Занимательные сказочные материалы к урокам литературного чтения и математики в 1-4 классах начальной школы. - М.: Учитель, 2008. - 78 с.
4. Жукова Л. Математические олимпиады с стране сказок. - Белгород, Изд-во «Белый город», 2011 - 144 с.
5. Скворцова С.О. Математика 1 клас: Експериментальний навчальний посібник для загальноосвітніх навчальних закладів: У 4 ч. / С.О. Скворцова, О.В. Онопрієнко. - Ч.1. - Х.: Вид-во «Ранок», 2011. - 80 с.:
6. Учебник. В 2 ч. Математика.1 класс. М.И. Башмаков, М.Г. Нефедова- М., АСТ, Астрель, 2012. - 125 с.

## INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNI LOYIHALASHTIRISH METODIKASI

*Omonova Dildora Nekmurod qizi,  
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida loyihalashtirish, shuningdek, boshlang‘ich sinfda darslarni integratsiyalab tashkil etishning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim integratsiyasi, integratsiya, milliy o‘quv dasturi, ijodiy izlanish, amaliy integratsiya.

## МЕТОДИКА ПРОЕКТИРОВАНИЯ РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

*В данной статье говорится о роли и значении проектирования в процессе развития языковых компетенций учащихся младших классов, а также комплексной организации уроков в начальной школе.*

**Ключевые слова:** образовательная интеграция, интеграция, национальная учебная программа, творческие исследования, практическая интеграция.

## METHODOLOGY FOR DESIGNING THE DEVELOPMENT OF LANGUAGE COMPETENCIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

*This article talks about the role and importance of designing in the process of developing linguistic competences of elementary school students, as well as the integrated organization of lessons in elementary school.*

**Key words:** educational integration, integration, national curriculum, creative research, practical integration.

**Kirish.** Ta‘lim integratsiyasi – fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integratsiyalashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta‘riflar turlicha. Integratsiyaning atrof-borliqqa yaxlit qarashga erishish imkoniyatini berishi bu ta‘riflardagi umumiy jihatdir. Fanlararo aloqadorlik integratsiyaning asosini tashkil etadi va u o‘z rivojini mana shu g‘oya asosida topadi. Integrativ mazmunga ega bo‘lgan predmetlarni o‘rganishga bo‘ljak mutaxassislarining bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlarini bir butunligini ta‘minlovchi omil sifatida qaraladi.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar davomida ta‘lim tizimida integratsiya ikki xil ma‘noda qo‘llanilishi aniqlandi:

1. O‘quvchilarda atrof-dagi olam haqida yaxlit tasavvurni shakllantirish (integratsiyaga ta‘lim maqsadi sifatida qaraladi). Bunda o‘quvchi bilim dargohiga dastlabki qadamini qo‘yishidanoq dunyoni to‘laligicha, uning barcha elementlarini o‘zaro bog‘langan tizim sifatida tasavvur qilib olishi ko‘zda tutiladi.

2. O‘quv predmetlaridan beriladigan bilimlarni yaqinlashtirishning umumiy platformasini topish (integratsiya ta‘lim vositasi hisoblanadi). Buning zamirida o‘quv fanlariga doir bilimlarning o‘zaro to‘qnash (uchrash)gan yeri (nuqtasi)da yangi tasavvurlarni anglay olish masalasi yotadi. Dastlab, e‘tibor fanlardagi fikr (g‘oya)lar to‘qnashgan nuqtada tabaqalashgan bilimlardagi kamchiliklarni to‘ldirishga, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tarkib toptirishga qaratiladi. Shu bois tadqiqotimizda ta‘limdagi integratsiyani rivojlantiruvchi ta‘lim berish, hamda umuminsoniy va milliy tarbiya vositasi sifatida ifodalash lozim topildi.

Ikki yoki undan ortiq o‘quv fanlari o‘rtasida aloqa o‘rnatishda va ularning integratsiyasida vaqti-vaqti bilan u yoki bu fan tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Turli fanlardagi mavzularning uzviy bog‘liqligi va mantiqiy o‘zaro aloqadorligi integratsiyalashgan darslarning asosi bo‘lishi kerak. Olib borilgan izlanishlarimizdan integratsiyaning ma‘lum bir tarkibiy qismlarga ega ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Quyida shu jihatlar xususida turli kuzatish ishlari olib borildi:

**Muhokamalar.** 1) obyektga doir integratsiya: bunda bir obyektning turli fanlardagi timsollari bir mavzu, bo‘lim yoki kurslarga (yer, suv, havo, oziq-ovqat va boshqa) kiritiladi;

2) *tushunchaga oid integratsiya*: bunda umumiy tushuncha (energiya, harakat, modda, axborot va boshqa) lar mazmunini ochib beradigan mavzu yoki kurslar qamrab olinadi;

3) *nazariyaga oid integratsiya*: u fizika, kimyo, biologiyadagi kvant nazariyasi; biologiya, kimyo, astronomiya, texnika, sotsiologiyadagi evolutsiyon nazariyaga asoslanadi;

4) *metodologik integratsiya*: u falsafa metodologiyasi kabi ilmiy bilishning alohida metodlariga taalluqli bo‘lib, tizimli yondashuvning qo‘llanilishi va uning mazmuni; tabiatshunoslikka oid muammolarning qo‘yilishi va hal etilishi; fandagi tushuntirish va tahlil qilish; kuzatish, tajriba, modellashtirishning tuzilish mohiyati va qo‘llanilishi kabilardan iborat;

5) *muammoli integratsiya*: u turli kenglik darajasidagi fanlararo muammolarni qamrab oladi (atrof-muhitni muhofaza qilish, giyohvandlikka qarshi kurashish va boshqalar);

6) *faoliyatga oid integratsiya*: munozara, guruhlar tarkibida ishlash, fanlararo reja va loyihalar tuzish va boshqalar.

7) *amaliy integratsiya*: turli jarayon yoki texnik mahsulotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish, antibiotiklar, sintetik moddalar, biotexnologiya kompyuter va boshqalar.

Integratsiyani uslubiy hodisa sifatida tahlil qilgan I.Kalojvarining ta’kidlashicha, integratsiyalashgan darsni integratsiya kursining aniq uzoq muddatli vazifalarni hal qiladigan dars deb hisoblash mumkin, ya’ni u ikki uchta fanga qaraganda sifat jihatidan yangi tekislikda yotgan murakkab birlikdir. Integratsiya darajasi faqat integratsiya orqali bajarilishi mumkin bo‘lgan vazifalar doirasi bilan belgilanadi. “Integratsiyaning kelajagi porloq. Bu usul natijasida o‘quvchilar ongida olamning faol va ko‘p tomonli tasviri shakllanadi. O‘quvchilar egallagan bilimlaridan amalda faol foydalanishga o‘rganadi. Bilimlarning amaliyotga xos xususiyatlarini oson aniqlaydi, yangicha fikrlay boshlaydi, tez o‘zlashtiradi, boshqa fanlarga bo‘lgan munosabatini ayonlashtiradi”.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda integratsiyalashgan darslarga xos xususiyatlarni ta’lim jarayonida birdan ortiq pedagoglar qatnashishi mumkinligi bilan izohlash mumkin.

Bizningcha, dars bu ishning muhim qismi ekanligini ham unutmash kerak. Aynan dars orqali asosiy masalalar integratsiyalashgan kurslarda amalga oshiriladi va natija kutilgandek yoki omadsiz bo‘lishi mumkin. Lekin integratsiyalashgan dars tushunchasi hamon bahsli bo‘lib qolmoqda.

Integratsiyalashgan darslarga xos belgi va alomatlar qanday? Tadqiqotimiz davomida bunga quyidagicha javoblar olindi:

1. Integratsiyalashgan kursning o‘zi yangi murakkab birlik sifatida, umuman, boshqacha shaklda bo‘ladi hamda masalalarni aniq va samarali yechishga qaratiladi.

2. Ular ikki yoki undan ortiq fan asosida rejalashtiriladi. Shuning uchun bir nechta o‘qituvchi yoki bir nechta o‘quv fanlari materiali mexanik usulda birlashtiriladi.

3. O‘rganishga qiziqish jarayonini faollashtirish usullari, malaka va ko‘nikmalari ishlab chiqiladi. O‘qituvchilar darsni birga yoki alohida o‘tkazishlari mumkin, lekin natijalarga umumiy harakatlar orqali erishiladi.

Ta’limda 2-va 3-darajali integratsiyalashgan darslar keng tarqalgan. Takrorlash darslarida mavzuga qo‘shimcha material kiritish yoki tanlash 2-daraja; materialni o‘rganish masalalari bilan bog‘liq solishtirish va umumlashtirish 3-darajaga xos xususiyatlar hisoblanadi. O‘quvchilar hodisa va obyektlarni solishtirish va taqqoslash bilan bog‘laydilar. Bunday darslarda ikkita fan o‘qituvchisi ishtirok etishi mumkin. [1].

Eng chuqur daraja sifatida integratsiyaning 4-darajasi olindi. Bu darajada o‘quvchilarning faktlarni solishtira bilishlari, bitta voqea-hodisani muhokama qilishlari, ular orasidagi aloqalarni aniqlashlari, o‘quv topshiriqlarini birgalikda yechish ko‘nikmalari shakllanadi. Integratsiyalashgan darsning maqsadi yuqoridagilarda qamrab olingan jarayonni nazorat qilishga qaratiladi. O‘qituvchilar va o‘quvchilar orasida taqsimlangan vazifalarni hisobga olganda integratsiyalashgan darslarning har xil noan’anaviy shakllarga egaligi ayonlashadi. Bular quyidagilar hisoblanadi:

**1. Bilimlarni almashish darsi.** Bu turdagi darslarda guruhlar shakllantirilib, turli xil mavzulardagi topshiriqlar beriladi. Ularning samaradorligi o‘quv fanlari bir-biriga o‘xshash bo‘lganda kuzatiladi.

**2. O‘zaro tekshirish darslari.** Guruh va juftliklar faoliyatiga tayaniladigan bunday darslarda o‘quvchilardan yaxshi tayyorgarlik, obyektiv va aniq baholash talab etiladi. Sinfdozlarining bilimlarini tekshirganda har bir o‘quvchida ko‘rsatkichlar jadvali bo‘lishi shart.

**3. Ijodiy izlanish darsi.** Muammoning yechimi o‘quvchilarning mustaqil izlanishlarini taqozo qiladi. Lekin izlanish usullari o‘qituvchi tomonidan ilgari o‘tilgan darslarda ko‘rib chiqilib, uning samarasi yuqori bo‘ladi.

Ona tili darslarida integratsiyalab o‘rganishga doir mashg‘ulotlarda o‘qituvchilar oldida nimani va qanday qilib uyg‘unlashtirish, ular o‘rtasidagi tutash nuqtalarni birlashtirish masalasi ko‘ndalang turadi. Bir fan doirasida o‘qituvchiga integratsiyalashgan darslarni o‘tish qiyinchilik tug‘dirmaydi. O‘quvchining bilim

zaxirasi uning yoshi bilan bog‘liq. Til ta‘limida integratsiya imkoniyatlarining ma‘lum ma‘noda chegaralanganligi ichki va fanlararo aloqalardan foydalanish va rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi.

Shu jarayonda quyidagilarni e‘tiborga olish maqsadga muvofiq:

– dars maqsadi (bu mavzuni o‘rganish muddatini qisqartirish, o‘quvchi bilimni uning kamolotiga yo‘naltirish va boshq.);

– obyekt tanlash (yangi ma‘lumot manbalari, ularning dars maqsadiga javob berishi inobatga olinadi);

– tizimlashtiruvchi omillarni aniqlash (turli fanlarga oid ma‘lumotlarni birlashtirishni asoslash (fikr, hodisa, tushuncha, fan);

– kursning yangi tizimini yaratish (bilimlarning funksional yo‘nalishini o‘zgartirish);

– mazmunni qayta ishlash (eski shakllarni buzish, tizimda alohida bo‘lgan elementlar orasida aloqalar yaratish)

O‘qituvchining qaysi fanlar mazmunini uyg‘unlashtirish mumkinligi yoki shartligini bilishi muhim ahamiyatga ega. Ye.Smirnova quyi sinflardan fanlarni integratsiyalab o‘qitishning ahamiyati haqida shunday fikr bildiradi: “To‘rtta asosiy integratsiyalashuv nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglash, o‘qish, yozish) dir. Bunda o‘quvchi faol ishtirokchiga aylanadi tarbiyaviy jarayon, faoliyat yo‘nalishini oladi va bu, o‘z navbatida, ta‘lim shaklini belgilaydi. Bunday o‘quv jarayonining natijasi bo‘lishi kerak”.

Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o‘quv fanlarining soni kamayib, samarasi puxta bo‘ladi, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi. Til leksika, grammatika, talaffuz birliklarini yaxlit birlashtiruvchi ijtimoiy hodisa tarzida nutq faoliyatining qurilish materiali sanaladi. Leksika birligi, grammatika birligi va talaffuz birligi gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuvga o‘rgatish-o‘rganish birliklari deb qaraladi. Ularning funksional, semantik va formal jihatlarini o‘zlashtirish uchun maxsus mashqlar bajarishni talab qiladi.

Masalan, “Ona tili”ni o‘rganish chog‘ida amaliy, ta‘limiy, tarbiyaviy, kasbiy va rivojlantiruvchi maqsadlar bir xilda ro‘yobga chiqadi. Ona tilini o‘quvchi qiyinchiliklarsiz tushunadi va amaliy tarzda egallaydi. Ikkinchi tilda amaliy malakalar, avval, qisman hosil qilingan, nazariy bilimlar ona tilidagidan kamroq hajmda bayon etiladi, albatta. Til ta‘limida qoida (oddiy nazariy bilim)lar amaliy ko‘nikma va malakalarni egallashni tezlashtirish (intensifikatsiya) va yengillashtirish (optimizatsiya) maqsadlariga bo‘ysundiriladi, o‘quv jarayonida nutqiy amaliyot (kommunikatsiya) birlamchi vazifaga aylanadi.

Predmetlararo bog‘lanish hozirda didaktika va o‘qitish metodikasida bilimlar mazmuni bilan ilmiy bilish metodlarining mutanosibliygiga asoslangan yaxlit sistema sifatida tushuniladi (M.N.Skatkin, I.D.Zverev, I.Y.Lerner va b.). Predmetlararo bog‘lanishga sistemali yondashish, uning tarkibi, tuzilishi hamda vazifalarini, uning boshqa tizim obyektlari (o‘quv jarayoni, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat va h.k.) bilan munosabatini birgalikda ochib berishni taqozo etmoqda. Ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda ta‘lim o‘quvchilar nutqini sohaga oid so‘z va atamalar bilan boyitish, kommunikativ faoliyatga tayyorlash ehtiyojdan kelib chiqadigan nutq uslublarini o‘rgatish, nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, ko‘zlangan maqsadga bo‘ysundirilganligi kabi omillar tanlangan ixtisoslikka oid nutqiy faoliyatga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. [2].

Integratsiya gap va gapdan yirikroq bo‘lgan til birliklari anglatgan ma‘nolarning nisbiy mustaqilligini bartaraf etib, ularni matn mazmunining mustaqilligini ta‘minlashga jalb etadi. Demak, integratsiya kategoriyasi matnning yakunlanishi bilan bog‘liq kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Integratsiyaning mazmun-mohiyatida ta‘lim turlari orasidagi, shuningdek, fanlararo va mavzulararo bog‘liqlik, ular o‘rtasidagi munosabatlarning to‘g‘ri o‘rnatilishini ta‘minlash maqsadi mujassam. U ta‘lim-tarbiya jarayonining sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muhim tushuncha bo‘lib, ta‘limning ma‘lum bosqichi, fan yoki mavzularning muayyan ketma-ketligi va izchilligini ta‘minlash orqali o‘quvchilar bilimni chuqurlashtirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, pedagogik-psixologik va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta‘minlash xarakterli sanalib, u ta‘lim-tarbiya jarayonini tadqiq qilish va boshqarishga hamda fanning maqsadini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Integratsiyalash borasidagi ijobiy fikrlar bilan bir qatorda uning salbiy jihatlarini xususida ham muayyan qarashlar mavjud. Bu haqda Y.M.Kolyagin fikrlari quyidagicha: “Agar integratsiya o‘quv maqsadi sifatida o‘quvchiga bilim berish kerak bo‘lsa, uni birinchi maktab qadamlaridan boshlab dunyoni bir butun sifatida tasavvur qilishga o‘rgating, unda bu elementlar o‘zaro bog‘liq bo‘lsa, integratsiya o‘quv vositasi sifatida bilimni rivojlantirishga, kengaytirishga va bilimlarni yangilashga qaratilgan”.

Ko‘rinadiki, ona tili fani materiallarini o‘qitishning an‘anaviy tajribasi ham integratsion imkoniyatlarning kengligidan dalolat beradi. Bunda ona tili fan sifatida o‘z ichiga faqat badiiy matnlarni emas, adabiyot, tarix, tabiatshunoslik, matematikaga oid materiallarni ham oladi. Bunday integratsiya o‘quvchilarda ma‘lum bir fan yuzasidan muhim ko‘nikmalar hosil qilishga xalaqit bermaydi, aksincha, ularni yaxshi o‘zlashtirishga kafolat beradi.

Bizningcha, dars bu ishning muhim qismi ekanligini ham unutmaslik kerak. Aynan dars orqali asosiy masalalar integratsiyalashgan kurslarda amalga oshiriladi va natija kutilgandek yoki omadsiz bo‘lishi mumkin. Lekin integratsiyalashgan dars tushunchasi hamon bahsli bo‘lib qolmoqda.

Integratsiyalashgan darslarga xos belgi va alomatlar qanday? Tadqiqotimiz davomida bunga quyidagicha javoblar olindi:

1. Integratsiyalashgan kursning o‘zi yangi murakkab birlik sifatida, umuman boshqacha shaklda bo‘ladi hamda masalalarni aniq va samarali yechishga qaratiladi.

2. Ular ikki yoki undan ortiq fan asosida rejalashtiriladi. Shuning uchun bir nechta o‘qituvchi yoki bir nechta o‘quv fanlari materiali mexanik usulda birlashtiriladi.

3. O‘rganishga qiziqish jarayonini faollashtirish usullari, malaka va ko‘nikmalari ishlab chiqiladi. O‘qituvchilar darsni birga yoki alohida o‘tkazishlari mumkin, lekin natijalarga umumiy harakatlar orqali erishiladi.

Ta’limda 2-va 3-darajali integratsiyalashgan darslar keng tarqalgan. Takrorlash darslarida mavzuga qo‘shimcha material kiritish yoki tanlash 2-daraja; materialni o‘rganish masalalari bilan bog‘liq solishtirish va umumlashtirish 3-darajaga xos xususiyatlar hisoblanadi. O‘quvchilar hodisa va obyektlarni solishtirish va taqqoslash bilan bog‘laydilar. Bunday darslarda ikkita fan o‘qituvchisi ishtirok etishi mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, integratsiyalashgan darsning asosiy xususiyati uning bir fan asosida tuzilishidir. Bunda asosiy fan mavzusi diqqat markazida bo‘lib, qolgan fanlar integrallashadi, uning aloqalari, jarayonlarini o‘rganish, hayot bilan aloqasini tushunish, olingan bilimni amalda ishlatish ko‘nikmalari nazarda tutiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Hamroyev A.R. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: ped. fan. dok. (DSc) ... diss. – Toshkent, 2020. – 249 b.

2. Yusupova G. Bo‘lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta’limdan foydalanish metodikasi: ped fan. bo‘y. fal. dok. (PhD) diss. – Urganch, 2020. – 143 b.

3. Ziyadova T.U. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish: Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1995. – 148 b.

4. Bakieva X.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. b-cha fal. fan. dok. ... dis. avtoref – Samarqand, 2019. – 45 b.

5. Ziyomammedov B., Abdullaeva Sh. Ilg‘or pedagogik texnologiya. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2001. – 198 b.

6. <http://uza.uz/>

7. Omonova D.N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish: “Pedagogik mahorat” ilmiy nazariy metodik jurnal Buxoro 2023,4-son.131-135 b.

ART TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI  
TARBIYALANUVCHILARINI ESTETIK TARBIYALASH

*Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna,*

*Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti*

*Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlardan foydalanishning dolzarbligi, shaxsni tarbiyalashga integrativ yondashuvlar, xalqaro tajribalar asosida kichik yoshdan boshlab bolalarga maqsadli tarbiya berish, ayniqsa, ART texnologiyasini qo'llash muammolari va zarurati, estetik tarbiyaning shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyati, Art texnologiyalari vositasida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini estetik tarbiyalash usullari va metodikasi, uning o'ziga xos imkoniyatlari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy ta'lim, ART texnologiyasi, ART terapiya, estetik tarbiya, badiiy ijod, innovatsiya, integratsiya, estetik did, kasb-hunar, ota-onaga hurmat, estetik tarbiya, estetik dunyoqarash, estetik ong, estetik did.*

ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ ДОШКОЛЬНОЙ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПОСРЕДСТВОМ АРТ-ТЕХНОЛОГИИ

*В статье рассматриваются актуальность использования инновационных подходов в дошкольных образовательных организациях в современных образовательных процессах, интегративные подходы к воспитанию личности, целенаправленное воспитание детей с раннего возраста на основе международного опыта, особенно проблемы и необходимость применения арт-технологий, нейв идёт речь о роли и значении эстетического воспитания в созревании личности, методах и методике эстетического воспитания воспитанников дошкольной образовательной организации посредством арт-технологий, её роли и уникальных возможностях.*

**Ключевые слова:** *современное образование, АРТ-технологии, арт-терапия, эстетическое воспитание, художественное творчество, инновации, интеграция, эстетический вкус, профессия, уважение к родителям, эстетическое воспитание, эстетическое мировоззрение, эстетическое сознание, эстетический вкус.*

AESTHETIC EDUCATION OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION  
STUDENTS THROUGH ART TECHNOLOGIES

*The article will talk about the relevance of the use of innovative approaches in preschool educational organizations in modern educational processes, integrative approaches to personality education, the provision of targeted education to children from an early age based on international experiences, especially the problems and need for the application of ART technology, the role and importance of aesthetic education in personality maturation, methods and*

**Keywords:** *modern education, art technology, ART therapy, aesthetic education, artistic creation, innovation, integration, aesthetic taste, professional, respect for parents, aesthetic education, aesthetic worldview, esthetic mind, aesthetic taste.*

**Kirish.** Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri – yuksak ma'naviyatli, har tomonlama barkamol yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Yuksak ma'naviyatli, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalangan avlodni shakllantirish, estetik tarbiyaning jamiyatni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish masalasi davrning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Estetika so'zi nemis tilidan olingan bo'lib, "his", "tuyg'u" ma'nosini bildiradi. Ya'ni, olamning hissiy qabul qilinishini tadqiq etuvchi fan bo'lib, u san'at, madaniyat va tabiatning subektiv qabul qilinishini o'rgangan holda aksiologiya sohasiga kiradi. "Estetika" terminini nemis faylasufi A.Baumgarten (1714—1776) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetika go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo'llanib kelingan. Estetika o'z ichiga san'at Estetikasi, tabiat Estetikasi, texnika Estetikasi, dizayn, sport Estetikasi, turmush Estetikasi, atrof muhitni go'zallashtirish va boshqalar sohalarni qamrab oladi. Estetika nafasat, did, go'zallik, ulug'vorlik, tubanlik, fojiviylik, kulgililik, mo'jizaviylik, hayolilik singari

kategoriyalar bilan hamohang tarzda ish ko‘radi. Estetika tarbiya so‘zi bilan birgalikda tadqiqot ob‘yektini sifatida o‘rganilsa, uning natijadorligi yanada samarali bo‘ladi.

Ta‘limning xalqarolashuvi jarayonlarida zamonaviy ta‘lim-tarbiya berish orqali kichik yoshdan boshlab bolalarga estetik tarbiya berish, ularni hayotga tayyorlash bugungi kun jahon ta‘limi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

O‘zbekiston respublikasida estetik tarbiya muammolariga avvaldan katta e‘tibor berib kelinmoqda va u yosh avlodning tarbiyasi komil insonni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga qaratilgan. Ayniqsa, art-pedagogik va art-terapevtik texnologiyalardan foydalanishga alohida ahamiyat berilib, Rossiya art-terapiya assotsiatsiyasi tomonidan ta‘lim oluvchilarning psixoemotsional holatiga terapevtik va korreksion ta‘limni hisobga olgan holda musiqiy terapiya, vokaloterapiya, izoterapiya, biblioterapiya, imagoterapiya usullaridan kompleks foydalanishga e‘tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini estetik tarbiyalashda badiiy ijodning musiqa va tasviriy san‘at turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish, musiqiy pedagogika va psixologiya vositasida ta‘lim oluvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirishga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta‘limda bolalarni badiiy matnlarni eshitishga o‘rgatishda ularning tasavvur etishi va voqeani idrok etish qobiliyati asosida estetik ongi va dunyoqarashini tarkib toptirish, art-pedagogika vositasida bolalarning estetik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, badiiy ijod namunalari, ularning ijodkorlik asarlari asosida estetik tarbiya jarayonlariga germenevtik yondashuvni tatbiq etishning pedagogik tizimini takomillashtirish alohida dolzarblilik kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.Kopitin, V.Anisimov, A.Aytbaeva, J.Shaygozova, M.Sultanova, Ye.Medvedeva, I.Levchenko, L.Komissarova, T.Dobrovolskaya, A.Kuznesova, O.Korjenko, Ye.Zargaryanlar tomonidan san‘atning kichik yoshdan boshlab shaxs intellektual rivojiga ta‘siri, art-pedagogika vositasida bolalarni estetik tarbiyalashning tashkiliy shart-sharoitlari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan E.Segen, J.Demor, O.Dekroli, T.Kollen, R.Biker-Vayt, D.Zubeyde, B.Chrisi Ioannou, M.Morris, N.Goldman, E.Bezani Chloe kabilarning tadqiqotlarida san‘at vositasida maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining estetik kompetentligini rivojlantirish, ART pedagogikasi orqali bolalarda badiiy-estetik tafakkur va nafosatni shakllantirish masalalari o‘rganilgan.

**Tadqiqotlar metodologiyasi.** Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ta‘limiy va tarbiyaviy maqsadlariga erishishlarida yordam beradigan faol ta‘lim metodlari va texnologiyalarni izlashdan maqsad – ma‘naviy boy, ijodiy fikrlaydigan, har tomonlama rivojlangan yetuk shaxsini tarbiyalash bo‘lib, ushbu muammoga ijtimoiy zarurat sifatida baho berish va uning ahamiyatini pedagogik jihatdan asoslash dolzarbdur.

Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo‘shqin hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda, hali ularning estetik tarbiyasi to‘g‘risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to‘g‘risida o‘ylash kerak. Bola yaltiroq bo‘yoqdan xursand bo‘ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolada hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o‘ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo‘shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo‘lishlariga yordam beradi. Va, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki xo‘mrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi. Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin-asta takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san‘at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g‘amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta‘siri paydo bo‘ladi va hokazo. O‘rta guruhga kelganda bolalar estetik idrokinng rivojlanishida muhim o‘zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha aniq va tabaqalashgan bo‘lib qoladi. Ammo shunga qaramay, u qisqa-qisqa bo‘lib, bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishiga bog‘liq bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladilar, ba‘zi bir estetik vositalarni to‘g‘ri anglaydigan, tasvir mohiyatini tushunadigan bo‘lib qoladilar.

Art-pedagogikasi ilmiy va pedagogik amaliyotlarda bugungi kunda yangicha yo‘nalish texnologiyasi hisoblanib, ta‘lim tarbiya jarayonida uni qo‘llash metodikasi tarbiyachilar tomonidan ilmiy va amaliy faoliyatlar davomida o‘rganib borilmoqda. Art-pedagogika psixolog va psixoterapevtlar tomonidan qo‘llanilib kelinayotgan art-terapiya o‘rnida ishlatilib kelinmoqda, ya‘ni o‘quvchilarning xulqi, ularning shaxsi va xarakterini korreksiyalashda, dars jarayonida yaxshi munosabat muhitini o‘rnatishda, bolalar va kattalar munosabatini korrekcirovka qilish va hokazolarda. Ko‘pincha, art-terapiya san‘atning vizual doirasi,

ya’ni ko’z bilan ko’riladigan narsa deb tushiniladi. Ushbu texnikaning samaradorligi shundaki, u hissiyotlar bilan tajriba o’tkazishga, ularni ramziy darajada o’rganishga va ifoda etishga imkon beradi. Art-terapiya bu sizning ongsizligingizga sayohat. Tushlar singari, u odamga qalbining yashiringan narsalarni ochib beradi. Art-terapiya jarayonida odamning o’z travmatik tajribasi, tajribasi va kasalliklariga va kasalliklarga munosabati o’zgaradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida ta’lim-tarbiya berish va bunda Art texnologiyasidan samarali foydalanish bir qator afzalliklarga ega bo’lib, ular bola ongining to’g’ri rivojlanishiga yo’nalish berishda muhim omil hisoblanadi. Jumladan,

- O’z-o’zini tasvirlash va ijobiy o’z-o’zini anglashni shakllantirish;
- O’z his tuyg’ularingizni o’rganish va ifoda etish;
- Muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Oyla a’zolarini hissiy jihatdan yaqinlashtirish;
- Oylada va ishda psixo-yemotsional stressdan xalos bo’lish;
- Ijodiy faoliyatning har xil turlari uchun qobiliyatlarni rivojlantirish;
- Ichki potentsialingizni ochib berish.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga innovatsion bilimlarni berishda Art texnologiyasining quyidagi terapiyaning keng tarqalgan turlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

- Art-terapiya (Art-terapiya) yoki izoterapiya.
- Musiqa terapiya (musiqa terapiya).
- Raqs terapiya.
- Dramaterapiya.
- ʻrtak terapiyasi.
- Biblioterapiya (ijodiy yozuv).

Mazkur pedagogik terapiya turlaridan foydalanishda tarbiyachi yuqori saviyadagi kasbiy mahoratga va kompetentlikka ega bo’lishi talab etiladi.

Ta’lim va tarbiya tamoyillari tarbiyachilarning pedagogik tafakkuri va hatti-harakatlariga rahbarlik qiluvchi fundamental, aniq ifodalangan talablardir. Ular pedagogik jarayonlarning mohiyatini tushunishga, haqiqiy pedagogik tajribani umumlashtirishga asoslanadi. Ta’lim va tarbiya tamoyillari pedagogik jarayondagi muntazam aloqalarni aniqlash va ular asosida ta’limni tashkil etish va amalga oshirishning mazmuni, metodikasi va texnologiyasini belgilash, pedagogik faoliyatda kerakli natijaga erishish imkoniyatini beradi. Artpedagogika tamoyillarini ajratib ko’rsatsak, biz korreksion ishlarni tashkil etish va o’tkazishning umumiy pedagogik tamoyillariga, alohida ta’limga muhtoj kishilar uchun maxsus ta’limning konseptual qoidalarini aks ettiruvchi maxsus pedagogika tamoyillariga, shuningdek, badiiy estetik rivojlanish tamoyillariga tayanamiz. Shu bilan birga, biz uchun A.D.Goneyev, V.I.Smirnov, I.A.Zimnaya, YE.V.Nazarova, N.A.Vetlugina kabi mualliflarning mavjud bo’lgan ta’lim va tarbiya tamoyillarini tasniflash asos buladi

Didaktikadagi metodlar deganda “tarbiyachi va tarbiyalanuvchi” o’quv materialini o’rganish orqali ma’lum maqsadga erishishga qaratilgan o’zaro ta’sir qilish usullarining ketma-ket almashishi tushuniladi (Y.K.Babanskiy). Usulni tashkil etuvchi harakatlarga turli harakatlar tizimida takrorlanadigan ma’lum operatsiyalar kiradi. Bu operatsiyalar “texnika” atamasi bilan belgilanadi.

Ta’lim - tarbiya jarayonida ma’lum bir sohani o’z ichiga oluvchi sohaga oid barcha usullar ma’lum bir kombinatsiyada, kompozitsiyada qo’llaniladi, bu aniq pedagogik vaziyatda eng katta samara berishi mumkin va bir qator xususiyatlarni hisobga olgan holda o’qituvchi tomonidan belgilanadi. Omillar, jumladan: ta’limning maqsad va vazifalari, bolalarning yoshi, ularning individual xususiyatlari, tayorgarlik darajasi, fanning mazmun va o’ziga xos xususiyatlari, o’qituvchining maxorati kiradi. Artpedagogikada ular kuyidagicha ko’rsatilgan. -turli xil san’at turlari yordamida atrof-muhitga estetik munosabatni rivojlantirishda muammoli bolani shakllantirish; -rivojlanishida turli xil nuqsonlari bo’lgan bolalarning badiiy madaniyati, axloqiy va estetik fazilatlarini shakllantirish; -bolaning turli san’at turlariga xos bo’lgan muayyan badiiy ifoda vositalarini egallashi va ulardan o’z his-tuyg’ularini, dunyoqarashini, ijodiy g’oyalarini namoyon etishda foydalanish; -san’atning har xil turlari yordamida nogironligi bo’lgan shaxslarni o’qitish va o’qitishga aloxida ehtiyojlarini ta’minlash va qondirish; -bolalar bilan badiiy va ijodiy faoliyatning har xil turlari va shakllarida (badiiy va nutq, musiqa, tasviriy san’at va hunarmandchilik teatr) mumkin bo’lgan ishtiroki asosida tuzatuvchi, korreksion rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etish.

Badiiy pedagogikada ta’lim va tarbiya usullarini tanlash quyidagilar bilan belgilanadi:

- bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va imkoniyatlari;
- ularning qiziqishlari va moyilliklari;
- tayyorgarlik darajasi;



- ularning rivojlanishidagi o‘qishlarning xususiyatlari va darajasi;
- bolalarning badiiy rivojlanishining maqsad va vazifalari;
- san’at turlarining har biriga ta’sir qilishning o‘ziga xos xususiyatlari;
- badiiy faoliyatni tashkil etish shakllari;
- badiiy ma’lumotlarning hajmi va sifati;
- o‘qituvchining mahorati, maxsus pedagogik texnologiyalarini o‘zlashtirish darajasi.

Badiiy pedagogikaning metodlari didaktikada, badiiy pedagogikada ularni tasniflashda e’tirof etilgan yondashuvlarga asoslanadi, bunda alohida ta’limga muhtoj tarbiyalanuvchilarning har bir toifasi uchun shunday usullar tarkibini tanlash zaruriyati hisobga olinadi. Shunday qilib, badiiy pedagogika, artpedagogika usul va uslublari bir biri bilan uzviy ravishda uyg‘unlanishi kerak. Bu tarbiyachilardan muayan vaziyatni hisobga olgan holda, ularning optimal kombinatsiyasida usullarni juda ehtiyotkorlik bilan tanlashni talab qiladi. Badiiy pedagogikada o‘qitish va tarbiyalash metodlari va uslublarni tanlash va tuzish, bir tomondan, badiiy-estetik rivojlanishga maksimal darajada yordam berishi kerak. Boshqa tomondan, bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlarini qondirish va tuzatish pedagogik ishlarning o‘ziga xos xususiyatlariga kiradi.

**Xulosa.** Art-pedagogikaning asosiy maqsadi – nafaqat rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalarni, sog‘lom bolalarni ham garmonik har tomonlama rivojlantirishdan iborat va u korreksion-shaxsiy va faoliyatli yondashuvlarga tayanadi; o‘quchilarning turli ruhiy sifatlari hamda shaxsning badiiy madaniyatini shakllantirish xususiyatlarini rivojlantirish, uning mikro va makro muhitda jamoaviy va madaniy faoliyatda ishtirok etishi, turli tajavvuzlarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratiladi. Rivojlanishida muammosi bor bolalarga art-pedagogika dunyoni uning barcha turfaliligi va go‘zalligida ko‘rishga hamda faoliyatning badiiy turlarida dunyoni o‘zgartirishga o‘rgatadi. San’at dunyoni anglashda ijobiy manba sanaladi, u bolada kreativlik qobiliyatini dunyoga keltiradi. Shuning uchun uni ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarning samarali vositasi sifatida qarash mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik turkum darslarida art-texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash o‘quvchilarning turli ruhiy sifatlari hamda shaxsning badiiy madaniyatini shakllantirish xususiyatlarini rivojlantiradi.

#### Adabiyotlar:

1. Анисимов В.П. Арт-педагогика как система психологического сопровождения образовательного процесса // Вестник ОГУ. №4 (2003) -146 с.
2. Медведева Е.А. Социокультурное становление личности ребёнка с проблемами психического развития средствами искусства в образовательном пространстве: дис. д-ра псих. наук. / Ё.А. Медведева. – Нижний Новгород.: Арт-пресс, 2007. – 186 с
3. Сергеева Н.Ю. Содержание понятия «артпедагогика» // Известия ВГПУ, – № 1. 2008. – С. 24-28.
4. Сергеева Б.В., Петренко Н.А. Эстетическое воспитание младших школьников // Современные наукоёмкие технологии. 2016. – №12. – С. 428-432.
5. Kuttibekova G.T. The essence and possibilities of application of art pedagogy and art therapy in a secondary educational school // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8, No.5, 2020, Part III. ISSN 2056-5852. – pp.151–154.

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA MEDIA TA‘LIM IJTIMOYIY ZARURIYAT SIFATIDA**

*Atajonova Anorgul Jumaniyazovna,*

*Urganch davlat pedagogika instituti*

*“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasini mudiri, dotsent*

*Mazkur maqolada media ta‘limning dolzarb masalalari va bo‘lg‘usi boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarida media ta‘limni shakllantirishga bag‘ishlangan. Shuningdek, media va mediamadaniyat tushunchalarining mazmuni va mohiyati, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining media ta‘limini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** media kompetensiya, media ta‘lim, mediamadaniyat, media vositalar, pedagogik muammo, mediamatn, mediasavodxonlik, axborot olami.*

**МЕДИАОБРАЗОВАНИЕ КАК СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

*В данной статье рассматриваются актуальные вопросы медиаобразования и формирования медиаобразования у будущих учителей начального образования. В ней также говорится о содержании и сущности понятий медиа и медиакультура, о том, что развитие медиаобразования учителей начальных классов является актуальной педагогической проблемой.*

***Ключевые слова:** медиакомпетентность, медиаобразование, медиакультура, медиаинструменты, педагогическая проблема, медиатекст, медиаграмотность, информационный мир.*

**MEDIA EDUCATION AS A SOCIAL NECESSITY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS**

*This article discusses current issues of media education and the formation of media education for future primary education teachers. It also talks about the content and essence of the concepts of media and media culture, that the development of media education for primary school teachers is an urgent pedagogical problem.*

***Keywords:** media competence, media education, media culture, media tools, pedagogical problem, media text, media literacy, information world.*

**Kirish.** Bilamizki, ta‘lim sohasini isloh qilish, avvalambor, boshlang‘ich ta‘limdan boshlanadi. Zero, bolaning dunyoqarashi, iqtidori, salohiyati shakllanadigan boshlang‘ich sinflarda eng yetuk, eng tajribali murabbiylar birlashtirib qo‘yilishi kerak bo‘ladi. Ta‘lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda moddiy omillar bilan bir qatorda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mediasavodxonligini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining AKT va media kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozimligini davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Mediasavodxonlikni rivojlantirish ta‘lim tizimida, xususan, o‘quv jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish, o‘quv-uslubiy ta‘minotni rivojlantirish, ayniqsa, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tish va o‘zlashtirish jarayonlarini takomillashtirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda. Ta‘lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri ham o‘quv jarayonida media vositalaridan foydalanishdir.

Bugungi kunda yangilanayotgan O‘zbekistonda yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyat media muhitining keskin sifat va miqdor jihatidan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu hodisalar telekommunikatsiya vositalari hamda axborot texnologiyalari tizimlarining jadal rivojlanishi sharoitida yuz berib, bu jamiyatdagi ijtimoiy boshqaruv sohasida axborot telekommunikatsiya jarayonlari va turli darajadagi axborot omillari yig‘indisini tayanch nuqtaga chiqarmoqda. Bunday vaziyatda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida media ta‘limni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Ularda mediamakonga moslashish, mediasavodxonlikni oshirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Hozirgi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan ta‘limning rivojlanishini media (ya‘ni: televideniye, radio, kinematograf, ommaviy nashrlar, kompyuter axborot tizimlari)siz tasavvur qilish qiyin.

Respublikamizda ta’lim tizimi tubdan isloh qilinib, uzluksiz ta’lim, jumladan, oliy ta’lim tizimida ham katta o’zgarishlar amalga oshirildi. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitidan samarali foydalanib, milliy kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni barkamol va yetuk etib voyaga yetkazish pedagoglarning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Mutaxassislar pedagoglarning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta’minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali media ta’limni rivojlantirishning asosiy maqsadini belgilaydi.

Axborot makonining globallashuvi va uning “ochiqligi” zaminida yangi bilimlar, faktlar, qarashlar, konsepsiyalarning oqimi shiddat bilan ortib bormoqda va ommaviy axborot kommunikatsiyalari orqali berilayotgan axborotlardan foydalanish muammosi paydo bo’lmoqda.

**Asosiy qism.** Hozirgi kunda axborotlarning mazmunini ham, ularni ommaviy axborot tarmoqlari orqali tarqatish usullari va yo’llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo’lib bormoqda. Axborotning bunday aralash-quralashligi ta’sirida o’qituvchining mustaqil ravishda tafakkur qilishi muammosi, uning qarashlarini, qadriyatlarini va ideallarini shakllanishi masalalari o’qituvchi ongida axborot olamini tartibga solish yo’llarini izlashni, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko’nikmalari tizimini ishlab chiqish va shakllantirishni taqozo etmoqda. Bundan tashqari, jahondagi ta’lim amaliyotida bu sohadagi izlanishlar o’tgan asrning 70-yillaridayoq boshlangan va pedagogika fanida o’ziga xos yo’nalish – media ta’lim paydo bo’lib, shakllanib bormoqda.

Axborot kommunikatsiya va media texnologiyalarini jadal rivojlantirish jarayoni bilim va ma’lumotlardan foydalanishga asoslangan zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalariga ta’sir qiladi. Shunga ko’ra, ta’lim tizimi ham axborot jamiyatining tez o’zgarib turadigan sharoitlariga moslashuvchan tarzda moslashishi kerak. Ta’lim makoniga eng yangi texno mantiqlarning kiritilishi talabalarning rolini qayta ko’rib chiqishga olib keladi, ular butun o’quv mashg’ulotlarini tashkil etishga yondashuvlarni o’zgartirishi va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalashuvda media imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, o’quv materiallari tarkibini dolzarb multimedia mazmuni bilan to’ldirishi va shu bilan yangi kompetensiyalarni shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishi kerak.

Bugungi kunda pedagog faoliyati maktab o’quvchilarining tubdan yangi avlodi ya’ni raqamli davr avlodlari bilan ishlayotganligi bilan bog’liq. Ushbu avlodning asosiy xususiyatlari-bu qiyin aloqa ko’nikmalari, psixosotsial rivojlanishning intensivligi, pragmatizm, diqqat yetishmasligi giperaktivligi buzilishi, ko’p vazifali hodisa va boshqalar. Bular aloqa madaniyati yangi turining vakillari, ular kompyuter savodxonligi asoslarini tezda o’zlashtiradilar. Shvetsiyada media ta’lim 1980-yildan boshlab ta’lim muassasalarida alohida fan sifatida o’qitila boshlangan. Media ta’limni joriy etishdan asosiy maqsad bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida ommaviy axborot vositalarining xabarlarini tanqidiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, turli xil ma’lumotlar manbalaridan olingan xabarlar haqida o’z fikrini shakllantirish, shuningdek, tomosha qilingan filmlar va teledasturlar haqida o’z fikrini bildirish qobiliyatini shakllantirish bo’lgan. 2000-yilning kuzidan boshlab mediata’lim Shvetsiya milliy o’quv dasturiga rasman kiritilgan.

“Media” atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo’llangan[3]. Yevropa Ittifoqi hujjatlarida ta’riflanishicha, mediata’lim – (media education) olingan axborot asosida o’z fikrini bildirishga qodir bo’lgan mas’uliyatli fuqarolarni tarbiyalash maqsadida mediaga tanqidiy va o’ylab munosabatda bo’lish sifatida tushunish kerak bo’lgan mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim. Bu fuqarolarga zarur axborotlardan foydalanish, uni tahlil qilish, ular bilan bog’liq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarni identifikatsiya qilish demakdir.

Mediamadaniyat – turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo’ladigan bilim, ko’nikma va malakalar yig’indisi[2]. Mediamadaniyat - shaxs madaniyati uchun zarur qism bo’lib, ommaviy media turlari, ular orqali tarqatilayotgan axborotlar bilan tanishish, ularni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholash asosida tegishli sohalar bo’yicha nazariy bilim, amaliy ko’nikma, malakalarni o’zlashtirish, puxta egallash, ushbu bilimlarni kasbiy, kundalik, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy (amaliy) faoliyatda mahorat bilan qo’llay olish qobiliyatlarining yig’indisi. Mohiyatiga ko’ra, shaxs tomonidan mediamadaniyatning o’zlashtirilishi stixiyali jarayon bo’lmay, bir necha bosqichda evolyutsion rivojlanishga asoslanadi.

Media ta’limning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirish bo’lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste’mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Yoshlar ommaviy axborot vositalarining eng faol iste’molchilari va ishlab chiqaruvchilaridir. Kundalik hayotda turli xil raqamli qurilmalar muntazam ravishda ishlatiladi. Biroq, axborot jamiyati mafkurasi doirasida faqat umumiy foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lish endi yetarli emas. Dunyo bo’ylab, u yoki bu darajada, raqamli dunyoda yoshlarning tobora ko’payib borayotgani

kuzatilmogda. Virtual makonga kirish orqali haqiqiy makonning asta-sekin torayishi mavjud. Vaziyatni va unda deyarli doimiy (ko‘pincha nazoratsiz) onlayn ishtirok etish imkoniyatini murakkablashtiradi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida o‘tib borayotgan avlodni ijtimoiylashtirishning yashirin salohiyati borligini eslash ortiqcha bo‘lmaydi. Bilvosita (faol ravishda tarqaladigan turli xil manipulyatsion texnologiyalar yordamida) ular voyaga yetmagan auditoriyaning dunyoqarashi, qarashlari va e‘tiqodlarini shakllantirishi alohida tashvish tug‘diradi. Shuningdek, yoshlarda tanqidiy fikrlash qobiliyatining yetishmasligi ko‘pincha potensial xavflarni sezishga imkon bermaydi. Natijada, ular eng zaif foydalanuvchilar toifasini tashkil qiladi. Yoshlar o‘rtasida media ta‘limning intensivligi sezilarli darajada oshib bormogda va internetga qaramlik holatlari tobora ko‘payib bormogda.

So‘nggi sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, yoshlarning deyarli uchdan bir qismi (26%) oila, do‘stlar yoki maktabni e‘tiborsiz qoldiradi, uxlamaydilar yoki internet tufayli ovqatlanmaydilar. Vaziyatning paradoksaligi shundaki, internetda vakolatli yo‘nalish bo‘yicha turli xil qo‘llanmalar ishlab chiqilgan va ulardan erkin foydalanish mumkin, afsuski, ular hali ham jiddiy ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmadi. Sotsiologik so‘rovlarning ko‘plab natijalari va o‘ziga xos ish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ham axborot manbalarining ishonchliligini baholashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar, media xabarlarining semantik aksentlarini qanday topishni va media matnlarini tanqidiy baholashni bilishmaydi.

Bugungi kun talabi bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan kasbiy standart, shuningdek, quyidagi AKT va media kompetensiyalariga ega bo‘lish zarurligini ta‘kidlaydi:

- umumiy foydalanuvchi AKT kompetensiyasi;
- umumiy pedagogik AKT kompetensiyasi,
- fan va pedagogik media kompetensiyasi.

Turli xil media matnlar bilan ishlash, olingan ma‘lumotlarning sifati va ishonchliligini baholash, manipulyativ ta‘sirga qarshi turish va konstruktiv media tadqiqotlarni shakllantirish qobiliyati asosiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, axborot manbalarini tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish juda zarur. Zamonaviy jamiyatning dinamik o‘zgarishi ilmiy sohada o‘z o‘rnini topmogda.

Raqamli davrda media savodxonligi va axborot savodxonligining yaqinlashishiga tabiiy ehtiyoj paydo bo‘ldi. Axborot savodxonligi an‘anaviy savodxonlik turlarini (o‘qish, yozish, hisoblash) bekor qilmaydi, balki ularni yangilaydi. Shu bilan birga, media ta‘lim kontekstini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin, ommaviy axborot vositalari va AKTning jadal rivojlanishi yangi vakolatlarining shakllanishini yangiladi, media va axborot savodxonligisiz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zamonaviy axborot jamiyatida harakat qilishlari qiyin, shuning uchun, seminarlar va vebinarlar o‘tkazishni faollashtirish zarur.

**Muhokama va natijalar.** So‘nggi paytlarda konseptual apparatda ma‘lum nomuvofiqliklar qayd etildi. Shu sababli, 2012-yilda YUNESKO media ta‘lim g‘oyalarini bir necha o‘n yillar davomida qo‘llab-quvvatlab, media va axborot sohasidagi bilimlarni yanada rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida media va axborot savodxonligini quyida bayon etiluvchi barcha xususiy tushunchalarni o‘z ichiga olgan murakkab tushuncha sifatida ko‘rib chiqishni boshladi:

- media savodxonligi;
- axborot savodxonligi;
- so‘z erkinligi sohasidagi savodxonlik;
- kutubxona savodxonligi;
- kompyuter savodxonligi;
- internet savodxonligi;
- raqamli savodxonlik;
- kino savodxonligi;
- elektron o‘yinlardan foydalanishda savodxonlik;
- televizion savodxonlik;
- reklama sohasidagi savodxonlik;

Mamlakatimizda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta‘limning bakalavriatura yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bosqichlarida ta‘lim oladilar.

Jahonda XX asrning ikkinchi yarmidan buyon amalga oshirilayotgan sifat o‘zgarishlarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish ehtiyoji vujudga keldi. Bugungi kunda O‘zbekiston G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan ta‘lim sohasida konstruktiv dialog olib bormogda. O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini ta‘minlash bo‘yicha Buyuk Britaniyaning ilg‘or tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu avvalambor Buyuk Britaniyada bo‘lajak boshlang‘ich o‘qituvchilarni tayyorlash tizimining Yevropada eng qadimiyligi bilan izohlanadi. Buyuk Britaniyada ko‘p yillar davomida oliy ta‘lim tizimini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligini e‘tirof etish mumkin. Bundan tashqari ushbu sohadagi nazariy va amaliy

yondashuv hamda konsepsiyalarning rivojlanishi turli xil xalqaro loyihalarda faol ishtirok etish orqali ta'minlanmoqda. Umumyevropa hamda jahon tendensiyalarini o'zida mujassam etish orqali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha Angliya modeli milliy manfaatlarni saqlagan holda rivojlanib bormoqda[3]. Shu bilan bog'liq ravishda, Angliya tajribasini o'rganish nafaqat jahon miqyosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish borasidagi umumiy tendensiyalar haqida yetarli darajada tasavvurga ega bo'lish, balki mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bilan tanishish hamda ushbu sohada qabul qilinayotgan milliy qarorlarni boshqa mamlakatlar amaliyoti bilan taqqoslash, ularning maqsadga muvofiqligini yaxshiroq baholash imkoniyatini beradi [4]. Media ta'lim pedagogikada umumiy tarzda shaxsning turli ko'rinish, janr va shakllardagi mediamatni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda mediafaoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida talabalarining media ta'limni rivojlantirish masalasi fan va amaliyot oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot talablarga mos holda talabalarining media ta'lim borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali media ta'limni rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar orasida alohida o'rin egallaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, media ta'limni rivojlantirish — ijtimoiy ta'lim kompetentligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Media ta'lim asosida talabalar bilimni rivojlantirish, ularning media sohasidagi faoliyatini hamda mediamadaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Umataliyev Z. Mediavaxfsizlik e'shlarimiz kelajagining poydevori sifatida. –Ilmiy-pedagogik va o'quv-metodik nashrlar orqali informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish: profilaktika, texnologiya, mexanizml respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – T.: 2017. 223 b.

2. Babadjanov S.S. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi («Informatika va axborot texnologiyalari» o'quv fani misolida): p.f.b.f.d (PhD) disser.... Toshkent, 2018. – B. 15

3. Sharipov Sh. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. –T., 2012. – 46 b.

4. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta'lim va tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar” “Nihol” nashriyoti. –T.2013.

5. Rustamova N. Media ta'lim va mediamadaniyat: nazariya va amaliyot. –T. “Muxarrir” 2015.

6. Mavlonova R.A., Vohidova N.H., Raxmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T.: Fan va texnologiyalar. 2010.

7. Timss 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

8. Umarov B., Jabborov Sh. Globallashuv sharoitida ma'naviy tarbiya muammolari. -T.: “Akademiya”, 2011. 156-b 9., 102-105. 2021.

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AJDODLAR MEROSINI  
O‘RGANISH ORQALI O‘QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING  
DOLZARBLIGI VA MAZMUNI**

*Sanoyev G‘aybullo Abduraxmonovich,  
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

*Maqolada boshlang‘ich sinflarda ajdodlar merosini o‘rganishning dolzarbligi, o‘quvchilarining savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ajdodlar merosini o‘rganish imkoniyatlari, mazkur jarayon bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarga oid adabiyotlar tahlili, o‘qish darslari mazmunida berilgan ajdodlar merosini o‘rganish jarayoni orqali o‘quvchilarning savodxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishda, ularning savodli, bilimli, fikrlash qobiliyati teran, dunyoqarashi keng, ma‘naviyatli va ma‘rifatli bo‘lishida, milliy qadriyatlarni hurmat qilishdagi ahamiyati, o‘quvchini badiiy so‘z san‘ati bilan ko‘proq hamroh qilish, kichik maktab yoshidan boshlab kitob mutoalasi, ajdodlar merosini o‘rganishga nisbatan qiziqish uyg‘otishga oid tavsiyalar haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘z:** ajdodlar merosi, savodxonlik ko‘nikmasi, fikrlash qobiliyati, bilim, ma‘rifat, ma‘naviyat, badiiy so‘z, ta‘lim-tarbiya, salohiyat, anglab o‘qish, ongli o‘qish, tafakkur.*

**АКТУАЛЬНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ  
ПОСРЕДСТВОМ ИЗУЧЕНИЯ НАСЛЕДИЯ ПРЕДКОВ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В  
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

*В статье рассматривается актуальность изучения наследия предков в начальных классах, возможности изучения наследия предков в развитии навыков грамотности у своих учеников, анализ литературы, касающейся научных исследований по данному процессу, в процессе изучения наследия предков, представленного в содержании уроков чтения, в развитии навыков грамотности у учащихся, их грамотности, знаний, глубоких мыслительных способностей, мировоззрения. в широком, духовном и просветленном, важность уважения национальных ценностей, речь идёт о том, чтобы больше сопровождать учеников искусством художественного слова, чтением книг с младшего школьного возраста, о рекомендациях по повышению интереса к изучению наследия предков.*

***Ключевое слово:** наследие предков, навыки грамотности, навыки мышления, знания, просвещение, духовность, художественное слово, образование, потенциал, осознанное чтение, мышление.*

**RELEVANCE AND CONTENT OF IMPROVING PUPILS' LITERACY THROUGH THE  
STUDY OF ANCESTRAL HERITAGE IN READING LESSONS IN PRIMARY GRADES**

*The article discusses the relevance of studying the heritage of ancestors in primary classes, the possibilities of studying the heritage of ancestors in the development of literacy skills of their students, the analysis of literature on scientific research conducted on this process, the development of literacy skills of students through the process of studying the heritage of ancestors given in the content of reading lessons, their, there is talk of making the student more comfortable with the art of artistic vocabulary, of recommendations from the younger school age to develop an interest in the study of the book's mutoala, ancestral heritage.*

***Keyword:** ancestral heritage, literacy skills, thinking skills, knowledge, enlightenment, spirituality, artistic word, education, potential, understanding reading, conscious reading, thinking.*

**Mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Malakatimizda uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilangan davrda jamiyatimiz uchun ham ushbu vazifalarni amalga oshirish muhimdir. Chunki, yosh avlodga berilayotgan sifatli ta‘lim va uning savodxonlik darajasiga alohida e‘tibor qaratish, «buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma‘naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta‘lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak»[1]. Ushbu yondashuv ta‘lim tizimining yuksak cho‘qqilarga chiqishiga amaliy dasturdir. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida o‘quvchi yoshlarni har tomonlama yetuk qilib

tarbiyalashda ajdodlar merosidan foydalanishni ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Buning uchun fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tashkil etish, xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga tayanish, ilmiy-nazariy va kompleks tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3907-son, 2019-yil 3-maydagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-4307-son, 2020-yil 6-noyabrdagi «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4884-son, 2021-yil 26-martdagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-5040-son, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro va milliy dasturlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda ajdodlar merosini o‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Qarori, Xalqaro va Milliy dasturlarda belgilangan strategiyalar mazkur tadqiqot uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’limda o‘qitish sifati va o‘quvchining savodxonlik ko‘nikmasini rivojlantirish muammolari, ushbu jarayonni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari masalasi R.Djurayev, Sh.Qurbonov, U.Inoyatov, R.Ahmidinov, E.Seytxalilov, R.Karimov, S.Turg‘unov, boshlang‘ich ta’lim mazmunini modernizatsiyalash va integratsiyalash, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, uning savodxonlik ko‘nikmasini baholashda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalardan foydalanish, ta’limda qadriyatli yodashuv, o‘quvchining ma’naviy tarbiyasi masalalari J.Yo‘ldoshev, R.Safarova, B.Adizov, Sh.Abdullayeva, B.Ma‘murov R.Nurjanova, G.Hasanova, N.Dilova, Z.Jalilov, H.Nazarova, G.Akramova, N.Davronov, N.Hakimovatomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchilar savodxonligini oshirish oid ayrim yondashuvlar Shatolov, Amonoshvilli, V.Arshinova, V.Budanova, V.Vinenco, V.Ignatova, S.Kurdyumova, N.Talanchuk, G.Xaken, I.Prigojin, I.Stengers, G.Nikolis, A.Klimontovich, L.Gordin, A.A.Vorojbitova, V.Andreyevlar, o‘qish savodxonligini oshirishning ilmiy nazariy jihatlari V.Ignatova, YE.Knyazeva, S.Kurdyumova, G.Malinetskiy, L.Makarova, Y.Sharonin, S.SHeveleva, V.Matkin, O.Fedorovlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Horijda zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi savodxonligini oshirishga oid turli ta’lim nazariyalari Sh.Sharon, M. Montessori, R.Ganye, Dj.Brigs, L.Stross, R.Slavin, R.Djonson, D.Djonson, YE.Arasonlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahlilardan ko‘rinib turibdiki, olib borilgan tadqiqotlarda ajdodlar merosini o‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi alohida mavzu asosida maxsus tadqiq etilmagan. Shu ma’noda biz ilmiy ishimiz bo‘yicha bir qator vazifalarni belgiladik va ularni bajarish jarayonida takomillashtirilgan ilmiy natijadlarga erishdik.

**Asosiy qism.** Ilm-fan jadallik bilan rivojlanayotgan, inson tafakkurining imkoniyati yuksalib borayotgan davrda mamlakatimizda ta’lim tizimi xalqaro standartlar hamda milliy dasturlar asosida shunday tashkil etilganki, hech bir kishi ta’lim olishdan chetda qolmaydi. Вu маъсулиятли вазифани сифатли амалга ошириш мактаб таълим тизими зиммасига юклатилган. Бошланғич синфдан бошлаб ўқувчининг savodxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri – таълим-тарбия жараёнида ajdodlar merosini ilmiy va badiiy manbalar asosida пухта ўзлаштириш орқали уларнинг онгли, равон ўқиш малакалари, оғзаки ва ёзма нутқи, savodxonlik кўникмаларини bosqichma - bosqich rivojlanitirish asosida сўз бойликларини ошириб бориш муҳим аҳамият касб этади.

Qadimdan savodlilik insonning eng go‘zal xislatlardan biri sanalgan. Bu haqda qator asarlarda ham aytilgan. Jumladan, Hazrat Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Lison ut-tayr”, Munisning “Savodi ta’lim” kabi asarlarida bu masalaning na qadar nozikligi va lozimligi haqida uqtirilgan. Hatto, Bobur ham o‘z “Boburnomasi”da til sofligini ta‘minlash maqsadida davlat rahbari sifatida qilgan islohotlari haqida so‘zlaydi.

Boshlang‘ich sinf fan dasturlari mazmunida berilgan ajdodlar merosini o‘rganish jarayoni o‘quvchilarning savodxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishda, ularning savodli, bilimli, fikrlash qobiliyati

teran, dunyoqarashi keng, ma’naviyatli va ma’rifatli bo’lishida, milliy qadriyatlarni hurmat qilishida samarali o’rin egallaydi. Shu ma’nodan savodlilikning eng muhim omillaridan biri, bu - maktab o’quvchisini badiiy so’z san’ati bilan ko’proq hamroh qilishdir. Bu yo’lda ustozlarimiz o’quvchilarda kichik maktab yoshidan boshlab kitob mutoalasi, ajdodlar merosini o’rganishga nisbatan qiziqish uyg’otishi kerak.

Boshlang’ich sinf o’qituvchilari maktabga qadam qo’yan bolani pedagogik psixologik jihatdan o’rganib, o’qish ko’nikmalarini “Alifbe” darsligi asosida sabr va matonat bilan hosil qiladi. Birinchi sinflarda tovushlarni o’rgatish - tovushni harfga, harfni tovushga aylantirish - aqliy faoliyati murakkab jarayon bo’lib, egallangan ko’nikmalar natijasida o’qish darsliklarida berilgan ajdodlar merosiga oid matn namunalarida berilgan murakkab so’zlarni o’qish malakasini egallash osonlashadi.

Mavzu bo’yicha belgilab olgan vazifalarimiz quyidagilardan iborat:

boshlang’ich sinf o’quvchilarining savodxonlik ko’nikmalarini ajdodlar merosini o’rganish orqali rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va nazariy asoslarini aniqlashtirish;

boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy kompetentlik darajasini baholash mezonlarini ta’lim oluvchilarning savodxonlik ko’nikmasiga egaligini ajdodlar merosini o’rganish jarayonida egallangan bilimlarni namoyon etishga oid elementlarni aniqlash;

ajdodlar merosini o’rganish jarayonida boshlang’ich sinf o’quvchilarining savodxonlik ko’nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi, shakl, usul, vositalarini takomillashtirish

boshlang’ich sinflarda ajdodlar merosini o’rganish jarayonida o’quvchilarining savodxonlik ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan maqsadli mashqlar va metodik tavsiyalarni takomillashtirish.

Ishimizda obekt sifatida boshlang’ich sinf o’quvchilarining savodxonlik ko’nikmalarini rivojlantirishda ajdodlar merosini o’rganish jarayonini va predmet sifatida ajdodlar merosini o’rganish jarayonida boshlang’ich sinf o’quvchilarining savodxonlik ko’nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning mazmuni, shakli, metodi, vositalari va texnologiyalarini belgilab olidik.


Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, dars tahlillari, matn tahlillari, tajriba-sinov, so’rovnoma, test, suhbat, natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanib quyidagi ilmiy yangiliklarga erishdik:

boshlang’ich sinf o’quvchilarining savodxonlik ko’nikmalarini ajdodlar merosini o’rganish orqali rivojlantirishning aksiologik munosabatlarga asoslangan strategik tuzilmasi mezonlari (ijtimoiy, kasbiy, refleksiv, akmeologik), ta’limiy-tarbiyaviy pedagogik shart-sharoitlari (shakl, metod, vositalar)ni o’qitish jarayonida innovatsion faollikni rivojlantirish usullari (refleksiya sinergiyasi, zaruriy motivlar) bilan integratsiyalash prinsiplariga ustivorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy kompetentlik darajasini baholash mezonlarini ta’lim oluvchilarning savodxonlik ko’nikmasiga egaligini ajdodlar merosini o’rganish jarayonida egallangan bilimlarni namoyon etishga oid elementlar aniqlangan;

ajdodlar merosini o’rganish jarayonida boshlang’ich sinf o’quvchilarining savodxonlik ko’nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi, shakl, usul, vositalari kollaborativ, kommunikativ, kreativ yondashuvlarga asoslangan holda takomillashtirilgan;

boshlang’ich sinflarda ajdodlar merosini o’rganish jarayonida o’quvchilarining savodxonlik ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan maqsadli yakka, juftlikda, hamkorlikda ishlashga yo’naltirilgan tizimli interfaol mashqlar va yosh davrlarining o’zlashtirish imkoniyatlaridan kelib chiqib turli darajadagi metodik tavsiyalar takomillashtirilgan.



1-rasm. Ajdodlar merosini o’rganish jarayonida boshlang’ich sinf o’quvchilarining savodxonlik ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan obekt-subekt faoliyati mazmuni



Ushbu faoliyatni bevosita maktab ostonasidan boshlab samarali tashkil etish savodxon, bilimli, iqtidorli va faol yoshlarni tarbiyalash ushuni asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu vazifani sifatli amalga oshirishda ta‘lim jarayonining uzviy integratsion hamkorligini tashkil etish va ўzaro aloqador hamkorlikdagi ўqув faoliyatlarining ishtirokchi subyektlarini aniqlashtirish lozim bo‘ladi (1-rasmga qarang).

Boshlang‘ich ta‘limda ajdodlar merosini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan obekt-subekt faoliyati mazmuni aksiologik yondashuvlarga asoslangan holda takomillashtirilsa, bu yosh avlodning savodxonlik darajasini oshirish bilan birga uning ijtimoiy rivojlanishi ushuni potensial imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Yosh avlod ongida ijtimoiy ma‘ullik, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish ko‘nikmalarini tarkib toptirish ko‘p jihatdan mavjud shart-sharoitlar va ta‘lim-tarbiya mazmunini sifati bilan bevosita bog‘liq.

“Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”[2] ekanligi nuqtayi nazaridan boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarga sifatli ta‘lim berish, o‘qish darslarida ajdodlar merosini puxta o‘zlashtirish o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Ma‘lumki o‘qish darslarining maqsad va vazifasi o‘quvchilarning og‘zaki va bog‘lanishli nutqini o‘stirish, lug‘atini boyitish, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat bo‘lib, aynan ajdodlar merosini o‘rganish jarayoni quyidagi savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘qish darslarida ajdodlar merosini o‘rganish jarayonida qo‘yilgan ta‘limiy va tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog‘liq bo‘lib qolmay, balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o‘zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o‘zaro bog‘liq bo‘lishi lozim. O‘quvchilarni ongli savodxon sifatida o‘qishga o‘rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko‘riladi.

Boshlang‘ich sinflarda ajdodlar merosini o‘rganish jarayonida bolalarda go‘zallikka muhabbat uyg‘otadigan, poklik tuyg‘ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o‘tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o‘stiradigan fanlar integratsiyasiga asoslanishi zarur omillardan biridir. Ajdodlar merosini o‘rganish jarayonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning shaxs sifatida ma‘naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi (1-jadvalga qarang). Mazkur jarayonda o‘quvchi ajdodlarimiz hayoti bilan tanishtiruvchi matndan tashqari jadval, diagrammalardagi topshiriqlarni mantiqiy fikrlab, tanqidiy, kreativ yondashsagina o‘quvchining savodxonlik ko‘nikmasi oshib boradi.

1-jadval.

**Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ajdodlar merosini o‘rganish mazmuni**

| Sinflar | O‘quvchi savodxonligiga qo‘yilgan talablar  | Bo‘lim va mavzular nomlari   |
|---------|---|--|
| 1-sinf  | (O‘quvchilar matnni ongli to‘g‘ri va bo‘g‘inlab o‘qishni o‘rganadilar. Buni faqat ona tili va o‘qish savodxonligi darslaridagina emas, balki barcha predmet fanlar yuzasidan ham o‘tkaziladigan darslarda va maktabdan tashqari uyushtiriladigan mashg‘ulotlar jarayonida ham kuzatib borishga alohida ahamiyat berish zarur) | <b>Biz buyuklar avlodi</b>   |
|         |   | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Amir Temur</li> <li>2. Amir Temur o‘g‘itlari</li> <li>3. G‘azal mulkingning sultoni</li> <li>4. Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlari</li> <li>5. Alisherning yoshligi</li> <li>6. Non isi</li> <li>7. Ali ibn Sino kitobga mehr</li> <li>8. Buyuk munajjim</li> <li>9. Shoh va shoir</li> <li>10. Ona sabog‘i</li> </ol> |
| 2-sinf  | (O‘quvchilarda so‘zlarni butunligicha o‘qish malakasi shakllanadi. O‘qishning to‘g‘ri ifodali bo‘lishiga erishiladi. O‘qish sur‘ati tezlashadi. bu sinfda o‘quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni ichida mustaqil o‘qishga   | <b>Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi</b>  |
|         |   | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tilingni avayla — omondir boshing</li> <li>2. Ibn Sinoning bolaligi</li> <li>3. Amir Temur haqida hikoya</li> <li>4. Non – ulug‘ ne‘mat</li> <li>5. Nima eksang, shuni o‘lasan</li> </ol>  |

|               |  |   |
|---------------|--|---|
|               | o‘tadilar. Matn ustida ishlash esa murakkablashib boradi)  | 6. Ta‘zir<br>7. Mehmon keldi<br>8. Kichkina Alisher<br>9. Alisher Navoiy  |
| <b>3-sinf</b> | (O‘quvchilar so‘zlarni butunligicha to‘la o‘qish ko‘nikmasi shakllanadi. So‘zlarni to‘g‘ri tanlashga, gap tuzishidagi so‘zlarning bir–biriga bog‘lanishidan to‘g‘ri foydalanish talab etiladi)   | <b>Ulug‘lardan o‘rganmoq – oqillik</b><br>1. Zehni o‘tkir bola<br>2. Ibn Sinoning shogirdlari<br>3. Elim deb, yurtim deb yashagan inson<br>4. Sohibqiron Temur bobo<br>5. Donolarning donosi<br>6. Navoiyning do‘sti<br>7. Zahiriddin Muhammad Bobur<br>8. Sayilda<br>9. Hotamning toyi |
| <b>4-sinf</b> | (O‘quvchilar so‘zlarni bo‘g‘inlamay o‘qishlari, matnni tez, to‘g‘ri, ongli o‘qiy olishlari kerak. Bu sinfda o‘quvchilarni bo‘g‘inlab o‘qishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. bolalar o‘qilgan matn mazmunini mustaqil ravishda qayta hikoya qilishlari, matn yuzasidan sodda reja tuza olishlari, uning asosiy mazmunini ajrata olishlari zarur) | <b>Buyuk allomalarga munosib vorislarmiz</b><br>1. Najmiddin Kubro<br>2. Sulton Mahmud va Beruniy<br>3. Ibn Sino bilan tabib<br>4. Pahlavon va shoir<br>5. Hidi, tilimi va mazasidan  |

1-jadvalda ajdodlar merosini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar savodxonligini bosqichma-bosqich oshirib borishga qaratilgan davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib hayotga bog‘lab o‘tilishi uning o‘quvchilarga ta‘sirchanligi va ongli idrok etishlarini ta‘minlaydi.

Boshlang‘ich sinflarda va sinfdan tashqari tadbirlarda ajdodlarimizdan: Imom al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Husayn Voiz Koshifiy, Ahmad Donish, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Bobir kabilarning hayoti va ijodini o‘rganishda ular yozib qoldirgan bebaho asarlarni o‘rganish yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning savodxonlik darajasi, so‘z boyligi oshadi, ijodiy faoliyati rivojlanib, iste‘dodi yuzaga chiqishini kafolatlaydi.

Natijada, o‘qish darslari mazmunida berilgan ajdodlar merosini o‘rganish jarayonida noan‘anaviy tarzda o‘tkazilgan “So‘z ma‘nosi”, “Lug‘at ishi”, “So‘zni toping”, “So‘z ma‘nosi” kabi metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligi oshib, savodxonlik ko‘nikmasi rivojlanishiga erishildi. Demak, boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning savodxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishda ularning diqqat va e‘tiborini, qiziqishini, tashqi va ichki faolliklarini inobatga olish lozim. Bunda tashqi faollik – tashqaridan va o‘z ichki istak-hohish ta‘sirida o‘quvchining bevosita ko‘rish, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlari tushuniladi. Ichki faollik esa –u yoki bu faoliyatni o‘quvchi tomonidan bajarish mobaynidagi pedagogik – psixologik jarayonlarni o‘z ichiga oladigan faoliyat tushuniladi. Faoliyat pedagogikada psixologik qonkniyatlarga tayangan holda o‘ziga o‘quv-biluv jarayonida turli shakl va metodlar orqali, maxsus didaktik tomoyillarni qo‘llash asosida tashkil etiladi. Chunki o‘quvchi faoliyati o‘quv jarayonida bilimlarni o‘rganish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilishi asosida bilishga oid, yaratuvchilik, estetik, kommunikativ vazifalarini bajaradi. Shuningdek, mazkur vazifalar maqsad, faoliyat predmeti, vositalari, bajarish usullari natija bilan amalga oshadi.

**Xulosa.** Ajdodlar merosini o‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish holatini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni asosladi, savodxonlik bu inson uchun hayotiy ko‘nikma sifatida eng muhim omil hisoblanib, boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilar savodxonligini rivojlantirib borish, ayniqsa ajdodlar merosi namunalarni o‘rganish, ijtimoiy hamda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar, dunyo bilan o‘zaro uyg‘un munosabatlarga erishish, qadriyat va me‘yorlarning turli tizimlari ichki birligini anglash uchun insonning o‘z ma‘naviy olamini rivojlantirishi va amalga oshirishi kabi o‘ziga xos belgilarga ega qadriyatli-dunyoqarashga doir subkompetentlik sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘quvchilarning savodxonlik ko‘nikmasini puxta egallashi kelajakda aholining madaniy saviyasi ko‘rsatkichlarini oshirishga, insonning adabiy til normalariga muvofiq keladigan og‘zaki va yozma nutq malakalariga, ularni o‘qish va yoza olish ko‘nikmasiga, muayyan soha bo‘yicha

mukammal bilimga, shaxsiy va hayotiy ko‘nikmalarga, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida shaxsning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ruhiy saviyasini oshirib borish ko‘nikmalariga egaligi bilan ahamiyatlidir.

Milliy dasturda berilgan maqsad va vazifalarga asoslanib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari egallashi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hamda kompetensiyalar dars jarayonida zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini maqsadli qo‘llashning nazariy - metodologik tahlillarga tayangan holda o‘qituvchilar savodxonligini rivojlantirishning tuzilmali modeli aksiologik imkoniyatlarga yondashilgan holda takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilar savodxonligini rivojlantirishda ajdodlar merosini o‘rganish jarayoniga alohida e‘tibor qaratish, bunda ta‘limning uzviylik va uzluksizlik, insonparvarlik, qadriyatli yondashuv tamoyillarini hisobga olish, bilim berishda ilmiy asoslangan, o‘quvchi yoshiga mos mazmundagi o‘quv materiallari bilan boyitish zarur.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini ajdodlar merosini o‘rganish asosida rivojlantirishga erishishda maktab va maktabdan tashqari kutubxona, televideniye, muzeylar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, mavjud tarixiy obidalarda sayohatlar uyushtirishga oid rejalar ishlab chiqish hamda ta‘lim muassasasining oila va mahalla instituti bilan hamkorligini mustahkamlash zarur.

3. Ta‘lim muassasalarining o‘ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda “Ajdodlar merosini o‘rganamiz” rukni ostida devoriy gazetalar, tadbir va tanlovlar tashkil etib o‘tkazish ishlarini tizimli amaliyotga joriy etishga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ajdodlar merosini o‘rganish jarayonida duch keladigan tarixiy so‘zlar bo‘yicha lug‘at to‘plamlari tayyorlash, mazkur mavzularni o‘rganish va o‘zlashtirish sifatini oshirishga yordam beruvchi, yosh o‘qituvchilarning foydalanishlari uchun dars ishlanmalari, video darslar va metodik tavsiyalar bankini yaratish lozim.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘qituvchi va ziyolilarga murojaati (2020). <https://uza.uz/uz/posts/prezident-ituvchi-va-ziyelilarga-murozhaat-ilmo-da-30-09-2020>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020-yil.

3. Sanoyev G‘. Boshlang‘ich ta‘limda kichik guruhlarda ishlash afzalliklari.// “Ta‘limda innovativ-kreativ texnologiyalarning qo‘llanilishi, neyrolingvistik dasturlashning amaliy asoslari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami, 2021 yil 27-dekabr. № 06.-B. 577-580.

4. Sanoyev G‘. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga tayyorlash.// “Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023-yil 19-20-oktabr. № 06.-B.20.

5. Sanoyev G‘. Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ajdodlar merosidan foydalanish zarurati.//“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi: maktabgacha ta‘lim tizimining Innovatsion rivojlanish istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2023-yil, 17-noyabr . № 06.-B. 770-774.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

**“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
  - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
  - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
  - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UO‘K (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma‘lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familialari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familialari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma‘ruzalari chop etilmaydi. **E‘lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

**E-mail:** [nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

**Telegram raqami:** +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

|  |  |  |
|--|--|--|
| <p><b>PEDAGOGIK<br/>MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik<br/>jurnal</b></p> <p><b>2023-yil 11-son (99)</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan<br/>chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p> | <p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:</b><br/><b>Nigora SAYFULLAYEVA</b><br/><b>Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA</b><br/><b>Musahhah: Sarvinoz RAXIMOVA</b></p> | <p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 29.12.2023<br/>Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.12.2023<br/>Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8<br/>Tezkor bosma usulda bosildi.<br/>Shartli bosma tabog‘i – 20,6<br/>Adadi – 100 nusxa<br/>Buyurtma № 21<br/>Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT”<br/>MCHJ bosmaxonasida chop etildi.<br/>Bosmaxona manzili: Buxoro shahri<br/>Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p> |
|--|--|--|